Qarshi davlat universitetining Pedagogika instituti

SHAHRISABZ DAVLAT MUZEY QO'RIQXONASI

O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA MODDIY-MADANIY YODGORLIKLAR VA MUZEYLARNING O'RNI

(QASHQADARYO MODDIY-MADANIY YODGORLIKLARI VA MUZEYLARI MISOLIDA)

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya to'plami

5-may, 2022-yil

I–QISM

SHAHRISABZ

O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA’LIM VAZIRLIGI

TURIZM VA MADANIY MEROS VAZIRLIGI

QARSHI DAVLAT UNIVERSITETINING
PEDAGOGIKA INSTITUTI

QASHQADARYO VILOYAT TARIXI VA
MADANIYATI DAVLAT MUZEYI

SHAHRISABZ DAVLAT MUZEY QO`RIQXONASI

O’ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA MODDIY-MADANIY YODGORLIKLAR VA MUZEYLARNING O’RNI (QASHQADARYO MODDIY-MADANIY YODGORLIKLARI VA MUZEYLARI MISOLIDA)

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

5-may, 2022-yil

THE ROLE OF CULTURAL MONUMENTS AND MUSEUMS IN TERMS OF TE DEVELOPMENT OF TOURISM IN UZBEKISTAN (ON THE EXAMPLE OF CULTURAL MONUMENTS AND MUSEUMS OF KASHKADARYA)

International scientific-practical conference
May 5, 2022 y

РОЛЬ ПАМЯТНИКОВ МАТЕРИАЛЬНОЙ И ДУХОВНОЙ КУЛЬТУРЫ МУЗЕЕВ В РАЗВИТИИ ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ (НА ПРИМЕРЕ КАШКАДАРЬИНСКИХ ПАМЯТНИКОВ И МУЗЕЕВ)

Международная научно-практическая конференция

5 мая 2022 г

I – QISM

SHAHRISABZ – 2022

ANJUMAN TASHKILIY QO‘MITASINING TARKIBI:

G‘aniyev A.	QarDU PI direktori, rais
Marasulova U.	QarDU PI Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha direktor o‘rinbosari, rais o’rinbosari
Xudoyqulov T.	QarDU PI O’quv ishlari bo’yicha direktor o‘rinbosari, a’zo
Rahimov Z.	QarDU PI “Maktabgacha va boshlang’ich ta`lim metodikasi” kafedrasi professori, p.f.d., a’zo
Muhammadiyev A.	QarDU PI “Tillar” fakulteti dekani, a’zo
Tilayev E.	QarDU PI “Pedagogika” fakulteti dekani, a’zo
Mamatov M.	QarDU PI Sirtqi bo’lim boshlig’i, a’zo
Shoymardonov I.	QarDU PI Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlash bo’lim boshlig’i, a’zo
Omonov B.	QarDU PI “Gumanitar fanlar” kafedrasi mudiri, a’zo
Bobojonov Sh.	QarDU PI “O’zbek tili va adabiyoti” kafedrasi mudiri, a’zo
Hamrayev Sh.	QarDU PI “Maktabgacha va boshlang’ich ta`lim metodikasi” kafedrasi mudiri, a’zo
Jonqobilov I.	QarDU PI “Gumanitar fanlar” kafedrasi dotsenti, a’zo
Nomozov X.	QarDU PI “Gumanitar fanlar” kafedrasi o’qituvchisi, a’zo
Xudoyorov L.	QarDU PI “Gumanitar fanlar” kafedrasi o’qituvchisi, a’zo
Baratov H.	QarDU PI “Gumanitar fanlar” kafedrasi o’qituvchisi, a’zo
Bobojonov B.	QarDU PI “Gumanitar fanlar” kafedrasi o’qituvchisi, a’zo
Mahmudov S.	QarDU PI “Gumanitar fanlar” kafedrasi o’qituvchisi, a’zo
Shukurov S.	QarDU PI “Gumanitar fanlar” kafedrasi o’qituvchisi, a’zo
Xayrullayeva M.	QarDU PI “Gumanitar fanlar” kafedrasi o’qituvchisi, a’zo.

Taqrizchilar:

B.Eshov *tarix fanlari doktori, professor*

Yu. Ergasheva *tarix fanlari doktori, professor*

To`plamda nashr etilgan maqola va tezislardagi ma’lumotlarning haqqoniyligiga mualliflar ma’suldir.

Qarshi davlat universitetining Pedagogika instituti navbatdan tashqari Kengashining 5-sonli Qaroriga asosan nashrga tavsiya qilingan.

KIRISH SO‘ZI

Mamlakat iqtisodiyotiga, uning ichki mahsulotining ko‘payishiga salmoqli hissa qo‘shadigan muhim sohalardan biri bu hozirgi davrda turizm sohasi bo‘lmoqda. Shuning uchun ham dunyoning ko‘plab mamlakatlarida bu soha iqtisodiyotning yetakchi tarmoqlaridan biriga aylangan. Xalqaro turizm iqtisodiy o‘sishni ta’minlash, valyuta tushumini oshirish, jahon xo‘jalik tizimiga integratsiyalashish, yangi ish o‘rinlarini yaratish orqali ijtimoiy muammolarni hal etish, iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari, xususan, ijtimoiy va ishlab chiqarish infratuzilmasini rivojlantirishda muhim rol o‘ynashini jahon tajribasi ko‘rsatmoqda. Turizm sohasi bundan tashqari tashqi ijtimoiy-siyosiy munosabatlar o‘rnatilishida, turli xalqlar madaniyati, an’analari, urf-odatlari bilan tanishishda ham muhim omil bo‘lmoqda.

Hozirgi kunda turizm avtomobilsozlik va neftni qayta ishlash sohasidan keyin uchinchi o‘rinni egallab, eng serdaromad sohaga aylanib ulgurdi. Uning jahon yalpi ichki mahsulotidagi ulushi 10 % dan ko‘proqni tashkil etmoqda, tarmoqda jahondagi mehnatga qobiliyatli aholining 8 % ga yaqini ish bilan band, turizm xizmatlari jahon eksportining 7 % dan ko‘prog‘ini tashkil qiladi.

Respublikamizda ham xalqimizning bebaho tarixiy, moddiy-madaniy yodgorliklarini asrab-avaylash, ularni chuqur o‘rganish, yosh avlodga targ‘ib qilish, muzeylar faoliyatini doimiy takomillashtirib borish, ichki va tashqi turizmni har tomonlama rivojlantirish davlat siyosati darajasiga ko‘tarildi. Shu nuqtai nazardan qaraganda Qarshi davlat universitetining Pedagogika instituti tomonidan "O‘zbekistonda turizmni rivojlantir-ishda moddiy-madaniy yodgorliklar va muzeylarning o‘rni (Qashqadaryo moddiy-madaniy yodgorliklari va muzeylari misolida)" mavzusida xalqaro ilmiy amaliy konferen-siya tashkil etildi. Bu konferensiyaning asosiy maqsadi – O‘zbekistonda turizmni rivojlantirishda moddiy-madaniy yodgorliklar va muzeylarning o‘rnini ko‘rsatish, ichki va tashqi turizmni xalqaro miqyosda taraqqiy ettirishda ularning ahamiyatini e’tirof etishdan iborat.

Mamlakatimizda juda ko‘plab moddiy-madaniy yodgorliklar mavjud. Jumladan, Qashqadaryo viloyatida 894 ta madaniy meros obyektlari, shundan 820 ta yodgorlik va 37 ta me’moriy ansambl ro‘yxatga olingan bo‘lib, 216 tasi respublika va 678 tasi mahalliy ahamiyatga molik obyektlar hisoblanadi. Tarixiy obidalarning 140 tasi YUNESKO tomonidan muhofaza etiladigan tarixiy yodgorliklar sirasiga kiritilgan. O‘tgan yili yurtimizga 7 mln. ga yaqin sayyoh kelgan. 2022 yilda esa ularning sonini 10 mln. ga yetkazish rejalashtirilgan. Bu orqali turizm xizmatlari eksporti joriy yilda 1,5 mlrd. dollarni tashkil etdi, keyingi 5 yilda 3 mlrd. dollargacha oshiriladi. Tashkil etilayotgan mazkur konferensiya ushbu vazifalarning bajarilishida muayyan darajada xizmat qiladi. Ushbu konferensiya ilmiy to‘plamidagi maqolalar tarix, moddiy-madaniy yodgorliklar, muzeylar, ularni asrab-avaylash, tarixiy geografiya bilan ichki turizmning bog‘liqligi, tarixiy o‘lkashunoslik, turizm va muzeyshunoslik nuqtai nazaridan tahlillar, Qashqadaryo vohasida turizmni rivojlantirish istiqbollari, muzey eksponatlarini asrab-avaylash texnologiyalari, ochiq muzeylar, muzey pedagogikasi kabi masalalarga bag‘ishlangan.

G‘aniyev Abduqahhor Gadoyevich,
Qarshi davlat universitetining
Pedagogika instituti direktori

I SHO’BA: O’ZBEKISTONDA TURIZM VA REKREATSIYANI RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK MUAMMOLARI VA IMKONIYATLARI

“NIVELIRLASH” MAVZUSIDA LABORATORIYA MASHG‘ULOTLARINI O’TISHDA INTERFAOL METODLARDAN FOYDALANISH

Jankobilov Ilxomiddin Xolmuratovich,
QarDU PI dotsenti

Mamlakatimiz ijtimoiy ma’naviy hayotining barcha sohalarida bo‘lganidek, ta’lim sohasida ham keng qamrovli islohatlar yo‘lga qo‘yildiki, bunda ta’lim-tarbiya tizimiga, oliy ta’limning o‘quv – tarbiya jarayoniga zamonoviy pedagogik va axborot texnologiyalarini olib kirish orqali ta’lim sifatini uzliksiz ravishda takomillashtirib borish, uning sifatini yuqori darajaga ko‘tarishni talab etmoqda.

Yuqorida takidlab o‘tilganlardan kelib chiqqan holda ushbu maqolaning asosiy maqsadi oliy ta’lim muassasalari 60111000 – “Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari” ta’lim yo‘nalishining 1-kursida “Topografiya va kartografiya asoslar” fanida o‘tiladigan “Nivelirlash” mavzusidagi laboratoriya mashg‘ulotlarida pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanishda asosida uning hozirgi kundagi eng dolzarb masalalaridan biri ekanligini nazariy va amliy jihatdan ko‘rsatib berish iboratdir.

Nivelirlashning bir qancha turlari bor – geometrik, tirgonometrik, barometrik, mexanik , gidrostatik va h.z. Shular ichidan ayrim nivelirlash turlarini qarab chiqamiz.

Geometrik nivelirlashda asosan nivelir va reyka ishlatiladi. Bu usulda nuqtalar orasidagi nisbiy balandligi aniq o‘lchanadi. Shuning uchun ham nuqtalarning nuqtalarning balandligini aniq topish talab qilinadigan ishlarida, balandlik tayanch punkitlari va plan olish nuqtalarini barpo qilishda, shuningdek turli xil inshootlar qurishda geometrik nivelirlashdan foydalaniladi.

Trigonometrik nivelirlashda nivelirlanadigan nuqtalar orasidagi chiziq uzunligi va uning og‘ish burchagi o‘lchanadi. Joydagi nuqtalarning nisbiy balandligini aniqlashda nivelirlash reykasi va teodolit – taxeometrdan foydalaniladi.

Nivelirlashning keng tarqalgan usullaridan biri barometrik nivelirlashdir. Barometrik nivelirlash balandga ko‘tarilgan sari havo bosimining kamayib borish

qonuniyatiga asoslangan. Bunday nivelirlashda havo bosimini o‘lchaydigan asbob – barometr ishlatiladi. Barometrik nivelirlashdan turli ekspeditsiyalarda, geologik, geografik va boshqa ilmiy tekshirish ishlarida, biron joyning relyefini dastlabki o‘rganishda va tekshirishda foydalaniladi.

Hozirgi vaqtda ta’lim jarayonlarini faollashtiruvchi ta’lim texnologiyalari to‘g‘risida ko‘plab o‘slubiy qo‘llanma va darsliklar yaratilgan [1-2]. Mazkur ishlarda ta’li va tarbiya jarayoda pedagogik va axborat texnologiyalarida foydalanishning muhim jihatlari ko‘rsatib o‘tilgan.

Talabalarni “Niveliralsh” mavzusidagi laboratoriya ishlariga e’tiborini jalb qilish uchun dastlab blits so‘rovlar o‘tkaziladi. Chunki blits surov – talabalarning zaruriy bilimlarni o‘zlashtirish jarayonidagi harakatlar ketma-ketligini to‘g‘ri tashkil qilishga, mantiqiy fikrlashga, o‘rganayotgan predmet asosida xilma xil fikrlar, ma’lumotlar ichidan keraklilarini tanlab olishni, shu bilan birga o‘zgalar fikrini hurmat qilishni hamda ularga o‘z fikrini o‘tkaza olishni o‘rgatadi.

Talabalarga mashg‘ulotni o‘tkazish tartibi haqida tushuncha beradi

O‘qituvchi mavzuga tegishli savollar yozilgan tarqatma materiallarni talabalarga tarqatadi

Talabalar belgilangan vaqt ichida savollarga javob yozishadi.

O‘qituvchi javoblar varaqasini yig‘ib oladi. Noto‘g‘ri javob berilgan yoki javobsiz qolgan savollar bo‘yicha talabalarga ma’lumot beradi.

Blits – so‘rov

1. Nivelir deganda nimani tushunasiz?
2. Nivelirlash deganda nimani tushunasiz?
3. Nivelir va nivelirlashning bir-biridan farqli xususiyatlari nimada?
4. Nivelirlashning qanday turlarini bilasiz?

Talabalar bilits savollariga javob bergandan so‘ng yuqorida qayd qilib o‘tilgan nivelirlash turlari ichidan geometrik nivelirlashning muhim jihatlarini o‘rganishga kirishamiz. Chunki, geometrik nivelirlash nazariy va laboratoriya hamda dala amaliyotlarida ko‘proq ishlatiladi. Shuning uchun ham biz Venn diagrammasidan foydalangan holda talabalar bilimini sinab ko‘rishga harakat qilamiz.

Ma’lumki, geometrik nevilirlash jarayonida ikki xil o‘lchash ususlidan foydalaniladi. YA’ni oldindan va o‘rtadan nivelirlashlardan. Talablarga bu usullarning o‘xshashlik va farqli tomonlarini asoslab berish talab etiladi. Ularga bu vazifani bajarishda venn diagrammasidan foydalanish imkoni beriladi. Chunki, Venn diagrammasi asosida oldindan va o‘rtadan geometrik nivelirlashlarning - geometrik nivelirlashning ikki xil o‘lchash usuli ekanligini va ularning umumiy jihatlari mavjudligini oson tushunishga imkonini beradi. Ular berilgan topshiriqni quyidagi tartibda bajarish imkoniga ega bo‘ladi.

Nivelirlash mavzusiga oid Venn diagrammasini to‘ldiring



VENN diagrammasi 1-chizma

Mashg‘ulotning davomi sifatida talabalarga innovatsion ta’limning klaster tuzish texnologiyasi asosida nivelirlash va ularning turlari hamda usullari haqidagi bilimlarini tekshirish vazifasi beriladi.

"Klaster" atamasi ingliz tilidan olingan bo‘lib «cluster» - bog‘lam yoki tarmoqlar kabi ma’nolarni anglatadi Klaster tuzish jarayoni quyidagi tartibda amalga oshiriladi:

-birinchi darajali markaziy aylanaga asosiy tushuncha “Nivelirlash” so‘zi yoziladi;

-ikkinchi darajali aylanalarga -“Nivelirlash” turlarini ochib beruvchi tushunchalar yoziladi;

-uchinchi darajali aylanalarda har bir nivelirlash turlarining o‘ziga xos o‘lchash usullari haqidagi batafsil ma’lumotlar beriladi.

Bu vazifani bajarish uchun talabalarga Klaster tuzish yo‘riqnomasi va uni bajarish jarayonida nimalarga e’tibor qaratish lozimligi ko‘rsatib o‘tiladi.

Klaster tuzish uchun o‘quvchilarga yo‘riqnoma

Klaster tuzish qoidasi bilan tanishtirish

Doskaga yoki katta qog‘oz varag‘ining o‘rtasiga “Nivelirlash” so‘zi yoziladi

Birikma yoki bog‘lam bo‘yicha ikkinchi darajali aylanalarga nivelirlashning asosiy turlari yozilib chiziqlar yordamida birinchi darajali aylanadagi asosiy so‘z birlashtiriladi.

Birikma yoki bog‘lam bo‘yicha uchinchi darajali aylanalarga nivelirlash usullari to‘g‘risidagi so‘zlar yozilib chiziqlar yordamida ikkinchi darajali aylanalar bilan birlashtiriladi.

Yozuvni ajratilgan vaqt davomida yoki g‘oyalar tugaguncha davom etishi mumkin.

Topshiriqni bajarish jarayonida quyidagilarni e’tiborga oling

Aqlingizga nima kelsa barchasini yozing. G‘oyalar sifatini muhokama qilmang faqat ularni yozing

Xatni to‘xtatadigan imlo xatolarga va boshqa omillarga e’tibor bermang



1-chizma Nivelirlash mavzusida tuzilgan Klaster texnologiyasi

Ajratilgan vaqt tugamagancha yozishni to‘xtatmang. Agar aqlingizga g‘oyalar kelishi birdan to‘xtasa, u holda qachonki yangi g‘oyalar kelmagunucha qog‘ozga rasm chizib turing.

Yuqorida takidlab o‘tilganlar asosida quyigicha xulosaga kelish mumkin. Bugungi kunda ta’lim jarayoni samaradorligini oshirish, ta’lim oluvchilarning mustahkam nazariy bilimini, faoliyatini, ko‘nikma va malakalarini shakillantirish va bularning barchasini o‘zlarining kasbiy mahoratga aylantirishini ta’minlash maqsadida o‘qitish jarayonida innovatsion texnologiyalardan foydalanish davr taqozasi hamda ijtimoiy zaruriyat sifatida kun tartibga quyilmoqda.

“Topografiya va kartografiya asoslari” fani bo‘yicha talabalarga “Nivelirlash” mavzusini modulli hamda pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish asosida o‘tish jarayonida quyidagilarga e’tibor qaratish lozim:

Darsni zamonoviy texnik vositalarga tayangan holda o‘tish maqsadga muvofiqdir.

Talabalarda bilish ehtiyojlarini shakillantrish asosida mantiqiy tafakkurni kuchaytirish kerak. Buning uchun o‘tilgan mavzudan savollar berish va har bir talabaning o‘z fikrini eshitish kerak, so‘ngra umumiy xulosani o‘qituvchi keltirib chiqarishi kerak.

Yaratilayotgan texnologik innovatsiyalar o‘quvchilarni motivatsiyasini, faolligini, ma’suliyatini oshirishga yo‘naltirilgan bo‘lishi, kam vaqt oralig‘ida yuqori natijani ta’minlay olishga erishishi lozim

O‘qituvchilar o‘z sohasidagi yangiliklar hamda yangi innovatsion texnologiyalar bilan uzliksiz tanishib borish ko‘nikmasini o‘zida shakillantirish lozim

Ta’lim tizimida dars mashg‘ulotlari sifati va samaradorligini oshirish uchun o‘qituvchidan yuqori pedagogik mahorat talab etiladi.

O‘qituvchi talabalarning o‘zlashtirishini to‘g‘ri kuzatib borish va ularning bilimini adolatli hamda qisqa vaqtda baholash uchun reyting tizimiga amal qilgan holda turli innovatsiyalardan foydalanish lozim. Mashg‘ulotlarni olib borishda noan’anaviy dars o‘tishusullaridan keng foydalanish maqsadga muvofiq. Talabalar

o‘tilayotgan mavzuning mohiyatini tushinib yetsa dars samaradorligi yuqori bo‘lib, kutilgan natijaga oson erishiladi.

Adabiyotlar

1. Alimqulov N.X.. Musayeva N.N. Pedagogik texnologiya. Darslik. Toshkent, 2012. – 208b.
2. Ishmuxamedov R., Yuldoshev M. Ta’lim tarbiyada innovatsion pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma, -T., 2013.- 278 b.

ПЕРСПЕКТИВЫ РАЗВИТИЯ ТУРИЗМА В УЗБЕКИСТАНЕ

Шодманов Фуркат Юсупович, *доктор юридических наук,*
профессор кафедры «Социальных наук»
Самаркандского института экономики и услуг

Президентом Республики Узбекистан Ш.М.Мирзиёевым в этом году была поставлена задача привлечь в страну 1,7 млн. иностранных туристов и 7,5 млн. внутренних туристов, при этом экспорт туристических услуг должен составить 370 млн. долларов. Следует отметить, что самую большую долю из этих чисел составляет “зиёрат” (паломнический) туризм. В нашей стране насчитывается 784 исламских объектов, 19 христианских и 8 объектов буддийского культурного наследия. Воспользовавшись этой возможностью, в этом году мы можем привлечь 700 тысяч туристов, и общий объём туристических услуг составит 130 млн. долларов.В этом году на продвижение паломнических объектов в разрезе регионов будет потрачено в общей сложности 1,1 млрд. сумов, а на продвижение туристического потенциала страны в зарубежных странах – 6 млрд. сумов. Также планируется запустить авиационные и железнодорожные рейсы по ряду новых местных и зарубежных маршрутов.

Туризм является одной из быстро развивающихся и высокодоходных отраслей в мире, что способствует укреплению международного социально-экономического, культурного и духовного развития. В последние годы туризм превращается в крупную экспортную отрасль мира. Доля туризма в мировом ВВП составляет в среднем 11%, занимая третье место по рентабельности после

нефтегазового сектора и автомобилестроения. За последние 40 лет, количество туристов, выезжающих в другие страны, выросло почти в 20 раз, а доходы от туризма выросли в 60 раз, а доходы от международного туризма составляют более $1,6 трлн. по состоянию на 2018 год. Индустрия туризма обеспечивает работой каждого одиннадцатого жителя планеты. Международный туризм способствует диверсификации экономики, созданию отраслей обслуживающих туристический сектор.

В последние годы в Узбекистане созданы благоприятные условия для развития туризма. В то же время очевидно, что уровень развития туризма в Узбекистане в настоящее время не соответствует тому богатому культурному и историческому наследию, которое является собственностью мировой цивилизации.

Эффективное использование потенциала для перспективного развития туризма может стать локомотивом для расширения сферы услуг и создания новых рабочих мест, обслуживание одного туриста создает рабочие места для 4–7 сотрудников принимающей стороны, так как не только менеджеры или экскурсоводы, но также работники сферы обслуживания, повара, водители, бармены и т. д. обслуживают туристов. Объективно оценивая обстановку, следует отметить, что наше государство уделяет большое внимание развитию туризма. За годы суверенного развития в Узбекистане создана правовая база и инфраструктура туризма.

За годы суверенного развития Узбекистана было сделано главное: наши исторические города Самарканд, Бухара, Хива, Термез признаны центрами древней цивилизации, внесшими достойный вклад в развитие мировой культуры и науки эти города являются местом притяжения для туристов. Правовая база была заложена для развития туризма и создана туристическая инфраструктура. Все это дает основание полагать, что Узбекистан имеет хороший потенциал для дальнейшего развития туризма. Если говорить о проделанной работе за несколько лет, доля доходов от туризма в нашем ВВП увеличилась с 0,2% в 2016 году до 2% в 2018 году. Огромное внимание уделяется многим направлениям

туризма, об этом можно сказать по посланию Президента Республики Узбекистан Олий Мажлису от 28 декабря 2018 г, где он рассказал о развитии медицинского, паломнического и экологического туризма.

Если говорить о результатах деятельности в цифрах, в 2012 г. Узбекистан посетили 1 млн 946 тыс. туристов, а в 2018 г. количество туристов, посетивших Узбекистан, составило 5 миллионов 346,2 тысяч человек, а если говорить о 2019 годе по сравнению с 2018 годом Узбекистан посетило более шести миллионов туристов, 6 миллионов 748.5 тысячи туристов

Лидеры по посещению Узбекистана, среди стран СНГ, Казахстан на первом месте с 1 миллионом 783,8 тысячами туристов, на втором месте Кыргызстан с 375 тысячами посетивших Узбекистан, Таджикистан на третьем месте с 261,9 тысячами посетивших Узбекистан, за которым следует Россия и Туркменистан с 143,9 и 62,5 тысячами соответственно.

В странах дальнего зарубежья, лидирует Турция, на втором месте Корея, Китай находится на третьем месте, за ним следуют Германия, ОАЭ, Франция, Израиль, Япония, Пакистан, Великобритания, Малайзия, США и другие государства (2019 год.)

В настоящее время лидером по обслуживанию трустов является город Ташкент с 321 турфирмой обслуживших 71 тыс. туристов, Самарканд с 57 турфирмами, обслужили 23,6 тыс. Бухара с 18 турфирмами, обслужила 13,1 тыс. в Андижане 9 тур компаний, но минимальное количество туристов было обслужено в Хорезме, 8 турфирм обслужили 51,2 тыс. туристов, в Джизак 6 тур компаний обслужили 0,6 тыс. туристов, в Кашкадарье 6 турфирм обслужили 3 тыс.туристов, в Сурхандарье 6 турфирм обслужили минимальное количество туристов, в Ташкентской области 5 турфирм обслужили 0,8 тыс. туристов, Фергана с 4 турфирмами обслужила минимальное количество туристов, 4 турфирмы г. Навои обслужили 3,1 тыс. туристов, в Республике Каракалпакстан 3 турфирмы обслужили 1,1 тыс. туристов, в г. Наманган 1 турфирма обслужила минимальное количество туристов, в Сырдарье 1 турфирма обслужила минимальное количество туристов.

По данным Госкомстата на 2019 г. в стране имелось 1199 гостиниц, Особенно отмечается стремительный рост количества семейных гостевых домов. По итогам 2019 года их количество достигло 886 единиц, за аналогичный период предыдущего года их количество составляло 106 единиц. Рост количества средств размещения также привел к росту количества номерного фонда по стране на 24,1%. В результате количество номерного фонда по итогам 2019 года достигло 26,1 тыс. единиц. Более чем, треть номерного фонда приходится на г. Ташкент, что составляет 8,1 тыс. единиц. Доля г. Ташкента в общем количестве номерного фонда составляет 33,7%. Следующими регионами по доле являются Бухарская область с показателем доли в размере 11,3% и Ташкентская область - 9,7%. Доля, Самаркандской области составила 9,7%. доля Хорезмской области – 6,9% и доли остальных регионов составляют ниже 6,0%.

По продолжительности пребывания доля иностранных гостей, проживающих в гостиницах и аналогичные средства размещения на 1-3 дня составили 88,3% от общего числа количество размещенных лиц, 8,6% иностранных гостей были размещены на 4-7 дней, на срок от 8 до 28 дней размещено 2,8% иностранных гостей, 0,2% иностранных гостей были размещены на 29-91 день, 0,02% иностранных гостей размещены на 92-182 дня, на срок от 183 до 365 дней было размещено 0,09% иностранных гостей.

Численность работников гостиниц и аналогичных средств размещения составляет 7383 человека в 2018 году. Высшее образование имеют 1731 человек, из них 213 имеют образование в профессиональном туризме. 4565 сотрудников имеют среднее специальное образование, из них 346 человек имеют образование средне-профессиональное в области туризма. Из общего числа работников 47% составляют женщины. 1649 г. администраторов, 694 менеджера, 2006 портных и горничных, 937 сотрудников ресторанов и баров.

В Узбекистане 460 специализированных средств размещения. Из них пансионатов (18 единиц), 41 домов и баз отдыха, 8 кемпингов, 71 санаториев для взрослых, 33детских санатория, 289 других средств размещения. Общее количество комнат в них 15607 номеров, койко-мест 57099 единиц. Общее

количество размещенных лиц составляет 632752 человека, из них 11066 человек из стран СНГ, 5866 человек из стран дальнего зарубежья. Общее количество ночей 599724 дня, из них граждане СНГ - 79030 дней, граждане дальнего зарубежья - 8461 дней.

Однако изучение и анализ этого вопроса подняли широкий пласт проблем, связанных с развитием туризма. Дело в том, что современная индустрия туризма многогранная деятельность, сочетающаяся в себе историческую, образовательную, культурную, деловую сферы, сервис, т. е. уровень туризма и его доходность зависят в целом от нескольких факторов. Туризм – это отрасль мировой экономики и ее развития, взлеты и падения также корректируются интенсивностью процесса глобализации. Именно поэтому, в первую очередь, необходимо ориентироваться на международную составляющую этого вопроса.

Опыт управления туризмом в развитых странах мира (США, Франция, Великобритания, Австрия, Испания) свидетельствует о высокой эффективности разработки индустрии туризма с четким определением функций государственных органов в этой сфере.

Институциональная структура управления туризмом в Узбекистане требует серьезных улучшений. До сих пор не определены четкая государственная политика и перспективная государственная стратегия в сфере туризма, отсутствуют основные приоритетные направления, отсутствуют межотраслевые и межрегиональные координации туристической деятельности; привлечение иностранных кредитов и инвестиций в сферу туризма идет очень пассивно, нет постоянного мониторинга двусторонних соглашений и контрактов; не ведется системная работа по подготовке, переподготовке и повышению квалификации кадров для туристической отрасли.

Также отсутствуют серьёзные наработки по развитию отраслевой туристической науки Узбекистана. Главное, что не имеется надлежащей координацим по обеспечению комфортного пребывания иностранных туристов в Узбекистане государственным комитетом по развитию туризма Министерством

иностранных дел, министерством внутренних дел, Таможенным комитетом, национальными компаниями «Узбекистон хаво йуллари», «Узбекистон темир йуллари» и другие структурами.

Резюмируя вышеизложенное, объективно оценивая ситуацию, следует отметить, что Туризм в Узбекистане претерпевает качественные изменения и имеет большие перспективы для развития, об этом свидетельствуют международные туристические выставки и конференции. Для дальнейшего развития туризма, на наш взгляд, целесообразно соблюдать следующие рекомендации:

1.В первую очередь необходимо разработать и подготовить пакет предложений по совершенствованию законодательства о развитии туризма в Узбекистане. Кроме того, концепция нового законопроекта должно основываться на формировании «туристского продукта», который является центральным и определяющим фактором концепции инфраструктуры туризма, включающим формирование пакета туристических услуг не только основных, но и дополнительных и сопутствующих туристических услугах.

2.Улучшить координацию для обеспечения комфортного пребывания иностранных туристов в Узбекистане между министерством туризма, министерствами иностранных дел, культуры, спорта и МВД, Таможенным комитетом, национальными компаниями “Узбекистан Хаво йуллари”, «Узбекистон темир йуллари» и другими структурами, участвующими в оказании услуг туристам.

3.Усилить популяризацию туризма, особенно через всемирную сеть Интернет, поддержка широкого распространения бренда Великого шелкового пути и развитие новых туристических брендов в Узбекистане.

Литература

1. Постановления Президента Республики Узбекистан от 18 февраля 2022 года Об организационных мерах по совершенствованию государственного управления в сферах туризма, культурного наследия и спорта.

2. Постановления Президента Республики Узбекистан «О дополнительных мерах по ускорению развития сферы услуг в Республике Узбекистан до 2012 года».
3. Постановления Президента Республики Узбекистан от 25 августа 2021 года «О дополнительных мерах по поддержке сфер общественного питания и туризма».
4. Указ Президента Республики Узбекистан «О стратегии дальнейшего развития Республики Узбекистан» от 7 февраля 2017 года № УП-4947
5. Указ Президента Республики Узбекистан «О мерах по организации деятельности государственного комитета Республики Узбекистан по инвестициям» 4 апреля,2017, № пп-2868
6. Статистический сборник об основных итогах экономического и социального развития Республики Узбекистан за годы независимости и прогнозные показатели на 2011–2016 гг.- Т.: Узбекистан. 2016г.
7. Статистический сборник в сфере туризма, Госкомстат Республики Узбекистана 2019 г.
8.https://www.uzreport.news/economy/kratkiy-obzor-osnovnih-pokazateley-turisticheskogo-rinka-uzbekistana-za-2019-god
9. https://lex.uz/ru/docs/5283959
10. Постановления Президента Республики Узбекистан от 25 августа 2021 года «О дополнительных мерах по поддержке сфер общественного питания и туризма».

ЗИЁРАТГОҲЛАР - ЎЗБЕКИСТОНДА ЗИЁРАТ ТУРИЗМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АСОСИЙ ПОЙДЕВОРИ

Ғаффарова Гулчеҳра, *ЧДПИ профессори, ф.ф.д.,*
Мардонова Рисолат, *ЧДПИ магистранти*

Халқаро туризмнинг энг сердаромад йўналишларидан бири - зиёрат туризми ҳисобланади. Зиёрат туризми - туризм саноатида янги йўналишлардан бири бўлиб, мамлакатимизда асосан ислом динига эътиқод қиладиган саёҳатчиларга қаратилган бўлишига қарамай, ушбу йўналишда таклиф этилаётган хизматларнинг мўътадил нархлари, хавфсизлиги, покизалиги, оилавий саёҳат

учун қулайлиги боис мусулмон бўлмаган саёҳатчилар учун ҳам жозибадор ҳисобланади. Шунингдек, ислом тамаддунида юртимизнинг тутган ўрни, улуғ муҳаддис Имом ал-Бухорий, Ат-Термизийларнинг шу заминдан етишиб чиққанлиги, нақшбандийлик тариқати асосчиси Баҳоуддин Нақшбанднинг илми ирфондаги ўрни юксаклиги зиёрат туризмини ривожлантиришда асос бўлиб хизмат қилади.

Ватанимиз ҳудудида дунёга машҳур қадамжо ва зиёратгоҳлар борки, уларни зиёрат қилиш Ислом динида “Кичик ҳаж” билан тенглаштирилган. Бу эса ўз навбатида зиёрат туризмини янада ривожлантириш орқали, Ўзбекистоннинг туризм салоҳиятини юксалтириш имкониятини беради. Бугунги кунда юртимизда жами 7 минг 476 моддий маданий мерос объекти давлат муҳофазасига олинган бўлиб, шундан 4 минг 308 таси археология ёдгорлиги, 2 минг 79 таси архитектура ёдгорлиги, 694 таси монументал санъат ёдгорлиги, 395 таси эса диққатга сазовор жой саналади. Ёдгорликларнинг 75% дан ортиғи республиканинг марказий туристик шаҳарларида жойлашган. Туристик рекреатцион объектлардан Тошкент шаҳрида 114 та, Самарқандда 118 та, Бухорода 201 та ва Хива шаҳрида 310 таси жойлашган бўлиб, бугунги кунда бу туристик ресурсларнинг 3/1 қисмигина туризм соҳасида фаолият кўрсатмоқда, қолгандари эса туристик инфратузилманинг шаклланиши ва янги турмаҳсулотлар тайёрлашни талаб этади[1]. Жумладан, 2020 йил 24 январь куни Ўзбекистон Республикаси Президентининг Олий Мажлисга Мурожаатномасида ҳам юртимизда 8 минг 200 дан зиёд маданий мерос объекти мавжуд бўлиб, туризм маршрутларига унинг атиги 500 таси киритилгани танқидий таъкидлаб ўтилди [2].

Мамлакатимизда зиёрат туризмини ривожлантириш иқтисодий юксалишнинг стратегик тармоқларидан бири сифатида талқин этилмоқда. Сўнгги йилларда республикада туризм соҳаси тубдан ислоҳ этилмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 2 декабрдаги “Ўзбекистон Республикасининг туризм соҳасини жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-4861-сонли, 2017 йил 7 февралдаги “Ўзбекистон

Республикасини янада ривожлантириш бўйича Ҳаракатлар стретгияси тўғрисида"ги ПФ-4947-сонли, 2017 йил 16 августдаги "2018-2019 йилларда туризм соҳасини ривожлантириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПҚ-3217-сонли қарори, 2018 йил 3 февралдаги "Ўзбекистон Республикаси туризм салоҳиятини ривожлантириш учун қулай шароитлар яратиш бўйича қўшимча ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида"ги ПФ-5326-сонли фармонлари ва 2018 йил 7 февралдаги "Ички туризмни жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-3514-сонли қарори, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 13 августдаги "Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПФ-5781-сонли, 2021 йил 9 февралдаги "Ўзбекистон Республикасида ички ва зиёрат туризмини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида" ПФ-6165-сонли Фармонларининг қабул қилиниши ҳамда Виза тизимининг ислоҳ этилиши мамлакатимизда нафақат зиёрат, балки туризмнинг бошқа соҳаларининг ривожида ҳам муҳим аҳамиятга эга.

Статистик маълумотларга кўра, 2017 йилга келиб Ўзбекистонга 2 миллион 700 минг, 2018 йилда 5 миллион 300 мингдан ортиқ туристлар ташриф буюрган. Мазкур соҳани янада ривожлантириш мақсадида 2019-2025 йилларда Ўзбекистон Республикасида туризм соҳасини ривожлантириш концепцияси ишлаб чиқилиб, унга кўра 2025 йилга келиб хорижлик сайёҳлар сонини 9-10 миллион нафарга ошириш, турли кўргазмалар, танловлар ўтказиш, Ўзбекистонни фестиваллар мамлакатига айлантириш, шу тариқа ивент-туризмни ривожлантириш режалаштирилган. Сўнгги йилларда мамкатимизда олиб борилган ислоҳатлар натижасида юртимизга ташриф буюрувчи хорижий сайёҳлар билан бир қаторда ички туризмда саёҳат қилувчилар сони ҳам кундан кунга ошиб бормоқда. Global Muslim Travel Index (GMTI) нинг 2019 йил рейтингига кўра, Ўзбекистон Ислом Ҳамкорлик Ташкилоти (ИҲТ) мамлакатлари орасида энг жозибали ўн мамлакатлар қаторига киритилиши дунё ҳамжамияти томонидан юртимизнинг туристик салоҳиятига берилган юксак баҳодир [3].



Манба: Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси, Ўзбекистон Республикаси туризмни ривожлантириш давлат қўмитаси.

Шуни таъкидлаб утиш лозимки, 2020 йил дунё миқёсида юз берган коронавирус пандемиясидан энг кўп зарар кўрган соҳалардан бири туризм бўлди. Соҳа пандемия сабаб буткул тўхтаб қолди. Жаҳон сайёҳлик ташкилоти баёнотига кўра, айнан туризм индустриясида пандемиядан кейин дунё бўйича 50 миллион иш жойи қисқаргани айтилмоқда [4]. Жаҳондаги барча мамлакатлар туризмида бошланган инқироз Ўзбекистонни ҳам четлаб ўтмади. 2019 йилда туристик хизматлар экспорти ҳажми 1,3-1,4 миллиард долларни ташкил қилган эди (Туризмни ривожлантириш давлат қўмитаси маълумотларига кўра – $1,3 млрд., Давлат статистика қўмитаси маълумотларига кўра – $1,4 млрд.). 2021 йилнинг 1-ярим йиллигида эса туристик хизматлар экспортидан тушган даромад жами 203,5 миллион АҚШ долларига етди. Ушбу даромаднинг 99,5 фоизи ($202,4 млн.) 2020 йилнинг 1-чорагига тўғри келади, 2-чоракда бу кўрсаткич атиги 1,1 миллион долларга тенг бўлди.



Манба: Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси, Ўзбекистон Республикаси туризмни ривожлантириш давлат қўмитаси

Ўзбекистон ҳукумати томонидан республика иқтисодиётига пандемиянинг таъсирини камайтириш мақсадида қатор чора-тадбирларни амалга оширди. Жумладан, пандемиядан зарар кўрган иқтисодиётни тиклаш ва рағбатлантириш режалари, корхоналар, ташкилотлар ва тадбиркорлик субъектларини қўллаб-қувватлашда жорий қилинган имтиёзлар мисолида кўришимиз мумкин.

Туризм соҳасида олиб борилаётган ислоҳотлар 2021 йилда ҳам давом эттириш, шунингдек, COVID-19 пандемиясидан сўнг мамлакатимизда туризм соҳасининг тикланиши борасида тизимли чора тадбирларни амалга ошириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 9 февралдаги “Ўзбекистон Республикасида ички ва зиёрат туризмини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПФ-6165-сонли Фармони қабул қилинди. Мазкур Фармонда Республикада туризм бозорининг турли сегментларига йўналтирилган туризм маҳсулоти ва хизматларини диверсификация қилиш, уларнинг рақобатбардошлигини янада ошириш, мақбул ва қулай ички ва халқаро зиёрат туризми муҳитини яратиш, транспорт йўналишларини кенгайтириш, транспорт хизматлари сифатини ошириш, туризм маҳсулотларини кенг тарғиб қилиш, шунингдек, мамлакатимизнинг саёҳат ва дам олиш учун хавфсиз манзил

сифатидаги имижини мустаҳкамлашда муҳим вазифалар белгиланган. Фармоннинг 1-иловасида келтирилган “Ўзбекистон Республикасидаги йирик моддий маданий мерос объектларида ички туризм оқимларини шакллантириш режаси”га мамлакатимиздаги 22 та зиёратгоҳ, шундан Тошкент вилоятидаги Занги ота ва Шайх Умар Вали зиёратгоҳлари киритилган [5].

Зиёрат туризми ривожини Тошкент вилояти мисолида таҳлил этадиган бўлсак, мамлакатимизда туризм соҳасини ривожлантиришда вилоят ўзига хос салоҳиятга эга худудлардан бири хисобланади. Тошкент воҳаси ғарбдан Тянь-Шань шарқдан Угом, Писком, Чотқол тоғ тизмалари билан ўралган бўлиб, бу тоғлар бағридан оқиб чиқувчи ирмоқлар Чирчиқ дарёсини ҳосил қилади. Вилоятнинг антропоген ландшафти ва табиий географик шароитининг қулайлиги сабабли одамзот унинг ҳудудини қадимги тош давридан бошлаб (Кўлбулоқ, Обираҳмат, Хўжакент) ўзлаштирилган [6].

Қадимдан, Илоқ, Бинкент, Чоч, Шош номлари билан машҳур Тошкент воҳаси қадимдан Европа ва Осиёни боғлайдиган йўллар чорраҳасида муҳим савдо маркази бўлиб, Осиёнинг дарвозаси бўлиб хизмат қилганлиги боис “Шарқ дарвозаси”, қулай табиий-географик жойлашуви, тарихи, бетакрор меъморий обидалари билан дунёга “Шарқ гавҳари” деб номлари билан танилган. Шу сабабли Тошкент воҳасига ташриф буюрувчилар, қадим ва навқирон воҳани зиёрат этувчилар доимо кўпчиликни ташкил этган.

Бугунги кунда Тошкент вилоятида Ўзбекистон Республикаси Маданият вазирлиги Маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш илмий – ишлаб чиқариш Бош бошқармаси Тошкент шаҳри,

Тошкент ва Сирдарё вилоятлари бўйича минтақалараро давлат инспекцияси томонидан жами 721 та маданий мерос объектлари рўйхатга олинган.

Халқимизнинг бой маънавий-маданий меросини асраб-авайлаш, ҳар бир қадамжо, обида ва зиёратгоҳларни талаб даражасида сақлаш, таъмирлаш, ободонлаштириш, уларнинг инфратузилмасини янада ривожлантириш ҳамда зиёратга ташриф буюрувчилар, саёҳатчилар учун қулаш шарт-шароитлар яратиш мақсадида Тошкент вилоятида жойлашган ёдгорлик, қадамжо ва зиёратгоҳлар

Маданий мерос объектларини ҳимоя қилиш инспекцияси Тошкент вилояти бўлими, “Олтин мерос” халқаро хайрия жамғармасининг вилоят бўлими ва “Вақф” фонди тасарруфига берилган.

Жумладан, Олтин мерос” халқаро хайрия жамғармасининг вилоят бўлими томонидан Охангарон туманидаги “Пайғамбар ота” (2001 йилда), “Шоабдумалик бобо” (2009-2018 йиллар), Паркент туманидаги “Заркент ота” (2002 йилда), Оққўрғон туманидаги “Шомирқори авлиё” (2005 йилда), Бекабод туманидаги “Бузрукбобо” ва “Темиратки ота” зиёратгоҳларида (2016-2018 йиллар) қайта реконструкция ишлари амалга оширилди. Бугунги кунда Охангарон туманидги “Парпи ота -2” Парписой, “Ғавсул аъзам”, “Увак ота”, Қибрай туманидаги “Қиличли ота”, Паркент туманидаги “Бухангар бува”, Оққўрғон туманидаги “Ғойиб ота”, Ўртачирчиқ туманидаги “Усмонота”, Бўстонлиқ туманидаги “Ансорий бобо”, “Хазрати Мулло” зиёратгоҳларида лойихалаш ишлари олиб борилмокда.[6]

Вилоятда жойлашган Зангиота, Ҳазрати Али, Шодималик ота, Бузрук ота, Заркент ота, Пайғамбар ота, Шомирқори авлиё, Парпи ота, Шайх Умар Вали Бузрук ота, Қирқ қиз каби зиёратгоҳлари машҳур бўлиб, бу ерга нафақат республикамиздан, балки қўшни республикалар ҳамда Россия, Туркия, Индонейзия, Малайзия, Эрон, Покистон каби давлатлардан зиёратчилар ташриф буюришмоқда. Амалга оширилаётган бунёдкорлик ишлари билан бир қаторда вилоятда зиёрат туризмини ривожланишига салбий таъсир қилувчи объектив ва субъектив муаммолар ҳам мавжуд:

1.Ҳудуднинг туристик ресурсларини реклама , тарғибот ва ташвиқот ишларининг пастлиги.

2.Зиёратгоҳлар жойлашган ҳудуд инфраструктурасидаги муаммолар: зиёратгоҳларга олиб борувчи йўлларнинг асосий қисми таъмирлашга муҳтож, ичимлик суви ва табиий газ муаммолари.

3.Зиёратчилар ва сайёҳларга хизмат кўрсатувчи мехмонхоналар сони ва хизматлар сифати, нархини қайта кўриб чиқиш лозим.

4.Муқаддас қадамжо ва зиёратгоҳларнинг тарихий-меъморий қиёфасини ва табиат билан уйғунлигини йўқотмаслиги учун реконструкция, ободонлаштириш ишларини мутахассис олимлар билан ҳамкорликда амалга оширишни йўлга қўйиш лозим.

Тошкент вилояти зиёрат туризмини ривожлантириш истиқболли режасида қуйидагилар амалиётга татбиқ этилса мақсадга мувофиқ бўлар эди:

1.Туристик ресурслар тўғрисида сайтлар ва мобил дастурларни ишлаб чиқиш орқали тарғибот ишларини кучайтириш лозим.

2.Тошкент вилоятида туризм индустрияси бўйича инвестицион лойиҳалар сонини ошириш.

3. Минтақавий ҳамкорликни йўлга қўйиш орқали туристлар оқимини кўпайтириш. Масалан, Буюк Ипак йўли кесимида: Қозоғистон-Ўзбекистон қўшма турлари каби [7].

4.Туризм соҳаси билан боғлиқ кичик ва ўрта бизнесни қўллаб-кувватлаш буйича дастурлар ишлаб чиқиш ва амалиётга татбиқ этиш лозим.

5.Зиёрат туризми йўналишини қўшимча йўналишлар билан бойитиш яъни экотуризм, гастрономик туризм, шоппинг ва бошқалар билан уйғунлаштириш.

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, Тошкент вилояти нафақат зиёрат туризми, балки экотуризм, саёҳат туризми, спорт туризми, тиббиёт туризмини ривожлантириш бўйича улкан салоҳиятга эга ҳудуд ҳисобланади. Туризм бўйича сайёҳлар сонининг ўсиши аҳолини иш билан таъминланишига, валюта тушумининг кўпайишига, ЯИМнинг ўсиши ҳамда мамлакатнинг экспорт салоҳиятини оширишга хизмат қилиб, валюта киримлари ҳамда ташқи савдо баланси барқарорлиги таъминланади. Шу сабабли мавжуд имкониятлардан самарали фойдаланган ҳолда, Ўзбекистоннинг туризм хабини яратиш сари барча имкониятларни сафарбар этиш лозим.

Адабиётлар

1. ttp://elib.buxdu.uz/index.php/pages/referatlarmustaqil-ish-kurs-ishi/item/9817-2021-01-28-08-15-20
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2020 йил 24 январь куни Олий Мажлисга Мурожаатномаси. Халқ сўзи газетаси. №19.25.01.20.1-3 б.

3. Global Muslim Travel Index 2019. Master Card & Crescentrating 2019. URL: https://www. crescentrating.com/reports/global-muslim-travelindex-2019.html
4. Худояров А.А. Ўзбекистонда зиёрат туризми бозорининг ривожланиш хусусиятлари ва тенденциялари. Монография. – Тошкент: Complers Print, 2020.
5. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 9 февралдаги “Ўзбекистон Республикасида ички ва зиёрат туризмини янада ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида” ПФ-6165-сонли фармони https://lex.uz/ru/docs/5283956
6. Ўзбекистон тарихини ўқитиш ва ўрганиш бўйича материаллар («Тафаккур сарчашмалари» туркумидан). Тўплам-3. Т-2009. 13-бет.

MUQADDAS JOYLAR SAKRAL GEOGRAFIYANING OBYEKTI SIFATIDA

Mukumova H.I., *QarDU o`qituvchisi,*
Abdullayev S.I., *QarDU dotsenti,*
Nurmatov N., *QarDU magistranti*

Tabiat bilan hamjihatlikda yashagan inson tabiat hodisalarini ilohiylashtirgan va unga sig`ina boshlagan. Diniy sig`inish (kult) bilan bog`liq bo`lgan tabarruk deb hisoblanadigan joylar, narsalar va voqealar “muqaddas” hisoblanadi. “Muqaddas” ta‘rifi juda qimmatli, ahamiyatli mazmunni bidiradi va doimo transsendentallik (haddan tashqarilik), batamom mistik (Olloh va ilohiy jabhaga bog`liq bo`lgan) va ko`p odamlar uchun alohida qiymatga ega bo`lgan hodisaga mansub. Muqaddaslik tushunchasi juda qadim davrlardayoq vujudga kelgan va Yerda oqil insonning mavjudligi bilan chambarchas bo`g`liq.

Insoniyat bunday madaniy, tarixiy va tabiiy meros yodgorliklariga “muqaddas joylar” maqomini beradi. Keng ma’noda “muqaddas joy” – odatdagi, kundalik (profan) narsalardan, tushunchalardan, hodisalardan farq qiladigan dinga, irratsionallikka (qonun - qoidalardan xoli), tasavvufga aloqador bo`lgan barcha hodisa va narsalar mavjud joylarni anglatadi. Bunday sig`iniladigan landshaft nuqtalari – energetik jihatdan ahamiyatli joylar sayyoramizda juda ko`p.

Geografik nuqtai nazardan muqaddas joylar diniy funksiyani bajaradigan tabiiy - antropogen geosistemalar bo`lib, ular birinchi navbatda insoniyatning diniy ehtiyojlari bilan bog`liq bo`lgan, shuningdek aholining muayyan toifasiga mansub kishilarning bunday joylar bilan munosabatda bo`lishga intilishishiga sabab bo`ladigan ziyorat qilinadigan obyektlardir. Hududiy hosilalarning bunday toifasi insoniyat

rivojlanishining har bir bosqichda mavjud bo`lgan ”muqaddas joylar” tushunchasiga to`g`ri keladi va barcha hozirgi dinlarda mavjud.

Muqaddas joylar – dindorlar muqaddas deb hisoblaydigan va sig`inadigan joylar bo`lib, ular – payg`ambar, shayx, eshon, avliyolar nomi bilan bog`liq hisoblangan va ziyoratgohga aylanib ketgan shahar maqbara, chashma, tepalik, g`or va boshqalardir. Muqaddas joylar turli dinlarga e‘tiqod qiluvchi hamma xalqlarda, ko`pgina shahar va mamlakatlarda bor. Kishilarning muayyan manzillardagi guruhlari muayyan diniy - madaniy an’analarning tarqatuvchilaridir. Sotsial - iqtisodiy landshaftning juda ko`p obyektlari va elementlari o`zining rivojlanishining diniy tomonlariga va diniy simvolikasiga ega.

Islomda Makka va Madina, Karbalo, Najaf shaharlari umumiy muqaddas joylar hisoblanadi va ziyorat qilinadi. Ziyorat an’analarining rivojlanishi barcha asosiy dinlar uchun xos. Islomda Makka va Madina shaharlari ziyorat turizmining bosh shaharlaridir. Bundan tashqari Quddus (Moria tog`idagi Xalifa Umar maschiti), Istambul (Moviy maschit), Damashq (Ummaviylar maschiti), Bag`dod (Oltin maschit), Qohira (Ibn Tulun va sulton Hasan maschiti) va Dehli (Qutb Minor minorasi va Quvvat ul Islom maschiti) ham musulmonlarning muhim muqaddas ziyoratgohlaridir.

Hindlar uchun Gang daryosi, yahudiylar, xrustianlar uchun Quddus shahri muqaddas hisoblanadi [2].

Tarixiy jarayonlarga noan‘anaviy qarash uchun ilmiy muomalaga “sakral” (lon. sacre yoki sakra - muqaddas, tabarruk, ibodat, sig`inish, marosim, ilohiy, sirli) tushunchasi kiritilgan. Etimologik jihatdan bizning tilimizga lotin tilidan kelgan “sacral “ tushunchasi “muqaddas” so`zining sinonimidir. Umuman olganda “sakral” ta‘rifi faqat diniy obyektlarni bildirib qolmaydi, balki xalqlarning tarixiy - madaniy merosida barcha qiymatli, juda ahamiyatli obyektlarni ham bildiradi. Keng ma‘noda “sakral” – odatdagi, kundalik (profan) narsalardan, tushunchalardan, hodisalardan farq qiladigan dinga, parvardigorga, oxiratga,irratsionallikka, mistikaga aloqador barcha narsalarni anglatadi [3].

Buyuk kishilar hayoti bilan bog`liq bo`lgan joylarga va qabristonlarga, yo`llarga, kitoblarga, qadimiy inshootlar xarobalariga, ibodatxonalarga va boshqa

madaniy, tarixiy va tabiiy meros yodgorliklariga “sakral obyektlar” maqomini beradi. Bu obyektlar xalqlarning tarixiy o`zini tenglashtirish va baholash, milliy g`ururi asosida turadi va, shubhasizki, ularning kelgusidagi taraqqiyotiga juda kuchli darajada ta‘sir ko`rsatadi. Shu sababli sakral obyekt tushunchasi muqaddas joy tushunchasiga nicbatan kengroq tushuncha va termin sifatida ilmiy adabiyotlarda kengroq qo`llaniladi.

Sakral obyektlar qadimdan bir hududda yashaydigan urug`lar, qabilalar, xalqlarning yoki juda katta hududda qardosh xalqlarning a‘zolari uchun birlashtiruvchi rolni bajargan. Urug`larning muqaddas joylari oddiy birlashtiruvchi obyeklar bo`lgan va ular qadim davrlardan buyon aholi manzilgohlari yaqin-atrofida joylashgan, keyinroq esa aholi manzilgohlarida markaziy o`rin tutgan obyektlar bo`lgan. Urug`larning muqaddas joylari hududida urug`ning tabarruk yodgorliklari saqlangan. Uncha katta bo`lmagan muqaddas joylar bilan bir qatorda barcha urug`lar tomonidan bir xil e‘zozlanadigan tabiat obyekti (daraxrzor, ajoyib qoya, g`or, buloq va b.) qabilaviy birlashtiruvchi funksiyasini bajargan.

Sakral obyektlar xudo irodasi bilan biror - bir hodisa sodir bo`lgan joylar, barcha zamonlar va sig`inishlarning buyuk avliyolari va ularning safdoshlari dafn qilingan joylar, yo`qolgan dinlarning muqaddas joylari, ko`pyillik ziyoratgohlar va zohidlik (tarki dunyochilik) obyektlari, shuningdek kuch joylari deb atalmish joylarda tabiatning ko`rinmas kuchlari yaratgan unikal landshaftlardir. Shu asosda muqaddas joylarni inson tomonidan yaratilgan va tabiiy muqaddas joylarga ajratish mumkin.

Yerning sakral obyektlari xalqlarni va davlatlarni bo`g`lab turadi, ular tufayli kishilar hayotning mazmuniga va ertangi kuniga ishonch hosil qilishadi, qayg`u - g`amlariga taskin topishadi, kuch va salomatlikka ega bo`lishadi. Ulardan foydalanib juda ahamiyatli sig`inish marosimlarini va rituallarini o`tkazishadi. Ta’kidlash joizki, sakral obyektlar barcha dinlarda bir xil emas. Musulmon dinida dindorlar muqaddas deb hisoblaydigan va sig`inadigan joylar muqaddas joylar (qadamjolar) deyiladi. Bunday joylarga payg`ambar, shayx, eshon, avliyolar nomi bilan bog`liq hisoblangan va ziyoratgohga aylanib ketgan shahar, maqbara, chashma, tepalik, g`or va boshqalar mansub. Bunga Imom Buxoriy (Samarqand viloyati), Bahouddin Naqshband (buxoro

vil.), Zangi ota (Toshkent vil.), Ahmad Yassaviy (Turkiston sh.) dafn etilgan joylarni va b.ni misol qilib ko`rsatish mumkin. Islomda makka va Madina, shialarda, shuningdek, Karbalo va Najaf shaharlari umumiy muqaddas joylar hisoblanadi va ziyorat qilinadi [4].

Xristian dinida sakral obyektlarga an‘anaviy ravishda mozorlar, kreatsiya joylari, o`lim bilan bog`liq o`lgan voqealar sharafiga qo`yilgan haykallar kiradi. Shuningdek, ajdodlar sig`inishi, davlat hokimiyati, ijodiy daholik (va daho bo`lgan shaxslar), bilim (ayniqsa mistik tushunchadagi bilim), tabiatning buyukligi, jangovor qaxramonlik, madaniyat namoyon bo`ladigan va boshqa joylar bilan bog`liq obyektlar ham muqaddaslik maqomiga ega bo`lib, sakral obyektlar hisoblanadi. Shunday qilib, sakral maqomga ega bo`lgan geografik obyektlar jumlasiga benazir kishilarning hayoti va tarixiy voqealar bilan bog`liq joylar, memoriy yodgorliklar, madaniy qadriyatlar (muzey, kutubxona), nufuzli o`quv yurtlari va boshqa joylar ham mansub.

Ammo, muqaddaslikni doimo diniy amaliyot bilan birgalikda qarash to`g`ri emas. Hozirgi paytda ilohiylikka bog`liqlikni taqoza etadigan diniy obyektlardan farq qilgan holda dunyoviy muqaddas obyektlar - tug`ilish, barkamollik, jasorat, kuch, Vatan, davlat hokimiyatining simvollari va boshqa shu kabi toifalarga taqaladigan mistikaga asoslangan obyektlar ham sakral obyektlar jumlasiga kiritiladi [2].

Sakral obyektlarga me‘moriy obyektlardan tashqari mashhur tabiiy obyektlar (tog`lar, g`orlar, cho`ldagi belgilar, suv havzalari (k`ollar, daryolar, buloqlar), daraxtzorlar, hatto ayrim daraxtlar va qadimiy toshlar) ham mansub.Shu asosda muqaddas joylarni inson tomonidan yaratilgan va tabiiy muqaddas jorlarga ajratish mumkin.

Yerning sakral obyektlari xalqlarni va davlatlarni bo`g`lab turadi, ular tufayli kishilar hayotning mazmuniga va ertangi kuniga ishonch hosil qilishadi, qayg`u - g`amlariga taskin topishadi, kuch va salomatlikka ega bo`lishadi. Ulardan foydalanib juda ahamiyatli kult marosimlarini va rituallarini o`tkazishadi.

Shunday qilib, sakral maqomga ega bo`lgan geografik obyektlar jumlasida atoqli kishilar hayoti va tarixiy voqealar, davlat hokimiyati, memoriallar, madaniy boyliklar (qadriyatlar) saqlanadigan (muzeylar, kutubxonalar) joylar, mashhur tabiiy

urochishelar, nufuzli o`quv yurtlari bilan bog`liq bo`lgan eng “ahamiyatli” joylar ham qaralishi mumkin.

Yerning sakral obyektlari xalqlarni va davlatlarni birlashtiradi, bu yerlarda kishilar kuch va salomatligini yaxshilaydilar, fikrini to`playdilar va diniy marosimlarni o`tkazadilar. y‘ani alohida qadrlanadigan joylar toifasiga xalqlarning individual va jamoaviy ongli va ongsizligida o`tkinchi bo`lmagan (o`chmas, doimiy) qadriyatga ega bo`lgan joylar mansub. Bu sakral obyektlar xalqlarning tarixiy o`zini tenglashtirish va baholash, milliy g`ururi asosida turadi va shubhasizki, ularning kelgusidagi taraqqiyotiga juda kuchli darajada ta‘sir ko`rsatadi.

Sayyoramizdagi sakral obyektlarni o`rganish va asrash bilan yangi fan – sakral geografiya shug`ullanadi. Uning o`rganish obyektlari – turli xalqlar va dinlarning vakillari muqaddas deb hisoblaydigan barcha joylar va narsalardir. Ular – xudo irodasi bilan biror - bir hodisa sodir bo`lgan joylar, barcha zamonlar va kultlarning buyuk avliyolari va ularning safdoshlari dafn qilingan joylar, yo`qolgan dinlarning muqaddas joylari, ko`pyillik ziyoratgohlar va zohidlik (tarki dunyochilik) obyektlari, shuningdek kuch joylari deb atalmish joylarda tabiatning ko`rinmas kuchlari yaratgan unikal landshaftlardir.

Sakral geografiyaning muhim muammolardan birini muayyan hududda (mamlakatda) diniy vaziyatning shakllanishining tarixiy - geografik jihatlarini o`rganish tashkil etadi. Dunyo dinlarining har biri muqaddaslikni qadrlashga asoslangan, madaniy landshaftdagi muqaddaslik toifasidagi muayyan obyektlarni bog`lagan holda Yer maskani to`g`risida tasavvur beradi va vaqt o`tishi bilan vujudga keladigan “muqaddas joylar” sakral geografiyaning asosiy elementlaridir. Shu tufayli geografik obyektlar muqaddaslik maqomini oladi.

Muqadaslik maqomiga ega bo`lgan geografik obyektlar qaralayotganda muqaddas obyekt odamlarning muayyan guruhigina bu obyektni muqaddas deb hisoblashini e‘tiborda tutish lozim. Masalan, biror dinning ortodoksal muxlislari boshqa dinning muqaddas obyektlariga ehtiromsiz va hatto agressiv munosabatda bo`lishi mumkin. Qadrlanadigan tabiiy joy uning atrofidagi hududlarda yashovchilar tomonidan muqaddas joy hisoblanishi mumkin. Qahramonga qo`yilgan haykal faqat

uning vatandoshlari tomonidan qadrlanishi mumkin. Qaxramon yoki yozuvchi muxlislar tomonidan qadrlanishi mumkin. Hatto bir guruh (xalq, dindoshlar, professional hamjamiyat) kishilari muayyan bir muqaddas narsani turlicha baholashlari mumkin.

Yer shari yuzasi sakral zonalarning qalin to`ri bilan qoplangan. Diniy sajiyadagi elementlar deyarli hamma joyda mavjud. Kishilarning muayyan manzillardagi guruhlari aniq bir diniy - madaniy an'analarni tarqatuvchilaridir. Sotsial - iqtisodiy landshaftning juda ko`p obyektlari va elementlari o`zining rivojlanishining diniy tomonlariga va diniy simvolikasiga ega.

Yerning sakral obyektlari xalqlarni va davlatlarni birlashtiradi, bu yerlarda kishilar kuch va salomatligini yaxshilaydilar, fikrni to`playdilar va diniy marosimlarni o`tkazadilar. Muqaddas (sakral), y'ani alohida qadrlanadigan joylar toifasiga xalqlarning individual va jamoaviy ongli va ongsizligida o`tkinchi bo`lmagan (o`chmas, doimiy) qadriyatga ega bo`lgan joylar mansub.

Insonning ilmiy-nazariy va amaliy faoliyatining bu jihatlarini sakral - ilmiy yondashuvdan foydalanish kontekstida, sakral - geografik bilimlarni shakllanishi misolida o`rganish maqsadga muvofiq. P. Shukanovaning fikricha (2012) sakral – falsafiy – ilmiy yondashuvlarni tahlil va sintezi asosida sakral geografiya konkret tarixiy va geografik makonda borliqning muqaddas - an'anaviy namoyon bo`lishini o`rganadi. Uning fikricha, sakral geografiyaning umumiy obyekti yagona sakral makonning tarkibiy qismi sifatidagi geografik qobiq; turli kuchlar va ularga mos keladigan jarayonlar, hodisalar va ruhiy - ma'naviy va axborot - energetik sajiyadagi muqaddas obyektlar sakral geografik tadqiqotning predmetli o`ziga xosligidir.

Sakral geografiya makoniy tasavvurlarning ayrim turlarini (sistemalarini) – diniy sistemalaridagi makoniy tasavvurlar shakllanishining qonuniyatlarini o`rganadi [3]. Sakral geografiya – turli geografik obyektlar, muayyan sotsial-madaniy borliqqa, aynan muqaddaslik toifasiga ega bo`lgan geografik makonning o`zaro nisbati to`risidagi, tarixiy geografik bilimlarning tabiiy, madaniy va tarixiy merosining alohida qadrlanadigan va e'zozlanadigan obyektlarining tizimidir. Sakral geografiyada obyektlarning barcha turlari, ularning joyi, vujudga kelish tarixi, bu obyetlar bilan

bog`liq hozirgi an‘analar, ularning xalqlar hayotidagi ahamiyati va boshqa xossalari o`rganiladi [1].

Diniy hayotni va faoliyatni, umuman olganda diniy sohani hududiy uyushtirish sakral geografiyaning predmetidir. Bunday uyushtirishning geomakoniy shakllari, xususan, ularning mifologiyasi, mazmuni, genezisi, dinamikasi, shakllanishining omillari va qonunlari tadqiqotning aniq real obyektlaridir.

Shunday qilib, sakral geografiya insonning ongi hosil qilgan (real yoki tasavvur qilingan, trantsedent tushunchalar, kategoriyalar va simvollar) geografik obyektlarning nisbati to`g`risidagi tasavvurlardir. Uning predmetini simvollashtirish yo`li bilan hosil bo`lgan sakral makon tashkil etadi. Bu esa landshaftda boshqacha reallikni – g`oyalar va arxetiplar olamini ifodalashga imkon beradi. Sakral geografiya – Yer yuzasidagi muqaddaslik toifasiga ega bo`lgan muayyan obyektlarning bog`lanishi (munosabati) to`g`risidagi bilimlar tizimi.

Adabiyotlar

1.Abdullayev S.I. Jankabilov I.X., Nazarov M.G. Sakral geografiya - yangi integral ilmiy yo‘nalish. O`zb GJ axboroti, 49-jild. 81-85.

2.Словарь иностранных слов. М., «Русский язык»,1988.

3.Шуканов П., Шуканова А. Сакрально-наукови основи освитного процессу/ Имидж с учасного педагога. – Полтава, 2012. - №3 (122).

4.Ўзбекистон Миллий энциклопедияси. 6 - жилд. Тошкент,2003.

ПОЙТАХТ ШАҲАРЛАРНИ КЎЧИРИШ РЕЖАЛАРИ

Байқабилов Хуснудин Марданович,
ҚарДУ доценти в.б.

Пойтахт давлат сиёсий-ҳудудий тузилишининг асосий элементларидан бири ҳисобланади. У нафақат марказий ҳокимият органларининг жойлашуви, балки мамлакат суверенитетини бошқариш маркази, шунингдек, биринчи навбатда давлатнинг маъмурий – ҳудудий тузилишига таъсир кўрсатадиган, унинг давлатчилигини шакллантирадиган, давом эттирадиган ва ўзгартирадиган энг муҳим элементидир. Шу нуқтаи назардан, пойтахтни белгилаш ва уни

кўчиришга оид тарихий жараёнларни ўрганиш, унга таъсир қилувчи омилларни аниқлаш жаҳон тарихида муҳим аҳамият касб этади.

Шаҳарсозликда ва шаҳарларнинг ривожланишини режалаштиришда географик омилни ҳисобга олмаслик мазкур турдаги аҳоли манзиллари тараққиётига салбий таъсир кўрсатиши мумкин. Бунга табиий ёки ижтимоий-иқтисодий омилни етарлича инобатга олмай барпо этилган, аммо кейинчалик ривожланмай, аҳоли томонидан ташлаб кетилган дунёнинг турли мамлакатларидаги қатор шаҳарлар мисол бўла олади. Жумладан, Тожикистондаги Шўроб, Словакиядаги Миловице, Чилидаги Чайтен ва Хамберстоун, Сицилиядаги Пожореале, Испаниядаги Бельчите, АҚШдаги Боди ва Берлин, Япониядаги Хашима каби юзлаб аҳоли пунктлари турли сабаблар билан ҳувиллаб қолган. Маълумотларга кўра, биргина АҚШнинг ўзида бир вақтлар йирик ишлаб чиқариш ёки хизмат кўрсатиш маркази бўлган, аммо ҳозирда "ўлик шаҳарлар"га айланган 250 дан ортиқ аҳоли манзилгоҳлари мавжуд[1]. Айнан шу сабабли шаҳар аҳоли пунктларини табиат ва жамият ўртасидаги мувозанатни инобатга олган ҳолда узоқ муддатли илмий асосланган режа асосида ривожлантириш муҳим амалий аҳамият касб этади. Шу боис, инсон томонидан яратилган ўзига хос маданий ландшафтга эга бўлган, айниқса, пойтахт вазифасини ўтайдиган шаҳарлар географияси XIX асрнинг иккинчи ярмидан буён дунё географ олимлари эътиборини ўзига тортиб, алоҳида илмий йўналиш сифатида шаклланиб, ривожланиб келмоқда.

Ҳозирда ҳам баъзи давлатлар пойтахтни бошқа жойга кўчириш ҳақида ўйлаб турибди. Масалан, Индонезияда ана шундай фикр йўқ эмас, аммо ҳозирча қарийб 10 миллион аҳолига эга Жакарта пойтахт вазифасини ўтамоқда. Бангкок эса кўп йиллардан бери сув тошқинларидан қийналиб келади. Табиий офат корхоналарга катта зарар етказмоқда, айнан шу туфайли мамлакат иқтисодиётига хорижий инвестициялар камайди. Мутахассислар яна бир неча ўн йилдан кейин иқлим ўзгаришлари ва дунё океани сатҳининг кўтарилиши натижасида Бангкокнинг асосий қисми сув остида қолишини айтмоқда. Шундай экан, Таиланд ҳукуматининг 230 йиллик пойтахтни кўчиришдан бошқа чораси

йўқ, бироқ сиёсий раҳбарлар бу борада бир тўхтамга кела олмаяпти [3]. Жанубий Судан 2011 йилда мустақилликка эришгач, пойтахтни Жубадан Рамшилга кўчирмоқчи эди. Аммо ҳукумат қўшни Судан билан ихтилофлар, ички низолар ва иқтисодий муаммолардан ортаётгани йўқ. Шунингдек, пойтахтни кўчириш ҳақидаги гап-сўзлар Аргентина ва Эронда ҳам янграмоқда.

Асосий қисм. Пойтахтни бир жойдан бошқа жойга кўчириш билан бир қаторда, пойтахт функцияларини қисман тақсимлаш амалиёти мавжуд. У марказий ҳокимият ва бошқарув органларини пойтахтдан мамлакатнинг бошқа шаҳарларига кўчиришда ўз ифодасини топади. Бунга миллий ҳукуматларнинг ёки "эски", "анъанавий" ҳудудларни модернизация қилиш ва ривожлантириш ёхуд янги ҳудудларни ўзлаштириш, ё мамлакатнинг стратегик аҳамиятига эга бўлган минтақаларини кучайтириш нияти туртки бериши мумкин. Масалан, Россияда 2006 йилнинг мартида суд ҳокимиятининг муҳим институти – Конституциявий судни Москвадан Санкт-Петербургга кўчириш ташаббуси илгари сурилди. Бу ташаббус шу йилнинг охирида қонун йўли билан мустаҳкамланди. Бунда "шимолий пойтахт" тушунчаси тимсолдан воқеликка айланиши лозимлиги назарда тутилган. Умуман олганда, пойтахт функцияларининг мамлакат шаҳарлари бўйлаб тақсимланиши Россияга ўхшаган катта давлатларни ривожлантириш мантиқи билан мос келади.Пойтахт функцияларини мамлакат шаҳарлари бўйлаб тақсимлашга баъзан мамлакат минтақаларининг ривожланиш даражасидаги номутаносибликларни бартараф этишга интилиш ҳам туртки бериши мумкин. Масалан, 2004 йилда Россия Федерацияси Давлат думаси томонидан айрим пойтахт функцияларини Россиянинг шарқий қисмига кўчириш тўғрисидаги қонун лойиҳаси ишлаб чиқилди[6]. Ушбу қонун лойиҳасининг яратилишига Узоқ Шарқ ва Сибирни жадал ривожлантириш зарурати туртки берди. Ҳужжатга кўра, у ерга олдин амалдорлар, сўнгра бизнес давраларининг вакиллари кўчиб боришлари керак эди. Бироқ мазкур қонун лойиҳаси қўллаб - қувватланмади. Бунга, шу жумладан, пойтахт функцияларини кўчиришнинг ўзи Сибирни ўзлаштириш ва ушбу минтақадаги демографик вазиятни яхшилаш муаммосини ечиши мумкин

эмаслиги сабаб бўлди. Бу вазифани ҳал этиш учун кенг кўламли чора-тадбирларни амалга ошириш зарур ва уларнинг орасида пойтахтни кўчириш фақат ёрдамчи тадбир бўлиши мумкин.Шу маънода ГФР тажрибаси ҳам диққатга сазовор: бу ерда Конституциявий суд давлат пойтахти – Берлин шаҳрида эмас, балки Карлсруэда, Марказий банк эса – Франкфуртда жойлашган. Бу ҳокимиятни марказлаштиришдан чиқариш жараёнига мисол бўлади. Бундай тадбирлар, бир томондан, давлат институтлари ишини таъминлаш учун харажатларни сезиларли даражада кўпайтиради, бироқ бошқа томондан, шаҳарлар ва минтақаларнинг ривожланишига туртки берувчи омил бўлиб хизмат қилади. Конституциявий тузумда пойтахт шаҳарларнинг тутган ўрни масаласи охирги ўн йилликларда қатор тадқиқотлар учун долзарб мавзуга айланди. Хусусан, немис тадқиқотчиси Кристоф Дашер ўзининг қатор изланишларида пойтахтнинг мамлакат ижтимоий ҳаётида тутган ўрнини белгиловчи омилларни аниқлашга ҳаракат қилган[5]. У ўз таҳлиллари асосида аксарият ҳолатларда пойтахт ўз мамлакатининг иқтисодий салоҳияти, нуфуси, маданий ривожланганлик даражасига кўра энг йирик маркази эканлигига эътибор қаратади. Мазкур ҳолатдан истиснолар фақат айрим федерал давлатларгагина хосдир деб ҳисоблайди. Олимнинг тадқиқотларига кўра, бундай ҳолатни нисбатан йирик 146 та давлатдан фақатгина 25 тасида кўриш мумкин. Пойтахтнинг мамлакат сиёсий маркази сифатидаги ўрни давлат ҳокимияти олий органларининг ушбу шаҳарда жойлашганлиги билан белгиланади. Лекин турли тарихий, ижтимоий, иқтисодий, сиёсий ва бошқа омиллар таъсирида мазкур принципдан тўла ёки қисман чекинилган давлатлар ҳам мавжуд.Энг кўп ҳолат сифатида мамлакат олий судлов органларининг пойтахтдан ташқарида фаолият кўрсатишини кузатиш мумкин. Масалан, Чехияда (пойтахти Прага шаҳри) олий суд инстанцияси вазифасини бажарувчи ҳар учала суд Брно шаҳрида, ГФР (пойтахти Берлин шаҳри) Конституциявий суди Карлсруэ шаҳрида, Швейцария (пойтахти Берн шаҳри) Олий суди Лозанна шаҳрида, Эстония (пойтахти Таллинн шаҳри) Олий суди Тарту шаҳрида, Россия Федерацияси (пойтахти Москва шаҳри) Конституциявий суди Санкт-Петербург шаҳрида жойлашган. Бироқ

қонун чиқарувчи орган ҳам пойтахтдан ташқарида жойлашган мамлакатлар мавжуд. Масалан, Чили (пойтахти Сантьяго шаҳри) Миллий конгресси Валпараизо шаҳрида фаолият кўрсатади. Франция парламентининг ҳар икки палатаси ҳам Парижда фаолият кўрсатади, бироқ уларнинг қўшма мажлиси Версал саройида ўтказилади. Баъзан давлат бошлиғининг қароргоҳи ҳам пойтахтдан ташқарида жойлашган бўлиши мумкин. Эсватини (собиқ Свазиленд қироллиги) қироллик саройи, Финландияда (пойтахти Хельсинки шаҳри) Президент қароргоҳи ёз фаслида бошқа шаҳарларда фаолият юритиши сабабли ҳукумат мажлислари ҳам шу ерда ўтказилади. Жанубий Африка Республикасида пойтахтнинг функциялари янада кенгроқ тақсимланган. Бу ерда 1910 йилда тузилган иттифоқ шартномасига мувофиқ Претория шаҳри давлатнинг маъмурий маркази ҳисобланиб, қонун чиқарувчи ҳокимият Кейптаун шаҳрида, суд ҳокимияти эса Блумфонтейн шаҳрида фаолият кўрсатади.Айрим ҳолларда тарихий пойтахт шаҳарнинг мақоми тикланиши ҳам пойтахтнинг функциялари тақсимланишига сабаб бўлиши мумкин. Масалан, ГФРда пойтахт Берлин шаҳрига кўчирилган бўлса-да, айрим федерал вазирликлар, бир неча хорижий элчихоналар ҳозиргача Бонн шаҳрида фаолият кўрсатмоқда[7].

Турли хил омиллар таъсирида пойтахтнинг янги шаҳарга кўчирилиши ҳам пойтахтга хос функцияларнинг тақсимланишига сабаб бўлиши мумкин. Масалан, 1973 йилда Танзания пойтахти Доруссалом шаҳридан Додома шаҳрига, 1998 йилда Қозоғистон Республикасининг пойтахти Олмаота шаҳридан Остона шаҳрига (ҳозирги Нурсултон шаҳри), 2005 йилда Мьянма пойтахти Янгон (Рангун шаҳри) шаҳридан Наммаду шаҳрига, Шри – Ланка пойтахти Коломбо шаҳридан Шри-Жаяварденапура-Котте шаҳрига кўчирилган бўлса-да, мазкур давлатлардаги бир неча марказий давлат органлари ва дипломатик муассасалар собиқ пойтахтларда қолган.

Миллий давлатчилигимиз тарихига ҳам назар ташлайдиган бўлсак, бир неча маротаба пойтахт кўчирилганининг гувоҳи ҳам бўлиш мумкин. Жумладан, 1925 йил 13 февралда ўтказилган Бутунўзбек советларининг биринчи таъсис қурултойида “Ўзбекистон Совет Социалистик Республикаси тузилганлиги

тўғрисида"ги декларация қабул қилиниб, мамлакатнинг илк пойтахти этиб Бухоро шаҳри белгиланган. 1925 йил апрель ойида пойтахт Бухородан Самарқанд шаҳрига кўчирилган. 1930 йил 17 августда Ўзбекистон Ижтимоий Шўро Жумҳурияти Шўролар Марказий ижроия қўмитасининг "ЎзИШЖ пойтахтини Самарқанд шаҳридан Тошкент шаҳрига кўчириш ҳамда ЎзИШЖ асосий қонунининг 114-моддасини ўзгартиш тўғрисида"ги 155-қарорига асосан пойтахт Самарқанд шаҳридан Тошкент шаҳрига кўчирилган. Мазкур қарорда пойтахтни Самарқанд шаҳридан Тошкент шаҳрига кўчириш зарурати: биринчидан, Тошкентнинг мамлакатдаги энг йирик иқтисодий ва саноат маркази эканлиги; иккинчидан, Ўзбекистоннинг "бош пахта райони" бўлган Фарғона водийси билан алоқа қилиш ва унга раҳбарлик қилиш Тошкентдан ҳар томонлама қулайлиги; учинчидан, ЎзИШЖ марказий идоралари ҳамда Ўрта Осиё идоралари билан бир шаҳарда туриб "яқин иттифоқда бўлиш" имкониятининг мавжудлиги билан асослантирилган. Кўриб турганимиздек, пойтахт Самарқанд шаҳридан Тошкент шаҳрига шўро давлатининг муҳим геосиёсий стратегик мақсадидан келиб чиқиб кўчирилган. Шундай қилиб, Тошкент шаҳри ЎзССР нинг пойтахти бўлган бўлса, 1991 йил 31 августдан ҳозирги кунга қадар суверен Ўзбекистон Республикасининг пойтахти ҳисобланади. Ўзбекистон Республикаси Конституциясининг 68-моддасига биноан Ўзбекистон Республикаси маъмурий-ҳудудий тузилишига кўра вилоятлар, туманлар, шаҳарлар, шаҳарчалар, қишлоқлар, овуллар, шунингдек Қорақалпоғистон Республикасидан иборат. Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 28 августдаги "Ўзбекистон Республикасининг маъмурий-ҳудудий тузилиши тўғрисида"ги 5-моддаси бешинчи қисмида Тошкент шаҳри туманлардан иборат экани қайд этилган. Бироқ ҳар иккала қонунда ҳам Тошкент шаҳри пойтахт, шунингдек, мустақил маъмурий ҳудудий бирлик сифатида алоҳида кўрсатилмаган. Бизнингча, пойтахтнинг мамлакат ҳаётида асосий марказ сифатидаги мавқеи ва аҳамиятини ҳисобга олган ҳолда, Тошкент шаҳрини алоҳида маъмурий-ҳудудий бирлик сифатида кўрсатиш ҳамда Ўзбекистон

Республикасининг пойтахтини белгилаш ва кўчириш тартибига оид нормани қонунчиликка киритиш мақсадга муқофиқ.

В. Россман тўғри таъкидлаганидек, пойтахтларни кўчириш – давлатнинг сиёсий ва ижтимоий ҳаётини тубдан ва ҳар томонлама ўзгартирадиган, инсоният тарихидаги энг улкан муҳандислик лойиҳаларидан бири ҳисобланади[4]. Шундай экан, дунёда пойтахтларни кўчириш тенденцияси ҳозирги кунга қадар сақланиб қолганини кўриш мумкин. Жумладан, 2006 йилда Палау давлатининг пойтахти Корор шаҳридан Нгерулмуд шаҳрига, 2019 йилда Бурунди давлатининг пойтахти Бужумбура шаҳридан Гитега шаҳрига кўчирилган.

Т.Акматалиевнинг фикрича, пойтахтларни кўчиришнинг асосий сабаби аҳоли сонининг ҳаддан ташқари кўплиги ва у билан юзага келган муаммолар, шунингдек, мамлакатнинг бошқа ҳудудларини ривожлантириш истаги билан боғлиқ. Жумладан, 2019 йилдан Индонезия пойтахти Жакарта шаҳрини Шарқий Калимантан провинцияси ҳудудига кўчириш бўйича қизғин ишлар олиб борилмоқда. Кўчиришнинг асосий омиллари сифатида Жакарта аҳолиси сонининг кўпайгани, инфратузилма тизимларининг кўплиги ва ноқулай экологик шароит кўрсатилмоқда.

Шунингдек, Жанубий Корея, Эрон, Аргентина давлатларида пойтахтни кўчириш режалаштирилаётган бўлса, Россия, Франция, Озарбайжон, Англия, Япония, Мексика, Испания каби давлатларда пойтахтни кўчириш бўйича қизғин муҳокамалар олиб борилмоқда[2].

Хулоса. Юқоридаги таҳлиллардан келиб чиқиб, қуйидаги илмий-назарий хулосалар ва қонунчиликни такомиллаштиришга қаратилган таклифлар илгари сурилади:

биринчидан, пойтахтни кўчириш тенденцияси узоқ минг йилликларга бориб тақалади ва даврлар ўтиши билан ўз актуаллигини йўқотмайди;

иккинчидан, пойтахтни ўзгартиришга таъсир қилувчи омиллар динамик хусусиятга эга бўлиб, жамият ривожланиши ва унинг манфаатларига ҳамоҳанг равишда ўзгариб боради;

учинчидан, давлатнинг тузилиши ва сиёсий тизими ҳамда тарихий анъаналаридан келиб чиққан ҳолда пойтахтни белгилаш ва кўчириш тартиби давлатлар ўртасида бир-биридан фарқ қилади. Пойтахтни белгилаш ва кўчириш тўғрисидаги қарор одатда, давлат ҳокимиятининг олий органлари (вакиллик органлари), энг олий мансабдор шахслари томонидан қабул қилинади;

тўртинчидан, бугунга кунга келиб пойтахтни кўчиришга таъсир қилувчи асосий омиллар сифатида тарихдан шаклланиб келган сиёсий, иқтисодий, ижтимоий каби омилларни қайд этиш билан бир қаторда, пойтахт аҳолиси сонининг ортиб бориши ва у билан боғлиқ муаммоларни бартараф этиш ҳамда ноқулай географик шарт-шароит ва геосиёсий вазиятни яхшилаш.

Адабиётлар

1. Азимов А. Слова на карте. Географические названия их смысл. –М.:ЗАО Центрполиграф, 2007. - 367с.
2. Акматалиев Т. Строительство новой столицы: позитивное влияние на экономическое развитие страны // Наука, новые технологии и инновации Кыргызстана. №9, 2016. – С. 80.
3. История древнего Востока / Под ред. И.М.Дьяконова, Г.М.Бонгард-Левина. – М., 1983.
4. Россман В. Переносы столиц на повестке дня современных государств // https://cuberleninka.ru/article/n/perenosy-stolits-na-povestke-dnya-sovremennyh-gosudarstv.
5. Россман В. Столицы: их многообразие, закономерности развития и перемещения. – М.: ИздвоИн-та Гайдара, 2013. – С. 35.
6. Treivish A.I.,Zotova M.V., Savchuk I.G. Types of cities in Russia and across the globe // Regional research of Russia. – Moskov, 2014. –Vol.4. -№2. –Pp. 90-91. DOI:10.1134/S2079970514020129.
7. Интернет сайт:wikipedia.org

ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИДА АГРАР-ИНДУСТРИАЛ ЦИКЛНИНГ ШАКЛЛАНИШИ ВА РИВОЖЛАНИШИ

Файзуллаев М.А., *ҚарДУ доценти,*
Навотова Д.И., *ҚарДУ ўқитувчиси*

Тарихий ривожланиш давомида аввал ўзлаштирилган ерларда вужудга келган хўжаликнинг ҳудудий таркибини мажмуага айлантиришга қараганда, янги соф ёки “бўш” жойда бу мақсадга эришиш осонроқдир. Том маънодаги ҳақиқий ҳудудий ишлаб чиқариш мажмуалари асосан янги ўзлаштирилаётган районларда, қулай табиий шароит ва ресурслар, айниқса, ёқилғи-энергетика заҳиралари негизида вужудга келиши билан ажралиб туради. Н.Н.Колосовский 8та асосий цикллар қаторида аграр-индустриал циклларни ҳам ажратган. Шу нуқтаи назардан, Қашқадарё вилоятида жумладан, Қарши чўли доирасидаги – янги ўзлаштирилган Қуйи Қашқадарё минтақасида ўзига хос ҳудудий ишлаб чиқариш мажмуаси шаклланган.

Н.Н.Колосовский ҳудудий ишлаб чиқариш мажмуалари ибораси иқтисодий районлар тўғрисидаги тушунча ўрнини эгалламайди, балки бу иқтисодий районларнинг ўзагини ташкил этади, холос, деб уқтирган эди[1]. Дарҳақиқат, ҳудудий ишлаб чиқариш мажмуалари мазмун ва сифат жиҳатдан, айниқса ишлаб чиқариш корхоналарини маълум бир нуқтадаги ёки жойдаги турғун бирикмаси сифатида иқтисодий районлардан фарқ қилади.

Демак, ҳудудий ишлаб чиқариш мажмуалари турли босқичдаги иқтисодий районларнинг моддий асосини ташкил қилади. Жанубий Ўзбекистонда минтақасида бу мажмуа қишлоқ хўжалиги ҳамда ёқилғи-энергетика, тоғ-кон, кимё саноати негизида шаклланган. Бундай икки йўналишдаги хўжалик тизимини электр энергетика боғлаб туради.

Н.Н.Колосовскийнинг яна бир илмий ғояси *–энергия ишлаб чиқариш цикллари* таълимотидир. Бу таълимот маълум хом ашё ва энергия базасида асосий ишлаб чиқаришнинг технологик жиҳатдан узлуксиз, “занжирсимон” ташкил этилиши ва ишлаб чиқариш чиқиндиларидан ҳам фойдаланишни назарда тутади[1]. Асосий ишлаб чиқариш жараёни сифатида у ёки бу иқтисодиёт тармоқ

хизмат қилади, унга технологик жиҳатдан боғлиқ корхоналар “ҳамроҳ” бўлади. Шу боис, энергия ишлаб чиқариш циклларини алоҳида тармоқ ёки тармоқлараро мажмуа деб ҳам бўлмайди. Сабаби, бу ерда бошқа тармоқлар фақат ўзларининг алоҳида айрим корхоналари билан иштирок этади, холос.

Энергия ишлаб чиқариш циклларини Н.Н.Колосовский, Ю.Г.Саушкин, А.Т.Хрушев ва бошқалар айни вақтда иқтисодий район – ҳудудий ишлаб чиқариш мажмуаларини таҳлил қилиш методи, ўзига хос модели мазмунида ҳам талқин қилишган [1,2,3]. Чиндан ҳам бу усул корхоналарнинг нима учун шу ерда жойлашганлиги, ишлаб чиқаришнинг нақадар тўлиқ технологик жараён цикл тарзда эканлиги, хом ашё ва энергиядан (ёқилғи, электр энергия, меҳнат ресурслари ва б.) самарали фойдаланиш тўғрисида маълумот беради. Унинг шу билан бирга, экологик аҳамияти ҳам катта.

Шу нуқтаи назардан қараганда, Қашқадарё вилоятида асосан 2 та энергия ишлаб чиқариш цикллари шаклланмоқда. Уларнинг биринчиси нефт-газ-кимё, иккинчиси аграр-индустриал цикл ҳисобланади. Шунингдек, бу ерда республика газ-кимё цикли ҳам вужудга келган.

Қашқадарё вилояти а*грар-индустриал циклнинг* таркибий тузилиши (модели), Ю.Г.Саушкин тавсифи бўйича дарахт шаклида акс эттирилган. Унинг асосини янги ўзлаштирилган ҳудудларнинг ер-сув ресурслари ташкил қилади [4]. Маълумки, XX асрнинг 70-йилларида собиқ Иттифоқнинг пахтачилик сиёсати натижасида Қарши чўли кенг миқёсда ўзлаштирилди. Қашқадарё вилояти қўшни Туркманистон давлати ҳудудидан оқиб ўтадиган Амударё сувини насослар ёрдамида юқорига кўтариш асосида сув билан таъминланди. Сув олишнинг доимийлигини сақлаш учун Талимаржон иссиқлик электр станцияси қурилди. Қуйи Қашқадарё меҳнат ресурсларига бўлган эҳтиёж маҳаллий ва вилоятнинг бошқа туманларидан кўчириб келтирилган аҳоли билан таъминланди. Демак, минтақада гидромелиоратив аграр-индустриал циклнинг шаклланиши учун тўртта асос бор, булар: *ер ресурслари, сув ресурслари, меҳнат ресурслари ва электр энергия*[5].

Ушбу циклнинг шаклланишида *ер ресурслари* етакчи ҳисобланиб, у цикл (мажмуа) ҳосил қилиш аҳамиятига эга. Ўзбекистон умумий майдонининг 56,9 фоизи *қишлоқ хўжалиги ерлари* ҳисобланса, вилоятда бу кўрсаткич 75,0 фоизга тенг. Умумий ер майдонидан қишлоқ хўжалигида фойдаланиш коэффициенти вилоят минтақаларида ҳам бир-биридан фарқ қилади. Қашқадарё вилояти минтақаларида бу кўрсаткич қуйидагича: Қуйи Қашқадарё (Касби, Косон, Миришкор, Муборак, Нишон, Қарши) – 0,81 га тенг бўлса, Ўрта Қашқадарё (Деҳқонобод, Чироқчи, Қамаши, Ғузор) – 0,75, Юқори Қашқадарё (Китоб, Шаҳрисабз, Яккабоғ) – 0,64 га баробар.

Аграр-индустриал энергия ишлаб чиқариш циклининг иккинчи базавий асоси *сув ресурслари* ҳисобланади. Улар минтақада интенсив суғорма деҳқончиликни ривожлантиришда муҳим ўринга эга. Амударёдан сунъий йўл билан (насослар ёрдамида) сув чиқарилиши натижасида Қарши чўлида кенг кўламли ўзлаштирилиш ишлари олиб борилди. Минтақанинг асосий сув манбаи Қарши магистрал канали (ҚМК) асосан Амударёдан олинаётган сувни дастлаб Таллимаржон сув омборига ва сўнгра истеъмолчиларга етказиш учун хизмат қилади.

Қуйи Қашқадарё минтақа суғориладиган ерлари сув манбаларидан фойдаланиш ҳолати мазкур минтақанинг тўлиқ Амударёга боғлиқ эканлигини кўрсатади. Минтақа жами суғориладиган ерларини 2/3 қисмига яқини, яъни 216,1 минг гектари Қарши магистрал канали, 33,1 фоизи ёки 109,6 минг гектари Миришкор канали ва атиги 1,7 фоизи ёки 5,5 минг гектари Қашқадарёда сувлари билан суғорилади. Демак, минтақа қишлоқ хўжалиги суғориладиган ерларини 98,3 фоизи сунъий суғориш тизими насослар ёрдамида ҳосил қилинадиган сув билан таъминланади.

Сўнгги йилларда иқлимнинг қурғоқчил келиши, мазкур ирригация тизимлари ишчи ҳолатининг талабга жавоб бермаслиги туфайли Амударёдан сув олиш ҳажми камайиб кетмоқда. Хусусан, 1996 йил 3218,3 млн м^3 сув олинган бўлса, 2000 йилда бу кўрсаткич 3483,3, 2005 йилда 3627,0, 2010 йилда 3251,2 ва 2019 йилда 2904,0 млн м^3 ни ташкил қилди. Шу ўринда

таъкидлаш лозимки, Қуйи Қашқадарёни сув билан таъминланиши трансчегаравий аҳамиятга эга эканлиги ва сувнинг насос станциялар ёрдамида юқорига кўтариб берилиши билан бирга катта миқдордаги электр энергиянинг сарфланиши ўзига хос иқтисодий, геосиёсий муаммоларни келтириб чиқаришига сабаб бўлади [6].

Минтақада гидромелиоратив аграр-индустриал циклнинг шаклланишида *аҳоли ва меҳнат ресурсларининг* ўрни ҳам катта. Бинобарин, Шу ўринда демографик омилнинг ер ва сув ресурлари билан бирга ўзаро боғлиқлиги ва уларнинг кўп меҳнат талаб қиладиган гидромелиоратив энергия ишлаб чиқариш циклининг шаклланишида асосий базавий вазифани бажаришини таъкидлаш жоиз. 2021 йилнинг маълумотига кўра, Қуйи Қашқадарё минтақасида вилоят аҳолисининг 33,3 фоизи (1134,5 минг киши)истиқомат қилади. Минтақа таркибидаги туманларга ўртача 142,5 минг кишидан тўғри келади. Бироқ, демографик салоҳияти бўйича туманлар бир-биридан кескин фарқ қилади. Масалан, Косон (297,5минг киши) ва Қарши (259,4минг киши) туманлари аҳоли сонининг кўплиги билан алоҳида ажралиб туради. Шунингдек, Касби ва Нишон туманларида ҳам аҳоли сони нисбатан кўпроқ. Минтақа табиий шароитининг ноқулай бўлган қисмида жойлашган Миришкор ва Муборак қишлоқ туманларида эса аҳоли жуда кам. Ушбу минтақа аҳолисининг яна бир ўзига хос хусусияти (Қарши чўли ўзлаштирилган даврда) бошқа туман ёки вилоятлардан ички миграция орқали шаклланганлигидир.

Маълумки, Қашқадарё вилояти аҳоли сонининг ўсиши бўйича республикамизнинг етакчи минтақаларидан бири ҳисобланади. Масалан, мамлакат аҳолиси 2000-2020 йилларда 115,7 фоизга ўсган ҳолда, Қашқадарёда бу кўрсаткич 122,0 фоизга тенг. Таъкидлаш лозимки, Қашқадарё вилояти аҳолиси фақат табиий ҳаракатнинг юқорилиги туфайли муттасил ўсиб бориш хусусиятига эга. Қуйи Қашқадарёда эса аҳоли ўсишида табиий кўпайишнинг ўрни катта бўлгани билан бирга, тарихий нуқтаи назардан унда миграциянинг ҳам аҳамияти йўқ эмас.

Маълумотлардан кўриниб турибдики, Қуйи Қашқадарё минтақаси аҳолисининг ўсиши туманлар даражасида кўрилганда бир хил эмас. Хусусан, Нишон

туманида кўрилаётган йилларда аҳолининг ўсиши энг юқори кўрсаткични ташкил этган (127,8 %). Миришкор (125,5 %) ва Косон (124,4 %) туманларида ҳам мазкур кўрсаткич анча юқори. Айни вақтда, минтақа қишлоқ туманларидан фақат Муборакнинг бу борадаги кўрсаткичи вилоят ўртача даражасидан паст.

Минтақа табиий ва ижтимоий-иқтисодий географик муҳитига мос ҳолда аҳоли унинг ҳудудида бир текис жойлашмаган. Ўртача зичлик 1 $км^2$ га 98 киши, бу рақам вилоят ўртача кўрсаткичидан (119 киши) деярли 20 кишига кам демакдир. Аҳоли энг зич жойлашган Касби ва Қарши туманларида 1 $км^2$ га яқин 290 киши тўғри келади. Бу қишлоқ туманлари аҳоли зичлиги бўйича нафақат Қуйи Қашқадарё минтақасида, балки вилоятда ҳам етакчилик қилади. Шу билан бирга мазкур кўрсаткич Муборак, Миришкор қишлоқ туманларида анча паст.

1 январь 2020 йил маълумотларига кўра, Қашқадарёда меҳнатга лаёқатли аҳоли сони 1817,6минг кишини ташкил этган. Шундан 609,2минг киши яъни 1/3 қисми Қуйи Қашқадарё минтақасига тўғри келади. Меҳнат ресурслари салмоғи бўйича ҳам Косон ва Қарши туманлари олдинда, уларнинг ҳар бирида меҳнатга лаёқатли аҳоли 100 минг кишидан ортиқ. Аксинча, Нишон, Миришкор ва Муборак туманларида уларнинг сонини кам эканлигини кўришимиз мумкин.

Юқоридаги геодемографик таҳлил шуни кўрсатадики, Қуйи Қашқадарё минтақасида гидромелиоратив аграриндустриал циклнинг шаклланиши учун меҳнат ресурслари етарли ва бу циклнинг ривожланиши орқали минтақада аҳоли бандлигини ошириш, меҳнат ресурсларидан тўлароқ фойдаланиш муаммолари бироз бўлсада ўз ечимини топади.

Гидромелиоратив аграриндустриал циклнинг вужудга келишида *электр энергиянинг* роли жуда катта. Қуйи Қашқадарё қишлоқ хўжалигининг кўп электр энергия истеъмол қилиши ҳам унинг муҳим географик хусусиятларини белгилаб беради. Бугунги кунда минтақада ижтимоий-иқтисодий ислоҳотларни амалга ошириш учун ишончли энергетика базаси яратилган. Талимаржон ИЭС– Ўзбекистонда қурилаётган йирик иссиқлик электр станцияларидан бири бўлиб, у Қашқадарё вилоятининг Нишон туманидаги Нуристон шаҳарчасида, Талимаржон сув омборидан 7 км узоқликда жойлашган. 1988 йил январида

бошланган лойиҳа қуввати 3200 мвт (800мвт ли 4-энергия блокда) бўлган станциянинг биринчи энергия блоки 2004 йил охирида ишга туширилди. ИЭС учун асосий ёқилғи Шўртан газ конидан олинадиган табиий газ ҳисобланади. Талимаржон ИЭС вилоятдаги қишлоқ хўжалигини, саноат корхоналарини, аҳоли манзилгоҳлари ва бошқа истемолчиларни электр энергияси билан таъминлайди. Бу ерда 2020 йилда 554,3 млн квт.с. электр энергия ишлаб чиқарилган.

Қуйи Қашқадарёда қишлоқ хўжалиги ва унинг тармоқларини мажмуали шаклланиши ва ривожланишига чўл ўзлаштирилиши билан таркиб топган *ирригация-мелиорация инфратузилмасининг* аҳамияти жуда катта. Минтақа қишлоқ хўжалигини сув билан таъминлашда Амударёдан Қарши магистрал канали, Миришкор канали ва Таллимаржон сув омборига сув етказиб беришда 7 кўтармали ҳар бирида 6 донадан 36 $м^3$/сек сув чиқарувчи Қарши магистрал канали насос станциялари каскади хизмат килади. Шунингдек, вилоят истеъмолчиларига сув беришда Қашқадарё, Танхоздарё, Жиннидарё, Оқсувдарё, Катта-кичик Урадарё, Ғузордарё, Яккабоғдарё, Қумдарё, Лангардарё дарёлари ва бир неча сойлардан фойдаланилади. Суғориш мавсумида кафолатли сув билан таъминлаш мақсадида вилоятда 14 та сув омбори, 62 та доимий насос станциялари, 24 минг километрдан зиёд суғориш тармоклари ҳамда 2828 та гидротехник иншоотлар фаолият кўрсатмоқда.

Умуман олганда, вилоятда агроиндустриал циклнинг шаклланишида деҳқончилик тармоғининг ҳиссаси юқори бўлиб, қишлоқ хўжалиги маҳсулотларини *қайта ишлаш саноатини* ривожлантириш имкониятларини кенгайтириш хусусиятига эга. Қуйи Қашқадарёда пахтани қайта ишлаш корхоналари Косон, Миришкор, Касби, Нишон ва Қарши туманларида жойлашган. Бу заводлар минтақада етиштирилган ҳосилни тозалаш қувватига эга. Бироқ, бу ерда пахта хом ашёси асосида ишлайдиган тўқимачилик корхоналари етарли эмас. Иқтисодий имкониятларни ошириш мақсадида тайёр маҳсулотлар ишлаб чиқариш ва экспорт салоҳиятини кўтариш учун вилоятда тўқимачилик корхоналарини кўпайтириш энергия ишлаб чиқариш циклининг бу муҳим занжири (бўғини)ни ривожлантириш мақсадга мувофиқдир.

Адабиётлар

1. Колосовский Н.Н. Избранные труды. – Смоленск: Ойкумена, 2006. –336 с.
2. Саушкин Ю.Г. Географическое мышление. – Смоленск: Ойкумена, 2011. – 218 с.
3. Хрущев Н.Т. Избранные труды. – Смоленск: Ойкумена, 2001. – 320 с.
4. Солиев А. Иқтисодий география: назария, методика ваамалиёт. – Тошкент:Камалак, 2013. – 184 б.
5. Файзуллаев М.А. Жанубий Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги географияси (Монография). Қарши, “Университет”, 2019. – 245 б.
6. Файзуллаев М.А. Қишлоқ хўжалигини ҳудудий ташкил этишнинг назарий асослари // ЎзМУ хабарлари. №3/1 – Тошкент, 2014. – Б.95-98.

РОЛЬ «ПОЛЕЗНЫХ РОССЫПЕЙ АНТРОПОГЕННОГО ПРОИСХОЖДЕНИЯ» В СТРАТЕГИИ РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА

Азимов Ботир Ганиевич,
кандидат геолого-минералогических наук, доцент,
Жанкобилов Илхомиддин Холмуратович,
кандидат географических наук, доцент,
Эркинова Комола Баходир кизи, *магистрант I курса,*
Абдуназаров Нуриддин Шерзод угли, *магистрант I курса*

Как известно, на аэро- и крупномасштабных космических снимках в видимой части спектра наиболее четко изображены природные компоненты земной поверхности, в том числе площади антропогенного нарушения окружающей среды. В литературе подробно изложены общие принципы экологического дешифрирования космических изображений Земли с целью оконтуривания антропогенных, полуприродных, трансформированных и экотехнических систем на основе генетических классов [1].

В своих исследованиях в отличие от других специалистов по дистанционному исследованию Земли мы попытались решить нетрадиционный вопрос, определить с помощью аэро - и космических материалов главные факторы, создающие экологические проблемы. Причем в процессе работ нами были исключены один за другим все второстепенные факторы. В итоге остались

два главных фактора – материя (т.е. экологически изменен-ный природный компонент) и человеческий труд [2-5].

Полученные нами результаты оказались противоречивыми философскому понятию «культура», т.е. материя вместе с человеческим вложенным трудом должны сформировать материальное богатство, а не фактически получаемую экологическую проблему. Целенаправленный анализ взаимодействия двух главных факторов позволил нам определить, что именно ныне существующее философское понятие «культура» и приводит к экологическим бедствиям. Поэтому мы были вынуждены предложить новое понятие «общечеловеческая культура». Оно может быть отражено в виде следующей формулы:

$$\mathbf{М + Т} = \boldsymbol{Мб + Ом},$$

где М – материя, Т - человеческий труд,

Мб – материальное богатство, Ом - остатки материи.

Как видно из формулы, в результате взаимодействия материи и человеческого труда образуются две самостоятельные системы. Первая из них, т.е. материальное богатство по философской терминологии означает «культура». Вторая - «остатки материи» мы называем системой «культуры вторичного сырья», которая является по нашей терминологии **«полезными россыпями антропогенного происхождения»** (ПРАП). Они в зависимости от действующих факторов классифицируются на следующие четыре типа ПРАП, связанные с:

1) деятельностью горнодобывающей промышленности;

2) деятельностью промышленности;

3) деятельностью сельскохозяйственных и фермерских работ;

4) трудовой деятельностью человека и относящихся к бытовым услугам.

Нетрудно заметить, что продукция горнодобывающей промышлен-ности (тип I), проходя процесс переработки (тип II) совместно с сельскохозяйственной

и фермерской продукцией (тип III) преимущественно накапливаются на территориях городов. После использования своего предназначения они превращаются в так называемые «бытовые отходы». Среди них часто встречаются различные разбитые стекла и стеклянная посуда, которые являются вторичным сырьем нерудной геологии, также металлические крышки и консервные банки, служащие в качестве вторичного сырья рудной геологии, особенно в большом количестве накапливаются полиэтиленовые мешки и различные баклажки, которые по сущности относятся к вторичному сырью нефтегазовой геологии.

Если к вновь сформулированной системе «культуры вторичного сырья» и ее составляющему компоненту «остаткам ценной материи» или «полезным россыпям антропогенного происхождения» будут применены существующие методы экологии, разработанные на основе биологической науки, где главное внимание будет уделено лишь охране окружающей среды, то остатки ценной материи будут превращаться в токсичные вещества. Возникновение экологически вредных масс связаны с взаимодействием компонентов органических и неорганических веществ, где разрушающим фактором является вода, содержащиеся в составе некоторых органических остатках до 94% (например, в остатках дин, арбузов, помидоров, огурцов и др.).

По нашему мнению, необходимо создать в географических и геологических факультетах, в том числе и в Республике Узбекистан новый предмет **«Полезные россыпи антропогенного происхождения»,** главной целью изучения которого будет исследование генезиса, процессов миграции и охрана остатков ценной материи как вторичного сырья. Таким способом можно научно обоснованно создать условия, когда остатки ценной материи в населенных пунктах будут возвращаться к системе «материального богатства». Следует также заметить, что при каждом переходе ПРАП из системы «остатков материи» (***Мо***) к системе «материального богатства» (***Кб₂***) будут создаваться

крупные дополнительные источники доходов (этот процесс на рисунке 1 показан синей стрелкой).

Если к остаткам материи будет применен лозунг «охрана окружающей среды», то эти уникальные вещества обязательно перейдут в "мусорное" состояние, а для вывоза их из населенных пунктов к мусоросбророчным полигонам потребуются миллиарды сумов (этот процесс на рисунке 1 показан красной стрелкой).

Рис. 1. здесь: $\boldsymbol{M_1}$ – материя; ***Чт*** – человеческий труд; $\boldsymbol{Кб_1}$ – система первичных культурных благ; ***Мо*** –остатки материи (система вторичного сырья); $\boldsymbol{Кб_2}$ – культурные блага, повторно приготовленные из остатков вещества в системе вторичного сырья; $\boldsymbol{M_2}$ – мусоросбророчные полигоны.

Новому предмету **«Полезные россыпи антропогенного происхождения»** присущ уникальный потенциал для расширения малого бизнеса и частного предпринимательства, развитие инновационной деятельности географических и геологических факультетов. Для этого необходимо разработать основные принципы, механизмы техники и технологии целенаправленных работ.

В настоящее в структуре ТашГТУ создан Научно-инновационный центр «Техника и технология переработки полезных россыпей антропогенного происхождения» с целью подготовки специалистов, которые будут способствовать развитию нетрадиционного малого бизнеса и частного предпринимательства на основе остатков материи в каждой махалле.

Таким образом, «полезные россыпи антропогенного происхождения» и по содержанию, и по форме станут источником экономического дохода, а сущность экологических проблем городских территорий будет представлять собой скрытый ресурс государств, в частности в стратегии развития Узбекистана.

Литература

1. Виноградов Б.В. Аэрокосмический мониторинг экосистем / Б.В. Виноградов, –М.: Наука, 1984. 320 с.

2. Азимов Б.Г. Нетрадиционный дистанционный подход к решениям экологических, философских и экономических задач // В сб.: «Современные техника и технологии горно-металлургической отрасли и пути их развития» – Навои, 2010, – С. 109.

3. Азимов Б.Г. Мураккаб карантин шароитида Ўзбекистонда ноанъанавий иқтисодий ривожланишни таъминловчи инновацион таълимни яратишда аэрокосмик усулнинг аҳамияти. Монография –Т.: «INNOVATSION RIVOJLANISH NASHRIYOT-MATBAA UYI» – 2021, 132 бет.

4. Азимов Б.Г., Азимова Г.А., Эркинова К.Б., Худайберганов А.А. Нетрадиционное инновационное образование для практического решения социальных и экологических проблем многоэтажных зданий // XLII Международная научно-практическая конференция ***«Eurasiascience»*** –Москва, 2021. 177-178 с.

5. Азимов Б.Г., Эркинова К.Б., Абдуназаров Н.Ш., Жумаев А.Ш. Законы обеспечения макроэкономической стабильности Узбекистана в условиях

сложного карантина // XLII Международная научно-практическая конференция ***«Eurasiascience»*** –Москва, 2021, 179-181 с.

ТОҒ ВА ТОҒОЛДИ ЛАНДШАФТЛАРИДА ЭКОТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ АЙРИМ МАСАЛАЛАРИ
(Ҳисор давлат қўриқхонаси мисолида)

Ярашев Қ.С., *СамДУ доценти, г.ф.ф.д. (PhD)*
Юсупов Б.Б., *СамДУ таянч докторанти,*
Очилов С., *СамДУ магистранти*

Сўнгги йилларда республикамиз тоғли ҳудудларда рекреация ва туризмни истиқболли тармоқларини ривожлантиришга катта эътибор қаратилмоқда. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёев "мамлакатимизнинг бетакрор табиати, миллий қўриқхоналар, тоғли ҳудудларда туризмни ривожлантириш учун катта салоҳият мавжуд"[[1]] деб таъкидлаганлар. Мамлакатимизнинг 31,3% майдонини тоғли ҳудудлар ташкил этади ва бу ҳудудларда аҳолининг 10 % дан кўпроғи яшаши манбалардан маълум. Бугунги кунда Жаҳон мамлакатларининг кўпчилигида туризм мамлакат иқтисодиётининг ажралмас қисми бўлиб улгургани бежиз эмас. Бундай мамлакатларда иқттисодий фаол аҳолининг 10-15% и туризм соҳасида иш билан банд (Yarashev, Xasanov, Qurbonova, Sadulloyeva, 2021).

Республикамиз ҳудудлари, айниқса тоғ ва тоғолди ҳудудлари экотуризм ресурсларига бой давлатлар каторида туради. Республикамиз Ўрта Осиё давлатларининг ўзаро алоқаларини географик жиҳатдан боғловчи ҳудуд сифатида қаралади. Шу сабабли республикамизда ички ва ташқи туризмни ривожлатиришнинг жуда катта имкониятлари мавжуд. Мана шундай ҳудудлардан бири Қашқадарё ҳавзасининг юқори тоғли қисми ҳисобланади. Қашқадарё ҳавзаси геоморфологик жиҳатдан тоғ ва текисликлардан иборат бўлиб, ландшафтларнинг зонал ва вертикал табақаланишни, ўзига хос иссиқлик режими ва намланиш шароитларига, рельефига ва бошқа омилларга боғлиқ (Абдуллаев, Усмонова, 2003). Қашқадарё ҳавзасининг тоғли қисмида ландшафтларнинг горизонтал зоналлиги вертикал зоналлик билан ўрин алмашади. Тоғлардаги вертикал зоналлик энг аввало морфоструктуравий

табақалашувнинг энг яққол намоён бўладиган географик оқибатидир. Тоғларда ландшафтларнинг баландлик зоналлик радиуси миқдорининг кескин камайиши, шунингдек, ёғинлар миқдорининг ўзгариши (дастлаб кўпайиш ва кейин камайиш) туфайли содир бўлади. Бошқа тоғли ўлкалардаги каби мазкур ҳавза тоғларида ҳам баландлик зоналликнинг тизимлари хилма-хил бўлиб, ҳар бир баландлик зонасига баландлик зоналликнинг алоҳида тури тўғри келади (Назаров, 2020).

Қашқадарё ҳавзасининг тоғлик қисмида гипсометрик баландлик, рельефнинг генезиси ва парчаланиш даражасига кўра ландшафтларда қуйидаги кичик синфларини ажратишга имкон беради: 1) тоғолди адирлар ва паст тоғларнинг ландшафтлари; 2) ўртача баландликдаги тоғ ландшафтлари; 3) баланд тоғ ландшафтлари. Шунингдек, тоғолди адирлари ва паст тоғ ландшафтлари кичик синфда ўртача қуруқ типик бўз тупроқларидаги тоғ чалачўл ландшафтлари зонал типини ажратишга имкон беради (Абдуллаев, Усмонова, 1997).

Жаҳонда экотуризмни ривожлантиришда ягона, ҳар бир давлатларнинг табиий иқлим шароитига, улардаги туризм ресурсларидан фойдаланишда тўғридан-тўғри мос келадиган, қулай бўлган моделлар ёки усуллар ҳозиргача ишлаб чикилган эмас. Лекин, экотуризмни ривожлантиришда миллий парклардан ва давлат табиий қўриқхоналаридан фойдаланиш масалалари яхши тадқиқ қилинган (Yarashev, Xasanov, Qurbonova, Sadulloyeva, 2021; Yarashev, Hasanov, Badalov, 2020). Энг аввало Ўзбекистонда жойлашган давлат қўриқхоналарида миллий резерватлар ташкил қилиш, яъни қўриқхона ичида қўриқхона табиати, ундаги биохилмахилликка зарар етказмасдан ундаги қўриқланаётган ўсимлик, ҳайвонот оламига туристлар томоша қиладиган туристик маршрутлар ишлаб чиқиш лозим (Yarashev, Hasanov, Badalov, 2020). Бунга Ҳисор давлат қўриқхонаси **экотуризни ташкил этишда эталон объект сифатида** қарашга ёрқин мисол бўлиши мумкин.

Ҳисор давлат қўриқхонаси ҳудуднинг катталиги жиҳатидан республика қўриқхоналарининг энг йириги бўлиб, Қашқадарё вилояти Шаҳрисабз ва

Яккабоғ туманларининг ҳудудларида жойлашган. Шунингдек, унинг шимолий ва жанубий майдонлари Китоб ва Қамаши районларига қарашли ерларни ишғол этади. Қўриқхонанинг майдони 80986 га дан иборат бўлиб, Ўзбекистонинг жанубий минтақалари, Қашқадарё ва Сурхондарё ҳавзаларини бир-биридан ажратиб турадиган Ҳисор тоғ тизмасининг ғарбий тармоқларида қўриқхона ташкил этилган, яъни, Ҳисор давлат қўриқхонаси мамлакатимиз ҳудудининг энг баланд қисмида, Помир-Олой тоғ тизимига кирадиган Ҳисор тизмасининг шимолий-ғарбий қисмида жойлашган. Ҳисор давлат қўриқхонасининг Китоб геологик ва Сурхон (Кўҳитанг ва Пайғамбаророл) бўлимлари ҳам мавжуд.

Тўқай ва тоғ ўрмон қўриқхоналари билан бирга Жанубий Ўзбекистон ҳудудларида қўриқланадиган бошқа ландшафтлар Ҳисор давлат қўриқхонасининг объектига киради. Қўриқхонанинг 2000 га ҳудуди экотуризмни ривожлантириш учун ажратилган қўриқланма зона ҳисобланади. Қўриқхона қуйидаги 4 та бўлимга бўлинган: 1. Ғилон бўлими ер майдони - 18838,1 га; 2. Мираки бўлими, ер майдони - 11821,0 га; 3. Танхоздарё бўлими ер майдони - 20233,0 га; 4. Қизилсув бўлимии ер майдони - 30094,0 га.

Қўриқхона ҳудуди 17 та сархад, 54 та айланиш бўлакчаси иборат. Ҳисор давлат қўриқхонасининг асосий қисми, яъни блимларини ҳисобга олмаганда, ягона массив сифатида шарқдан ғарбга 37 км га, шимолдан жанубга 90 км га чўзилган. Ҳисор қўриқхонасидаги тоғлар альп тоғ бурмаланишида шаклланган ёшроқ тоғлардир. Шу бурмаланишга қадар узоқ геологик даврларда бу ҳудуд бутун Жанубий Ўзбекистон билан биргаликда бир неча бор денгиз трансгрессияси ва регрессиясига дуч келган. Қўриқхона ҳудудига шимолдан туташган Сумсар-Шертоғ ва Ҳазрати Султон тоғларининг кристалл замини палеозой эрасининг силур, девон даврларининг денгиз ётқизиқларидан ҳосил бўлган метоморфлашган оҳактошлар ташкил этади. Китоб геологик қўриқхонаси ҳудуди силур-девон-карбон денгиз ётқизиқлари сақланиши жиҳатдан жаҳонда ноёб геологик ёдгорликлардан бири ҳисобланади. Оқсув дарёсининг Ҳисорак қишлоғидан Ҳазрати Султон тоғигача бўлган майдони девон даврига мансуб оҳактошлардан тузилган, бу жинс мажмуалари перм даврида Зарафшаон тоғ

тизмаси кўтарилишидан таъсирланиб, зичлашган, баъзан метоморфлашган (Маматов, 2001).

Ҳудуд рельефи кучли парчаланган. Чўққиларининг баландлиги 2500 м дан 4421 м гача. Жумладан, Ҳазрати Султон тоғи - 4643 м, Хўжа Киршавор - 4303 м, Тўртқўйлик - 4366 м, Биби Ўлмас тоғи - 4349 м. Ўзбекистоннинг энг баланд нуқталаридан бири ҳам қўриқхонанинг Тўртқўйлик тоғидаги денгиз сатҳидан 4421 м баландликда жойлашган номсиз чўққидир. Ҳудудда мезазой-кайназой даври охакташли ётқизиқларида карст жараёнлари кенг тарқалган. Карст жараёнлари таъсирида ўралар, даралар, токча ва ғорлар каби рельеф шакллари кўплаб учрайди. Ҳудудда тоғ дарёлари ва сойлари чукур канионсимон дараларни ҳосил қилади (Маматов, 2001).

Ҳисор тоғ тизмаси денгиз ва океанлардан узоқда жойлашган, шу сабабли қўриқхона ҳудуди континентал иқлим хусусиятларига эга ва метеорологик кўрсаткичлар тез-тез ўзгариб туради. Куз ва қиш ойларида йиллик ёғиннинг 64% и ёғади. Май ойдан сентябр ойигача ёғинларнинг камлиги ёки умуман бўлмаслиги ўсимликлар вегетациясига салбий таъсир кўрсатади. Қўриқхона ҳудудининг рельефининг парчаланганлиги бу ерда шамол йўналишини ўзгаришига сабаб бўлади, яъни кечаси тоғдан текисликка, кундузи эса текисликдан юқорига шамол эсиши кузатилади.

Ҳисор давлат қўриқхонаси ҳудудида экотуристик маршрутлар ташкил этиш мақсадга мувофиқ. Экотуризм объекти сифатида ривожлантиришда қуйидагиларга эътибор бериш лозим: қўриқхона ҳудудида ташриф маркази ташкил этиш ва бу марказни экотуристик объект сифатида шакллантириш ва марказни экологик маълумотлар йиғадиган, уларни рекламаси ва тақдимоти билан шуғулланадиган замонавий ахборот марказига айлантириш лозим. Бу марказни замонавий ахборот технологиялари, жумладан, мультимедия воситалари билан жиҳозлаш;

туризм инфраструктурасини замонавий талаблар асосида шакллантириш, экотуристик маршрутлар (пиёда ва отда) юришни ташкил этиш ва уларни ҳавфсизлик нуқтаи-назаридан жиҳозланишини таъминлаш. Шу жумладан,

Ҳазрати Султон ота зиёратгоҳи ва Амир Темур ғорига чиқадиган сайёҳлар учун отда ва пиёда саёҳат хизматини ташкил қилиш;

экотуризмга доир тарғибот ишларини амалга ошириш, яъни қўриқхонанинг табиати ва фаолиятига доир реклама шитлариини кенг миқёсда аҳоли кўп тўпланадиган жойларда (парклар, автомобил ва темирйўл вокзалларида, аэропорт ва бошқалар), интернет тармоғига жойлаштириш;

экотуризмга доир маълумотномалар, реклама буклетлари, рисолалар, фотожамланмалар, видеолавҳалар ва бошқаларни тайёрлаш ҳамда омма эътиборига ҳавола этиш;

қўриқхона веб-сайтини яратиб, у ерда экологик туризмга доир маълумотларни жойштириш ҳамда унинг оммабоплигига эришиш;

қўриқхонанинг диққатга сазовор жойларини, масалан, Оқсув дарёси бўйлари, тоғ ўрмонлари, жумладан, Сувтушар участкаси каби жойларни ОАВлари ва ижтимоий тармоқларда реклама қилиш ва ҳ.к.

Ҳисор давлат қўриқхонасининг қўриқланадиган зонасида жойлашган Сувтушар шаршараси ҳудудида сайёҳлик фаолиятини ривожлантириш имкони катта. Сувтушар шаршараси 2100 м баландликда жойлашган бўлиб, сувнинг тиниқлиги ва кўринишидан оқлиги сабабли халқ орасида “суттушар” номи билан танилган. Аввалда бу ҳудуд қатъий қўриқланадиган режимга эга бўлиб, сайёҳлар ташриф буюришлари тақиқланганди. Лекин, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 20 мартдаги ПҚ-4247-сонли “Қўриқланадиган табиат ҳудудлари соҳасида давлат бошқаруви тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори ва Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2018 йил 6 февралдаги 1599-ХХ-сонли топшириғи ижроси йўлида экологик туризмни ривожлантириш учун қўриқхонанинг айрим участкаларида табиатни қўриқлаш мақомини (қўриқланадиган зона режимидан) ўзгартириш ишларини ташкиллаштиришга имкон туғилди. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2020 йил 18 февралдаги 94-сонли қарорига кўра, умумий майдони 13231,3 га бўлган, жумладан, 11231,3 га турли ердан фойдаланувчилар ерларидаги

қўриқланадиган зона ва 2000 га ҳудудда табиатни қўриқлаш мақоми ўзгартирилди. Шу тариқа қўриқхона ҳудудининг айрим участкаларида, туристик, жумладан экотуристик фаолиятни ривожлантириш имкони яратилди. Ҳозирда қўриқхона ҳудудида ҳам, унинг қўриқлаш зонаси ҳудудида ҳам туризмни ривожлантириш учун инфратузилма амалда мавжуд эмас. Шуларни назарда тутиб ҳудудда экотуризмни ривожлантириш учун қуйидаги ишларни амалга ошириш тавсия этилади: 1) хавфсизликни таъминлаш мақсадида ҳудудларн иҳоталаш – шаршарага ёндош ҳудудга келувчилар сонини тартибга солиш; 2) ўтказиш пунктларини ташкил этиш; 3) экотуристик объект (шаршара)га келувчиларга чипта сотиш ва рухсатномалар бериш билан шуғулланадиган, ташриф буюрувчилар билан ишлаш пункти; 4) чегара ўтказиш пункти, унда турникетли, қўриқхонани қўриқлаш ишчиси (у олинган рухсатномалар асосида ташриф буюрувчиларни ҳудудга киритади) учун махсус жой; 5) қўриқхона ҳодимлари учун дам олиш хонаси, жиҳоз ва ускуналар сақланадиган омборхона, ошхонага эга иншоот қуриш; 6) сайёҳларнинг сой орқали ўтишини қулайлаштириш учун - кўприк қуриш; 7) объект ҳудудида экосўқмоқлар ташкил этиш – келувчиларга қулай бўлиши учун шаршарага олиб борувчи, қўриқхона ҳудуди билан танишиш учун экосўқмоқлар қуриш. Бунда сўқмоқнинг узунлиги, кенглиги, қопламасини тўғри танлаш, шунингдек, сайёҳлар хавфсизлиги учун иҳоталар ўрнатилиши керак. Бундай сўқмоқни ташкил этиш ташриф буюрувчиларнинг мавжуд табиий ўт-ўсимлик оламини шикастламаслик, табиатга зарар етказишни олдини олиш учун хизмат қилади; 8) Объект ҳудудида дам олиш жойларини ташкил этиш ва томоша майдонини қуриш – ҳозирда келувчилар “эсдалик учун” расмга тушиш мақсадида имкон борича шаршарага яқинроқ келишга ёки сойга тушишга ҳаракат қиладилар. Одамлар тўпланиши кузатилади, бунда хавфсизлик талабларига риоя этилмайди, шу билан бир қаторда сой ифлосланади. Бундай салбий таъсирларни истисно қилиш ва бахтсиз ҳодисалар олдини олиш учун томоша майдонини қуриш таклиф этилади ва ҳ.к.

Адабиётлар

1. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 28 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномаси.// Ёшлар овози. 2018 йил. 29 декабрь. № 148. (16305).
2. Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 20 мартдаги ПҚ-4247-сонли “Қўриқланадиган табиат ҳудудлари соҳасида давлат бошқаруви тизимини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги Қарори.
3. Абдуллаев С.И., Усманова Р. Қашқадарё ландшафтларини тасниф қилишнинг айрим масалалари //Жанубий Ўзбекистон табиат манбаларидан оқилона фойдаланиш масалалари. -Т., 1997. –Б. 22-27.
4. Абдуллаев С.И., Усмонова Р. Қашқадарё ҳавзаси текислик қисми ландшафтларни табақалашуви // Ўзбекистон география жамияти ахбороти. 23-жилд. –Тошкент, 2003. -Б. 37-38.
5. Маматов А.М. Ҳисор тоғлар баландлик ландшафт комплексларини муҳофаза қилишнинг долзарб масалалари //География ва табиий ресурслардан фойдаланиш. -Т.: ЎзМУ, 2001. –Б.46.
6. Yarashev Q.S., Hasanov J.Yu., Badalov Ў. **Зарафшон дарёси қайирларидаги ноёб тўқай ландшафтлари экотуризм объекти сифатида.** //«Tabiiy fanlarni o‘qitishdagi innovatsiyalar, ekologik xavfsizlik, ekoturizmni rivojlantirish istiqbollari». –Тошкент, 2020. Б. 181-186.
7. Yarashev Q.S., Xasanov J.Yu., Qurbonova I.Z., Sadulloyeva L.K. World and uzbek experience in development of ecologic tourism //Journal of Contemporary Issues in Business and Government Vol. 27, No. 6,2021. https://cibg.org.au/
8. Назаров М.Г. Қашқадарё ҳавзасининг антропоген ландшафтлари ва уларнинг геоэкологик ҳолати // PhD дисс.автореф. -Самарқанд, 2020. 19 б.

SCIENTIFIC AND THEORETICAL BASIS FOR STUDYING THE HISTORIOGRAPHY OF THE UZBEK PEOPLE

Lapp Elena Aleksandrovna Ph.D.,
Associate Professor Volgograd Socially Pedagogical University,
Kochetkova Elena Olegovna, ANO DPO,

"Volga Humanitarian Academy", director of educational development programs, candidate of historical sciences

The origin of any people and nationality is always a very complex process, which over the centuries leads to the emergence of a new people, with a new name, with a new culture, with a new language. Almost always, a new people absorbs the culture and languages of the peoples who lived before the appearance of this new people. And the self-name of the people often arises from the name of the area where that people lives, often the name of the people appears on behalf of some famous ruler (or leader), whose name his fellow tribesmen remember as the name of the founder of a new people (new state). We find many such cases in history. But in order to find the true roots of the origin of any nation, one must start from the most ancient times (from legendary times, which are often not recognized by modern science). Modern historical and ethnographic science likes to greatly (very strongly) simplify all the processes taking place in the world since ancient times.

I am engaged in the ancient history of the peoples of the world, on the basis of my research, I created a historical atlas of peoples, tribes, cultures from 17 ml. years ago. (of course, this atlas is not recognized by science, although it is mainly based on archaeological finds, as well as on the basis of myths and legends - they are not even recognized by historians). I have compiled detailed tables on the appearance (disappearance) of any peoples of the Old World (I still do not have enough time to study the emergence of the Indian peoples of America).

In this article, I will reveal the history of the emergence of the Uzbek people, while I will use not only scientific (recognized by modern science) materials, but also the results of my research.

What do we know about Uzbeks from official sources?

Wikipedia says that the Uzbeks are a Turkic-speaking people who are the indigenous population of Uzbekistan. The ethnogenesis of the Uzbeks proceeded in Maverannahr. The ancient peoples of Central Asia took part in the formation of the Uzbeks - the Soglians, Bacterians, Khorezmians, Ferghans, Sakas, Massagets, Eastern

Iranians, Hephthalites, Turkic-speaking tribes, who began to penetrate into Central Asia at the turn of the 1st-2nd centuries.

Since the entry of Central Asia into the Turkic Khaganate (6th century), the number of the Turkic-speaking population began to increase. In the 7th-8th centuries in Central Asia, such Turkic tribes lived as: Turks, Turgkshi, Karluks, Khalajs, etc. In the early Middle Ages, a settled and semi-nomadic Turkic-speaking population was formed on the territory of the Central Asian interfluve, which was in close contact with the Iranian-speaking Sogdian, Khorezmian and Bactrian population. Active processes of interaction and mutual influence led to the Turkic-Sogdian symbiosis (interaction, merger).

After the Mongols invaded Central Asia in 1219, the ethnogenesis of the population of Central Asia underwent a change. According to the latest genetic genealogical testing from Oxford University, the study showed that the genetic admixture of the Uzbeks has an intermediate position between the Iranian and Mongolian peoples.

The Arab conquest of the second half of the 7th - 1st half of the 8th century had a certain influence on the course of ethnic processes in Central Asia. The Sogdian, Bactrian, Khorezmian languages disappeared and their writing, together with the Turkic runic, went out of use by the 10th century. The main languages of the settled population became Persian-Tajik and Turkic.

In subsequent centuries, the main ethno-cultural process was the rapprochement and partial merging of the Iranian-speaking and Turkic-speaking population. The process of the beginning of the formation of an ethnos, which later became the basis of the Uzbek nation, was especially intensified in the 11-12 centuries, when Central Asia was conquered by the unification of Turkic tribes, headed by the Karakhanid dynasty. The emergence of the Uzbek people was preceded by the formation in the 12th century of the large state of Khorezmshahs, which united both the settled and partially nomadic population of Central Asia.

A new wave of Turkic-speaking tribes joined the population of Central Asia after the Mongol conquest in the 13th century. During this period, in the oases of the

Central Asian interfluve, such tribes and clans settled as: Naimans, Barlas, Arlats, Katagans, Kungrats, Jalair, etc. Hordes from the time of Uzbek Khan, 14th century), who migrated to Maverannahr on the border of the 15th-16th centuries, led by Sheibani Khan from the steppes of modern Kazakhstan.

The Turkic-speaking population of the Central Asian interfluve, formed by the 11th-12th centuries.formed the basis of the Uzbek people. The last wave of Turkic-speaking nomads who joined the population of this region were the Deshtkipchak Uzbeks, who came at the end of the 15th century together with Sheibani Khan. Turkic-speaking nomadic tribes that came to Central Asia in the 16th century.under the leadership of Sheibani Khan, they found here already a large Turkic and Turkicized population, which had been formed over a long period. The Deshtikipchak Uzbeks joined this Turkic-speaking population, passing on their ethnonym "Uzbek" to it only as the last, latest ethnic layer.

The process of formation of the modern Uzbek people proceeded not only in the steppe spaces of the north of Central Asia and Kazakhstan, but also in the agricultural regions of Fergana, the Zeravshan, Kashka-Darya and Surkhan-Darya valleys, as well as the Khorezm and Tashkent oases. As a result of a long process of ethnic rapprochement and cultural and economic interrelations of the population of the steppes and agricultural oases, the modern Uzbek people was formed here, absorbing elements of these two worlds.

And what is written in the Soviet Historical Encyclopedia about the origin of the Uzbek people.

The literary language of the Uzbeks belongs to the Turkic group of languages. Sogdians, Khorezmians, Bactrians, Fergana, Saks, Massagets were ancient ancestors of U. From the middle of the 1st millennium BC, Mongoloid groups of mlemen begin to seep into Central Asia. From the 2nd half

In the 6th century, since the entry of Central Asia into the Turkic Khaganate, this process has intensified, the process of Turkicization of the language of the Iranian-speaking population began. During the time of the state of the Karakhanids, the Turkic-speaking tribes moved to a settled way of life. The entire Turkic-speaking

population of Mezhdarkchye (the territory between the Syr-Darya and Amu-Darya rivers), which developed to

11-12 centuries formed the basis of the Uzbek people. As a result of the Mongol conquests in the 13th century, a new wave of Turkic-Mongolian tribes joined the population of Mesopotamia. The last wave of Turkic-speaking nomads who joined the population of this region were the Deshtkipchak Uzbeks, who arrived at the end of the 15th century together with Sheibani Khan.

In general, here the history of the origin of the Uzbek people is similar to that described in Wikipedia.

As we noted, the Deshtkipchak Uzbeks (to whom the name “Uzbeks” had already been applied, since they considered themselves subjects of the state of Uzbek Khan, put the final point in the formation of the Uzbek people. For this reason, the origin of the Uzbek people must be considered in two directions at the same time - the origin of all peoples on the territory of modern Uzbekistan (changes in the composition of the population in this territory) from the most ancient times,

- the origin of the Deshtkipchak Uzbeks from the most ancient times.

This is what I will do in this article. I will start doing this using the maps of my atlas.

I'll start with 17 million years ago - at that time the territory of modern Uzbekistan was at the bottom of the ocean. There was only one people on Earth - the asuras. Their modern descendants are the Bushmen, Hottentots, Pygmies, Veddoids, Papuans and Australian Aborigines. Asuras lived on one large mainland - Lemuria (in the place of the modern Indian Ocean).

4 million years ago - a new people appeared - the Atlanteans (these are the western asuras)

1 million years ago - a new people appeared - the Muans (these are the eastern asuras)

700 thousand years BC - Asura as a people disappeared to the territory of the Earth, instead of it there were tribes of Australoids, who lived mainly on the shores of the Indian Ocean (East Africa, South Asia, Indonesia, Australia).

399 thousand years BC - Muans as a people disappeared, instead of them there were tribes inhabiting the islands of Oceania, the Philippines, Taiwan, Japan (the ancestors of the Ainu were Muans).

199 thousand years ago - the territory of modern Uzbekistan became dry land, but the Aral Sea was still connected to the Caspian and Black Seas. There were no modern humans in this area. Mostly Neanderthals lived there (these are not people, but upright apes similar to people - this is an unsuccessful attempt to create a new race of people, undertaken by the asuras and Atlanteans with the help of genetic engineering). At this time, the migration of the descendants of the Atlanteans to the Middle East and Western Europe begins, as the mainland Atlantis begins to sink under the waters of the Atlantic.

79 thousand years BC - on the territory of Mesopotamia (between the rivers Amu-Darya and Syr-Darya) small settlements of the descendants of the Atlanteans begin to appear. At the same time, large settlements of the descendants of the Atlanteans also appeared on the territory of Northern China and southern Mongolia. This people called themselves Turans, as they lived on the shores of the large Turan Sea (this is on the site of the modern Gobi Desert).

17500 BC - tribes of the Kostenkovskaya archaeological culture appear on the territory of Mesopotamia, who came there from the territory of Eastern Europe. These are the ancestors of the future dravidoids (these tribes were formed as a result of the mixing of Caucasians and Australoids, which occurred in the vicinity of the Middle Volga). They are European people with dark skin color.

12000 BC - in the north of Eurasia, a cooling occurred and large glaciers appeared. This cold snap occurred due to the use of nuclear weapons by the Atlanteans against the Turans (because they did not submit to the power of the Atlanteans). As a result of this action, the Turan Sea began to dry up quickly and turn into the Gobi desert. And the Turanians themselves, having received strong radiation, partially died, and the survivors underwent a genetic mutation and acquired Mongoloid traits (they began to differ from the rest of the descendants of the Atlanteans who lived in Europe and the Middle East).

In addition, the Turanian single people was divided into large groups of tribes - proto-Altaians (proto-Turks), proto-Mongols, proto-Chinese, proto-Tungus, proto-Tibetans, etc.). All these peoples subsequently always began to have Mongoloid signs.

7500 BC - Tribes of the Ali-Kosh culture from the territory of modern Iran penetrate into the territory of Mesopotamia, these are also dravidoid tribes (Caucasoids with dark skin). If anyone wants to know what language the inhabitants of Mesopotamia spoke in those days. I can only assume that the language of the dravidoids is similar to the Elamite and Sumerian languages, since these peoples were also dravidoids.

5700 BC - the Dzheitun culture was formed on the territory of Mesopotamia. These are the tribes of the same Dravidians, but they were influenced by more northern Caucasians from Eastern Europe.

3500 BC - the Anau culture was formed on the territory of Mesopotamia. These are also dravidoids, they were also influenced by the northern Caucasoids, since they were pushed to the south by the tribes of the Indo-Europeans, who by this time had already reached the northern shores of the Aral Sea.

1900 BC - the Suyangar culture appeared in the north of Mesopotamia (these are the tribes of the ancient Indo-Iranians (Aryans). The southern part of Mesopotamia is inhabited by the tribes of the Altyn-Depe culture (these are the tribes of dravidoids, related to the Elamites and dravidoids of the Harappan civilization in northwest India).

1500 AD - the Aryans are divided into ancient Indians and ancient Iranians.

The ancient Indians are already occupied by the territory of the southern Mesopotamia, and the northern part of Mesopotamia is inhabited by ancient Iranian tribes (tribes of the Tazabagyab culture). By this time, there were no more dravidoids on the territory of modern Uzbekistan, they were pushed to the south - to Iran and north-west of India.

1300 AD - the entire territory of modern Uzbekistan is occupied by the tribes of ancient Iranians. By this time, the ancient Indians had already gone to India.

700 AD - by this time in the north of Mesopotamia (Khorezm) a new Iranian-speaking people had formed - the Khorezmians (Aleirbad culture). In the rest of the territory, ancient Iranian tribes continued to live.

600 BC - the state of Khorezmians - Khorezmia was created in the north of Uzbekistan, the state of Sogdians - Sogd - was created in the southern part of Uzbekistan. Both of these states are inhabited by Iranian-speaking peoples. In the north-eastern part of Mesopotamia, a new Iranian-speaking people formed - the Massagetae (nomads).

By 539 AD - Khorezmia, Sogdiana, Bactria were subordinated to the Persian state of the Achaemenids. Persian attempts to subdue the Massagetae were unsuccessful.

By 327 AD - Sogdiana and Bactria were subordinated to the empire of Alexander the Great. Khorezm, Massagets and Saks (nomads to the north-east of Khwarezmia), the Macedonians could not subdue. Since that time, the strengthening of the state of Khorezm began.

250 г.днэ – наюгУзбекистанаприходитновыйнарод – тохары, ониwere forced out by Turkic and Mongol captives from the territory of northwestern China. In the north-east of Uzbekistan, a new people has formed - the Kangyuis (this people arose on the basis of the Massagegs and other Iranian-speaking tribes). They had their own state. A new state of Greco-Bactria emerged in the south of Uzbekistan.

130 BC - small Tocharian states arose in the south of Uzbekistan on the site of Greco-Bactria.

50 BC - on the basis of the Tocharian states, the Kushan state arises.

450 AD - as a result of the great migration of peoples, caused by the movement from east to west of many Turkic-speaking tribes led by the Huns, Turkic-speaking tribes appear in the north-east of Uzbekistan (this is in the place of the Kangyuis). The south of Uzbekistan is part of the Ephthalites state. Iranian-speaking peoples - Khorezmians, Sogdians and Bactrians still remain the main population of the territory of modern Uzbekistan.

In 712, Khorezm was conquered by the Arabs, but this conquest was short-lived and Khorezm restored its independence.

750 - a new Turkic people, the Kipchaks (nomads), formed on the territory of the eastern part of Kazakhstan. The northeastern territories of Uzbekistan are inhabited by Karluks (a Turkic-speaking people).

In 819, the Samanid state arose on the territory of Uzbekistan, which included not only the territory of Uzbekistan, but also part of Iran.

900 - in the north and east of the Aral Sea, a strong alliance of tribes was formed, led by the Oghuz (Turkic-speaking nomads). They even created their own state. The onslaught of the Turkic-speaking tribes (settlement of the territory of Uzbekistan) intensified.

In 999, the Samanid state ceased to exist as a result of the war with the Karakhanid Turks and became part of the Karakhanid state. The south of Uzbekistan became part of the Ghaznavid state.

1050 - the population of Uzbekistan became Turkic-speaking. The territory of Uzbekistan became part of the Seljuk state.

1097 - Khorezm became independent from the Seljuks again, although at times it had to admit its dependence on the Seljuks.

1183 - underKhorezmshahTekesh, Khorezm became completely independent and Khorezm became a powerful state.

In 1219, Khorezm was conquered by the Mongols and became part of the empire of Genghis Khan.

Since 1224, the territory of Uzbekistan became part of the state of the Golden Horde (ulus of Jochi). The south of Uzbekistan is part of the Chagatai ulus.

In 1313-1341 Uzbek Khan was the Khan of the Golden Horde. He adopted Islam as the state religion of the Golden Horde. Since that time, the Golden Horde in some Arabic sources began to be called the state of Uzbek.

1350 - in the south of Kazakhstan, a new people, the Kipchaks-Uzbeks, begins to form. The south of Uzbekistan (Maverannahr) breaks up into a number of small states.

From 1371, Uzbekistan was part of Timur's empire.

In 1428, the Uzbek Khanate was created, headed by Khan Abul-Khair, this Khanate arose as a result of the collapse of the Golden Horde, which was defeated by Timur. Initially, it was located on the territory of southern Kazakhstan.

1450 - Kipchaks-Uzbeks inhabit the territory of modern Uzbekistan, become the basis for the formation of the Uzbek people.

In 1499, Sheibani Khan, a descendant of Abul-Khair, began to seize the territory of Maverannahr (the territory of Uzbekistan).

In 1501, Sheibani Khan conquered Samarkand from the Timurids, having founded the state of Sheibanids, he established his power not only over Mavenannahr, but also over Khorasan (northeast of Iran).

In 1512, the Khanate of Khiva was formed (in the northern part of Uzbekistan), which was formed in connection with the collapse of the Sheibanid state. It was formed almost simultaneously with the Bukhara Khanate. The Khanate of Khiva was ruled by the Arabshahid dynasty. The main population of the Bukhara Khanate were Uzbeks. Both Uzbeks and Tajiks lived in the Bukhara Khanate (south of Uzbekistan). 1600 - Karakalpaks stand out from the total mass of Kazakh tribes, who settled in the north of Uzbekistan. By this time, the Uzbek people were almost completely formed.

Literature

1. Peoples of Central Asia and Kazakhstan. v.1. Edited by S. P. Tolstov, T. A. Zhdanko, S. M. Abramzon, N. A. Kislyakov. M., 1962, p.82.

2. Askarov, A. A. The history of the origin of the Uzbek people.Tashkent, 2018. P.4-15

3. Abu ReykhanBiruni. Monuments of past generations.Selected works.T.1. T., 1957, p.47.

4. Malyavkin A. G., Tang chronicles about the states of Central Asia. - Novosibirsk, 1989, p. 201

5. Malyavkin A. G. Tang chronicles about the states of Central Asia. - Novosibirsk, 1989, p. 201.

6. Proceedings of the Khorezm archaeological and ethnographic expedition, vol. XIV. M., "Science", 1984.

ЎЗБЕКИСТОН ИҚТИСОДИЁТИ РИВОЖИДА ТЕРМИЗ ДАРЁ ПОРТИНИНГ АҲАМИЯТИ

Хидиров Холмамат Джўраевич,
ТерДУ, т.ф.б.ф.д. (PhD)

Термиз дарё портининг шаклланишининг ўзига ҳос сабаблари бор. Биринчидан, бу ер дарёдан кечиб ўтиш учун қулай жой бўлган бўлса, иккинчидан, Бақтрия пойтахти Бақтр шаҳридан Термиз орқали Суғдиёна пойтахти Мароқандга энг яқин йўл ўтган. Бу йўл анча ўзлаштирилган ва қулай ҳисобланади. Турли замонларда Окс, Ўкуз, Аракс, Жайхун, Термиз дарёлари деб аталган. Амударё фақат Марказий Осиёдагина эмас, жаҳондаги йирик дарёлардан ҳам бири ҳисобланади. Амударё Ҳиндиқуш тоғининг 4000 метр баландликдаги Шимолий ёнбағридан бошланиб, Помирдарёга келиб қўшилгунча Вахандарё деб аталади. Заркўлдан оқиб чиқадиган Помирдарё Амударёнинг иккинчи манбаи ҳисобланади. Помирдарё бошланишидан Вахшга келиб қуйилгунга Панж, яъни беш дарё номи билан (Вахандарё, Помирдарё, Гунт, Бартангдарё ва Ванч) аталади. Амударёнинг узунлиги бошланиш қисми билан бирга ҳисобланганда 2500 км.ни ташкил қилади. Сурхондарё ва Қорасув дарёси Амударёнинг охирги ирмоқлари бўлиб, кейинги 1400 км масофада унга битта ҳам ирмоқ қўшилмайди. Дарё Қорақум ваҚизилқум чўлларидан ўтиб, сувини Орол денгизига қуяди.

Марказий Осиё халқлари бошқа давлатлар билан иқтисодий ва савдо алоқалари бундан кейинги асрларда ҳам жадал олиб борилган эди. Пётр I даврида, ўрта асрларда , ҳусусан унинг кўрсатмасига биноан 1717 йилда Князь Бекович-Черкасский бошчилигидаги экспедиция Астрахандан Хивагача бориб Амударёнинг Оролгача қуйиладиган сув йўлини ҳам ўрганиш керак эди. Бироқ Бекович-Черкасский экспедтциясининг Хива хони Шерғозихон томонидан қириб ташланиши натижасида Пётр I нинг бу кўрсатмаси бажарилмай қолди. Руслар

томонидан Марказий Осиё XIX асрнинг иккинчи ярмида истило қилингач, 1873 йил 27 апрель куни Флотилия бошлиғи, 1-ранг капитани Ситников бошчилигида 2 та пароход таркибида 3 та баржа билан Амударёга кириб келди. Улкун дарёси бўйлари биланҚўнғиротга қараб жўнади. Бироқ Амударёнинг дельталари ўрганиб чиқилмаганлиги натижасида экспедициянинг олдинга силжишига йўл қўйилмади. 1873 йил 1 августга келиб генерал-штаб полковниги Н.В.Каульбарс Амударёнинг қуйилиш жойларини текшириб кема қатнамайдиган йўлнинг Орол денгизига чиқиладиган жойларини излади ва Амударёнинг Қуван-Жарма, Дауқара кўли ва Ялисув дарёсининг қуйилиши орқали чиқса бўлишини аниқлади. Бу йўл билан Козалинскдан (Сирдарёдаги флот базасидан) Орол денгизи орқали Амударёда доимий равишда юк ташила бошланди. Кейинроқ эса Амударё қирғоғида Қабақли қўрғони ва мудофаа иншооти қурилиб ишга туширилди.

1888 йили Чоржуй шаҳрида Амударё ҳарбий флотилиясининг биринчи «Подшо» ва «Царица»! номли кемалари, пароходлари ташкил этилади. Ўша вақтда бу кемалар, пароходлар дарё транспортидаги янги кемалар, ва пароходлар эди. Бу кемалар ўша вақтда 520 от кучига эга бўлиб, улар учун ёқилғи темир йўл орқали ташиб келтириладиган Боку нефтининг мазутлари билан юритилар эди. Амударё бўйида Амударё ҳарбий флотилияси кемаларидан ташқари «Хива» номли акционерлик жамияти ва майда қайиқ эгалари ҳам фаолият кўрсатар эди. Амударё йўналиши бўйлаб шундай қийинчиликларга қарамасдан Х1Х асрнинг охирида ўн битта кемалар ва ўн тўққиз дона баржалар сузиб турди. Баржалар (шатакка олиб юриладиган юк кемаси) фақат дарёнинг юқорисига қараб шатакка олинар, қуйи томонга қараб эса бу баржалар ўзлари сузар эди. Ҳарбий флотилия кемалари билан йил давомида 15 минг тонна ҳар хил юклар ва 20-25 минг йўловчилар (асосан ҳарбийлар) ташилди. Чоржуйдан Термизгача ва пастга қараб Тўрт кўлгача қилинадиган рейс бир ойга яқин вақтни олар эди. Кам юк кўтарадиган флотни Амударёда асосан қайиқлар ташкил қилар ва уларнинг сони 1500 донани ташкил қилиб, бу қайиқларда маҳаллий ўрмонларда етиштирилган толлардан ясалган эди. Толлар асосан ҳўл томирлари билан олинар ва ёғоч

шираси билан бўлар, бу эса ёғочни чириб кетишидан асрар эди. Маҳаллий толдан ясалган, палубаси бўлмаган ёғоч кемалар 20-40 тоннагача юк кўтара эди.

Бу кемаларнинг ташқи корпуси қаттиқ чорқирри (брус)лар билан ўзаро бириктирилган бўлиб, бундай қайиқлар унчалик қуввати бўлмай, вазни ҳам оғир ва бошқаришда катта қийинчиликлар туғдирар эди. Ўрта Осиёга Сибирнинг нина баргли ўрмонларидан кесиб келинган ёғочларнинг келтирилиши натижасида рус ҳунармандлари бу ёғочдан енгил қайиқлар ясай бошладилар. Бу кемалар кейинчалик ўрис кемалари деб атала бошлади. Бу енгил қайиқлар ясалишининг кўпайиши натижасида, маҳаллий тол қайиқлар истеъмолдан сиқиб чиқарилди. Термиз шаҳрига барча юклар Самарқанддан, қуруқликдан ва Амударё орқали олиб келинар эди. Тошкентдан ва Самарқанддан юкларни етказишдаги бу қийинчиликлар бу ерга темир йўл тортиб келиш масалаларини ҳал қилиш вазифаларини қўймоқда эди.

1894 йилнинг август ойида Чоржўйдан Термизга биринчи катерлар гуруҳи почта ва юкларни қўриқлаш учун келдилар. Шунда улар Сурхондарёнинг ичкарисига икки километр юрдилар ва бу ерда ўзларининг қароргоҳларини ташкил қилмоқчи бўлдилар. Кеч кузда Сурхон дарёсидан сув камайганлиги сабабли қароргоҳ қуруқликда қолиб кетди. 1896 йилга келиб қароргоҳ Амударё бўйига кўчирилди. 1917 йилга келиб Ўрта Осиё ҳавзаларида 20 дона ўзи юрадиган ва 50 дона шатакси юк кемалари мавжуд эди. Амударёдан шу билан бирга 1500 дона қайиқлар бор эди. Янги замонавий типдаги камчиликнинг ривожланишида Амударё ҳарбий флотилиясининг ўрни катта бўлди. ҳарбий флотчилар чегарани қўриқлаш билан бирга Хива, Бухоро, Афғонистон билан савдо қилинган юкларни ташиб келтиришда ҳам катта хизмат қилди. Амударё ҳарбий флотилияси ва акционерлик жамияти базасида Алоқа йўли хизмати комиссари Ф.Э.Дзержинский буйруғи билан 1923 йилда Ўрта Осиё камчилиги ташкил қилинди. Янги Ўрта Осиё кемачилигига (рароходчилик) эски кемачилик тизимидан 9 дона буғ билан юрадиган теплоход 15 дона шатакка олиб юриладиган кема (баржа) лар ва 4 дона ёрдамчи кемалар мерос бўлиб қолган

эди. Термиз шаҳрида эса 1927 йилга келиб, дарё порти янгидан тараққий эта бошлади.

Ўттизинчи йилларнинг бошида дарё порти Термиз дарё юк порти (пароходства) деб номланар эди. Ўша пайтларда бу ерда буксир, порт-флоти бўлиб, унинг таркибида 22 дона баржа, 8 дона буғ билан ишловчи теплоходлар бор эди. Термиз шаҳри пристани орқали (ўша пайтда шундай номланар эди) 29 минг тонна юк, 9 минг тонна пахта, 1000 тонна металл, 1000 тонна машина, 4 минг тонна цемент, 22 минг тонна нефть, 19 минг тонна ёғоч ва ўтин ташилди. Ушбу дарё порти 276 км масофадаги жойга хизмат кўрсатар эди.

Совет партия раҳбарлари Орол ва Амударё сув йўлларида сув транспортининг ривожланиши ва балиқ овлашга катта эътибор қарата бошладилар. Ўша йилларда флотнинг янги кемалар билан таъминланишига қарамасдан бу кемалар билан ҳали пахта, ёқилғи-мойлаш ва қурилиш материаллари, минерал ўғитлар, озиқ-овқат ва саноат молларига бўлган эҳтиёжларини тўла қондириб бўлмас эди. Бундан ташқари Амударёда сузадиган кемалар суви кам жайларда ва сув тезлиги кучли жойлардаги шароитларга мослашмаганлиги учун маълум бир қийинчиликлар ҳам туғдирар эди. Бу ҳолатдан чиқиш учун Ўрта Осиёда ўз кучи билан қисқа муддатда Аральскда кема таъмирлаш заводи, Хўжайли ва Термиз шаҳрида катта устахоналар қуриб ишга туширилди. 1928 йилдан бошлаб Аральск, Учсой ва Фаробда порт хўжаликлари ташкил этилди.

Бироқ бу йилларда шунча ишлар амалга оширилишига қарамасдан, тажрибали команда аъзолари ва штурманлар тайёрлаш бўйича кадрлар тайёрлаш етарли даражада эмас эди. Дарёда хизмат қилувчилар ва денгизчилар Тошкентда 1930 йилда очилган Дарёчилар техникумида тайёрланар эди. Техникум кейинчалик Чоржўй шаҳрига кўчирилди. Ўзбекистоннинг Хоразм воҳаси, Тожикистон, Туркманистон, Қорақалпоғистоннинг дарё бўйи туманлари асосан дарё йўлида жойлашганлиги учун, бу туманларнинг иқтисодий ривожланиши Ўрта Осиё кемачилиги билан боғлиқ эди. Қайсики бу кемалар билан бу туманларга нон, нефть маҳсулотлари, минерал ўғитлар, озиқ-овқат ва саноат

моллари олиб келинса, бу туманлардан эса пахта, пахта ёғи, тери, терихом ашёси, пилла ва бошқа қишлоқ хўжалик юклари олиб кетилар эди. Ана шу халқ хўжалигини тиклаш даврининг қийинчилик йилларида саноат қурилиши ишларида Термиз дарё портининг аҳамияти ошиб борди.

1931 йилда Вахш воҳаси учун ирригация суғориш канали қурилишига (асбоб-ускуналар , электростанциялар, цемент, ёқилғи) Термиз дарё порти кемачилик флоти Қуйи Панж пристанига юқоридаги юкларни етказиб берди. Хозирги вақтдаги бозор қийинчиликларига қарамасдан Термиз дарёчилари қўшни Тожикистон Республикасига ёрдам беришни тўхтатганлари йўқ.

1950 йилларнинг ўрталарига келиб, Чоржуйдан Янги-Урганчгача ваҚўнғиротгача темир йўлларнинг тортилишит натижасида Ўрта Осиё камчилигининг иқтисодиётидаги ўрни бир қадар пасайди. Кемалар учун юк ташиш ҳажми дарё бўйи туманлар ва Афғонистон билан савдо алоқаларининг кучайиши натижасида экспорт ва импорт ҳажми ортиб бориши натижасида Амударёда кемачилик хизматига талаб камаймади.

Агар 1933 йилда ташилган юк ҳажми 197,3 минг тоннани ташкил қилган бўлса, 1937 йилда эса 464 минг тонна юк ташишга эришилди. Тарихда шундай даврлар бўладики, унга даврларнинг сиёсий оқимларининг муносабатидан қатъий назар, ўз салобати, аҳамияти билан халқлар ҳаётида тобора муҳим ўрин тутиб бораверади. Вилоятимиз ҳаётидаги ана шундай тарихий воқеа 1941 йилнинг 6 мартида Сурхондарё вилоятининг ташкил этилганлигидир.

Бу тарихий воқеа 1941 йилдаги, Сурхондарё вилоятининг ижтимоий, иқтисодий, тарихий ва нуфузий ривожланиши хусусиятларини эътиборга олиш энг муҳим аҳамиятга эгадир. Сурхондарё вилояти ташкил этилганидан кейин Термиз дарё портининг ҳам юк ўтказиш қуввати анча ўсди, юкларнинг турлари ҳам кўпайди. Дарё орқали ғалла, кўмир, ёғоч, туз, цемент, метал, пахта уруғи ва толалари, минерал ўғитлар, нефть маҳсулотлари катта ҳажмда ташила бошлади. Ўрта Осиё дарёчилари ва денгизчилари шу жумладан, Термиз дарё порти хизматчилари иккинчи жаҳон уруши йилларида яна ҳам фидокорона меҳнат қилдилар. Кемачилар техника ва ҳарбийларни ташишда, ҳарбий юклар ва озиқ-

овқатлар, пахта ташишда катта хизмат кўрсатдилар. Урушдан кейинги йилларда собиқ республикаларда пахта экилишининг кўпайиши натижасида кемачиларга пахта ташиш учун эҳтиёж катта бўлди. Собиқ Совет ҳукуматининг 1947 йилги қарорига кўра кемачилар флоти яна қўшимча 70 дона ғилдиракли (колесними(ва винтли кемалар ва 75 дона денгиз ва дарё монажлари билан таъминланди. Кемаларнинг техник ва эксплутация хизматларини ошириш учун уларни қайта ускуналаш ва таъмирлаш учун катта ишлар олиб борилди. 1950 йилларда Термиз дарё порти замонавий дарё порти ташкил этиш ва тўғридан-тўғри темир йўл ва сув транспорти орқали юкларни ташиш масаласи ҳам ҳал этилди, юк ташиш 282 минг тоннага етди. Саралашда қўл меҳнати кўп талаб қилаётган юклар сони камайди. Комплекс механизация ёрдамида 243 минг тонна юк ортилди.[1]

Афғонистон республикаси портида тажрибали муҳандислар, юк кранларини бошқарувчилар, ҳайдовчилар, слесарлар, электрчилар, юк кранлари ва бошқа меҳанизмларни таъмирлайдиган меҳаниклар ва бошқа теҳникларни бошқарадиган кадрларни етишмаслиги, юкларни тез ташиш, ортиш ва тушириш ишларининг чўзилиб кетишига олиб келаётганлигини ҳисобга олган Ўзбекистон кемачилиги Афғонистон республикасининг Хайратон ва Шерхон портларига ўзининг мутахассисларини юборишни таклиф қилди. Бу тадбир эса иш унумининг анча ошишига ёрдам қилди.

Бу йилларда Денов туманида дарёчилар томонидан 6 синфли мактаб, Чоржуй туманидаги Халтурин номли колхоз ҳудудида-маъмурий бино катта хирмон, уйлар ва бошқа биноларни қуриб топширдилар. Бу қурилиш ишларида Термиз дарё порти жамоасининг хизмати катта бўлди. Термиз дарё портида йиллик режани биринчи бўлиб В.Цимбала, С.Аҳмедов, Ч.Ҳайдаров, И.Хўжабеков, Ф.Шариповларнинг бригадалари бажаришга эришди. Тиклаш йиллардаги қийинчиликлар ортда қолди. Термиз дарё порти оддий, эскирган ускуналардан тортиб, хозирги вақтга келиб эса замонавий асбоб-ускуналар ва юқори малакали мутахассисларга эга бўлган оғир ишчи мактабини босиб ўтди. Охирги вақтларда Афғонистон республикасидан юк олиб келиш хизмати анча юксалди. Порт ходимлари орасида ҳурматга сазовор, хизмат кўрсатган ва ўз

касбини севадиган кишилар кўплаб топилади. Шундайлардан бири Термиз дарё портида ўн саккиз йил фаол меҳнат қилиб келган Рустам Ғуломов бўлиб, у қизил армия сафида туриб Севастополь, Сталинград, Будапешт шаҳарларини озод қилишда бўлган жангларда қатнашди ва ғалабани Австрия мамлакатида кутиб олди. Урушдан кейинги йилларда ўзи ишлаган Термиз дарё портига қайтиб келиб, ўз ишини яна давом эттиради. Урушдан кейинги йилларда порт юкчиларининг бригадири бўлиб ишлади.

1970 йилларда меҳнат унумдорлиги анча ошди. Термиз дарё портида пахта импортини дарё кемаларидан жойидан-жойига кўчириш ва 300 тонналик юк баржаларига ортиш учун тўрт сутка вақт кетар эди. Термиз дарё портида 5 тонналик «Ганц» маркали юк кранларидан фойдаланиб, хорижга юбориладиган юклар қисқа муддатларда темир йўл вагонларига юклаш йўлга қўйилди. Термиз дарёлари вагонларга юкларни жойлашга вагон ичкарисига «4004» маркали электр юк ортгичидан фойдаланишни таклиф этдилар. Бу эса ишчилар сонини икки мартага қисқартириш ва юкларни вагонга юклаш муддатини эса қисқартирди. Натижада ҳар йили 5 минг сўм пул тежалади. Термиз дарёчилари услуби бошқа портларда ҳам қўллана бошлади. Термиз дарё портида ижодий изланишлар ҳам олиб Термиз дарё порти орқали керосин идишларда темир йўл орқали нефть омборларига келтирилар эди. Истемолчилар эса портда икки-уч чақирим узоқда жойлашган эди. Термиз дарё порти илмий-техник жамияти ва фойдаланиши хизмати ходимлари идишдаги керосинни махсус юк ости мосламаси билан ташишни ишлаб чиқдилар ва ҳаётга татбиқ қилдилар. Кичик хажмдаги юклар Термиз дарё портида ёғоч юк ости мосламаларидан фойдаланиш йўлга қўйилган. Бу эса ишлаб чиқариш унумдорлигини ошириш ва фойда келтиришга олиб келди. Термиз дарё порти 1980 йилда маҳаллий шароитидан келиб чиққан ҳолда дарё портини узлуксиз ишлаб режа жадвални тузиш тўғрисида қўлланма ишлаб чиқди.

1970 йилларнинг охири 1980 йилларни бошларида Термиз дарё порти транспортчилари Ленинград дарё порти транспортчиларининг тажрибаларини ўрганиб ҳаётда қўллай бошладилар. Термиз дарё порти билан ташқи транспорт

иттифоқи («союзвнештранс») ўртасида комплекс мусобақа йўлга қўйилди. 1978 йилда порт диспетчерлиги хизмати ва темир йўл станцияси ўртасида телефон алоқаси ўрнатилди ва мувоффақиятли ишлаш учун диспетчерлик хизмат маркази ташкил қилинди.

Термиз дарё порти ходимлари бошқа транспорт ташкилотлари билан ҳамкорликда иш услубини янада тараққий эттириш ва ривожлантириш борасида ҳам фаол изланишлар олиб бордилар. Бу эса Термизда 1981 йилнинг 16 июнида транспорт ходимларининг катта анжумани ўтказишга сабаб бўлди. Термиз дарёчилари 1980 йилда баржалар ва вагонларнинг бекор тури ишни ўтган йилга қараганда беш фоизга камайтириш, юк ортиш, тушириш ишлари даражасини тўғридан тўғри бажаришни 60 фоизга етказиш, бир тонна юкни қайта ишлаш таннархини 95 фоизга камайтириш натижасида бир йилда 5 минг сўмдан ортиқ фойда олиш ташаббуси билан чиқдилар. Бу эса 1981 йилда 100 дан ортиқ порти ходимларини бошқа ишга жалб этиш имконини берди. Йиллик маош фондидан 100 минг сўм тежаб қолинди. 1981 йилда йил якуни бўйича Термиз дарё порти яхши натижаларга эришиб, ўтган йилга қараганда 36 фоиз халқ хўжалиги режага нисбатан ошириб бажарилди. Термитз дарё порти маданият уйи ходимлари ва бошқа маданий муассасалалр дарё порти ўртасида оммавий, сиёсий, маданий оқартув ишларини ошириб бажаришда муносиб ҳисса қўшдилар. Термиз дарё порти ўз навбатида шифохона, поликлиника, ишчилар таъминоти савдо корхонаси, мактаб ва болалар боғчасига эга.

Термиз дарё портида уй-жойдан фойдаланиш ва таъмирлаш бўлими бўлиб, дарё порти ходимларининг уй-жой шароитларини яхшилашга хизмат қилади. Ҳозирги кунда Термиз дарё портида иш ҳажми бир мунча камайган. Бунинг асосий сабаблари 2 та сабаб билан: 1 чидан 1980 йилда Амударё устидан Ўзбекистон Республикаси ва Афғонистон давлатларининг бир-бири билан боғловчи автомобил ва темир йўл кўпригининг ишга туширилиши бўлса: 2 чидан собиқ иттифоқ негизида бир неча мустақил давлатларнинг ташкил этилиши билан изоҳланади.

Мустақиллик йилларида ҳам Термиз дарё порти фаолиятида ҳам муҳим ўзгаришлар рўй берди. Порт жамоаси барча турдаги маҲсулотларини Тожикистон, туркманистон,Қозоғистон ва Афғонистон республикаларига етказиб бермоқда. Айниқса БМТнинг инсонпарварлик юклари ўз вақтида етказиб берилмоқда.

Адабиётлар

1.Мирзиёев Ш. Қонун устуворлиги ва инсон манфаатларини таъминлаш-юрт тараққиёти ва халқ фаровонлигининг гарови.Т.,"Ўзбекистон". 2017 йил.50 бет.

2.Мирзиёев Ш. Эркин ва фаровон, демократик Ўзбекистон давлатини биргаликда барпо этамиз.Т., "Ўзбекистон". 2017 йил. 59 бет.

3.Ўзбекистон тарихи. 7 синф. Тошкент. «Ўқитувчи» 1994 й

4.Б.Ахмедов. «Ўзбекистон халқлари тарихи манбалари» Т. «Ўқитувчи» 1991. 58 бет.

5.Б.Ахмедов. «Ўзбекистон халқлари тарихи манбалари» Т. «Ўқитувчи» 1991. 58 бет.

6. Ленин байроғи. 1989 й. 4 феврал.

7. Б.Аҳмедов. Ўзбекистон халқлари тарихи манбалари». Т. «Ўқитувчи»

ЖАНУБИЙ ҲУДУДЛАР АҲОЛИСИ ИЖТИМОИЙ ҚАТЛАМЛАРИДА АНТРОПОЛОГИК ОМИЛЛАРНИНГ ЎЗГАРИБ БОРИШ ЖАРАЁНЛАРИ

Туропова Моҳидил Турдиевна,
ТерДУ, т.ф.б.ф.д. (PhD)

Демографик жараёнларнинг урбанизация даражасини ўрганишда муҳим аҳамиятга эга бўлган тарихий манбалар аҳоли сони ва ҳудудий жойлашуви билан таққослаб таҳлил этилиши натижасида ушбу масалани холисона таҳлил этиш имкониятини берди. Масалан, Бухоро амирлиги аҳолиси сони 1924 йилдаги маълумотларга Бухоронинг Ўзбекистонга ўтиб кетган қисми бўйича ер майдони 101395 кв. км. бўлиб, аҳолиси 861854 минг кишини ташкил этиб, шундан 95355 шаҳарларда, 766499 ги қишлоқларда истиқомат қилган. Олиб

борилган илмий тадқиқотлар натижасида 1924 йил аҳоли сонининг ҳудуди ва зичлиги ҳисобга олинганда шаҳар аҳолиси жами аҳолини 11,1 фоизини ташкил этиб, ўртача 1 кв. км.га 8,5 киши, қишлоқларда эса 7,6 кишига ўртача тўғри келган. 1924 йилда Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудлари ҳисобланган Сурхондарё вилоятининг ер майдони 20217 кв. км, Қашқадарё вилояти 26001 кв. км.ни ташкил этиб, Сурхондарё вилояти аҳолиси 134436 киши бўлиб, шундан 6689 киши шаҳарларда, 127747 киши қишлоқларда истиқомат қилиб, жами аҳолини 5,0 фоизи шаҳарларда яшаб, ўртача 1 кв. км.га вилоят бўйича 6,6 киши, жумладан қишлоқларга 6,3 киши ўртача тўғри келган.

Шунингдек Қашқадарё вилояти аҳолиси 219310 минг киши бўлиб, шундан 28801 киши шаҳарларда 190310 киши қишлоқларда истиқомат қилиб, жами аҳолини 13,6 фоизи шаҳарда яшаб, ўртача 1 кв. км.га вилоят бўйича 8,5 киши, жумладан 7,3 киши қишлоқларга тўғри келган. Демографик жараёнларнинг урбанизацион даражаси бўйича олиб борилган аҳолини жамлашиши, ўсиши билан боғлиқ тадқиқотларда жанубий ҳудудларни йирик иқтисодий туманлари илмий ўрганиб таққосланди.

1924 йилги аҳоли рўйхати бўйича тадқиқотларга асосланиб Сурхон воҳасидаги Бойсун 4399 кв. км.ни, Шеробод 7021 кв.км., Шурчи 879 кв. км. ер майдонига эга бўлиб, аҳолиси Бойсунда 26685 киши, Шерободда 53390 киши Шурчида 54361 кишини ташкил этган. Жумладан шаҳар аҳолиси Бойсунда 3598 киши, Шерободда 2160 киши, Шурчида 931 кишини ташкил этган бўлса, қишлоқ аҳолиси Бойсунда 230887 ккиши, Шерободда 51230 киши, Шурчида 53430 кишини ташкил этди. Ушбу рақамларни Қашқадарё вилояти бўйича таққослаганда ер майдони Беҳбудий 13910 кв. км., Ғузор 4978 кв.км., Шахрисабз 7113 кв. км.ни ташкил этиб, аҳоли сони Беҳбудийда 83634 киши, Ғузорда 37405 киши, Шахрисабз 98072 кишидан иборат бўлган. Юқорида қайд этилган аҳолини шаҳарларда тақсимлаганда. Беҳбудийда 11979 киши, Ғузорда 850 киши, Шахрисабзда 15972 кишини, қишлоқларда истиқомат қиладиган аҳоли Беҳбудийда 71655 киши, Ғузорда 36555 киши, Шахрисабзда 82100 кишидан иборат бўлган. Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудларида аҳолининг ҳовли-хутор

усулида жойлашиши бўйича ўтказилган тадқиқотларда, аҳолини зичлиги ва кўчманчи ҳудудлар аҳолисиининг жойлашуви, сони хусусидаги манбалар ҳам демографик жараёнларнинг урбанизация даражасини ўрганишда алоҳида ўрни борлиги ҳисобга олинди. Демографик жараёнларнинг урбанизация даражасини ўрганишда илмий этиш жараёнида Ўзбекистоннинг жанубий ҳудудларидан аҳолининг қишлоқ усулида ўрнашган жойларидаги майдони, зичлиги ва тўпланганлигини илмий таҳлил этиш жараёнида муҳим аҳамиятга эга тарихий манбалар талқин этилиб, холисона тарихий изоҳланди. 1924 йилдаги маълумотларга асосланиб, Сурхондарё вилояти ер майдони 20217 кв. км. бўлиб, жами аҳоли 13443 кишини ташкил этиб, ўртача аҳоли зичлиги 6,6 кишидан иборат бўлиб, аҳоли яшайдиган жойлар сони 424 та бўлиб, ўртача ҳар бир аҳоли манзилгоҳида 317 киши тўғри келган. Шуни алоҳида таъкидлаш керакки Демографик жараёнларнинг урбанизация даражасини ўрганишда аҳоли яшайдиган жойларининг истиқомат қилувчилари сони ҳам ўрганиб чиқилди. Натижада Сурхон воҳасида аҳоли яшайдиган манзилгоҳларда қуйидагича аҳоли сони марказлари тўғри келган. 8 та манзилгоҳда 25 кишигача, 26 манзилгоҳда 26-50 кишигача, 73 та манзилгоҳда 201-300 кишигача, 51 та манзилгоҳда 501-1000 кишигача аҳоли истиқомат қилган [1].

1924 йилги тадқиқотларга асосланиб Демографик жараёнларнинг урбанизация даражасини ўрганиш масаласида амалга оширилган тадқиқотларга асосланиб, жанубий ҳудудлар аҳолисининг вилоятлар бўйича миллий тарккиб ўрганилиб, илмий тадқиқот жараёнида тарихий жиҳатдан хулосаланди. 1924 йилги маълумотларга Қашқадарё вилоятида 184459 ўзбеклар, 20438 тожиклар, 3152 туркманлар, 7321 араблар, 1011 яхудийлар истиқомат қилиб, жами аҳоли сони 21911 киши ташкил этган. Тадқиқотлар жараёнида Сурхондарё вилоятида 85333 ўзбеклар, 43221 тожиклар, 4330 туркманлар, 104 қозоқлар, 288 араблар, 5 эронийлар, 600 руслар, 36 яхудийлар, 104 арманлар, 95 татарлар, 320 бошқа миллат вакиллари истиқомат қилиб, жами аҳоли сони 1314336 кишини ташкил этган [2].

Демографик жараёнларнинг урбанизация даражасини ўрганишни илмий таҳлил этиш жараёнида аҳолини миллий таркибини ўрганиш, тарихий жиҳатдан таҳлил этиш даврида шаҳар аҳолисининг миллий таркибини ўрганишга алоҳида эътибор қаратилди. Жумладан, 1924 йилда амалга оширилган тадқиқотларда Жанубий ҳудудлар аҳолиси Қашқадарё вилояти бўйича шаҳарларда истиқомат қилган аҳолидан 27,384 ўзбеклар, 188 тожиклар, 132 туркманлар, 138 арблар, 1011 яхудийлар аҳолиси бўлиб, жами 28801 киши шаҳарларда яшаган.

Шунингдек, Сурхондарё вилояти шаҳарларидаги аҳолидан 836 ўзбеклар, 4351 тожиклар, 180 туркманлар, 24 қозоқлар, 5 эронийлар, 600 руслар, 36 яхудийлар, 104 арманлар, 95 татарлар, 320 қолган миллат вакиллари бўлиб, жами 66,89 кишини ташкил этган. Миллий таркиб бўйича ўтказилган илмий тадқиқотлар давомида, баъзи бир йирик шаҳарлар аҳолисини миллий таркиби ҳам 1924 йилги тадқиқотларда ўрганилди. Термиз шаҳари маъмурий-сиёсий марказ сифатида 1,381 кишилик аҳолига эга бўлиб, шундан 185 ўзбек, 96 тожик, 180 туркман, 24 қозоқ, 5 эрон, 600 рус, 104 арман, 95 татар, 92 таси бошқа миллат вакилларидан иборат бўлган. Шунингдек ушбу даврда Шеробод шаҳрида 779 киши исстиқомат қилиб, шундан 225 таси ўзбек, 422 тожик, 132 та араблар, Бойсун шаҳрида жами 2,235 аҳоли яшаб, шундан 122 ўзбек, 2,071 тожик, 6 араб, 36 яхудий истиқомат қилган. Дарбанд шаҳарчасида 1,3363 тожик аҳолиси истиқомат қилган [3].

Демографик жараёнларнинг урбанизация даражасини илмий таҳлил этиш жараёнида уй-жой ҳажми соғлиқ ва тозаликни сақлаш чора-тадбирлари тартиб-қоидаларига мувофиқ келадиган хонадонлар соҳибларининг ўз корхоналаридаги иш унуми, уй-жой ҳажми бу талабларга жавоб бермайдиган хонадон эгаларининг меҳнат унумига нисбатан анча юқори бўлиши исботланган [4].

Демографик жараёнларнинг урбанизация даражасини таҳлил этиш жараёнида 1938-1939 йилларда оилани режалаштириш ишчи ва хизматчи аёллар ўртасида қишлоқ хўжалигида банд бўлган аёллар ва уй бекаларига қараганда юқори даражада экан. Жанубий ҳудудларда истиқомат этувчи оилаларнинг аксарияти эса ишчи ва хизматчи оилаларидир. Бундай ҳолни Қарши шаҳри

мисолида ҳам кузатишимиз мумкин. Қаршида олиб борилган тадқиқот натижалари кўрсатишича, антропологик қиёфани ўрганиш жараёнида антропологик қиёфани ўрганишда тадқиқотда қатнашган 20 — 49 ёшли хизматчи аёлларнинг 80,6 фоизи, ишчи аёлларнинг 71,0 фоизи, қишлоқ хўжалигида банд бўлган аёлларнинг —60,0 ва уй бекаларининг — 58,2 фоизи ҳомиладорликнинг оддини олувчи воситалардан фойдаланганлар.

Сурхондарё вилоятининг шахарларида ҳам, қишлоқларида ҳам оилани режалаштириш Ўзбекистоннинг бошқа вилоятларига қараганда камроқ кузатилди. Масалан, 1939 йил Сурхондарёда тадқиқотга қатнаган фарзанд кўриш давридаги хизматчи аёлларнинг 63,7 фоизи, ишчи аёлларнинг 64,5 фоизи, антропологик қиёфани ўрганиш жараёнида қишлоқ хўжалигида банд бўлган аёлларнинг ва уй бекаларининг эса — 43,7 фоизи оилада фарзандлар туғилишини бошқаришга ҳаракат қилишган [5].

Қашқадарё ва Сурхондарёда ўтказилган тадқиқотлар ҳам ушбу вилоятларда тадқиқотга жалб этилган оилаларнинг 40-50 фоизида фарзандлар туғилишини назорат этилиши кузатилди [6]. Шундай қилиб, Ўзбекистонда ўтказилган икки тадқиқот натижаларининг гувохлик беришича, Республикада катта авлоддан ёш авлодга ўтиб борган сари оилада фарзандлар туғилишини бошқариш жараёни 4 - 5 баробарга кўпайган [7]. Бунинг асосий омиллари, бир томондан аёллар маълумотлик даражасининг ошиб бориши, ижтимоий ишлаб чиқаришда қатнашувининг фаоллашуви бўлса, иккинчи томондан, шаҳар турмуш тарзи ва ҳомиладорликнинг олдини олувчи воситалар ҳамда улар ҳақидаги тушунчаларнинг кенг ёйилишидир. Айниқса ушбу 1926-1939 йилларда даврда тиббиёт бўйича республиканинг бошқа давлатлар билан илмий амалий ҳамкорлиги яна ҳам ривожланди. Кейинги 1932-1939 йиллар мобайнида Ўзбекистонга хорижий республикаларда тайёрланган дори-дармонлар кўплаб кела бошлади. Улар жумласига ҳомиладорликни олдини олувчи турли тиббий воситалар, дори дармонлар ҳам киради. Тадқиқот учун 1939 йил Қарши шахри, Қашқадарё вилояти танланган. Бунинг сабаби, Қарши шаҳри ва вилояти Республикадаги энг кўп миллатли, шахар турмуш тарзи кенгроқ ёйилган,

туғилиш даражаси паст вилоят бўлса, Қашқадарё эса, туғилиш даражаси нисбатан юқори даражада сақланиб келаётган, асосан қишлоқ турмуш тарзи хукмрон вилоятлардан ҳисобланади.

Аҳолининг миллий таркиби ва ҳудудий жойлашувида аҳоли сонининг камайишининг сабаблари, уруш, қашшоқлик, очарчилик туфайли аҳолининг қирилиб кетишининг асосий таҳлиллари ҳамда совет ҳукуматини миллий жиҳатдан камситиш сиёсати, маҳаллий аҳолига нисбатан олиб борилган бир томонлама коммунистик мафкура тайзиғи асосидаги ҳаракатлари ва унинг натижалари илмий баён этилган. Шунингдек, аҳолининг ижтимоий ва малакавий аҳволини урбанизацион даражасида аҳолини турмуш даражасини кўтариш мақсадида олиб борилган ислоҳотлар, унинг натижасиз оқибатлари, тайёрланган миллий мутахассисларнинг асосий қисми европа миллатига хослиги ҳақида фикр-мулоҳазаларни ташкил этган.

Адабиётлар

1. Бўриева М.Р. Ўзбекистонда оила тарихий демографияси. –Т: 1997. Б.108. Развитие населения в трудоизбыточном регионе. –Т: 1989. –С.26.

2. Статистический ежегодник. – Т: Узбекистан, 1973. –С.10. Демографический ежигодник СССР. –М: Статистика. 1990. –С.39. Численност населения Республики Узбекистан. –Т: Госкомпрогнозстат, 1985. –С.63-65.

3. Аҳмедов Э.А. Ўзбекистон шаҳарлари. –Т: Ўзбекистон, 1991. -Б.124.

4. Туғиш ёшидаги аёлларни саломатлигини сақлаш. -Т: 1998. –Б.56.

8. Аёл-оила-ҳуқуқ. Давра суҳбати материаллари. –Т: 1998.

9. Бўриева М.Р. Оилани режалаштириш. –Т: 1999. –Б.94.

TURIZM VA REKREATSIYANI RIVOJLANTIRISHDA O‘ZBEKISTONDA GEOGRAFIK MUAMMOLAR VA YECHIMLAR

Dusaliyev Muysin Tura o‘g‘li,
QarDU PI o‘qituvchisi

Tarixdan dunyo mamlakatlarining aksar qismi o‘zining ko‘rkam manzarali joylari, qadimiy qadamjolarga boyligi, qulay geografik muhitda joylashganligi, yer osti

va usti boyliklari kabi xususiyatlarga egaligi bilan insonlarni o‘ziga jalb qilib keladi. Hozirgi globallashgan zamonda esa bu kabi imkoniyatlarga ega mamlakatlar zamonaviy texnologiyalarni keng joriy qilgan holda turizm sohasidan yaxshigina daromad qilmoqda. Turizm fransuzcha tour so‘zidan olingan bo‘lib, sayr-sayohat ma’nosini anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasining “Turizm to‘g‘risida”gi qonunida turizm tushunchasiga shunday ta’rif berilgan: “turizm-jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog‘lomlashtirish, ma’rifiy, kasbiy-amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to‘lanadigan faoliyat bilan shug‘ullanmagan holda uzog‘i bilan bir yil muddatga jo‘nab ketishi (sayohat qilishi)”. Texnika vositalarining rivojlanishi harakatlanish jarayonlarini ham tubdan o‘zgartirib yubordi. Bu esa har kimga xohlagan vaqtida sayohat qilish imkonini tug‘dirdi. Dastlab sayohatchilar uchun maxsus tayyorlangan yo‘l ko‘rsatkichi K.Baedeker tomonidan 1829-yilda tayyorlanib nashr qilingan. U hozirgi vaqtda ham chop etilib, Yevropa sayohatchilari orasida keng tarqalgan. Albatta texnika taraqqiyoti ommaviy turizmning rivojlanishiga katta turtki bo‘ldi.

Zamonaviy turizm asoschisi sifatida bugungi kunda baptist ruxoniysi Tomas Kuk tan olingan. Aynan shu inson o‘z qavmi uchun 1843-yilda dastlabki temir yo‘l orqali sayohat uyushtirib, muvaffaqiyatga erishgan. Shunday qilib sayohatlardan hayot faoliyatining alohida jozibador usuli sifatida yangi shakl - turizm ajralib chiqdi. U o‘ziga xos xususiyatlari va xislatlari bilan tavsiflanadi. Turizmni sayohatlardan ajratib turuvchi asosiy jihati bu uning tashkiliy jihatdan yo‘lga qo‘yilganligida, maqsadli va ommaviyligidadir.

Bugungi kunda aksariyat taraqqiy etgan dunyo mamlakatlari iqtisodiyotining asosiy bo‘g‘inlaridan biri albatta turizm sohasidir. Bu esa o‘z-o‘zidan o‘sha mamlakatlarda xizmat ko‘rsatish sohasi yuqori darajada ekanligidan dalolat beradi. Shu jumladan mamlakatimizda ham hozirgi kunda turizmni rivojlantirish bo‘yicha jadallik bilan islohotlar olib bormoqda. O‘zbekiston ham juda katta turizm va rekreatsiya salohiyatiga ega mamlakat hisoblanib, unda jami 7,4 ming madaniy meros obyektlari mavjud. Ularning 209 tasi to‘rtta muzey shaharlarimizda – “Xiva shahridagi

Ichan-qal’a”, “Buxoro shahrining tarixiy markazi:, “Samarqand shahri” hududlarida joylashgan. Eng ahamiyatlisi bular YUNESKO butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan. Prezidentmiz Sh.Mirziyoyevning 2019-yil 5-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risi”dagi PF-5611 sonli farmonining chiqarilishi ham mamlakatimizda ushbu sohaga qaratilayotgan e’tiborning qay darajada yuksak ekanligidan dalolatdir. Ushbu farmonga muvofiq 2021-2025- yillarda mamlakatimizda turizm sohasini rivojlantirish konsepsiyasi qabul qilindi.

“Turizm” tushunchasi to‘g‘risida hozirgi kunda ilmiy adabiyotlarda bir qancha yondashuvlar mavjud. Jumladan olimlarimizdan X.M.Mamatqulov, I.S.Tuxliyev, A.B.Bektemirovlar o‘zlarining “Xalqaro turizm” nomli darslik qo‘llanmasida “turizm” tushunchasi to‘g‘risida bir qancha yondashuvlarni turlicha belgilarga qarab bir necha guruhlarga birlashtirish mumkinligi to‘g‘risida fikrlarini keltirib o‘tadi:

turizm odamlarni yo‘nalish bo‘yicha aniq obyektga tashrif buyurishi yoki maxsus qiziqishini qondirish va doimiy yashash joyiga qaytib kelishi harakatlarining alohida shaklidir; turizm odamlarni harakatlanishi (joyini o‘zgartirishi), ularni doimiy yashash joyiga qaytib kelishi harakatlarining alohida shaklidir; turizm odamlarni harakatlanishi (joyini o‘zgartirishi), ularni doimiy yashash joyida bo‘lmasligi va qiziqqan obyektida (safarda) vaqtincha bo‘lishi; turizm shaxsni uning ijtimoiy-gumanitar funksiyasi orqali (tarbiyaviy, ta’limiy, sog‘lomlashtirish va sport) amalga oshiriladigan rivojlanishi alohida shaklidir; turizm dam olishni, bo‘sh vaqtini o‘tkazishning ommaviy shaklidir; turizm odamlarga vaqtincha doimiy yashash joyida (turizmni aniqlashga “samolyot” yondoshuvi) bo‘lmagan paytida xizmat ko‘rsatish bo‘yicha xo‘jalik sohasidir; turizm bozor segmenti sifatida iste’molchilarga o‘z mahsulotlari va xizmatlarini (marketing nazariyasi nuqtai nazaridan) taklif etish maqsadida an’anaviy xo‘jalik tarmoqlari (transport, umumiy ovqatlanish, mehmonxona xo‘jaligi, madaniyat, savdo va boshq.) bilan bozorga chiqadi; turizm hodisa sifatida mutlaqo dam olish deb ongimizga singib ketgan an’anaviy tasavvurlarga sig‘maydi 1991-yil Ottava, Kanadada bo‘lib o‘tgan BTT - Butunjahon turistik tashkiloti sayohat va turizm statikasi bo‘yicha konferensiyada konsepsiya sifatida talablar yo‘nalishi tanlandi va turizm shunday

belgilanish oldi: “Turizm - odatdagi muhitdan tashqarida dam olish, ishga aloqador va boshqa maqsadlarda bir yildan ko‘p bo‘lmagan davrda bo‘lgan sayohat va joylarda bo‘lishni amalga oshirgan shaxs faoliyati”[1]

Yuqoridagi yondashuvlardan kelib chiqadiki, turizm, albatta, mamlakat iqtisodiy hayotida muhim o‘rin tutadi. Mamlakatlar esa o‘zining qanchalik turistik zonalaridan foydalana olayotganligi uning yalpi daromadida turizmdan kelayotgan daromad ko‘rsatib turadi. Turizm tushunchasi hamohang ravishda “rekreatsiya” so‘ziga ham to‘xtalib o‘tsak.

“Rekreatsiya” tushunchasi xususida dunyo va mamlakatimiz olimlari tomonidan keng ko‘lamda o‘rganilib kelinmoqda. “Rekreatsiya” atamasi lotincha “recreation”, ya’ni qayta tiklash ma’nosini anglatadi va ushbu atama to‘g‘risida olimlar tomidan berilgan ta’riflarning asosini aynan shu ma’no tashkil qiladi.

Olimlardan V.I.Grigoryev va V.S.Simonovlarning talqinigaga ko‘ra, ijtimoiy ne’matlar nazariyasi nuqtayi nazaridan qaraganda rekreatsiya bu dam olishni maqsadli tashkil etish orqali tegishli bilim va ko‘nikmalarni o‘zlashtirishga yo‘naltirilgan faoliyat turidir. Boshqa bir g‘arb olimlari R.Chales va J.Brentlar rekreatsiyaning tashrif davomida asosiy yoki ikkilamchi ehtiyojga aylanishi turistlarning turiga qarab farq qilishini aytib o‘tishgan. Yurtimizda ham olimlar tomonidan turistik-rekreatsion xizmatlarning rivojlanishi bo‘yicha bir qancha tadqiqot ishlari olib borilgan. Misol uchun, M.Pardayev “rekreatsiya” - bu tarmoq jihatdan dam oluvchining jismoniy, aqliy, ma’naviy kuchini hamda salomatligini va ish qobiliyatini tiklashga qaratilgan xizmatlar ko‘rsatishga mo‘ljallangan korxona, tashkilotlarning majmuidir deb ta’riflaydi. Shuningdek, Z.Usmonovning tadqiqot ishida “rekreatsiya” tushunchasi uydan tashqarida, masalan, sanotoriy, tabiat qo‘yni, sog‘lomlashtirish muassasalarida dam olish yo‘li bilan salomatlikni va inson kuchini qayta tiklash deb ta’riflangan. Tadqiqot ishi Samarqand viloyati misolida olib borilgan. Rekreatsiya atamasiga berilgan ta’riflarni umumlashtirilgan holda Z.T.Abdulxakimov rekreatsiya nafaqat mehnat qobiliyatini qayta tiklash, balki ruhiy dam olish, jismoniy va ruhiy quvvat olishni ham o‘z ichiga qamrab olishini ta’kidlab rekreatsiya - bu tabiiy muhitda inson o‘zining mehnat qilish qobiliyatini qayta tiklay olishi va dam olishi mumkin bo‘lgan

(tabiatning manzarali joylari, sharsharalar, tabiiy yodgorliklar va qo‘riqxonalar, davolanish va dam olishga mo‘ljallangan sanotoriy, turizm bazalari, tarixiy yodgorliklar, muzeylar, teatrlar va turli boshqa tadbirlar)ni o‘z ichiga oluvchi ijtimoiy-iqtisodiy jarayon[2].

Rekreatsion jarayonlar xususida bir qancha asarlar ham yaratilgan. Bundan dalolat beradiki ushbu xususda o‘tgan asrdan buyon dunyo olimlari tomonidan keng ko‘lamda tadqiqot ishlari olib borilmoqda.

1963-1975 yillarda SSSR FA Geografiya instituti mutaxassislari guruhi (V.S.Preobrajenskiy, Yu.A. Vedenin, I.V.Zorin, B.N.Lixanov, L.I.Muxina, L.S.Filippovich va boshqalar) “Rekreatsion geografiyaning nazariy asoslari” monografiyasini tayyorladilar. Undagi g‘oyalar xuddi shu jamoaning keyingi tadqiqotlari uchun asos bo‘lib xizmat qildi. (“SSSR rekreatsion tizimlar geografiyasi” (1980); “Moskva va Moskva viloyati aholisi uchun dam olishni hududiy tashkil etish” (1986); “SSSR rekreatsion resurslari” (1990)) va mahalliy va xorijiy tadqiqotlarda javob oldi. Ular oliy o‘quv yurtlarining o‘quv dasturlarida ham o‘z aksini topgan. 1992 yilda Rossiya xalqaro turizm akademiyasi “Rekrealogiya va rekreatsion geografiya nazariyasi” (V.S.Preobrajenskiy, Yu.A. Vedenin, I.V.Zorin, V.A.Kvartalnov, V.M.Krivosheev, L.S.Filippovich) yangi monografiyasini nashr etdi. Unda ko‘p yillik izlanishlar natijalari umumlashtirildi va fanlararo fan sifatida rekreatsionologiyaning boshlanishi shakllantirildi: rekreatsion tizim haqidagi paydo bo‘lgan g‘oyalar va tushunchalar majmui belgilab berildi[3]. Angliyalik rekreolog P.Pirs, A.Maslou piramidasiga o‘xshashlik bo‘yicha rekreatsion ehtiyojning besh darajasini ajratadi.

Endi bevosita mamlakatimizda turizm va rekreatsion jarayonlarni rivojlantirishda geografik muammolar va imkoniyatlarga to‘xtalib o‘tsak. Albatta, har bir mamlakat turizmni rivojlantirishda o‘zining geografik o‘rnidan kelib chiqadi. O‘zbekistonda turistik salohiyatiga birinchi geografik to‘siq albatta dengiz va okeanlardan uzoqda joylashganligidir. Sababi dunyoda ko‘pchilik sayohat qiluvchilar asosan dengiz orqali sayohat qilishni xush ko‘rishadi. Biroq mamlakatimizda keraklicha tog‘li hududlar topiladi. Bu esa yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan geografik to‘siqni yetarlicha tarzda yopib ketadi. Buning uchun:

Birinchidan mamlakatga xorijlik fuqarolarni kirib kelishida qulayliklarni yaratish;

Ikkinchidan mamlakatning turistik zonalari to‘g‘risidagi maqola va ma’lumotlarni imkon qadar ko‘proq xorijiy manbalarda yoritish;

Uchinchidan mamlakat ichidagi yo‘llarni yaxshilash;

To‘rtinchidan tog‘li hududlarda turistik zonalarni yanada ko‘paytirish;

Beshinchidan turistik zonalarda mehmonxonalarni ko‘paytirish zarur;

Oltinchidan tog‘li hududlarda olib borilayotgan yo‘llarni yaxshilash;

Yettinchidan tog‘li hududlarda manzarali joylarni ko‘paytirish zarur;

Sakkizinchidan imkon qadar sayohatchilar uchun safar xarajatlari arzonroq bo‘lishi lozim;

To‘qqizinchidan turistlarning xavfsizligi ta’minlash darajasi zamonga hamohang bo‘lishi lozim;

O‘ninchidan turistik zonalarda davolanish maskanlarini ham ko‘paytirish zarur (bunda sayohatchining sog‘ligi nazarda tutilib, bu esa sayohatchilarni yanada xotirjamlikka undaydi);

Albatta, hozirgi kunda turizm uchun yetarlicha hukumatimiz tomonidan e’tibor qaratilmoqda va sharoitlar yaratilmoqda.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2019-yil 5-yanvardagi PF-5611 Farmoni.

2. Mamatqulov X.M., Tuxliyev I.S., Bektemirov A.B. “Xalqaro turizm”. darslik. Toshket - SamISI. 2008.

3. Ibadullayev E.B. Xorazm viloyatida turistik-rekreatsion xizmatlarning rivojlanish holati va tahlili // “Iqtisodiyot va ta’lim” ilmiy jurnali / 2021 yil 5-son

4. Григорьев В.И., Симонов В.С “Стратегия формирования индустрии рекреаций” - СПб: Иид по СПбГУЭФ 2006.

5. World Travel and Tourism Council 2021 Annual Research: Key Highlights Uzbekistan.

6. https://edu02.ru/uz/rekreacionnye-resursy-mira-vidy-i-ih-ispolzovanie-rekreacionnye-raiony/

Ilmiy rahbari: Qurbonov Pahlavon Rustamovich

МАМЛАКАТИМИЗДА ТУРИЗМ СОҲАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ (БУХОРО ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА)

Назиров У.Қ.,
ҚарДУ ПИ ўқитувчиси

Ҳозирги кунда республикамиз истиқболи туристик йўналиши сифатида халқаро туризмни ривожлантириш соҳасида юксак салоҳиятга эга мамлакатга айланиб, вилоятда амалга оширилаётган иқтисодий ислоҳотлар барча тармоқлари қаторида, туризм соҳасини ривожланиши учун ҳам энг муҳим соҳаларидан бири саналади.

Бухоро вилояти ўзининг кўҳна ва қадимийлиги, буюк шахслари билан бутун дунёни ўзига жалб қилиши ҳудудда туризмнинг ривожланишига асос бўлиб, биргина тарихий-меъморий обидаларимиз сони 777 тани ташкил этиши бунинг яққол мисоли. Бухоро шаҳрининг тарихий маркази 1993 йилда ЮНЕСКО томонидан бутун жаҳон маданий мероси сифатида алоҳида рўйхатга олинган. Бухоро шаҳрининг тарихий маркази 216 гектарни ташкил қилиб, унинг муҳофаза ҳудуди 339 гектарга тенг. Бухоро шаҳрининг тарихий марказий қисмида 217 та маданий мерос объекти мавжуд бўлиб, ҳозирги кунда вилоятда меҳмонхоналар сони -106 та *(2013 йилда – 46 тани ташкил қилган бўлса)* ва туристик фирмалар *(2013 йилда-6 тани ташкил қилган бўлса)* уларнинг сони - 40 тага етиб, сайёҳлар оқими йил сайин кўпаймоқда. Бунинг натижасида вилоятдаги барча меҳмонхоналар бир кунда 4500 га яқин меҳмонларга халқаро стандартлар даражасида сервис хизмати кўрсатиш имкониятига эга бўлиб, 2017 йилга келиб уларнинг сони 5500 етиши кутилмоқда. Агар 2015 йилда вилоятимизга ташриф буюрган 120 мингдан ортиқ хорижий сайёҳларга кўрсатилган экспорт хизматлари ҳажми 53,6 млн. АҚШ долларидан ошган бўлса, 2016 йилда 130 мингга яқин хорижий сайёҳлар қабул қилиниб, уларга кўрсатилган экспорт

хизматлари ҳажми 90,3 млн. АҚШ долларига *(2015 йилга нисбатан 36,7 млн. АҚШ долларига кўп)* ўсиши ҳисобидан эришилди.

2016 йилнинг 11 ойлик натижаларига кўра вилоят бўйича жами 13 та, шундан 10 та меҳмонхона, 3 та туристик фирма ўз фаолиятини йўлга қўйлди, жумладан, қишлоқ жойларида меҳмонхона хизматларини янги турларини жорий этиш ва қишлоқ жойларида агротуризмни ривожлантириш мақсадида (3та) шу жумладан, 2 та меҳмонхона: Олот тумани Чандир ҚФЙ ҳудудида мўлжалланган (80 ўринга), Шофиркон тумани Вардонзе ҚФЙ ҳудудида 20 ўринли замонавий меҳмонхоналар ҳамда 1 та кемпинг (Ғиждувон тумани ҳудудида) қурилди.

Вилоятда туризмнинг янги салоҳиятли турлари–зиёрат қилиш, экологик, маърифий, этнографик, гастрономик, спорт, даволаш-соғломлаштириш ва қишлоқ туризми жадал ривожланиб бормоқда. Вилоятнинг туризм салоҳиятини дунёга тарғиб қилиш ва туристик мавсумнинг давомийлигини ошириш мақсадида маҳаллий ва хорижий сайёҳлар учун кўпгина фестиваллар ташкил қилиниб келинмоқда. Жумладан, ҳар йили “Ипак ва зираворлар” фестивали, “Палов сайли”, “Қовун сайли”, Ибн Сино таваллудига бағишланган илмий-амалий конференция, “Миллий анъаналар” фестивали каби тадбирларнинг доимий ўтказилиши йўлга қўйилган бўлиб, Бухоро шаҳрида анъанавий “Ипак ва зираворлар” фестивалини юқори савияда ўтказиш анъанага кирган. 2016 йил 26-28 май кунлари XV халқаро “Ипак ва зираворлар” фестивали ҳамда фестиваль доирасида “Бухорога хорижий сармояларни, замонавий технологиялар ва инновацион лойиҳаларни жалб қилиш – туризм соҳасини ривожлантириш, хизмат кўрсатиш тизимини янгилаш ҳамда халқаро тан олинган маданий мерос объектларини сақлаб қолишнинг бош мезони сифатида” мавзусидаги халқаро илмий-амалий конференция ўтказилди. Бу лойиҳалар вилоятимизда туризм соҳасини янада ривожланишида алоҳида аҳамиятга эга.

Туризм инфратузилмасининг энг асосий бўғинларидан бири бу транспорт ҳисобланади. Бухоро аэропортининг халқаро аэпортга айланиши ва Бухоро темир йўл вокзалидан “Афросиёб” тез юрар поездининг қатнови йўлга қўйилиши вилоятда туризмнинг кескин ривожланишига, айниқса сайёҳлар

оқимининг янада ошишига олиб келди. Шунингдек, туристик автобусларнинг (2013-2016 йилларда 20 дан ортиқ янги замонавий туристик автобуслар ва микроавтобуслар кириб келди) йилдан-йилга ошиб бориши ҳам соҳада сайёҳлар учун каттадан-катта қулайликлар яратмоқда.

Шунингдек, туризм соҳасидаги хизмат кўрсатиш йўналишларидан бўлган ресторанлар ва овқатланиш хизмати ҳам янги босқичга кўтарилди. Жумладан, 2010 йилларда сайёҳларга хизмат кўрсатувчи умумий овқатланиш шаҳобчалари сони вилоятда бор йўғи 2-3 та (Нодир Девонбеги, Белла Италия, Лаби Ҳовуз) ресторанлар фаолият юритаётган бўлган бўлса, ҳозирги кунга келиб уларнинг сони 20 га тани ташкил этиб, 2017 йилга келиб уларнинг сони 35 тага етиши кутилмоқда.

Келгусида 2017-2021 йилларда вилоятда туризмни янада ривожлантириш саёҳлар оқимини ошириш мақсадида:

-Бухоро шаҳрида халқаро учрашувлар ҳамда конференциялар ўтказишга мўлжалланган миллий руҳдаги замонавий бино қуриш ҳамда Ўзбекистон Республикаси Туризмни ривожлантириш давлат қўмитаси Бухоро ҳудудий бошқармасининг маъмурий биносини жойлаштириш;

-Бухоро вилоятида туризмни ривожлантириш ҳамда тарихимизни тўлиқ ва тўғри тушунтириб берувчи малакали ҳамроҳ-таржимонларга бўлган талабни қондириш мақсадида Ўзбекистон Республикаси Туризмни ривожлантириш давлат қўмитасининг Туризм соҳасида кадрларни малакасини ошириш ва қайта тайёрлаш Республика ўқув марказининг Бухоро филиалини ташкил этиш;

-“Варахша”, “Зарафшон”, “Бухоро” меҳмонхоналари биноларни капитал реконструкция қилиш ва замонавий меҳмонхонага айлантириш;

-Вилоятимизга ташриф буюраётган сайёҳларга қулайликлар яратиш мақсадида аэропорт ёки темир йўл вокзалидан ташриф буюрган меҳмонларга вилоятнинг барча туристик йўналишлари, тарихий обидалар, транспорт хизмати, меҳмонхоналар, дам олиш масканлари тўғрисидаги маълумотларга эга бўлган “Ахборот марказ”ларини ташкил этиб,

-якка тартибда келувчи сайёҳларнинг Бухорода ҳоҳлаган манзилларига адашмай етиб олишлари учун туристик йўл кўрсаткичларни ўрнатиш.

-Вилоятнинг асосий туристик йўналишидаги туристик объектларда объект ҳақидаги маълумотлар берувчи стендлар, кўргазмали воситалар ва бошқа шу турдаги тарғибот воситаларини кўпайтириш;
-Вилоятдаги "Етти Пир" туристик маршрути бўйича туристлар оқимини янада ошириш мақсадида, Хўжа-Абдухолиқ Ғиждувоний, Хўжа Муҳаммад Ориф ар-Ревгарий, Хўжа Маҳмуд Анжир-Фағнавий, Хўжа Азизон, Хўжа Муҳаммад Бобо Самосий, Хўжа Саид Амир Кулол, Хўжа Баҳоуддин Нақшбанд зиёратгоҳларида хорижий ва маҳаллий сайёҳлар боришлари учун йўл, коммуникация, дам олиш, овқатланиш инфратузилмаларини яратиб янада такомиллаштириш;
-Вилоятнинг туризм салоҳиятини дунёга тарғиб қилиш ва туристик мавсумнинг давомийлигини ошириш мақсадида маҳаллий ва хорижий сайёҳлар учун доимий равишда фестиваллар ташкил қилиш режалаштирилмоқда.

Адабиётлар

1. Вилоят статистика бошқармаси.
2. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 2016 йил 8 июндаги "Жойларда туризм соҳасини янада ривожлантириш ва туризм хизматлари экспортини оширишни таъминлашга қаратилган аниқ чора-тадбирлар тўғрисида"ги (14-02/87-2) 30-сонли баёни.

GEOGRAFIYA TA'LIMIDA TURISTIK O'LKASHUNOSLIK, MUZEY HAMDA EKOLOGIK YO`NALISHLARNING O`RNI

Mukumova H. I., *QarDU o`qituvchisi,*
Hasanova N.S., *Shaxrisabz tumani 2-IDUMI o`qituvchisi*

Geografiya ta'limida tashkil etiladigan turistik o'lkashunoslik sayoxatlari muzey hamda ekologik yo`nalishlar o'quvchilarni shaxs sifatida shakillanishida muhim rol o'ynaydi. O'lka tarixi haqida topilgan har qanday yangi ma'lumot o'lka haqidagi yangi bilim hisoblanadi. O'lkashunoslik tadqiqotlarida o'quvchilar quyidagi faoliyatini amalga oshirishadi. [1,3].

- **O'lkashunoslik bilish faoliyati** mazkur faoliyat davomida yosh o'lkashunoslar o'lka to'g'risidagi alohida tarixiy vaqealar va ma'lumotlar haqida bilimlarga ega bo'lishadi. Mazkur faoliyat ma'naviy yo'nalishiga ega va turli xil

murakkablikka ga bo'lgan darajalardan iborat. Masalan, o`quvchilar o'lka haqida oddiy bilimlardan tortib ekspeditsiyalardan olingan murakab bilimlargacha ega bo'ladilar.

- **O'zgartiruvchi faoliyati**. Mazkur faoliyat davomida amaliy - ma'naviy qadriyatlar barpo qilinadi (ko'rgazmalar, tarixiy o'lkashunoslik burchaklari, maktab muzeylari, memorial taxtalarni tashkil qilish).

- **Qadriyatlarga yo'naltirilgan faoliyat** ham asosan ma'naviy xususiyatga ega. mazkur faoliyat natijasida har bir talaba o'zi uchun va jamiyat uchun u yoki bu tarixiy ma'lumotlarni voqealarni, kishilarni qahramonligini ahamiyatini, urf-odatlarni avloddan - avlodga o'tishini anglaydilar.

- **Kommunikativ faoliyati** o'lkashunosliklarda o'zaro aloqa, munosabat. ko'nikma va malakalarni shakilantiradi va rivojlantiradi. O`quvchilarni mustaqil ravishda shaxsiy o'rganishlari uchun asos bo`ladi.

Yuqoridagi keltirilgan tarixiy geografik o'lkashunoslik faoliyatining hamma turlari bir - biri bilan chambarchas o'zaro bog'langan bo`lib uning asosiy obyektlari quyidagilar hisoblanadi:

-o'lkaning qadimgi davrlardagi tarixiy voqealari;
-o'lkada o'rta asrlarda sodir bo'lgan tarixiy voqealari;
- o'lkani mustamlaka yillardagi tarixiy voqealari;
- o'lka arxeologik sharoiti;
- o'lkani etnografik sharoitini o'rganish.

Umumiy o`rta ta'lim maktabida tashkil qilingan yosh o`lkashunoslar faoliyati o'lka tarixini o'rganish tadqiqot maqsadi va vazifalaridan kelib chiqib turlicha bo'lishi mumkin, har bir tadqiqot turi ma'lum bir tartibda olib boriladi. Masalan o'lkashunoslik maqsadlarida ko'pincha ma'lum bir ko'chani, mavzeni yoki qishloqni tarixi o'rganiladi. Alohida ko'chani tarixini o'rganish quyidagi tartibda olib boriladi: [2].

- ko'chani yoki mavzening nomi, kelib chiqish tarixi;
- mazkur ko'chada sodir bo'lgan tarixiy voqealar;
- ko'chaning qurilishi tarixi va rivojlanish istiqboli;

- ko'chada, qishloqda yoki mavzeda joylashgan sanoat korxonalari va turli xil tashkilotlarni vujudga kelishi va rivojlanish tarixi;
- ayrim binolar va inshoatlar tarixi;
- mazkur ko'chada yashagan yoki yashayotgan mashxur va dongdor kishilar biografiyasi;
- ko'chada joylashgan tarixiy va madaniy yodgorliklar.

Shuningdek maktabda yosh o`lkashunoslar tomonidan o'lkashunoslik muzeyi tashkil etiladi. O'lkashunoslik muzeyini jixozlash maktabda faoliyat yuritayotgan geografik tugarak yoki geografik jamiyat ishlar asosida olib boriladi. Geografiya ta'limida sinfdan tashqari hamda maktabdan tashqari ishlarning natijalari o'lkashunoslik muzeyini tashkil qilish va jihoslashda katta ahamiyatga ega bo`ladi. Geografiya to'garagini har bir tarmog'i bo'yicha yig'ilgan materiallar muzeyga eksponat sifatida to`planadi. Masalan, "Yosh biolog" bo'limi muzeyini tuproq o'simlik va hayvonot dunyosi namunalari bilan jihozlashlari va muntazam to'ldirib borishlari lozim, "Yosh iqtisodiy geograf" tarmog'i esa joydagi ishlab chiqarish korxonalarining maketlari va ularning mahsulotlaridan namunalari bilan muzeyni jixozlashlari mumkin va h.k.

O'lkanunoslik muzeyi sinfdan tashqari ishlarni natijalarini umumlashtirib ko'rsatadi. Mazkur muzeyni ishlarida maktabda tashkil etilgan "Yosh tarixchi" to'garagi a'zolari ham qatnashishi mumkin. Ular to'plagan materiallari o'lka tarixi bo'limining eksponatlarini to'ldiradi.

Umumiy o`rta ta'limda tashkil etiladigan geografik muzeylar juda xilma - xil bo'lishi mumkin. O'lka tabiatini o'rgan olimlar muzeyi, buyuk geograf - olimlar va sayyohlar muzeyi va x.k. Maktab geografik muzeyi o'lkashunoslik muzeylari bilan mazmuni va tuzilishi ba'zi xollardan o'xshash bo'lishi ham mumkin.

Maktab geografiya muzeylari quyidagi bo'limlardan iborat bo'lishi mumkin: tabiiy geografik; iqtisodiy geografik; geoekologik; rekratsion va turistik.

Tabiy geografik bo'limda maktab joylashgan qishloq tuman, shaharning geologik tuzilishi, foydali qazilmalari. relyefning asosiy shakillari, suv havzalari, magistrallari, tuproq namunallari, o'simliklar gerbariylari, hayvonot dunyosining qotirilgan tanalari,

landshaft ko'rinishlari bo'yicha ko'rgazma materiallar tayyorlanadi va namoish uchun ma'lum bir tartibda joylashtiriladi.

Joy maketi yoki xaritasi tabiiy resurslari, sanoati, qishloq xo'jaligi mahsulotlari namunalari, sanoat obyektlarining maketlari, transport tizimi, maorif va sog'liqni saqlash muassasalari maketlari yoki ular haqidagi ma'lumotlar namoish qilinadi.

Geografiya bo'limida maktab joylashgan qishloq yoki tumandagi qo'riqlanadigan joylar, qizil kitobga kiritilgan o'simlik va hayvonot dunyosi haqida ma'lumotlar ko'rgazmaga qo'yiladi.

Rekratsiya va turizm bo'limida tabiatni go'zal dam olish joylari, tarixiy-geografik obidalar, memoriy yodgorliklar haqida ko'rgazmalar joylashtiriladi.

Sinfdan tashari ishlar davomida o'quvchilar devoriy gazetalar chiqarishlari mumkin. Bundan tashqari o'quvchilar tuman, shahar viloyat va respublika matbuotida ham maqolalar e'lon qilishlari mumkin.

Ba'zan sinfdan tashqari olib boriladigan ishlarni diyarli barchasi ekologik yo'nalishga ega bo'ladi, mazkur ishlar jarayoninida o'quvchilarda ekologik bilim va ko'nikmalar eng muhimi ekologik madaniyat shakillantiriladi.

Geografiya to'garagi a'zolari tomonidan olib boriladigan tabiiy geografik va iqtisodiy geografik ishlarning barchasida ekologik tadqiqotlar olib boriladi. Bunda tuproqni suvni, havoni ifloslanganlik darajasiga baho beriladi. Muhofaza qilinadigan o'simlik va hayvonot dunyosi vakillari haqida ma'lumotlar to'planadi. Maktab joylashgan qishloq tuman va viloyatlardagi atrof muhitni ifloslovchi asosiy manbalar aniqlanadi. Buning natijasida o'quvchilar tabiiy va iqtisodiy - ijtimoiy jarayonlarni o'rganish bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishadi.

Shuningdek maktabda tashkil etilgan yosh geograflar tugaragi a'zolarining ekologik yo'nalishda olib borgan o`quv sayoxatlari, ekskursiyalari, geografik ekspedittsiyalar, geografik yig'inlar, geografik yurishlari (paxodlar) turistik o'lkashunoslik ishlarining eng keng tarqalgan turi hisoblanadi. Mazkur yurishlarda turistik va o'lkashunoslik ishlari uyg'unlashgan xolda olib boriladi turistik ishlarga yo'nalishni tanlash va ishlab chiqish, turistik ko'nikmalarni egallash kiradi. [3].

Turistik o'lkashunoslik ishlarining eng keng tarqalgan turi ekologik yo`nalishda olib boriladigan yurishlar bo`lib, unga ko`ra quyidagi tayyorlanish va o'tkazish bosqichlaridan iborat bo`ladi:

-Tayyorgarlik bosqichi. Mazkur bosqichda yurishga chiqadiganlar soni, sinfi, ro'yxati aniqlanadi. Yurishda zarur bo'ladigan jihozlar asbob uskunalar aniqlanadi . yurishlar bir kunlik va ko'p kunlik bo'lishi mumkin;

-Yurish yo'nalishi aniqlanadi. Aniqlangan yo'nalish bo'yicha yurish , dam olish joylari, tushlik qiladigan, tunaydigan joylar aniqlanadi; oziq-ovqat masalalari hal qilinadi;

-Yo'nalishni tanlash yurish maqsadga qarab aniqlanadi. Yurishni maqsadlariga qarab turistik va o'lkashunoslik anjomlari ro'yxati tuziladi va topiladi;

-Yurishni o'tkazish. Yurishdan oldin uning maqsadi vazifalari hamda qoidalari haqida o'quvchilarga ko'rsatma beriladi. O'quvchilar guruhlarga bo'linadi. Har bir guruhning boshlig'i tayinlanadi va vazifalari belgilab beriladi. Masalan, bir guruh marshrutning tabiiy sharoitini o'rganadi. Relyef shakillari gidrografik obyektlar, tuproq, o'simlik va hayavonot dunyosi asosiy landshaft turlari, noyob tabiat obyektlarini o'rganadi. Ikkinchi guruh esa marshrutning joylashgan iqtisodiy geografitk obyektlarini o'rganib boradi: qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi, sanoat korxonalari, aholi punktlari, transort shaxobchalarini o`rganadi.. Uchunchi guruh tarixiy obidalar, rekratsion va turistik obyektlarni o'rganib xaritaga tushirib borishadi.

-yurish so'ngida uning natijalari qayta ishlanadi va hisobot tayyorlashadi. Bu ishlar yakuniy xulosasi geografik konferensiya yoki geografiya to'garagi yig'ilishida muhokama qilinadi[3].

Geografiya ta'limida tashkil etiladigan turistik o'lkashunoslik, muzey hamda ekologik yo`nalishlar sinfdan tashqari olib boriladigan ishlarning asosiy turi bo`lib o`quvchilar qiziqib qatnashadilar olgan nazariy bilimlarini kengaytiradilar.Bu kabi olib boriladigan ishlar o`quvchilarni o`z o`lkasini o`rganishlari uchun asos bo`lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Қурбонниёзов Р. География таълими методикаси. Тошкент Университет 1992

2. Saydamatov F. Geografiya o`qitish metodikasi. Ma’ruzalar matni T., Nizomiy TDPU 2001
3.Vaxobov H. Geografiya ta’limi metodikasi Toshkent., 2007.

КАСБ ТАНЛАШГА ТАЪСИР ЭТУВЧИ ИЖТИМОИЙ-ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАР

Бекмуродова Ҳафиза Номоз қизи,
ҚарДУ ПИ ўқитувчиси

Ҳозирги даврда фан ва техниканинг юқори даражада тараққий этиб бораётганлиги ҳамда бунга боғлиқ равишда маълум бир соҳада юқори малакали мутахасисни шаклланиши учун ўсмирлик давридан шахснинг ўзига мос касбнитанлаш масаласи долзарбмуаммо сифатида намоён бўлади. Ўсмирлик даврида касбий нуқтаи назардан нафақат келажакда ким бўлиш ҳақида ўйлаш балки ўзининг келажакдаги фаолиятини режалаштириш, касбий қизиқишларни белгилаш, касбни танлаш каби аниқ босқичлар амалга оширилади.

Е.А.Климов касб танлашга таъсир этувчи 8 та асосий омилларни ажратади:

1. Оилада катталарнинг қарашлари: ота-она фарзанд келажаги учун асосий масъул инсонлар бўлиб, уларнинг қарашлари фарзандининг касб танлашига таъсир этувчи муҳим омил ҳисобланади.

2. Дўстларнинг қарашлари: ўсмирлик даврида дўстлар ўртасидаги муносабатлар қалин бўлиб, бу уларнинг касб танлаш жараёнига ҳам таъсир этади.

3. Мактабдаги ўқитувчи ва педагогларнинг қарашлари: мактабда ўқитувчилар дарс ва дарсдан ташқари фаолиятда ўқувчиларни кузатиши натижасида ҳар бир ўқувчининг қайси касбга мойиллиги мавжудэканлигини яхши билади.

4. Шахсий касбий режалар: ўқувчиларнинг маълум бир касбни эгаллаш борасидаги тасаввурларини намоён этади.

5. Касбий лаёқат: ўқувчиларнинг индивидуал психологик хусусияти сифатида танланган касбий фаолият талабларига мос келиб, унинг

муваффақияти бажарилишини таъминлайди. Касбий лаёқат нафақат ўқув фаолиятидаги муваффақият шу билан бирга турли фаолият кўринишларида эришиладиган натижалар орқали ҳам баҳоланиши мумкин.

6. Ижтимоий мавқега интилиш даражаси: шахс интилиш даражаси ўзини қобилиятли деб ҳисоблаган қийинлик даражасига эга бўлган мақсадга интилишини намоён этади. Ҳақиқий интилиш даражасига эга бўлган одамлар ўзларига ишончи, ўз мақсадларига эришишда қатъиятлилиги, интилиш даражаси уларнинг қобилиятлари ва имкониятларига мос келмайдиган одамларга нисбатан юқори самарадорлик билан ажралиб туради.Интилиш ва реал имкониятлар ўртасидаги номувофиқлик натижасида шахс ўзини нотўғри баҳолай бошлайди, хатти-ҳаракати ноадекват бўлиб қолади, эмоционал ўзгаришлар пайдо бўлади, хавотир кучаяди. Бундан келиб чиқадики, интилиш даражаси шахснинг ўзини ўзи баҳолаши ва турли фаолиятда муваффақиятга эришиш мотивацияси билан чамбарчас боғлиқ. Шу сабабли бирор касбни танлашда ўзининг ҳақиқий интилиш даражасига эга бўлиш мақсадга мувофиқ.

7. Касб ҳақида маълумотга эга бўлиш: касбни танлаш босқичида танланаётган касблар ҳақида ноаниқ, тўлиқ бўлмаган, бир томонлама эмас балки тўлиқ маълумотга эга бўлишни назарда тутади.

8. Касбий қизиқишлар ва мойиллик: Қизиқиш - бу шахснинг индивидуал психологик хусусияти бўлиб, у воқеликка танлов орқали йўналганлик билан тавсифланади. Қизиқиш ижобий эмоционал реакция ва интеллектуал билиш фаоллигида намоён бўлади. Касб танлашга нисбатан қизиқишлар маълум бир меҳнат соҳасига ижобий муносабат, бу йўналишда билим ва фаолиятга интилишни англатади. Қизиқишларнинг мазмун-моҳияти шахснинг мотивлари ва эҳтиёжлари билан бевосита боғлиқ бўлади. Мойиллик муайян фаолият билан шуғулланиш истагини англатади.Мойиллик инсоннинг хоҳиш-истаклари, мотивлари, муайян фаолият турларига бўлган эҳтиёжлари, нафақат натижада, балки инсон бажарадиган жараённинг ўзига интилишида ҳам намоён бўлади.Касбий мойилликда шахсни нафақат касбий фаолият натижаси, балки иш жараёни ҳам ўзига жалб қилади. Барча муҳим касбий ютуқлар қизиқишлардан

келиб чиқиб, қулай шароитларда мойилликка айланади. Агар қизиқишлар “Мен билмоқчиман” формуласи билан ифодаланган бўлса, унда мойилликлар “Мен қилишни хоҳлайман” формуласи билан боғлиқ. Масалан, жониворлар ҳақидаги китобларга қизиқиш алоҳида жиҳат,лекин жониворларга ғамхўрлик қилишнинг кундалик ишларидан завқланиш мутлақо бошқа нарса.

Касб танлаш жараёнида ўқувчиларни касблар профессиографияси билан таништириш уларга ўзи қизиққан касб ҳақида аниқ маълумот олиш, ўз лаёқатини баҳолаш, касбий талабларга мос равишда ўзининг ҳақиқий интилишини шакллантириш имконини беради. Профессиографияда касбларнинг психологик, ижтимоий, иқтисодий тавсифи ҳамда касбий фаолиятни муваффақиятли эгаллаш учун зарур билимлар ва кўникмалар кўламининг педагогик тавсификелтирилади. Касб танлаш жараёни қуйидаги шаклларда амалга оширилади;

1) мактабда касбий маълумотлар бериш;
2) касб - ҳунар маорифи билан шуғулланиш:
3) радио, телевидение, кино, матбуода ташвиқот қилиш;
4) касб юзасидан маслаҳатлар;
5) касбга саралаш (қобилиятига биноан);
6) касбга мослашиш (адаптациялаш).

Мазкурсоҳада психологик изланишлароли6 борган К.К.Платонов муайян схема ишлаб чиққан бўлиб, у «Касб танлашга йўналтириш учбурчаги» деб номланиб ўзининг ихчамлиги билан бошқалардан ажралиб туради. Худди шу боис касб танлашга йўллашда, реориентациялашда ундан унумли фойдаланиш мумкин. Касб танлашга йўналтириш учбурчагининг муҳим бир томони - бу ҳар хил касб - ҳунар эгасига нисбатан қўйиладиган талаблар юзасидан муайян билимнинг мавжудлигидир. Унинг иккинчи бир хусусиятли томони шуки, у ёки бу мутахассисликка нисбатан жамият
(вилоят, шаҳар, туман)нинг меҳнат имкониятига эҳтиёжи бўйича билимлар мужассамлашганлигидир. Яна бир ўзига хос томони шундан иборатки, касбга йўналтирувчининг кунти, қобилияти, шахсий хусусиятлари бўйича билимлар умумлаштирилган бўлиб касб танлашга оид барча жиҳатлар мажмуа ҳолига

келтирилгандир. Касб танлашга йўналтириш учбурчаги шахснинг қизиқиши, майли, хоҳиши, ўзини ўзи баҳолаши, нуфузи кабиларга оид материалларни ўзида мужассамлаштиради.

Касб – ҳунар тўғрисида ҳар хил муносабатлар ҳосил бўлишининг асосий сабабларидан бири – бу мактаб ўқувчиларида касб танлаш жараёнида турли хил мотивларнинг намоён бўлишидир. Мотивлар ўртасидаги кураш уларнинг у ёки бу қарорга келишларига сабаб бўлади. Воқеликка онгли муносабатда бўлиш объектив ва қатьий қарорни келтириб чиқаради.

В.А.Крутецкий ўсмирларда учраши мумкин бўлган мотивлардан қуйидагиларни алоҳида таъкидлаб ўтади: 1)бирор ўқув фанига нисбатан қизиқиши; 2) ватанга фойда келтириш истаги (ўзларининг индивидуал - психологик хусусиятини ва қобилияларини ҳисобга олган ҳолда); 3) шахсий қобилиятини рўкач қилиб кўрсатиш; 4) оилавий анъаналарга риоя қилиши (ворислик); 5) дўстлари ва ўртоқларидан ўрнак олганлиги; 6) иш жойининг ва ўқув юртининг уйга яқинлиги; 7) моддий таъминланганлик; 8) ўқув юрти кўринишининг чиройлилиги ёки унга жойлашишнинг осонлиги сингари мотивлардир.

Бундан ташқари, ёшларда бошқа турдаги мотивлар ҳам мавжуд бўлади. Улар қаторига шахснинг бирор касбга, фанга мойиллиги, ўз олдига қўйган мақсади, унга интилиши, қунти, касб тўғрисидаги маълумоти, унинг сиҳат - саломатлиги, асаб тизимининг хусусияти ва темпераментининг хусусиятлари каби мотивларни санаб ўтиш мумкин. Бироқ мотивларнинг бошқа хиллари ҳам учрайди. Лекин ҳолатнинг ўзгаришига қараб улардан униси ёки буниси бош мақсадга айланиб туради.

Мазкур ҳолатни тадқиқ этган йирикпсихолог Е.А.Климов ўсмирлар касб танлаш мобайнида; биринчидан, бирор касбнинг «нуфузли эканлигига» баҳо беришдаги догмаларга асосланиш; иккинчидан, касбга узоқ ва ноаниқ тасаввурга биноан баҳо бериш; учинчидан, бирор касб эгаси бўлмиш кишига нисбатан ижобий ёки салбий муносабатда бўлишни тегишли касбга кўчириш; тўртинчидан, касбнинг оддий кундалик томонини назар –писанд қилмасдан,унинг ташқи

томонига, сиртига маҳлиё бўлиш; бешинчидан, ўртоқларининг таъсири остида «компания учун» касб танлаш каби хатоликларга дуч келиши мумкинлигини таъкидлаб ўтади.

Ҳар қандай фаолият муайян мотивлар таъсирида вужудга келади ва етарли шарт-шароитлар яратилгандагина амалга ошади. Турли касб эгалари фаолияти мотивларини ўрганишда мотивлар характерини билиш ва уларни ўзгартириш муаммоси мавжуд. Шундай мотивлардан бири турли хил фаолият соҳаларида **муваффақиятга эришиш мотиви** бўлиб, бундай назариянинг асосчилари америкалик олимлар Д. Макклелланд, Д. Аткинсон ва немис олими Х. Хекхаузенлар ҳисобланади.Уларнинг фикрича, одамда турли ишларни бажаришини таъминловчи асосан икки турдаги мотив бор: **муваффақиятга эришиш мотиви** ҳамда **муваффақиятсизликлардан қочиш мотиви.** Одамлар ҳам у ёки бу турли фаолиятларни киришишда қайси мотивга мўлжал қилишларига қараб фарқ қиладилар. Масалан, фақат муваффақият мотиви билан ишлайдиганлар олдиндан ишонч билан шундай иш бошлайдиларки, нима қилиб бўлса ҳам ютуққа эришиш улар учун олий мақсад бўлади. Улар ҳали ишни бошламай туриб, муваффақиятни кутадилар ва шундай ишни амалга оширишса, одамлар уларнинг барча ҳаракатларини маъқуллашларини биладилар. Бу йўлда улар нафақат ўз куч ва имкониятларини, балки барча ташқи имкониятлар - таниш-билишлар, маблағ каби омиллардан ҳам фойдаланадилар.

Бошқача хулқ-атворни муваффиқиятсизликдан қочиш мотивига таянган шахсларда кузатиш мумкин. Масалан, улар биринчилардан фарқли, ишни бошлашдан аввал нима бўлса ҳам мувафикиятсизликка дучор бўлмасликни ўйлайдилар. Шу туфайли уларда кўпроқ ишончсизлик, муваффақиятга эришишга ишонмаслик, пессимизмга ўхшаш ҳолат кузатилади. Шунинг учун бўлса керак, охир-оқибат улар барибир муваффиқиятсизликка учраб, «Ўзи сира омадим юришмайдиган одамман-да» деган хулосага келадилар. Агар биринчи тоифали шахслар бир ишни муваффиқиятли тугатгач, кўтаринки руҳ билан иккинчи ишга киришишса, иккинчи тоифа вакиллари, ҳар қандай ишни якунлагандан сўнг, унинг натижасидан қатъий назар, руҳан тушкунликка

тушадилар ва оғриниш ҳисси билан бошқа ишга киришадилар. Бу ўринда *талабчанлик* деган сифатнинг роли катта. Агар муваффиқиятга йўналган шахсларнинг ўзларига нисбатан қўйган талаблари даражаси ҳам юқори бўлса, иккинчи тоифа вакилларининг талаблари аксинча, паст бўлади. Бундан ташқари ҳар биримизда ўзимиздаги реал қобилиятлар тўғрисидаги тасаввурларимиз ҳам ушбу мотивларнинг фаолиятдаги ўрнига таъсир кўрсатади. Масалан, ўзидаги қобилиятларга ишонган шахс ҳаттоки, мағлубиятга учраса ҳам, кучли қайғурмайди, кейинги сафар ҳаммаси яхши бўлишига ишонади. Ишончсиз шахс эса кичкина берилган танбеҳ ёки танқидни ҳам жуда катта руҳий азоб билан қайғуриб бошдан кечиради. Унинг учун шахснинг у ёки бу вазиятларда қайғуриш сифати ҳам маълум маънода мотивлар характерини белгилайди.

Шундай қилиб, мотивлар тизими бевосита шахснинг меҳнатга, одамларга ва ўз-ўзига муносабатларидан келиб чиқади ва ундаги характер хусусиятларини ҳам белгилайди.

Адабиётлар

1. Климов Е.А.Психология профессионального самоопределения : учеб. пособие для студ. высш. учеб. заведений / . — 4-е изд., стер.- М.: Изд.центр «Академия», 2010.-304 с.

2. Ғозиев Э. Ғ., Мамедов К. Қ. Касб психологияси. Дарслик. Т.: - 2003. – 148 б.

3. Искандарова Ш.Т., Шойимова Ш.С., Мирзаева Н.А. Психология Дарслик. Т.: - 2009. – 266 б.

4. https://ru.wikipedia.org/wiki/ Уровень_притязаний

ТУРИСТИК РЕКРЕАЦИЯНИ РИВОЖЛАНТИРИШНИНГ ГЕОГРАФИК ЖИҲАТЛАРИ

Боймуродова Х.,
ҚарДУ магистранти

Замонавий география фанлари тизимида кейинги йилларда ижтимоий соҳаларга, жумладан рекреация ва туризмга эътиборни кучайтирмоқда.

Натижада, ижтимоий географиянинг ўзига хос соҳаларидан бири бўлган рекреация ва туризм географияси олдига янгидан-янги вазифаларни ҳамда соҳа муаммоларини ҳал этиш зарурлиги долзарблигини қўймоқда.

Рекреация географияси тадқиқот предметининг мақсад ва вазифаларига кўра, табиат ресурсларидан инсон саломатлигини мустаҳкамлаш учун фойдаланишни тадқиқ қилишда, табиий ва тарихий-маданий объектларнинг дам олиш учун аҳамиятини ўрганишда, жамият ишлаб чиқариш кучларини ривожлантиришда, меҳнат ресурсларидан оқилона фойдаланиш ва бошқа географик ҳамда демографик муаммоларни ҳал этишда долзарб аҳамиятга эга.

Рекреация ҳақидаги билимларни тадқиқ қилишда кўпгина олимлар жумладан, МДҲ олимларидан И.П.Герасимов (1973), В.П.Буров (1973), В.С.Преображенский (1974), И.В.Зорин (1975), Ю.А.Веденин (1975), Л.А.Багирова (1977), Е.А.Котляров (1978), П.Г.Царфис (1979), Н.С.Мироненко (1981), Э.Б.Валиев (1986), Д.В.Николаенко (2001) ва бошқалар шуғулланганлар. Мамлакатимизда рекреациянинг илмий масалалари билан дастлаб Ғ.Зокиров (1991) ва А. Юсупов(1996), Р.Усманова (2002), Ҳ.Ваҳобов, Ў.Якубов (2008), кейинги йилларда Н. Собирова (2019), Ш.Холмуродов (2021), Ў.Бадалов (2021) каби географлар тадқиқот ишларини олиб борганлар. Кейинги йилларда маҳаллий географлар томонидан республиканинг барча минтақаларида рекреация соҳасига доир илмий изланишлар олиб борилмоқда. Бу ишлар мамлакатимизда рекреацияни ривожланиши учун муҳим аҳамият касб этади.

Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, мазкур йўналишни бойитиш, тадқиқотнинг янги усуллари ва воситаларидан тўлиқ фойдаланишни янада такомиллаштириш лозим [3, 14-б.].

Рекреация тушунчаси чет эллик ва маҳаллий географ олимлар томонидан талқин қилинган бўлиб, улар бир-бирига ўхшашдир. Рекреация (тиклаш, ўрнини тўлдириш) нинг қамрови катта бўлиб, одамнинг меҳнат қилгандан сўнг дам олиши, соғлигини тиклаши, маданий ҳордиқ чиқариши маъносида ишлатилади [2, 57- б.]. Рекреация (полякча rekreacja-дам олиш, лотинча rekreatio-тикланиш), у 1) танаффус, байрамлар, таътиллар; 2) дам олиш иншооти; 3) дам олиш, инсоннинг меҳнат

жараёнида сарфланган кучини қайта тиклаш маъноларини англатади [1, 6-б.]. Демак, рекреация тушунчаси (лотинча recreatio- тиклаш) одамнинг меҳнат жараёнида сарфланган кучини тиклаш, ҳордиқ чиқариш деган маънони беради. Зеро, рекреация инсоннинг меҳнат фаолиятдан бўш даврдаги куч ва меҳнат фаолиятини тиклаш мақсадидаги муддат бирлигида (яъни, таътил, дам олиш кунлари ва б.) соғлиғини тиклаш ҳамда дам олиш,бу давр инсон саломатлигини тиклашнинг энг самарали йўли бўлиб саналади.

Рекреация географияси тиббиёт географияси, туризм географияси, нозогеография ва курортшуносликдан ўзига хос жиҳатлари,олдига қўйган муаммолари, тадқиқ этиш методлари ва методологияси билан фарқ қилади ва ҳамда шу билан бирга бу фан соҳалари билан чамбарчас боғлиқликда ривожланади. Тиббиёт географияси – инсон саломатлиги ва турли хил касалликларнинг вужудга келишига таъсир этувчи омил ва шароитлар, уларнинг мамлакат ҳамда районларида тарқалиш қонуниятлари ва хусусиятларини ўрганади. Нозогеография - (юнонча носос–касаллик ва география) - қадимда ва ҳозирги вақтда кишиларда учрайдиган касалликларнинг тарқалиш географиясини ўрганувчи тиббиёт географиясининг бир қисмидир. Курортшунослик - инсон организмининг физиологик жиҳатларини таҳлили асосида, жисмоний кучни тиклаш учун даволаш шароитларни ҳамда соғлиқни қайта тиклашда зарур бўлган усулларни ўрганади.

Рекреация мақсадидаги туризм-аҳолининг дам олиши учун самарали шарт-шароитларни яратишдаги рекреацион тизимларини шакллантириш ва ривожлантиришдаги фаолиятларни ўз ичига олади. У бўш вақтни тўлдириш учун сайр-томоша ва турли хил спорт машғулотларини таклиф этади. Баъзи асосларга кўра, унга туризмнинг экскурсия, ихтисослашган, таълимий, спорт, саргузашт, экзотик, экологик турлари ҳам қўшилади. Туризмда истеъмолчининг мақсади кенгроқ бўлиб, асосан инсоннинг руҳияти ва маънавий қизиқишлари билан боғлиқ.

Рекреация географиясининг тадқиқ қилиш объекти ва субъекти ҳар хил ижтимоий-маданий билимлар тизимидан иборат. Рекреация географияси

объектининг туб маъноси моддий предметлар, тизимлар, жараёнлар ва ҳодисалар, шунингдек, инсоннинг ҳар хил рекреацион фаолиятини амалга ошириш имкониятини шакллантирувчи мезонларни тушунилади. Бу ўзига хос рекреацион фаолиятни тўғридан тўғри ривожлантирувчи кўпгина омилларга бўйсунувчи асос бўлиб, аммо алоҳида аҳамиятга эга эмас. Рекреация географиясининг субъекти сифатида рекреацион фаолият билан шуғулланувчи инсон тушунилади.

Рекреация географияси – инсон саломатлигини тиклаш ва ҳордиқ чиқариш усулларини аниқлайди ва баҳолайди, рекреация фаолиятининг қонуниятларини ўрганади. Шу билан бирга, ҳудудий рекреация объектлар ва тизимларининг вужудга келиши, уларнинг географик тарқалиши, шаклланиши, ривожланишиунинг ўрганиш объектлари ҳисобланади.

Рекреация географияси махсус фан ҳисобланиб, бу фаннинг ривожланиши иқтисодиётнинг маданият, таълим, соғлиқни сақлаш каби бошқа муҳим соҳалари билан чамбарчас боғлиқ.

Туристик-рекреация ресурслари тушунчаси рекреация фаолияти учун қулай шарт-шароитлар яратувчи турли компонентлар ва табиий ҳамда антропоген омилларнинг тўплами сифатида қабул қилиш мақсадга мувофиқ. Бунинг учун табиий рекреация комплексларини ўрганиш, ҳудудлардаги туристик-рекреация ресурслари сиғими (юк) имкониятларини аниқлаш ва улардан дам олиш, даволаниш ҳамда саёҳатда фойдаланиш имкониятларига баҳо бериш, соҳани ташкил этиш самарасини оширишда хизмат қилади.

Рекреация ресурслари бу - турли табиий компонентлар бирикмасидан иборат бўлиб, инсоннинг дам олиши ва даволаниш эҳтиёжларини қондиришда хизмат қиладиган воситалардир. Келиб чиқиши ва фойдаланиш хусусиятларига кўра рекреацион ресурслар икки гуруҳга ажратилади: табиий ва антропоген рекреация ресурслари.

Табиий ресурсларга иқлимий (Қуёш радиацияси, ҳарорат, ёғин, намлик, шамол ва б.), геологик (минерал, денгиз сувлари, шифобахш балчиқлар), биологик (ўсимлик ва ҳайвонот дунёси, тупроқлар ва б.), ландшафтлар (тоғ,

ўрмон, шаршара, соҳиллар ва б.) каби ресурслар киради. Антропоген ресурсларга маданий-тарихий (маданий ва диний марказлар, зиёратгоҳлар, миллий боғлар, кўргазмалар) кўнгилочар объектлар (миллий ўйинлар, концерт, театрлар каби объектлар) киради. Булар рекрацияни ривожлантирувчи асосий омиллар (ресурс)дир.

Табиатнинг сўлим гўшалари, тоғлар, тўқайлар ва бошқа турдаги ландшафтларда туризмни ташкил қилиш ва ривожлантириш мақсадга мувофиқ. Рекреацион география ҳудуд табиий комплексларини ўрганиш натижаларига таянган ҳолда, уларни рекреация нуқтаи назаридан мажмуали баҳолаш, амалий фойдаланишда оптималлаштиришни илмий асослашдан иборат. Бунинг учун қуйидагиларни тадқиқ этиш самара беради: ҳудуд табиий ресурсларини инсон соғлигини тиклаш ва саёҳат учун зарур шароитларни; рекреация тизимлари шакллантирувчи ресурсларни; ландшафтни рекреация нуқтаи назаридан баҳолаш мезонларини ишлаб чиқишни; инсон саломатлигини тиклаш ва саёҳат шароитларни яратишни; рекреация тизимларини ташкил қилишнинг илмий асосланган тавсиялари; соҳада табиатдан фойдаланиш ва муҳофаза қилишни.

Рекреация ва туризм карталарини яратиш ҳозирги куннинг муҳим долзарб масалаларидан бирига айлантириш лозимдир. Бу ишларни бажариш учун қуйидаги асосий масалаларни бажармоқ лозим: кишиларнинг дам олиши учун янги масканларни излаб топиш имкониятларини аниқлаш; табиий-ҳудудий рекреация комплексларини ажратиш;дам олиш ва даволаниш масканларининг йирик масштабли рекреация карталарини яратиш ва ҳудудий рекреация комплексларини ўрганиш, баҳолаш ва районлаштириш бугунги кунда табиий географиянинг муҳим масалаларидан бири ҳисобланади [Бадалов 2, 36- б.]. Соҳада самарали дам олиш ва даволаниш турлари бўйича тавсияли карталар ҳар бир маъмурий ҳудуд учун яратилиши мақсадга мувофиқ. Бунинг учун туристик-рекреация тизимларининг табиий, ижтимоий-иқтисодий кўрсаткичлари ҳисобга олинган ҳолда яратилган карталари жуда зарур. Бу карталар эса ландшафт морфологик бирликлар асосида районлаштиришни тақозо этади. Туристик-рекреацияйўналишида тузилган мукаммал ландшафт рекреация карталари

масалан, Қашқадарё вилояти Р. Усманова, Туркистон–Нурота Ш. Холмуродов, Ўрта Зарафшон Ў.Бадалов томонидан яратилган.

Ўзбекистоннинг табиий шароити, табиий ресурслари (гидрологик, иқлим ва ўсимлик дунёси)ни ўзига хослиги кўплаб дам олиш зоналари, соғломлаштириш масканларини ва ҳудудий рекреация тизимларини ташкил этишга шароит яратади. Туристик-рекреация ҳудудларини ташкил этишда табиат муҳофази билан уйғунликда олиб борилиши керак. Юқоридагилардан келиб чиқиб айтиш мумкинки, Ўзбекистоннинг барча вилоятларида туристик-рекреация тизимларини ва ҳудудий мажмуаларини шакллантириш ҳамда уларнинг халқаро талабларга жавоб берадиган даражада ташкил этиш: туристлар сони ортишига, иш ўринлари кўпайишига хизмат кўрсатиш соҳасини яхшиланишига, ялпи маҳсулот ҳажми ўсишига ва аҳолининг турмуш тарзи фаровонлашишига хизмат қилади.

Адабиётлар

1. Бадалов Ў. Ўрта Зарафшон ҳавзасини рекреация-туристик ресурслари, улардан фойдаланишнинг географик асослари ва истиқболлари/дисс**.** (PhD). 130 б.
2. Ваҳобов Ҳ., Якубов Ў. Рекреацион география асослари. “Фан” Т. 2008. 82 б.
3. Рафиков А,А., Азимов Ш. Амалий география. Т.-2000. 202 б.
4. Преображенский В.С, Зорин И.В. Территориальная рекреационная система и задачи географических наук //В сб. «Теоретические основы рекреационный географии». Москва, 1975. С.168
5. Усманова Р. Рекреацион география. Қарши. 2015. 176 б.

Илмий раҳбар: (PhD) Усмонова Р.

DEHQONOBOD TUMANIDAGI MUQADDAS QADAMJOLAR VA ZIYORATGOHLAR

Noraliyev Kamol Juma o’g’li,
QarDU PI talabasi

Sayyohlik (turizm) sohasi dunyo iqtisodining eng jadal rivojlanayotgan sohalaridan biridir. Uning keng qamrovli taraqqiyoti esa, koʻplab mamlakatlar uchun

katta daromad manbaiga aylanib bormoqda. BMTning Jahon sayyohlik tashkiloti ma'lumotida 2018-yilda dunyo bo‘yicha 1 milliard 284 million sayyoh qayd etilgan bo‘lsa, 2019-yil yakuni bo‘yicha bu ko‘rsatkich 1 milliard 335 millionga oshgan. Sayohatchilarga ko‘rsatilgan eksport xizmatlari qiymati 2019-yilda qariyb 2,5 trillion AQSh dollarini tashkil qilgan. 2019-2020-yillarda ham bu raqamlarda katta tafovutni ko‘rish mumkin.

Bundan ko‘rinib turibdiki, sayyohlik sohasi bugungi kunning eng muhim iqtisodiy sohalaridan biriga aylandi. Shu bois dunyoning ko‘plab davlatlari ushbu sohani yanada rivojlantirish, bu borada tegishli infrastrukturani jahon standartlari darajasida yaratish va sayyohlar oqimini oshirish bo‘yicha barcha chora-tadbirlarni amalga oshirmoqda.

Hozirgi kunda jahonda turizm sohasi eng jadallik bilan rivojlanayotgan sohalardan biri bo‘lib, har 11 kishidan bittasi turizm sohasi bilan shug‘ullanar ekan. Bizda ham agar shunday ziyoratgoh hamda chiroyli tabiatli joylarda turistlar uchun mehmonxonalar, turar joylar bilan ta'minlasak va yo‘l masalasini bartaraf qilib bersak bizning tog‘lardagi kabi chiroyli manzarani respublikamiz aholisigina emas balki butun jahon turistlari ham juda katta qiziqish bilan tashrif buyuradilar.

Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanida ham ziyoratgohlar va muqaddas qadamjolar ko‘p ana shunday qadamjolardan Sarg‘ay ota ziyorotgohi hisor tog‘ining janubi-g‘arbi qismida joylashgan bo‘lib bu ziyorotgoh balandligi 1500-2000 m balandlikdagi tog‘ning ustida joylashgan. Bu qadamjo tuman markazidan 50-55 km uzoqlikda joylashgan bo‘lib, ziyorotgoh juda qadimiy hisoblanadi, u XV-XVI asrlardan beri mavjud ya'ni 5-6 asrdan beri bor. Ziyorotgoh tuman markazidan uzoqda baland tog‘da joylashganligi sababli avtomobil yo‘li yaxshi emas, bu yerga faqatgina mahalliy niva va shunga o‘xshash yo‘l tanlamas tog‘da yurishga moslashgan avtomobillar yura oladi, boshqa yengil avtomobillar tog‘ yonbag‘ridagi qishloqlarda yo‘l yomonlashganligi sababli to‘xtaydi va bu yog‘iga piyoda yoki mahalliy aholining ko‘magi orqali borishadi. Agar shu qishloqlardan ziyorotgohgacha yo‘l yaxshilansa o‘ylaymanki yanayam aholi

kelishi ko‘payadi. Bu yerga aprel, may oylarida juda ko‘plab aholi borishadi. Ko‘proq mahalliy aholi ziyoratga boradi va shu bilan birga boshqa tuman va viloyatlardan ham ko‘plab ziyoratchilar hamda kislarodga boy havo, toza muzdek zilol suv, baland tog‘lar va maftunkor tabiat qo‘ynida dam olish uchun tashrif buyurishadi [1]. Lekin uzoqdan keladigan turistlar ziyoratchilar uchun tunab qolishga sharoit yetarli emas shuning uchun bahor va yoz oylariga ya'ni mavsumiy turar joylarni

(o‘tovlar)ni qursa maqsadga muvofiq, yana bu yerga elektr bilan ta'minlasa quyosh batareyalari bilan bo‘lsa ham keluvchilar oqimi yanayam ko‘payardi.

Har yili bahor oylarining oxiri va yoz oylarining boshlarida o‘rtacha ziyoratgohga ziyoratchilar va dam oluvchilar 6-7 ming atrofida kelishadi. Ayniqsa bu yerda haftaning chorshanba kuni ziyoratchilar gavjum bo‘lib o‘rtacha 5-6 tadan qo‘y so‘yilib ehson qilinadi. Ziyorotgoh joylashgan hududning tabiati shunchalik go‘zalki u yerga bir marta borgan odam yana borgisi kelaveradi[2].

Tog‘ atrofi qalin archazorlar bilan qoplangan va uning orasida shunchalik shirin toza va muzdek zilol suvlar oqib turadi. Bu yerga yozda borsangiz to‘rtta faslni ko‘rishingiz mumkin ya'ni bahordagi kabi yam-yashil o‘simliklar, qishdagi kabi baland tog‘lardagi qorlarni va kuzdagi singari dehqonlarning hosil yig‘ayotganing guvohi bo‘lasiz. Ziyoratgoh atrofidagi va o‘zi joylashgan hududda dorivor o‘simliklar nihoyatda ko‘p bularga misol qilib tog‘ yalpizi, kiyik o‘t, zirk, na'matak va ko‘plab ziravor o‘simliklar mavjud, bu yerda yana kovrak ham mavjud bo‘lib u dorivorligi va kamyobligi bilan ajralib turadi. Dehqonobod tumanidagi yana shunday ziyoratgohlardan biri Xo‘jaypok ota nomi bilan mashhur ko‘l mavjud bo‘lib bu tumanning janubida joylashgan hozirgi kunda undan sho‘r ichish uchun yaroqsiz suv chiqsada mahalliy aholining aytishiga qaraganda chuchuk shirin suv chiqqan ekan chor rosiyasi bu qishloqqa bostirib kelgan kundan ya'ni bir kechada sho‘r suvga aylanib qolgan emish. Qishloq ham Xo‘jaypok deb shu buloq nomi bilan ataladi[3].

Qishloq yonidagi tog‘ yonbag‘rida buloq qaynab chiqib turadi va bahor oylari tugab yozning issiq jaziramalari boshlaniboq butun respublikamiz

hududidan ayniqsa Surxondaryo, Qashqadaryo, Samarqand, Jizzax viloyatlarida juda ko‘plab ziyoratchilar kelishadi. Bu buloqning suvi o‘ziga xos shifobaxshligi bilan ajralib turadi bu suvdan ichgan odamlarning jigar, oshqozon-ichak, me'da faoliyatini yaxshilaydi va sog‘aytirib tiklashda katta ko‘mak beradi. Yana bu sho‘r suvdan foydalanib har xil toshmalar va teri kasalliklarini tuzatadi. Bu yerda balchiq ham mavjud bo‘lib u bo‘g‘in kasalliklariga va har xil shamollashlarga ham davo hisoblanadi. Shu sababli ham so‘ngi yillarda bu yerga tashrif buyuruvchilar soni ko‘payib bormoqda lekin bizni o‘ylantiradigan joyi shundaki buloq qishloq joyidan taxminan 20 chaqirim uzoqlikda va bu yerda toza ichimlik suvining tanqisligi va o‘ydim-chuqur yo‘llarni ko‘rib biroz ko‘nglingiz xira tortadi. Agar bu yerda toza ichimlik suvi va yo‘llarni yaxshilansa o‘ylardimki yanayam keluvchilar soni ortardi.

Dehqonobod tumanining yana bir reakratsiya markazlaridan bir Kamol buloq bulog‘i hisoblanadi. Tuman markazidan 15-20 km uzoqlikda tog‘ yonbag‘rida qir va tekislik hududida joylashgan bo‘lib judayam maftunkor manzarali joy hisoblanadi. Bu ko‘lning suvidan ichishingiz bilan odam o‘z tanasida qandaydir yengillikni sezadi. Balki shuning uchun ham qishloq aholisi orasida hech qanday yuqumli kasalliklarga uchrash holatlari bo‘lmaydi. Bu qishloq aholisi orasida yoshi ancha katta keksalar judayam ko‘pchillikni tashkil qiladi[4]. Keksalarning yoshlardek g‘ayratini ko‘rib, yoshlarning esa baquvvat, serg‘ayrat va chayirligini ko‘rib bu yerda sog‘lom turmush va sog‘lom hayot mavjudligini ko‘rishingiz mumkin. Qishloq aholisining yuqumli gepatit, oshqozon ichak va buyrakda tosh hosil bo‘lish kasalliklari umuman yo‘qligini ko‘rib bu buloqning balki shu yerga tutash hududlarda ham ta'siri borligini ko‘ramiz. Bu yerga keluvchilar har xil dardlarga davo istab ya'ni gepotitga chalingan, jigar seryozi va buyrakda tosh hosil bo‘lgan kishilar kelib shifo topib ketishadi. Bu buloq suvining ha bir tomchisi oltinga tengligini shundan ham ko‘rishimiz mumkin. Buloq tog‘ yonbag‘rida joylashganligi sababli mashinalar chiqolmaydi shu sababdan 300-400 metr masofaga shilanka bilan pastga tekislikga suv olib tushilgan va shu yerda bitta ikkita kichik bo‘lsa ham hovuzlar qurilgan chunki yoz oylarida odamlar ko‘payib ketadi shunda

kerak bo‘ladi. Respublikamiz hududidagi har qanday daryo yoki ko‘l bo‘lsinki suv ko‘payish va kamayish mavsumlari bo‘ladi. Lekin eng ajoyib jixatlaridan biri shundaki bu buloqning suvi to‘rt faslda ham bir me'yorda suv chiqib turadi[5]. Bu yerga yoz oylarida davolanuvchilar kelib bir necha kun qolib davolanishlariga to‘g‘ri keladi, shuning uchun buloqni ochgan Kamol aka bu yerda kichik dam olish joylarini qurib boshladim deydi. Bu buloqning suvida har xil foydali mineral moddalar bor magniy-sulfat,natriy, kalsiy,kaliy va boshqa turli xildagi mineral moddalarga boyligi bilan ham ajralib turadi. Kamol buloq suvi insonning o‘t pufagi, oshqozon, jigar va boshqa ichki organlarini yuvib, darddan forig‘ etishda zamonaviy qo‘llanilayotgan gemazoddan bir necha barbor afzal ekan. Shifokarlar ham ushbu dard bilan og‘rigan insonlarga Kamol buloq suvini tavsiya qilishadi.

Kamol buloq suvidan birinchi ochilgan paytlari ya'ni 2005-yilda o‘zlari foydalanishgan bo‘lsa hozirgi kunda viloyatgina emas butun respublikadan bu yerga kelishadi. Buloqqa kelgan odamlar soni ko‘payib ketgan paytlarda uyiga qaytishga kechikib ketishadi va qolishiga sabab bo‘ladi lekin bu yerda yo‘l infiratuzilmasi tunash uchun sharoitlari yaxshi emas, shuning uchun bu yerda ham shu muommolarni hal qilinsa inson salomatligiga katta hissa qo‘shilgan bo‘lardi. Respublikamiz hudida shifobaxsh buloqlar, qadimiy qadamjolar va muqaddas ziyoratgohlar judayam ko‘p shulardan Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumanidagi ba'zi bir shifobaxsh buloq va qadamjolarga to‘xtaldik agar bu joylarda ham yo‘l infratuzilmalari va dam olish joylarini yaxshilasak o‘ylaymanki bu tumanning tabiati va havosi eng chiroyli va toza havoli hududlarida turistlar dam oluvchilar yanayam ko‘payardi.

Adabiyotlar

1.Turakulovich, R. F. (2016). Development Uzbekistan farm enterprises and specialization of the geographical factors. European science review, (9-10).

2. Ражабов, Ф. Т. (2015). Социально-экономическая и демографическая ситуация в Кашкадарьинской области Республики Узбекистан. Europaische Fachhochschule, (10), 33-34.

3. Ражабов, Ф. Т. (2015). Региональные особенности развития сельского хозяйства Республики Узбекистан (на примере Кашкадарьинской области).

Социально-экономическая география. Вестник Ассоциации российских географов-обществоведов, (1), 194-200.
4. M.N. Pardayev, R.Atabayev ma’ruzalar matni, Samarqand 2007.
5. N.E.Ibodullayev. “O’zbekistonning turistik resurslari” (ma’ruzalar matni). Samarqand, 2008.

Ilmiy rahbar: Olimova Dilsuz Abduxalimovna

QASHQADARYO VILOYATI TABIIY SHAROIT VA RESURSLARINING SHAHARLAR SHAKLLANISHIGA TA’SIRI

Abdiholiqova Gulnavro’z Alisher qizi,
QarDU magistranti

Ma’lumki, shaharlar shakllanishi va rivojlanishining eng muhim ko’rsatkichlaridan biri moddiy sharoit hisoblanib, u tarkibiga sanoat mahsulotlari tayyorlash ko’rsatkichi, hajmi, o’sish sur’atlari, aholining sanoatda bandligi va boshqalarni o’z ichiga oladi. Bunda asosiy o’rinni tabiiy sharoit va tabiiy resurslar egallagan bo’lib, ular hududlarda shaharlar to’ri hamda tarkibining rivojlanishiga, shahar joylarda arxitektura- muhandislik inshoatlari, ko’p qavatli turar joy va sanoat obyektlarining qurilishiga, hududiy majmular tashkil topishiga, sanitariya- ekologik vaziyatiga katta ta’sir ko’rsatib, urbanizatsiyaning iqtisodiy- geografik asosini tashkil qiladi.

Qashqadaryo viloyati o’zining tabiiy geografik o’rniga ko’ra mamlakatimizning boshqa viloyatlaridan alohida xususiyatlari bilan ajralib turadi. Mazkur mintaqa respublikamizning janubida joylashgan bo’lib, g’arbdan Jarqoq, Muborak, Dengizko’l balandliklari orqali Buxoro viloyati, sharqdan Hisor tog’lari, janubi sharqdan Boysun tog’lari bo’ylab Surxondaryo viloyati, shimoldan Qoratepa, Zirabuloq, Ziyovuddin tog’lari orqali Samarqand viloyati, janubi va janubi g’arbida Sandiqliqum cho’li orqali Turkmaniston Respublikasi bilan chegaralanadi.

Mintaqa shaharlarining joylashuvi, tabiiy-iqlimiy sharoit, yer yuzasining tuzilishi, gidrografik rejim va ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta’sirida yuzaga kelgan.

Viloyat shaharlari orografik xususiyatidan kelib chiqqan holda tog', tog' oldi va tekislikda, gidrografik jihatdan esa daryo vodiylarida tarkib topgan.

Qashqadaryo viloyatining tabiiy geografik o'rnini shaharsozlik jihatidan qulay yoki noqulay ekanligini belgilashda avvalombor uning yer usti tuzilishi, relyefi va mintaqaning foydali qazilma konlari bilan qay darajada ta'minlanganligi ham alohida ahamiyat kasb etadi. Ma'lumki, shaharlar o'ziga xos bo'lgan ikkita asosiy funksiyalariga ega ya'ni, shahar hosil qiluvchi hamda shaharga xizmat qiluvchi. Shaharga xizmat qiluvchi vazifasi ichki yo'lovchi transporti, shahar aholisiga xizmat qiluvchi tarmoqlardan iborat bo'lsa, ilm-fan, transport, dam olish maskanlari, bank-moliya, har xil foydali qazilma konlari, turizm kabilar shahar hosil qiluvchi omillar hisoblanadi. Ular orasida tabiiy sharoit hamda resurslar eng muhimi sanalib, mazkur omil negizida shakllangan shaharlar "resurs shaharlar" deyiladi.

Viloyatimiz turli xil tabiiy-resurs salohiyatiga ega ekanligi bilan mamlakatimizning boshqa mintaqalaridan farq qiladi. Masalan, Qashqadaryo viloyatida neft (Ko'kdumaloq, Pomuq, Toshli,), tabiiy gaz va gaz kondensati (Muborak, Sho'rtan, Shimoliy G'uzor), oltingugurt (Muborak gazni qayta ishlash zavodida tabiiy gazdan ajratib olinadi), turli tuzlar (Tepaqo'ton (Tyubegetan) kaliy tuzi, Boybichakon osh tuzi), marganes (Taxtiqoracha), marmar (qora marmar Bodomzor, oq marmar Birkunli), qurilish materiallari (Qo'ng'irtov) konlari, shifobaxsh mineral buloqlar va boshqa boyliklar tarkib topgan.

Qashqadaryo viloyati ayrim tabiiy xom ashyo resurslarini qazib olish bo'yicha mamlakatimizda asosiy funksiyani bajaradi. Xususan, respublikamizda qazib olinayotgan neftning 80 foizi, tabiiy gazning 92 foizi, gaz kondensatining 95 foizi, oltingugurtning deyarli 100 foizi mazkur mintaqa hissasiga to'g'ri keladi.Toshg'uzor-Boysun-Qumqo'rg'on temir yo'lining ishga tushirilishi Dehqonobod tumanidagi kaliy tuz konlaridan samarali foydalanish imkoniyatini berdi. Bugungi kunda mazkur kon asosida Markaziy Osiyoda yagona kaliy zavodi tashkil etilgan bo'lib, tashqi va ichki bozorning ushbu mahsulotga bo'lgan talabini to'la qondirmoqda.

Umuman olganda, viloyat tabiiy geografik sharoiti o'ziga xos bo'lgan aholi joylashuvi tizimi va urbanistik sig'imga ega. Ular o'ziga xos tabiiy-xo'jalik rayonlarini

tashkil qiladi hamda shu hududiy birliklar doirasida har xil kattalikdagi va funksional tipdagi shaharlar hosil bo'ladi.

Ushbu viloyatda eng avval Hisor tizmasi ko'zga tashlanadi hamda u ko'p jihatdan umumiy **orografik** xususiyatlarga ega hisoblanadi. Takidlab o'tish joizki, Toshg'uzor-Boysun-Qumqo'rg'on temir yo'lining qurilishi munosabati bilan Hisor tizmasining barerlik funksiyasining kuchi biroz bo'lsa ham kamaydi. Aksincha, ushbu yo'l ta'sirida viloyat hududida mavjud tabiiy resurslaridan foydalanish hamda shu asosda shaharlar rivojlanishi uchun qulay imkoniyatlar yuzaga keldi.

Viloyatning yuqori qismida tarkib topgan Kitob-Shahrisabz rayoni ham tog' va tog' oldi hududlarda shakllangan bo'lib, bu joyning tabiiy iqlim sharoiti mamlakatning vodiy hamda vohalariga o'xshab ketadi. Shu sababli ham mazkur hududda aholi zich, sug'orma dehqonchilik hamda bog'dorchilik yaxshi rivojlangan, shaharlar to'ri va tizimi hosil bo'lishi uchun qulay sharoitga ega. Ma'lumotlarga ko'ra, umumiy maydoni taxminan 4.8 ming kv.km.ni tashkil etgani holda, ushbu hududda 3 ta shahar va 46 ta shaharchalar tarkib topgan. Zichlik esa har ming kv.km.ga 10 ta shahar aholi manzilgohidan iborat.

Ayni vaqtda viloyatning cho'l mintaqasi ya'ni Qarshi cho'lida namgarchilik hamda suv resurslarining kamligi tufayli aholi joylashuvi va shaharsozlik jihatidan qulay emas. Xususan, shaharlar qurilishi hamda aholi yashashi uchun mintaqaning jazirama issiq va quruq havosi birmuncha qiyinchiliklar tug'diradi. Ammo, bunday joylar mineral resurslarga, ayniqsa, neft va tabiiy gaz konlariga boy ekanligi bilan ajralib turadi. Bundan tashqari, yangi yerlarni o'lashtirish, agrosanoat majmuasining shakllanishi va mavjud bo'lgan qazilma konlaridan foydalanish negizida shaharlar, shu jumladan resurs shaharlar tarkib topgan. Masalan, yangi hududlarni o'zlashtirish asosida Koson, Beshkent, Yangi Nishon, gidrotexnik inshoot qurilishi munosabati bilan Talimarjon kabi hamda Muborak – "resurs" shahri vujudga kelgan.

Aholi geografiyasi va shaharlar shakllanishida hududning orografik xususiyatlari bilan bir qatorda gidrografik shahobchalar ham muhim omil bo'lib xizmat qiladi. Ayniqsa, bu jihat issiq iqlim va sug'orma dehqonchilik sharoitida alohida ahamiyatga ega. Qashqadaryo viloyatini tarixiy-geografik ijtimoiy-iqtisodiy

rivojlanishining negizida yoki uning xo'jaligining asosida Qashqadaryo daryosining o'rni beqiyos. Chunki, voha aholi manzilgohlari joylashuvini aynan ushbu daryo va uning irmoqlari (Tanxoz, Oqsuv, Langar, G'uzor) va mazkur daryo havzasida bunyod qilingan suv omborlari (Chimqo'rg'on, Hisorak, Yakkabog', Pachkamar) belgilab beradi. E'tiborli tomoni viloyat o'zidagi eng yirik daryo nomi bilan ataladi. Bundan bilish mumkinki, Qashqadaryo daryosi ushbu viloyatning shakllanishida muhim o'rin tutgan.

Viloyatning eng katta daryosi Qashqadaryo bo'lib, u irmoqlari bilan birga mintaqaning asosiy gidrografik to'rini hosil qiladi. Qashqadaryoning umumiy uzunligi 310 km, havza maydoni 8780 kv.km, o'rtacha yillik suv sarfi 37.7 m3/sek. hamda oqim hajmi 1.189 km3 ni tashkil etadi. Qashqadaryoning irmoqlari shahar manzilgohlari tashkil topishida katta ta'sir ko'rsatgan. Masalan, Jinnidaryo va Oqsuvdaryo Kitob, Miroqi; Oqsuvdaryo hamda Tanxozdaryo Shahrisabz; Yakkabog'daryo Eski-Yakkabog', Yakkabog'; Langardaryo Qamashi; G'uzordaryo G'uzor; Kichik O'radaryo Dehqonobod singari shahar joylarning shakllanishi hamda rivojlanishida katta rol o'ynagan. Bundan tashqari, Qashqadaryoning o'zi Chiroqchi, Qarshi, Koson, Muborak kabi shaharlar rivojlanishida faol ishtirok etgan.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, Qashqadaryo viloyati tabiiy sharoiti hamda tabiiy resurslari bo'yicha respublikaning boshqa mintaqalaridan ajralib turadi. Shu sababdan, uning umumiy geografik o'rni, tabiiy resurs salohiyati hamda demografik vaziyatidan kelib chiqqan holda, urbanizatsiya rivojlanishi nuqtayi nazaridan ham alohida rayon sifatida ko'rish mumkin.

Adabiyotlar

1. Hasanov I. A., G'ulomov P.N. O'zbekiston tabiiy geografiyasi. – T.: O'qituvchi, 2007.- 164 b.
2. Soliyev A.S., Tashtayeva S.K., Egamberdiyeva M.M., Shaharlar geografiyasi. O'quv qo'llanma.- T.: "Barkamol fayz media", 2018, 184 b.
3. Qurbonov P.R. Janubiy O'zbekistonda urbnizatsiya jarayonlari. Monografiya.-T.: "Mumtoz so'z", 2019, 174 b.

Ilmiy rahbar: Qurbonov Pahlavon Rustamovich

ZIYORAT TURIZMINING IQTISODIY GEOGRAFIK JIHATLARI

Safarov Isoq Bozor o'g'li,
QarDU magistranti

Turizmning an'anaviy yo'nalishlardan bo'lgan ziyorat turizmi hozirda davlatlar iqtisodiyoti uchun katta ahamiyat kasb etmoqda. Ayniqsa, islom diniga e'tiqod qiluvchilarning ko'payib borishi hamda daromadlarining doimiy o'sib borayotganligi ziyorat turizmining jadal rivojlanishiga olib kelmoqda. Shuning uchun ushbu sayohat yo'nalishlarini tashkil etishga nafaqat musulmon davlatlarida balki dunyoning turizm rivojlangan qator davlatlarida ham alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, Saudiya Arabistoni, Turkiya, Misr, Malayziya, Indoneziya kabi mamlakatlarda ziyorat turizmini ommalashtirish va hududiy rivojlantirish uchun keng islohotlar amalga oshirilmoqda. Shuningdek, AQSH, Germaniya, Buyuk Britaniya, Fransiya va Ispaniya kabi davlatlarda ham ziyorat turizmi standartlariga mos turlar jadal rivojlanib bormoqda. O'zbekistonda ham ziyorat turizmini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Jumladan, mamlakatdagi restoran va kafelarda halol standartlarni joriy etish amaliyoti boshlandi. Xalqaro aeroportlarda va temir yo'l stansiyalarida turistlar uchun ibodat xonalari ajratildi. O'zbekiston boy madaniy va tarixiy merosi bilan ziyorat turizmini rivojlantirish va islom sayyohlik bozoriga kirish uchun ulkan imkoniyatlarga ega bo'lib, Imom Al-Buxoriy, Bahouddin Naqshbandiy, At-Termiziy, Abu Muin an-Nasafiy va islom olamida mashhur boshqa ko'plab ulamolar yurti hisoblanadi. Hozirda mamlakatda qadimiy me'morchilikning ulug'vor yodgorliklari va qo'lyozmalar saqlanib kelinishi mamlakatning sayyohlik imkoniyatlarini oshirib, musulmon mamlakatlaridan ko'plab sayyohlarni jalb qilish imkoniyatini beradi.

Ziyorat turizmini tatqiq etish bilan birga, hududga tashrif buyuradigan ziyoratchilar geografiyasini o'rganish ham muhim hisoblanadi. Ziyoratchilarning keng va xilma-xil geografiyasini o'rganish uchun rayonlashtirishdan foydalaniladi. Jahonda ziyoratning bir nechta makrohududini ajralish mumkin. Har bir makrohudud eng avvalo ziyoratning markazlari bilan mashhur hisoblanadi. Ular ziyoratchilarning

xalqaro oqimini qabul qiladilar va ko'pincha diniy ixtisoslashtirishning ma'muriy, sanoat, madaniy va turistik markazlari bilan qo'shilib ketadilar. Bundan tashqari, makrohududlarda milliy va mahalliy ahamiyatga ega diniy sig‘inish obektlari mavjud. Quddus jahonning yirik diniy markazi. Quddus uch din e'tiqodchilari islom, xristianlik, iudaizm uchun muqaddas markaz hisoblanadi. Jahonning ilohiy markazlari orasida alohida o'rin egallaydi. Iudaizmga sig‘inuvchi yaxudiylar, qadimgi monoteist dinlari hisoblanadi. Ulardan ko'pchilik xristianlikka mansub - muqaddas tog’ga, yig‘i devorlariga boradilar. Bu yerda devor oldidagi uncha katta bo‘lmagan maydonda ular qachonlardir arablar tomonidan vayron qilingan ibodatxonaga qatg‘u bildirdilar. Qora kiyingan ziyoratchilar qo'l ushlashib bir ohangda chayqalgan holda Xudo Yaxvega iltijo qiladilar. Xristianlar uchun quddus Iso payg‘ambarni yerda bo'lishi bilan bog'liq. Xristianlarning eng muhim ziyorat manzili tirilish ibodatxonasi bo’lib, Jahon xristian olamining bosh muqaddas joyi hisoblanadi. Har bir xristian sig‘inuvchisi bu ibodatxonaga tashrif buyurishga intiladi.

Ziyoratchilar oqimining ko’payishi mana shu makrohududlarda ziyorat turizmi rivojlanishi uchun asosiy omil bo’lib xizmat qilmoqda. 2018 yil davomida dunyo miqyosida musulmon sayyohlar soni 140 millionga, ularning xarajatlari 177 milliard dollar. (2023 yilda 274 milliard dollar bo‘lishi kutilmoqda)ga teng bo‘ldi[1]. Sayyohlardan eng ko‘p foyda oladigan mamlakatlar Yaqin Sharq mintaqasiga to‘g‘ri kelgan. New Research Centre ma’lumotlariga ko‘ra, 2060 yilga kelib 3 milliard inson o‘zini musulmon deb hisoblay boshlaydi va bu yer yuzidagi har uchdan bir kishini tashkil etadi.

Ziyorat turizmi sohasida eng katta ulush Osiyo mamlakatlariga to`g`ri keladi. 2020 yilda ularning jami xarajatlari 29 milliard yevroni tashkil etgan. Bunda eng faol sayyohlar Indoneziya, Xitoy va Malayziya sayohlari sanaladi. Ularning xarajatlari musulmon mamlakatlari orasida turizm sohasidagi xarajatlarning umumiy hajmining 17 foizini tashkil etadi. Jahon bozorida ziyorat turizmining 80 foizi 19 ta mamlakatga to‘g‘ri keladi. Bu faqat musulmon mintaqalarinigina emas, balki qator turizm rivojlangan mamlakatlarni qamrab oladi. 2019 yilda ziyorat turizmi tufayli ushbu

mamlakatlarning YAIM dagi turizmning ulushi 148 milliard dollarni, bu sohadagi aholining bandligi esa 5million kishini tashkil etdi. Prognozlarga ko‘ra, 2023 yilda mazkur ko‘rsatkich 190 milliardgacha o‘sadi va 6 million kishi ziyorat turizmi sanoatiga jalb etilishi mumkin. Shuningdek, AQShda ziyorat turizmi sohasida 300 ming kishi band bo’lib, ziyorat uchun qulay sharoitlarga ega bo‘lgan turistik manzillar bo‘yicha har yili Mastercard & Crescentrating “Global Muslim Travel Index (GMTI)” bo‘yicha hisobotlar e’lon qilib boradi. 2019 yilgi natijalarga ko‘ra to‘qqizinchi marta Malayziya turistlar uchun eng yaxshi turistik yo‘nalish deb topilgan edi. Indoneziya so‘ngi yillarda bu indeks bo‘yicha Malayziyaga tenglashdi. Keyingi o‘rinlarni Turkiya, Saudiya Arabistoni, BAA egalladi[2].

Ziyorat turizmini O`zbekistonda ham rivojlantirilsa, mamlakat iqtisodiyotiga foyda keltiradi. O’zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirish uchun yetarlicha ziyorat obyektlari mavjud. Musulmonlar uchun ziyoratga borish – islomiy yodgorliklarni ziyorat qilish, muqaddas qadamjolarni borib ko’rish va rivojlantirish uchun xayr-ehson qilish maqsadida diniy hududlarni ziyorat qiladilar. Mamlakatimizda bu ziyorat deb nomlandi va bular dunyo musulmonlarining yurtimizga intilishini kuchaytirishi shubhasiz. Ziyorat faqat tomosha emas: u eng avvalo buyuklar ruhini his etish, ma’naviy-ruhiy muhitdan quvvat olish, ulug’lar maqomi, tiriklik va hayot haqida eng azaliy haqiqatni anglash, qalbni shu haqiqat bilan boyitishdir.

Diniy ziyoratgohlar kam mablag‘ hisobiga katta daromad manbaiga aylanishi shubhasiz. Mamlakatimizning barcha viloyatlaridan o'nlab, yuzlab diniy qadamjolar mavjud. Ammo ularni ziyorat etish marshrutlari aniq tuzilmagan. Islom dunyosida katta xizmat qilagan, avliyo darajasiga ko'tarilgan siymolarimiz abadiy qo‘nim topgan maskanlarini faqatgina mahalliy darajada, ya'ni tuman yoki viloyat miqyosida bilishadi, xolos. Binobarin, bunday muqaddas ziyoratgohlarni respublika va xalqaro darajadagi diniy ziyoratgoh obyektlariga aylantirish mumkin. Xulosa qilib shuni aytish lozimki, ziyorat turizmi hamma vaqt sayohatning eng aktiv turi bo'lib kelgan. Insoniyat borki, u e'tiqod qiladi, sig‘inadi, ruhan va ma'naviy jihatdan poklanishga harakat qiladi. Shuning uchun u diniy ziyoratni hoxlaydi. Buning uchun muqaddas

ziyoratgoh bo'lishi shart. Vaholanki, mamlakatimiz diniy ziyoratgohlarga boy mintaqa hisoblanib, bugungi kunda ziyorat turizmini rivojlantirishga yanada e'tiborni yanada kuchaytirish ham moddiy, ham ma'naviy yuksalishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. Master Card & crescentrating. Global Muslim Travel Index.
2. 2019 by Islamic Tourism Centre, Malaysia//http://w.
3. Ruziyev Sh.R. O‘zbekistonda tarixiy-madaniy turizmni rivojlantirishning tashkiliy iqtisodiy mexanizmini indikativ boshqarish metodikasi// «Iqtisod va moliya» ilmiy amaliy jurnal. T.:2018 yil.
4. Tuxliyev I.S., Qudratov G‘.H., Pardayev M.K. Turizmni rejalashtirish.T.:— Iqtisod moliya 2010 y.
5. Xudoyorov A.A. O‘zbekistonda xalqaro turizmni rivojlantirishning o‘ziga xos tashkiliy iqtisodiy jixatlari// Iqtisod va moliya ilmiy-amaliy jurnal. T.: 2019 yil.

Ilmiy rahbari: Qurbonov Pahlavon Rustamovich

O’ZBEKISTONDA TURIZM VA REKREATSIYANI RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK MUAMMOLARI VA IMKONIYATLARI

Eshonqulova Durdona Qahramon Qizi,
QarDU PI talabasi

Bizga tarixdan ayonki mamlakatimizdan olim-u ulamolar, fozil-u fuzalolar, buyuk sarkardalar yetishib chiqqan yurt desak aslo adashmaymiz. Buyuk ipak yo‘lining ahamiyati yo‘qolgunga qadar mamlakatimizni iqtisodiy jihatdan yuksalishiga xizmat qilganligini barchamiz yaxshi bilamiz. O’sha davrda turizmni hamda mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishida anchayin salmoqli hissa qo‘shgan. Endichi? O‘zbekistonning bugungi kundagi ichki va tashqi turizmdagi holati qanday?

Mamlakatimiz Yevrosiyoning qoq markazida joylashgan. Markaziy Osiyoda tutgan o’rnining ahamiyatini hisobga oladigan bo’lsak, turizm anchayin oson rivojlanishiga erishishi mumkin bo‘lgan dengiz bo‘yidan anchagina olisda joylashgan. Mamlakatimizning iqlimiga to‘xtalib o‘tsak, iqlimi ham havas qilsa arzigulik “Gavayi orollari”, “Goa” yoki “Shvetsariyaning so‘lim go‘sha”lari emas! Lekin O‘zbekistonning mo‘tadil iqlim mintaqasining quruq, keskin kontinental (qisman

subtropik iqlim mintaqasida) zonasida joylashganini hisobga olsak, sayyohlar go‘zal iqlim mintaqalariga oid maftunkor bo’lgan tabiat mo’jizalarini tomosha qilish maqsadida kam tashrif buyurishadi. To‘g‘ri bizning hududimizda ham tashrif buyursa arzigulik maskanlar bor, ularga misol qilib, Sangardak sharsharasi, Zomin milliy bog‘i, Hisor qo‘riqxonasi, Chortoq dam olish maskanlarini misol tariqasida keltirish mumkin.

Ammo yurtimizga tashrif buyuruvchi sayyohlarning aksari Samarqanddagi Registon maydonini, Amir Temur shaxsiga aloqador qadamjolarni, yoki bo‘lmasa Buxoroyi Sharifdagi Xonlik davridan saqlanib qolgan Ark va Labi hovuz, Naqshbandiya maqbarasini, Xivadagi Ichan va Dishan qal’a, Xudoyorxon saroyi va shu yerdagi bir nechta ochiq osmon ostidagi muzeylarni ko‘rish uchun tashrif buyurayotganlariga guvoh bo‘lmoqdamiz.

O‘zbekistonni biz bugungi kunda turizm sohasidagi yuqori salohiyatli mamlakat deya olamizmi? Bu savolga O‘zbekistondagi boshqa og‘riqli savollarga javob berganimiz kabi javob berishimiz ham tabiiy holdir. To‘g‘ri mamlakatimizda 5 yulduzli mehmonxonalar yo‘qmi? Yoki bo‘lmasa xizmat ko‘rsatish yomonmi? Muammo ham ana shunda, “Besh qo‘l barobar emas” deganlaridek o‘sha biz ta’kidlagan 5 yulduzli mehmonxonalar ham, xizmat ko‘rsatish sifati ham barcha hududlarda bir xil emas. Barcha turistik zonalar zamonaviy shart-sharoitlarga ega bo’lgan holda qulay bo’lgan hududlarda joylashtirilgandir. Ammo, ularni barchasi Yevropa standartlarida deya ayta olmaymiz, yoki bo‘lganlarida ham narxlar aholining iste’mol darajasidan anchayin yuqori darajada shakllangani sir emas. Endi haqli savol tug‘iladi, agar sizda yetarlicha mablag‘ bor, tanlash imkoniyati ham bor, Yevropani yoki O‘zbekistonni sayohat qilishingiz mumkin, qaysi birini tanlagan bo‘lardingiz? Ha siz albatta Yevropaga deb javob qaytarasiz, bu javobingizni azbaroyi Yevropa o‘zga hududligidan emas, u yerda xizmat ko‘rsatishning yuqori samaradorligidan bildirasiz. Bizni o‘ylantiradigan achchiq haqiqat ham aslida ana shundaki, biz baralla O‘zbekiston deb javob bera olmaymiz. Tasavvur qiling, O‘zbekistonning o‘z aholisi shunday fikrda ekanligini hisobga olsak, endi boshqa hududlardagi aholining fikrini tasavvur qilish qiyin emas.

Aholi o‘rtasida so‘rovnoma o‘tkazilsa o‘rtacha daromadli oila bir yil davomida necha marta sayohat uyushtirishi mumkinligini aniqlaylik, xoh u ichki turizmga yoki tashqi turizmga aloqador bo‘lsin. O‘rtacha hisobda yiliga 2 marta sayohat uyushtirishi ma’lum bo‘lsa, shunda ham uning 90 % hollarda faqat mamlakat hududida aksar paytlarda o‘z viloyati hududida sodir bo‘lsa, qanday qilib rekreatsiya sohasini rivojlantirish mumkin? Avvalo aholi daromadlarini yaxshilash orqali bunga ilk qadamlarni qo‘yish mumkin, ayniqsa O‘zbekistondagi oddiy ishchilar sinfini. Chunki O‘zbekistonning o‘rta qatlamini tashkil etuvchi bu qatlam katta salmoqqa egaligi bilan ajralib turadi. Bu borada mamlakatimiz prezidentining qabul qilayotgan qarorlari soha rivojida olib borilayotgan keng ko’lamli islohotlarning natijasi bo’layotganligini ko’rishimiz mumkin.

O‘zbekiston respublikasi prezidentining qarori

Ichki turizmni jadal rivojlantirishni ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasi turizm salohiyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratish bo‘yicha qo‘shimcha tashkiliy chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 2018-yil 3-fevraldagi PF-5326-son Farmoni ijrosini ta’minlash, shuningdek, hududlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning eng muhim omillaridan biri sifatida ichki turizmni jadal rivojlantirish, fuqarolarni mamlakatimizning madaniy-tarixiy merosi hamda tabiiy boyliklari bilan tanishtirish maqsadida:

1. “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qil!” ichki turizmni rivojlantirish dasturini amalga oshirish bo‘yicha amaliy chora-tadbirlar rejasi (keyingi o‘rinlarda — Amaliy chora-tadbirlar rejasi) 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Turizmni rivojlantirish davlat qo‘mitasi, O‘zbekiston yoshlar ittifoqi, O‘zbekiston Kasaba uyushmalari Federatsiyasi kengashi, O‘zbekiston Xotin-qizlar qo‘mitasi, “Mahalla” xayriya jamoat fondi va O‘zbekiston faxriylarining ijtimoiy faoliyatini qo‘llab-quvvatlash “Nuroniy” jamg‘armasi:

a) Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklari bilan birgalikda:

bir oy muddatda turizm infratuzilmasining bandligini hisobga olgan holda hududlar hamda jalb etilgan tashkilotlar miqyosida turlar va ekskursiyalarni tashkil qilish jadvallarini tasdiqlasin;

yoshlarni turizm sohasidagi tadbirkorlik faoliyatiga keng jalb etish bo‘yicha axborot-targ‘ibot tadbirlarining muntazam o‘tkazilishini ta’minlasin;

turistlar oqimining mavsumiyligi hamda hududlarning turizm infratuzilmasi to‘liq jalb etilishini inobatga olib, shu jumladan turizm faoliyati subyektlarini jalb etgan holda amaliy chora-tadbirlar rejasining samarali amalga oshirilishi uchun zarur choralar ko‘rsin[1].

Tashqi turizmda faol bo’lib, mamlakatimizga tashrif buyurgan turistlarni qiynaydigan muammolar talaygina bunga misollar ko’p keltirish mumkin. Aeroportlarda aviachiptalar narxlarni optimallashtirish va aviakompaniyalar sonini ko’paytirish va sohada sog’lom raqobatni shakllantirish kerakligini aytish joiz. Bizga kirib keladigan turistlarni transport muammolari qanday kechmoqda?

Bir turistdan shaharni bir marotaba aylantirib kelish uchun 1500 $ olingan. Biz e’tiborimizni sayyohlarni pulini shilishga emas, balki ularda mamlakatimiz haqida ijobiy taassurotlar qoldirish asosiy vazifamiz bo’lishi kerak. Har bir viloyatimizning ma’lum bir qismida turistlarni o’ziga jalb qiladigan turistik markazlar tashkil qilsak bo’ladi.

Masalan, Niderlandiyada gullar festivali o’tkaziladi, aynan shu festivalni ko’rish uchun minglab turistlar mamlakatlaridan oqib borishadi. Bizda shunday joy yo’qmi? Bizning Namanganganimizda ham yilda bir marta gullar festivali o’tkaziladi, ammo qamrov doirasi tor. Turizmni rivojlantirishda elchixonalarning rolini kuchaytirish kerak. Chet elliklar bizning milliy qadriyatlarimizga qiziqadi, ammo bu mamlakatga borishda ikkilantiradigan ayrim muammolarni deb ular bu fikrlaridan voz kechishadi.

Sayohatga ayolim bilan chiqdim, deydi ispaniyalik sayyoh Ortiz Netali. Buxoro va Samarqand kabi tarixiy shaharlarda bo’ldik. Odamlari juda mehmondo’st va ovqatlari shirin. Ammo bozorlardagi tartibsizliklar, ayniqsa, oziq-ovqat mahsulotlarining yerda yoyib sotilishi dilimni xira qildi. Bizda hali hanuz saqlanib

qolgan yoyma bozorlar ko'ngilni xira qilishi tayin, bozorlarimizni tartibga keltirish ularni modernizatsiya qilish vaqti kelmadimikin?

Shotlandiyada Sherlok Xolmsning yashagan uyi bor ekan. O'ylab ko'ring, Sherlok Xolms yo'q odam, u badiiy to'qima xolos, ammo turistlar dunyoning qancha burchagidan uning mutola qilgan kitoblarini, foydalangan ko'z oynagi va kiygan kostyumlarini ko'rish uchun tashrif buyuradi. Bizda-chi, afsonaga aylangan, haqiqat hayotda yashab o'tgan buyuk zotlar bor. Qolaversa, butun dunyoga mashhur Mir Alisher Navoiyning Hamsa asridagi qahramonlardan kim ham Farhod va Shirinning, Layli va Majnunning, muhabbat timsoliga aylangan Tohir va Zuhroning, Otabek va Kumushning yashab o'tgan joylari yoki ularni hayotda ko'rishni xohlamaydi.

Xulosa qilib aytganda turizm sohasida talaygina yig'ilib qolgan va isloh qilinishini kutib yotgan mavzular bisyor. Ularni ochiq oydin ko'rsatib berish va patriotizmni shakllantirishimiz kerak. Zero, boshqa davlatlar iqtisodiyotining asosiy qismini ko'tarib turgan xizmat ko'rsatish sohasi, mamlakatimiz iqtisodiyotini 60% ini ximat ko'rsatish sohasiga to'g'ri keladi. Hozir ham davlat budjetida (24.04.2022 12:26 vaqti bilan) O'zbekiston daromadi 200 000.0 mlrd so'm, harajatlari 214 811.6 mlrd so'm defisit esa -14.811.6 mlrd so'mni tashkil etmoqda [2].

Kerakli tavsiyalar orqali davlat budjetiga valyuta kirgizsak, budjetimizda tez orada defisit emas foyda so'zi kirib keladi.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenting 07.02.2018dagi PQ-3514-son qarori.
2. Open.budget.uz saytidan olindi. 2022-yil uchun O'zbekiston Respublikasining davlat budjeti to'g'risida"gi qonun №742 PQ-73 batafsil: https://lex.uz/docs/5801134

Ilmiy rahbar: Xudoyorov Lochinbek

MARKAZIY OSIYO SIVILIZATSIYASI

Abdurayimov Po'lat Qo'shoq o'g'li,
QarDU PI talabasi

Hozirgi kunga kelib madaniyat yuqori cho'qqisiga yetdi. Ammo madaniyat qadimgi davrda ham rivojlangan. Jumladan, inson silivizatsiyasi jarayonidan madaniyat

rivojlanishni boshlagan. Ayni vaqtda Vatan tarixiga bo`lgan diqqat-e`tibor nihoyatda kuchaygan bir davrda, O`zbekiston hududlari eng qadimgi davrlardan boshlab jahon sivilizatsiyasining o`choqlaridan biri ekanligiga hech qanday shubha qolmadi. Nafaqat Vatanimiz bo'lgan O'zbekiston balki butun markaziy Osiyo xududlaridaolib borilayotgan tadqiqot ishlarini ko'rib bunga shubxa qolmadi. Bundan ko'rishimiz mumkin-ki, Vatanimiz jahon silivizatsiyasining o'choqlaridan biri ekanligiga hech qanday shubha qolmadi.

Sivilizatsiya so'zi insoniyat tarixidagi sifat chegarasini belgilash bilan bog'liq. Ushbu tushunchaning yuzaga kelishi Ma'rifatparvarlik davridagi Yevropa fani va adabiyotining yutug'idir. Ammo sivilizatsiya haqidagi ilk tushunchalar ancha ilgari yuzaga kelgan. Qadimgi davrlardayoq insonlar o'zlarining dunyolarini o'zgalar dunyosi bilan solishtira boshlashgan. Antik davrda sivilizatsiya so'zi bilan belgilanmasa-da, o'z taraqqiyot darajalariga varvarlikni qarama-qarshi qo'yganlar.
Sivilizatsiya so'zi **lotincha** "sivilis" – "fuqarolikka", "davlatga", "shaharga taaluqli" ma'nolarini anglatuvchi o'zakdan kelib chiqqan. U "silvaticus", ya'ni **lotincha**dan tarjima qilganda qo'pol, yovvoyi so'ziga qarshi ma'noda qo'llanilgan. Sivilizatsiya tushunchasi "madaniyat" tushunchasi bilan uzviy bog'liq ravishda paydo bo'lgan. Dastlab madaniyat va sivilizatsiya tushunchalari sinonim sifatida qo'llanilgan, ammo bora-bora bu ikki atama o'rtasida farq paydo bo'ldi.

Dunyoning turli burchaklarida yashaydigan xalqlarning tarixning turli davrlarida, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy jarayonlarda erishilgan yutuqlari hamda taraqqiyot bosqichiga ko`tarilishini sivilizatsiya tushunchasi o`zida aks ettiradi. Bu taraqqiyot bosqichi insoniyatning paydo bo`lishi va rivojlanishi, jamiyat rivojlanish darajasi, moddiy va ma`naviy madaniyatning yuksalishi, qabilalar va xalqlar o`rtasidagi o`zaro munosabatlar bilan izohlanadi.

O`rta Osiyo sivilizatsiyasi turli xududlarda turli davrlarda paydo bo`ldi va rivojlandi. Misol uchun, janubiy xududlarda yashagan qadimgi qabilalar miloddan avvalgi VI ming yillikdayoq dehqonchilikka o`tib, unumdor xo`jalikni rivojlantirgan bo`lsa, bu davrda shimoliy hududlardagi qabilalar asosan ovchilik, baliqchilik va chorvochilikning ilk shakllari bilan shug`ullanganlar. Bu notekslik jarayonini tabiiy-

geografik sharoitlar va o`zaro munosabatlar bilan izohlash mumkin.Bundan tashqari O`rta Osiyoda turli-tuman yaratganmahsulotlardan bilish mumkin-ki, madaniyat qadimgi aholining Neolit davrdanoq ya'ni miloddan avvalgi VI-IV ming yillikdanoq o`zaro munosabatlari va bu aholining Sharqdagi, dastavval, Old Osiyodagi boshqa qadimgi sivilizatsiya o`choqlari bilan uzviy aloqada bo`lishi ham mahalliy sivilizatsiyaning rivojlanishiga katta ta`sir ko`rsatgan.

Ibtidoiy jamoa tuzumi kishilik jamiyatni taraqqiyotdagi eng uzoq davom etgan va biz bilamiz-ki, eng qadimgi davr hisoblanadi. Bu davrni chuqur o`rganishda arxeologiya, etnografiya, antropologiya, geologiya kabi fanlarning ahamiyati beqiyosdir. Qadimgi odamlar o'z faoliyati davrida atrof muhitga ta`sir ko`rsatib, kundalik hayotda o'ziga bo'ladigan mehnat qurollari yasagan, yashash uchun makonlar qidirishgan, izlashgan va albatta topishgan.Keyinchalik esa boshpanalar qurganlar. O'z navbatida bu jarayonlar inson faoliyatiga Ya'ni silivizatsiyasiga katta ta`sir ko`rsatgan.

O'rta Osiyolik qardosh xalqlar ya'ni O'zbek, Qoraqalpoq, Tojik, Qozoq, Turkman va Qirg'iz xalqlari kelib chiqishiga ko'ra qardosh xalq hisoblanadi.

O'rta Osiyo xalqlari o'zining buyuk mutaffakirlari, ulamolari, Sarkardalari orqali Jahon siliviztsiyasiga katta hissa qo'shgan. Jumladan, Arab xalqlari bosqinigacha bo'lgan davrda bu hududda Zardushtiylik dini mavjud bo'lgan bo'lib, bu din vakillari olov, suv, havo, quyoshga sig'inishgan. Arab istelosidan keyin esa O'rta Osiyolik xalqlar arablarga ham Islom nima ekanligini tushuntirib qo'yishgan desak adashmagan bo'lamiz. Jumladan, At-Termiziy, Al-Forobiy, Al-Buxoriy kabi buyuk mutaffakirlar yashaganligi bunga yaqqol isbotidir. Bundan tashqari mutaffakirlar Alisher Navoiy, Bobur, Ibn Sino, Al-Farg'oniy, va boshqa bir qancha olimlarni, buyuk sarkarda Amir Temur, Jaloliddin Manguberdi, Najmiddin Kubro kabilarni misol qilishimiz mumkin.

Hozirgi paytda O'rta Osiyo xududi ibtidoiy jamiyat rivojlanishining aloxida bosqichlari hisoblanib, quyidagi davrlarga bo`linadi:

Paleolit davri: bundan taxminan 800 ming yil ilgari boshlanib, 15-12 ming yil ilgari tugaydi:

- Mezolit (mezos-o'rta, litos -tosh) mil.avv. 12-7 ming yilliklar
- Neolit (neos-yangi, litos-tosh) -mil.avv. 6-4 ming yilliklar.

-Eneolit (mis-tosh davri)-mil.avv. 4 ming yillikning oxiri-3 ming yillikning boshi.

-Bronza asri-mil.avv. 3-2 ming yilliklar

-Temir davri-mil.avv. 1-ming yillikning boshlaridan

O`zbekiston hududlaridagi eng qadimgi odamlarning manzilgohlari Farg`ona vodiysidagi Selungur, Toshkent viloyatidagi Ko`lbuloq, Buxorodagi Uchtut makonlaridan topilgan. Bu davr odamlari toshlardan qo`pol qurollar (chopperlar) yasab, termachilik va jamoa bo`lib ov qilish bilan shug`ullanishgan. Ilk paleolit davri odamlari jismoniy jihatdan ham, aqliy jihatdan ham hozirgi odamlardan farq qilishgan. Ular tabiat oldida ojiz bo`lib, unda taiyor bo`lgan mahsulotlarni o`zlashtirganlar.

Ilk paleolit, ya`ni ashel` davrining oxirlarida yashagan odamlarning manzilgohlari Qoraqalpog`istonning Ustyurt tekisligidagi Borsakelmas degan yerdan ham topib o`rganilgan.

O`rta paleolit davri makonlari Toshkent vohasidagi Obirahmat, Ho`jakent, Samarqanddagi Omonqo`ton, Boysun tog`laridagi Teshiktosh makonlaridan topilgan. Mashhur yodgorliklarning biri Teshiktosh g`or makoni bo`lib bu yerdan turli-tuman qurollar va hayvon suyaklaridan tashqari, 9-10 yashar bolaning qabri qozib ochilgan.

O`rta paleolit davriga kelib ibtidoiy jamiyat odamlarining mehnat qurollari takomillashdi. Eng muhimi, ibtidoiy to'dadan urug`chilik jamoasiga o`tish boshlanadi. Shimoldan ulkan muzlik siljib kelishi natijasida olov kashf etiladi. Jamoa bo'lib ov qilish paydo bo`ldi. Ilk paeolit, ya`ni ashel` davrining oxirlarida yashagan odamlarning manzilgohlari Qoraqalpog`istonning Ustyurt tekisligidagi Borsakelmas degan hududdan ham topib o`rganilgan.

O`rta paleolit davri makonlari esa, Toshkent vohasidagi Obirahmat, Ho`jakent, Samarqanddagi Omonqo`ton, Boysun tog`laridagi Teshiktosh g'oridan ya'ni makonlaridan topilgan. Mashhur yodgorliklarning biri Teshiktosh g`or makoni bo`lib bu yerdan turli-tuman qurollar va hayvon suyaklaridan tashqari, 9-10 yashar bolaning qabri qazib ochilgan.

O`rta paleolit davriga kelib ibtidoiy jamiyat odamlarining mehnat qurollari takomillashdi. Eng muhimi, ibtidoiy to'dadan urug`chilik jamoasiga o`tish boshlanadi.

Shimoldan ulkan muzlik siljib kelishi natijasida olov kashf etiladi. Jamoa bo'lib ov qilish paydo bo`ldi.

So'nggi paleolit davriga oid topilmalar Ohangarondagi Ko'lbuloq, Toshkentning g`arbida joylashgan Buzsuv (Bo'zsuv) 1 hamda Samarqand shahridan topilgan.Bu davrga kelib odamlar faqat tog`li hududlarga emas, tekisliklarga ham tarqala boshlaydilar. Bu davrda eng katta yutug' urug`chilik tuzumiga (matriarxat) o`tilishidir.

Mezolit davri yodgorliklari Surxondaryodagi Machoy g`or-makonidan, Markaziy Farg'onaning ko`pgina yodgorliklaridan topib o`rganilgan. Bu davrga kelib muzlik yana shimolga qaytadi. Hayvonat va o`simlik dunyosida katta o`zgarishlar sodir bo`ladi. Insoniyat o`z tarixidagi dastlabki murakkab moslama bo'lgan o`q-yoyni kashf etadi.

Mezolit davri qabilalari asosan ovchilik va termachilik xo`jaligi bilanfaoliyat yuritganlar. Bu davrning oxirlariga kelib dastlabki uy chorvachiligi yoki hayvonlarni xonakilashtirish boshlanadi. Bu esa endi hayvonlarni g'amlash va ovga o'rgatish (itlarni) takomillashtiriladi.Qoraqalpog`istonda mezolit davri makonlari Orol dengizi atrofidagi Ustyurt balandligida va Qizilqum cho`lida bor. Ustyurtdagi mezolit makonlari mil.avv. 8-6 ming yilliklarga oid. Qizilqum cho`lidan topilgan mezolit davri yodgorliklari mezolitning so`nggi bosqichlariga va o`rta tosh davridan yangi tosh davriga (neolitga) o'tish davriga tegishli.

Neolit davriga kelib qadimgi qabilalar hayotida katta-katta o'zgarishlar sodir bo`ladi. Bu davr odamlari baliqchilik va ovchilik yoki dehqonchilik va chorvachilik hamda qisman hunarmandchilik bilan shug`ullanganlar. Eng katta yutuqlardan biri kulolchilikning paydo bo'lishidir. Shuningdek, bu davrga kelib to'qimachilik va qayiqsozlik ham paydo bo'ladi. Neolit davri qabilalari xo'jalik shakllariga qarab quydagi madaniyatlarga bo`linadi: Jaytun madaniyati, Kaltaminor madaniyati, Hisor madaniyati

Joytun madaniyati. Janubiy Turmaniston xududiagi mil.avv. VI-V ming yilliklarga oid madaniyat. Bu yerdan O'rta Osiyodagi birinchi paxsa uylar qoldiqlari,

sopol idishlar na’munalari aniqlangan. Aholisi asosan dehqonchilik, chorvachilik va qisman ovchilik bilan shug`ullangan.

Eng qadimgi davr – O’rta osiyo uchun insoniyat paydo bo’lgan davrdan to Arab istilosigacha bo’lgan davrni o’z ichiga oladi. Bu davrga kelib hozirgi Orol dengizi bo‘ylarida istiqomat qiluvchi va turmush tarzi boshqa qabilalarnikiga o‘xshamaydigan qabilalar kun kechirgan. Ular suvga yaqin bo‘lganliklari uchun ovchilik va baliqchilik bilan shug‘illanganlar. Keyinroq esa chorvachilik va dehqonchilik bilan shug‘ullanganlar. Bu qabilalar yaratgan o‘ziga xos madaniyat - "Kaltaminor" madaniyati nomini olgan. Qoraqalpogistonning janubidan topilgan bo`lib mil.avv.V-IV ming yilliklarga oiddir. Umuman olganda, bu davrga kelib qurol yaroqlar yasash texnikasi ancha takomillashdi. Buni biz Kaltaminordan topilgan qurollardan ko‘rishimiz mumkin. Ular qulayroq, o‘tkirroq hamda yengilroq bo‘lgan. Bu kabi qurollar asosan ohaktoshdan yasalgan. Ohaktosh sof holatda ozgina mo‘rtroq bo‘lgani uchun uni istagan shaklga solish mumkin bo‘lgan. Ohaktoshlarni olimlar izlanishlari natijasida Sultonuvays tog‘idan olingan bo’lishi mumkinligi haqida to’xtamga kelishmoqda.. Tadqiqotlar natijasida shu narsa aniqlandiki, bu tog‘ haqida o‘sha davrdagi odamlari yetarli bilishlari ma’lum bo‘lgan. Chunki bu tog‘dan neolit davriga oid ustaxona va tosh yorish xonalarini topib o‘rganilgan. Kaltaminor madaniyatining eng nodir va muhim yodgorligi Jonbos-4 manzilgohi bo‘lib, u yerda maydoni 300 m. kv. bo‘lgan chayla qoldig‘i topilgan. Chaylada kattagina urug‘ jamoasi yashagan bo‘lib, 100-120 ta kishi yashaganligi ma’lum bo‘ldi. Kuygan qamish va xoda qoldiqlarining o‘rganish asosida olimlar chayla ustunli, oval shaklida bo‘lgan bo‘lib, usti qamish bilan qoplangan degan xulosaga kelganlar. Chaylada bitta katta va 20 dan ortiq kichik o‘choqlarning o‘rni qayd etilgan. O‘choqlar atrofida baliq (cho‘rtan, nog‘ara), hayvon (to‘ngiz, jayron, Buxoro kiyigi va hokazo), qush suyaklari va tuxum po‘choqlari hamda bir qancha mayda toshqurollar topilgan. Shuningdek, yumoloq sopol idishlar ham topilgan bo‘lib, ularning sirtiga chizmalar chizilgan. Shunisi qiziqki, shunga o‘xshash buyumlar Kaltaminor manzilgohidan ham topilgan. Bu holat manzilgohlar o‘rtasida o‘zaro aloqalar bo‘lganligidan dalolat beradi. Topilgan buyumlarning tahlili mazkur manzilgohlar miloddan avvalgi 7-3 ming yilliklarga

to‘g‘ri kelishini ko‘rsatdi. Mazkur manzilgoh hozirgi Qoraqolpog‘iston Respublikasi To‘rtko‘l shahridan 18 km. shimoliysharqda joylashgan Kaltaminor ko‘li sharafiga Kaltaminor madaniyati deb nomlangan. Arxeologlar Kaltaminor madaniyatini taraq-qiyot dinamikasiga qarab 3 davrga ajratishadi: 1. Kaltaminorning ilk davri eramizdan oldingi 7-5 ming yilliklarga to‘g‘ri keladi. 2. Kaltaminor madaniyatining o‘rta davri eramizdan oldingi 5-4 3. Kaltaminor madaniyatining so‘nggi bosqichi eramizdan oldingi 4-3 ming yilliklarga tegishli Bu davrga oid yodgorliklar Zarafshonning quyi oqimi, Qizilqum sahrosi va janubiy-sharqiy Ustyurt hududidan topilganligidan bilishimiz mumkun-ki, xalqimiz jahon silivizatsiyasiga katta ta’sir ko’tsatgan.

Hisor madaniyati. Asosan, Xisor-Pomir tog`laridan topilgan. Mil.avv.V-IV ming yilliklarga oid.

Qoraqalrog`istonda yangi tosh (neolit) davri odamlari faqat dare sohillarinigina emas, balki Kizilkumning va Ustyurtning ichki xududlarini ham o`zlashtira boshlaganlar. Qoraqalpog`istondagi yangi tosh (neolit) davri yodgorliklari Amudaryoning qadimgi Oqchadarem del`tasida (hozirgi To`rtkul tumani xudidan boshlab Taxtakupir tumani hududigacha bo`lgan oraliqda) va Ustyurt balandligida saqlangan. Eneolit-mis-tosh davrida odamlar dastlabki metal bilan tanishdilar. Bu davrga kelib dehqonchilik O’rta Osiyoning shimoli-sharqiy hududlariga ham yoyiladi. Hozirgi kunda ibtidoiy jamoa tuzumining turli bahslarga sabab bulayotgan muammolaridan biri-antropognez-odamning paydo bo`lishi va rivojlanishidir. Fan insoniyat hayvonat olishdan ajralib chiqqan degan fikrni ilgari suradi. Insonning paydo bo`lishi millionlab yillar davom etgan rivojlanish jarayonining natijasidir.

O’rta tosh davrida, birinchi navbatda mehnat jarayonida inson tafakkurining rivojlanishi natijasida neandertal qiyofasidagi odamlar hozirgi qiyofadagi odamlarga aylana boshladilar. Ular jismoniy jixatdan kamol topib, hozirgi qiyofadagi kishilar vujudga keldi va shu bilan antropogenez jarayoni tugadi (kroman`on ko`rinishidagi odamlar). Odamning paydo bo`lishi yerdagi eng buyuk hodisalardan biri bo`lib, u dastlab toshdan oddiy to`qmoq yasagan bo`lsa, uzluksiz mehnat, intilish natijasida yuksak madaniyat yaratish darajasiga yetib keldi.

Dunyo tarixida ibtidoiy tasviriy san`at, xususan, g`orlarning devorlariga turli tasvirlar chizish so`nggi paleolit davriga oiddir. O`rta Osiyoda g`orlar, ungurlar va qoyatoshlarga ishlangan rasmlar mezolit davrida paydo bo`ladi.

O`zbekistondagi qoyatosh rasmlarining eng nodir namunalari Zarautsoy, Sarmishsoy, Birinsoy, Ko'ksaroy, Takatosh, Teraklisoy kabilar bo`lib, ular yuzdan ziyoddir. Bu yerdagi qoyatoshlarda O`zbekistonning qadimgi va hozirgi hayvonot olami vakillarining rasmlarini kuzatish mumkin. Ulardan ibtidoiy buqalar, sherlar va yo`lbarslar, qoplon, tulki va bo'rilar, bug`u va jayron kabilardir.

Eng qadimgi rasmlar Zarautsoy (Surxondaryo) bo`lib, bu rasmlar mezolit-neolit, ya`ni, mil.avv. VIII-IV ming yilliklarga oiddir. Qoyatosh rasmlari orqali o'sha davr odamlarining ov, mehnat va jangovar qurollarini bilib olishimiz mumkin. Qoyatosh rasmlar qadimgi avlodlarimizning g`oyaviy qarashlari va diniy e`tiqodlarini o'rganishda ham muhim ahamiyatga ega.

Ko`pchilik tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda bronzaning vatani Kichik Osiyo va Mesopotamiya bo'lgan. Mil. avv. III ming yillikka kelib O'rta Osiyo xududlarida ham bronza qurollar keng tarqaladi. O`zbekiston xududlarida bronza davri yodgorliklari ko'plab uchraydi.

Ulardan eng yiriklari Tazabog`eb. Zamonbobo, Sopollitepa, Jarqutan, Churs, Amirabod yodgorliklaridir. Bronza davrida kishilik jamiyati madaniy tarakkiyotida katta-katta o'zgarishlar sodir bo'ladi. Aholi xo`jalik yuritishning muayyan ko`inishlariga, ya`ni vohalarda, ko'llar, daryolar va soylar bo`ylarida dehqonchilikka, dasht va tog`oldi xududlarida chorvachilikka (mehnatning dastlabki yirik taqsimoti) o'tib oldi.Bu davrga kelib O'rta Osiyoning ijtimoiy tuzumida ham o`zgarish jarayonlari bo'lib o'tdi. Urug`chilik tuzumi bronza davrida ham davom etgan bulsada, ona urug`ining mavqeyi yo`qolib bordi. Metall eritish va xujalikning rivojlanishi jatijasida jamiyatda erkaklar mehnat va mavqeyi birinchi darajali ahamiyatga eg`a bo`lib bordi. Ishlab chiqarishda hukmronlik qilish erkaklar qo`liga o'tadi va ona urug`i tuzumi o'rnini ota urug`i (patriarxat) tuzumi egallaydi dastlab mulkiy tabaqalanish, keyin esa ijtimoiy talabaqalanish natijasida urug`chilik tuzumi harobalarida sinfiy jamiyat paydo bo'ladi.

Qoraqalpog`iston xududida bronza davrining eng yirik yodgorligi bu Tazabog`eb madaniyati deb nomlangan yodgorlikdir. Tazabog`eb madaniyati mil. avv. 2 ming yillikning o'rtalariga oid bo`lib u Qoraqalpog`istonning sug`orma dehqonchilik rivojlangan.

Bronza davrining oxirida yerni sug`orib ekish yanada rivojlandi. Qoraqalpog`istonning janubida hozirgi Turtkul tumani xududida Amirobod deb nomlangan yodgorlik qoldiqlari topilgan. Bu yerdan tarixchi-arxeologlar uzunligi bir kilometrga yetadigan sug`orish kanallari izlarini topganlar.

Bundan ko'rinib turibdiki O'rta Osiyo xalqlari jahon madaniyatiga katta ta'sir ko'rsatgan. Yuqorida ko'rib o'tilgan davr Eng qadimgi davr ekanligini va bu davrda O'rta Osiyo xalqlari anchagina madaniyatlashganligini bilishiimiz mumkun.

Adabiyotlar

1. https://hozir.org/samarqand-davlat-universiteti-tarix-fakulteti-v8.html
2. https://vdoc.pub/documents/markaziy-osiyo-xalqlari-tarixi-2rhuh8hs8ej0
3. I.S.Tuxliyev "Turizm asoslari" fanidan o'quv qo'llanma, Samarqand 2010.
4. Mirzayev Murod Ahmadjonovich, Aliyeva Mahbuba To'ychiyevna "Turizm asoslari fanidan" o'quv qo'llanma, Toshkent 2011.
5. M.N. Pardayev, R.Atabayev ma'ruzalar matni, Samarqand 2007.

Ilmiy rahbar: Olimova Dilsuz Abduxalimovna

KITOB GEOLOGIYA MILLIY TABIAT BOG'IDAN AMALIY MAQSADLARDA FOYDALANISH

Tuychiyev Abbos Bahodir o'g'li,
QarDU magistranti

Mamlakatimizda ta'lim va tarbiya tizimini tubdan isloh qilish masalalari mustaqillikning ilk kunlaridanoq eng muxim vazifalardan biri sifatida e'tirof etib kelinmoqda. Jumladan, Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimov tomonidan ta'kidlab o'tilgandek, «Shuni unutmaslik kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi. Boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo'lishi farzandlarimizning bugun qanday ta'lim va tarbiya olishiga bog'liq."[1]. Shu sababli, davlat ta'lim standartlari yangilanib hayotga tadbiq etib kelinmoqda.

Bugungi kunga kelib ta’lim va tarbiyaning jadal rivojlanishi nazariya va amaliyot birligini ta’minlash muhim stratigik ahamiyatga ega bo‘lgan masalalardan biriga aylanib bormoqda.

Ana shularnin e’tiborga olgan holda mamlakatimizning Prezidenti Sh.Mirziyoyev “Ta’lim va tarbiya sohasidagi tub islohatlarni yuksak bosqichga ko‘tarish muhim vazifamiz va muqaddas burchimizdir” deb ta’kidlagani [2] ham bejiz emas.

Bugungi ta’lim tizimidagi islohatlar O‘zbekiston Respublikasi ta’lim muassasalari oldiga bir qator muhim va dolzarb vazifalarni amalga oshirish lozimligini ko‘rsatmoaqda

Bugungi kunda xukumatimiz tomonidan o‘quv jrayonida amaliy ko‘nikmalarni rivojlantirishga, talabalarga dars berishda nazariya va amaliyot uyg‘unligini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ta’limni amaliyot bilan bog‘liq holda olib borish orqali tayyorlanayotgan kadirlarning amaliy ko‘nikmalari shakillanadi, ularning ish faoliyatining dastlabki bosqichida kasbiy moslashuvchanlik osonlashadi.

Geografiya ta’limida nazariya va amaliyotning uyg‘unligi joydagi voqea va hodisalarni o‘rganish jarayonida ularni tabiiy holatda idrok etish imkoniyatini yaratib beradi. Talabalar o‘quv amaliyotlari davomida   geografik – geologik hodisalar tarixiy rivojlanish jarayonlarini amaliyot joylarida bevosita tanishadilar.

Bunday amaliyotlar talabalarning geografik – geologik hodisalarni to‘g‘ri idrok etish qobiliyatini rivojlantiradi, mustaqil xulosa chiqarishga o‘rgatadi, atrofimizni o‘rab turgan tabiat hodisalarini bir-biriga bog‘liq ekanligini tushunishga yordam beradi.

Ana shunda maskanlardan bir Kitob geologik qo‘riqxonasidir. U 1979 yilda Yerning geologik tarixi uchun tabiiy-ilmiy ahamiyatga ega paleontologik va stratigrafik yodgorliklarini muhofaza qilish maqsadida tashkil etilgan. Qo‘riqxona hududidagi paleozoy erasining yura va bur davrlariga tegishli bo‘lgan dengiz cho‘kindi qatlamlaridan tashkil topgan paleontologik va stratigrafik kesimlari, uning eng asosiy qimmatli qismidir. Bularga Obi-safit, Xo‘ja Qo‘rg‘on, Zinzilbon va Novabak soylaridagi geologik ochilmalar kiradi. Ular tog‘ jinslari paydo bo‘lish jarayonini va

toshga aylangan organik shakllarni kuzatish imkonini beruvchi tog‘ jinslaridir. Bu yerdagi organik qoldiqlarning ko‘pligi va xilma-xilligi, qo‘riqxona yotqiziqlarning yoshini aniqlash imkonini beradi. Bu kesmalarda saqlanib qolgan organik qoldiqlar sayyoramizning geologik tarixining bundan 470-330 million yil oldin sodir bo‘lgan voqealar haqida aniq ma’lumotlar beradi. Kesmalarning tog‘ jinslari orasida muhirlangan hayvonlarning qoldiqlari 18 guruhga tegishli ekanligi aniqlangan.

Kitob qo‘riqxonasining hozirgi kundagi o‘simlik va hayvonot olami xilma-xildir. Bu yerda o‘simliklarning 800 turi mavjud bo‘lib ulardan 22 tasi O‘zbekistonning “Qizil Kitobi” ga kiritilgan. Qo‘riqxona o‘simliklar dunyosining 19 turi, endemik turlardan hisoblanadi. Bundan tashqari O‘zbekistonda uchraydigan dorivor o‘simliklarning 300 turi quriqxona hudida uchrashi aniqlangan.

Hayvonot olami, umurtqali va umurtqasiz hayvonlar turlarinin o‘z ichiga oladi. Qo‘riqxonada, kapalaklarning 80 dan ortiq turi aniqlanib, ulardan to‘rttasi “Qizil Kitob” ga kiritilgan. U yerda, umurtqali hayvonlarning 168 turi uchraydi, ularning 13 tasi O‘zbekistonning “Qizil Kitobi” ga kiritilgan va qattiq muhofaza ostiga olingan.

Obi-safit, Xo‘ja Qo‘rg‘on, Zinzilbon va Novabak soylaridagi geologik ochilmalar oliy ta’li muassasalari 60111000 – “Geografiya va iqtisodiy bilim asoslari” ta’lim yo‘nalishining 1-kursida “Geologiya” fanida o‘tiladigan “Paleogeografiya”, “Paleozoologiya” , “Paleobatanika”, “Stratigrafiya” va boshqa mavzularida beriladigan nazariya va laboratoriya mashg‘ulotlarida olingan bilimlarini amaliyoda ko‘rish imkonini beradi. Qo‘riqxona hudidiga tashkil etiladigan o‘quv ekskursiyalari talabalarning geologiya sohasida olgan bilimlarini mustahkamlash asosida kelgusi pedagogik faoliyatlarida ulardan foydalanish imkoniyatini yaratib beradi.

Bu yerda sayyohlar uchun so‘qmoq va tomosha joylari jihozlangan. Qoyalarda 470 million yil avval paydo bo‘lgan qadimiy marjonlar va dengiz qoldiqlarini ko‘rish mumkin. Shunisi ajablanarliki, 140 million yillar avval bu yerda iliq dengiz havzasi joylashgan. Qo‘riqxonaning asosiy diqqatga sazovor joyi – tog‘lar va ularda saqlanib qolgan qadimiy hayot shakllarining paydo bo‘lish jarayoni tarixini yaqindan kuzatish imkoniyatidir. Shuningdek bu yerda muzey va paleontologiya muzeylari joylashgan.

Keyingi vaqtlarda Kitob geologik quriqxonasi turizim salohiyatini yanada yaxshilash maqsadida uni “Kitob geologiya milliy tabiat bog‘i” ga aylantirish sohasida O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori e’lon qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tabiatni muhofaza qilish davlat muassasasi shaklidagi Kitob geologiya milliy tabiat bog‘ini tashkil etish to‘g‘risida» 2020 yil 30 iyundagi PQ-4766-sonli qaroriga muvofiq – Qashqadaryo viloyati Kitob tumanidagi Kitob davlat geologik qo‘riqxonasi davlat muassasasi negizida tabiatni muhofaza qilish davlat muassasasi shaklidagi Kitob geologiya milliy tabiat bog‘i tashkil qilinsin deyilagn. Ushbu qarorning ijrosini ta’minlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasining Vazirlar Mahkamasining “Kitob geologiya milliy tabiat bog‘ini faoliyatini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori e’lon qilindi.Unga ko‘ra Kitob geologiya milliy tabiat bog‘ining umumiy hudidi 3938 gektar bo‘lib, shundan. Qo‘riqlanadigan hududga 2221 gektar, Rekreatsiya maqsadlarida foydalanadigan hududiga 400 gektar, Xo‘jalik maqsadida foydalaniladigan hududga esa 1317 gektar ajratilgan.

Yuqorida takidlab o‘tilganlardan tashqari ushbu chora tadbirlar asosida «Zinzilban» kesmasiga olib boruvchi yo‘ldan yangi turizm yo‘nalishi sifatida foydalanish, hududning turizm salohiyatini yorituvchi tarqatma materiallarni tayyorlash va targ‘ib qilishni masalari ham ko‘rsatib o‘tilgan.

Yuqorida takidlab o‘tilganlar asosida quyigicha xulosaga kelish mumkin. Bugungi kunda ta’lim jarayoni samaradorligini oshirish, ta’lim oluvchilarning mustahkam nazariy bilimini, faoliyatini, ko‘nikma va malakalarini shakillantirish va bularning barchasini o‘zlarining kasbiy mahoratga aylantirishini ta’minlash maqsadida o‘qitish jarayonida berilayotgan nazariy bilimlarni amaliyot bilan bog‘lash davr taqozasi hamda ijtimoiy zaruriyat sifatida kun tartibga quyilmoqda.

“Kitob geologiya milliy tabiat bog‘i” ni tashkil etish to‘g‘risidagi prezdent farmoni va uning ijrosi sifatida Vazirlar Mahkasida tomonida ishlab chiqilgan chora tadbirlar kelgusida uni mahalliy va tashqi turizimni rivojlantirshga asos bo‘ladigan obyektga aylantirish imkonini berdi. Bu ishlar o‘z navbatida“Kitob geologiya milliy tabiat bog‘i”ning rekreatsiya hududidan   talaba va o‘quvchilar uchun ham tashkil

etiladigan o‘quv amaliyoti uchun bazasiga aylanadi. Natijada nazariy bilimlar bevosita amaliyot bilan bog‘lanadi. Oqibatda olingan nazariy va amaliy bilimlarning uyg‘unligi geografiya va geologiya sohasida olinayotgan bilimlarning mustahkam bo‘lishini ta’minlaydi.

Adabiyotlar

1. Karimov I. A. «Yuksak ma’naviyat-yengilmas kuch» – T.:»Ma’naviyat», 2008.(61-bet)
2. Mirziyoyev Sh.M. “Erkin va farovon, demokratik o‘zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz”. Toshkent- “O‘zbekiston” -2016. 56 bet
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «Tabiatni muhofaza qilish davlat muassasasi shaklidagi Kitob geologiya milliy tabiat bog‘ini tashkil etish to‘g‘risida» 2020 yil 30 iyundagi PQ-4766-sonli qarori
4. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Kitob geologiya milliy tabiat bog‘ini faoliyatini takomillashtirish chora-tabdirlari to‘g‘risida” gi 2020 yil 2 sentabr, 534-sonli qarori.
5. https//www.uzbekistan.travel/app/media/nargiza/cropped-imagei/kitab 2-0-0-0-0-1582967436 jpg.

Ilmiy rahbar: Jankobilov Ilxomiddin Xolmuratovich

ҚАШҚАДАРЁ ВИЛОЯТИ РЕКРЕАЦИЯ РЕСУРСЛАРИДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ГЕОГРАФИК ЭКОЛОГИК МАСАЛАЛАРИ

Тожиев Абубакир Икромович,

ҚарДУ талабаси

Аҳоли фаровонлигининг орта бориши унинг бўш вақтидан унумли фойдаланишни тақозо этади. Бу эса уларни атроф оламни янада чуқурроқ ҳис қилиш, кўпроқ вақт табиат қўйнида бўлиш ҳамда табиий – маданий – тарихий ёдгорликлар билан яқинроқ танишишга даъват этади. Ҳозирда рекреация нафақат кишиларнинг меҳнат қобилятларини тиклаш, балки инсоннинг маънавий олами, унинг ижодий қобилиятларини ривожланишида ҳам муҳим фаолият ҳисобланади. Шу боис рекреация – бу жамият ривожланишининг

ажралмас қисми, ҳозирги замон ҳаёт тарзининг таркибий элементи ҳисобланади[1].

Географияда рекреация муаммоларини ҳар томонлама ўрганиш биринчилардан бўлиб собиқ иттифоқ Фанлар Академияси География институтининг табиий ва иқтисодий география бўлимлари жамоаси зиммасига тушган. Ўтган асрнинг 60-йилларидан бошлаб рекреация географиясини ривожлантириш бўйича етакчилик М.В.Ломоносов номидаги Москва давлат университет олимларига ўтган. Ландшафтшуносликнинг амалий жиҳатдан энг оддий соҳаларидан бири – шаҳардан ташқарида дам олишни ташкил этиш ѐки рекреациядир[2]. Рекреация географиясининг тадқиқот объекти ҳудудий рекреация тизимлари (ҲРТ) ҳисобланиб, унга дам олувчилар, табиий муҳит, хизмат кўрсатувчи ходимлар ва бошқарув ташкилотлари киради . Ҳозирда шаклланган мажмуали географик фан – рекреация географияси – кишиларнинг рекреация фаолиятларини ҳудудий ташкил этиш қонуниятлари тўғрисидаги фан ҳисобланади. Ҳозирги замон рекреация географияси асосида социал, техноген ва табиий компонентларни ўзида қамраган, мураккаб тузилишга эга бўлган тадқиқот объекти тўғрисидаги тасаввурлар ѐтади. Ана шуларнинг барчаси XX асрнинг 70-йилларида ҳудудий рекреация тизимлари тўғрисидаги концепцияни яратишга сезиларли туртки бўлди. Рекреация географияси рекреациянинг турли жиҳатларини ўрганувчи кўплаб бошқа илмий ва амалий фанлар билан алоқадорликда реал мазмунга эга бўлади. Умуман рекреация атамаси турли фанлар учун қизиқиш уйғотади. Шу боис рекреация географияси ногеографик (географик бўлмаган) фанлар – социология, психология, экология, табиатдан фойдаланиш, сиёсатшунослик, иқтисодиёт, тиббиёт ва бошқалар билан ҳам жуда мустаҳкам алоқада ривожланади. Географик тадқиқотларда рекреация фақат тор амалий йўналишдан боришни ѐқламайди. Шунга кўра табиий география рекреацион юкка табиий ландшафтларнинг бардошини белгилаш ва табиий рекреацион 15 ресурсларни баҳолаш билан шуғулланади. Рекреацион фаолиятнинг ижтимоий-иқтисодий меъѐрларига кўра табиий ландшафтларнинг рекреацион сиғимини баҳолайди. Шунингдек, табиий география рекреацион

фаолият ривожланган шароитда табиатни муҳофаза қилиш масалаларини таҳлил қилади[3]. Қашқадарё ҳавзасида антропоген ландшафтларнинг рекреация тури ҳам яхши ривожланган бўлиб, уларнинг туристик ва ракреация имкониятлари ҳали тўлиқ ўрганиб чиқилмаган. Қашқадарё ҳавзасида рекреация ландшафтлари турли шаклларда барпо этилган.

Буларга сиҳатгоҳлар, дам олиш масканлари, шаҳар атрофи, ўрмон, боғлар, қўриқхона ва буюртмаларни мисол қилиб кўрсатиш мумкин. Булар рекреацион ландшафтлар бўлишига қарамай, мақсадларига кўра турли вазифаларни бажаради.

Бу ерда соғломлаштириш (рекреация) муассасаларининг кўплаб турлари мавжуд, масалан, сайёҳлик муассасалари, талабалар ва ўқувчилар оромгоҳи ва бошқалар. Рекреация мақсадида ажойиб табиий ландшафт турларидан, сиҳатгоҳ ва дам олиш минтақаси сифатида фойдаланиш мумкин. Бундай имкониятлар, энг аввало, ҳавзанинг тоғ ва тоғолди ҳудудларида, хусусан, Мироқида минтақасида кўп учрайди.

Туристик объектлар сифатида эса кўҳна Шаҳрисабз – соҳибқирон Амир Темурнинг она шаҳрини, у барпо этган тарихий ёдгорликлар (Оқсарой ва бошқаларни), кўҳна Насаф қолдиқлари, ғорлар, шунингдек, экотуризм аҳамиятига молик манзарали табиат масканларини кўрсатиш мумкин. Шаҳрисабз туманининг юқори қисмида Ҳисор давлат қўриқхонаси ташкил қилинган. Ҳавзадаги Шаҳрисабз, Китоб, Яккабоғ туманларида қадамжо ва зиёратгоҳлар ҳам кўп. Йўқолиб кетиш арафасида турган табиий ландшафтлар ва ноёб ҳайвонлар турлари, ноёб манзараларни сақлаб қолиш учун инсон ҳимояси кучайтирилган қатор қўриқхоналар ташкил этилган. Буларга Китоб геологик ва Ҳисор тоғ-ўрмон қўриқхоналарини кўрсатиш мумкин.

Ҳисор давлат қўриқхонаси Ҳисор тоғ тизмасининг ғарбий ёнбағирларида 1750 м дан 4349 м гача бўлган баландликларда жойлашган бўлиб, унинг умумий майдони 76889 га га тенг. Қўриқхона Ғарбий Ҳисор тоғларининг юқори қисмларини ва Қашқадарё ҳавзасининг сув йиғиш зонасини ўз ичига олади. Ҳисор қўриқхонаси ҳудуди ноёб табиий объектларга бой. Қўриқхонанинг

жанубий қисмида денгиз сатҳидан 2937 м баландликда Ўрта Осиёнинг энг йирик ғорларидан бири Амир Темур ғори жойлашган. Ғорнинг узунлиги 815 м бўлиб, унда сталактитлар, сталагмитлар ва бошқа оҳакли қуймалар кўп. Ғор ичида узунлиги 30 м, кенглиги 14 м ва чуқурлиги 2,5 м бўлган кўл ҳам бор.

Китоб геологик қўриқхонаси 1979 йилда Жиннидарё ўрта оқимининг чап соҳилида, Зарафшон тизмасининг жануби-ғарбий тармоқлари бўлган Сумсар тоғи ва Қоратоғнинг шимолий ёнбағирларида ташкил этилган бўлиб, унда бундан 300-400 млн. йил илгари Ерда мавжуд бўлган ҳаёт муҳрланган ётқизиқлар очиқ ҳолда учрайдиган жойларни муҳофаза қилиш учун ташкил этилган бўлиб, унинг умумий майдони 5378 га ажратилган. Қўриқхонада бетакрор геологик ёдгорликларга бой ўсимлик ва ҳайвонот олами билан уйғунлашиб кетган. Бу ерда Ўзбекистон “Қизил китоби” га кирган кўплаб нодир ва йўқолиб бораётган 57 оилага мансуб бўлган умурткали ҳайвонлар, 121 турдаги ўсимликларни учратиш мумкин .Қўриқхона ҳудудида 16 туркум тошқотган ҳайвонларнинг қолдиқларини учрайди. Китоб геологик қўриқхонасининг 52% майдонини (2793 га) ўрмонлар, 25% майдонини қоялар, тик ва тошлоқ ёнбағирлар, сурилмалар, қолган қисмини эса яқин ўтмишда яйловлар ва экинзорлар банд этади. [4.]

Умуман олганда, рекреацион ландшафтлар жуда хилма-хил ва структураси мураккаб. Рекреация ландшафтлари структурасининг хилма-хиллиги ва мураккаблигини ҳисобга олган ҳолда қуйидаги турларини ажратиш мумкин: 1) соғломлаштириш ва дам олиш, 2) тоғ-ўрмон боғи, 3) буюртмахоналар 4) муҳофаза қилинадиган ҳудудларга ажратилади[5]. Қашқдарё вилоятининг ажратилган турларга асосланиб геэкологик нуқтаий назардан фойдаланиш мақсадида Рекреация ва туризм карталарини яратиш ҳозирги куннинг муҳим долзарб масалаларидан бирига айлантириш лозимдир. Бу ишларни бажариш учун қуйидаги асосий масалаларни бажармоқ лозим:кишиларнинг дам олиши учун янги масканларни излаб топиш имкониятларини аниқлаш;табиий-ҳудудий рекреация комплексларини ажратиш;дам олиш ва даволаниш масканларининг йирик масштабли рекреация карталарини яратиш ва ҳудудий рекреация

комплексларини ўрганиш, баҳолаш ва районлаштириш бугунги кунда табиий географиянинг муҳим масалаларидан бири ҳисобланади. Туристик-рекреация йўналишида тузилган мукаммал ландшафт рекреация карталари масалан, Қашқадарё вилояти Р. Усманова, Туркистон–Нурота Ш. Холмуродов, Ўрта Зарафшон Ў.Бадалов томонидан яратилган[1].

Қашқадарё вилояти тоғ ва тоғ олди ҳудудларининг Рекреация минтақаларида кишиларнинг атроф-муҳитга доимий таъсирини кўзда тутиб, оқар сувлар, дарахтлар, ҳайвонот оламини муҳофаза қилишга доир тартиб-қоидалар белгиланиши шарт. Сайёҳликлар ташриф берадиган жойларда ҳудудларда улар ҳаракатланадиган сўқмоқларнинг ҳудуддаги мавжуд табиий объектларга зарар етказмайдиган обьектларда ўтказилиши мақсадга мувофиқдир. Шунингдек, катта йўллар бўйидаги объектларга йўловчилар томонидан таъсир этилишини чекловчи тартибларни амалга ошириш лозим. Сув ҳавзаларига чиқиндилар ташланиши, дарахтларнинг кесилишини қатъий назорат остига олиниши ҳам ҳозирги кунда жуда долзарб масала ҳисобланади.

Адабиётлар

1. Бадалов Ў. Ўрта Зарафшон ҳавзасини рекреация-туристик ресурслари, улар-дан фойдаланишнинг географик асослари ва истиқболлари/дисс.. (PhD) .130 б.

2. Исаченко А.Г. География сегодня: Пособие для учителей. -М.: Просвещение, 1979. 92 с.

3. Преображенский В.С., Веденин Ю.А. География и отдых. -М.: Наука, 1971. 48 с.

4. Якубов Ў.Ш., Вахобов Х. Рекреацион география асослари. -Т.: Фан ва технология, 2012. 144 б.

5. Холмуродов Ш. А. Туркистон-Нурота Тизмаси Тоғ Ландшафтларининг Рекреация Имкониятларини Баҳолаш// PhD дисс. автореф. –Самарқанд, 2020. -20 б.

6. Назаров М.Г. Қашқадарё ҳавзасининг антропоген ландшафтлари ва уларнинг геоэкологик ҳолати // PhD дисс. автореф. –Самарқанд, 2020. -20 б.

Илмий раҳбар: Боймуродов Сами Мамурович

II SHO'BA: O'ZBEKISTONDA MODDIY-MADANIY, ADABIY YODGORLIKLAR O'RGANILISHINING TARIXSHUNOSLIGI VA MANBASHUNOSLIGI

АМИР ТЕМУР НОМИДАГИ ШАҲРИСАБЗ ШАҲАР МОДДИЙ МАДАНИЯТ ТАРИХИ МУЗЕЙИНИНГ ХАЛҚАРО ҲАМКОРЛИКДАГИ ЎРНИ

Эргашева Юлдуз Алимовна, *ҚарМИИ профессори., т.ф.д.,*
Хосиятов Хуршид Отақулович, *ҚарМИИ доценти*

Ўзлигимизни англаш, тарихимизни чуқур ўрганиш, буюк аждодларимиз хотирасини эъзозлаш борасидаги бу каби изчил ва хайрли ишлар барчамиз, айниқса, ёшларимиз учун алоҳида ибрат бўлди. «Бошқа давлатлар йўқ тарихини бор қилишга ҳаракат қилади. Биз буюк тарихимизни, алломаларимиз меросини халқимизга, ёшларимизга тўлиқ етказиб беролмадик. Ўзлигимизни англаш нуқтаи назаридан шундай жойларга эътибор берсак, бунга ҳамма эътибор қаратади», — деди Шавкат Мирзиёев[1].

Мустақиллик йилларида юртимизда тарихни ёзма манбалар асосида тадқиқ этишга эътибор кучайди, аждодларимиз томонидан узоқ ўтмишда яратилган маданий-маънавий меросни ўрганиш ва тарғиб қилиш долзарб масалалар қаторига қўйилди. Илм-фан, маданият ривожига улкан ҳисса қўшган аждодларимизнинг унутилган номлари қайта тикланди. Моҳир саркарда, давлат арбоби, илм-фан, маданият ҳомийси бўлган Амир Темур ана шундай тарихий шахслардан биридир. Ҳазрат соҳибқирон марказлашган давлатга асос солди, уни ҳар томонлама мустаҳкамлаб, ривожлантириб, шон-шуҳратини бутун жаҳонга ёйди, буюк салтанатнинг ҳукмдори сифатида миллатлар ва ҳалқларни бирлаштирди. Унинг ҳукмдорлик йилларида маданият, илм-фан, меъморчилик, тасвирий санъат, мусиқа ва шеърият юксак чўққига кўтарилди. Бир сўз билан айтганда, темурийлар даври ренессансига асос солинди.[2].

Музейлар маънавий етук, комил инсонни тарбиялашда ўзига хос ўрин тутади. Уларда сақланаётган тарихий ашёлар, нодир қўлёзмалар, ҳужжатлар

авлодларга тарихдан, аждодларимиз ҳаёти, юксак маънавиятидан ҳикоя қилади. Бу эса ёшлар қалбида ота-боболаримиз қолдирган меросга ҳурмат ва муҳаббат уйғотиш билан бирга, уларда шу азиз Ватанга муносиб фарзанд бўлиш туйғусини ҳам шакллантиради.

Мустақиллик йилларида бой миллий анъаналаримиз, бебаҳо қадриятларимиз, номоддий ва маданий-маърифий меросимизни қайта тиклашга алоҳида эътибор қаратиб келинмоқда. Ана шундай эзгу саъй-ҳаракатлар самараси туфайли буюк саркарда ва давлат арбоби Амир Темур ва темурийларнинг жаҳон тамаддунидаги ўрни, халқимиз, Ватанимиз олдидаги хизматлари асл мақомига қайтди. Музей биноси ўзида темурийлар даври ва замонавий меъморчилик санъати услубларини мужассамлаштирган. Амир Темур давридаги саройлар кўринишида қурилган бу муаззам бино истиқлол йилларида бунёд этилган энг ноёб иншоотлардан бири саналади. Музейнинг асосий вазифаси–Амир Темур ва темурийлар даврида илм-фан ва маданиятнинг юксак даражадаги тараққиётини ҳаққоний акс эттириш асосида ёш авлодни ватанпарварлик руҳида тарбиялаш ҳамда уларга миллий истиқлол ғоясини сингдиришдан иборат. Шунингдек, Амир Темур ва темурийларнинг жаҳон илм-фани, маданиятига қўшган улкан ҳиссасини кўрсатиб берадиган асл ҳужжатлар, қўлёзмалар, моддий-маънавий ёдгорлик ва топилмалар асосида ўзбек халқининг тарихини ёритувчи доимий ҳамда вақтинчалик экспозиция ва кўчма кўргазмалар ташкил этиш ҳам музейнинг асосий вазифалари ҳисобланади.

Темурийлар тарихи давлат музейи “Давлат ноёб илмий объектлари” рўйхатига киритилган бўлиб, унинг хазинасида Ўзбекистон тарихини акс эттирувчи 5 мингга яқин ашёлар сақланмоқда. Улар орасида милоддан аввалги 2 мингйилликка оид Сополлитепа ва Жарқўтон топилмалари, Афросиёб ва Тошкентдан топилган X-XI асрга доир сопол идишлар, Амир Темур ва темурийлар даврига оид кўплаб ноёб қўлёзмалар, расмий ҳужжатлар, кумуш ва мис тангалар, сопол идишлар, мис буюмлар, меъморий қопламалар, қурол-яроғ, чолғу асбоблари, этнографик буюмлар бор.

Ўзбекистон Республикаси биринчи Президенти И.А. Каримов темурийлар тарихи давлат музейининг очилиши маросимида шундай деган эди: «Кимки ўзбек номини, ўзбек миллатининг куч-қудратини, адолатпарварлигини, чексиз имкониятларини, унинг умумбашарият ривожига қўшган ҳиссасини, шу асосда келажакка ишончини англамоқчи бўлса, Амир Темур сиймосини эслаши керак»[3].

Қашқадарё вилояти Шахрисабз шаҳар Амир Темур номли моддий маданият тарихи музейига 2003 йил 9-10 май ҳамда 4-5 сентябрь кунлари ташриф буюрган Европа хамжамиятининг "INTAS" бўлими экспертлари фондда ва экспозицияда сақланаётган Амир Темур ва темурийлар даврига хос ноёб экспонатлар билан танишиб, мутахассис ходимларимиз билан фикрлашдилар[4].

2003 йилда Қашқадарё вилояти Шахрисабз шаҳар Амир Темур номли моддий маданият тарихи музейи ходимлари Хорижий мамлакатларда кўргазмалар ташкил этиш учун Франциянинг Бордо шаҳри музейи ҳамда Бордо-3 Университети, Италиянинг Калтажирони шаҳридаги керамика Сопол идишлар музейи каби ташкилотлар билан амалий ҳамкорлик йўлга қўйилди.

Экспозицияни шакллантириш жараёнида замонавий техник воситалар ва жиҳозлар учун 136 млн.сўмлик маблағ ажаратилиб, бу воситалардан унумли фойдаланилди. Музейда экспонатларни узоқ сақланиши учун чет эл сармоясини жалб этиш мақсадида осори-атиқаларнинг аслига мос муляжларини яратиш учун Франциянинг Бордо-3 Университетининг технология лабораторияси билан ҳамкорликда Европа кенгаши гранти жалб этилган. 2006 йилда Қашқадарё вилоят ўлкани ўрганиш музейида Саудия Арабистонининг кўргазмаси ўтказилган.

Тадқиқотларда жаҳондаги нуфузли илмий ташкилотлар ҳам ўз ҳиссаларини қўшишган. Жумладан, Франциянинг Бордо-3 Университети ва Москва давлат университети ҳамда Италиянинг Калтажирони шаридаги Сопол музейи билан ҳамкорлик қилинган. Ушбу тадқиқотларни чуқуррок таҳлил қилишда тажриба катта аҳамиятга эга. Мавзуни ёритишда Оқсарой , Дорут тиловат ва Дорус саодат меъморий мажмуалари ҳудудидан топилиб Шаҳрисабз шаҳар Амир Темур номли

моддий маданият тарихи музейи фондига топширилган мозаика ва маёликалар ҳамда зарҳал кошинлар асос бўлиб химат қилган. Ушбу Шаҳрисабз шаҳар Амир Темур номли моддий маданият тарихи музейи материалларини ўрганишда Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат ва жамият қурилиши Академиясининг Ўзбекистоннинг Янги тарихи маркази, ЎзФА Археология Институти , Бордо – 3 университети , Италиянинг Калтажирони шаҳридаги Сопол музейи ҳамда Москва Давлат Университети илмий жамоаси билан биргаликда темурийлар даврига оид меъморчилик безакларининг физика-кимёвий таркибини аниқлаш устида катта мувафаққиятларга эришилган[5].

Шаҳрисабз ҳокимлиги билан Шаҳрисабз шаҳар Амир Темур номли моддий маданият тарихи музей маъмурияти ва Илмий маърифий тарғибот ишлари бўлими ҳамкорлигида “Воҳамиз музейлар мустақилликдан сўнг”, “Шаҳрисабзда Саудия Арабистони маданияти кунлари”, “Мустақиллик ва истиқлол Шаҳрисабз тимсолида”, Янги йил байрамига бағишлаб “Тарихи буюк, келажаги порлоқ Шаҳрисабз” мавзулари бўйича ҳам бир қанча кўргазмалар ташкил этилди ва маҳаллий ҳамда хорижлик сайёҳларнинг эътиборини торта олишди. Масалан, 2008 йил 3-4 май кунлари Китоб тумани Қайнар қишлоғи адирларида ўтказилган “Асрлар садоси” халқаро фестивалида намойиш этилган экаспозиция фикримизнинг исботидир.

2008 йил 13 июн куни Шаҳрисабзда ўтказилган Саудия Арабистони маданияти кунлари жараёни ҳам тасвирга туширилиб хужжатли фильм сифатида ўқув юртларида намойиш этиб борилди[6].

2008 йил Шаҳрисабз шаҳар Амир Темур номли моддий маданият тарихи музейига ташриф буюраётган маҳаллий ва хорижлик сайёҳларга музей ва Шаҳрисабз тарихига оид буклетлар, брошюра ҳамда хужжатли дисклар реализация қилинди. Шаҳрисабз шаҳрига кириш жойларига Шаҳрисабз шаҳар Амир Темур номли моддий маданият тарихи музейи тарихига оид рекламалар жойлаштирилган, мазкур йилда Россиянинг Эрмитаж музейи ходимлари билан ҳам ҳамкорлик қилиниб рекламаларни кучайтириш устида фаолият олиб борилди.

Адабиётлар

1. Халқ сўзи // 29 январ. 2021 й.
2. Х.Ташканбаев. Амир Темур ва темурийлар даврида санъат ва маданият.
3. И. Каримов. Юксак Маънавият-енгилмас куч. Тошкент, 2008.– Б.27
4. Ўзбекистон миллий архиви, М-7-фонд, 1-рўйхат, 1342-иш, 11-варақ
5. Республикаси Маданият вазирлиги жорий архиви, М-38-фонд 1- рўйхат, 458-иш, 7-8 варақлар
6. Ўзбекистон Республикаси Маданият вазирлиги жорий архиви, М-38-фонд, 1-рўйхат, 452-иш, 61-варақ.
7. Ўзбекистон Республикаси Маданият вазирлиги жорий архиви, М-38-фонд, 1-рўйхат, 1457-иш, 12-варақ.
8. Ўзбекистон Республикаси Маданият вазирлиги жорий архиви, М-38-фонд, 1-рўйхат, 1056-иш, 26-варақ.
9. Khosiyatov Khurshid Otaqulovich. UNIGUE MACOM MUSEUM IN SHAKHRISABZ.SJIF Impact Factor: 6.260| ISI I.F.Value:1.241| Journal DOI: 10.36713/epra2016 ISSN: 2455-7838(Online) EPRA International Journal of Research and Development (IJRD) Volume: 5 | Issue: 3 | March 2020 .p-303-306.
10. Khosiyatov, K. O. (2019). History of Kashkadarya museum culture. ISJ Theoretical & Applied Science, 12 (80), 223-226. Soi: http://s-o-i.org/1.1/TAS-12-80-45Doi: https://dx.doi.org/10.15863/TAS.2019.12.80.45
11. Scopus ASCC: 1202.
12. https://www.dissercat.com/content/materialy-muzeinykh-bibliotechnykh-i-arkhivnykh-sobranii-sankt-peterburga-kak-istochnik-po-i.
13. Retrieved from https://www.dissercat.com/content/arkhitektura-uzbekistana-xviii-nach-xx-vv-traditsii-i-lokalnye-osobennosti.
14. w.histrf.ru› articles› article› show› karshi.
15. Retrieved from www.hamkorland.uz› more.

“АВЕСТО” АДАБИЙ ЁДГОРЛИГИНИНГ ТАРИХШУНОСЛИГИ ВА МАНБАШУНОСЛИГИ

Дониёров Алишер Худайбердиевич,
ТошДШУ профессори, т.ф.д.

Марказий Осиё халқларининг қадимий маданияти тўғрисидаги билимларнинг бебаҳо манбаси – “Авесто” китоби ҳисобланади. Мазкур манба дунёдаги энг қадимги динлардан бўлган зардуштийлик тарафдорлари учун муқаддас китоб ҳисобланиб, унинг тарқалишида Зардушт ўрни беқиёс. “Авесто” ва унинг матнларини тўпланиши кўп асрлар давомида амалга оширилган. Зардушт ушбу диннинг пайғамбари ва фаол тарғиботчиси ҳисобланиб, тахминан мил. авв. VII–VI асрларда дунёга келган тарихий шахс ҳисобланган [1;45-53]. Зардушт дин пешвоси бўлиш билан бирга, катта оила бошлиғи ҳам эди. Зардушт ўз таълимотини Марказий Осиё ва Эрон ҳудудларида кезиб тарқатади ҳамда кўплаб тарафдорларни атрофига тўплашга муваффақ бўлади [2;6-10]. Унинг таълимоти умумий ҳисобда йигирма бир наск (китоб)дан иборат бўлиб, бизга қадар улардан фақат бештасигина етиб келган [3;12].

“Авесто” китобининг яратилиши ҳақида турли фикрлар мавжуд. Ҳозирги кунда қадар ушбу мавзуда турли баҳс ва мунозаралар давом этиб келмоқда. Бизгача етиб келган “Авесто”нинг сақланиб қолган қисмлари қуйидагилардан иборат:

1. ***Ясна (Yasna)*** – бошқа қисмлар орасида энг асосийларидан бири. Ушбу қисм ўзида 72 бобдан иборат ҳот ёки готлардан ташкил топган. Унинг энг қимматлилари 28–34, 43–51, 53-боблар бўлиб, унда Зардуштнинг Ахурамазда (Ахура Мазда)га шеър-мадҳиялари ўрин олган [4].

2. ***Висперед/Виспарад (ёки Виспрат)*** – “Ясна” қисмига қўшимча мадҳ ва ибодат матнларидан иборат бўлиб, 24 бобни ўз ичига олади [5].

3. ***Видевдат (ёки Вендидат)*** – “Девларга қарши қонунлар” бўлиб, ушбу қисмда яна турли кўрсатмалар, зулмат ва ёвузлик худоси Аҳриман бошқарувчи ёмонлик кучларига қарши туришга бағишланган бўлиб, асосан, 22 бобдан иборат [6;35-44].

4. ***Яшт*** – турли худоларни шарафловчи қадимги мадҳлардан иборат бўлиб, асосан, Ахурамазда ва бошқа язтларни мадҳ этувчи 22 қўшиқ-гимнни ўз ичига олади [6;35-37].

5. Хорда Авесто (баъзан Хуртак Апастак) – “Кичик Авесто” сифатида таржима қилиниб, ўрта форс тилида ёзилган ва кундалик ибодат калималарини ўз ичига олган. Унда қадимги мадҳлардан ҳам турли парчалар келтирилган [7].

Зардуштийлик ва унинг муқаддас китобига бўлган қизиқиш узоқ тарихга эга. Ушбу мавзу дунё олимларининг диққат-эътиборида бўлиб, унинг тарихига доир кўплаб асарлар яратилган.

“Авесто” қўлёзмасининг пайдо бўлиши ва бизгача етиб келиши тарихини кузатадиган бўлсак, ҳозирги кунда йўқолиб кетган асосий нусха “Сосонийлар архетипи” номи билан танилган. М. Бойснинг тадқиқотларига кўра, “Авесто” тилида сақланиб қолган мавжуд энг қадимги қўлёзма милодий 1323 йилдаги нусхадир [7]. “Авесто” матнларининг тўртдан уч қисми, шу жумладан, номаълум миқдордаги ҳуқуқий, тарихий ва афсонавий матнлар йўқолган.

Катта қисми македониялик Александр томонидан йўқ қилинганига қарамай [8;52-53], сосонийлар даврида ушбу муқаддас китоб матнларини тиклашга ҳаракат қилинди. Х. Хамбач “Авесто” матнларининг сақланиш тарихини ўрганиб, ушбу муқаддас китобни сақлаб қолишни Ардашер I Папакан [9;208] ва унинг бош руҳонийси Тансар бошлаб берган [8;53-54], деган ўринли хулосага келади. Бу ишни Шопур II давридаги бошқа бош руҳоний Адурбад Маҳраспандан давом эттирган, фақатгина Хусрав I Анушервон [12;417] даври, яъни VI асрда ўз якунига етди.

Авестошуносликнинг кейинги тадрижий тараққиёти ўрта асрлар даврига тўғри келади. Хусусан, Абу Райҳон Берунийнинг “Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар” [13] асарида “Авесто” ҳақида қимматли маълумотлар келтирилган [14;9-10]. У Ҳиндистонга қилган сафари ҳамда Хоразм Маъмун академиясидаги фаолияти давомида “Авесто” тилини мукаммал ўрганишга ҳаракат қилган.

Бундан ташқари, Беруний даврида Хоразм тили тамоман ўлик тилга айланмаган эди. Баъзи тадқиқотчилар, хусусан, Жалил Дўстхоҳ Берунийнинг

айрим фикрларига асосланиб, “Авесто”нинг бизга номаълум қисмлари ёки ўша қисмлар мазмуни билан таниш бўлган бўлса керак”, деган фикрни билдирган эди [15;14].

Ўрта Осиё худудига Араб халифалиги даврида ислом дини ва маданиятининг кириб келиши натижасида зардуштийлик дини ҳамда унинг сақланиб қолган матнлари, оташхона ва бошқа динга тегишли рамзлар йўқ қилинди. Аҳоли орасида ҳам исломнинг қабул қилиниши билан эски динга эҳтиёж тобора йўқолиб борган, бу эса зардуштийлик анъаналарининг йўқолиб кетишига сабаб бўлган. Натижада, ўрта асрларда ушбу дин ва унинг муқаддас китобини ўрганишга оид маълумотлар деярли учраймайди.

Аммо, шунга қарамай, Эрон, Афғонистон ва Ўрта Осиё халқлари қадимги тарихини ўрганишда “Авесто” муҳим манба бўлиб хизмат қилади. Чунки, “Авесто” фақатгина зардуштийлик динининг урф-одат ва эътиқодлари жамланган муқаддас китоб бўлибгина қолмай, унда Ўрта Осиё ҳамда Эроннинг қадимги тарихи, маданияти ва сиёсий тузуми ҳам акс этган. Ер юзидаги энг қадимги динлар, шу жумладан, зардуштийлик тўғрисида ҳам илмий-тадқиқотлар вужудга келган.

Авестошунослик атрофидаги вазият XIX аср ўрталаридан тубдан ўзгара бошлади. Эндиликда зардуштийлик дини экзотик, яъни ноёб дин сифатида эмас, балки ўз чуқур фалсафасига эга бўлган ҳамда ўз даври учун муҳим бўлган динлардан бири, деб баҳолана бошланди. Натижада, тадқиқот доирасига тилшунос ва шарқшунослардан ташқари, энди файласуфлар ҳам кириб кела бошлади.

XIX асрда “Авесто” ва зардуштийлик таълимоти Ғарб файласуфларининг диққатини ўзига жалб этади. Ҳ. Ҳомидов улар қаторига Г. Риттернинг 12 жилдлик “Фалсафа тарихи” [16;584], Кечелнинг бир қатор мақола ва нутқларидаги “Авесто” шарҳларини киритган [17;20].

XXI асрда ҳам баъзи тадқиқотчилар нафақат “Авесто”, балки зардуштийлар ва уларнинг урф-одатларини ҳам ўрганишга катта қизиқиш

билдирганлар. Масалан, М. Мейтарчиян зардуштийларнинг дафн маросимларини атрофлича тадқиқ қилган [18;248].

“Авесто” энг кенг тарқалган ҳудудлардан бири Эрон бўлиб, ушбу давлатда Р. Уразованинг аниқлашига кўра, XX асрда эронлик олимлардан Иброҳим Пурдовуд, Ҳошим Ризоий ва Жалил Дўстхоҳларга тегишли “Авесто”нинг изоҳли форсий таржимаси, икки жилдлик авестошуносликка доир тадқиқотлар пайдо бўлди [19;7].

Авестошунослик йўналишининг Ўзбекистондаги ривожини таҳлил қиладиган бўлсак, ушбу соҳа совет даврида, аниқроғи XX асрнинг 50-йилларида шакллана бошлади. Дастлаб Н. М. Маллаев “X–XII асрлар адабиёти” рисоласида Шарқ халқларининг қадимги ёзма ёдгорликлари ҳақида фикр юритиб, “Авесто”нинг адабий қимматини қайд этган. Унинг фикрлари “Ўзбек адабиёти тарихи” (1963–1967–1976 йил) дарслигига киритилган.

Мустақиллик даврида авестошунослик ва унинг таржимаси бўйича ишлар жонланди. М. Исҳоқов, Р. Қаюмов ва А. Маҳкам [20] каби олимлар ва кенг жамоатчиликка “Авесто”нинг таржимасига доир ишларини тақдим қилдилар.

“Ўзбекистон тарихи” журналининг “Авесто” юбилейига бағишланган махсус рукнида ушбу мавзунинг турли жиҳатларига доир тадқиқотларнинг сўнгги натижалари чоп этилди [20].

“Авесто”нинг яратилганига 2700 йил тўлиши муносабати билан В. Лившиц, Э. Ртвеладзе, М. Исҳоқов, Э. Охунжонов, А. Сагдуллаев, Р. Абдукамилов ва Ш. Шайдуллаевларнинг янгича талқиндаги мақолалари эълон қилинди [21].

Бундан ташқари, 2001 йилда чоп этилган “Авесто” ва унинг инсоният тараққиётидаги ўрни” [22;186] номли махсус тўпламда ушбу мавзунинг турли масалаларига доир мақолалар ўрин олди. И. Жабборов ва С. Жабборовларнинг [23] жаҳон динлари тарихига доир китобида зардуштийлик тарихи батафсил ёритиб берилди.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, тарихшунослик амалиёти тарихий билимлар ҳаққонийлигини аниқлайдиган воситалардан биридир. Айнан

тарихшунослик ўтмишни ўрганиш илмий амалиётида қўлга киритилган натижаларни ёритадиган ва унинг қадриятли жиҳатларини белгилайдиган фандир. “Авесто” тарихи ва тарихшунослигини ўрганиш, улардаги мардлик ва фидойилик, дўстлик, муҳаббат ва садоқат, ҳақиқат ва адолат, ҳар қандай ҳолатда ҳам бурчига, имон-эътиқодига, Ватанига хиёнат қилмаслик, кучсизларни ҳимоя қилиш, ўз қавми, халқи манфаатлари, хавфсизлиги ва тинчлиги, жипслиги ва юксалиши учун хизмат қилиш, зарур бўлса, заҳмат чекиб, жонини ҳам аямаслик ғоялари олға сурилади. Бу халқ қаҳрамонларининг деярли барчасига хос бўлиб, улар образига кудратли тарбиявий куч бағишлайди, маънавий идеалга айлантиради.

Адабиётлар

1. Kingsley P. The Greek Origin of the Sixth-Century Dating of Zoroaster // Bulletin of the School of Oriental and African Studies, 1990. T. 53 (2). Pp. 245-265; Сулаймонов Р., Исҳоқов М. Заратуштранинг ватани ва яшаган даврига оид мулоҳазалар //Oʻzbekistontarixi. 1999. №1. 45-53-бетлар.
2. Frye R. N. Zoroastrians in Central Asia in Ancient Times // Journal of the K. R. Cama Oriental Institute, 1992. T. 58. Pp. 6-10.
3. Ҳомидов Ҳ. “Авесто” файзлари. Тошкент: Халқ мероси, 2001. 12-б.
4. William M. “Yasna” /EncyclopaediaIranica, online edition.New York, 2006. (www.iranicaonline.org.)
5. Mills L.H. “Visparad” / ZA III: The Yasna, Visparad, Âfrînagân, Gâhs and Miscellaneous Fragments, Sacred Books of the East. Vol. 31. Oxford: OUP, 1887.
6. Kellens J. “Avesta” / Encyclopedia Iranica. 3. New York: Routledge&Kegan Paul, 1989. Pp. 35-37.
7. Boyce M. Textual Sources for the Study of Zoroastrianism. Manchester: MUP, 1984.
8. Humbach H. The Gathas of Zarathushtra and the Other Old Avestan Texts, Part I. Heidelberg: Winter, 1991. Pp. 52-53.
9. Расторгуева В. С., Эдельман Д. И. Этимологический словарь иранских языков / Институт языкознания РАН. М.: Издательская фирма «Восточная литература» РАН, 2000. Т. 1 (a-ā). С. 208.

10. Расторгуева В. С. Этимологический словарь иранских языков / В. С. Расторгуева, Д. И. Эдельман. М.: Вост. лит., 2000. Т. 3: f-h., 2007. С. 417.
11. Абу Райҳон Беруний. Ал-осорул-боқия ан-ал қарунул-ҳолия. Тошкент, 1969.
12. Саидқулов Т. Ўрта Осиё тарихининг тарихшунослигидан лавҳалар. I қисм. Тошкент: Ўзбекистон, 1993. 9-10-бетлар.
13. Дўсимов З. Д., Тиллаева М. Б. Хоразм ономистикасининг шакллланиши ва “Авесто” . Тошкент: Фан, 2010. 14-б.
14. Риттер Г. История философии древних времен / Соч. Генриха Риттера экстраорд.проф. Берлин. ун-та. Спб.: тип. Ильи Глазунова и К°, 1839. Ч. 1. XXIV. 584 с.
15. Ҳомидов Ҳ. “Авесто” файзлари. ... 20-б.
16. Мейтарчиян М.Б. Погребальные обряды зороастрийцев. М.- СПб., 2001. С. 248.
17. Уразова Р. Зардуштийлик маъбудларининг функциялари ва ижтимоий-тарихий моҳияти. Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) дисс. ... автореф. Тошкент, 2017. 7-б.
18. Авесто алқовлари / М.Исҳоқов тарж. // Ўзбек тили ва адабиѐти. 1999. № 1. 70-79-бетлар; № 2. 63-74-бетлар; № 3. 63-72-бетлар; № 4. 67-72-бетлар; № 5. 72- 74-бетлар; 2000. № 1. 63-74-бетлар; № 2. 72-80-бетлар; № 3. 70-76-бетлар; № 4. 52-62-бетлар; № 6. 62-69-бетлар.
19. Қаюмов А. П. Хурдо Авесто. // А. Қаюмов, М. Исҳоқов, А. Отахўжаев, Қ. Содиқов. Қадимги ёзма ёдгорликлар. Тошкент: Ёзувчи, 2000. 4-32-бетлар. Авесто: Тарихий-адабий ѐдгорлик // Асқар Маҳкам таржимаси. Тошкент: Шарқ, 2001. 384 б., 16 б. зарварақ.
20. Авесто алқовлари / М.Исҳоқов тарж. // Ўзбек тили ва адабиѐти. 1999. № 1. 70-79-бетлар; № 2. 63-74; № 3. 63-72; № 4. 67-72; № 5. 72- 74; 2000. № 1. 63-74; № 2. 72-80; № 3. 70-76; № 4. 52-62; № 6. 62-69. Қаюмов А. П. Хурдо Авесто. // А. Қаюмов, М. Исҳоқов, А. Отахўжаев, Қ. Содиқов. Қадимги ёзма ёдгорликлар. Тошкент: Ёзувчи, 2000. 4-32; Қаюмов А. П. Хурдо Авесто. // А. Қаюмов, М. Исҳоқов, А. Отахўжаев, Қ. Содиқов. Қадимги ёзма ёдгорликлар. Тошкент:

Ёзувчи, 2000. 4-32; Авесто: Тарихий-адабий ѐдгорлик // Асқар Маҳкам таржимаси. Тошкент: Шарқ, 2001. 384 б., 16 б. зарварақ.
21. Лившиц В. Авесто - исторический источник // Сб. «Авесто» и ее роль в истории развития человечества. Ташкент-Ургенч, 2001;Ртвеладзе Э.В. Зороастризм в Бактрии// «Авесто» и ее место в истории развития человечества. Ташкент-Ургенч, 2001;Абдукамилов Р. Авестийские тексты о государственности и праве: вопросы генезиса и эволюции структуры // O‘zbekiston tarixi. 2000. №3. С. 3−8; Ахунджанов Э.В. Принципы и хронология кодификации Авесты // ОНУ. 2001. № 1; Сагдуллаев А. С. Авесто географияси ҳақида // “Авесто” қадимий тарихимиз ва маънавиятимизнинг илк ёзма манбаи. ТДШИ “МОХТ” кафедраси илмий-амалий семинари материаллари. Тошкент, 2001. 27-28; Шайдуллаев Ш. “Авесто” ва моддий маданият // O‘zbekiston tarixi. 2004. №.3. 3-12.
22. “Авесто” ва унинг инсоният тараққиётидаги ўрни. Тошкент: Фан, 2001. 186 б.
23. Жабборов И., Жабборов С. Жаҳон динлари тарихи. Тошкент: Ўзбекистон, 2002.

SURXON VOHASI JANUBIDAGI MODDIY MADANIYATNING RUS SHARQSHUNOSLARI TOMONIDAN O‘RGANILISHI VA UNING NATIJALARI (XIX ASR - XX ASR BOSHLARI)

Турсунов Сайпулла Нарзуллаевич,
ТерДУ профессори, т.ф.д.

Қадимий Термиз шаҳри аҳолисининг босиб ўтган тарихий йўлининг илмий жиҳатдан англаш ва ушбу жараёнда мавжуд энг қадимий ёзма манбалардан тортиб комплекс илмий тадқиқотларга қадар бўлган асарларни танқидий кўз билан таҳлил этишдан иборат. Энг муҳими Термиз ҳудудида жойлашган ноёб тарихий ва археологик ёдгорликларни қайд этиш ва дастлабки тадқиқотларидан тортиб уларнинг архитектура услуби, қурилиш техникаси, хронологик композициясига қадар бўлган муаммоларни ўз ичига олади[1].

Рус шарқшунослари томонидан Термиз шаҳри қадимий қолдиқ харобаларни ўрганишдан мақсад, биринчидан Россия ҳукуматининг иқтисодий босқинчилик манфаатлари учун моддий бойликларни излаб топиш, иккинчидан

маҳаллий аҳоли ҳамда шаҳар харобаларида сақланиб қолган нодир –ноёб манбаларни Марказга жўнатиш ёки шахсий манфаатлар йўлида сарфлашдан иборат эди. Термиз тарихи билан боғлиқ муаммолар бир бўлиб манбашуносликка оид тарихининг йирик бир илмий мавзусини ташкил этади-ки, бу мавзу нафақат мамлакатимиз ва Марказий Осиё халқлари тарихида, балки бутун Шарқ халқлари тарихида ҳам муҳим ўрин тутади.

Ғарб адабиётида Эски Термиз билан боғлиқ маълумотлар XVIII асрдан бошлаб учрайди. Ўша давр маълумотларида асосан ғарбий Европада тузилган географик хариталарда Термиз номли шаҳарнинг жойлашув ўрни кўрсатилганлиги билан ҳарактерланади. Эски Термиз ҳақидаги ғарб адабиётида дастлабки маълумотлардан бири француз шарқшуноси Ж.Дегиннинг Марказий Осиё тарихи ҳақида ҳикоя қилувчи XVIII асрда чоп этилган китобида учрайди.

Шуниси қизиқки, XVIII-XIX аср ғарб адабиётида Эски Термиз шаҳри ғулғула номи билан машҳур бўлган ва бу ҳақда қизиқарли маълумотларни европалик тарихчи, географ ва саёҳатчилардан Г.Майендорф, В.Г.Тизенгаузен, Г.Юль, Н.А.Маев, Логофет, И.В.Мушкетов, А.А.Бўков, И.Л.Яворский, Н.А.Сорокин, Н.Каразин, Н.Зубов, Г.Бонвало ва бошқ. ёзиб қолдиришган. Шуни алоҳида таъкидлаш керакки, XIX асрнинг 80-йилларига келиб Россиянинг мустамлакачилик сиёсати туфайли Ўрта Осиё ва Афғонистон ҳудудида рус ҳукмронлигини ўрнатиш учун Россия-Англия ўзаро кураши ниҳоятда кучайиб кетди. Натижада Ўрта Осиёнинг Амударё орқали Афғонистон бўйлаб ўтган чегара ҳудудларида рус ва инглиз ҳарбий зобитлари, ҳарбий сураткашлар ва саёҳатчилар тез-тез кела бошладилар.

Айниқса, 1820 йилда Бухородаги рус элчихонасининг котиби Г.Майендорф томонидан Бухородан Эски Термизга уюштирган саёҳатидан сўнг «1820 йилда Оренбургдан Бухорога саёҳат» номли китоби 1826 йилда Парижда босилиб чиқди. Майендорф Эски Термиз ҳақидаги таассуротларини ёзар экан, «бу шаҳар Амударёнинг ўнг қирғоғида (чап қирғоқнинг қарама- қаршисида) жойлашган бўлиб, у ерда тош ва шағалтош, пахсадан қилинган уйларнинг харобаларидан бошқа нарса кўринмайди» деб ёзади[2].

Майендорф маълумотларидан шу нарса маълум бўладики, Эски Термиз ҳудуди ҳали археологик тадқиқотларга жалб этилмаган бўлиб, фақат ҳудудни кузатув орқали ўрганиш ҳолати ҳукмронлик қилар эди. 1835 йилда Санк-Петербургда нашр этилган тилшунослик энциклопедиясининг «Оксус» номли мақоласида Эски Термиз ҳақида маълумотлар келтирилади: «Кўлобдан бошланиб Турон паст-текислиги қисмида Ҳисор водийси ястаниб ётади ва Балхни Ўкуздан ажратиб турган Қундузсой ва Ҳулутсой водийларининг қарама-қаршисида Балхнинг деярли бир хил меридианида жойлашган Эски Термиз харобалари жойлашган»[2.1]. 1850 йилда Москвада нашр этилган Александр Бёрнснинг «Бухорога саёҳат»номли китобида Эски Термиз ҳақида фақат эслатиб ўтилади, холос[2.2].

Эски Термиз харобалари ҳақида тўлиқроқ маълумот беришга ҳаракат қилган ғарб адабиёти вакилларидан бири инглиз географи Генри Юль ҳисобланади. Унинг 1872 йилда чоп этилган «Вуд саёҳати» номли китобининг сўз бошида «..Окс дарёси бўйида жойлашган ва Чингизхон томонидан вайрон этилган Термиз жуда қадимий ва машҳур шаҳарлардан бири бўлиб ҳисобланади.

Эски Термиз Чингизхон ҳужумидан бир аср ўтгандан сўнг дарёдан тахминан икки мил узоқликда ўзининг аввалги даражасига эришади ва бу ҳолатни 1334 йилда Термизга ташриф буюрган ибн Батута ҳам қайд этади.» [3.2] 1805 йилда чор Россияси томонидан Бухоро амирлигининг жанубий ҳудудларини ҳарбий сиёсий мақсадларда ўрганиш учун топограф Вишневский, таржимон Казбеков, сураткаш Кривцов, табитшунос Ф.Ф.Шварц, Казаков ва Вейнберглардан иборат Н.А.Маев бошлиқ махсус экспедиция тузилади. Маев Сурхон воҳасига ташриф буюрган бўлса-да, Эски Термиз ва Термиз шаҳрини келиб кўрмайди. Шу сабабли унинг Термиз ҳақидаги маълумотлари маҳаллий аҳолидан сўраб суриштириш орқали тўпланган маълумотлардан иборат бўлиб қолган. Аммо Маевнинг воҳамиз табиати, тарихи, шаҳар ва қишлоқ аҳоли, уларнинг турмуш тарзи, урф-одатлари ҳақида ўзи бўлган ҳудудларидаги кўриб ёзганлари ҳозирги кунда ҳам ўз аҳамиятини йўқотгани йўқ.

1878 йилнинг 7 декабрида Тошкентда Қобулга кетаётган Россиянинг 1878-1879 йилларда рус ҳукуматининг Афғонистондаги вакили И.Л.Яварский Эски Термиз харобаларини кўриб, қизиқарли маълумотларни ёзиб қолдиради. Унинг ёзишича, «...Паттакесар кечувидан 5-6 верст (1 верст-1,06 км) узоқликда Эски Термиз харобалари ястаниб ётади. Жуда катта ҳудуддаги ер пишган ғиштларнинг синиқ бўлаклари билан қопланган. Бир жойда баландлиги 5-7 сажин (1 сажин-2,134 м) келадиган пишган ғиштдан қурилган минора турибди.

Минора айланаси бўйлаб куфий услубда пишган ғиштлардан фойдаланган ҳолда ёзувлари бор. Миноранинг юқори қисми ағанаб тушган, ундан нарироқда эса ғиштдан қилинган жуда кўп биноларнинг харобалари бор. Кўпгина ғишт синиқлари устида кошинли қоплама бор. Ушбу харобалар жойи Хайбар деб аталади»[4.1]. Яварскийнинг ушбу маълумотлари Эски Термиз харобалари ҳақида бир қадар фикр юритишга имконият беради.

Энг аввало, 1071-1072 йилларда қорахонийлар даврида қурилган ва баъзи манбаларда эса 1081-1082 йилларда қурилган деб кўрсатилган Термиз минорасининг баландлиги Яварский тахмин қилганидек, 10-12 метр эмас балки анча баланд бўлганлигини фараз қилиш мумкин[5.1]. Негадир Яварский 1900 йилда Кастельский томонидан суратга олинган Термиз минораси ёнидаги масжид бино ҳақида лом-мум демайди. (Ҳозирги кунда ушбу масжид сурати Термиз Археология музейи фондларида сақланмоқда.) Бизнинг фикримизча суратга олинган минора ёнида кичикроқ масжид биноси бўлган. Чунки шундоққина минора ёнида аҳоли турадиган уйнинг бўлиши эҳтимолдан узоқ бўлиб, миноралар асосан азон айтиш учун мўлжалланган иншоот ҳисобланган. 1879 йил август ойи бошларида Самарқанд шаҳридан Эски Термиз харобаларини ўрганиш мақсадида Самарқанддан илмий экспедиция йўлга чиқади. Унинг таркибида таниқли олимлардан геолог И.В.Мушкетов, ботаник Н.А.Сорокин, инженер Н.Л.Ляпунов, таржимон Ф.Н.Жуков ва ёзувчи рассом Н.Н.Карамзинлар бор эди.

Н.Н.Карамзиннинг Эски Термиздаги тарихий ёдгорликларнинг расмлари аниқ чизилмаганлиги туфайли улар у қадар илмий аҳамиятга эга эмас. Инженер

Н.Л.Ляпунов ал-Ҳаким ат-Термизий қадриятидаги ёзувларининг нусхаларини суратга тушуриб олган бўлсада, унинг вафотидан сўнг ушбу расмлар йўқолиб кетган. Илмий экспедиция аъзолари муҳим бир маълумотни аниқлаш мақсадида маҳаллий аҳоли ўртасида суриштирув ишларини олиб борадилар.

Бу маълумот Эски Термиздаги қалъадан дарёнинг қарама-қарши томонига қараб қурилган доимий кўприк ҳақида эди. Маҳаллий аҳолининг гувоҳлик беришича, дарёнинг суви пасайиб кетган пайтларда кўприкнинг мустаҳкам устунлари кўриниб турган.

Ушбу маълумотларни экспедиция аъзолари аниқлаш мақсадида парусли қайиқлар ва ёғочдан ясалган сузувчи дасталар орқали дарёга тушиб, харчанд уринмасинлар, кўприк қолдиқларини топа олмаганлар. Аммо шуни айтиш керакки, кўприк ҳақидаги миш-мишлар ёки маҳаллий аҳолининг ҳикоялари замирида қандайдир тарихий ҳақиқат ётганга ўхшаб кўринади.

Эски Термиз харобалари ҳақидаги муҳим маълумотларни И.В.Мушкетов келтиради. Унинг ёзишича, Миа (Жарқўрғон минораси ёнидаги) деган жойдан Сурхон воҳаси мутлақо сувсиз саҳрога айланади ва шамол билан кўтарилган қум барханлари ўсимлик дунёсига катта зарар кўрсатади ва Эски Термизга қадар етиб келиб унинг устига ёғилади. И.В.Мушкетов сўзсиз «афғон» шамоли ҳақида ёзаётгани аниқ. И.В.Мушкетовнинг энг қизиқарли маълумотлари Эски Термиз қалъаси ҳақидадир. У берган маълумотларга кўра, шаҳар қалъаси харобалари бошқа харобаларга нисбатан яхши сақланган.

Қалъанинг қарийиб эни 6600 кв.м. (66 ар) келадиган зали ва чуқур хандақ билан ўралган узунлиги 428 метр (200 саж) келадиган йўлак ва узунлиги 210 метр (100 саж) келадиган тор йўлак билан ўралган. Рус ҳарбий инженери А.Г.Ананьев эса Эски Термиз қалъасининг узунлигини 525 метр (250 сажин), энини 252 метр (128 сажин) ва баландлигини 6,3 метрдан 10,5 метргача (3-5 сажин) деб кўрсатади[6.1].

Шунингдек, Ананьев қалъадан 100 метр (50 сажин) узоқликда шимолда жойлашган ал-Ҳаким ат-Термизий мақбараси ҳамда қалъадан шарқий томонда 2 км узоқликда (2 верст) жойлашган. Хўжа Варрух минораси озгина

қийшайган ва унинг ёнидаги қудуқ ҳамда қалъадан шимолда жойлашган Чингизтепа ёдгорлиги ҳақида маълумот беради.

Амударёдан шарқий томонда 5 км (5 верст) узоқликда жойлашган Султон - Саодат, Афғон мозор, Кокилдор ота ва Қирққиз тарихий обидалари ҳақида маълумотлар беради. Мушкетов эътирофича, қалъанинг дарё томонида унга чиқадиган йўлаклар пишган ғиштдан қурилган. Дарёга қалъанинг ер ости йўлаклари орқали чиқилган. Аммо ушбу йўлаклар вақт ўтиши билан тупроқлар билан тўлиб қолган. И.В.Мушкетов қалъа харобаларида дастлабки илмий кузатув ўтказиб, темир ва мисдан тайёрланган турли хил буюмларнинг қолдиқлари, шиша буюмлар, нақшинкор сопол буюмлар синиқлари ва тангалар, асосан грек тангаларини топганлигини қайд этади. Айниқса, унинг қурбақа шаклидаги оқ нефритдан тайёрланган муҳр бўлагининг топиб олганлиги диққатга сазовордир. Аммо И.В.Мушкетов ушбу топилмаларнинг кейинги тақдири ҳақида ҳеч нарса демайди.

Шунингдек, у қалъа бир қанча номлар билан: Мадинат ул-Рижжол, Термиз, Зунунобод номлари билан аталганини қайд этади[7.1]. 1881 йилнинг апрель ойида Бухородан афғон амири Шералихон ҳузурига кетаётган К.Е.Эйфанов француз саёҳатчиси Г.Бонвало ва рассом Канюлар Эски Термиз харобаларини кўздан кечирадилар.

Мақбаранинг чап томонидаги ал-Ҳаким ат-Термизий қабри ёнида иккинчи табақага мансуб кўплаб муқаддас кишиларнинг қабрлари аниқланади. Бонвалонинг ушбу кўрсатмалари 2006-2007 йилда мақбаранинг атрофида ўтказилган археологик қазув ишлари жараёнида тасдиқланди. Шунингдек, Г.Бонвало Шеробод йўли устида жойлашган минорага алоҳида эътибор қаратиб, унинг ёнида мадраса харобалари, карвонсарой, ҳаммомлар ва бадавлат кишилар хонадонлари жойлашганлигини қайд этади.

Шуниси қизиқки, Г.Бонвало келтирган маълумотларни 2007 йилнинг баҳорида Эски Термиз ёнидан кесиб ўтувчи Термиз - Шеробод трассасининг ўнг томонида жойлашган пахта даласидан IX- асрларга тааллуқли тўсатдан топилган қудуқ тасдиқлади. Қудуқ топилган жой Эски Термизнинг ўрта аср

работи ҳудуди ҳисобланади. Катта ўзбек трактидан 35 метр шарқда жойлашган қудуқ ҳаммомдан чиққан оқова сувларни ер остига сингдириш учун махсус қурилган. Ҳамомлар чиқинди мағзовалари ташқарисидаги қудуқларга оқизилган. Мазкур қудуқ аввал айлана шаклда 5-6 мерт чуқурликда қазилиб, тагига 2 қатор ўртача катталикдаги тош ётқизилган, сўнгра квадрат шаклидаги пишиқ ғиштдан паст қисми кенгроқ, юқори қисми торроқ қилиб терилган.

Ғиштларни ҳажми 24х24х3,5 см ва 25х25х4 см ни ташкил этади. Қудуқ оғзидан 1,40 м масофада шарқий тарафда 15 см диаметрли сопол қувур ётқизилган. Қувур қудуққа қараб нишаб қилиб ётқизилган. Қудуқнинг ғарбий тарафида эса тўғри тўртбурчак шаклидаги тарновнинг эни 26 см, тарнов йўлининг баландлиги 6 см ни ташкил этади. Қудуқнинг сақланган чуқурлиги 2,70 метр, умумий чуқурлиги тахминан 5-6 метрни ташкил этган.

Г.Бонвало маълумотларидан Эски Термиз ҳудудида ички айлана зинага эга 2 та минора бўлганлигини ҳам билиб олиш мумкин. Аммо 1900 йилда Н.Кастельский томонидан суратга туширилган фақат битта минорани биламиз. Демак, Бонвалонинг Эски Термизга 1881 йилдаги ташрифидан сўнг 20 йил ўтгач, иккинчи минора ёки қулаб тушган, ёҳуд бузиб ташланган. Ёки Г.Бонвало Зурмала минорасини назарда тутган бўлиши ҳам мумкин.

Шунингдек, Г.Бонвало Султон-Саодат ва Қирққиз тарихий обидалари қисқа тўхталиб, уларнингг ёнидаги масжид ҳақида ҳам маълумот бериб ўтади. Афтидан, Султон-Саодат ёнидаги масжидни назарда тутган бўлса керак. Бонвало ушбу масжидни Қарши ва Бухородаги масжидлар билан бир хил усулда қурилган деб ҳисоблайди. 1887 йилнинг ноябр ойида Г.Бонвало Эски Термиз ҳудудига иккинчи маротаба қайтиб келади ва ўзининг дастлабки кичик археологик тадқиқотларини ўтказади. Сўнгра, тадқиқотларини Чўчқа-Гузарда давом эттиради. Аммо тадқиқотларнинг натижасини ҳеч жойда эълон этмаганлиги туфайли ҳеч қандай маълумотга эга эмасмиз.

1890 йилда Археология комиссиясининг топшириғига кўра шарқшунос Е.Ф.Кальнинг Амударё қирғоқлари бўйлаб илмий сафарлари бошланади. Унинг йўналиши дастлаб дарёнинг чап қирғоғидаги Карки шаҳридан то афғон

ҳудудидаги Давқалъа қалъасигача, сўнгра эса Каркининг ўнг томонидан бошлаб то Сурхоннинг Амударёга қуйилиш жойигача қилиб белгиланган эди. Е.Ф.Каль томонидан Эски Термизда бир мунча жиддий археологик тадқиқотлар ўтказилиб, анча қизиқарли маълумотлар қўлга киритилган. Е.Ф.Каль ал-Ҳаким ат-Термизий қабртошининг ўлчов ишларини амалга оширади. Қабристондаги ёзувларни қисман ўқийди, суратга олади.

Маҳаллий аҳолидан 150 га яқин Юнон-Бақтрия, Скифлар, Ҳиндистон, Араб мамлакатлари ва Эронда зарб этилган мис тангаларни сотиб олади[8.1].1891 йилда Е.Ф.Каль Амударёнинг Бухоро амирлигига тегишли қирғоқларига иккинчи маротаба қайтади. Аммо малярия касаллигига чалиниб, Карки шаҳрида вафот этади. Шуниси афсусланарлики, у тўплаган буюмларнинг фақат бир қисмигина давлат Эрмитажига топширилади. Қолган қисми ҳақида аниқ маълумотлар йўқ. Эски Термизда ўтказилган археологик тадқиқотлари ҳақидаги маълумотлари аниқроғи, «Кальнинг кундалик дафтари» нинг қўлёзмаларининг 25 та фотонегативи ҳозирги кунда Термиз Археология музейининг архивида сақланиб келинмоқда.

Адабиётлар

1. З.А.Аршавская, Э.В.Ртвеладзе, З.А,Хакимов «Средневековые памятники Сурхандарьи».
2. Meyedorf, g. Yoyage d Orenburga Bouckara fait en 1820, Paris. 1826.
3. Энциклопедический лексикон т.21. СПБ, 1835
4. Генри Юль «Очекр географии и истории верховьев Амударьи». Перев. С англ. О.А.Федченко. СПБ, 1873.
5. М.Е.Массон. Указ.соч.
6. Ж.Мирзо. Термиз тарихи. 39-бет. Тошкент 2001. «Шарк».
7. А.Г.Ананьев. Орошение «Шерабадской долины» водами реки Сурхана. Ташкент, 1911. стр.18.

И.В.Мушкетов. Туркестан. Геологическое и прографическое описание по данным странным во время путешествый с 1874 по 1880 г. I.I. СПБ, 1876 г. Н.Маев, Е.Ф.Каль. (некролог) Туркистанские ведомости за 1891 г.№ 39.

МАВЗОЛЕИ КАРАХАНА, АЙША – БИБИ – КАК ВАЖНЫЙ ЦЕНТР ПАЛОМНИЧЕСТВА МУСУЛЬМАН

Косанбаев С.К.,
к.и.н., доцент Южно-Казахстанского университета им. М.О.Ауэзова,
Мулдахметова Ж.И.,
к.и.н., доцент Южно-Казахстанского университета им.М.О.Ауэзова

Казахский народ, как и соседние народы Центральной Азии, имеет богатую интересную и содержательную историю, которая насыщена важными историческими и драматическими событиями прошлого. В период господства Советской тоталитарной системы, по политико – идеологическим соображениям намеренно подавлялось рост национального, духовного и культурного самосознания народов Центральной Азии, при этом сознание граждан подверглось деградации и деформации. Возможности целенаправленного и систематического изучения актуальных и не изученных аспектов истории, этнографии и археологии Туркестанского края были в значительной мере сужены в силу господства классовых партийных структур и имперских прерогатив. История и ее смежные научные отрасли в условиях господства командно-административной бюрократической системы была вынуждена по ряду причин выполнять функцию поддержки претворяемой в жизнь партийной классовой идеологии.

Только в условиях суверенного развития народы Центральной Азии смогли заново восстановить забытые и утраченные страницы истории, культуры и быта, важнейших элементов материальной и духовной культуры. История казахского народа на нынешнем этапе времени вновь обрела новое дыхание, оттенок и глубокий смысл. Она взошла на новый качественно новый позитивный уровень своего развития.

На древней и священной земле казахов расположены немало уникальных архитектурно-монументальных памятников прошлого и старины, которые,

безусловно, имеют общенациональный характер и являющиеся национальным достоянием народа.

К сакральным и святым местам можно отнести и древнейшие монументальные архитектурно-надгробные сооружения, которые находятся на территории нынешней Жамбылской области.

К ним относятся сакральные и духовные святыни мавзолеи Карахана и Айша – Биби. Многие известные дореволюционные российские исследователи, побывавшие на территории Туркестанского края помимо этнографических заметок, касающиеся культуры и быта, занятий, хозяйства, верований, образа жизни местных народов, привели в своих заметках ценные и содержательные сведения об истории города Тараза и сакральных монументальных сооружениях.

Например, в путевых заметках известного дореволюционного российского исследователя Н.А.Маева «От Ташкента до Верного», наряду с описанием города Аулие – ата, занятии населения, приводит некоторые интересные факты и сведения, касающиеся мавзолеев Карахана и Айша-биби. Как отмечает автор: « ГородАулие – атарасположен на берегу р.Таласа в том месте, где он, выйдя из гор, разливается на рукава и мало по малу приобретает характер степной реки. Аулие – ата когда – то был большим и торговым городом, но в Средней Азии запустение и упадок иногда весьма быстро сменяют богатство и процветание. Теперь от прежнего богатства Аулие – ата не осталось и следов, людный город превратился в весьма обыкновенный киргизский базар. Только в последнее время, с водворением в здешнем крае русской власти, Аулие – ата сделался оживленнее прежнего, и население его значительно увеличилось переселенцами из разных мест Семиречья, а более всего из Коканда и Намангана. В Аулие – Ата, как почти во всех среднеазиатских городах, не осталось никаких памятников от прожитых дней. Единственная древность и вместе с тем – святыня города, есть могила Карахана (одного из потомков шейха или султана Азрета), известного в народе под именем Аулие – ата(святой отец). По его имени и сам город получил свое название. На могилу Карахана, находящуюся возле самого города, посередине довольно обширного кладбища собирается по

пятницам и в большие праздники много городских жителей, и даже в будние дни можно каждый раз встретить перед входными дверями в надмогильную часовню несколько усердных, молящихся мусульман. Могила Карахана сложена из жженого кирпича и не может похвалиться особым новшеством. Время и здесь положило единственный сохранившийся памятник древности свою тяжелую руку, рельефные изображения на кирпичах во многих местах изгладились, свод обрушился, обвалились и башенки, находящиеся по углам, над портиком. Некоторые могилы на аулие-атинском кладбище сложены из жженого кирпича, взятого из полуразвалившейся часовни Карахана, благо недалеко ходить за готовым материалом. Благочестивые горожане украсили могилу святого хана черепами баранов с огромными рогами. Эти черепа разложены рядами над входными дверями в часовню. Муллы утверждают, что часовня над могилой Карахана построена Тимуром за Таласом, верстах в семи от Аулие – Ата находится другая, чтимая местными жителями могила Тектурмас – ата. Погребенный здесь святой был начальником артиллерии у Карахана. Наконец, упомянем еще о могиле родственницы КараханаГайше – биби Она погребена в 17 верстах от Аулие – ата близ речки Асса, получившей название свое от могилы, находящееся на ее берегах. Надмогильная постройка Гайша – биби сохранилась гораздо лучше могилы Карахана. Вся она сложена из жженого кирпича, покрытых рельефными украшениями, сама кладка кирпичей образует прихотливые узоры, и кажется особенно эффективной издали, вечером, когда вся могила озарена косыми лучами заходящегося солнца. Вокруг могилы посажены деревья, так что место упокоения мусульманской подвижницы представляет весьма отрадный, тенистый уголок среди степной глади. Окрестности Аулие – ата не всегда были населены исключительно кочевыми киргизами некогда здесь жилооседлое население, оставившее во многих местах,несомненно, признаки своего пребывания» [1, с.340 – 341.].

На наш взгляд только в условиях суверенного развития Республики Казахстан с принятием и внедрением в жизнь Государственной программы «Культурное наследие» усилиями представителей научной общественности

были осуществлены научно-исследовательские работы по восстановлению и возрождению ряда уникальных архитектурно-монументальных памятников прошлого, расположенных на пересечении Великого Шелкового пути.

В другой статье «Очерки Семиреченского края (Путевые письма)» Н.А.Маев замечает: « Аулие – ата небольшой город населенный сартами не имеет никаких памятников прошлого. Единственная древность здесь могила, сложенная из жженого кирпича. Могила находится среди обширного кладбища за городом и содержит в себе останки святого, по имени Карахана, одного из потомков знаменитого мусульманского пастыря Х.А.Ясави, похоронного в Туркестане. Карахан известен в народе больше под именем святого Аулие – ата, откуда и название города. Население по пятницам и в другие праздничные дни приходят на могилу своего патрона для принесения ему усердных молитв» [2, с.63.].

Не менее интересные заметки, касающиеся истории Тараза и древнейшей святыни Карахана содержатся в публикации И.Зарубина « По горам и степям Средней Азии. Путевые заметки». Автор отмечает: « Аулие – ата довольно большой город, принадлежащий прежде Кокандскому ханству. Как и все туземные города, он имеет цитадель и обнесен стенами. В Аулие – ате находится большой базар и могила одного святого Карахана очень уважаемого киргизами и по имени которого сам город получил свое название Аулие – ата значит святой город» [3, с.644.].

Таким образом, расположенные на территории Жамбылской области мавзолеи Карахана, Айша-бибистали не только популярными среди туристов историческими памятникамиЖамбылского региона, но и местом паломничества мусульман прибывавших как из ближнего, так и дальнего зарубежья. Следует отметить, что местные жители свято почитают память об этих великих исторических личностях, их жизненные пути и многогранная деятельность во благо народа послужит ярким примером для подрастающего молодого поколения казахстанцев.

Литература

1. Н.А.Маев. От Ташкента до Верного. Путевые очерки //Туркестанский сборник Том 52. СПб, 1873. С. 341-432.
2. Н.А.Маев. Очерки Семиреченского края. Путевые письма //Туркестанский сборник Том 50. СПб, 1873. С. 63.
3. И.Зарубин. По горам и степям Средней Азии. Путевые заметки от Москвы до Кульджи //Туркестанский сборник Том 297. СПб, 1882. С. 644.

ИЗ ИСТОРИИ ПОСТРОЙКИ МАВЗОЛЕЯ Х.А.ЯССАВИ В НАСЛЕДИИ ДОРЕВОЛЮЦИОННЫХ РОССИЙСКИХ ИССЛЕДОВАТЕЛЕЙ

Косанбаев К., *д.ф.н., профессор университет «Мирас» Шымкент, Казахстан,*

Айдарбекова Г.С., *к.и.н., и.о.доцента кафедры истории Казахстана и социально-общественных дисциплин ЮКМА,*

Жуматаева Ж.А., *старший преподаватель, магистр, сектора права университета «Мирас»*

Независимый Казахстан в условиях суверенной глобализации уверенно продвигается по пути глубинного обновления и общественного прогресса. С провозглашением независимости широкий размах приобрели процессы возрождения богатейшего историко-культурного наследия народов Центральной Азии, менталитета, традиционного специфичного уклада жизни, культуры и быта, жестко подавляемых в условиях господства жесткой советской тоталитарной системы. При этом на наш взгляд, пристальное внимание уделяется исследованию глубинных исторических корней, прошлого, важнейших элементов как материальной, так и духовной культуры народов Центральной Азии, которые, безусловно, служили главным звеном в преемст-венности поколений, что определяли богатство, специфику, национальный колорит,

этническое своеобразие, мироощущение и мировоззрение древнейших наследников Великой степи.

В обеспечении задач духовного наследия, восстановления утраченных и фальсифицированных национальных страниц истории того или иного народа, принципиальное значение имеет системное исследование важнейших объектов материальной культуры казахского народа, в частности древнейших мавзолеев, гробниц, курганов, которые на протяжении всей многогранной истории того или иного народа являлись национальным достоянием казахского народа.

В своей глубоко взвешенной научно- аргументированной публикации Первый Президент Казахстана Н.А.Назарбаев «Взгляд в будущее: модернизация общественного сознания», касаясь истории зарождения священных и сакральных мест и святынь, отмечает: « У каждого народа, у каждой цивилизации есть святые места, которые носят общенациональный характер, которые известны каждому представителю этого народа. Это одно из оснований духовной традиции. Для Казахстана это особенно важно. Мы огромная страна с богатой духовной историей. Иногда наши размеры играли разную роль в истории, но никогда в народе не прерывалась связь в этом духовном географическом поясе. Однако при этом за всю историю мы не создали единое поле, единую цепочку этих важных с точки зрения культуры и духовного наследия святых мест. Вопрос даже не в реставрации памятников, зданий, сооружений. Вопрос в том, чтобы увязать в национальном сознании воедино комплекс памятников вокруг Улутау и мавзолея Х.А. Яссауи, древние комплексы Восточного Казахстана и сакральные места Семиречья» [1].

На наш взгляд, оценки Елбасы Н.А.Назарбаева вполне обоснованы, правдивы и соответствуют историческим реалиям действительности, ибо духовные и культурные связи народов Центральной Азии, в частности казахов и узбеков не прерывались ни при каких либо обстоятельствах, а наоборот обогащались и совершенствовались и приобретали более обновленную окраску и смысл.

Многие видные дореволюционные российские исследователи придерживавшихся демократических принципов при исследовании культуры и быта, истории того или иного народа, а также замечательных историко-архитектурных памятников старины, оставили весьма заметный след в мировой истории.

В многотомном собрании сочинений народов Центральной Азии известной в истории под заглавием «Туркестанский сборник» помещены ряд содержательных и интересных статей ряда российских исследователей Туркестанского края, где приводятся любопытные факты и сведения, касающиеся истории зарождения ряда монументальных архитектурных памятников старины и прошлого народов Центральной Азии. Интересные и содержательные заметки и наблюдения об истории постройки мавзолея Х.А.Яссауи содержатся в публикациях Д.Борзна, В.В.Верещагина, И.Зарубина, А.И.Добросмыслова и многих других.

Так, например, известный дореволюционный российский исследователь Д.Борзна отмечает: « Мечеть построена еще при Тамерлане из жженого кирпича, при ней находится гробница, в которой погребена будто бы дочь Тамерлана. Гробница сложена из жженого кирпича и снаружи расписана красками и узорами в восточном стиле» [2, с. 33].

Аналогичные сведения приводятся в работе и другого не менее известного российского исследователя В.В.Верещагина «От Петербурга до Ташкента», в котором автор сообщает любопытные факты и сведения, касающиеся истории застройки мавзолея Х.А.Яссауи. Автор пишет: « В Туркестане находится замечательная громадная мечеть, выстроенная в мусульманском стиле, в ней похоронен один из наиболее чтимых сартами (правильнее узбеками – авторы) святых Х.А.Яссауи, к его могиле приезжают на поклонение из отдаленных мест» [3, с. 258].

Мы считаем, что национальная духовная святыня мавзолей Х.А.Яссауи является национальным пантеоном, местом паломничества тюркских народов.

В публикации И.Зарубина « По горам и степям Средней Азии» также встречаются некоторые исторические факты и сведения, касающиеся этой легендарной личности, оставившего глубокий и неизгладимый след в мировой истории. Автор замечает: « В Туркестане находится мечеть Азрета, по имени которой сам город называется Азрет Султан. Она существует 500 лет и построена Тимуром в честь святого Х.А.Яссауи. После Накшбанди это второй национальный святой Туркестана и могила его, находящаяся тут же очень почитается киргизами (правильнее казахами – авторы) [4, с. 635].

Мы целиком и полностью разделяем точку зрения автора, и считаем, что мавзолей Х.А.Яссауи существовавшего на протяжении длительного времени играл весьма заметную роль в истории народов Центральной Азии.

Другой российский исследователь А.И.Добросмыслов в своей работе « Города Сырдарьинской области: Казалинск, Перовск, Туркестан, Аулие – Ата и Чимкент» также приводит интересные факты об истории этого уникального памятника старины. Как пишет автор: « Небольшое селение Ясы, получило особую известность в XII веке, когда здесь появился святой, глубокочтимый народом и до сих пор. Шейх Х.А. Яссави был последователем шейха Наджмеддина Кубра, основателя суффийского ордена Кубреви, существующего и до сих пор. После смерти Яссави умер в 1166 – 1167 г.г. его могила сделалась предметом паломничества тюркских племен. Рассказы о подвигах святого и чудесах на его могиле с течением времени начинают привлекать сюда не только простой народ, но и торговый люд. Так в 1397 году знаменитый Тимур посещает Яссы и приказывает над могилой святого построить громадную мечеть» [5, с. 576].

Выдающийся казахский поэт и писатель М.Б.Жумабаев в своем духовно-поэтическом произведении «Туркестан» особо отметил силу, единство, мужество, отвагу и духовное единство народов Центральной Азии. В ней он отразил любовь тюркских народов к родному краю, яркие светлые черты характера и менталитета тюркских народов, которые позволили им сохранить национальную честь и достоинство.

Таким образом, в заключение статьи особо хотелось бы отметить роль и заслугу ряда российских исследователей, которые на протяжении всей своей сознательной жизни изучали и исследовали тернистый путь и деятельность ряда средневековых гуманистов-энциклопедистов Средневекового Востока и их роль и место в мировой истории. Безусловно, средневековые и позднесредневековые архитектурные памятники прошлого, являющиеся национальным достоянием каждого народа будут исследоваться и в будущем молодыми и перспективными исследователями, которым будет не чужда история и судьба своего народа.

Литература

1. Н.А.Назарбаев Взгляд в будущее: модернизация общественного сознания» // Казахстанская правда 12.04.2017.
2. Д.Борзна От Оренбурга до Ташкента // Туркестанский сборник том 7. СПб, 1869. С. 33.
3. В.В.Верещагин От Петербурга до Ташкента // Туркестанский сборник том 7. СПб, 1869. С. 258.
4. И.Зарубин По горам и степям Средней Азии // Туркестанский сборник том 297. СПб, 1882. С. 635.
5. А.И. Добросмыслов Города Сырдарьинской области: Казалинск, Перовск, Туркестан, Аулие – Ата и Чимкент //Туркестанский сборник том 590. Ташкент, 1917. С. 576.

АСАРИ “АЛ-КАМИЛ ФИ-Т-ТАЪРИХ”-И ИБНИ АСИР

Ҳомидзода Олимҷон, *омӯзгори кафедраи фанҳои ҷамъияти ва ҳуқуқи ДОТП Тоҷикистон*

Яке аз асарҳои муҳими таърихи Халифат ва давлатҳои мусалмонӣ ин асари Абулҳасан Алӣ ибни Муҳаммад ибни Муҳаммад ибни Абдулкарим ибни Абдулвоҳиди аш-Шайбонӣ мебошад, ки бо номи Иззуддин Ибни Асир ал-Ҷазарӣ машҳур буда, “Ал-Комил фи-т-Тарих” ном дорад. Иззуддин Ибни Асир ал-Ҷазарӣ 13 майи соли 1160 (рӯзи чоруми моҳи ҷимод ул-аввал, с 555ҳ) дар ноҳияи Ҷазират Ибни Умар, дар болооби дарёҳои Даҷла ва Фурот таваллуд шудааст[1]. Падари Ибни Асир Абдулкарим Муҳаммад ибни Муҳаммад ибни Абдулкарим

ибни Абдулвоҳид Аш-Шайбонӣ як мақоми баландпояи давлати Зангӣ дар Мосул буд ва аз номи вазири Мосул ҳокими Ҷазират Ибни Умар буд. Илова бар хидмати давлатӣ, падари муаррихи бузург як савдогари сарватманд буд ва дар Қаср ал-Ҳарб, дар ҷануби Ҷазира ва Мосул, ба замин ва моликияти калон молик буд. Маълум аст, ки Абдулкарим Муҳаммад се писар дошт. Онҳо дар ҷаҳони Ислом ҳамчун олимони бузург ва машҳур шӯҳрат доштанд. Дар байни онҳо Иззуддин Ибни ал-Асир ҳамчун писари миёна дар соҳаи таърих, бародари калониаш Абӯсаъодат ал-Муборак ибни Муҳаммад ал-Ҷазарӣ-Маҷдаддин (544/606ҳ/1149/1210м) шореҳ, ҳуқуқшинос, муҳаддис ва олими наҳвӣ забони арабӣ буд. Муҳаммад ал-Ҷазари-Зиёвуддин (558/637ҳ/1163/1239м) ҳамчун нависанда ва филолог машҳур гаштааст. Инчунин маълум аст, ки Зиёвуддин ал-Ҷазарӣ дар қасри Алӣ ибни Носир ал-Афзал, ҳокими Димишқ ба ҳайси вазир хидмат кардааст[2].

Ибни ал-Асир бо аҳли оилааш ба Мосул кӯчид ва дар ҳузури хатиби Мосул Абулфазл Абдуллоҳ ибни Аҳмади Тусӣ дониш ва ҳадиси ибтидоиро омӯхт. Ибни Ал-Асир дар 21-солагӣ аз Ҳаҷ ба Мосул баргашт, то дар Бағдод ҳадис омӯзад. Вай ҳамчун фиристодаи махсуси ҳокими Мосул якчанд маротиба ба Бағдод ташриф овард ва дар ин сафарҳо фиқҳро дар ҳузури Абулқосим Яшаъ ибни Садақа, Абу Аҳмад Абдулваҳҳоб ибни Алӣ ас-Сӯфӣ омӯхт[3]. Дар Сурия маълум аст, ки ӯ дар дарсҳои Зайнул Усмон иштирок кардааст[4].

Ибни Ал-Асир барои дарёфти дониш ба саросари Ироқ, Сурия, Фаластин ва Ҳиҷоз сафарҳои зиёде кардааст. Соли 581ҳ/1185/86м, вақте ки ӯ дар Мосул буд, Султон Салоҳуддин бори дуввум ба ин шаҳр раҳпаймоӣ карда ва соли 584ҳ/1188/89м, дар синни 28-солагӣ, муаррих бо роҳбарии ин султон дар ҷангҳои зидди салибдорон бо масеҳиён дар Сурия ва Фаластин ширкат варзид. Соли 590м/ 1193-94м Ибни Асир дар Димишқ буд. Вақте ки ӯ ба Мосул баргашт. Ибни Ал-Асир ба ривояти ҳадисҳо машғул буд, адабиёт меомӯхт ва асарҳои илмӣ менавишт. Вай инчунин муддате дар Каср ал-Ҳарби Мосул вазир шуда, вазифаҳои муҳимро иҷро мекард ва бо мақомоти ҳукуматӣ ва мансабдорони Бағдод мулоқот мекард. Дар охири ҳаёташ Ибни Асир як муддат дар Ҳалаб ба

ҳайси меҳмони фахрӣ дар қасри Шаҳобуддин Туғрул ал-Ходим Отабек Малик ат-Ташавӣ, мири шаҳр зиндагӣ мекард. Маълум аст, ки дар ин давра Ибни Асир бо муаррихи бузург Ибни Халиқон (вафот 681х/1282/83м) вомехӯрад. Дар ин вақт, Ибни Халиқон 18-сола буд ва ӯ изҳор дошт, ки Ибни Асир таърихшинос ва диншиноси комил аст. 627 / 1229-30 Ибни ал-Асир аввал ба Димишқ, баъд аз як сол ба Ҳалаб ва сипас ба Мосул меояд. Ҳангоми дар Ҳалаб буданаш ӯро географ ва филологи машҳури араб Ёқут ал-Ҳамавӣ (ваф. 626 / 1228-29) пешвоз мегирад. Ёқут ал-Ҳамавӣ аз Ал-Асир хоҳиш кард, ки пас аз маргаш китобхона ва дастхатҳои худро ба Бағдод интиқол диҳад. Ибни ал-Асир бо сабабҳои номаълум иҷрои васияти Ёқутро иҷро карда натавонист, 25-уми Шаъбон 630/6ҳ июни соли 1234м дар синни 75-солагӣ вафот кард. Гарчанде ки Ибни Асир муҳаддис ва донишманде буд, ки насабномаи арабҳоро комилан медонист, аммо Ал-Комил фи-т-Тарих дар байни мероси илмӣ, ки ӯро дар ҷаҳони илм машҳур кардааст, мавқеи хоса дорад. Илова бар ин асар, Ибни Асир инчунин "Таърих Атобекӣ ал-Мосул" (Таърихи Мосул Отабекҳо) ё "Таърих ад-Давлат ал-Атобекия" (Таърихи давлати Отабекҳо)-ро навиштааст. Якчанд дастхатҳои ин асар боқӣ мондаанд ва дар Миср нашр шудаанд. Ба гуфтаи коршиносон, ин манбаъ дар омӯзиши таърихи давлати Мосули Зангӣ манбаи аввалия мебошад. Асар дар асоси маълумоти Ибни Асир ва падари ӯ, ки бо забони шоҳидон ва иштирокчиёни ҳодиса навишта шудааст, таҳия шудааст. Профессор Шамсиддин Камолиддинов пешниҳод мекунад, ки Ибни Асир шояд асарро бо амри ҳокимони Мосул навишта бошад.

Ибни ал-Асир инчунин ба Тарих ал-Мосул (Таърихи Мосул)-и нотамом нисбат дода мешавад. Илова бар ин, Ибни Асир Абӯсаъд Адулкарим ибни Муҳаммад ас-Саъмонӣ (506/562х/1113/1162м) маълумоти ҳаштҷилдаи Китоб ал-Ансоб (Китоби Насабҳо)-ро дар се ҷилд ҷамъбаст кардааст[4]. фи таҳзиб ал-ансоб ”(Поксозӣ дар ислоҳи таносуб). Сипас, ӯ инчунин баъзе хатоҳо ва камбудиҳои Ас-Самъониро ислоҳ кард. Ин асар дар моҳи ҷимод-ул-аввали 615ҳ / июл-августи 1218м ба итмом расид ва нусхаҳои он замон ба таври васеъ паҳн карда шуданд. Ибни Халиқон қайд кард, ки ин хулоса нисбат ба нусхаи

ҳаштҷилдаи Самъонӣ бештар паҳн шудааст. Соли 873ҳ / 1468-69м муаррих ва филологи дигари араб Ҷалолуддини Суютӣ (ваф. 911/1505) китоби Ибни ал-Асир “Ал-Лубоб”-ро ба як ҷилд кӯтоҳ кард ва онро “Луб ал-Лубоб” (Қалби поксозӣ) номид. Асарҳои Ибни Асир ва Суютӣ то замони мо расидаанд ва нашр шудаанд.

Асари дигари Ибни ал-Асир Усуд ал-Ғоба фи Маърифати-с-саҳоба (Шерони ҷангал дар шинохти асҳоб) ё Усуд ал-Ғоба фи Асмо ус-саҳоба (Шерони ҷангал дар номҳои саҳобаҳо) ё Ахбор ас-Саҳаба ”(Паёмҳо дар бораи саҳобаҳо) ва аз шаш ҷилд иборат аст. Ин асар ба мо низ расидааст ва дар бораи 7554 ҳамсафар маълумот дорад. Асар дар Миср чоп шудааст (Ал-Қоҳира: Дор уш-Шаъб, 1970м).

Асари Ибни Ал-Асир (ал-Ҷомиъул-кабир) (Маҷмӯаи бузург), ки ба илм-ул-баён ва илм-ал-балоға бахшида шудааст ва Туҳфат ул-аҷоиб ва турфат ул-ғароиб, ки ба рӯйдодҳои ҷолиби замони худ бахшида шудаанд (Тӯҳфаҳои аҷоиб ва тӯҳфаҳои аҷоиб) то мо низ расидаанд.

Тавре ки дар боло ишора рафт, машҳуртарин асари Ибни “ал-Асир Ал-Комил фи-т-Тарих” аст. Муаллиф қисми асосии ин асарро дар зодгоҳаш Қаср ул-Ҳарб навиштааст. Дар ин ҷо китобхонаи калон ва бойи Ибни ал-Асир мавҷуд будааст. Тибқи баъзе хулосаҳо, муаллиф ба навиштани асар дар солҳои 595ҳ / 1198-99м шурӯъ кардааст ва қабл аз он «Ал-Мустақса фи-т-таърих» (китоби омӯзиши таърих) ном дошт.

Ҳашт ҷилди "Таърихи комил" асарест дар бораи таърихи ҷаҳонӣ, ки дар шакли хроника тартиб дода шудааст. Асар таърихи хилофати араб ва тамоми кишварҳои исломиро аз "офариниши олам ва инсон" то 628м/ 1230-31м дар бар мегирад ва "намунаи дурахшон ва марҳилаи олии таърихнигории солномаҳои мусалмонӣ" дониста мешавад. Агар географи машҳур Ёқут Ҳамавӣ "Муъҷам ул-булдон" (луғати кишварҳо) маҷмӯаи тамоми иттилооти ҷуғрофии замони худ бошад, "Ал-Комил фи-т-таърих" -и муосираш Ибни ал-Асир маҷмӯаи адабиёти таърихист. Ибни Халиқон гуфт, ки “Ал-Комил фи-т-Тарих” яке аз маъруфтарин асарҳои таърихи ҷаҳони ислом аст.

Академик В.В. Бартольд арзиши осори Ибни Асирро ситоиш карда, қайд кард, ки ӯ бо як сатҳи баланди виҷдонӣ ва муносибати танқидӣ амал мекард, ки он вақт дар раванди ҷамъоварии маълумот барои асарҳояш кам мушоҳида мешуд. Муаррих ҳардуяшро бо душворӣ овардааст, ки кадоме аз ин ду ақидаи мухолифро дар асараш оварад. Ғайр аз ин, Ибни ал-Асир дар бораи фарҳанги халқҳои Шарқ маълумот медиҳад, на танҳо бо тавсифи рӯйдодҳои сиёсӣ, он тавсифи дақиқи ғояҳо ва арзишҳо, шахсиятҳои таърихӣ ва нависандагонро, ки дар давраҳо ва давраҳои гуногун ҳукмфармост, пешниҳод мекунад.

Асари Ибни Асир дар асоси ҳама ёдгориҳои хаттӣ, ки дар замони худ маълуманд, асос ёфтааст ва доираи васеи маълумоти таърихиро аз маъхазҳои арабӣ ва мусулмонӣ дар бар мегирад. Аз ҷумла ҳафт ҷилди аввали осори Ибни ал-Асир, яъне давраи пеш аз ислом ва таърихи се асри аввали исломро Абӯҷаъфар Муҳаммад ибни Ҷарир ат-Табарӣ (вафот 310/923) дар китоби худ «Тарих ар-русул ва-л-мулук» навиштааст. (Таърихи Паёмбарон ва Подшоҳон) ё "Таърихи Табарӣ", (давра то 302 ҳиҷрӣ). Аз ин рӯ, ба гуфтаи олимони ҳарду асар дар давраи аввали таърихи ислом сарчашмаи муҳим мебошанд.

Дар ҳоле ки ат-Табарӣ дар асари худ бо такрори маълумоти ҳама муаллифон бидуни равиши интиқодӣ маҳдуд шудааст, Ибни Асир маълумоти худро дубора коркард ва ҷамъбаст намуд, бо маълумоти манбаъҳои дигари ба мо нарасида илова намуд. Чунин замима ва маълумоти дақиқ дар таърихи Осиёи Марказӣ, Миср, Африқои Шимолӣ ва Испания мебошанд.

Аз ҷумлаи манбаъҳои осори Ибни Асир асари таърихнигори маъруфи Бағдод Аҳмад ибни Яҳё ибни Ҷобир ал-Балазурӣ (ваф. 279/892) «Аннсаб ал-ашраф» (насабномаи шарифон) мебошад.

Ибни ал-Асир дар таълифи таърихи Хуросон ва Мовароуннаҳр аз нимаи дуюми асри VII то миёнаи асри X аз китоби Абулҳусайн Алӣ ибни Аҳмад ас-Салламӣ «Таърихи музофотҳои Хуросон» (таърихи ҳокимони Хуросон) васеъ истифода кардааст. Ас-Саломӣ яке аз хешовандони Абубакри Чағонӣ, яке аз амалдорони Сомониён ва писари ӯ Абӯалӣ буд ва дар асари худ ҳодисаҳоро то соли 344ҳ/955м, яъне рӯзи марги Абӯалӣ нақл мекард.

Ибни Ал-Асир дар бораи таърихи Саффориён аз китоби Абӯабдуллоҳ Муҳаммад ибни ал-Азҳар ал-Аҳбарӣ (ваф. 325 / 936-37) маълумот ба даст овардааст, ки ба ҷуз аз асари Салламӣ ба мо нарасидааст, аммо онро Ибни Халиқон низ истифода кардааст. Сарчашмаҳои дигаре, ки Ибни ал-Асир дар таърихи комилаш истифода кардааст, маълум нест, зеро муаллиф зикр накардааст.

Маълумот дар асари Ибни Асир аз асри X то ибтидои асри XIII аҳамияти махсус дорад. "Ҳангоми навиштани таърихи ин давра ӯ тавонист қариб ҳамаи иловаҳоеро, ки ба осори “Ат-Табарӣ” ва асарҳои таърихии маҳаллӣ ворид карда шудаанд, истифода барад”.

Таърихи Ибни ал-Асир комил аст манбаъи муҳимтарин ва ибтидоӣ дар давраи ҳуҷуми Хоразмшоҳ ва Муғул мебошад. Охир, муаллифи он дар ин давра зиндагӣ карда, шоҳиди бевоситаи бисёр воқеаҳо будааст.

Ин давра дар ду асари дигари арабӣ-Шиҳобуддин Муҳаммад ибни Аҳмад ан-Нисавӣ (ваф. 647х/1249м) "Сирот ас-султон Ҷалолуддин Манкуритӣ" ва Минҳоҷиддин Абу Умар Усмон ибни Муҳаммад ал-Ҷузҷонӣ (вафот 658х/1250м) инъикос ёфтааст. танҳо дар Табақоти Носирӣ омадааст.

Ибни ал-Асир қайд мекунад, ки ӯ тафсилоти баъзе рӯйдодҳоро тавассути хабарнигоронаш ба даст овардааст. Вай як фақеҳ аз Бухоро, як савдогар аз Хоразм (12 ҷ., С. 170), Дакук (с. 196), хизматгори Абӯбакри Тоҷиддин, яке аз амирони Алоуддин Муҳаммад ибни Текеш (саҳ. 139) ва сайид аз Мадина буд. (С. 171) ва дигарон.

Асари Ибни ал-Асир "Ал-Комил фи-т-таърих" дар омӯзиши масъалаҳои хусусӣ ва умумӣ аҳамияти махсус дорад, гарчанде ки он дар фарогирии таърих то асри X аҳамияти маҷмӯӣ дорад. Аз нимаи дуюми асри X то миёнаи асри дувоздаҳум муаррих Ибни Асир сарчашмаҳои зиёдеро истифода бурд, ки ба мо каме маълуманд ва ё то ба мо нарасидаанд. Эҷоди Ибни Асир дар фарогирии давраи аз нимаи дуюми асри дувоздаҳум то 1230м/1231м ҳамчун манбаи асосӣ хидмат мекунад ва бо асолати маълумот ва маълумоти худ фарқ мекунад.

Асари Ибни Асир ал-Ҷазорӣ "Ал-Комил фи-т-таърих" дар илм ҳамчун дастнавис ва литография, бо тарҷумаҳояш бо забонҳои гуногун машҳур аст.

Дастнависҳои асар дар китобхонаҳо ва хазинаҳои гуногун маҳфузанд. Матни пурраи илмӣ-интиқодии асар соли 1851/1876м нашр шудааст. Матни арабии асар низ дубора чоп шудааст. Тарҷумаи пурраи асар ба забони қадимаи ӯзбекӣ аз ҷониби гурӯҳи тарҷумонҳо дар солҳои 1901/1907 бо фармони хони Хива Муҳаммад Раҳимхон Сонии Феруз тарҷума шудааст. Нусхаҳои дигар ва тарҷумаҳои асар дар фонди Академияи илмҳои Ӯзбекистон нигоҳ дошта мешаванд (№ № 824, 825, 6679/6802, 7290/7294, 7423/7425).

"Таърихи комил"-и Ибни Асир бо фармони хони Хива Муҳаммад Раҳимхон Сонӣ (1321 / 1903-04 - 1325 / 1907-08) тарҷума шудааст. Сипас ҷилди аввал аз ҷониби Нуруллоҳ Муфтӣ Эшон Хиваҷӣ ва Мулло Муҳаммадшариф Охунд (1321 / 1903-04) чоп шудааст; ҷилди дуввум аз ҷониби Муҳаммадрафӣ ибни Нуруллоҳ Маҳдуми Хоразмӣ (17 Рабиъ ус-сонии 1322/1 июли соли 1904) чоп шудааст; ҷилди сеюми мулло Убайдуллоҳи махдум (тақрибан дар ҳамон давра); ҷилди чоруми Домулло Худойбердӣ maxdum (тарҷумаи 3 зу-л-қаъда 1325/8 декабри соли 1907); ҷилди панҷуми Домулло Муҳаммадяқуб охунд Бешариқлиқ ибни Дӯстмуҳаммади Сӯфӣ (тарҷума аз зу-л-қаъда 1321м / январ-феврали 1904 ва ба итмом расонидани Ҷумъодул-аввал 1322м / июли соли 1904); ҷилди шашумро Мулло Отаниёз ибни Хоҷа Ниёз (1322м / 1904-05м, котиб Домулло Отаҷон ибни Муҳаммадкарим) тарҷума кардааст; ҷилди ҳафтуми Домулло Ибодуллоҳ Хоҷа Оқсунд ва Домулло Аллоҳберган ибни Домулло Муҳаммадризо (рабиъул-аввол 1325м / апрели 1907м); ҷилди ҳаштумро Домулло Ибодуллоҳхоҷа ибни Иваз Хоҷа ибни Бобо Хоҷа тартиб додааст (1907/1909м). Тарҷума бо фармони хон Ато Ниёз Охунд ибни Амон Ниёз Сӯфӣ ибни Нурмуҳаммад Сӯфи Хоразмӣ, муҳаррир Домулло Сайид Ниёз ибни Мулло Муҳаммадяъқуб) бо матни аслӣ муқоиса карда шуд; ҷилди нӯҳум Домулло Ҳабибуллоҳи Хиваҷӣ (котиб ва муҳаррир Домулло Рузмуҳаммади Хоразмӣ. 1324 / 1906-07); ҷилди даҳумро Мулло Ҷумъа Ниёз чаҳорум мухаррами 1322/21 марти соли 1904 тарҷума карда, соли 1323 / 1905-06 ба итмом расонидааст. Домулло Вайс Ниёз ибни Абдалниёз тарҷумаи ҷилди ёздаҳумро дар 7-уми рабиъул-аввали 1325м/20 апрели соли 1907 оғоз карда, онро 28-уми ҷумъаи ас-сонии 1326/28

июли соли 1908 таҳрир ва нусхабардорӣ кардааст. Ҷилди дувоздаҳуми асар аз ҷониби Домулло Отаҷон хоҷа махдум ибни Домулло Қаландар охунд Хоразмӣ навишта шудааст. Вай тарҷумаро соли 1323 дар моҳи Рамазон / ноябри соли 1905 ба итмом расонид.

Ин асар яке аз маъхазҳои муҳимтарин ва ибтидоӣ дар омӯзиши таърихи Салҷуқиён ва Хоразмшоҳҳо ва ҳуҷуми муғулҳо мебошад. Дар хонигарии Хева вақти он расидааст, ки Муҳаммад Раҳимхон фавран тарҷумаи "Таърихи Комил" - ро, ки бо фармони "Фируз" сохта шудааст, тарҷума ва нашр кунад.

Kitobxo

1. Ибн Халликан. Вафайат ал-аъйан ва анбаъ абнаъ аз-заман. Джилд 3. – Байрут: Дар Садир. – С. 349.
2. Ибн ал-Асир. Ал-Комил фи-т-тарих. Полный свод истории. Перевод с арабского языка, примечания и комментарии П.Г. Булгакова. Дополнения к переводу, примечаниям и комментариям, введения и указатели Ш.С. Камалиддинова. – Ташкент: Узбекистан, 2006. – С. 9. Ибн Асир дар асоси маълумотҳои аз кисми муқаддимаи нашршуда гирифта шуд, муаллифаш Ш. Камолиддин.
3. Муфассал нигаред: Ibn al-Athir. / The Encyclopedia of islam. New edition. I-VI volumes. – Leiden: E.J. Brill. 1960-1986. Vol. III. – P. 724.
4. Ibn al-Athir. / Islam Enciklopedisi. – Istanbul, jild 5. – S. 852.
5. Ибн ал-Асир. Ал-Комил фи-т-тарих. Полниый свод истории. – С. 8.
6. Brockelman C. Ceschichte der Arabishen Literature. I SB. – Leiden, 1937. – S. 587-588.
7. Ибн ал-Асир. Ал-Комил фи-т-тарих. Полный свод истории. Введение – С. 11/12.
8. Ибн ал-Асир. Ал-Комил фи-т-тарих. Полный свод истории. Введение – С.16.
9. Нигаред: Ibn al-Athiri Chronicon quod perfectissimun insribiur / Ed. C.J. Tornberg. Vol. I-XIV. Upsaliae et Lugduni Batavorum, 1851-1876.
10. Нигаред: СВР. Т.1. Ташкент, 1954. – №№ 10-18. СВР (История). – Ташкент: Фан.

НАДГРОБНЫЙ ПАМЯТНИК КОЗЫ-КОРПЕША И БАЯН – СУЛУ КАК ВАЖНЫЙ ЦЕНТР ПАЛОМНИЧЕСТВА

Джолдыбаев Ж.Т., *к.и.н., доцент кафедры «История Казахстана» ЮКУ им. М.Ауэзова*

Смена в Республике Казахстан политико-идеологического режима в конце 1990-х годов придала на наш взгляд, значительный положительный импульс росту и возрождению национального и духовного самосознания народов Центральной Азии, и в том числе казахского народа, открыла широкие возможности для восстановления богатейшего историко-культурного развития, позволила центральноазиатским исследователям провести широкомасштабную и комплексную работу по систематизации, обобщению значительного пласта разнообразных аутентичных первоисточников, касающиеся важнейших сторон жизни и общества того или иного народа. В этой связи на данном этапе времени история тюркских народов приобрело новое очертание, смысл и значение.

С внедрением в жизнь государственной программы «Культурное наследие» разработанной и внедрением в жизнь в 2004 году в Республике Казахстан активизировалась научно-исследовательская работа по выявлению и реставрации ряда уникальных памятников и мавзолеев прошлого и старины, которые к сожалению в условиях господства жесткой советской тоталитарной системы не получили в достаточной степени научного освещения ввиду господства в советской историографии классово-партийных подходов.

Как неоднакратно отмечал Первый Президент Республики Казахстан Н.А.Назарбаев на территории современного Казахстана сосредоточены не мало уникальных и малоизученных памятников прошлого, которые вызывают значительный познавательный интерес у представителей казахстанской и мировой зарубежной общественности. Многие видные дореволюционные российские исследователи уделяли в своих публикациях изучению места локализации того или иного памятника прошлого, его роли и места в мировой истории.

Так, например, известный дореволюционный российский исследователь П.Галицкий в своей статье « От Семипалатинска до укрепления Верного» отмечает: « В 90 верстах от Сергиополя, между пикетами Кызыл-Кивским и Малым Аягузским на возвышенном месте над рекой Аягузом замечателен памятник Баян – Сулу и Козу-Корпеч. Он сложен из черноватого плитняка вышиной примерно 6 сажень, имеет вид четырехстороновой пирамиды. В это памятник с одной стороны есть отверстие, войдя в которое можно видеть признаки могилы. С наружной стороны к стенам памятника прикреплены три статуи, высеченные из плит желтоватого камня. Статуи разбиты одни пополам, а другие с отбитыми частями» [1,с.264.].

Как отмечает известный французский исследователь И.А.Кастанье: «Памятник Козу-Корпеч и Баян – Сулу» сложен из каменных плит на глине и по своему устройству точно такой же, как и памятник Денгек вход в него находится с юго-западной стороны. Размеры его следующие: высотой от 17-18 аршин шириной в одну сторону, 7 аршин другую, 6 аршин с западной стороны памятника – окно свод внутри обмазан глиной, здесь же виднеются палки с навешанными на них разными тряпками и конскими хвостами – приношения богомольцев киргиз» [2,с.46.].

Большая часть памятников особенно тех, которые построены на могиле святых, породили в народной среде массу легенд, где отражается психология, характер и менталитет наших предков. Из самых известных на наш взгляд, следует отметить легенду, так часто описываемую о Козы – Корпеше и Баян – Сулу. Как отметил вышеуказанный автор И.А.Кастанье: « Надгробный памятник Козы-Корпеш и Баян – Сулу возвышается в Семиреченской области, Кызылтам,Кызылмола, Хорхут-ата, Хорасан – ата и Кармакчи-ата в Перовском уезде Сырдарьинской области. Надгробные степные памятники служат предметом настоящего религиозного почитания со стороны киргиз. Каждый киргиз, проезжая мимо таких могил, спускается с лошади и начинает читать молитву в честь духов святых предков. Что же касается до клочков материй тоже многочисленных, они отрываются кочевниками от собственной одежды.

Известно, что вывешивание тряпок клочьев волос и прочих предметов на могилах или на деревьях вблизи священных мест, имеет символическое значение» [3,с.48-49.].

На наш взгляд, автор, безусловно, прав в своей взвешенной научно-аргументированной оценке. Следует лишь добавить, что эти яркие ментальные черты характера кочевников как особое почитание душ умерших предков, ушедших в иной потусторонний мир, встречаются и у других тюркских народов.

В 1986 году на страницах сборника «Средневековые Южные города Казахстана» была опубликована интересная и содержательная статья известного казахстанского археолога М.Кожаева « Памятник Козы-Корпеш и Баян – Сулу», в ней он приводит интересные факты и сведения, касающиеся истории ее постройки, места локализации и.т.д. Как пишет автор: « Этногенетические связи, экономические подъемы, культурные контакты, религиозные движения и многое другое отразилось в памятниках зодчества. Однако история архитектуры Казахстана разработано мало и о возрасте мазаров говорить пока что трудно. Даже самый популярный памятник мавзолей казахских Ромео и Джульеты Козы – Корпеш и Баян – Сулу в Прибалхашье ученые датируют где –то между VIII – XVI вв. Памятник Козы-Корпеша и Баян – Сулу расположен в 5 км от села Тансык Аягузского района Семипалатинской области, квадратное в плане сооружение из каменных плит с единственным входом на северо-восток. Оно утратило свой первозданный вид, еще до революции верхушка памятника был сбита артиллерийским снарядом, а производившие в 1970 году археологи реставрацию заново переложили верхнюю часть, установили жестяной полумесяц, произвели внутреннюю штукатурку и побелку» [4,с.152-153].

Ка справедливо отмечает М.Кожаев еще до сих среди ученых идут споры и дискуссии по поводу периода ее постройки. Так, например, если академик А.Х.Маргулан относит строительство здания к VIII – X в, то М.М.Мендикулов к XV – XVIв, а Г.Г.Герасимов к XII – XV вв.

Таким образом, предстоит осуществить огромную и трудоемкую работу по поиску новых раннее неизученных материалов из архивохранилищ Москвы,

Санк-Петербурга, Алматы и Ташкента, где будут содержаться уникальные факты и сведения, касающиеся даты времени ее постройки.

М.Кожаев отмечает, что памятник Козы – Корпеша и Баян – Сулу вовсе не мавзолей, где погребены покойники, а поминальное сооружение типа древнетюркских храмов.

Иными словами, следует отметить, что в условиях суверенного развития, с ростом и возрождением исторической памяти, прошлого и действительной реальной панорамы, стало возможным провести широкомасштабные и комплексные исследования на священных и сакральных местах Казахстана, выявить и систематизировать источники и факты, касающиеся уникальных монументальных архитектурных памятников, гробниц и мавзолеев. Несмотря на трагическую гибель главных персонажей лирико-эпической поэмы Козы-Корпеш и Баян – Сулу, их имена навечно вписались в историческую летопись казахского народа, а заслуги перед своим Отечеством послужат неподражаемым примером для будущего поколения.

Литература

1. П.Галицкий От Семипалатинска до укрепления Верного // Туркестанский сборник том 7. СПб, 1869. С. 264.
2. И.А.Кастанье Надгробные сооружения киргизских степей // Туркестанский сборник Том 555. Ташкент, 1917. С. 46.
3. Там же. С. 48-49.
4. Средневековые города Южного Казахстана. Сборник статей. Под редакцией У.Х.Шалекенова. Алма-Ата, 1986. С. 152 – 153.

ШАҲАР ИЧИДАГИ ШАҲАРЧА

Темиров Фаррух Умедович,
БухДУ доценти., т.ф.ф.д (PhD)

Бухоро – асрлар давомида жаҳон тамуддуни хазинасига муносиб ҳисса қўшиб келаётган дунёнинг етти шариф шаҳарларидан бири. Бухоро ўз даврида “Қуббат ул-ислом”, “Бухоройи шариф”, “Фохира” каби номлар билан эъзозланиб

ва қадрланиб келинади. Бу бежиз эмас, албатта. Чунки, Бухоро ўзининг бебаҳо осори-атиқаларию, ноёб архитектура ёдгорликлари билан дунё аҳли тан олган “очиқ осмон остидаги музей шаҳар”дир. Бундай шаҳарлар ер юзида бармоқ билан санарлидир.

Бухорода 400 дан ортиқ қадимшунослик, меъморчилик ёдгорлиги, шу жумладан 11 меъморий сарой ансамбли, 8 мақбара, 47 масжид, 14 карвонсарой, 39 мадраса, 8 қадимшунослик ёдгорлиги, 250 турар жой, давлат муҳофазаси остидаги 32 монументал санъат ёдгорликлари мавжуд. Шулардан бири қадимшунослик ёдгорлиги ҳисобланган Бухоро Аркидир. Бухоро Арки ҳақида дастлабки маълумотларни Муҳаммад Жаъфар Наршахий “Бухоро тарихи”, Абул Ҳасан Нишопурий, “Хазойин ул-улм”, Аҳмад Дониш “Рисола ё мухтасаре аз тарихи салтанати хонадони манғития”, Шарифжон махдум Садр Зиё “Наводири Зиёия”, Мирза Салимбек “Тарихи Салимий”, Садриддин Айний “Тарихи амирони манғитияи Бухоро”, “Бухоро инқилоби тарихи учун материаллар” ва “Эсдаликлар”, Насирхон Тўра “Тадқиқоти Арки Бухоро”, Мусо Саиджонов “Бухоро шаҳри ва унинг эски бинолари” ва рус олимларидан В.Бартольд, И.Умняков, И.Ремпель ва бошқалар маълум даражада муҳим маълумотларни ёзиб қолдирганлар.

Бухоро меъморий ёдгорликлари орасида энг машҳур ва маълуми, не-не жангу-жадалларнию, не-не подшолар, амирлар ва саркардаларни кўрган қадимий ва маҳобатли Арк қўрғонидир. Ўрта Осиёда тенги йўқ ва топилмас обида, “шаҳар ичидаги шаҳар” ҳисобланадиган, бу тарихий иншоот ўз бошидан қарийб 3000 минг йиллик тарихни ўтказган. Бухоро ҳисорининг бунёд этилиши ҳақидаги дастлабки маълумотлар Ўрта Осиёнинг тўнғич тарихнавис олими Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар ан-Наршахий (899-959)нинг машҳур “Бухоро тарихи” ва Абул Ҳасан Нишопурийнинг “Хазойин ул-улум” (“Илмлар хазинаси”) асарларида келтирилади.

“Бухоро тарихи” асарида Эрон шоҳи Кайковуснинг ўғли Сиёвуш Афросиёбнинг қизига уйланади ва Бухорода ҳозирги Арк қўрғонини бунёд этади. Асарнинг бошқа жойида эса Арк ҳисорини Афросиёб қурганлиги

ҳақидаги маълумотлар ҳам мавжуд. Наршахийнинг ёзишича, Аркнинг шарқ томонида “Дари гуриён” (“Дарвозаи гуриён”), ғарб томонида эса “Дари Регистон” борлигини айтади. Бу маълумотларни ўлкашунос ва археолог олим Мусо Саиджонов ҳам ўзининг тадқиқотида ёзиб қолдирган. Икки дарвоза оралиғида тўғри йўл бўлган. Ҳисорда подшолар, амирлар ва давлат амалдорларининг турар жойлари бўлиб, зиндон, подшолик девонлари ва подшолар турадиган қаср, ҳарам саройи ва ҳазина хам шу ҳисорда жойлашган бўлган.

Машҳур форс-тожик шоири Абулқосим Фирдавсийнинг ўзининг “Шоҳнома”сида Бухоро ҳисорини Сиёвуш қурганлиги, Сиёвуш ҳисорнинг ичкари деворларида турли базмлар ва жанг ҳолатлари тасвирланган суратлар чиздирганини айтиб ўтади. Кейинчалик араблар босқини арафасида Бухорода ҳукмдорлик қилган Бухорхудотлар сулоласидан бўлган Туғшоданинг отаси Бидун подшо осмондаги етти қароқчи юлдузи шаклида етти тош устун устида Арк қалъа қўрғонини қурдирилганлиги айтилади. Айни шу даврда кўҳандизда қамокхона, девонхона, хазина, зардуштийлар ибодатхонаси - катта оловхона бўлган. Арабларнинг босқини натижасида Сиёвушдан колган Аркнинг дастлабки, қадим маданиятимизни акс эттирган бинолари бузилган. Улар оташпарастлар ибодатхонаси ўрнига “девон ал-харж”ни, аввалги зиндон ва хазинахона ўрнида катта ислом масжидини бунёд этишган.

XII асрнинг биринчи ярмида Арк ҳисорини қорахонийлар сулоласидан бўлган машҳур Арслонхон қайтадан тузатиб қурилиш ишларини олиб боради. 1141 йилда қорахитойлардан Гўрхон подшо Бухорога волий қилиб Алптегинни тайинлайди. Алптегин ҳисорни обод қилади ва ўз қароргоҳига айлантиради. Наршахийнинг маълумотича, 1164-1165 йилларда Бухоро шаҳри атрофини айланасига девор қурмоқчи бўладилар ва унинг остига Арк ҳисоридан келтирилган пишиқ ғиштларни терадилар. Ана шу пишиқ ғиштларнинг олиб келиниши Арк ҳисорининг вайронага айланишига сабаб бўлганлигини ёзади. Муаррихнинг айтишича, Ануштегинийлардан Хоразмшоҳ Муҳаммад ибн Султон Такаш (1207-1208) Арк ҳисорини қайта тиклаб уни обод қилишга

киришади. Кейинчалик ҳисор 1219 йил 19 февралида Чингизхон бошлиқ мўғуллар босқини туфайли яна вайронага айланади. Академик В.В.Бартольднинг ёзишича, маълум вақт Бухорони бошқарган темурийзода Мирзо Улуғбек даврида (1405-1406 й), юқорида тилга олинган Арки олийнинг икки дарвозаси ҳам мавжуд бўлган.

1920 йил 2 сентябр амирлик тугатилиб, октябр ойида Бухоро Халк Совет Республикаси (БХСР) тузилгач, ҳукумат томонидан тузилган ва бир қанча маҳаллий зиёлиларни ўзида бирлаштирган “Анжумани тарих” ташкил этилади. Унинг вазифаларидан бири Бухоро осори-атиқаларини тадқиқ этиш, асраш, ноёб қўлёзма китобларни қидириб топиш ва ўрганиш бўлган. Шунингдек, анжуман ўз олдига Бухоро ҳумдорларининг бош қароргоҳи бўлган Арки олийни тадқиқ этиш бош мақсадларидан бири эди. Аркни ўрганиш ва унинг тарихини ёзиш масъулияти, анжуманнинг фаол аъзоларидан бири бўлган Носирхон Тўра (Амир Музаффархоннинг ўғли)га юкланади. Сайийд Муҳаммад Носир ибн Музаффархон 1921-1922 йилларда ёзган ”Тадқиқоти Арки Бухоро” (“Бухоро Арки ҳакида тадкикот”) рисоласи XX аср бошларида Арк тарихига бағишланган биринчи махсус тадқиқот ҳисобланади.

Ушбу тадқиқотнинг асосий қисми компилятсия (йиғма) бўлиб, турли манбалар асосида ёзилган. Китобнинг қимматли томони шундаки, Носирхон Тўранинг ўзи шахсан Аркда яшаган, кўпгина тарихий воқеа ва ҳодисаларнинг жонли гувоҳи бўлгандадир. Муаллиф, ўз китобида асосан Аркнинг XVII-XIX асрлардаги тарихини ёритишга ҳаракат қилган. Унинг айтишича, Аркдаги “ноғорахона”ни аштархонийлардан Амир Абдулазизхон (1645-1680), ”тахт ўрнатилган жой”, ”меҳмонхона”, ичкаридаги жоме масжидини Субҳонқулихон (1680-1702), Аркнинг шимоли-шарқий қисмида халифа Али авлодидан Абулғози (Баттолғози) мақбараси ёнида Чилдухтарон масжидини манғитлардан Муҳаммад Раҳимхон (1756-1758) даврида қурилган. Амир Шоҳмурод (1785-1800) эса Аркдаги кўпгина эски биноларни қайта таъмирлаб, тузаттиради. Ҳисордаги янги қурилишларни Амир Ҳайдар (1800-1825) давом эттириб, Аркдаги Раҳимхон меҳмонхонасини ғарбдан очиладиган қилади, ёнида катта хонақоҳ ва гулзор

учун “чоҳ” қуради. Амир Насруллохон (1826-1860) Раҳимхон биноси қаршисида яна бир бино солиб, остида “тагхона”ни қурдиради. Амир Музаффархон (1860-1885) даврида европача кўринишдаги бинолар қуриш бошланади. Амир Абдулахадхон (1885-1910) даврида эса “қўрхона” ва ғазабхона” қурилади.

О.Д.Чехович ва А.К.Писарчик томонидан 1960-1963-йилларда М.С.Андреевнинг тўплаган архив хужжатлари асосида Арк тўғрисида жиддий тадқиқотлар олиб борилади ва 1972 йилда бу тадқиқотлар ўз самарасини бериб, “Арк Бухари” номли илмий китобни юзага келишига сабаб бўлади. Муаллифлар асарда Аркда мавжуд ва мавжуд бўлган бинолар, уларнинг ижтимоий вазифаси, қурилиш даври ҳақида етарли маълумотларни келтириб ўтган. Аркнинг жанубий ярми ва унга кирадиган бинолар саломхона, саисхона, тахт ўрнатилган бинолар, Аркнинг шимолий ярим қисми ва ундаги тўпчибоши ҳовлиси, ҳунармандлар бинолари, масжид, мозор, шахзодалар бинолари қайта тиклаб берилган. Бундан ташқари, қушбеги ҳовлиси, амирнинг кундалик турмуши, амирлик қўшинлари тўғрисида ҳам маълумотлар бор. Регистон ва унда жойлашган “дор уш-шифо”, Абдулазизхон ҳонақоси, Бозори гўсфанд мадрасаси, Поянда масжиди, Боло ҳовуз масжиди тўғрисида ҳам муҳим маълумотлар келтириб ўтилган.

XX асрнинг 70-80 йилларида Аркнинг бир қисмида ўтказилган археологик изланишлар натижасида эрамиздан олдинги IV асрга оид пахсадан қурилган мудофаа иншоотлари қолдиқлари топилди (Г.Некрасова девор калинлигини, А.Мухаммаджонов маданий катламни, И.Ахроров бинолар фундаментини ўрганди). Мазкур қазилма ишлари Аркнинг шарқий қисмида кичикроқ ҳажмдаги майдонда ўтказилиб, қалъа девори шимоли-жануб йўналишида узунлиги 21м, кенглиги 3-6 м ва чуқурлиги Арк саҳнидан ҳисоблаганда 18 метргача қазиб тадқиқ этилади. Айниқса, Аркнинг шарқий қисмида ҳалигача кенг кўламда археологик изланишлар олиб борилмаган. Қадимшунослар фикрига кўра, айни шу қазув ишлари Бухоронинг ёши ҳақида нисбатан реал маълумотлар тақдим этиб, Наршахийнинг X асрдаёк Бухоро 3000 ёшда эканлиги ҳақидаги ривоятларга асосланган хабарини инкор қилиши ёки тасдиқлаши мумкин.

БХСР ҳукумати саъй ҳаракати билан Бухоро ҳукмдорларининг қадимий қароргоҳи ҳисобланадиган Аркда 1922 йилда Бухоро Давлат Музейига асос солинади. Музей 1940 йилда Вилоят ўлка музейи, 1945 йилдан тарихий ўлкашунослик музейи, 1983 йилдан эътиборан тарихий-меъморчилик музей-кўриқхона, 1988 йилдан эса Республика аҳамиятидаги ва унга бўйсунувчи Бухоро Давлат бадиий-меъморий музей-қўриқхонасидир. Бухоро музей-кўриқхонаси жамғармалари миллат генофонди хазиналари ҳисобланади. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 1998 йил 12 январдаги "Музейлар фаолиятини тубдан яхшилаш ва такомиллаштириш тўғрисида"ги фармонига мувофиқ 1998-2020-йиллар мобайнида Бухоро музей-қўриқхонасини ривожлантириш, молиялаштириш бўйича дастур ишлаб чиқилди ва амалга ошмокда.

Шубҳасиз, Арки Олий қадим ва навқирон Бухорои шарифнинг бебаҳо, асл тарихий рамзларидан бири бўлиб, ҳозирги даврда ўрганилиши лозим бўлган археологик обектлардан бири ҳисобланади. Ҳозирги даврда Арк маҳаллий ва хорижий сайёҳлар томонидан энг кўп ташриф буюрадиган муҳташам меъморий ёдгорлик ҳисобланади. Бугунги кунда Аркнинг қалъа деворларидан тортиб, сақланиб қолган иморатларида кенг кўламдаги тамирлаш ва қайта тиклаш ишлари олиб борилиб, археологик изланишлар олиб борилиши лозим. Зеро бундай маҳобатли қадимий иншоотлар замонавий шаҳарлар ҳудудларида бармоқ билан санарлидир.

Бухоронинг халқаро туризм марказларидан бири эканлигини ҳисобга олганда, ундаги обидаларни ўрганиш, сақлаш ва тамирлаш, молиявий жиҳатдан улардан сайёҳлар маркази сифатида фойдаланиш учун маблағлар ажратилишини мамлакат иқтисодиёти учун инвеститсия деб ҳисоблаш мумкин. Ҳозирги кунда тадқиқотчилар олдида турган муҳим вазифалардан бири, Арки Олий ҳақида мукаммал ва яхлит маълумот берувчи, унинг пайдо бўлиш давридан то ҳозирги кунгача бўлган тарихий маълумотларни қамраб олувчи тарихий тадқиқот яратишдан иборат ва эҳтироми ҳисобланажак.

Адабиётлар

1. Аҳмад Махдуми Дониш. Рисола ё мухтасаре аз таърихи салтанати хонадони манғития. – Душанбе:. “Сарват” 1992.

2. Мирзо Олим Махдум ҳожи. Таърихи Туркистон. Т:. “Янги аср авлоди” 2008.

3. Бўлат Солиев. Манғитлар салтанати даврида Бухоро ўлкаси. Т:. “Ўзбекистон давлат нашриёти” 1925.

4. С.Айний. Таърихи амирони манғитияи Бухоро. Т:. 1923. – саҳ.14-24.

5. Бухоро Давлат Бадиий-меъморий музей-кўрихона.Т: 2004. – Б 6-8.

6. Саиджонов М. Бухоро шаҳри ва унинг эски бинолари. / Маориф ва ўқитувчи.0 1927, №9-10. Б. 54-58.

7. Бартольд В. Бухара. Ее памятники и их судьба. / правда Востока. 1925, №130. – С.26-29.

8. Умняков И. К вопросу об исторической топографии средневековой Бухары, - Ташкент: 1923,

9. Ремпель И. Далекое и близкое. Т: 1981,

10. Наршахий. Бухоро тарихи. Т: Камалалак, 1991. – Б. 103.

11. Саиджонов М. Бухоро шаҳри ва унинг эски бинолари. / Маориф ва ўқитувчи.0 1927, №9-10. Б. 54-58.

11. Саййид Муаммад Носир ибн Музаффар. Таххикоти арки Бухоро. Т Тафаккур, .2009. – Б. 4.

12. Пугаченкова Г.А. Выдающиеся памятники архитектуры Узбекистана.Т: 1958 – С.57-59.

13. Андреев.М.С, Чехович.О.Д. Арк Бухары. - Душанбе: Дониш, 1972.

“ШОҲНОМА” АСАРИ ГЕОСИЁСИЙ БИЛИМЛАРНИ ЎРГАНИШДА МУҲИМ ТАРИХИЙ МАНБА

Омонов Баҳодир Нуриллаевич,
ҚарДУ ПИ доценти

Ўзбекистоннинг мустақилликка эришиши геосиёсий билимларни ўрганиш, сиёсий фанлар соҳасида мутахассисларни тайёрлашда илк қадамни ташлаган эди. Собиқ иттифоқ даврида сиёсатшуносларни тайёрлаш бошқа Республикалар сингари Ўзбекистонда ҳам тақиқланган ва аҳоли геосиёсий назарияларни ўрганишига йўл қўйилмаган. Мустақил давлатлар тараққиётга эришиш йўлида фуқароларнинг геосиёсий билимлардан ҳабардор қилмасдан ҳаракатлари самара бермаслиги объектив жараёнлигини давр тақозо этмоқда. Мамлакатимизнинг тараққиёт йўлида олиб бораётган ташқи ва ички сиёсатини амалага оширишда геосиёсий таҳдидларнинг кенг қамровли таъсир этаётгани ҳеч кимга сир эмас. Ушбу таҳдидларга қарши иммунитетни шакллантириш тарихий манбаларимизда акс этган илмларни қайта ўрганиш ва ёшларга етказиш таълим соҳасидаги устувор вазифаларни белгилаб беради. Шу нуқтаи назардан Абул Қосим Фирдавсийнинг “Шоҳнома” асарида акс этган геосиёсий билимларни ўрганиш долзарб аҳамиятга эга.

Буюк шоир **Абул Қосим Фирдавсий** Хуросон вилоятининг Тус шаҳрида туғилган. Тахминан 934-1030 [1;257] йиллар яшаб ижод қилган. Унинг ота-боболари ер-сувини йўқотиб, камбағаллашиб қолган деҳқонлардан бўлган. Фирдавсий кенг қамровли илм эгаси бўлиб етишди. Шу боис уни “ҳаким”, “донишманд” деб улуғлаганлар. Шоир ижодининг айни гуллаган даври Ғазна шаҳрида (ҳозирги Афғонистон ҳудуди) – турк султони Маҳмуд Ғазнавий саройида ўтган. Фирдавсий Маҳмуд Ғазнавийга бағишлаб машҳур “Шоҳнома” асарини ёзган. Ривоят қилишларича, султон Маҳмуд Фирдавсийнинг ёзилажак “Шоҳнома” асарининг ҳар бир байти учун биттадан олтин танга беришни ваъда қилади. 60 минг байтдан иборат асар тайёр бўлганидан кейин Ғазнавий жўнатган тангалар кумуш бўлиб чиқади. Бундан ранжиган шоир тангаларнинг бир

қисмини карвондагиларга, бошқа қисмини ҳаммолларга улашади. Қолган қисмига яхна ичимликлар сотиб олади ва султон Маҳмуд билан муносабатлари бузилади. Фирдавсий туғилган ерини ташлаб, мусофирликда, камбағалликда ҳаёт кечиради[2;189].

Фирдавсийнинг "Шоҳнома" асари Тўрон, Хуросон ва Эронда юз бериб турган тахт талашлари, синфий курашларнинг бадиий, сиёсий ифодаси сифатида юзага келди ва шу даврнинг фалсафий мафкурасини ўзида чуқур акс эттиради. "Шоҳнома" қарийб тўрт минг йилни ташкил қилувчи жуда катта даврни ўз ичига олади. Бу даврда афсонавий ва тарихий шахслар ҳаёти поэтик тарзда ифодаланади. Сўнги бўлимда ёритилган 500-700 йиллик тарихий воқеалар ғоят катта аниқлик ва изчиллик билан тасвирланган. "Шоҳнома" қадим қабилалар тўқиган афсоналар, қаҳрамонлик достонларини ва Эрон, Ўрта Осиё (Тўрон)нинг Искандар Зулқарнайн давридан тортиб то араблар бостириб келгунгача, яъни охирги сосонийлар шоҳи Яздигард III нинг ўлимигача (651 йил) бўлган тарихни ўз ичига олади. "Шоҳнома"нинг бош ғояси – ватанни улуғлаш, халқ қудратини кўз-кўз қилиш, ҳалқ баҳодирларини васф этиш. Шу орқали давлатнинг геосиёсий қудратини намоён этиш мафкураси сезилиб туради. "Шоҳнома"да геосиёсий мафкура бирдан кўзга ташланмаслиги мумкин, унда бу ғоя очиқдан-очиқ юзада ётмайди. Поэманинг асосий қисмида геосиёсий мафкура мавжуд бўлиб, подшоларнинг барчасида "Жаҳон ҳукумдори" бўлиш кайфияти акс эттирилади. Асарда подшоларни ўз раияти ҳолидан огоҳ бўлишга, унга меҳрибонлик кўрсатишга чақиради, халқни ортиқча солиқлардан озод этиш, золимлар зулмидан ҳимоя қилиш лозимлиги уқтирилади. "Шоҳнома"нинг асосий ғояларидан яна бири олий ҳокимият подшоликнинг отадан болага мерослиги ғоясиким, Фирдавсий бу ғоянинг илоҳийлигига, азалий ва абадийлигига шубҳа қилмайди. Фақат худонинг назари тушган, тахт эгаси бўлишига ишонч билдиради. Шоир ҳокимиятнинг подшоликдан бошқа шаклларини тан олмайди. У ижтимоий тузумнинг бойлар ва камбағалларга бўлинишидан ўзга шаклларини кўра олмайди. "Шоҳнома" меҳнат аҳлига улкан меҳру муҳаббат, одил шоҳлик ғояларини илгари суради. Барча шоҳлар тахтга чиқиш муносабати билан

сўзлаган нутқларида ўлими олдидан ворисларига қилган васиятларида ҳукумдорларни қашшоқлар ва меҳнаткашларга зулум қилмасликка ундайдилар. Лашкарбошилар ҳарбий юришга отланар эканлар, уруш бўладиган жойларда экинзорларни пайхон қилмаслик, оддий халқни ранжитмасликни буюрадилар. Геосиёсий ҳаракатларда уруш қонун-қоидаларига риоя қилиш устуворлиги акс этади. Фирдавсий бу асарида жуда кўп фалсафий ғоялар, геосиёсий назариялар, ижтимоий масалаларни афсонавий шаклда тасвирлайди. “Шоҳнома” – Тўрон (Ўрта Осиё) ва Эрон халқларининг миллий ифтихори ўсиб келаётган, араб босқинчиларининг икки юз йиллик ҳукумронлигига қарши кураш ғалаба билан якунланаётган даврда яратилди. Бу давр Тўрон ва Эрон халқлари миллий марказлашган давлатини ташкил қилган сомонийларнинг ижтимоий, сиёсий, маданий ҳаётнинг барча соҳаларида катта ютуқларга эришган вақти эди. Асарда Турон ва Эрон ўртасидаги геосиёсий муносабатлар кенг қамровли ифодаланган. Унда икки давлат бир-бирларига қарама-қарши сиёсат юритгани, ўзаро урушлар бўлиб, адолат ўрнатиш ғояси илгари сурилади. Сиёвуш достонида Турон подшоси Афросиёбнинг Эрон ўлкасига юриши баён этилади. Бу урушда Сиёвуш ғалаба қозонади. Афросиёб ҳам рақиби Сиёвушнинг жасоратини кўриб, лол қолади ва икки юрт Эрон ва Турон ўртасида бекорга қон тўкилишини истамасдан, урушни тўхтатишга қарор қилади. Қобусшоҳ бундан норози бўлади. Ўзининг иккита – Баҳром ва Зангони аскарларини Сиёвуш олдига юбориб, ўғлини қайтариб олиб келишни буюради, лекин шахзода Баҳромга жангчиларини топшириб, ўзи Турон томон йўл олишини айтади. Афросиёб Сиёвушни Пирон қизи Жарира ва қизи Фарангисга уйлантиради. Сиёвуш сиймосида икки давлат ўртасида доимий дўстликни қарор топтириш ғояси илгари сурилган. Сиёвуш Сиёвушгирд шаҳрини қуради, лекин у шаҳарда яшаш насиб этмайди. Афросиёб томонидан юборилган қотил уни ўлдиради. Сиёвушнинг уйланган хотинларидан фарзандлари Кайхусрав ва Фаруд ҳақида достонлар битилган. Рустами Достон шогирди (Сиёвуш)ни ўлимини эшитади. Сиёвушнинг ўлимида угай онаси Судобани ҳам айблаб қатил эттиради ва Туронга юриш қилади, катта қирғин уюштириб шаҳарларга ўт қўяди. Шоҳ

Афросиёб Тўронни ташлаб қочгани, бир неча йил Рустам мамлакатни ўзи бошқариб яна Эронга қайтгани, Афросиёб Турон тахтини эгаллагани поэтик тарзда тасвирланади. Шу ўринда Сиёвушнинг ўғли Кайхусрав ва онаси Фарингис Эронга олиб борилади. Кайхусраф Эрон тахтига ўтқазилади[3;263].

"Шоҳнома"да Кайхусрав отаси қасосини олиш учун Тўронга қўшин юборади. Юборган қўшини Сиёвушнинг кичик ўғли Фаруд қаршилигига учрайди ва кўплаб саркардаларини йўқотади. Фаруд Тўрон ўлкаси ҳимоясида вафот этади. Уруш Тўронликларни ғалабаси билан якунланади. Кайхусрав Сиёвуш қасоси учун яна Тўронга қўшин жўнатади ва мағлубиятга учрайди. Чунки, тўронликларга жуда кўп мамлакатлардан қўшинлар келиб ёрдам беради. Эрон қўшинлари оғир аҳволда қолганида Рустам Достон етиб келиб Тўрон подшолиги билан бирлашган қўшинлар тор-мор келтирилади ва Рустам бошлиқ Эрон қўшинлари зафар билан Кайхусрав ҳузурига қайтиши[3;264-331] тасвирланади. Кайхусравни ўзи бошчилигида Тўронга юришида бобоси Афросиёб, Гарсевазни (Афросиёбни укаси) жазолаб отаси Сиёвушни қасосини олиб қайтиши, икки давлат ўртасидаги узоқ уруш ва қирғинлар ҳақида баён қилинган. Ўн икки жанг достонида эса, эронийларнинг Тўронга юришлари ҳикоя қилинади. Ўн икки марта жанг бўлиб, Тўрон қўшинлари асосан тор-мор этилади. Шунингдек, Гуштасп ҳукумронлиги даврида ҳам Тўрон ва Эрон ўртасидаги низолар давом этади. Асарда келтирилишича, Эрон подшоси Гуштасп давлатида Зардуштийлик динини қабул қилади. Аммо Тўроннинг ҳукумдори Аржасп Гуштаспдан янги диндан чиқишини талаб этади ва баҳонада икки давлат ўртасида уруш чиқади. Бу уруш ҳам узоқ йиллар давом этгани турли поэтик тарзда келтирилган. Ўзаро низоларда Гуштаспнинг ўғли Исфандиёр бошчилигидаги қўшин Тўрон ўлкасини забт этиб Эронга қайтади. Ўзаро тахт талашишларда Исфандиёр Рустами Достон томонидан ўлдирилади. Тез орада Рустам ҳам алдов қурбонига айланиб вафот этади. Шу билан "Шоҳнома"нинг афсонавий қисми тугайди. Бундан кейинги бобларда Фирдавсий Эрон ва Тўрон халқлари хаётида бўлиб ўтган тарихий воқеаларни аниқлик билан, аммо "Шоҳнома" услубига хос бадиийлик билан тавсифлайди. Бу жараёнда Эрон

подшоси Баҳром гўрнинг 60 йиллик ҳукумронлиги даврида ҳам Тўрон ва Эрон низолари давом этади. Узоқ йиллик урушларга чек қўйиш учун подшо Баҳром Эрон, Тўрон ва Чин давлатлари ўртасида қалин ва баланд девор қурдиргани, ўша даврдаги турли воқеалар[3;465-638] асарда ўз ифодасини топади.

Фирдавсийнинг “Шоҳнома” асари бадиий тўқималар, афсоналардан иборат бўлсада, Осиё минтақасидаги халқлар ва давлатлар муаммолари тарихий, ижтимоий-маданий, сиёсий жараёнлар негизида тасвирланган. Шу достонлар йиғилмасида узоқ ўтмиш халқлари орасидаги дўстлик, адолат, тинчлик, меҳр-муҳаббат ғоялари долзарб муаммо сифатида кўтарилган. Фирдавсий “Шоҳнома”да геосиёсий муносабатларни давлатлар ўртасидаги табиий жараён деб қарайди. Шу сабабли ҳам, Эрон ва Тўрон низолари тугамаслиги ҳикоя қилинган. Урушларга барҳам бериш одил подшоҳларнинг ўзаро келиша олишида деб билади. Бу келишувлар абадий бўлмаслигига ишора қилади. Подшоҳлар адолатни ўрнатган ҳолда тинчлик сари интилиб, давлатлар ўртасида дўстлик ришталари кучайганда (ўз даврларида) осойишталикка эриша олиши айтилади.

Хулоса қилиб айтганда Фирдавсийнинг “Шохнома” асарида келтирилган геосиёсий назариялар ёшларимизни янги билимларини кенгайишида хизмат қилади. Унда акс этган гоҳ поэтик гоҳ тарихий манбалар асрлар оша халқимиз илмий салоҳиятини юксалтиришга кенг ҳисса қўшиб келган. Асардаги баъзи геосиёсий қарашлар бугунги кунда ҳам давом этаётган мамлакатлар ўртасидаги келишмовчиликларда намоён бўлаётганлиги манбанинг қанчалик ноёблигини кўрсатади. “Шоҳнома” асари геосиёсий таълимотларни ривожланишида муҳим манба сифатида хизмат қилади ва ўзига хос назариялиги билан ажралиб туради.

Адабиётлар

1. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. 9-жилд. Т.: 2005. 704 б.
2. Жўраева С. 100 мумтоз файласуф. Т.: “Янги аср авлоди”, 2013. 400 б.
3. Абулқосим Фирдавсий. “Шоҳнома”. Т.: 2018.702 б.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКАЯ ОСНОВА ИЗУЧЕНИЯ ИСТОРИОГРАФИИ УЗБЕКСКОГО НАРОДА

Сохибов Акрам Рустамович,
к.п.н., доцент КарДУ

Происхождение любого народа и народности – это всегда очень сложный процесс, который в течении веков приводит к возникновению нового народа, с новым названием, с новой культурой, с новым языком. Почти всегда новый народ впитывает в себя культуру и языки народов, живших до появления этого нового народа. А самоназвание народа часто возникает от названия местности, где проживает тот народ, часто название народа появляется от имени какого-нибудь знаменитого правителя (или вождя), имя которого его соплеменники помнять как имя основателя нового народа (нового государства). В истории мы найдем много таких случаев. Но чтобы найти истинные корни происхождения любого народа надо начать с самых древнейших времен (с легендарных времен, которые часто современной наукой не признаются). Современная историческая и этнографическая наука все процессы, происходящие в мире с древнейших времен, любит сильно (очень сильно) упрощать.

Занимаясь древнейшей историей народов мира, на основании своих исследований я создал исторический атлас народов, племен, культур с 17 мл.летднэ. (конечно этот атлас не признан наукой, хотя он в основном базируется на археологических находках, а также на основе мифов и легенд – они то и не признаются историками). Мною составлены подробные таблицы о появлении (исчезновении) любых народов Старого Света (на исследование возникновения индейских народов Америки у меня еще не хватает времени). В этой статье я буду раскрывать историю возникновения узбекского народа, при этом я буду использовать не только научные (признанные современной наукой) материалы, но и результаты своих исследований.

Что мы знаем про узбеков по официальным источникам? В Википедии говорится, что узбеки – тюркоязычный народ, который является коренным населением Узбекистана. Этногенез узбеков протекал в

Мавераннахре. В формировании узбеков принимали участие древние народы Средней Азии – соглийцы, бактерийцы, хорезмийцы, ферганцы, саки, массагеты, восточные иранцы, эфталиты, тюркоязычные племена, которые стали проникать в Среднюю Азию на рубеже 1-2 веков. Со времени вхождения Средней Азии в состав Тюркского каганата (6 век) численность тюркоязычного населения стала возрастать. В VII—VIIIвв. в Средней Азии проживали такие тюркские племена как: тюрки, тюргкши, карлуки, халаджи и др. В раннем средневековье на территории Среднеазиатского междуречья сформировалось оседлое и полукочевое тюркоязычное население, находившееся в тесном контакте с ираноязычным согдийским, хорезмийским и бактрийским населением. Активные процессы взаимодействия и взаимовлияния привели к тюрко-согдийскому симбиозу (взаимодействию, слиянию).

После вторжения монголов в Среднюю Азию в 1219 году, этногенез населения Средней Азии подвергся изменению. По последним генетическим генеалогическим тестированием из Оксфордского университета, исследование показало, что генетическая примесь узбеков имеет промежуточное положение междуиранским и монгольскими народами.

Арабское завоевание второй половины 7 – 1 пол.8 века оказало определенное влияние на ход этнических процессов в Средней Азии. Исчезли согдийский, бактрийский, хорезмийский языки и их письменность вместе с тюркской рунической к 10-му веку вышла из употребления. Основными языками оседлого населения стал персидско-таджикский и тюркский.

В последующие века основным этнокультурным процессом было сближение и частичное слияние ираноязычного и тюркоязычного населения. Процесс начала формирования этноса, впоследствии ставшего основой узбекской нации, особенно активизировался в 11-12 веках, когда Средняя Азия была завоёвана объединением тюркских племён, возглавляемыи династией Караханидов. Возникновению узбекской народности предшествовало образование в XII веке крупного государства Хорезмшахов, объединившего как оседлое, так и частично кочевое население Средней Азии.

Новая волна тюркоязычных племён влилась в состав населения Средней Азии после монгольского завоевания 13 века. В этот период в оазисах Среднеазиатского междуречья осели такие племена и рода как: найманы, барласы, арлаты, катаганцы, кунграты, джалаир и др. Этноним «узбек» был привнесен в регион после завоевания и частичной ассимиляции в её среде дешткипчакских кочевников (название кочевников Золотой Орды со времен Узбек-хана, 14 век), перекочевавших в Мавераннахр на границе 15-16 веков во главе с Шейбани-ханом из степей современного Казахстана.

Тюркоязычное население Среднеазиатского междуречья, сложившееся к XI—XIIвв. составило основу узбекского народа. Последней волной тюркоязычныхкочевников, влившихся в состав населения этого района явилисьдешткипчакские узбеки, пришедшие в конце XV века вместе с Шейбани-ханом. Тюркоязычные кочевые племена, пришедшие в Среднюю Азию в XVI в. под предводительством Шейбани хана, застали здесь уже многочисленное тюркское и тюркизированное население, которое сформировалось на протяжении длительного периода. Дештикипчакские узбеки включились в это тюркоязычное население, передав ему свой этноним «узбек» лишь как последнее, наиболее позднее этническое напластование.

Процесс формирования современного узбекского народа протекал не только на степных пространствах севера Средней Азии и Казахстана, но также в земледельческих областях Ферганы, Зеравшанской, Кашка-Дарьинской и Сурхан-Дарьинской долин, а также Хорезмского и Ташкентского оазисов. В результате длительного процесса этнического сближения и культурно-хозяйственных взаимосвязей населения степей и земледельческих оазисов здесь и сформировалась современная узбекская народность, впитавшая элементы этих двух миров.

А что написано в Советской Исторической Энциклопедии про проиехождение узбекского народа .Литературный язык узбеков относится к тюркской группе языков. Древними предками были у биты согдийцы, хорезмийцы, бактрийцы, ферганцы, саки, массагеты. С сер.1 тыс.днэ в Ср.Азию

начинают просачиваться монголоидные группы племен. Со 2-й половины 6 в., со времени вхождения Ср.Азии в состав Тюркского каганата этот процесс усилился., начался процесс отюречения по языку ираноязычного населения . Во времена государства Караханидовтюркоязычные племена переходят к оседлости. Все тюркоязычное население Междуречья (территории между реками Сыр-Дарья и Аму-Дарья), сложившееся к 11-12 векам составило основу узбекской народности. В результате монгольских завоеваний в 13 веке в состав населения Междуречья влилась новая волна тюрко-монгольских племен. Последней волной тюркоязычных кочевников, влившихся в состав населения этого района, явились дешткипчакские узбеки, пришедшие в кон.15 в.вместе с Шейбани-ханом. В общем и здесь история происхождения узбекского народа похожа на ту, что описана в Википедии.

Как мы заметили, что окончательную точку в формировании узбекского народа поставили дешткипчакские узбеки (к которым уже применялось название «узбеки», так как они считали себя подданными государства Узбек-хана. По этой причине происхождение узбекского народа надо рассматривать в двух направлениях одновременно - происхождение всех народов на территории современного Узбекистана (изменение состава населения на этой территрии) с самых древнейших времен, - происхождение дешткипчакских узбеков с самых древнейших времен. Этим я и займусь в этой статье. Начну это делать по картам своего атласа.

Начну я с 17 млн.летднэ – в это время территория современного Узбекистана была на дне океана. На Земле существовал всего один народ – асуры. Их современыми потомками являются бушмены, готтентоты, пигмеи, веддоиды, папуасы и аборигены Австралии. Асуры жили на одном большом материке – Лемурия (на месте современного Индийского океана).

4 млн.лет.днэ – появился новый народ – атланты (это западные асуры)

1 млнлет.днэ – появился новый народ – муанцы (это восточные асуры)

700 тыс.летднэ – асуры как народ исчез к территории Земли, вместо его остались племена австралоидов, живших в основном на берегах Индийского океана (Вост.Африка, Юж.Азия, Индонезия, Австралия).

399 тыс.летднэ – муанцы как народ исчезли, вместо них остались племена населявшие острова Океании, Филиппин, Тайваня, Японии (предки айнов были муанцами).

199 тыс.летднэ – территория современного Узбекистана стала сушей, но Аральское море еще было соединено с Каспийским и Черным морем. Людей современного вида на этой территории не было. Жили там в основном неандертальцы (это не люди, а прямоходящие обезьяны похожие на людей – это неудачная попытка создать новую расу людей, предпринятая асурами и атлантами с помощью генной инженерии). В это время начинается переселение потомков атлантов на Ближний Восток и Западную Европу, так как материк Атлантида начинает уходить под воду Атлантики.

79 тыс.летднэ – на территории Междуречья (между реками Аму-Дарья и Сыр-Дарья) начинают появляться небольшие поселения потомков атлантов. В это же время на территории Северного Китая и юга Монголии тоже появляются большие поселения потомков атлантов. Этот народ называл себя туранцами, так как жили на берегу большого Туранского моря (это на месте современной пустыни Гоби).

17500 г.днэ – на территории Междуречья появляются племена костенковской археологической культуры, которые пришли туда с территории Восточной Европы. Это предки будущих дравидоидов(эти племена сложились в результате смешения европеодидов и австралоидов, которое произошло в окрестностях Средней Волги). Это европейский народ с темным цветом кожи.

12000 г.днэ – на севере Евразии произошло похолодание и возникли большие ледники. Это похолодание произошло по причине применения ядерного оружия атлантами против туранцев (потому, что они не подчинялись власти атлантов). В результате этой акции, Туранское море стало быстро засыхать и превращаться в пустыню Гоби. А самытуранцы, получив сильные

облучения, частично погибли, а выжившие подверглись генетической мутации и приобрели монголоидные прихнаки (стали отличатьчя от остальных потомков атлантов которые жили в Европе и на Ближнем Востоке).

Кроме этого туранский единый народ разделился на большие группы племен – прото-алтайцев (прото-тюрков), прото-монголов, прото-китайцев, прото-тунгусов, прото-тибетцев и т.д.). Эти все народы в последствии всегда стали иметь монголоидные признаки.

7500 г.днэ – на территорию Междуречья проникают племена культуры али-кош с территории современного Ирана, это тоже дравидоидные племена (европеоиды с темной кожей). Если кто хочет знать, на каком языке говорили в те времена жители Междуречья. Могу только предположить, что язык дравидоидов поход на эламский и шумерский языки, так как эти народы были тоже дравидоидами.

5700 г.днэ – на территории Междуречья сформировалась джейтунская культуры. Это племена тех же дравидоиов, но на них оказали влияние более северные европеоиды с Восточной Европы.

3500 г.днэ – на территоории Междуречья сформировалась культура Анау, Это тоже дравидоиды, на них также оказали влияние северные европеоиды, так как на юг их оттесняют племена индоевропейцев, которые к этому времени уже дошли до северных берегов Аральского моря.

1900 г.днэ – на севере Междуречья появилась суянгарская культура (это племена древних индо-иранцев (ариев). Южную часть Междуречья населяют племена культуры алтын-депе (это племена дравидоидов, родственные эламитятам и дравидоидамХараппской цивилизации на северо-западе Индии).

1500 г.днэ – происходит разделение ариев на древних индийцев и древних иранцев.

Древние индийцы уже занимают территорию южного Междуречья, а северную часть Междуречья заселяют древнеиранские племена (племена тазабагьябской культуры). К этому времени дравидоидов на территории современного Узбекистана уже нет, они оттеснены на юг – в Иран и северо-запад Индии.

1300 г.днэ – вся территория современного Узбекистана занята племенами древних иранцев. К этому времени древние индийцы уже ушли в Индию.

700 г.днэ – к этому времени на севере Междуречья (Хорезм) сформировался новый ираноязычный народ – хорезмийцы (алеирбадская культура). На остальной территории продолжали жить древнеиранские племена.

600 г.днэ – на севере Узбекистана создано государство хорезмийцев – Хорезмия, в южной части Узбекистана создано государство согдицев – Согд. Оба этих государства населены ираноязычными народами. В северо-восточной части Междуречья своромировался новый ираноязычный народ – массагеты (кочевники).

К 539 г.днэ – Хорезмия, Согдиана, Бактрия подчинены персидскому государству Ахеменидов. Попытки персов подчинить себе массагетов были неудачными.

К 327 г.днэ – Согдиана и Бактрия были подчинены империи Александра Македонского. Хорезм, массегетов и саков (кочевавших к северо-востоку от Хорезмии), македонцы подчинить не смогли. С этого времени начинается усиление государства Хорезм.

250 г.днэ – на юг Узбекистана приходит новый народ – тохары, они были вытеснены тюркскими и монгольскими племенами с территории северо-западного Китая. На северо-востоке Узбекистана сложился новый народ – кангюйцы (этот народ возник на основе массагегов и других ираноязычных племен). У них было свое государство. На юге Узбекистана возникло новое государство Греко-Бактрия.

130 г.днэ – на юге Узбекистана на месте Греко-Бактрии возникли мелкие тохарские государства.

50 г.днэ – на основе тохарских государств возникает Кушанское государство.

450 год нашей эры – в результате великого переселения народов, вызванного передвижением с востока на запад многих тюркоязычных племен во главе с гуннами, в северо-востоке Узбекистана появляются тюрко-язычные

племена (это на месте кангюйцев). Юг Узбекистана входит в состав государства эфталитов. Ираноязычные народы – хорезмийцы, согдийцы и бактрийцы по прежнему остаются основным населением территории современного Узбекистана.

В 712 году – Хорезм завоеван арабами, но это завоевание было кратковременным и Хорезм восстановил свою независимость. 750 г – на территории востосной части Казахстана сформировался новый тюркский народ – кипчаки (кочевники). Северо-восточные территории Узбекистана населены карлуками (тюркоязычным народом).

В 819 г. на территории Уззбекистана возникло государство Саманидов, в которое входила не только территория Узбекистана, но и часть Ирана.

900 г – на севере и востоке от Аральского моря сформировался сильный союз племен во главе с огузами (тюркоязычными кочевниками). Они даже создали свое государство. Натиск тюркоязычных племен (заселение территории Узбекистана) усилился.

В 999 г государство Саманидов прекратило существование в результате войны с тюрками-караханидами и вошло в состав государства Караханидов. Юг Узбекистана вошел в состав Газневидского государства.

1050 г – население Узбекистана стало тюркоязычным. Территория Узбекистана вошла в состав государства сельджукок.

1097 г – Хорезм стал снова независим от сельджуков, хотя временами ему приходилось признавать свою зависимость от сельджуков. 1183 г – при хорезмшахе Текеше Хорезм стал окончательно независимым и Хорезм стал могущественным госудаством.

В 1219 г Хорезм завоеван монголами и стал частью империи Чингис-хана.

С 1224 года территория Узбекистана вошла в состав государства Золотая Орда (улус Джучи). Юг Узбекистана входид в Чагатайский улус. В 1313-1341 годах ханом Золотой Орды был Узбек-хан. Он принял ислам как государственную религию Золотой Орды. С этого времени Золотую Орду в некоторых арабских источниках стали называть государством Узбека.

1350 г – на юге Казахстана начиннает формироваться новый народ кипчаки-узбеки. Юг Узбекистана (Мавераннахр) распадается на ряд небольших государств.

С 1371 года юз Узбекистана входил в состав империи Тимура. В 1428 году было создано Узбекское ханство во главе с ханом Абул-Хаиром, это ханство возникло в результате распада Золотой Орды,потерпевшей поражение от Тимура. Первоначально оно располагалось на территории южного Казахстана.

1450 г – кипчаки-узбеки населяют территорию современного Узбекистана, становятся основой образования узбекского народа.

В 1499 году Шейбани-хан, потомок Абул-Хаиранчал захватывать территорию Мавераннахра (территорию Узбекистана).

В 1501 году Шейбани-хан отвоевал у Тимуридов Самарканд, основав государство Шейбанидов, он установил свою власть не только над Мавенаннахром, но и над Хорасаном (северо-востоком Ирана).

В 1512 году образовалось Хивинское ханство (в северной части Узбекистана), которое образовалось в связи с распадом государства Шейбанидов, Оно образовалось почти одновремено с Бухарским ханством. В Хивинском ханстве правила династия Арабшахидов. Основным населением Бухарского ханства были узбеки. В Бухарском ханстве (юг Узбекистана) жили и узбеки и таджики.1600 г – из общей массы казахских племен выделяются каракалпаки, которые поселяются на севере Узбекистана. К этому времени узбекский народ почти полностью сформировался.

Литературы

1. Народы средней азии и казахстана. т.1. Под редакцией С. П. Толстова, Т. А. Жданко, С. М. Абрамзона, Н. А. Кислякова. М., 1962, с.82.
2. Аскаров, А. А. История происхождения узбекского народа. Ташкент, 2018. С.4-15
3. Абу Рейхан Бируни. Памятники минувших поколений. Избранные произведения. Т.1. Т., 1957, с.47.

4. Малявкин А. Г., Танские хроники о государствах Центральной Азии.- Новосибирск, 1989, с.201

5. Малявкин А. Г. Танские хроники о государствах Центральной Азии. — Новосибирск, 1989, С. 201.

6. Труды Хорезмской археолого-этнографической экспедиции, т. XIV. М., „Наука“, 1984

КОММУНИСТИК ПАРТИЯНИНГ МАФКУРА ЖАБҲАСИДАГИ ТАРҒИБОТЧИЛИК ФАОЛИЯТИ

Рашидов Ойбек Расулович,
БухДУ доценти., т.ф.ф.д. (PhD)

Совет бошқаруви даврида мафкура соҳасида олиб борилаётган раҳбарларнинг фаолияти сусайиб бораётганлиги туфайли ҳамма ерда ғоявий, тарбиявий ишлар юзаки, хўжакўрсинга бўлиб ўтаётганлиги партия йиғилишларида қаттиқ танқид қилинган. Пролетариат мафкураси учун кураш масаласига вақтинчалик, ўткинчи нарса деб қараш мақсадга мувофиқ эмаслиги, мафкура жабҳасидаги ишлар тартибли ва домий равишда олиб борилишига урғу берилган. Шу билан биргаликда мафкуравий ўринларда ишлайдиган зиёли кучлар орасида ишлашни кучайтириш орқали миллатчилик ва шовинизм кўринишларига зарба бериш ҳамда уларни байналмилачилик ва марксизм руҳида тарбиялаш масалаларига эътибор қаратилган” [1].

Ўзбекистонда баъзи зиёлилар миллий буржуазияга асосланган давлат тузиш учун курашаётганлиги, бу кураш миллий низоларнинг кучайишига сабаб бўлаётганлиги масалалари ҳам партия йиғилишларида муҳокама қилинган. Бу кураш аввало умумий миллий ғояни синфий манфаатларга қарши қўйишда, йўқсуллар ҳокимиятини инкор қилишда ва бошқа шундай ҳаракатларда намоён бўлаётганлиги қайд этилади [2].

Коммунистик партия ва совет ҳукуматининг миллий масаласида юритган нотўғри сиёсати оқибатида зиёлиларнинг тараққийпарвар қисми ичида кўплаб яширин гуруҳлар, ташкилотлар ва жамиятлар пайдо бўлишига олиб келди.

Зиёлиларнинг яширин фаолиятларига йўл бермаслик чораси сифатида большевиклар уларни партияга ва совет ҳукуматига яқинлаштириш ҳаракатини бошлаганлар. Бунинг учун зиёлилардан ўзларининг илгариги йўлбошчилари таъсири остидан чиқиб, партия раҳбарлиги остида совет ҳукумати билан яқиндан туриб бирга ишлашлари талаб қилинди.

Таълим тизимида, матбуотда, адабиётда, ўзбек тили ва имлоси масаласида большевиклар билан миллий зиёлилар ўртасида ғоялар қарама-қаршилиги мавжуд бўлди. Миллий зиёлилар Мурод Шамс, Фитрат, Отажон Ҳошим, Қаюм Рамазон ва Ғози Олимларнинг “ўзига хослик назариялари, сингармонизм – темир қонун” мафкураси большевиклар томонидан аксилинқилобий ғояларни ташиб юрган ва айниқса Маркс, Энгельс, Ленин ва Сталин назарияларига қарши қаратилган ҳаракат деб аталди [3].

Большевиклар янги совет мактабларини ташкил этишга киришиб, илгари таълим тизимида (мадраса таълими, жадид ва рус-тузем мактабларида) фаолият кўрсатган ўқитувчиларни аксариятидан фойдаланиб бўлмайди деб топдилар. Инқилобдан аввалги эски мактаб ва айниқса мадраса да таълим-тарбия билан машғул бўлган ўқитувчиларнинг етарли билимларга эга эмаслиги, диний ақидалар ва буржуа миллатчилиги таъсирига берилганлиги, ўзлари эса совет ҳокимиятига қарши кишилар бўлганлиги важ қилиб кўрсатилди. Янги совет мактабининг ўқитиш методлари ва берилган таълимнинг мазмуни эски мактабларга бутунлай тўғри келмаслиги таъкидланган. Шу нуқтаи назардан большевиклар меҳнаткаш халқ манфаатларига ва совет ҳокимияти ғояларига содиқ янги ўқитувчи кадрларни тайёрлашга қарор қилди.

Ўзбекистон ССР Компартияси масъул котиби А.Икромовнинг 1926 йили компартия йиғилишида “Мафкура майдонида кураш” номли маърузасидан сўнг, бу борада партиянинг махсус қарори[4] қабул қилинган. Шу ўринда коммунистик партиянинг мафкуравий курашдаги асосий вазифалари сифатида қуйидагилар келтирилган:

“Партиянинг биринчи даражада турган вазифаси байналмилал тарбияда фирқанинг тўғри йўлини ҳимоя қилиш ва амалга қўйиш, ҳоким миллатнинг

мустамлакачилик руҳи қолдиқларига ҳамда ҳар хил тор миллатчилик назарияларига қарши курашиш;

иккинчи, ёшлар учун ва айниқса комсомолларга байналмилал – коммунистлар тарбияси бериш учун ҳар жиҳатдан ва доимий равишда курашиш, матбуот идораларига ва халқ маорифи муассасаларига фирқанинг раҳбарлигини кучайтириш;

учинчи, ерлилаштириш ишларидан бюрократизм ва тор миллатчиликнинг назарларини йўқотиб уни тўғри йўлга қўйиш;

тўртинчи, партиянинг умумий сиёсатида ташкилотнинг ишчилар ролини кучайтириш ва шўро идораларининг ишларида йўқсуллар таъсирини кучайтириш;

бешинчи, зиёлиларнинг совет ҳукумати томонига борадиган қисмини шўролар жамиятига жалб қилиш ва амалий ишга қўйиш йўли билан ўзларининг илгариги “йўлбошчилари” таъсиридан озод қилишга ҳар жиҳатдан ёрдам бериш” [5].

Туркиялик муҳожир тарихчи Боймирза Ҳайит коммунистик мафкурани Туркистон ўлкасига етказган талафотини шундай келтиради: “Туркистондаги совет мустамлакачилиги – социализм, коммунизм, интернационализм, миллий мустақиллик ҳақлари ва бошқа шунга ўхшаш турли ниқоблар билан ўзини сақлаб келмоқда. Совет колониализмини яхши тушунмоқ учун манбаларга диққат қилайлик. Туркистонликларнинг тарихи, маданиятинг, урф-одати, дини, тили ва бошқа миллий хусусиятлари русларникидан тамоман айридир ва бутунлай бошқа моҳиятга эга. 1917 йилгача Туркистонда социализм, коммунизм, ишчи ҳаракати деган нарсалар бўлмаган, бу гаплар шўро тузуми ва Туркистонга ёпирилиб келган рус унсурлари томонидан сингдирилган тушунчалардир [6].

Мафкура яккаҳокимлиги собиқ иттифоқчи республикаларда, жумладан, Ўзбекистонда халқларни тобеликда сақлашни таъминлашга, ўз тарихини унутиб юборишга, она тилидан узоқлашишга, миллий маданиятни бир томонлама ривожланишига хизмат қилди. Шундай шароитда халқимизнинг маънавияти ва ҳар қандай фикр-ўйлари, интилиши кўпинча буржуа миллатчилиги ғоялари,

аксилинқилобий ҳаракатлар тариқасида баҳоланди. Халқимизнинг ўз ватандошларини озодликка, миллий тараққиётга чорлаган жадидлар ҳаракатининг раҳбарлари Маҳмудхўжа Беҳбудий, Абдурауф Фитрат, Абдулҳамид Чўлпон, Усмон Носир каби ўнлаб-юзлаб фарзандлари, Файзулла Хўжаев, Акмал Икромов, Турар Рисқуловдек кўплаб атоқли давлат ва жамоат арбоблари мафкура яккаҳокимлигига асосланган истибдоднинг қурбони бўлдилар [7].

Америкалик ва европалик тадқиқотчилар барча коммунистик мамлакатларда пролетариат (ишчилар синфи) мафкураси ҳукмрон бўлган даврни чуқур иқтисодий инқироз ва илм-фаннинг барбод бўлганлигини таъкидлаб, қуйидаги изоҳларни келтирадилар:

Биринчидан, большевиклар зўравонликка асосланган, инқилобий-террор йўли билан ҳокимиятни эгаллаши оқибатида аҳолини “ўзиники” ва “бегоналар”га ажратган ҳолда, мамлакатни фуқаролар уруши ва вайроналик домига ташладилар. Шу йўл билан большевиклар ҳукумати қон, ёвузлик ва зўравонликка таянди;

иккинчидан, давлат бошқаруви тизими – пролетариат диктатураси, қизил террор ва зулмга асосланган эди. Қотиллик, зўравонлик, ота-оналардан жудо бўлган минглаб гўдаклар – буларнинг барини бир изоҳ билан “оқлаш” мумкин – коммунизмча атеистик жамиятни қуришда қон-қариндошлик, меҳр-муҳаббат туйғуларининг унутилиши керак бўлган, ҳеч қандай дўст бўлмасин – фақат партия ғояси атрофида бирлашган ҳамфикрлар бўлиши керак бўлди. Диктатура ҳокимиятнинг бир ҳовуч кишилар қўлида тўпланишига олиб келди. Шунинг учун большевиклар фикрига зид фикрлар эгаси, ким бўлишидан қатъи назар, халқ душмани деб эълон қилинди;

учинчидан, жаҳон инқилоби мартабаси. Ушбу ғояни деб ўз таъсир доираларини кенгайтириш мақсадида коммунистик ҳукумат урушлар, инқилоблар ва террористик ишларни амалга оширди. Бу милионлаб одамларнинг ёстиғини қуритди. Коммунистик тузумни дастаклаш учун ҳар йили милионлаб доллорлар сарф қилинди;

тўртинчидан, “бир хиллик” принципи. Бу – инсон қандай меҳнат қилишидан қатъи назар ҳамма учун бир хил ўрнатилиб қўйилган ойлик-маошларда ўз аксини топган. Бу эса инсонни янгилик яратишга бўлган иштиёқини буғди. Барчада “ҳамма қатори бўлиш” ғояси расм бўлди. Шундай қилиб, большевиклар одамларни режали асосда итоаткор подага айлантиришди [8].

Хулоса қилиб айтганда, коммунистик партия жамиятдаги барча ижтимоий-иқтисодий, сиёсий, маънавий-мафкуравий соҳада якка ҳукмронга айланди. Шунинг учун маҳаллий кадрлардан миллий коммунистлар тайёрлаш ва уларга ўз она тилисида таълим олиши ва иш юритишига рухсат берилди. Бироқ кейинги даврда миллий республикаларда “аксилинқилобий” ҳаракатлар сифатида баҳоланган хатти-ҳаракатларнинг авж олиши большевикларни бошқарувни маҳаллийлаштиришдан марказлаштириш ва руслаштиришга томон кескин бурилиш ясашга мажбур қилди.

Адабиётлар

1. Шўро мактаби – коммунизмнинг чин мактаби // “Қизил Ўзбекистон”, 1928 йил 28 апрел, 96-сон.
2. Мафкура майдонида (Икромов маърузаси бўйича чиқарилган қарор) // “Қизил Ўзбекистон”, 1926 йил 5 май, 99-сон.
3. Ниқобланган бир “тилчи” ҳақида // “Қизил Ўзбекистон”, 1938 йил 4 январь, 3-сон. Мафкура майдонида (Икромов маърузаси бўйича чиқарилган қарор) // “Қизил Ўзбекистон”, 1926 йил 5 май, 99-сон.
4. Мафкура майдонида (Икромов маърузаси бўйича чиқарилган қарор) // “Қизил Ўзбекистон”, 1926 йил 5 май, 99-сон.
5. Тоҳир Қаҳҳор. Ҳур Туркистон учун. – Тошкент: “Чўлпон”, 1994.-Б.33.
6. Мустақиллик: Изоҳи илмий-оммабоп луғат // Муаллифлар: М.Абдуллаев, М.Абдуллаева, Ф.Абдуллаева ва бошқ. Тўлдирилган учинчи нашри. – Тошкент: Шарқ, 2006. –Б .179-180.
7. https://telegra.ph/kommunizm--ofat-12-18 -С .

MUHYINING XORIJIY SAFARLAR DAVOMIDAGI IJODI

Muhammadiyev Ahadjon Mahmudovich,
QarDU PI dotsenti, fil.f.n.

Biz bir qator ilmiy ishlarimizda shoir Muhyining oʻzbek va fors-tojik adabiyotida tutgan mavqei, uning Qoʻqon maʼnaviy va maʼrifiy muhiti doirasidagi oʻrni, oʻz davrining mashhur yozuvchi va shoirlari bilan ijodiy aloqalari kabi masalalarni izlanishlarimizning mavzu yoʻnalishlari doirasida qamrab olishga uringanmiz.

Avval ham taʼkidlaganimizdek, Muhyining hayoti va ijodi bilan qiziqish dastlab shoirning zamondoshlari tomonidan amalga oshirilgan. Shoir sheʼrlarining XX asr boshlarida chop etilgan oʻndan ortiq bayozlarga [1,2,3,4,5]. kiritilgani hamda 1911 yili uning oʻzbek va fors-tojik tilidagi sheʼrlari devon holida nashrdan chiqarilib, muxlislar eʼtiboriga havola etilgani ham fikrimizning isbotidir [10. 554-b.]. Biroq sobiq shoʻro tuzumi mafkurasi Muhyi va u kabi qalam sohiblari ijodini oʻrganishga yoʻl qoʻymadi. Natijada, oʻzbek adabiyoti tarixi haqida yozilgan asarlarda Muhyi ijodi tadqiqot mavzulari qatoridan oʻchirildi.

Muhyi ijodiga eʼtibor, asosan, mustaqillik yillarida boshlandi [6,7,8,11,12,13,14, 15,16,17,18]. Bu davrda Muhyi hayoti va faoliyatiga bagʻishlangan A.Hayitmetov, I.Abdullayev, Sh.Yusupov, A.Madaminov, S.Sotvoldiyev, R.Tojiboyev, N.Zohidov, A.Turdialiyevlarning qator maqolalari eʼlon qilindi. Ularda shoirning tarjimai holi muxtasar bayon etildi, uning shaxs va shoir sifatida shakllanishi bosqichlarini belgilab berishga harakat qilindi. Jumladan, Sh. Yusupov Muhyi hayoti va ijodiga bagʻishlangan maqolasiga Poʻlatxon Qayumov tazkirasidagi Muhyiga oid baʼzi xotiralarni kiritadi. «Faqirlikda Muhyi Muqimiyga nisbatan juda faqir edi. Hovli-joyi, roʻzgʻor, xotun-bola va qarindoshi butunlay boʻlmagandur. Mol, pul toʻgʻrisida soʻzlashga hojat ham yoʻq»[16. 114-b.].

Shu oʻrinda, Xoja Ubaydulloh Ahrori Valiyning «Faqirlik faxrimdir» degan mashhur shiori baayni siyratda oddiylik, tiynatda badavlatlik mazmunini ham bildirishidan kelib chiqsak, shaxs va shoir sifatida Muhyi tom maʼnoda shu aqidaga

amal qilgani anglashiladi. Taassufki, Muhyi ijodiga bag'ishlangan mana shunday teran kuzatuvlarga asoslangan tahlillar yetarli darajada emas edi.

Vaholanki, Muhyi – chinakamiga san'atkor shoir, haqiqiy ma'noda fozil zot edi. Uning iste'dodi zamondoshlari, iste'dodli shoirlar Furqat va Muqimiylarni hayratga solgan. Asarlari xalq tomonidan ham birdek sevib o'qilgan, o'z davrida haqli ravishda tahsinlarga sazovor bo'lgan.

XIX asrning ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida, Toshkent, Buxoro, Xorazm, Kattaqo'rg'on adabiy maktabi namoyandalari singari, Qo'qon adabiy muhiti vakillari ham o'zbek adabiyotining barhayot an'analarini muvaffaqiyatli davom ettirishdi. Shubhasiz, bu jarayonlar Muhyi ijodiga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Muhyi sohibdevon, zullisonayn ijodkor edi. U fors-tojik va o'zbek tillarida betakror asarlar yaratdi. Buning natijasi o'laroq turkiy va forsiy devonlarini yaratdi.

Manbalarda keltirilishicha, Muhyi G'azna shahridagi madrasada mudarris bo'lgan otasi qo'lida xat-savod chiqaradi. So'ng Hirot madrasalarida qisqa muddat tahsil oladi. Hirotdagi ta'lim darajasidan ko'ngli to'lmagan Muhyi, ko'p o'tmay Buxoro madrasalaridan biriga kelib o'qiy boshlaydi. Bu yerda u arab tilini mukammal o'rganadi. 1850 yillarning o'rtalarida Buxoro madrasasini tugatib, dastlab Farg'onaga, so'ngra Andijonga keladi. 1850 yillar oxiriga borib Qo'qon madaniy muhitiga kelib qo'shiladi. Bilamizki, shoir qo'qon adabiy muhitida nash'u namo etdi. O'z iste'dodini namoyon etish pirovardida ko'plab muxlislar orttirdi. Qo'qonning turli tabaqadagi kishilari bilan do'stlashdi. Qo'qon bo'ylab sayohatlar qildi va bu sayohatlarini Muqimiy sayohatnomalari kabi she'riy satrlarda aks ettirdi. Biz bularni forsiy devondagi fardlardan so'ng joylashtirilgan qasidalarda ko'ramiz.

Forsiy devondagi birinchi qasida Mullo Yo'ldosh To'raboy o'g'li Xilvatiyga bag'ishlangan bo'lsa, ikkinchisi Marg'ilon va Roshidon shaharlarining ta'rifu tavsifidan iboratdir. Qasida avvaliga «Qasidai navinaki dar rohi Marg'inon dar tariqi Roshidon gufta shuda» deya sarlavha qo'yilgan. Qasida shunday bayt bilan boshlanadi:

Субҳи ҷумъа матлаи субҳи саодатро нишон,

Гаштам аз дарвоза берун раҳ ба суйи Рошидон [9. 208-b.].

Qasidaning xarakterli tomoni shundaki, u mazmunan o‘quvchiga Muqimiy sayohatnomalarini eslatadi. Shoir mazkur qasidaning hajmi haqida shunday yozadi:

Буд мачмуи ҳамин абёт аз яксад фузун,

Нисфи он таърифи Риштон, нисфи васфи Марғинон [9. 211-b.].

Demak, shoirning xabar berishicha, ushbu qasida 100 baytdan ziyod bo‘lgan. Uning yarmi Roshidon, yarmi esa Marg‘ilon ta’rifida bitilgan. Nazarimizda, shoir qasidani yo‘lma-yo‘l badihatan aytib yozgani bois, keyinchalik uni qisqartirgan ko‘rinadi. Chunki qasidaning devondagi varianti 51 baytdan iborat. Uning 49 bayti esa devonga kiritilmagan.

Xullas, tez orada shoir va alloma sifatida shuhrat qozongan Muhyini Qo‘qondagi Mallaxon saroyiga xizmatga olishadi. Muhyi bu yerda ham obro‘-e’tibor topadi. Hatto diplomatik ishlarga ham jalb qilinadi. U 1859-1861 yillar orasida xonning maxsus elchisi maqomida bir necha marta Afg‘oniston va Hindistonga boradi. Yo‘l-yo‘lakay Turkiya, Eron singari mamlakatlarni ko‘rishga muvaffaq bo‘ladi. E’tiborli jihati, u safar chog‘ida qayerda atoqli olim yoki qalam sohibi borligini eshitsa, darhol uning huzuriga borib suhbat quradi. Albatta, shoir xizmat yuzasidan kezib chiqqan shaharlar xususida tuyg‘ulari, kuzatuvlari aks etgan she’rlar ham bitadi. Shulardan biri hozirda Pokiston hududidagi Lohur shahri ta’rifi xususidagi «Dar sifati shahri Lohur ba tariqi badiha gufta shuda bud. Dar shahri Lohur» sarlavhali she’ridir.

Badiha avvalida shoir shunday yozadi: «Dar sifati shahri Lohur ba tariqi badiha gufta shuda bud. Dar shahri Lohur» (ma’nosi: Lohur shahrining sifatida badihatan aytildi. Lohur shahrida).

Зиҳи Лоҳуру шаҳри дилкушояш,

Чи гўям васфи хубии ҳавояш.

Эрамро хичлате аз тарҳи боғаш,

Фалак сар бар замин аз ҳар бинояш. [9. 105-b.].

Ma’nosi: Lohur shahri ko‘ngil ochuvchi shahardir. Uning xushbo‘y havosi vasfida nima ham derdim. Lohur bog‘ining go‘zalligidan, hatto Eram bog‘i ham xijolatda. Uning har bir binosining balandligidan falakning boshi ham yerda bo‘ladi.

Ko‘rinadiki, badihago‘ylik shoirning zukkoligi, topqirligi, qolaversa, uning nechog‘lik iste’dod sohibi ekanini belgilovchi mezonlardan biridir. Ammo badihago‘ylik ijodkorlarning zakiyligini ko‘rsatish bilan birgalikda asosi tezkorlikka qurilgani uchun qofiyabozlikni keltirib chiqarishi, rangsiz baytlar yozilishiga sababchi bo‘lishi ham mumkin. Bunday holatlar Muhyi badihalarida deyarli kuzatilmaydi. Aksincha, uning badihalari an’anaviy ta’rifu tavsiflardan o‘tib, o‘quvchini mushohada yuritishga undovchi go‘zal baytlardan tarkib topgan.

Maqola avvalida ta’kidlaganimizdek, Muhyi nafaqat Muqimiy kabi mamlakat ichkarisida sayohat qilgan, balki xorij safarlariga ham tetz-tez chiqib turgan. Bunga sabab uning betakror iste’dodi edi. Garchi rasman bo‘lmasa-da Xon Muhyini deplomatik ishlarga jalb etadi. Bu sayohatlar esa Muhyiga dunyoni ko‘rish, borgan mamlakatlariga ma’rifat ulashish va ma’rifatlanish imkonini bergan. Albatta Muhyi iste’dodli ijodkor sifatida bu sayohatlarini o‘z asarlariga muhrlagan. Chet el sayohatlari davomida bitilgan asarlaridan yana biri Turkiya sakfari chog‘ida dunyo yuzini ko‘rdi.

Shoir devonida Turkiyaning Istambul shahridan yuborilgan yigirmaga yaqin suratlarning tasviriga bag‘ishlangan qit’alar mavjud. Bu haqda Muhyi qit’a avvalida shunday yozadi: «Ma’lum o‘laki, ushbu qit’otni fit-tug‘rof birlan olg‘on Islombul tasvirining orqosig‘a bayon aylab ma’lum qilmog‘ uchun aytib yozgon edim».

Qit’alarda Istambul shahridagi masjid, madrasa va maqbaralar, daryo va ko‘priklar, podsho lashkarlari hamda ularning kazarmalari kabi turli xil inshootlar tasvirlangan. Shoir qit’alardan birida Istambul shahrini barcha mamlakatlarning boshi sifatida quyidagicha ta’rif etadi:

Shahri Islombulki bu olam aro,
Barcha kishvarni jahonda boshidur.
Aylag‘il nazzora bu tasvir aro,
Jumlasi ul kupurukni boshidur. [9. 353-b.]

To‘pchilar suratiga sharh sifatida bitilgan navbatdagi qit’ada esa shoir mamlakatning harbiy quvvatiga yuksak baho beradi. Suratdagi har bir to‘pchini go‘yo bir ajdarga qiyoslab quyidagicha yozadi:

Hazrati Sulton Hamidni shukri,

Chiqqon erkon ul kazarmadin biri.

Ushbulardur to‘pchilarni surati,

Har biridur begumon bir ajdari. [9. 354-b.]

Shoirning forsiy devonida ham turkiy devondagi singari Istambul shahri tasviri aks etgan suratlar ta’rifiga bag‘ishlangan turkum qit’alar mavjud. Fikrimizning isboti uchun shoirning Xol ota qal’asi tasviriga bag‘ishlangan qit’asini sharhlaymiz:

Ин иморатроки бини дар ҷаҳон,

Аз шукуҳаш дар замона ғулғуласт.

Гар надони Муҳйи мегӯяд шунав,

Қалъаи Хол ота дар Истамбуласт. [9. 154-b.]

Ma’nosi: Dunyo ichra mavjud bo‘lgan bu imoratni ko‘rgin. Uning ulug‘vorligidan zamona (ahli) hayratdadir. Agar bu imorat to‘g‘risida hech narsa bilmasang, Muhyidan eshit. Bu – Istambuldagi Xol ota qal’asidir.

Xulosa shuki, Muhyi mustahkam axloqiy, falsafiy, estetik qarashlari shakllangan, o‘z e’tiqodida sobit, ijodda o‘z yo‘liga ega, Xo‘qandi latifda yetarlicha shuhrat qozona olgan qalamkash edi. Shuning uchun bugungi kunda uning rang-barang badiiy merosini o‘rganish hayotiy zarurat yanglig‘ ahamiyatli.

Bu shoir hayoti va ijodini o‘rganish XIX asr zulmatida porlashdan to‘xtamagan o‘zbek ziyolisining ichki qudratini anglash, his etish, davr va shaxs ziddiyatlarida olijanoblik martabasini yo‘qotmaslik, ruhan sinmaslik siru asrorlarini oydinlashtiradi. Eng muhimi, ana shu murakkab va muhim voqelikning iztiroblari qalb ostonasidan o‘tib, badiiy obidalarga aylangani Muhyining ijod yo‘lini yaqqol aks ettirishga, Qo‘qon adabiy muhitini esa yaxlit holga keltirishga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Bayozi yangi. Tuzuvchi Abdukarim Kamiy. Tipo.-lit. – Toshkent: G.Y.Yakovlev, hijriy – 1329 yil (O‘zFASHIning toshbosma asarlar fondida 2080 raqami bilan saqlanayotgan nusxa).
2. Bayozi Muhallo. Tipo.-lit. – Toshkent: G.Y.Yakovlev, hijriy – 1330 yil (O‘zFASHIning toshbosma asarlar xazinasida 321 raqami bilan saqlanayotgan nusxa).

3. Bayozi Muhallo. Tipo.-lit. – Toshkent: G‘.Orifjonov matbaasi, hijriy 1235 (m. 1916). Muqovasi jigarrang, guldor – 144 s., 13x23. (O‘zFA qo‘lyozmalar institutida 1977 raqami bilan saqlanayotgan nusxa).
4. Bayozi Haziniy. Tipo.-lit. – Toshkent: G.Y.Yakovlev, hijriy 1331 yil (O‘zFASHIning toshbosma asarlar xazinasida 317 raqami bilan saqlanayotgan nusxa).
5. Bayozi Haziniy. Tipo.-lit. – Toshkent: G‘.Orifjonov matbaasi, hijriy 1328 (m. 1610), (O‘zFA qo‘lyozmalar institutida 1977 raqami bilan saqlanayotgan nusxa).
6. Зоҳидов Н. Муҳиддин Муҳаммад Ризо охунд ўғли Муҳйи // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1994. № 3. – Б. 46-48.
7. Исматулла Абдуллоҳ. Шоир қадри // Ўзбекистон адабиёти ва санъати газетаси, 2000 йил, 24 март. № 13.
8. Мадаминов А. Фансуруллобекнинг Муҳйига манзумалари // “Ўзбекистон адабиёти ва санъати” газетаси, 1991 йил, 22 ноябрь сони.
9. Муҳйиддин Муҳйи. Девони Муҳйи. – Тошкент: Ҳожи Абдуррауф нашри, 1911/м. (ЎзФАШИ нинг тошбосма асарлар фондида №3220 инвентар рақами билан сақланмоқда), 360 саҳифа. Ўзбекча-тожикча, ўзбекча қисми 231-саҳифадан бошланади.
10. Пўлатжон Қайюмов. Тазкираи Қайюмий. III жилдлик, 3-жилд, Тошкент, 1998. – 554-б.
11. Сотволдиев С. Муҳйи Андижонда // Шарқ машъали. – Тошкент, 1992 йил. – № 3-4.
12. Сотводиев С. Муштарак шоир Мавлоно Муҳйиддин Муҳйи Хўқандий Қандаҳорий ал-асл // Газетаи Анис. Афғонистон, соли 1370 ҳ/ш, 27 далв.
13. Тожибоев Р. Андижон зилзиласи Қўқон шоирлари назмида // Адабий мерос. – Тошкент – 1998. № 3-4.
14. Турдиалиев А. Муҳйи ва Худоёрхон авлодлари // Қўқон садоси газетаси. – Фарғона, 2005 йил, 31 март.
15. Юсупов Ш. Муҳйи Хўқандий // Шарқ юлдузи. – Тошкент, 2002. № 1.– Б. 111-120.
16. Юсупов Ш. Тарих ва адабиёт бўстони // –Тошкент. Маънавият, 2003.

17. Юсупов Ш. Муқимий ва Муҳйи // Ўзбекистон адабиёти ва санъати газетеси. – Тошкент, 1996 йил 21 июнь сони.
18. Ҳайитметов А. Тақдир ва таҳсинга лойиқ // Ўзбекистон адабиёти ва санъати газетаси, 1992 йил, 9 октябрь.

MIRI JANDA OTA YOHUD SHAYX SHAHOBIDDIN SUHRAVARDIY QADAMJOSI TARIXI

Tilayev Ermat Rahmatovich, *QarDU PI dotsenti,*
Rahmatov Mustafo Musurmon o'g'li,
G'uzor tumanidagi 68-maktab o'qituvchisi

Yurtimizda tarixiy yodgorliklar juda ko'p. Turli davrlarda bunyod etilgan, ne-ne suronli davrlarning shohidi bo'lgan, har biri moziyning bir parchasi sifatida saqlanib qolgan madrasa, maqbara, masjid, xonaqoh va ziyoratgohlar tariximizning tilsiz tilsimidir. **"O'zbekiston juda katta turizm va rekreatsiya salohiyatiga ega, unda jami 8.2 mingta madaniy meros obyektlari mavjud, ulardan 209 tasi to'rtta muzey shahar Xiva shahridagi Ichanqal'a, Buxoro va Shahrisabz shaharlarining tarixiy markazlari hamda Samarqand shahri hududida joylashgan bo'lib, YUNESKOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan"[**1] Birgina Qashqadaryo viloyatida 927 ta madaniy meros obyekti mavjud bo'lib, ularning 163 tasini arxitektura inshootlari, 683 tasini arxeologik yodgorliklar, 61 tasini qadimiy san'at asarlari, 20 tasini esa ziyoratgohlar tashkil etadi[2]. Ulardan biri Guzor tumanida joylashgan Miri Janda Ota ziyoratgohi hisoblanadi. Bu maskan tarixi uzoq o'tmishga borib taqaladi.

O'rta asrlarda G'uzor iqtisodiy savdo aloqalarning markaziy shaharlaridan biriga aylangan. Buxoro amirligi davrida (1756 – 1920) G'uzor madaniy, iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy sohalarda yetakchi shaharlardan biri bo'lgan. Buxoro amirligi shahzodalari G'uzorda to'ralik qilishgan. Bugungi kunda eng ko'zga ko'ringan ko'hna qadamjolardan biri Miri Janda ota ziyoratgoh tarixi XII – XIII aslardan boshlandi. Ushbu hududda uning ramziy maqbarasi joylashgan.

Bu Suhravardiya tariqatining taniqli vakili edi. Uning asl ismi Shixobiddin (Shahobiddin) Abu Hafs al-Suhravardiy. Tariqatning asoschisi amakisi Ziyuddin Abu

Najhib al-Suxravardiy (1097 – 1168). Uning faoliyati Bag‘dod, Damashq, Halab kabi shaharlarda bo‘lib o‘tgan. Tariqat Suhravardiyya vakillari orasida tilga olinadi[3]

Suhravardiylar – mashhur mutasavviflar, Eronning Suhravard shahrida tug'ilgan (XII asr) 3 qarindosh: Najib Suhravardiy (1097 – 1168), Shayx Shahobiddin Abu Yahyo Suhravardiy (1155 – 1191), Shayx Shahobiddin Abu Hafs Umar Suhravardiy (1144 – 1234) Iroq mamlakatining Xorazmshoh davlatidagi elchisi bo'lib, 25 yil xizmat qilgan. Najib Suhravardiy keyingi ikkalasining ustozi bo‘lgan. Yahyo Suhravardiy tasavvufda “ishroq” (nur) falsafasini yaratgan[4]

Shayx Shahobiddin Abu Hafs Umar Suhravardiy “Tasavvufiya ta'limot va tarbiyaning ustozi” nomi bilan atalashi hamda o'zining siyosiy mahorati sababli “Barcha ustozlarning ustozi” unvonini xalifa Nosir li-Din Alloh davrida qo'lga kiritadi.

Shayx Shahobiddin Abu Hafs Umar Suhravardiy “Tasavvufiy ta'limot va tarbiyaning ustozi” nom bilan atalashi hamda o'zining siyosiy mahorati sababli “ Barcha ustozlarning ustozi” unvonini xalifa Nosir li-Din Alloh davrida qo'lga kiritadi[5]

Suhravardiyning “Avorif ul-maorif ”(Marifat tuhfalari) asari o'zining ilmiy va amaliy ahamiyatga egaligi bilan boshqa asarlardan mutlaqo ajralib turadi. Muhim asar sifatida risola XIII – XVI asrlarda turk, fors kabi bir qancha tillarga,

shuningdek bu asar 1346-yil va 2014-yillar oralig'ida 40 marta xorijiy tillarda nashrdan chiqqan va bugungi kunda ushbu asarning nusxalari jahonning 241 kutubxonasida saqlanmoqda. Aytib o'tish joizki, yunon faylasuflari, jumladan, Aristotelni falsafasini tanqid qilishga bag'ishlangan “Kashf ul-fadoiyihi-l-yunoniyya va rashf un-nasoih an imomiya” asari 1999-yil va 2010-yillarda 6 marta nashrdan chiqqan bo'lib dunyoning 29 ta kitobxonasida saqlanmoqda. Tarixiy manbalarda Suhravardiyning yana ko'pgina asarlari ya'ni “Bahjat ul-g'avsi-l-g'iloniy”, “Bug'yat ul-bayon fi tafsiri -l-Qur'on va manosik”, “Ajviba an as'ilati ulamoi Xuroson”, “Risolat ul-faqir fi muxolifati-n-nafs va-l-qahr”, “Havosu avrodi-s- Suhravardiy”, “A'lom ul-xudo” singari ilmiy manbaalar o'ta ahamiyatli hisoblanadi. Shahobiddin Suhravardiyning hayoti haqidagi ayrim manbalarda keltirilishicha milodiy 539-yil,

hijriy 1144-yil Suhravard – Eronning Jabal o’lkasida tavallud topib, milodiy 632-yil, hijriy 1234-yil muharram oyida arab xalifaligining yirik shaharlaridan birir bo’lgan Bag’dodda vafot etgan. Lekin bugungi kunda Shahobiddin Suhravardiyning vafot etgan joyi munozarali bo’lib qolmoqda. Chunki tarixchi Poyon Ravshanovning “Qashqadaryo tarixi”, В.Д. Кочиенинг “Работы в Каршинском оазсе” asarlarida Shahobiddin Suhravardiyning qabri G’uzor shahriga dafn etilganligi aytib o’tilgan.

Bugungi kunda xalqimiz orasida ushbu maqbara Miri Janda nomi bilan tanilib kelmoqda. P. Ravshanovning “Qashqadaryo tarixi” asarida Miri Janda “Buyuk xirqa” deb aytib o’tgan. “Janda” – so’zi arab tilida yamoq, quroq ma’nolarini bildiradi. U junli matodan tikilgan ustki kiyim bo’lib uni, asosan, so’fiylar kiygan. ustozdan shogirdga o’tib kelgan ushbu kiyim yillar davomida eskirgan va yamoq holatiga kelib qolgan.

Bugungi kunda xalqimiz orasida Miri Janda haqida turli rivoyatlar saqlanib qolgan. Ulardan biri maqbarani XIV asrda Sohibqiron Amir Temur tomonidan obod qilinganiligi tarix fani uchun ahamiyatli hisoblanadi.

Sobiq sho’ro davrida milliy an’analarning o’rganilishi va oshkor etilishiga nisbatan taqiqlar o’rnatilgan. Yurtimiz uzra mustaqillik shamoli keza boshlagach, boshqa shahar va viloyatlarimizdagi singari Qashqadaryo viloyatida ham qadimiy obidalarni ta’mirlash, tiklash borasida bir talay ishlar amalga oshrildi. G’uzor tumani xalqi, xususan, mahalla oqsoqollari va diniy arboblarning tashabbusi bilan 2009-yilda Miri Janda jome masjidi hududida joylashgan Shayx Shahobiddin Abu Hafs Umar Suhravardiy maqbarasi va ziyoratgohi atrofining butunlay qayta tamirlanishi ham yuqoridagi kabi xayrli, savobli ishlarning uzviy davomi aslo mubolag’a bo’lmaydi.

Adabiyotlar

1.Mirziyoyev.Sh. Sh. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi -"O'zbekiston"-2022.

2. Аминов Б.Б. Надгробные надписи святыни Мир-и Джанди ата (Гузарский район Кашкадарьинской области (Республики Узбекистан) – т.археология евразийских степей. № 6. , 2017. B-179-184

3. Ergashev A. Miri Janda ota majmuasi. – “Hilol media”. Toshkent. 2019-yil

4. Ergashev A. G'uzor memorchiligi tarixi B-49. “Hilol media”. Toshkent - 2019

5. O'zbek tilining izohli lug'ati 5-jild T- 2006 “O'zbekiston milliy ensiklopediyasi”

6. www.ziyonet.uz

7.www.arxiv.uz

ЎЗБЕКИСТОНДА ҚИШЛОҚ ХЎЖАЛИГИНИ ҚАЙТА ҚУРИШ ЖАРАЁНЛАРИ ВА МЕҲНАТКАШЛАРНИНГ ТУРМУШ ШАРОИТЛАРИ МУАММОЛАРИ (XX АСРНИНГ 20-ЙИЛЛАР ИККИНЧИ ЯРМИ – 30-ЙИЛЛАР)

Шоймардонов И.,
ҚарДУ ПИ катта ўқитувчиси, т.ф.н.

Ҳозирги даврда ўтмиш тарихимизга янгича тафаккур руҳи билан қараш ва ундан илмий хулосалар чиқариш катта аҳамиятга эга. Чунки бу узоқ вақт давом этган маъмурий-буйруқбозлик тизими шароитида социализм қурилиши ишлари билан боғлиқ ижтимоий-сиёсий жараёнларга ҳам тегишлидир.

XX асрнинг 20-йиллар иккинчи ярмида Сталин бутун ҳокимиятни ўз қўлига олиш мақсадида ўзининг барча ҳаракатларини бошлаб юборган эди. Ўша вақтларда ҳали пухта бир илмий назариянинг яратилмаганлиги, ғалла тайёрлашдаги танглик янги иқтисодий сиёсатни тугатишга сабаб бўлди. Бу даврдаги қийинчиликларни биргаликда, оқилона ҳал қилиш ўрнига “диктатор” ўз билганича иш тутди. Унга қарши чиққанлар эса қамалди, сургун қилинди, отиб ташланди. Оқибатда ҳокимиятни тўсиқсиз эгаллаб олишга, уни суистеъмол қилишга, ғоятда кучли тоталитар, маъмурий-бюрократик тизимнинг шаклланишига йўл очилди.

Ўзбекистонда иқтисодиётнинг асосини қишлоқ хўжалиги ташкил қилар эди. 1928 йилга келиб қишлоқ хўжалик маҳсулотлари қиймати 192 млн сўм, саноат маҳсулотлари қиймати эса 240 млн сўмга етди[1].

1929 йил ноябрида собиқ фирқа Марказий Қўмитаси Пленуми олдинда турган барча вазифаларни янгича белгилаб берди: “коллективлаштириш ва совхозлар тузилиши жараёнларини жадаллаштириш”, “индустрия тараққиётини жадаллаштириш”. Ана шу асосда “пролетар диктатураси мамлакатида социализм

қурилиши иши тарихий қисқа муддатларда ўтказилиши мумкин" деган сўлларча-утопик кўрсатма берилган эди.

Бундай аҳвол собиқ иттифоқ таркибига кирган Ўзбекистонда ҳам осон кечмади. Ўрта Осиё халқларининг азалий ҳудудий чегаралари бузила бошланганидан кейин бу ҳолат янада жиддийлашди. Мана шундай вазиятда партия ва маҳаллий ҳокимият органлари хўжалик ва маданий ишларни янада жонлантириши зарур эди.

Дастлаб Ўзбекистоннинг ижтимоий-иқтисодий аҳволини мамлакат марказининг ижтимоий-иқтисодий даражаси билан тенглаштириш масаласи турар эди. Бу ҳудудий-давлатчилик таркибида Ўзбекистон ҳам бўлган минтақанинг техникавий-иқтисодий қолоқлиги билан боғлиқ эди. Совет давлат хўжалик сиёсатининг индустриал-саноат қурилиши ва аграр секторида туб ўзгартиришлар асосида халқ хўжалиги мажмуидаги номутаносибликни бартараф этишдан иборат асосий вазифа келиб чиқар эди. Мана шу муносабат билан Ф.Хўжаев 1925 йилда бундай ёзган эди: "Биздаги саноат қишлоқ хўжалигимиз билан чамбарчас боғланган ва унинг ривожланишига боғлиқдир, чунки саноатимиз қишлоқ хўжалик маҳсулотининг 80-90 фоизини ишлатиш ва қайта ишлаб бериш билан шуғулланмоқда... Яқин вақтлар ичида Ўзбекистон Республикасида йирик саноат барпо қилмоқ учун биринчи навбатда қишлоқ хўжалигини ривожлантиришга, маблағлар тўплашга эътибор бериш керак "[2].

Аграр секторни қайта ташкил этиш масалаларини ҳал этишда Ўзбкистонда ердан фойдаланишнинг маҳаллий ўзига хослиги билан боғлиқ катта қийинчиликларни енгиб ўтишга тўғри келди. Қишлоқ хўжалиги соҳасидаги дастлабки тадбирлар ер-сув ислоҳотини амалга оширишга, кейинги чора-тадбирлар эса деҳқон хўжаликларини коллективлаштиришга қаратилган эди. Деҳқон хўжаликларининг 80% дан кўпи 20-йилларнинг охирига келиб кооперативлаштиришнинг турли шакллари билан қамраб олинган эди[3].

Аграр сектордаги қайта ўзгаришлар қишлоқ хўжалигини тубдан қайта қуриш, уни машиналар билан таъминлаш, қишлоқ меҳнаткашларининг умумий маданиятини, маълумот ва техник савиясини кўтариш масаласини кун тартибига

қўйди. Қишлоқ хўжалиги ишлаб чиқаришнинг паст даражаси умумий иқтисодий ривожланишни таъминлай олмас, республиканинг бундан кейинги тараққиёт йўлига жиддий тўсқинлик қилар эди.

1925 йил 2 декабрда ЎзССР Советлари Марказий Ижроия Қўмитаси ва Халқ Комиссарлари Совети “Ер ва сувни национализация қилиш ҳақида” Декрет ва “Ер-сув ислоҳоти тўғрисида” Декрет қабул қилди. Бу ҳужжатларга мувофиқ “ўзининг шахсий меҳнати билан ва оила аъзоларининг меҳнати билан ерга ишлов беришни хоҳловчи меҳнаткаш деҳқонларга ва уларнинг ширкатларига, жинси ва миллатидан қатъи назар, шунингдек шаҳарчалар, давлат муассасалари ва кооператив ташкилотларга қишлоқ хўжалиги ерлари ва сувларидан фойдаланиш”[4] ҳуқуқи берилган эди.

Ўзбекистонда аграр қайта ўзгартиришлар партия қарорларига мувофиқ амалга оширилди. ВКП(Б) Марказий Қўмитасининг 1929 йил ноябрь ойида бўлиб ўтган Пленуми қуйидагиларни таъкидлади: “... қишлоғида (овулида) феодал уруғчилик муносабатларининг қолдиқлари ҳали кучли бўлган, кўчманчи ва ярим кўчманчи хўжаликдан ўтроқликка ва ерни ишлаб деҳқончилик қилишга ўтиш жараёни юз бераётган миллий районларда ҳам коллективлаштириш ўтказиш ва қишлоқ хўжалигига илғор машина техникасини жорий қилиш омманинг моддий ва маданий даражасини оширишда ва уни социалистик қурилишга жалб қилишда жуда муҳим роль ўйнайди”. Ўзбекистонда аграр қайта ўзгартиришлар партиянинг мана шундай кўрсатмалари асосида олиб борилди. Бундан ташқари, Ўзбекистон Иттифоқ тизимида асосий пахта базаси эди ва шу боисдан фуқаролар урушидан кейин бу ерда пахтачиликнинг тикланиши ва ривожланиши давлат ҳокимиятининг вакиллик органлари бўлган қишлоқ Советларининг хўжалик-ташкилотчилик фаолияти билан, уларнинг қишлоқ хўжалигини қайта қуриш ва меҳнаткашларнинг турмуш шароитларини яхшилаш тўғрисида ғамхўрлик қилишлари билан боғлиқ ҳолда ҳал қилинарди.

1920 йиллар иккинчи ярмида ер-сув ислоҳоти ўтказилди. Бундан мақсад ер ва сувни ҳисобга олиш, улардан фодаланишни маълум бир меъёрга келтириш ҳамда уларга нисбатан назоратни ташкил этиш эди. Фақат Ўзбекистоннинг тўрт

вилоятида: Фарғона, Тошкент, Самарқанд ва Зарафшон вилоятларида ер-сув ислоҳоти ўтказиш натижасида ерсиз ва кам ерли деҳқонларга бериш учун 219513 десятина ер ажратилди. Ислоҳот 24572 хўжаликда ўтказилди. Ислоҳот натижасида “помешчик” типидаги 751 хўжалик тугатилди; бу хўжаликларнинг ҳар бирида 40 минг десятинадан ортиқ ер бор эди. Сурхондарё ва Хоразм вилоятларида ер-сув ислоҳоти ўтказилиши натижасида 42664 десятина суғориладиган ер деҳқон хўжалигига топширилди [5].Афсуски, ислоҳотни амалга ошириш жараёнида бир қанча жиддий хатоликларга йўл қўйилди. Ислоҳот бўйича хўжаликлардан ва деҳқонлардан меъёрдан ортиқ ерлар тортиб олинди. Бундан ташқари, деҳқон хўжаликлари “ортиқча” қишлоқ хўжалик асбоб-ускуналари, от-улов ва бошқа энг муҳим нарсаларидан ажралдилар. Ўтказилган ер-сув ислоҳотининг оқибати шу бўлдики, натижада ишбилармон деҳқонларнинг меҳнатга бўлган иштиёқи сўндирилди, ишлаб чиқариш суръатлари кескин даражада пасайиб кетди. Булар ҳам иқтисодиётнинг оғир аҳволда қолишига сабаб бўлди.

“Пахта мустақиллиги” учун кураш қишлоқдаги умумий қайта ўзгартиришлар билан бирга олиб борилди. Коллективлаштиришнинг кенг кулоч ёйиши, пахтакор хўжаликларнинг ташкил этилиши ва ташкилий-хўжалик жиҳатдан мустаҳкамланиши мамлакатни пахта хом ашёси билан таъминлашда асосий йўналишлардан бирига айланди.

1930 йил 18 октябрда “Ўзбекистон Республикасининг қишлоқ Советлари ҳақида Низом” қабул қилинди. Унда “қишлоқ Советларининг асосий вазифаси коллектив хўжаликлар ва бошқа коллектив бирлашмалар ташкил қилиш йўли билан қишлоқ хўжалигини социалистик асосда қайта қуришга раҳбарлик қилишдан иборатдир” деб таъкидлаб ўтилди. Қишлоқ Советлари, шунингдек, колхоз қурилишида қатнашувчи ҳамма муассаса ва корхоналарнинг, колхозларнинг ўзларининг қилган ишлари ҳақида вақт-вақти билан уларнинг ҳисоботларини эшитиб, коллектив хўжаликларнинг режаларини қараб чиқиш ва тасдиқлаш ҳуқуқига ҳам эга эди.

Мураккаб ижтимоий-иқтисодий шароитларга қарамасдан қишлоқ аҳолиси меҳнатини ташкил этиш ва уларнинг турмуш шароитларини яхшилаш масалалари борасида маълум ишлар қилинди. Чунки меҳнат шароитини яхшилаш, уни инсонга хос даражага кўтариш ҳамиша меҳнаткашларнинг муҳим иқтисодий талабидир. Қаерда меҳнат шароити яхши ташкил этилган бўлса ўша ерда кишиларнинг саломатлиги ва иш қобилиятлари юқори даражада бўлади. Бу эса ўз-ўзидан меҳнат унумдорлигининг ва ишлаб чиқариш самарадорлигининг ўсишига олиб келади.

1930 йилда уй-жой қурилишига салкам 5 млн.сўм сарфланди. Шундан Тошкент округига – 500 минг, Самарқанд округига – 400 минг, Бухоро округига – 250 минг, Фарғона округига – 500 минг сўм берилди [6].

1933 йилда ҳукумат томонидан уй-жой қурилиши эҳтиёжларига 16,9 млн.сўм, коммунал хўжаликка 37,6 млн.сўм ажратилди [7]. 1937 йилда Ўзбекистон уй-жой коммунал хўжалигига ажратилган маблағлар 122 млн.сўмгача оширилди [8].

Сталинчи раҳбарият амалда зўрлаш усулларини ишлатган ҳолда Ўзбекистонда деҳқонларни коллектив хўжаликка олиб кириш йўлига ўтиб олди. “Ялпи коллективлаштириш” шунга олиб келдики, колхозлар сони 1928 йилдаги 675 тадан (9428 якка деҳқон хўжаликлари) 1932 йилда 9155 тага (662473) етди [9]. Бироқ бу ўзбек деҳқонларининг кооперативлаштиришга тайёр бўлганликларидан келиб чиқмаган эди.

Қулоқлаштириш, колхозлар ва совхозларнинг ташкил этилиши, якка деҳқон хўжаликларининг бирлаштирилиши маъмурий куч ишлатиш усуллари билан амалга оширилди ҳамда деҳқонларнинг коллективлаштириш сиёсатидан оммавий норозилигини келтириб чиқарди. Бундан ташқари, 30-йиллар бошида деҳқонлар ҳаракати жонланиб кетди. Бунга сабаб шу эдики, 1917 йилга қадар қишлоқларда бой деҳқонлар катта ижтимоий-иқтисодий роль ўйнар эдилар. Октябрь тўнтаришидан кейин содир бўлган бир қанча салбий жараёнлар туфайли уларнинг аҳволи анча оғирлашган эди. Шунинг учун уларнинг

баъзилари чет элдаги гуруҳлар билан алоқада бўлдилар ва ижтимоий адолатни тиклаш мақсадида улар билан биргаликда ҳаракат қилдилар [10].

Ўзбекистонда амалга оширилган аграр қайта ўзгартишларнинг асосий мазмуни пахта “яккаҳокимлиги”нинг буйруқбозлик билан жорий этилиши бўлди. Шу билан бирга пахта толасининг ҳарид нархлари паст бўлиб, унинг таннархи ва меҳнат сарфларига мувофиқ келмас эди. Қишлоқ меҳнатчилари учун зарур иқтисодий рағбатлар яратилмаган эди. Пахта толаси таннархининг харажатларга мос келмаслиги шунга олиб келдики, республика давлат (умумиттифоқ) дотациясига тушиб қолди, “боқиманда”га айланди.

XX асрнинг 20-йиллар иккинчи ярми – 30-йилларда Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги ривожланишининг кўплаб масалаларини ҳал этиш ҳуқуқий ва ахлоқий нормаларни оёқ ости қилувчи усуллар билан жадал суръатларда ўзбек халқининг миллий ўзига хослиги ва тарихий, маданий анъаналарини ҳисобга олмасдан амалга оширилди.

Ер-сув ислоҳотининг амалга оширилиши натижасида қишлоқ хўжалиги жуда кўпгина ишбилармон, тадбиркор деҳқонлардан жудо бўлди. Коллективлаштириш сиёсати оқибатида якка хўжаликлар тугатилиб, жамоа хўжаликлари – колхозлар пайдо бўлди. Натижада ер бутунлай колхоз мулки бўлиб, хусусий ерлар тортиб олинди. Ижарага олиб ишлаб бериш, ҳар хил кооперативлар – ширкатларга барҳам берилди. Бундай ҳолат иқтисодиётимизга салбий таъсир қилди. Бу эса меҳнаткашлар турмушининг янада оғирлашишига олиб келди.

Суғориладиган ер майдонларининг камлиги, қишлоқ хўжалигининг кўп меҳнат талаб қилиши, нафақат мардикорчилик, балки ижарачилик-ёлланма меҳнатнинг турли-туман шакллари кенг тарқалишига сабаб бўлди. Ёлланма меҳнатнинг кўп тарқалган шакли “Чоракорлик” эди. Чоракорликда, одатда, камбағал деҳқон бегона хўжаликдан ер, уруғлик, ишлаб чиқариш қуролларини олиб, ўзи мустақил хўжаликни юритган ва ер эгасига ҳосилнинг маълум бир улушини бериш билан ҳисоб-китоб қилган. Бу улуш ҳосилнинг ½ қисмини ташкил этган [11].

Шуни айтиш керакки, тадқиқ қилинаётган даврда қишлоқларни ижтимоий-иқтисодий жиҳатдан ривожлантиришга қишлоқ советларининг бутун фаолияти қаратилган эди. Бироқ маъмурий-буйруқбозлик тизими даврида советларнинг ҳам Коммунистик партия кўрсатмалари асосида иш олиб бориши табиийдир. Бундан ташқари советларнинг фаолияти уларнинг таркибига ҳам боғлиқ эди. Чунки сайлов ҳуқуқидан савдогарлар, қулоқлар, бойлар, мулкдорлар ва бошқалар маҳрум этилган эди. Муҳими шундаки, бу кишилар рўйхатининг бир нусхаси аҳоли яшайдиган жойларда илиб қўйилиши лозим эди. Аниқ ва пухта бундай ҳисоб-китоб ўтказишдан мақсад камбағал деҳқон ва ишчидан ташқари ҳамма кишиларнинг ижтимоий аҳволи ҳақидаги маълумотлар НКВД органлари учун жуда зарур эди. Бундай маълумотларнинг нима учун керак бўлганлиги ҳозирги кунда барчага аёндир. Яна шуни алоҳида таъкидлаш жоизки, маҳаллий советларга бўлаётган сайловларнинг асосий қонунлари тўла бажарилмас, аҳоли кўпинча бундай сайловларда иштирок этмас эди. Баъзан депутатлар деҳқонлар билан ҳисоблашмас, у ёки бу иш билан келган деҳқонларни идорадан ҳайдаб чиқарар эди. Халқнинг иштирокисиз сайланган, у билан боғланмаган бундай депутатлар ўзларини ҳукмдор деб билиб, нимани хоҳласа ўшани қилар эди. Албатта бундай депутатлар бор советлар меҳнаткашлар манфаатини кўзлаган ҳолда иш юритмасдан, балки ўша тоталитар тузумга ўзларининг содиқ эканликларини амалда исботлар эди.

Умуман олганда, мазкур даврда партия ва маҳаллий советлар томонидан қишлоқ хўжалигини қайта қуриш ва аҳолининг турмуш шароитларини яхшилаш борасида бир қанча чора-тадбирлар кўрилди. Бироқ кўрилган бу чора-тадбирлар ижтимоий кескинликни бир оз юмшатиши мумкин эди, холос. Ҳали қишлоқларнинг ижтимоий қиёфасини тубдан ўзгартириш, деҳқонларнинг яхши меҳнат қилиб, яхши ҳордиқ чиқаришларини янада яхшилаш муаммолари турар эдики, булар фаоллик билан иш олиб боришни тақозо этар эди. Афсуски, юқорида таъкидланганидек, республикамиздаги жуда кўп маҳаллий советлар бу каби муаммоларни ҳал қилиш билан шуғулланмасдан ҳукмрон партия олиб бораётган сиёсатни, маъмурий-буйруқбозлик тизими йўналишларини тарғиб

қилиш билан овора бўлдилар. Шунинг учун ҳам бу йилларда қишлоқ хўжалигини қайта қуриш ва аҳолининг турмуш шароитларини яхшилаш борасида муаммолар кўп эди.

Адабиётлар

1. М.Инатова. XX аср 20-йилларида Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги ривожланишининг хусусиятлари. Ўзбекистонда ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. 3-тўплам. – Тошкент, 2012, 252-бет.
2. Ф.Хўжаев. Ўзбекистон ССРнинг хўжалик аҳволи ва уни ривожлантириш истиқболлари. Танланган асарлар. – Тошкент, 2-жилд, 39-бет.
3. ЎзР МДА, Р-9-фонд, 1-рўйхат, 1271-иш, 5-варақ.
4. ЎзР МДА, Р-86-фонд, 1-рўйхат, 2398-иш, 114-115-бетлар.
5. Совет Ўзбекистони экономикаси ва маданиятининг ривожланиши. – Тошкент, 1958, 162-бет.
6. “Вравда Востока”, 1930 йил 17 август.
7. Ўзбекистон ССР тарихи, 3-жилд, 648-бет.
8. ЎзР МДА, Р-837-фонд, 15-рўйхат, 228-иш, 24-вароқ.
9. ЎзР МДА, Р-95-фонд, 2-рўйхат, 2314-иш, 35-бет.
10. Зеленин И.Е. Сеушестление политики “ликвидации кулачества” как класа (осень 1930-1932 гг.) история СССР.
11. М.Инатова. XX аср 20-йилларида Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги ривожланишининг хусусиятлари. Ўзбекистонда ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари. 3-тўплам. – Тошкент, 2012, 261-бет.

СОВЕТ ҲОКИМИЯТИНИНГ СУРХОН - ШЕРОБОД ҲУДУДЛАРИДА ПАХТАЧИЛИКНИ РИВОЖЛАНТИРИШ СИЁСАТИ: МУАММОЛАР ВА ОҚИБАТЛАР

Яқубова Дилором Тожиевна, *Денов тадбиркорлик ва педагогика институти ўқитувчиси, т.ф.б.ф.д. (PhD)*

Совет ҳукумати жамоалаштиришга қаршилик кўрсатганларга ва Марказ режасига тўсқинлик қилганларга қарши оммавий отиш ва ўлдириш билан биргаликда сургун ҳамда қатағон қилиш сиёсатидан кенг фойдаланди. 1918 – 1926 йилларда Шўрчи районида Мамадибой, Қаршибой, Худойбердибой, Давлатбойларнинг мол-мулклари мусодара қилиниб, ўзлари сургун қилинди. Бойсун туманидан тўқсабо Фузаил ўғли Қаноатнинг 35 таноп ери ва бошқа мол-мулклари, Умар ўғли Норқулнинг 17,5 таноп суғориладиган, 3 таноп унумдор ери, ер тегирмони ва бошқа мол-мулклари, Амир ўғли Махсум Жўранинг 39 таноп суғориладиган ва 39 таноп ҳосилдор ери ва бошқаларнинг мол-мулклари мусодара қилинди[1].

1927 йилда оммавий тарзда деҳқонларнинг мол-мулкини тортиб олиш, мусодара қилишда мустабид тузум ўз зулмкорлик сиёсатини янада кучайтирди. Бу мудҳиш тадбирлар халқнинг ниҳоятда оғир турмуш кечиришига сабаб бўлди. Совет ҳокимиятига қаршилик қилган «Қулоқ»лар эса қамоққа олинган ва отиб ташланган. 1933 йилда «қулоқлар» сиёсати асосан амалга оширилиб, 1934 – 1937 йилларда ҳам кўплаб бадавлат деҳқон хўжаликлари «қулоқ» қилиниб, совет режими қишлоқда ўз ҳокимиятини тўла ўрнатиб, жамоалаштиришни амалга ошириб бўлгач, сургун қилинган «қулоқ» хўжаликларига нисбатан ўз сиёсатини бироз «юмшатган» СССР МИК 1934 йил 27 майда «Собиқ қулоқларнинг гражданлик хуқуқларини тиклаш тартиби тўғрисида» карор қабул қилиб, унда «қулоқлар»нинг сайлов ҳуқуқлари тикланган. Иккинчи жаҳон уруши даврида (1942 йилда) меҳнат сургунида бўлган «қулоқлар» ҳаракати вакили сифатида армия сафига чақирилиб, фронтга жўнатилган[2]. Совет тузуми даврида қулоқликка тортилиб, сургун қилинганлардан тирик қолганларнинг эркин фуқаролик мақомини олиб, ўз юртига қайтиш учун 20 йилдан ортиқ вақт (1934 – 1956) кетди. 1925 йил 1 декабрда Бойсун уезди тузилиши муносабати билан қуйидаги таркибда ташкилий қўмита тузилган. Соибов Тошмат – масъул котиб, Юсупов Жўрали – ташкилий бўлим мудири, Усмонов – масъул котиб, ёшлар ташкилоти бўйича, Хўжаев Тўра – ташкилий бўлим мудири, ёшлар билан ишлаш бўйича,

Хидирназаров Мирзаағзам– касаба уюшма раиси, Тоғаев Собир – касаба уюшма раис муовини, Уранов Мирзаомон – «Қўшчи» уюшмаси раиси, Бердиёров Муллақулбой – «Қўшчи уюшмаси раис муовини, Хўжа Муродов – уезд ижроия қўмитаси раиси этиб сайланган. 1925 йил 1 июлда Бойсун ёшлар ташкилоти қуйидаги таркибда сайланган: Собиров – масъул котиб, Шелихов Василий – ташкилий бўлим бошлиғи, Хата Менданов – иш юритувчи.

Совет ҳукумати сиёсатида миллий камситиш ва қатағонлик асосий йўналишлардан бири сифатида олиниб, ушбу масала асосида 1931 йилда инқилобий қонунчилик ишлари бўйича 1 халқ суди, халқ терговчиси ва прокурор иш юритди. Совет қонунчилиги халқ орасида кенг тарғиб этилиб, давлат ва жамият мулкини сақлаш мақсадида 1932 йилдан бошлаб 2 халқ суди, 2 та терговчи ва прокурор иш юритди. 1931 – 1935 йилларда Бойсун районида турли айбдорланганлар ҳужжати 1388 та бўлиб, шундан қонунсиз ҳукм бўлганлар 2017 киши, 174 киши мажбурий хизмат билан қонунсиз жазоланган. 393 киши айбсиз деб топилган, 112 маротаба суд ўтказилиб, 523 киши кулоқ қилинган. Шундан 308 киши турли муддатларга қамоққа олинган. 1936 йил 9 мартда Бойсун районидаги қишлоқ ўқитувчиларидан Мўминов Тилланазар, Азимжонов Мирзаолим қамоққа олиниб, улар Ўзбекистон ССР Олий Суди томонидан 4 йилга озодликдан маҳрум қилинади. 1949 йил 6 июнда Шўроб қишлоқ Кенгаши Малиновский жамоа хўжалигидан Нурманов Эшмамат Деновдан Бойсунга ғалла олиб келиб сотганлиги учун 8 йилга Сибирга сургун қилинган. 1944 йил 10 сентябрда район ижроия қўмитасининг 5-сессиясида район халқ маорифи мудирининг маъруза матнида Хўжабулғондан 22, 23-сонли мактаблардан мактаб мудирлари Шодиқулов, Раҳмонов, ўқитувчи Ражабовлар ушбу мактабларда ўзлаштириш 50 – 55 фоиз, давомат 60 фоиз бўлганлиги учун ишдан олиниб, суд жавобгарлигига тортилиб, қамоққа олинган[3].

Мустабид тузум ўз мақсади йўлида ҳеч кимни аямади, ўч олиш, қириш, оммавий сургун ва қатағонликни оддий бир ҳолатга айлантирди. 1949 йил 10 октябрда «Агроном» колхози аъзоси, камбағал оиладан чиққан Холназаров Исматга «Бир қоп пахта ўғирлади» деб сохта айб қўйилиб, Ўзбекистон ССР

Жиноят Кодексининг 113-моддаси 2-қисми билан айбдор деб топилиб, 25 йил қамоқ жазосига ҳукум қилинди. У Россиядаги Волга-Дон канали қурилишига юборилди. 1934 йилда район фирқа қўмитасининг биринчи раҳбари бўлиб ишлаётган Зокиров оғзаки буйруғига асосан «Бойсун райони марказидаги оромгоҳда (парк) ги 2 дона оддий дарахтни кестириб юборганлиги учун» Ўзбекистон ССР Жиноят Кодексининг 112-моддаси 3- қисми билан айбдор деб топилиб, ишдан олиниб, суд жавобгарлигига тортилиб, 4 йил қамоқ жазоси белгиланди. Энг муҳими, миллатни бир-бирига қарши қўйиш, миллий урф-одатлари, маданияти ўхшаш бўлган маҳаллий миллатлар ўртасида низолар чиқаришдан унумли фойдаланилди[4]. Архивларда сақланаётган ҳужжатларни таҳлил этишда шу нарса алоҳида ўрганилдики, кўплаб тергов ҳужжатлари сохта, қалбаки тузилиб, айбдорлар нима айб қилганлигини билмасдан, қўрқитиш, уриб ҳақоратлаш, майиб-мажруҳ қилиш туфайли имзо қўйишни билмасдан ўз бармоқларини босиб гумон билан айбдор деб топилиб жазога ҳукм этилган. 1932 йилда Газа қишлоғидан «Бирлик» жамоа хўжалиги раиси Алимардон Худойберидев «Афғонистон» ҳукумати билан алоқада бўлиб, кўплаб маълумотлар етказиб беришда» айбланиб қамоққа олинди. Унга Ўзбекистон ССР ЖК нинг 77- моддаси 1-қисми билан “совет ҳокимиятини йўқотмоқчи” деган сохта айблар қўйилди. Жисмонан бақувват, иродали бу инсон нисбатан қўлланилган усулларга, қийноқларга бардош берди. Уч кунлаб бўйнигача муздек сувда тик туриш, ўтиришга рухсат бермаслик, овқат бермаслик, тўппончадан унга қаратиб ўқ узиш каби усуллар қўлланилди. Аммо бу сохта айблар судда ўз исботини топмади. У суд залидан озод этилиб, жамоа хўжалиги раислигига тикланди. Маҳаллий аҳолини оммавий қулоқ қилиш, мол-мулкини талаш, кўзга кўринган деҳқончилик илмини яхши билганларни отиб ташлаш, уларга бўҳтон уюштириб, ҳибсга олиш кучайиб борди[5]. Мустабид тузум сиёсий мафкурасининг асл қиёфасини турли йўналишлар, хийла-найранглар билан яширишга уриниб, ўзбек миллатининг кўзга кўринган фидойиларини йўқ қилиш, қириб ташлаш билан шуғулланиб, қатағонлик усулини кенг қўллади.

Ўзбекистоннинг 1920 – 1930 йиллардаги тарихи, жумладан совет ҳокимияти олиб борган «қулоқлаштириш» сиёсати фожиали оқибатларга олиб келди.

Ўзбекистоннинг советлар даври тарихида Сурхон воҳасининг кам ўрганилган мавзуларидан бири колхозлаштириш, қулоқ қилиш ва сургун этиш ҳамда улар билан боғлиқ деҳқонларнинг аянчли қисмати, умуман миллий қишлоқлар фожиаси масаласидир. Совет даврида бу мавзу ўрганиш учун ман этилган эди. ХХ асрнинг 20 – 30-йилларида комфирқа ва советлар катта сиёсий фитна ўйинларни ишга солиб, бир томондан, милий истиқлолчиларга, жадидларга, миллий арбоб ва ходимларга қарши қирғинбарот қўллади, иккинчи томондан, советлар томонидан ўтганларга умумий авф қилиб, бироз вақт ўтгач, уларни бирма-бир қатағон қиличидан ўтказди. Тарихимизнинг ана шу аянчли саҳифаларини ёритиш, қатағон қилинган ватандошларимизни номма-ном аниқлаш, уларнинг фаолиятини ўрганиш тарих фанининг муҳим вазифаларидан биридир. Бунда Вазирлар Маҳкамасининг 1999 йил 22 июлда «Ватан ва халқ озодлиги йўлида қурбон бўлган фидойилар хотирасини абадийлаштириш тўғрисида»ги қарори[6] ва Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президентининг 2001 йил 1 майдаги «Қатағон қурбонларини ёд этиш кунини белгилаш тўғрисида»ги фармойиши катта имконият уфқларини очиб берди. Мустабит совет тизими даврида қатағон этилган фидойи ватандошларимизни аниқлаш, номини [7] абадийлаштириш ва келгуси авлодларга етказиш мақсадида пойтахтдаги «Шаҳидлар хотираси» ёдгорлик мажмуида «Қатағон қурбонлари хотираси музейи» нинг ташкил этилиши бу тадбирнинг давлат сиёсати даражасига кўтарилган муҳим ижтимоий-сиёсий, маънавий-мафкуравий масала эканлигини кўрсатди. Ўз-ўзидан равшанки, ўзбек тарихшунослиги олдига ҳаётнинг ўзи тарихимизнинг «оқ доғлари» ҳисобланмиш колхозлаштириш ва у билан бевосита боғлиқ бўлган «қулоқлар» тарихини тадқиқ этишни кўндаланг вазифа қилиб қўйди. Ноҳақдан қулоқ сифатида сургун этилган, қатағон қилинган, ўзга юртларда шаҳид кетган, кафансиз, жанозасиз кўмилган юртдошларимизни номма-ном аниқлаш, уларнинг бегона юртлардаги мислсиз оғир, фожеали ҳаёт ва фаолиятини, пахтачиликдаги оғир меҳнатини,

бунёдкорликларини, Иккинчи жаҳон урушидаги иштирокларини, ниҳоят, фожеали қисматини чуқур ўрганиш тарих фани олдидаги долзарб вазифалардан бири бўлиб қолди.

Адабиётлар

1. Зиядуллаев С.К. Промышленность Узбекистана и основные экономические проблемы и её развития. –Т., 1977. – С.151.
2. Даминова З.Ш. XIX аср охири – XX асрда Термиз шаҳри тарихи. Тарих фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация. –Т., 2004 йил, 3-бет.
3. Жалолиддин Мирзаев. Термиз тарихи. –Т.,«Шарқ», 2001, 120-бет.
4. Қобилов Э.О. Сурхондарё саноатининг илк одимлари. –Термиз, «Жайхун», 1993, 114-бет.
5. Жалолиддин Мирзаев. Термиз тарихи. –Т., «Шарқ», 2001, 120-бет.
6. «Халқ сўзи», 1999 йил 23 июль.
7. «Халқ сўзи», 2001 йил 2 май.

ТУРИЗМ РИВОЖЛАНИШИНИНГ ШАҲАР АТРОФ-МУҲИТИГА ТАЪСИРИ (БУХОРО ШАҲРИ МИСОЛИДА)

Тоғаева Анорой Зайниддиновна, *ЎзР ФА Тарих институти катта илмий ходими, т.ф.н.,*
Юлдошева Бибиражаб Миржоновна, *БухДУ докторанти*

Туризм энг йирик ва тез ривожланаётган тармоқлардан бири бўлиб, жаҳон иқтисодиётида тўртинчи йирик саноатга айланди. Мамлакатимизда сўнгги йилларда миллий иқтисодиётимизнинг стратегик тармоқларидан бири бўлган туризм соҳасида бир қатор ишлар амалга оширилди ва соҳа янги босқичга кўтарилди. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 2 декабрдаги “Ўзбекистон Республикасининг туризм соҳасини жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги фармони, “2018 - 2019 йилларда туризм соҳасини ривожлантириш бўйича биринчи навбатдаги чора-тадбирлар тўғрисида”ги 2017 йил 16 августдаги қарори туризмни ривожлантиришнинг

яхлит концепциясини шакллантириш ва изчил амалга оширишда муҳим аҳамият касб этмоқда.

Мазкур ҳуқуқий ҳужжатлар бой моддий-маданий меросга эга бўлган Бухоро шаҳрини ҳам туристик марказга айлантириш, туризмни ривожлантириш ишларини жонлантириб юборди. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 19 майдаги “2017 - 2019 йилларда Бухоро шаҳри ва Бухоро вилоятининг туристик салоҳиятини жадал ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори қабул қилинди. Қарорга асосан, ҳудудда меҳмонхона, музей, кафе-ресторан, савдо ва кўнгилочар марказлар ишга туширилиб, валюта айирбошлаш шахобчалари ва банкоматлари ўрнатилди.

2021 йилга келиб Бухоро шаҳрида 144 та меҳмонхона, 159 та меҳмон уйи, 37 та ҳостел, 2 та квартира фаолият юритмоқда. Ташриф буюрган сайёҳлар сони 2 млндан ортиқ бўлиб, бу кўрсаткич ўтган йилга нисбатан ички туризмда қарийб 9,3 бараварга, хорижий сайёҳлар сонига нисбатан 3,6 бараварга ортган. Туризм хизматлари туфайли биргина мазкур йилда ҳудуд иқтисодиёти 478,9 млрд. сўм фойда кўрди.

Пандемия шароити бўлса-да, юқоридаги рақамлар шаҳар туризм саноати жадал ривожланаётганлигини кўрсатмоқда. Туризмнинг ривожланиши асносида муқаррар тарзда шаҳар атроф-муҳити, экотизимига ўзининг таъсирини кўрсатади. Бу таъсир атроф-муҳитга ҳам ижобий, ҳам салбий тарзда намоён бўлади.

Туризм ривожланишининг ижобий таъсирини қуйидагиларда кўриш мумкин:

- маҳаллий иқтисодиётнинг туризм саноати ва унга алоқадор тармоқларининг ривожланишиқўшимча даромад манбаи эканлиги;
- ҳудуд атроф-муҳити ҳолатини яхши сақлашга ҳаракат;
- туризм ресурсларидан, шу жумладан алоҳида муҳофаза этиладиган табиий ҳудудлар ва тарихий-маданий мерос обеъктларидан оқилона фойдаланиш ва уларга сармоя киритиш;

ҳудуд инфратузилмасини яхшилаш ва транспорт тизимини қулайлаштириш;

туристларнинг доимий ташрифи туфайли табиий ва тарихий мерос объектларини муҳофаза қилишни рағбатлантириш ва молиялаштириш;

атроф-муҳит муаммоларидан доимий хабардорлик.

Туризмдан келадиган маблағлар шаҳар инфратузилмасининг ривожланишига, хизмат кўрсатиш соҳасининг кенгайишига хизмат қилади. Маҳаллий аҳоли туризм саноатида сайёҳлик мавсумида ўз фаолиятини амалга оширадиган бизнесда иш билан таъминланади. Маҳаллий аҳоли бандлиги ва даромадларининг ошиши уларни экологик фаолликка ҳам ундайди.

Аммо туризмнинг ривожланишида барқарор ривожланиш концепциясига амал қилинмаса атроф-муҳит ифлосланиб, ҳудуддаги экологик муаммолар кучаяди. Бундай ҳолатда ҳатто янги локал экологик муаммолар ҳам пайдо бўлиши мумкин. Шунинг учун барқарор туризмнинг ўсиши ва экологик тоза бўлиши ҳақидаги ташаббуслар сайёҳлар томонидан ҳам, соҳа манфаатдорлари томонидан ҳам илгари сурилмоқда. Улар туризм саноатини бошқариш муҳимлигини тан олишмоқда.

Туризмнинг шаҳар атроф-муҳитига салбий таъсири қуйидагиларда кўринади:

•**Сув танқислигининг кучайиши**. Туризм саноати меҳмонхона, бассейн, фавворалар, меҳмонларнинг сувдан шахсий мақсадларида фойдаланишлари учун сув ресурсларидан ортиқча фойдаланади. Туризм хизматлари туфайли сувдан ҳаддан ташқари кўп фойдаланиш шусиз ҳам сув тақчиллиги бўлган шаҳарда вазиятни оғирлаштиради.

Чиқиндиларнинг кўпайиши. Маълумотларга кўра, сайёҳ бир кунда оддий одамга нисбатан икки баравар кўп (12 кг.гача) чиқинди чиқаради. Бухоро шаҳрида чиқиндиларни қайта ишлаш ва утилизация қилиш яхши ривожланмаган. Қаттиқ чиқинди ва ахлатлар шаҳар атроф-муҳити, экотизимини бузиб, атмосфера ва сувнинг ифлосланишига сабаб бўлади.

Яшил майдонларнинг камайиши, иқлимнинг янада қуруқлашиши. Туризмнинг ривожлантирилиши янги туристик объектлар, бино ва йўллар қурилишига олиб келади. Янги туристик инфратузилма одатда шаҳарнинг сайёҳлик марказида ёки унинг атрофида шакллантирилади. Бундай объектларни жойлаштириш кўп ҳолларда табиий ҳудудлар, суғориладиган ерлар ҳисобидан амалга оширилади.

Ҳаво ва сувнинг ифлосланиши. Сайёҳлик оқимининг ортиши транспорт тизимига юкни кўпайтиради. Шаҳарни туристик марказга айлантириш асносида туристик транспорт компаниялари тузилиб, янги транспорт воситалари сотиб олинади. 2021 йилга келиб шаҳар туризм саноатида жами 281 та автобус ва микроавтобуслар хизмат кўрсата бошлаган. Автотранспорт воситаларидан чиқаётган зарарли моддалар туристик инфратузилмадан чиқаётган ифлослантирувчи моддалар билан бирга шаҳар ҳавоси, суви ва тупроғининг ифлосланишига, экотизимнинг издан чиқишига олиб келади.

Ҳудуд санитария ҳолатининг ёмонлашиши. Ҳудуд санитаролатига шаҳар канализациясидан чиқадиган маиший чиқинди сувлар, сайёҳлар томонидан қолдирилган чиқинди ва ахлатлар салбий таъсир кўрсатади. Мавжуд оқова тармоқларининг 47 фоизи маънан эскирганлиги туфайли сув ерга сизиб чиқиб, тупроқ таркибини бузади.

Туризм энергия, озиқ-овқат ва бошқа маҳаллий ресурсларга катта босимни келтириб чиқариши мумкин. Табиий ресурслардан ноощилона фойдаланиш, уларни исроф қилиш билан боғлиқ жисмоний таъсирларни кучайтиради.

- Бундан ташқари, туризмни ривожлантириш, сайёҳлар учун қулай шарт-шароит яратиш ва уларга кўрсатилаётган сервис хизматини яхшилаш мақсадида замонавий меҳмонхоналар, савдо ва хизмат кўрсатиш мажмуалари кўплаб барпо этилгани ҳолда, санитария-гигиена шаҳобчалари (СГШ) бунёд этиш ишлари 2018 йилга қадар эътибордан четда қолган. Сайёҳлар сонининг кескин ортиши санитария-гигиена шаҳобчалари (СГШ) га талабни кучайтирди, аммо шаҳарда

мавжуд СГШлар ҳатто шаҳар аҳолисининг эҳтиёжини ҳам қондира олмаган. 2018-2021 йиллар давомида шаҳар аҳолиси ва меҳмонларга қулай шароит яратиш мақсадида жами 19 та СГШ қурилган. Шаҳар туризм соҳасини ривожлантиришнинг 2022 йилдаги режасига кўра мазкур йилда шаҳар 2,5 млн сайёҳни кутиб олишни мўлжаллаган. Бугунги кунда энг машҳур сайёҳлик марказлари муваффақиятининг сири атроф-муҳитнинг тозалиги ва уни муҳофаза қилиш бўйича самарали чоралар билан боғлиқ. Бундай сифатларга эга бўлмаган ҳудудларда туризмнинг пасайиши кузатилади. Демак, шаҳар санитар-гигиник ҳолатини яхшиланиши иккала томон ҳам манфаттдор.

Демак, туризмнинг атроф-муҳит билан таъсири мураккаб бўлиб, асосан, салбий таъсир кўрсатиши мумкин бўлган кўплаб хусусиятларни ўз ичига олади. Агар туризм барқарор ривожланиш дастурига мослаб тўғри режалаштирилса, бошқарилса, амалга оширилса атроф-муҳитга салбий таъсири минималлашади. Туризм атроф-муҳитни муҳофаза қилиш ва бу орқали атроф-муҳитга фойдали таъсир кўрсатиш салоҳиятига эга соҳага айланади. Шу сабабдан давлат дастурларини ишлаб чиқишда барқарор туризм ва табиий ресурслардан оқилона фойдаланишни тўғри режалаштиришга кўпроқ эътибор қаратиш лозим.

Адабиётлар

1. Бухоро вилояти Туризм ва спорт бош бошқармасининг “Бухоро вилоятида туризм ва спорт соҳаларида 2021 йилда амалга оширилган ишлар бўйича асосий кўрсаткичлар ҳамда 2022 йилда белгиланган вазифалар тўғрисида” маълумотномаси. 2022 йил, 6-бет.
2. Юлдошева Б.М. Бухоро вилояти экологик муаммоларининг туризм ривожланишига таъсири. Бухоро вилоятини инновацион ривожлантириш: муаммолар ва ечимлар. Республика миқёсида илмий-амалий анжумани материаллари. Бухоро, 2020. – Б. 347 - 351. - С.
3. Neeta Rath, Dr. Rashi Gupta (2017). Environmental impact of tourism. JARIIE. (Vol-2 Issue-3 2017).Pg 50-53.

4. Yavmutov D. S. Opportunities for the development of non-traditional tourism in Bukhara //International scientific review of the problems of economics, finance and management. – 2020. – С. 15-21. - С.
5. Туризмни ривожлантириш масалалари муҳокама қилинди. Бухоро вилояти ҳокимлиги сайти. https://buxoro.uz/full_news.php?dt=news&id=348

ЎЗБЕКИСТОН ЗИЁЛИЛАРИНИНГ “ҚАЙТА ҚУРИШ” СИЁСАТИ ШАРОИТИДАГИ ЎЗЛИКНИ АНГЛАШ ҲАРАКАТЛАРИ

Очилова Дилобар Журақуловна,
ҚарДУ докторанти

70 йиллик тарихга эга СССР тарихининг энг муҳим паллаларидан бири сифатида биз XX аср 80 йиллар ўрталарида бошланган “қайта қуриш” сиёсатини кўрсата оламиз. “Қайта қуриш” сиёсатига Н.Рижков томонидан қуйидагича таъриф берилган: “Қайта қуриш” совет партия раҳбариятининг ислоҳотлари ва янги мафкурасининг умумий номи бўлиб, СССРнинг иқтисодий ва сиёсий тузилмасида 1985-1991 йилларда КПСС Марказий Қўмитаси Бош котиби М.С.Горбачев ташаббуси билан бошланган ўзгаришларга ишора қилиш учун ишлатилади. Қайта қуришнинг бошланиши 1987 йил, КПСС Марказий Қўмитасининг январь пленумида қайта қуриш янги давлат курси сифатида эълон қилинган пайтда ҳисобланади.

Ислоҳотларнинг мақсади СССРда шаклланган ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий тизимни ҳар томонлама демократлаштириш деб эълон қилинди. Иқтисодий ислоҳотлар режалари 1983-1984 йилларда КПСС Марказий Комитети Бош котиби Ю.Андропов топшириғига биноан ишлаб чиқилган [1].

Мазкур жараён иттифоқ таркибидаги республикаларга ҳам иқтисодий, сиёсий ва мафкуравий жиҳатдан таъсир кўрсатган. Айнан шу даврдан бошлаб дастлаб Болтиқбўйи республикаларида кейинчалик, Кавказорти ва Марказий Осиё ҳудудидаги республикаларида миллий давлатчилик илдизлари ва миллий идентиклик масаласи кун тартибига чиқа бошлади. Зеро, сўнгги 70 йил давомида барча иттифоқ таркибидаги давлат фуқаролари ягона мафкура асосида

тарбияланиб, миллийлик тушунчасининг ўрнини иттифоқ фуқароси ёки космополитизм (*Космополитизм миллий анъана ва маданиятдан, ватанпарварликдан воз кечишга — беватанликка даъват этади*) характери мавжуд шахс етиштириб беришга ҳаракат қилинди.

«Қайта қуриш» сиёсатини ўрганган олимлар уни даврийлаштиришда иккига бўлиб ўрганишни тавсия этишади:

1. Биринчи босқич: 1985-1986 йй. Бу босқичда иқтисодий тармоқларни ривожлантириш ва инсон омилини ривожлантириш сиёсати юритилган.
2. Иккинчи босқич: 1987-1989 йй. Мазкур босқичда давлат барча соҳаларда регульятор сифатида ислоҳотларни амалга ошириши белгиланган эди.

Шу билан бирга, айнан шу даврда аҳолининг диндор қатлами қаттиқ сиқувга олинганлиги билан ҳам характерли ҳисобланади [2]. Яъни мазкур даврда диний байрам ва ритуаллар ўтказилганлиги учун маъмурий жазо қўллаш сони ва тури ортган. Ҳаттоки, маҳаллий аҳоли учун диний аҳамият касб этмаган “Наврўз” байрами ҳам шу омиллар таъсирида ўтказилиши таъқиқланиб, унинг ўрнига “умри қисқа” бўлган “Навбаҳор” байрами ўтказилиши жорий этилди.

Мазкур давр тарихи Томохико Уяма, И.Ратьковский, Х.Юнусова, В.Согрин, О.Васильева, М.Аскаров каби бир қатор мутахассислар томонидан ўрганилган [3].

Ўзлик тушунчасини англашда моддий ва маданий мерос обьектлари ҳам алоҳида ўринга эга ҳисобланиб, “қайта қуриш” даврида мазкур масала борасида маҳаллий интиллигенция томонидан “Замон ва маданий мерос” номли бир қанча давра суҳбатлари ўтказилиб, унда жадид адабиётисиз яхлит маҳаллий маданий мерос тушунчасини тасаввур этиш имконсизлиги қайд этилади [4].

Шу билан бирга, 80 йилларда бошланган демократлашув жараёнининг дебочаси сифатида ўзбек тили мавқеъини давлат тили даражасига олиб чиқиш масаласи ҳам миллий зиёлилар ва аҳолининг кенг қатлами томонидан қўллаб-қувватланди, мазкур масала билан бир қаторда миллий тарихни ёритиш ва уни тиклаш масаласи ҳам формал ва ноформал кўринишларда кўтарилгани В.Фирман томонидан қайд этилади. Лекин тил масаласида бир нарсани алоҳида

қайд этиб ўтиш лозим, яъни ҳокимият вакиллари ва элитар қатламнинг катта қисми учун рус тили асосий тил сифатида мазкур даврда шаклланиб бўлган эди. Мазкур жараён асоратлари бугунги кунга қадар сақланиб қолганлигини гувоҳи бўлмоқдамиз. Мазкур жараёнлар ниҳояси сифатида 1989 йил 21 октябрда қабул қилинган "Ўзбекистон ССРнинг давлат тили ҳақида"ги Қонуни кўрсатиш мумкин. Юқоридаги масала этник кўпчилик томонинигина ўйлаб қабул қилинган қарор сифатида талқин этилиши мутлақ ҳақиқатга зид саналади. Хусусан, 1991 йилги маълумотларга кўра, Ўзбекистонда 3457 та мактабда инглиз, 2886 та мактабда немис, 1515 та мактабда француз, 68 та мактабда испан, 3 та мактабда урду, 13 та мактабда ҳинд, 10 та мактабда араб, 13 та мактабда форс, 3 тасида Хитой бир қанча ўқув юртларида дарслар миллий гуруҳлар тилларида ўқитиладиган мактаблар учун кадрлар тайёрлаш йўлга қўйилди. Чунончи, Тошкент ва Сирдарё педагогика институтларида дарслар қозоқ тилида ўқитиладиган умумтаълим мактаблари учун мутахассислар, Самарқанд, Бухоро, Термиз педагогика институтлари ва Косонсой, Чуст педагогика билим юртларида фанларни тожик тилида ўқитиладиган мутахассислар тайёрлаш ишлари бошланди [5].

XX аср 80 йиллар сўнггида иттифоқ томонидан диний ва миллий масалаларда сиёсат бироз юмшаганлигини кўришимиз мумкин. Айни шу даврда рўйхатдан ўтган диний ташкилотлар сони 250 тагача кўпайганлиги ва имом-хатиб лавозими жорий этилганлигини қайд этиб ўтиш лозим.

Тадқиқотчи Д.Саидовнинг Ўзбекистон адабиёти ва санъати газетасида 1990 йилда чоп этган мақоласида бир қанча миллий аҳамиятга эга бўлган топонимик атамалар расмий статус олганини қайд этиб ўтади. [6]

"Қайта қуриш" сиёсати бир партиялик тизимига ҳам барҳам беришда муҳим аҳамиятга эга бўлган давр ҳисобланади. Мамлакатда мавжуд бўлган плюраль ҳарактерга эга зиёлилар томонидан бир қанча сиёсий бирлашма ва партиялар тузди. Хусусан, 1988 йил 11 ноябрда "Бирлик" ҳаракатига асос солинди. Бироз вақт ўтгандан сўнг "Эрк" партияси тузилгани эълон қилинди. Интернационал кўринишга эга бўлган, ўз таркибига ўзбек ва қозоқ зиёлиларини

бирлаштирган “Туркистон” ҳаракати тузилиши ҳам айнан шу даврда содир бўлди.

Миллий адабиётимизда қайта қуриш даврига мос тарихий ҳақиқатни тараннум этувчи замонавий қаҳрамон масалаларига ҳам муайян даражада эътибор қаратила бошланди. Ижобий қаҳрамоннинг янги бир шакли, яъни “камчиликли ижобий қаҳрамон” яратиш анъанаси пайдо бўлди. Чунончи, Омон Мухторнинг “Давр менинг тақдиримда”, “Туғилиш” романлари, Одил Ёқубовнинг “Муқаддас”, “Тилла узук”, “Бир фельетон қиссаси” асарларида, шунингдек, бошқа ёзувчиларнинг бир қанча асарларида ҳам шу ҳолатни кўриш мумкин. Шу билан бирга, бу даврда адибларимизнинг замоннинг ўзгара бошлаганлигини ёрқин тасаввур этувчи асарлари ҳам нашр қилина бошланди. Умуман ўзбек миллий адабиётидаги зиддиятлар, қарама-қаршиликлар, бир томондан, унинг ривожига салбий таъсир кўрсатган бўлса, иккинчи томондан эса бундай баҳсли ҳолатлара адабиётимизнинг тўғри йўлини топишига имкон берган. [7]

Умуман олганда, XX аср 80-йиллари иккинчи ярми адабиётининг янгилик сари ҳаракатини кузатишимиз мумкин. Илгари таъқиб этилган мавзулар тикланди. Чўлпоннинг “Кеча ва кундуз” романи эркинликка юз тутди. 1988 йилда П. Қодировнинг “Авлодлар довони”, Х. Тўхтабаевнинг “Мунгли кўзлар”, Мурод Муҳаммад Дўстнинг “Лолазор”, Н. Кабировнинг “Унутилган соҳиллар”, Омон Мухторнинг “Эгилган бош” каби романларини нашр этилиши ўзбек миллий адабиётида эркинлик шабадаларининг натижаси, деб баҳоланди. 1988-89-йилларда миллий руҳда ёзилган 100 дан ортиқ ҳикоялар эълон қилинди. Ўзбек миллий адабиётида Чўлпоннинг тарихий ўрни масаласига ҳам муайян даражада эътибор берила бошланди. Шу ўринда, айниқса Э. Каримовнинг қайта қуриш даври ўзбек адабий-бадиий муҳити моҳиятини очиб беришдаги хизмати катта бўлди. Шу ўринда, қайд қилиш керак, адабиёт ва санъатда аҳлоқий онг масаласининг кўтарилиши мафкуравий маданий ҳаётда концептуал янгиланишлар содир бўлаётганини англатади. Лекин шунга қарамасдан қайта қуриш даврида бу соҳада турли қарашлар ҳам мавжуд эди. Масалан, Абдурауф

Фитрат ижодини ўрганиш борасида холис ва нохолис фикрлар билдирилган, бу эса мустақилликка эришиш арафасида зиёлиларнинг муайян қисми совет мафкуравий босимидан озод бўла олмаганлигидан дарак беради.

Театр ва кинематаграфия соҳаси ҳам қайта қуриш даврида маълум бир трансформацияга учраганлигини кўришимиз мумкин. Хусусан 80 йиллар сўнггига келиб театрда саҳналаштирилаётган спектакллар сонида маҳаллий спекталлар сони бир мунча ошганлигини айтишимиз мумкин.

С. Бобоев, А. Ҳамдамов, О. Эргашев, Р. Маликов, С. Назармуҳамедов, Ж. Файзиев, И. Эргашев, Ҳ. Файзиев каби кинематография соҳаси вакиллар қайта қуриш даврида миллий ўзликни англаш масаласи кўтарилган бир қанча кинофильмлар олишга эришганликларини эътироф этиш керак.

Хулоса қилиб айтадиган бўлсак, қайта қуриш даврида янги қарашларга эга зиёли қатлам шакллана бошлади. Улар томонидан XX аср 20 йиллари ва XX аср 50-60 йилларида миллий ўзликни англашга бўлган ҳаракатнинг мустақилликка эришгунга қадар бўлган қисми амалга оширилди. Ҳаётнинг барча жабҳаларида тематик жиҳатдан янги руҳдаги тарихий онг ва ўзлик масаласи акс этган асарлар дунё юзини кўра бошлади. Мазкур жараёнларга сиёсий жараёнлар ҳам ўз таъсирини ўтказмай қолмади жумладан, “пахта иши” зиёлиларнинг қарашларини ўзгартиришга сабаб бўлган омиллардан бири сифатида кўрсатилиши мумкин. Шу билан бир қаторда, “демократлашув” жараёни тўлиқ акс ҳолатда тадбиқ этилган соҳалар ҳам мавжуд эди.

Адабиётлар

1. Рыжков Н. Об «отцах перестройки», золоте партии и предательстве // Известия : газета. — 2014. — № 26 сентября.
2. William Fierman. Policy toward Islam in Uzbekistan in the Gorbachev era//Nationalities Papers, Vol. 22.1, 1994. 228 p.
3. Uyama, Tomohiko. “Origins of the Diff erences in Political Systems of the Central Asian States: Threat Perception in the Perestroika Period.” Journal of International Analytics 12, История Советской России. Ратьковский И. С., Ходяков М. В. СПб.: Издательство "Лань", 2001. - 416 с. Социально-

экономические процессы и духовная жизнь в Узбекистане в 80-х годах XX века/Автореф. дисс. док. ист. наук.–Ташкент: АН РУз, Институт истории, 2009.– 48 с. Согрин В. Новый взгляд на историю западного капитализма//Вестник РАН. 1993. № 8.

4. Васильева О. «Республики во время путча» // В сборнике «Путч. Хроника тревожных дней». — Издательство «Прогресс», 1991.

5. Аскаров М. Анализ категорий идентичности в конце XX – начале XXI века на территории современного Узбекистана (на основе англоязычных материалов) // Научный результат. Социальные и гуманитарные исследования: электронный журнал. 2019. Т. 5. Вып. 4.

6. URL: http://rrhumanities.ru/journal/issue/4-22-2019/ (дата обращения: 18.07.2020).

7. Мамажонов Д. Ўзбекистонда қайта қуриш даврида маданий ҳаёт (1985-1991 йиллар)// Автореф. дисс. фал. фан. док.–Тошкент: ЎзР ФА. Тарих институти, 2018.–8 б.

8. “Халқ сўзи”. 1991йил 28 июн.

9. Саидов Д. Тарихий номлар яна тикланди. – “ЎзАС”, 1990 йил, 27 июль.

10. Мамажонов Д. Ўзбекистонда қайта қуриш даврида маданий ҳаёт (1985-1991 йиллар)// Автореф. дисс. фал. фан. док.–Тошкент: ЎзР ФА. Тарих институти, 2018.–18 б.

АЗИЗИДДИН НАСАФИЙНИНГ СЎФИЙЛИК ТАЪЛИМОТИ РИВОЖИДА ИЛМИЙ МЕРОСИНИНГ ЎРНИ

Бўриев Исроил Исмоилович,
ҚарМИИ ўқитувчиси

Ўзбекистон Республикаси биринчи Президенти И.А.Каримовнинг Қашқадарё маркази Қарши шаҳрининг 2700 йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқида бу табаррук шахс номига айтилган илиқ сўзлар ҳамон халқимиз ёдидадир.Ўзбекистон, жумладан, Қашқадарё воҳаси жаҳон цивилизациясига салмоқли ҳисса қўшган кўплаб олимларнинг ватанидир.

Мисрлик тадқиқотчи доктор Абдуллоҳ Сааднинг “Ўрта Осиё олимлари қомуси” деб номланган китобида номлари зикр этилган машҳур кишилар орасида “Насафий” тахаллуси билан тарихда ном қолдирган кишилардан 22 таси тўғрисида қисқача маълумотлар берилган. Шулардан бири сўфийлик таълимоти ривожида муҳим роль ўйнаган илмий асарлар муаллифи Азизиддин Насафийдир. Дарҳақиқат, мутафаккирнинг асарларида “қадимги юнон фалсафаси, шариат, ваҳдат ул вужуд аҳли ва файласуфларнинг қарашлари таъсири сезилади ва мутасаввуфнинг борлиқ ҳақидаги концепцияси ўзига хос тарзда алоҳидалик касб этади.” Мутасаввуфнинг борлиққа оид қарашларида олам, айниқса “олами кубро” ва “олами суғро” тушунчаларига алоҳида эътибор берилган. Насафийнинг борлиқ ҳақидаги концепцияси вужуд, жисм, жавҳар, мулк, малакут, қўшилиш, аралашиш, уруж, нузул, алоҳидалик каби тушунчалар билан бойитилган. Шунингдек, ўз долзарблигини йўқотмаган, аксинча, бугунги кун жамиятида биринчи галдаги вазифалар қаторида турган “комил инсон ҳақидаги ғоялар катта ижтимоий-ахлоқий аҳамиятга эга бўлади, инсонни шарафли, эзгулик ва Буюк хайр руҳида тарбиялаш, меҳру муҳаббат, вафо ва садоқатни кучайтиришга хизмат қилади. Ҳар замон, ҳар лаҳзада инсонларга уларнинг инсонлигини эслатиб, ёвуз, қабиҳ ишлар, ножўя қилиқлардан сақланишга кўмаклашади, иймон ва виждон биносининг пойдор бўлишини таъминлайди. Азизиддин ибн Муҳаммад Насафий 1240 йилда Насафда (Қарши шаҳрининг қадимги номи) туғилган, деб тахмин қилинади. Насафий 1330 йилда Эроннинг Язд вилояти Абиркуҳда вафот этган. Айрим манбаларда у 100 йил умр кўрган деб қайд этилган. Илм-маърифатга беҳад қизиққан Насафийнинг ёшлик даври Хоразмда ўтган. Мўғуллар истилоси даврида Бухоро, Баҳробод, Исфахон ва Шерозда яшаб, замонасининг буюк мутафаккирлари билан мулоқотда бўлган, ўзига яқин маслакдошлар билан ижодий ҳамкорлик қилиб, мухолифлари билан мунозаралар олиб борган. Аллома араб ва форс тилларида нодир асарлар ёзиб қолдирган. Унинг қўлёзмалари бугунги кунгача жаҳоннинг турли илмий марказларида, жумладан, Тошкент давлат шарқшунослик институти қошидаги Шарқ қўлёзмалари марказида ҳам сақланиб келмоқда. Насафийнинг асарлари

дунёнинг кўплаб тилларига таржима қилинган. Жумладан, баъзилари таниқли олим, профессор Н.Комилов томонидан ўзбек тилига ўгирилган. Булар орасида Насафийнинг 22 та рисоладан иборат “Инсони комил” тўплами алоҳида маънавий ва тарбиявий аҳамиятга эга. Ундаги “Баёт уттанзил” асари ирфон ва ҳикмат масалаларига бағишланган бўлса, “Мақсад ул-ақсо” (Сўнгги мақсад), “Зубдат ул-ҳақойиқ” (Ҳақиқатлар қаймоғи), “Усул ва фуруь” (Илдизлар ва бутоқар), “Мабдаъ ва маъод” (Асл макон ва (унга) қайтиш), “Мифтоҳ ул-асрор” (Сирлар калити), “Нафси инсоний”, “Вахдати вужуд” рисолалари инсон ва оламнинг уйғунлигига оид таълимот талқин этилган бутун бир туркумни ташкил қилади.

Тарихий-фалсафий адабиётларда Насафийга гоҳ калом тарафдори, гоҳ, перипатетиклар, гоҳ сўфийлик ғояси ягоналик тарафдори сифатида қаралади. Бу эса муаллифнинг тадқиқот объектларига холисона ва илмий ёндашганлигидан дарак беради. Фалсафа, теология, сўфийликнинг ўзаро боғлиқлиги тўғрисидаги ғоялар Азизиддин Насафийнинг “Зубдат ул-ҳақойиқ” асари, “Кашф ал-ҳақойиқ”, “Инсони комил" рисолаларида ўз аксини топган. Жумладан, “Ваҳдати вужуд” асарида теологиянинг энг муҳим масалалари қамраб олинган. Шу жиҳатдан, Насафийни Ибн Арабийнинг маънавий маслакдоши деса ҳам бўлади. Асарда илоҳиётшуносликнинг учта асосий оқими изоҳлаб берилади: биринчиси асл шариатга мойиллар (аҳли шариат), иккинчиси асл ҳикматга мойиллар (аҳли ҳикмат), учинчиси эса асл вахдат (аҳли ваҳдат) йўллари, анъаналаридир. Насафий ўзининг Бирлик (аҳли вахдат) тарафдори эканини "Зубдат ул-ҳақойиқ" асарида баён этган. “Зубдат ул-ҳақойиқ” икки кисмдан иборат бўлиб, биринчисида макрокосмос, иккинчисида одам ҳақида сўз юритилади. Теологиянинг барча асосий масалаларини назарда тутиб ва уларнинг ҳар хил талқинларини келтириб, аллома мусулмон илоҳшунослигининг яхлит мажмуасини яратди. Кейинчалик китобнинг учинчи қисмини ёзиб, “Солик ва сулук ҳақида”, деб номлади ва учала қисмда олам, одам ва йўл ҳақидаги тушунчаларни яхлит тарзда изоҳлаб берди. Азизиддин Насафийнинг диний-мистик қарашлари энг муҳим масалаларни, биринчи навбатда, “олами куброни

билиш” таълимотини ўз ичига олади. У шундай деб ёзади: "Бир гуруҳ дарвешлар бу фақирдан олами кубро ва олами суғро ҳақида, мабдаъ ва маод ҳақида бир рисола битишимни ва унда мабдаъ (бошланиш) хилма-хилми ёки биттами, ҳар бирининг маъоди (қайтиши) хилма-хилми ёки биттами, нузул ва уруж нима, аввал бошда нузул бўлиб, кейин уруж бўлганми ёки аввал уруж, сўнгра нузулми деган масалаларни тушунтириб беришимни илтимос қилдилар. Улар яна барча илм аҳли фикр-мулоҳазаларини холисона баён этиб беринг, биронтасини ҳам афзал ҳисобламай, нима деган бўлса, шуни келтиринг, деб сўрадилар. Мен уларнинг илтимосини қабул қилиб, сўраган нарсаларини бир жойга тўпладим. Азизиддин Насафийнинг диний-мистик қарашлари энг муҳим онтологик масалаларни, биринчи ўринда “олами куброни билиш” таълимотини ўз ичига олади. “...Олам зот ва сифатларнинг исмларидан иборатдир. Зот (жавҳар) ва сифатларни жамлаб, олам дейдилар ва зот билан сифатларнинг ҳар бирининг кўриниши ҳам олам деб номланади. Олам ўзининг аввалида икки қисмдан иборат: биринчи қисмини олами ғайб (яширин олам), иккинчи қисмини олами шуҳуд (кўринадиган) деб айтадилар. Булар икки оламни миқдорий ва куллий (умумий, яхлит) маъноларда турли номлар билан тилга оладилар. Масалан: холиқият олами ва ажр олами, мулк олами ва малакут олами, жисм олами ва руҳ (жон) олами, ҳислар олами ва шуур олами, нур олами ва соя (зулмат) олами ва шу кабилар. Бу номлар ҳар икки олам олами ғайб ва олами шуҳудга ишорадир деб ёзади Насафий. Шарқ арастучилари асосан антик атомпарастлар далилларини келтириш билан чекланардилар, Калом атомизми билан антик атомизм ўртасидаги фарққа етарли эътибор бермасдилар. Бу қарашларга суфийлар қарши чиқиб, Аллоҳ, табиат ва инсон бирлиги ғоясини қатъий ҳимоя қилганлар. Шу борадаги баҳснинг моҳияти Насафийнинг қуйидаги фикрларида ўз ифодасини топган: “Бирламчи ҳаюло сурат ва шакллар кирадиган жавдардир. Ҳаюло тўрт қисмдан иборат. Масалан, темир ва дарахт жавҳарнинг моҳияти бўлиб, кўп шакл ва суратларни олиши мумкин... Ваҳдат аҳлининг фикрича, гарчи ҳар икки оламнинг ҳақиқати ваҳдати соф (соф ягоналик) бўлса-да, аммо у ҳар бир молик бўла оладиган сифатда ва қобил бўлғучи ҳар бир суръатда

таърифлана олади: ушбу сифат ва ушбу суръат фақат айни сифатнинг даражаси ва айни суръатнинг даражасида комилликка эришиши мумкин. Унинг фазилатининг такомили мана шунда. Руҳ ва жон, борлиқ ва уни билиш тўғрисидаги қарашлар сўфийларнинг асарларида кенг ўрин эгаллайди. Насафий ҳам бу диний-фалсафий мавзуга жиддий эътибор қаратган. Вужуд Аллоҳнинг ўзи эканлигини таъкидлаган, олам унинг ботиний вужуди нурдир ва у нур ўша олам жонидир, унинг боши ҳам, охири ҳам, чегараси ҳам йўқ деб уқтиради. Илоҳий нур концепциясининг баёнида комил инсон мавзуси инсоннинг ўзини-ўзи англаши, ҳалоллик поклик илмга эришиш, риёзат чекиш каби бир қанча сўфиёна қарашлар юзага чиқади. “Борлиқ фақат битта ва у Субҳонаҳу ва таоло парвардигори оламнинг вужудидир. Субҳонаҳу ва таоло вужудидан бошқа вужуд йўқ ва бўлиши ҳам мумкин эмас... Бу ягона вужуднинг (борлиқнинг) ботини нурдир ва у оламнинг жонидир ва бу нур ўзини дарчалар орқали зоҳир этади, ўзи айтиб, ўзи эшитади, ўзи бериб, ўзи олади, ўзи тасдиқлаб, ўзи инкор этади.” “Эй дарвеш, деб ёзади Насафий, ушбу нурга етишганда, унга оят-аломатлар берилади. Биринчи аломат шуки, у ўзини кўришдан тўхтайди, токи у ўзини кўрар экан, махлуқот касрати сақланган бўлади, токи у касратни кўрар экан, у аҳлидан эмасдир". Улуғ мутафаккир нарсаларнинг ички моҳиятини қалб кўзи билангина идрок этиш мумкинлигига эътиборни қаратади. Бодом данагида ёғни кўриш мумкинми ёки сут (таркибидаги) ёғини кўз билан кўрса бўладими? деб, савол беради ва ёғ ҳатто сезгилар орқали қабул қилиниб, мулк олами (моддий олам) га мансуб бўлганда хам уни куриш мумкин эмас, дея ўзи жавоб беради. Ушбу фикрларини давом эттириб, аллома “Ўзидан бошланиб, ўзига қайтади” ёки “Ҳамма нарса ўз аслига қайтади”, деган ғояни эътироф этади. У инсон жисм ва руҳдан иборат дейди. Олимнинг таъбирича, одам борлиқ мевасидир. Вужуд силсиласининг мартабалари унинг хизматида. Олам яратилиши, барча улуғлиги ва азаматлиги билан бир инсондек. Одам ёлғиз ҳолда барча оламларнинг жамловчисидир . Донишманд катта (макро) ҳамда кичик (микро) олам ҳақидаги фикрларини хулосалаб, Тангри таоло инсонни ўз тимсолида яратди, бизнинг ақлимиз Тангрининг кичик оламдаги халифасидир,

дейди. Унинг “Зубдат ул-ҳақойиқ” китоби макрокосм олам тўғрисида ҳамда микрокосм одам тўғрисида. Теологиянинг барча асосий масалаларини назарда тутади ва уларнинг ҳар хил талқинларини келтириб, у мусулмон илоҳиётшунослигининг яхлит бир мажмуасини яратди. Мутафаккирнинг ўз китобининг учала қисми (олам, одам ва йўл ҳақида) ҳам битта нарсани билдиради, деган сўзларини шундай талқин қилиш мумкин: одам ва оламнинг ҳақиқатан ўхшашлиги намойиши, олами куброни ҳақиқий билиш олами суғрони (инсонни) ҳақиқий билишга, ўзини-ўзи ҳақиқий билиш Аллоҳни билишга олиб келади. Бундан кўриниб турибдики, рисола таркиби равон ва яхлит бўлиб, барча асосий масалаларни қамраб олган. Насафий олам иборасининг ўзини диалектик йўл билан қарама- қаршиликлар бирлигида ифодалаган. Бизнингча, бунда Насафийга аввалги сўфийларнинг билиш назарияси тўғрисидаги карашлари таъсири сезилади. Масалан, Ғаззолий ақлнинг чегараланганлиги ва ҳис қилиш орқали олинган билимнинг ҳақиқийлиги тўғрисидаги фикрни қўллаб-қувватлайди. Унинг шубҳа қилиш билишнинг синалган йўли тўғрисидаги фикрлари бундан далолат беради. Насафий ўз билиш назариясида оламни билишда ҳис қилиш аъзоларининг инсон амалий ҳаётидаги ўрнини исботлайди. Насафий тасаввуф таълимоти асосий белгиларини шундай тавсифлайди: Катта одамда нимаики бўлса, кичкина одамда ҳам мавжуд, нимаики кичкина одамда бўлса, у катта одамда ҳам бор. Тасаввуфнинг умуминсоний, этник эстетик ғоялари яшовчан, ҳаётбахш бўлиб, сўфийликнинг олий мақсади-комилликка эришишдир. Комил инсон ғояси эса “ҳам миллий, ҳам умумбашарий моҳиятга эга бўлган, одамзотга хос энг юксак маънавий ва жисмоний баркамолликни мужассам этган, уни ҳамиша эзгуликка ундайдиган олижаноб ғоядир. Азизиддин Насафийнинг маънавий устози Ибн Арабийнинг фалсафий антропологиясида комил инсон муаммоси марказий ўрин эгаллайди. “Инсони комил”, бу уни Аллоҳ қандай яратган бўлса шундай шахс. Борлиқда илоҳий сифатлар алоҳида-алоҳида намоён бўлса, инсонда улар жамланган, чунки инсон олам ва Аллоҳ ўртасидаги восита. Шундай қилиб, комил инсон борлининг барча оламга тегишли ташқи сифатларини ҳамда илоҳий ички сифатларининг қирраларини

ўзида мужассамлаштиради. Маънавий устозининг фикрларини ривожлантириб, Насафий ўз асарларида қимматли гуманистик имкониятларни бирлаштирганлиги учун ҳам ҳозирги замон ахлоқ меъёрларини сақлаб қолиш, уларни янада сайқаллаштириш ва комил инсон тарбиясида муҳим роль ўйнайди. Ўзбекистонда амалга оширилаётган демократик жараёнлар натижасида фуқароларнинг эътиқодига муносабат ҳам либераллашгани учун тасаввуф тўғрисида аниқ тасаввур ҳосил қилиш ва бу таълимот ўз тарихи давомида комил инсон шахсини шакллантириш бўйича орттирган ижобий тажрибасидан ҳозирги замон тарбия жараёнида фойдаланиш мумкин.

Мутафаккирнинг инсон тарбияси тўғрисидаги фикрлари кенг камровли ва эътиборлидир. Мусаффо сув ҳақида билмаган қуш умри давомида тумшуғини шўр сувда ушлаб туради, олдига тоза сув қўйилганида ҳам ўзи ичиб келган ўша сувни истеъмол қилаверади, дейди у. Демак, инсонни тарбиялаш, уни болаликдан оламнинг мунаввар жамоли ва инъомлари билан таништириш зарур. Хулоса ўрнида айтиш мумкинки, Азизиддин Насафийнинг сўфиёна фалсафасида илоҳиёт таълимоти устун туради. Шу билан бирга, унинг ғоявий қарашлари инсон, табиат ва Аллохнинг бирлиги, микрооламдаги инсон фаолиятининг аҳамияти, ақл ҳақидаги фикрлар, дунёни билиш мумкинлиги тўғрисидаги қарашлар билан уйғунлашиб кетган. Азизиддин Насафий ўз даврининг кўпгина донишмандлари каби Аллоҳни мутлақ эркин, ирода ва амалиётни эса унинг сифатлари деб ҳисоблайди. Инсонга илоҳий ирода берилганини, инсон бахти Аллоҳдан эканлигини таъкидлар экан, бахт бу инсон амалиёти ва иродасидир, дейди. Буюк юртдошимизнинг узоқ мозийдан бизгача етиб келган илмий меросини ўрганиш ўзбек фалсафаси тарихини ўрганишда муҳим аҳамиятга эга. Унинг ўзига хос талқинлари, холисона илмий тахлил қилиш, у ёки бу ёндашувларга ўзининг мустақил фикрини баён қилиш маҳорати бугун ҳам таҳсинга лойиқдир.

Адабиётлар

1. Каримов И.А. Муаззам ва мукаррам шаҳар шодиёнаси. Асарлар тўплами. Т.15. Т.: Ўзбекистон, 2007. Б. 70.

2. Саад А.А. Ўрта Осиё олимлари қомуси. Т.: Имом Бухорий республика илмий-маърифий маркази нашриёти, 2007. - Б. 470.
3. Нарзиев З. Азизиддин Насафийнинг борлиқ ҳақидаги қарашлари. “Фалсафа ва тасаввуф: маърифий дунёқарашни шакллантириш муаммолари ва ечимлари” мавзуидаги Республика илмий-назарий анжумани материаллари тўплами. – Бухоро 2019.
4. Комилов Н. Тасаввуф. Т.: Мовароуннаҳр-Ўзбекистон, 2009. - Б. 448.
5. Маматов М.А. Тасаввуф таълимотининг тарихий-фалсафий моҳияти. Т.: Халқаро ислом академияси Нашриёт-матбаа бирлашмаси, 2018. Б. 2.
6. Насафий Азизиддин. Зубдат ул-ҳақойик. Т.: Камалак 1996.
7. Камил И.Т. Атомистика в исламе и её место в средневековой арабо-мусулманской философии. М.: МГУ, 1978.
8. Суфизм в контексте мусулманской культури. М.: Наука, 1989. С. 331.
9. Ҳожиматов М.М. Энг улуғ, энг муқаддас мақсад баркамол авлод тарбиясидир. “Маънавий таҳдидлар ва уларга қарши курашнинг илмий-услубий ҳамда маънавий мафкуравий асослари” мавзуидаги Республика илмий-услубий конференцияси материаллари. Т.: Муҳаррир, 2010.

AMIR TEMUR VA UNING HARBIY YURISHLARI

Mamatillayeva Surayyo Bobomuratovna,
CHDPI o’qituvchisi,
Jumaboyev Lazizjon Botirjon o’g’li, *CHDPI talabasi*

Mustaqil O’zbekistonda istiqlol yillarida Vatan tarixiga bo’lgan e’tibor davlat siyosati darajasiga ko’tarildi. Barcha sohalarda bo’lganidek, milliy-ma’naviy qadriyatlarimiz, bir qator ajdodlarimiz nomlari qayta tiklanib, tarixiy haqiqat qaror topdi. Buyuk ajdodlarimizga munosib voris bo’lish, yoshlarni ular bilan tanishtirish uchun ilmiy anjumanlar o’tkazildi, ularning haykallari qad rostladi. Jahon miqyosida Amir Temurni o’rganish boshlandi. YUNESKO tomonidan 1996-yilning “Amir Temur

yili” deb e’lon qilinishi, Fransiya poytaxti Parij shahrida Amir Temurga bag’ishlab xalqaro anjuman o’tkazilishini aytib o’tish mumkin.

Mamlakatimiz istiqlolga erishgach, Amir Temur shaxsi yana Vatan va millat timsoliga aylandi. Istiqlolimizning har bir tadbirida, mustaqil davlatimizning har bir qadamida ul buyuk zot ruhi bizga hamroh-u hamnafas bo‘lib bormoqda. “Hammamiz yaxshi bilamizki, tarixda mashhur jahongirlar ko‘p o‘tgan. Lekin, dunyoning qaysi yerida, qaysi zamonda Amir Temurdek buyuk sarkarda, Amir Temurdek buyuk davlat arbobi-quruvchi, Amir Temurdek ilm-fan, madaniyat va ruhoniyat homiysi bo‘lgan...”[1].

Amir Temurning harbiy jang san’atini o’rganish ayniqsa, har vaqtda ko’p davlatlar tomonidan olib borilgan. Xiva ekspeditsiyasi ishtirokchisi Mixail Ignatevich Ivanin XIX asrdayoq “Chingizxon va Amir Temur” ning harbiy ishlariga alohida diqqat bilan qaragan. Sarkardaning tug’ilishi,bolalik yillari, hokimiyat tepasiga kelishi va janglarda askarlarga qanday vazifalar qo’yganligi haqida ma’lumotlarni taqdim etadi[2].

Amir Temur yoshligidan harbiy ishga qiziqqan, bu ishda usta bo’lgan. 12 yoshdan boshlab otasi bilan janglarda qatnasha borgan. Hokimiyat tepasiga kelguniga qadar darbadarlikda kezib yurgan, bir qancha mushkul vaziyatlardan oson yechim bilan chiqib ketgan. Darbadarlik yillari Alibek Joni qo‘rboshi degan kishi Ilyosxo‘jaga yoqish maqsadida Temurni unga tutib berishi, 62 kun zindonda yotgandan so’ng, Temur ta’rifi bilan aytganda: “Ollohning madadi va yaqin kishilari yordami ila qutilib chiqadi” [3]. Amir Temur Samarqandga kelib Ilyosxo‘jaga qarshi qo‘zg‘olon ko‘tarish uchun singlisinikida 48 kun yashab, mablag‘ to‘play boshlaydi. Lekin Amir Temurning Samarqandda ekanligini bilib qolgan kishilar uni sotmoqchi bo‘lishadi. Temur 50 ta otliq, 100 ta piyoda jangchini olib shahardan qochib chiqadi. Amir Temur Movarounnahr va Xuroson hokimlarining o’zaro ichki urushlarida ham qatnashadi, tajribasi oshib boradi. Ba’zida ko’ngilsiz vaziyatlarga ham duch kelib qoladi. Seyiston hokimining dushmanlariga qarshi kurashayotgan paytda o’ng qo‘li va o’ng oyog‘idan yaralanib, “Temurlang”[3] laqabini olishi ham shunday hodisa edi.

Amir Temur harbiy ishlar bilan band bo'lgan chog'da Movarounnahrdagi ichki vaziyat ham tinch emasdi. 1332-yili Chig'atoy xonliklari taxtiga G'ozonxon o'tiradi. U o'zining zolimligi bilan hammada nafrat uyg'otadi. Amaldorlar tomonidan ko'tarilgan g'alayon va jang natijasida 1346-yili G'ozonxon o'ldiriladi[2]. 1360 – 1370-yillarda bo'lgan janglarda Amir Temur qo'shini mustahkamlanib borgani sari, Amir Husayn bilan munosabatlari buzilib boradi. Natijada 1370-yilda Amir Husayn bilan bo'lgan jangda Amir Husayn qatl etiladi va Movarounnahrda hukmronlik uchun Amir Temur chiqadi. Amir Temur hokimiyat tepasiga kelguncha ham, kelgandan so'ng ham tinch turmadi. Markazi Samarqand bo'lgan butun boshli imperiya tuzish maqsadida, yurtida tinchlik o'rnatish uchun "otdan tushmadi". Bu harakatlar zoye ketmadi. XV asr boshlarida Temur imperiyasining chegarasi Hindiston va Xitoydan Qora dengizga qadar, Orol dengizidan Fors qo'ltig'iga, Kichik Osiyo, Suriya, Misr va Quyi Volga, Don bo'ylari, Balxash ko'li va Elsuvi daryosi, Shimoliy Hindistonga qadar kengayib[4], "laganda oltin ko'targan bola saltanatning u boshidan bu boshiga borguncha hech kim unga qasd qilolmaydigan" darajadagi tinchlik o'rnatish maqsadiga erishgan edi. Amir Temur savdo karvonlarini Xitoy, Hindiston, Misr, Gurjiston va hatto Yevropa davlatlariga ham yuborar edi.

Amir Temur: "Hokimiyati tayoq va qamchidan ustun bo'lgan boshliq o'zi egallab turgan lavozimga loyiq emas" degan iborasini o'zi uchun ham dastur qilib olgandi. Shu bois yurti chin ma'noda tinch, xalqi farovon bo'lishi uchun tinmay harakat qildi. Bu yo'lda ko'plab hududlarni birlashtirib, tinchlik o'rnatdi. Jangga tayyorlanishni qo'shin ta'minotini ta'minlash chora- tadbirlaridan boshladi. M.I. Ivanin Amir Temurning qo'shinni joylashtirish, askarlarga beriladigan harbiy aslahalarga, janglarida "Grigoryan olovidan" foydalanish tartiblariga alohida to'xtalib o'tgan" [5]. Boyazidga qarshi jangda ayniqsa bu narsa juda asqotgan.

Amir Temur Sezarning "Urushni urush bilan ta'minla" degan shioriga amal qilar edi. Amir Temur G'arbga qaratilgan yurish uchun shoshilmadi. Buning sababi esa Suriya ham qo'lida bo'lgan Misr sultonining Boyazid bilan yaqin aloqada ekanligi va kerak payti unga yordam qilishi mumkinligini bilar edi. Amir Temur Misr sultonining qo'shinlarini tormor keltirib, hukmdorni esa qochishga majbur etadi. Shuningdek,

Amir Temur yurish qilishda askarlarga yuqori maosh belgilashi kerakligini bilar edi, shuning uchun ham G‘arbga yurish qilishdan oldin Hindistonga yurish qilib, u yerdan katta boyliklarni qo‘lga kiritadi. Bilamizki, Amir Temur Qur’oni karim asosida fol ochish, Qur’on oyatlariga binoan harbiy harakatlat olib borishga odatlangan. Usmonlilarga yurishga to‘sqinlik qiladigan yana bir holatlardan biri 1400-yilda osmonda dumli yulduz paydo bo‘lishi urush boshlashga ikkilanishiga olib keladi. Amir Temurning suyukli munajjimlaridan biri Shamsuddin Ma’laviy unga Boyazid bilan sulh tuzishni taklif beradi.

Shunday bo’lsa-da, Amir Temurning qo‘shinlari soni 1402-yilga kelganda 800 ming kishini tashkil qildi va u Usmoniylar davlatiga tegishli bo‘lgan ikkita orol: Sivos va Malatiyaga hujum qilib bosib oladi [9].

Yevropa davlatlari ham Amir Temurdan yordam so‘rab murojaat qilayotgan edi. Amir Temur huzurida bo‘lgan va u bilan muloqot qilgan elchilar, uning harbiy yurishlari guvohi bo‘lgan sayyoh va savdogarlarning Amir Temur haqidagi kitoblari yevropaliklarda katta qiziqish uyg‘otdi. Shu tarzda XV asrdan boshlab Temur va uning davlati haqida Yevropada bir necha tarixiy manbalar yaratildi. Ularning orasida elchi va monax Ioann Grinlo, savdogarlar Paole Zane, Beltramus de Mignanelli va Emmanuil Pilotti, ispan elchisi Rui Gonzales de Klavixo, asirga tushgan nemis askari Yoxannes Shiltberger xotiralari muhim ahamiyat kasb etadi.

Aytib o‘tish kerakki, XIV asrning oxiri – XV asr boshlarida Yevropada to‘plangan Amir Temur, uning saltanati, qo‘l ostidagi yerlari, qo‘shini, urush olib borish uslublariga oid ma’lumotlar nashr etish maqsadida emas, balki Yevropa qirollari va Rim papasi uchun to‘plangan bo‘lib, asosan maxfiy hujjatlar hisoblangan. Shuning uchun ham bu ma’lumotlar asrlar davomida o‘rganilmagan va qo‘lyozma holatida qolib ketgan[6]. Vizantiya va G‘alatiyadagi Genuya hokimining noiblari Fransiya qiroli, Sultoniya shahrining katolik misssionerlari yordam so‘rab murojaat qiladi.Vizantiya imperatorining Konstantinopoldagi noibi Ioann VII Paleolog va Genuyaning Peradagi hokimi Trabzon imperatori Manuil III unga birgalashib Boyazidga hujumga o‘tishni taklif qiladi. Buning evaziga esa Konstantinopol va Peraning Boyazidga to‘layotgan bojini unga to‘lashini aytadi. Bu taklif Amir Temurga

ma'qul tushadi.Bu paytda esa Amir Temur Boyazid bilan faol yozishmalar olib borish bilan bir qatorda bo'lajak to'qnashuvda Trabzon va Konstantinopolning harbiy kemalaridan foydalanishni ham rejalashtiradi. Konstantinopol imperatori va Genuyaning Peradagi hokimi Boyazidga qarshi kurashda Temurga xizmat qilishi va odamlar va har qaysisi 20 tadan 40 tagacha kemalar bilan ta'minlash majburiyatini oladilar. Buni ispaniyalik sayyoh Klavixo ham o'z kundaligida yozib o'tgan [7].

Sharafuddin Ali Yazdiyning yozishicha, Amir Temur Xitoyga boruvchi yo'llar haqida aniq va to'liq ma'lumotlarga ega bo'lgan[8]. Amir Temurda yo'lda uchraydigan har qanday yo'l, cho'l, daryo - bularning hammasi haqida ma'lumotlarga ega bo'lgan.Sharafuddin Ali Yazdiy Amir Temurning tarjimayi holini yozar ekan, bu yo'llar haqida aytib o'tmagan. Bu yo'llarning qayerdano'tganligi hozirgacha noma'lumligicha qolmoqda. Bulardan tashqari, Amir Temur farmoniga asosan qo'shin orqasidan urug'lik don ortilgan minglab karvonlar ham ketgan. Zarurat bo'lgan paytda ularning hosilidan qo'shin foydalanishi uchun ekilishi shart bo'lgan. Ulardan tashqari qo'shin ortidan yana urg'ochi tuyalar ham olib borilgan. Favqulodda vaziyatlarda ularning sutidan ozuqa sifatida foydalanish ko'zda tutilgan.

Sohibqiron Amir Temurning jahon tarixidagi boshqa jahongirlardan farq qiluvchi eng muhim jihatlariga umri davomida adolat tamoyillariga amal qilganligi, mamlakat obodonchiligi xalq farovonligiga alohida e'tibor qilganligidir. Yuqoridagi barcha fikrlar buning yorqin isbotidir. Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Amir Temur yurtimiz tarixida o'chmas iz qoldirgan buyuk siymodir.

Adabiyotlar

1. Ma'naviy yuksalish yo'lida. Toshkent, « O'zbekiston» nashriyoti, 1998 y.
2. Ivanin M. Ikki buyuk sarkarda. T.: "Fan" nashriyoti 1994 y.
3. Amir Temur Ko'ragon.Temur tuzuklari.Yangi asr avlodi, 2020-y.
4. Axtamova X. Amir Temurning mo'jizalar mamlakati Hindistonga yurishi.http://xorazmiy.uz/oz/pages/view/509
5. https://saviya.uz/hayot/nigoh/buyuk-sarkarda-va-uning-benazir-jang-sanati/
6. https://zamin.uz/uz/jamiyat/20490-sohibqiron-amir-temur-evropa-manbalarida-veneciya-arhividagi-haligacha-chop-etilmagan-sirli-malumotlar.html

7. Muhammadjonov A. “Temur va Temuriylar saltanati” (tarixiy ocherk). Qomuslar bosh tahririyati. 1994-y.
8. Choriyev A. Sohibqiron Amir Temur hayotidan lavhalar. Qarshi, “Nasaf”, 2004 y.
9. Muhammadjonov A. Temur va Temuriylar saltanati (tarixiy ocherk). T.: Qomuslar bosh tahririyati, 1994y.

O’RTA OSIYO XONLIKLARINING XVIII-XIX ASRLARDA ROSSIYA BILAN O‘ZARO SAVDO-IQTISODIY ALOQALARI TO‘G‘RISIDA AYRIM MULOHAZALAR

Berdiyev Abduvali Abdug‘aniyevich,
QarDU PI o`qituvchisi

Rossiya davlatining ravnaqi yo‘lida faol ichki va tashqi siyosat olib borgan Pyotr I Yevropa-Sharq savdo aloqalarining Rossiya hududida amalga oshirilishiga alohi e'tibor qaratgan. Pyotr I hukumati Rossiya hududiga xorijiy savdogarlar jalb etish maqsadida xorijiy yirik savdogarlarga imtiyozli yorliqlar bergan. Masalan,1698 yilda ingliz fon Karmartenga Rossiya hududida tamaki va tamaki mahsulotlarini sotishga, 1701 yilda ajnabiy Gotfridga Rossiya hududida har qanday dori-darmonni erkin sotishga va 1703 yilda Xiva xoniga Xiva savdogarlarining Rossiya hududiga bemalol kelishlari, erkin savdo olib borishlari uchun imtiyoz yorliqlari bergan. Bunday yorliqlar berilishi natijasida Rossiya hududida xorijlik savdogarlarning o‘zaro tovar ayirboshlashi kuchaygan, bu esa o‘z navbatida savdodan olinadigan boj tufayli mamlakat xazinasini boyishiga xizmat qilgan.

1722 yilda Pyotr I Kommers kollegiyaga dunyoning barcha mamlakatlarining savdo ustavlarini yig‘ishni buyurgan. Bu bilan rus savdogarlarining ushbu hujjatlar bilan tanishtirish orqali rus savdogarlariga daromad olishlari uchun ulkan imkoniyat yaratilgan.

XVIII asrga kelib, Yevropa va Sharq savdosini o‘z qo‘liga olgan Julfa savdogarlari Yevropaning barcha mamlakatlarida Sharq bilan savdo ishlarida vositachilik qilishni to‘la o‘z qo‘liga olgan. Shu sababdan, Rossiyada julfalik arman savdogarlariga keng imtiyozlar berilgan. Angliyaning Ost-Indiya kompaniyasi ham

Yevropadagi raqobatchilarini sindirish maqsadida ushbu arman savdogarlaridan foydalangan. 1688 yil 22 iyunda Julfa savdogarlari va Ost-Indiya kompaniyasi oʻrtasida tuzilgan shartnomaga koʻra, endilikda sharq mollari Yevropaga arman savdogarlari orqali faqat “ingliz yoʻli”dan, ya'ni Afrikani aylanib oʻtuvchi okean yoʻlidan olib borilishi kerak edi. Savdo faoliyati yoʻnalishidagi oʻzgarishlar Rossiya hukumatini Sharq savdogarlari masalasiga e'tiborliroq boʻlishga majbur etdi. Buning oqibatida Rossiya savdo va elchilik missiyalari orqali bu hududda oʻz ta'sirini yoyishga harakat qildi.

Oʻrta Osiyo savdogarlarining Astraxandan tashqari Moskva davlati hududlaridagi savdo faoliyatlari ham Oʻrta Osiyo haqida Yevropaliklar tomonidan ma'lumotlar toʻplanishida muhim rol oʻynagan. Yevropalik savdogarlar bilan bevosita savdo olib borilishi va ularga taklif etilgan Oʻrta Osiyo savdo mollari ularning Oʻrta Osiyo haqidagi dunyoqarashlarini boyitgan. Shu sababdan Oʻrta Osiyodan olib kelinadigan savdo mollariga alohida e'tibor bilan qaraganlar.

Rossiya davlati oʻzining iqtisodiy manfaatlarini Oʻrta Osiyoning boy iqtisodiy imkoniyatlari hisobiga kengaytrish niyatida oʻlkaga koʻplab savdogarlar va sayyohlarni joʻnatib turgan. Bunday vakillarga birinchi navbatda Oʻrta Osiyodagi siyosiy va iqtisodiy holatni oʻrganish muhim vazifa sifatida belgilangan. 1750 yilda Orenburgdan Buxoro va Xivaga savdo ishi bilan kelgan Sharip Bekmentev xonliklarda savdo munosabatlarini ahvoli haqida ma'lumot bergan.

Sh.Bekmentev Buxoro va Xivaga kelgan davrda har ikki mamlakat endigina Nodirshoh zulmidan ozod boʻlgan davr boʻlib, Movarounnahr Eronga qaram boʻlgan davrda Nodirshoh tomonidan koʻp yillik soliqlarni yuki aholi hayotini qiyinlashtirib qoʻygan edi. Shu sababdan mamlakatlarning savdo va hunarmandchilik ishlab chiqarish munosabatlari tanazzulga yuz tutgan edi.

Savdogar Sh.Bekmentev Xivada faqat juma kuni bozor boʻlganligi va aholini uning savdo mollariga ehtiyoji boʻlmaganligi sababli Xivada hech narsa sota olmagan. Buxoroda esa, oʻzaro taxt uchun kurashlar tufayli mamlakat iqtisodiyotiga bu davrda hukumat tomonidan be'tiborsizlik mavjud edi. Ammo, Sh.Bekmentev Buxoroda bozor

kunlarining ko‘pligi va bozorlarning xaridorlar bilan gavjumligi sababli savdo mollarini qarzga va ziyoniga bo‘lsada sota olgan [2:45-b]

Rossiya davlati sanoatining yuksalishi natijasida ishlab chiqarilgan mollarni sotish uchun bozorlar talab qilgan. Yevropa bozorlarida sifat jihatidan Yevropa savdo mahsulotlari bilan raqobatlasha olmaydigan rus mahsulotlarini sotish uchun eng qulay bozorlar O‘rta Osiyo bozorlari edi. Shu sababdan rus hukumati O‘rta Osiyoni o‘rganish ishlariga jidiy e'tibor bera boshlagan.

1797 yildayoq Orenburg general-gubernatori Baron Ingel-strom O‘rta Osiyo xonliklari bilan savdo munosabatlarini kengaytirish va ularni normal holda olib borish uchun karvon yo‘llarining xavfsizligini ta’min etishda savdo karvonlarini O‘rta Osiyo bozorlariga doimiy suratda harbiy soqchi bilan kuzatishni, mahalliy O‘rta Osiyo savdogarlari uchun Rossiyaning ichki yarmarkalarida savdo qilishga ruxsat etilishi va Orenburgda O‘rta Osiyo bozorlarini muntazam o‘rganuvchi rus savdo muassasalarini barpo etishni taklif qilgan edi [3:14-b].

Rossiya – Buxoro savdosining bunday sur’atlar bilan rivojlanishi asosan Rossiyada kapitalistik munosabatlarning o‘sishi bilan bog‘liq bo‘lib, rivojlanib borayotgan rus to‘qimachilik sanoati ko‘proq O‘rta Osiyo xomashyosi – paxtaga muxtoj edi. Shuning uchun ham XVIII asrning oxiridan boshlab, O‘rta Osiyo Rossiya sanoatining eng zarur va eng muhim xomashyo manbalaridan biriga aylanib, paxta va yigirilgan ipdan tashqari, Rossiyaga xom teri, qorako‘l, ipak, revand va quruq mevalar chiqarilardi.

1801-yilda Buxorodan Rossiyaga 483,7 ming so‘mlik yigirilgan ip chiqarilib, u umumiy savdo oborotining 68 protsentini tashkil etsa; 19,5 ming so‘mlik paxta, yoki savdo oborotining 2 protsentini, 42,5 ming so‘mlik gazlama, yoki savdo oborotining 5 protsentini, 101,7 mipg so‘mlik xom teri, yoki savdo oborotining 13 protsentini, 45,8 ming so‘mlik qorako‘l, yoki savdo obrotining 6 protsentini, 25,7 ming so‘mlik revand, yoki savdo oborotining 3 protsentini va qolgan boshqa xildagi mahsulotlar savdo oborotnnnng 3 protsentini tashkil etardi[2.] Demak, XIX asrning boshida Buxorodan Rossiyaga chiqariladigan mahsulotlar ichida yigirilgan paxta ipi bilan xom paxtaning o‘zi umumiy savdo aylanmasining 70 foizini tashkil etgani.[3:12-b]

Buxoro va Rossiya savdo aloqalarining yuksalishi bilan bu ikki davlat o‘rtasidagi diplomatik munosabatlar ham tobora mustahkamlanib bordi. 1804-1808 yillarda Buxoro xonligidan Rossiyaga Miralouddin, 1816 hamda 1819 yilda Mirza Muhammadyusuf «qo‘rchiboshi» boshliq elchiliklar yuborildi. Rossiya ham Buxoro xonligi bilan aloqalarni muntazam olib borish uchun Buxoroga o‘z elchi va missiyalarini yuborardi. Masalan,1803-yilda Goverdovskiy. 1809-yilda Abdulnosir Subhonqulov elchiliklari va 1820-yilda A. F. Negri boshliq katta diplomatik missiya yuboriladi [3:17-b]

F.Negri missiyasiga (1820-1822) yo’riqnoma bo‘yicha O‘rta Osiyoning tabiiy resurslari, ularni boshqarayotgan xonlari, ularning o‘zaro munosabatlari, shuningdek, Afg‘oniston, Eron, Usmoniylar isperiyasi bilan munosabatlari, bu o‘lkalar va shimoliy Hindistondagi siyosiy holat, Sirdaryo va Amudaryoda savdo kemalarini suzish imkoniyatlarini o‘rganish, eng asosiysi bu o‘lkalarda Yevropaning qanday savdo mahsulotlari bor va ular qaysi yo‘l bilan bu yergan olib kelinishini aniqlash yuklatilgan edi. Missiya o‘z ishini yaxshi uddalab, O‘rta Osiyo haqidagi mukammal ma'lumotlar to‘play olgan. Missiya tarkibida bo‘lgan fransuz olimi K. Meyendorf Buxoro mamlakatining aholisi, mashg‘uloti, tashqi va ichki savdosi haqida ma'lumotlar to‘plab, mukammal va qimmatli asar yozgan.

Ushbu kitob uch qismdan iborat bo‘lib, uning oxirida Peterburg universitetining professori I.O. Senkovskiyning, M. Kelerning va naturalist X. Panderning maqolalari ilova shaklida berilgan. Shu bilan birga, kitobda Buxoro xonligi va Buxoro - Orenburg shaharlari o‘rtasidagi savdo yo‘lini o‘z ichiga olgan sxematik xarita berilgan. Asarning birinchi qismida avtor Orenburg va Buxoro o‘rtasidagi masofani uchga bo‘lib, Orenburg Maxojar tog‘lari, Maxojar tog‘lari- Sirdaryo va Sirdaryodan Buxorogacha bo‘lgan savdo yo‘lini tasvir qiladi. Asarda qozoq xalqining etnografiyasiga oid ma’lumotlar keltiriladi. Shuningdek, Buxoro amiri tomonidan 1820-yilda Rossiyadan yuborilgan elchilikning Buxoroda kutib olinishi va rasmiy ravishda qabul qilinishdagi marosim ustida to‘xtab o‘tiladi. Asarning ikkinchi qismi Markaziy Osiyo ta’rifiga bag‘ishlanib, unchalik original emas, chunki u og‘zaki ma’lumotlar va adabiyotlar asosida yozilgan. Bu qismda Xiva, Qo‘qon, Sharqiy Turkiston, Hisor, Ko‘lob,

Romiton, Badaxshon, hamda Balxdan Kobulgacha va Buxorodan Hirotgacha bo‘lgan yo‘llar tasvirlanadi. Kitobning eng ajoyib va qimmatli qismi uchinchi qism bo‘lib, unda Buxoro xonligining geografik o‘rni, ijtimoiy-iqtisodiy va davlat tuzilishi sistematik ravishda bayon qilinadi. Asarning bu qismida Buxoro xonligining iqtisodiga, etnografiyasiga, tarixiga hamda tashqi davlatlar, jumladan Rossiya bilan olib borgan savdo va diplomatik aloqalariga bag‘ishlangan maxsus qimmatli bo‘limlari bo‘lib, ularda Buxoroning aholisi va mashg‘ulotlari, qishloq xo‘jaligi, sug‘orish sistemasi, hunarmandchilik, kustarchilik, ichki va tashqi savdo hamda hunarmandlarning, ayniqsa xotin-qizlarning ahvoliga oid juda ko‘p qimmatbaho ma’lumotlar keltiriladi [3:19-b].

G. Meyyevdorfning asari, asosan avtorning shaxsiy mushohadasi, kishilardan eshitgan va so‘rab bilgan ma’lumotlari asosida yozilgan. Kitobda keltirilgan ko‘pdan-ko‘p izohlar va dalillar G. Meyyendorfning O‘rta Osiyo mahalliy tarixchilari asarlaridan hamda O‘rta Osiyoga o‘zidan avval borgan yevropalik sayohatchilarning yozib qoldirgan xotiranomalaridan keng foydalanganligini ko‘rsatadi. Buxoro va Rossiya munosabatlari tarixini bayon qilishda avtor A. Jenkinson (1558), Bekovich-Cherkasskiy (1714-1718), F. Beneveni (1721-1725), T. Burnashevlarning (1794-1795) elchiliklari to‘g‘risida yozilgan adabiyotlar hamda O‘rta Osiyo geografiyasiga oid ma’lumotlarni o‘z ichiga olgan, XVII asrning 20-yillarida Moskvada bosilib chiqqan «Книга глаголетая большой чертеж » nomli asaridan ham foydalangan [3:20-b].

Rossiya davlati tomonidan Volga-Kaspiy suv yo‘lini egallanishi natijasida Yevropa davlatlari Sharq mamlakatlariga borish va sharq xalqlari haqida mukammal ma'lumotlarni qo‘lga kiritish imkoniyatiga ega bo‘lgan. Qozon (1552) va Astraxan (1556) xonliklarining tugatilishi shu davrga qadar Yevropada Sharq xalqlari haqida to‘plangan afsonaviy hikoyalarning o‘rnini aniq, asosli ma'lumotlar egallashiga xizmat qilgan. Volga-Kaspiy suv yo‘lining markazida joylashgan Astraxan shahrining Yevropa-Sharq savdo aloqalari va Sharq xalqlari haqida ma'lumotlar to‘planishidagi ahamiyati juda muhim bo‘lgan.

Yevropa va Sharqning o‘zaro savdo aloqalarida qariyb 7 asr mobaynida o‘z ahamiyatini yo‘qotmay kelgan Astraxan shahri 1394 yilda Amir Temurning To‘xtamishxon qo‘shining tor-mor etishi natijasida tanazzulga yuz tutgan edi. Ammo, Buyuk geografik kashfiyotlar natijasida shimoli-sharqiy yo‘ldan Rossiya orqali Hindiston yerlariga borish rejasining tug‘ilishi Yevropa mamlakatlari e'tiborini yana Astraxanga qaratishiga majbur etgan. Shu sababdan, bu shahar Sharq darvozasiga aylanib, sharq va g‘arb mollari o‘zaro ayirboshlanadigan yirik savdo markaziga aylangan. Savdo markazi sifatidagi ahamiyatining oshib borishi bilan bu shahar Yevropaliklarning Sharq mamlakatlari haqida mukammal ma'lumotlar to‘playdigan asosiy markaziga aylangan. Rossiya davlatiga Sharq mamlakatlari haqida ma'lumot to‘plash maqsadida kelgan sayyoh va savdogarlar, albatta, Astraxanga kelganlar va bu yerda oz muddat yashab, qimmatli ma'lumotlar to‘plaganlar.

Astraxan shahriga Osiyoning turli mamlakatlaridan savdogarlarning savdo ishi bilan borganliklari tufayli shahar Yevropa-Sharq savdo mollarining qizg‘in ayirboshlash markaziga aylangan. Astraxanda Buxoro, Qrim va No‘g‘ay tatarlari, shuningdek, armanlar turli savdo mollari, hunarmandchilik mahsulotlari bilan qizg‘in savdo olib boradilar. Ma'lumotlarga ko‘ra, bu shahar Rossiya xazinasiga bir yilda faqat boj to‘lovlaridan 12 ming rubl va 24 ming reyxstaler daromad keltirgan [4:402-b].

1702 yilda Astraxan orqali Eronga sayohat qilgan Korneliy de Bruin ham bu yerda ruslar bilan bir qatorda arman, tatar, fors, hind va buxorlik savdogarlarni qizg‘in savdo olib borishlari haqida ma'lumot bergan [5:30-b].

Osiyo mamlakatlari, jumladan, O‘rta Osiyoning iqtisodiy holati va imkoniyatlarini o‘rganish niyatida bo‘lgan Yevropalik sayyohlar Astraxanda O‘rta Osiyolik savdogarlar orqali muhim ma'lumotlarga ega bo‘lgan. Shuningdek, O‘rta Osiyodan Astraxanga olib borilgan savdo mollari Yevropalik savdogarlarni doimo qiziqtirib kelgan va yuqori baholangan. Sayyoh Belevining guvohlik berishicha, Astraxanda Buxoro qorako‘li yuqori baholangan. “Astraxanda bir Buxoro qorako‘li 25-30 rub baholangan paytda, qalmiq qorako‘li 50 koop. Qiymatida baholangan” [6:39-b].

Astraxan shahri mo‘g‘ullar hukmronligi davrida Yevropa va Osiyoning o‘zaro savdo aloqlarida qanday muhim ahamiyatga ega bo‘lsa, XVI-XVII asrlarda Yevropaliklar uchun Osiyo qit'asining ichki hududlari haqida ma'lumotlar to‘plash jarayonida shunday muhim ahamiyatga ega bo‘lgan. Yevropaliklarning Buyuk ipak yo‘li o‘z ahamiyatini yo‘qotganidan so‘ng Sharq mamlakatlari bilan Astraxan orqali transkontinental savdo aloqalarini tiklash jarayonida bu shaharda savdo olib boruvchi sharq savdogarlari orqali qimmatli ma'lumotlar to‘plangan. Rossiya davlati tomonidan Volga-Kaspiy suv yo‘lining egallanishi ham bu borada muhim o‘rin tutgan. Rus savdogarlarining Rossiya hududi orqali o‘tuvchi Sharq va G‘arb savdosidagi vositachilik rolining ortib borishi Astraxan shuhratini qayta tiklanishida muhim omil bo‘lib xizmat qilgan. Shu sababdan, Rossiya va Eronga tashrif buyurgan Yevropalik elchi va sayyohlarning esdaliklarida shaharning savdo imkoniyatlari eslab o‘tilgan. Nemis sayyohi Meyerberg Astraxanni Rossiyaning sharq bilan savdosidagi ahamiyatiga to‘xtalib, “... bu yerga ruslar sifatli yung olib keladilar va bu yerdan oltin va kumush rangdagi yupqa matolar, paxta va ipak gazlamalar, gilamlar, yuqori sifatli rangli ipak sotib oladilar”, – deb ma'lumot beradi.

1554 yilda Rossiya orqali Eronga borgan italyan savdogari Tedaldi, shaharni ruslar bosib olmaslaridan avval yirik savdo markazi bo‘lganligi, ingliz savdogari A.Jenkinson esa shahar tashqi savdo yo‘llari yirik shaharlar bilan bevosita bog‘lanmasada, bu yerda turli millatga mansub savdogarlarni uchratish mumkinligi haqida ma'lumot bergan. XVII asr boshida rus armiyasida xizmat qilgan fransuz ofitseri Marjret esa, Astraxanda qizg‘in savdo-sotiq bo‘lishini va shahar butun mamlakatni tuz va tuzlangan baliq bilan ta'minlashini qayd etgan. Shuningdek, Astraxanda bo‘lgan sayyohlar F.Avril, Yan Streys va A.Oleariylar shaharni Osiyo mamlakatlari bilan bog‘laydigan muhim savdo yo‘llari va yillik aylanmasi, osiyolik savdogarlar yashaydigan karvonsaroylar haqida ma'lumot berganlar.

Yuqoridagi sayyohlarning ma'lumotlari o‘z vaqtida Yevropaning yirik noshirlik markazlarida nashr etilishi natijasida Yevropaliklarning Sharq xalqlari haqidagi tasavvurlari boyigan, savdo yo‘llari haqida ma'lumotlarning kartalarga ko‘chganligi

Yevropa va Osiyoni bog‘lovchi quruqlik savdo yo‘llarini ahamiyatini jahon savdosida oshishiga xizmat qilgan.

Ko‘rib o‘tilgan masalalar tahlili asosida quyidagicha xulosalarga kelish mumkin:

1. Buxoro xonligining Rossiya imperiyasi bilan diplomatik aloqalari jahon savdo yo‘nalishidagi o‘zgarishlar natijasi bo‘lib, Yevroosiyo mintaqasidagi siyosiy munosabatlar tizimiga katta ta’sir ko‘rsatganligi ko‘rish mumkin.

2. Rossiya bilan diplomatik munosabatlar turli davrlarda siyosiy ahamiyatdan ko‘ra iqtisodiy manfaatlar ustunligi bilan ajralib turgan. Bu ustunlik Rossiyaning O‘zbekiston bilan hozirgi munosabatlar tizimida ham muhim ahamiyatga ega bo‘lmoqda.

3. Buxoro xonligining Rossiya bilan diplomatik munosabatlar o‘rnatishi geopolitik jihatdan hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi. Shu sabab O‘rta Osiyo xonliklari masalasi doimo Rossiya ta’siri yoki umumiy manfaatlari doirasida qayd etila boshladi.

4. O‘rta Osiyo ilmiy maktablari, geografik jihatdan o‘rganilishi, tarixiy ma’lumotlarni to‘planib borishi ikki mintaqa o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar maxsuli sifatida namoyon bo‘lgan.

Adabiyotlar

1. Иностранцы о древней Москве (Москва XV– XVII веков) – М.: Изд. Столица. 1991.

2. Панков А.В. К истории торговли Средней Азии с Россией. В.В. Бартольду. Туркестанские друзья и ученики и почитатели. – Т., 1927.

3. А.Р.Муҳаммеджонов, Т. Неъматов “ Бухоро ва Хиванинг Россия билан муносабатлари тарихига доир баъзи манбалар ”. Т. 1957.

4. Олеарий А. Описание путешествия в Московию и через Московию в Персию и обратно. Пер. А.М.Ловягина. Петербург., 1906.

5. Бакланова Н.А. Привозные товары в Московском государстве во второй половине XVII века / Очерки по истории торговли и промышленности в России в XVII и в начале XVIII столетия. – Москва., 1928.

6. Белеви. Путешествие через Россию и разные азиатские земли, а именно в Сапаган, Пекин, Дербент, Константинополь. Часть.1 – Спб.1766.

НОВЫЕ ПОДХОДЫ И ПЕРСПЕКТИВЫ В ПРЕПОДАВАНИИ ИСТОРИИ В ПРОЦЕССЕ МОДЕРНИЗАЦИИ ИСТОРИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ

Ахмедова Гулида Абдраимджановна, *Кыргызско-Узбекский Международный Университет Историко-филологический факультет ст.преп. кафедра «История и Философия»*

Мне хотелось бы поразмышлять о состоянии методики обучения истории в современной школе, о её временном кризисе.Сегодняшние перемены в состоянии методики преподавания истории, конечно же, порождены пересмотром содержания гуманитарного образования в целом и освобождением его от сложившихся стереотипов в осмыслении важнейших исторических событий и процессов. Учитель истории ежедневно открывал и открывает для себя и своих учеников новые аспекты многообразия прошлого. У него уже давно открылась возможность говорить на уроках не только о классах и классовой борьбе, социальных антагонизмах и победоносном освобождении от внешних врагов, но и о культурных бытовых условиях жизни людей, их интересах, мировосприятии, этике общения и традициях общества. На уроках истории сегодня можно услышать о геополитике и социоментальности, о заботах и чаяниях, о нравах и развлечениях, о стимулах поведения и моральном выборе. Облики исторических деятелей столь неподвластные собственным оценкам и учеников в прежние времена настолько подверглись пристальному вниманию историков, что учитель порой и сам не знает, какую именно точку зрения он исповедует, характеризуя того или иного персонажа. От обилия мнений более всего растерялись ученики [1:С-129].

Свобода учителя, плюрализм мнений и шквал оценок исторических событий, а также отсутствие чётких концептуальных линий породили по меньшей мере три опасные тенденции в современном преподавании истории.

Первая из них связана с пренебрежением известными подходами к отбору содержания учебного исторического материала что привело к определённым кренам в преподавании: одни учителя больше внимания уделяют

историческим личностям, другие – краеведческому материалу, **третьи** строят своё преподавание на базе социально-экономической истории и экономики, **четвёртые** в основу уроков кладут изучение внутриполитической истории из жизни правителей, пятые предлагают изучать предмет с уклоном в историю церкви и религии, взаимоотношений их с государственной властью, шестые настаивают на изучении культуры, быта, нравов как первоосновы жизни общества. Кто прав? По-своему каждый, но все вместе готовят выпускников с различными, достаточно ограниченными представлениями, разным уровнем осмысления исторического процесса, в конечном счёте, с различными мировоззренческими установками и социальными ориентациями [2:С-88].

Вторая тенденция, порождённая современными процессами в системе исторического образования, - это беспомощность в вопросах методологии. Большинство уроков истории обогащены огромным количеством нового фактического материала, но нередко не содержат глобальной идеи или даже заключительного вывода, а порой и учительской позицией. Оставляя в конце урока знак вопроса, педагог не предложил существенных оснований для ответа. Не теряет ли такой урок свою целостность и педагогический эффект несмотря на объективный интерес учеников к фактам?

Проблема выбора: содержание или методика

И, наконец, **третья тенденция** – подавление историческим содержанием методики преподавания. Учитель сегодня захлебнулся в материале и ему вроде бы и не до методики: успеть прочитать необходимую новейшую литературу. Это глубочайшая педагогическая ошибка и видимая издержка современного исторического образования. Методика как лакмусовая бумажка реагирует на каждый новый пласт открытых исторических фактов и определяет, как их вписать в систему, как включить в урок и какой будет результат.

Непринятие стандартизации гуманитарного знания обусловлено также и противоречием между свободой определения содержания, структуры курсов и необходимостью получения относительно однородного результата (относительно категорий школьников: выпускник, поступивший на гуманитарные

факультеты вузов, выпускник, выбирающий техническую ориентацию, и выпускник, не желающий продолжения образования). Разрешение этого противоречия, видимо, зависит не только от качества стандартов образования, предложенных учёными-методистами, но и от реального желания учительства. Нет сомнений в том, что общая индивидуализация процесса обучения истории, которую мы сегодня наблюдаем, не является единственно возможным путём обновления исторического образования. Оно нуждается и в эталонности, хотя бы для сравнения жизнеспособности разных типов школ и их программ.

В учебниках нового поколения достаточно чётко прослеживается изменение понятийной системы, связанное с обновлением научного аппарата современного историка. Однако становление новых понятий сопровождается не разработанностью словарей терминов, способов преподнесения понятий вызывает у авторов учебников немалые методические проблемы. Дедукция в учебниках окончательно взяла верх над индукцией, да и сам способ дедуктивного изучения материала видоизменился: значительно расширилась и стала многоплановой конкретизация понятий на основе нового материала, их обогащение осуществляется через комплекс противоположных суждений, мнений, сами термины и определения отражают ряд неоднозначных научных трактовок. Однако, к сожалению, по-прежнему существует противоречие между новыми способами изложения материала в учебниках и приверженностью старым шаблонам при создании методического аппарата. Разрешение противоречий при создании учебников - дело будущего, поле творческой деятельности авторских и педагогических коллективов.

Проявляется в этой сфере и новое противоречие. Интересно ли ученику, играющему дома на собственном компьютере и просматривающему видеофильмы та наглядность, которую ему могут показать в кабинете истории?В последнее десятилетие актуальной стала еще одна проблема: урок — истории- это рассказ о прошлом, людях, событиях и т. д. или урок истории- изучение науки. Закономерен вопрос: должен ли увлекательный рассказ о прошлом стоять в центре школьного исторического образования? На наш взгляд, рассказ

малопродуктивен. Для изучения же в школе основ науки истории необходимо прежде всего ясное и четкое представление о том, зачем ученику изучать прошлое (а не знать о прошлом). И ключевым здесь является не понятие *прошлое*, а понятие *настоящее* (и даже будущее). Почему вообще человечество так пристально вглядывается в свое прошлое, в свою историю? Ответ, в общем-то очевиден: *научное исследование прошлого позволяет лучше понять настоящее и хоть немного спрогнозировать будущее.* Вот что, на наш взгляд должно быть стержнем школьного исторического образования и мотивацией учебной деятельности [3:С-22].

Итак, мы попытались выделить лишь некоторые противоречивые проблемы современного состояния преподавания истории в школе. Они связаны с проблемами стандартизации образования и объективной свободы учителя в отборе учебно-исторического материала, и в составлении программ и приверженности к определённым концепциям и учебникам. Они также вызваны становлением нового поколения учебников и учебных пособий и существованием в школьной практике привычных учебно-методического комплекса. Здесь противоречия и в жанрах, и в качестве. Наконец, они связаны с изменением системы наглядности в преподавании истории и обеднением школьных кабинетов в силу прекращения выпуска старых пособий.

Развивающая модель обучения.

В настоящее время в образовании провозглашен принцип вариативности, который позволяет учителям выбирать и конструировать педагогический процесс по любой модели. При этом важна организация своего рода диалога различных педагогических систем и моделей обучения, апробирование в практике новых форм- дополнительных и альтернативных государственной системе образования, также использование педагогических систем прошлого. В этих условиях учителю необходимо ориентироваться в широком спектре современных инновационных моделей обучения, идей, направлений и выбрать для себя наиболее приемлемые.Под развивающим обучением понимается новый, активно- деятельности способ обучения, идущий на смену объяснительно-

иллюстративному способу обучения, идущий на смену объяснительно-иллюстративному способу. Развивающее обучение учитывает и использует закономерности развития, приспосабливается к уровню и особенностям индивидуума.

Развивающее обучение - это ориентация учебного процесса на потенциальные возможности человека и на их реализацию.

Развивающее обучение осуществляется в форме вовлечения учащегося в различные виды деятельности, использование в преподавании дидактических игр, дискуссий, а также методов обучения, направленных на обогащение творческого воображения, мышления, памяти, речи. Вовлекая ученика в учебную деятельность, ориентированную на его потенциальные возможности, учитель должен знать какими способами деятельности учащихся овладел в ходе предыдущего обучения, какова психология этого процесса овладения, степень осмысления учащимися собственной деятельности. На основе полученных данных учитель конструирует педагогические воздействия на учащихся, располагая их в зоне ближайшего развития ребенка [5:С-93-99].

Важнейшие условия развивающего обучения - педагогическое предвидение (предвидение учителя) и предвидение ученика. При отборе содержания знаний, выборе методов и форм организации обучения педагогическое предвидение выражается в системе повседневных" микросдвигов" в деятельности и поведении ученика, в умении учителя ставить педагогический "диагноз" и на его основе выдвигать, уточнять и проектировать задачи, предвидеть результаты своих действий и деятельности учащихся. Планировать и создавать ситуации, принимать решения в постоянно меняющихся условиях.

Эти технологии направлены на развитие различных сфер личности и имеют как общие, так и специфичные особенности.

Оценочная функция учителя.

На всех этапах развития школы при усилении демократических начал в ее организации на первое место выдвигался вопрос поиска эффективных путей

реализации *оценочной функции учителя.* Новые социальные условия, процесс обновления образовательных структур, переход их в режим развивающего обучения, вновь обращают внимание ученых и педагогов-практиков на эту проблему. Без оценки организовать любую деятельность, в том числе, историко-познавательную, невозможно, т.к. оценка является одним из компонентов деятельности, ее регулятором, показателем результативности. Но очевидным выглядит тот факт, что сохранение прежней системы оценивания учебного труда, в рамках которой отсутствует практически учет мнения самих обучаемых, делает затруднительным переход к системе развивающего обучения.

Проблема оценочной функции, на наш взгляд упирается в решение трех основных вопросов:

1. с какой целью оценивать учебные успехи детей?
2. Что важно в первую очередь оценивать в познавательной деятельности школьников?
3. Как лучше обеспечить объективность оценок?

Ответы на эти вопросы позволяют увидеть принципиальную новизну подходов к оценочному акту в процессе обучения [6].

Вопрос "Зачем оценивать школьников?" волновал педагогов и прогрессивную общественность издавна. Неоднократно подчеркивалось, что в традиционном образовательном режиме отметка использовалась для уведомления родителей об успехах и неудачах детей с целью обеспечения необходимого с их стороны воздействия на ребенка, что вызывало требование или ее отменить, или изменить саму систему оценивания. Как мы уже отмечали, сегодня в центре внимания педагогов оказывается необходимость обучения детей самоорганизации деятельности, что и порождает требование заменить учительские оценки, содержательной самооценкой учащихся, которая воспринимается как мобилизационно побудительный механизм само регуляции ученической деятельности и залог ее успешности.

Чтобы кратко ответить на вопрос: "Как педагогически грамотно и объективно обеспечить процесс оценивания?", - выделим два взаимосвязанных параметра: оценочную деятельность учителя и учащегося.

Нормой в работе педагога при оценке обучающегося в процессе повседневной деятельности должно стать умелое применение индивидуальных эталонов, в контролируемых процедурах – использование стандартных тестов. Базовым умением в осуществлении оценочной функции учащихся должна стать сформированная готовность к самооценке полученного результата, т.к. учение – это деятельность самоуправляемая.

Таким образом, переход школы в режим развития должен сопровождаться изменением способов оценки школьного труда школьников.

Источники информации

1.Скаткин М.Н. Совершенствование процесса обучения. М., 1971, с 129.

2.Чечель И.Д. Управление исследовательской деятельностью педагога и учащихся в современной школе. М., 1991.- С.- 88.

3. Перовский Е.И. Устная проверка знаний учащихся. М.,1955. С. 22.

4 .Левитов Н.Д. Психология труда. М., 1963. С. 252.

5. Конфедератов И.Я. Методы совершенствования учебного процесса в высшей технической школе. М., 1976. С 93-99.

6.https://www.prodlenka.org/metodicheskie-razrabotki/433987-doklad-na-temu-sovremennye-podhody-v-prepodav

7.Методика преподавания истории в средней школе / Под ред. Ежовой С.А., Лебедевой М.И. - М. : Просвещение, 1986. - 272 с

8. Гольденберг, М.Л. Личность воспитывается личностью (проблема подготовки будущих учителей истории) / М.Л. Гольденберг // Преподавание истории и обществознания в школе.- 2005. - № 9. С.68-71

АБУЛҚОСИМ ФИРДАВСИЙНИНГ«ШОҲНОМА» АСАРИДА МАЙМУРҒ ҲУКМДОРЛИКЛАРИ СИЁСИЙ ҲАЁТИ ҲАҚИДА АЙРИМ МАЪЛУМОТЛАР

Махмудов Дилшод Абдухалил ўғли,
ҚарДУ ПИ ўқитувчиси

Илк ўрта асрларда Марказий Сўғд ҳудудига тўғри келувчи рустоқлардан бири, **Маймурғ** (сўғдийча манн — қишлоқ, мурғ—ўтлоқ, серўтлоқ қишлоқ) — Самарқанддан жануби-шарқда жойлашган, унча катта бўлмаган Сук) мулкидеб номланиб, хитой манбаларида *Ми / Мимохэ*, суғдий ва араб-форс манбаларида *Маймурғ* шаклида тилга олинган ҳукмдорликлардан бири бўлиб, сиёсий ва тарихий географияси жиҳатдан бугунги жойлашув ҳудуди тоғ оралиғи, яъни Зарафшон тоғ тизмасидаги кенг водийда жойлашиб, унинг шарқий ва ғарбий томонлари нисбатан торқоқ, шимолий ва жанубий томонлари эса анча кенг бўлган. Бугунги кунда асосан Ургут тумани ва унинг атроф ҳудудлари ҳам географик жиҳатдан худди шу кўламдалигини эътиборга оладиган бўлсак, Маймурғ илк ўрта асрларнинг дастлабки чорагида сиёсий жиҳатдан Самарқандга бирмунча боғлиқ. Бироқ ўзининг муайян бир ички мустақил бошқарувига эга ҳукмдорлик бўлгани иккилантиради. Араб-форс, хитой манбаларида, ҳусусан Фирдавсийнинг «Шоҳнома» асарида Маймурғнинг ички сиёсий бошқаруви ҳақида айрим маьлумотлар учрайди. Хусусан, Фирдавсий келтирган маълумотларга кўра Маймурғнинг фаолияти ташкил топган Турк хоқонлиги дастлабки йилларига тўғри келиб, хоқонлик асосчиларидан бири Истами ябғунинг 560-570 йиллар орасида сосонийлар Эронига қарши олиб борган ҳарбий ҳаракатлари даврига туғри келади. Бизнингча, айнан шу йилларда Маймурғ сиёсий жиҳатдан кучая бошлаганини тахмин қилиш мумкин. Фирдавсийнинг ёзишича, Чин хоқони (Турк хоқони) билан сосонийлар (сосонийлар подшоси Хусрав I Анушервон (531-579)) иттифоқдош қўшинлари эфталийлар шоҳи Ғотфар (563-567) билан жанглар олиб борган [1]. Бунда эфталитлар шоҳи Ғотфар турк хоқони ва шаҳаншоҳнинг ўзаро яқинлашувидан қўрқиб, туркларнинг Эронга кетаётган элчиларини ўлдириши турк ва

эфталийлар ўртасидаги сиёсий муносабатларнинг кескинлашувига сабаб бўлган [2]. Турк хоқони эфталийларга қарши юришида дастлаб Чоч, кейин Чирчиқ дарёсидан ўтиб Маймурғга келган [3]. Эфталийлар шоҳи Ғотфар бу пайтда уларга қарши курашиш учун Балх, Земм, Шуғнон, Хўтан, Аму, Висегерд, Термиз ва Маймурғдан йиққан қўшинларини Бухоро яқинига тўплаган [4]. Турк хоқони ва эфталийлар ўртасидаги уруш эфталийлар шоҳи Ғотфарнинг тўлиқ мағлубияти билан якунланган [5].

Шунингдек, Панчнинг сиёсий жиҳатдан кучайиб, Маймурғ қўл остидаги рустоқларни ўз таъсир доирасига олиши VII асрнинг иккинчи ярмига тўғри келиши, бу ер бошқарувчиларининг хоқонлик билан мустаҳкам алоқада бўлиши, ҳатто Панчнинг бошқарувчи сулоласининг туркий ёки туркий-суғдий аралаш хонадонга мансуб бўлиши ушбу ҳукмдорликнинг Марказий Суғддаги нуфузини оширган омиллардан ,bhb бўлиши мумкин. Хусусан, тахминан VII асрнинг иккинчи ярмида Панчда туркий-суғдий аралаш сулола ташкил топиб, уни дастлаб Бичут, кейинчалик унинг ўғли Чакин Чўр Билга (693-708), кейинчалик унинг қизлари воситасида куёви, суғдий амалдор Диваштич (709-722) бошқарган [6].

Маймурғ ва Панчни айириб турадиган ўзига хос жиҳатлардан яна бири – бу биринчисининг хоқонлик билан зиддиятга бориши, яъни 640 йилларда Ғарбий турк ҳукмдори Дулу хоқоннинг *Кан-гюй* (Суғд)га ҳужум қилиб, *Ми* (Маймурғ) ҳукмдорлигини тор-мор қилиши [7] бўлса, 720 йилларнинг бошида турк хоқонларидан бирининг Панчга келиб, маҳаллий ҳукмдор Диваштичга “ёрлиқ” бериши [8] билан боғлиқ ҳолатларда кўринади. Яъни Панч бошқарувчилари хоқонлик билан тўғридан-тўғри алоқа ўрнатган ва ўз ички бошқарувида анча эркин бўлса, Маймурғ эса кўпинча ўзини Самарқанд таъсири остидаги ҳукмдорлик сифатида намоён қилади.

Хуллас, илк ўрта асрларда Марказий Суғднинг шарқий ва жануби-шарқий ҳудудларида ўрин олган Панч ва Маймурғ ўзаро қўшни алоҳида-алоҳида сиёсий-маъмурий бирликлар бўлиб, улар ўзини Самарқанд, Кабудон, Иштихон, Кушония, Файй каби муайян ҳукмдорлик – мулкликлар сифатида намоён қилган. Улардан бири – Панч (Панжикент) Зарафшон дарёсининг бошланиш нуқтаси

бўлмиш бугунги Туркистон ва Зарафшон тизма тоғлари оралиғидаги тоғ дараларида жойлашган ўнлаб рустоқ ва қишлоқларни ўзи ичига олган бўлса, ундан бироз жануби-ғарбда ўрин олган Маймурғ ҳам худди шундай ўнлаб ўз рустоқ ва қишлоқларига эга эди. Дастлаб муайян бир рустоқ (туман) бўлган Маймурғ илк ўрта асрларнинг бошларида, яъни VI – VII асрлар оралиғида Марказий Суғднинг жануби-шарқий қисмидаги Варағсар, Санжарфағн, Ривдод, Визгирд, Шовдор каби рустоқлар орасида етакчиликни қўлга олиб, йирик ҳукмдорликка айланади ва атрофда ўз сиёсий таъсирини ёяди. Чамаси, айнан ўша асрларда Юқори Зарафшон ҳавзасида жойлашган *Парғар, Партан, Хахсар, Искатар, Крут, Анзав, Ахсиканд* сингари рустоқ ва йирик қишлоқларни ўз ичига Панч мулклиги ҳам бир муддат Маймурғга бўйсунган бўлса-да, VII асрнинг иккинчи ярми ёки шу асрнинг сўнгги чорагида сиёсий жиҳатдан кучайиб, нафақат Маймурғ қўл остидаги рустоқлар устидан, балки Марказий Суғд бошқарувига ҳам даъво қила бошлайди.

Ўрта асрлар араб ва форс муаллифларининг таъкидлаб ёзишича, Самарқанд рустоқларидан биринчиси Бунжикат (Панч) ҳукмдорлиги ва Бунжикат (Панжикент) шаҳри, сўнг Варағсар ҳукмдорлиги ва Варағсар шаҳри бўлган[9]. Бунжикатдан кейин Шовдор (Ургут) тоғлари ястаниб ётади. Шовдор билан Варағсар орасида Самарқандга нисбатан яқин жойлашган Маймурғ ва Санжарфағн рустоқлари мавжуд бўлган. Маймурғда Ривдод номли жой бўлиб, бу ер Самарқанд подшоси Ихшиднинг қароргоҳи бўлган. Ривдод Самарқанд Ихшидларига тегишли қасрлари бор қишлоқлиги манбаларда айтиб ўтилади. Ундан кейин Маймурғ мулклиги – ҳукмдорлигига тегишли Санжарфағн ва Варағсар рустоқлари жойлашган. Самарқанд ва Маймурғ ҳукмдорликлари орасида Дарғом рустоғи жойлашган бўлиб, бугунги Дарғом канали ҳавзасида жойлашган эди. Самарқанд рустоқларидан яна бири Абғар бўлиб, у Дарғом рустоғидан жанубда жойлашган ва асосан чўл ва дашт ҳудудларни ўз ичига олувчи йирик рустоқлардан бири эди [10].

Демак, Маймурғ ва Панчга дастлаб биринчиси, кейинчалик иккинчиси сиёсий майдонда етакчи бўлиб, деярли битта географик ҳудуд устидан ўз

ҳукмронлигини ўрнатган маъмурий-сиёсий бирликлар сифатида қараш керак бўлади. Қисқаси, Маймурғ ва Панч аслида ягона маъмурий-сиёсий уюшма таркибига кирган иккита яқин қўшни мулклик бўлиб, улар баъзан сиёсий жиҳатдан бирлашиб, навбати билан Юқори Зарафшон ҳавзаси ва унинг атрофлари, яъни Самарқанднинг шарқи ва жануби-шарқидаги тоғлик ҳудуддаги ҳукмдорликлар бўлган. Маймурғ – бу Зарафшоннинг юқори ҳавзаси учун нисбатан олдинроқ (милодий V–VII асрлар), Панч эса нисбатан кейинроқ (VII – VIII асрлар) қўлланила бошлаган географик ва сиёсий ном сифатида ёзма манбаларда ўрин олган.

Адабиётлар

1.Фирдоуси. Шахнаме. Т. VI. / Перев. Ц.Б. Бану–Лахути и В.Г. Берзнева. – М., 1989. – С. 118.

2.Гумилев Л.Н. Қадимгитурклар. – Тошкент, 2007. – Б. 46 – 47.

3.Птицын Г.В. К вопросу о географии «Шах–намэ» // ТОВЭ. Т. IV. – Л., 1947. – С. 305.

4.Фирдоуси. Шахнаме ..., с. 118-119; Ставиский, 1959. - С. 82-83.

5.Гумилев Л.Н. Қадимгитурклар ..., б. 46.

6. Лившиц В.А. Правители Панча (Согдийцы и тюрки) // Народы Азии и Африки. – Москва, 1979. – №4. – С. 56-69.

7.Бичурин Н. Я. Собрание сведений... I. – С. 287; Chavannes E. Çin yıllıklarına göre... – S. 91.

8.Согдийские документы с горы Муг. Чтение, Перевод. Комментарий. Вып. II ..., с. 115, 117; Grenet F., de la VaissiereE. The last days..., – P. 157

9.Ибн Ҳавқал. Мовароуннаҳр / Ибн Ҳавқал; араб тилидан тарж., изоҳлар муаллифи Ш.С.Камолиддин, масъул муҳаррир Ф.С.Ҳасанов. – Тошкент: «Ўзбекистон миллий энциклопедияси» Давлат илмий нашриёти, 2011. – Б. 61-62.

10. Истахрий. «Китаб ал-масалик вал-мамалик». Йўллар ва ўлкалар китоби. Тадқиқот, араб тилидан таржима, изоҳ ва кўрсаткичлар муаллифи Р. Т. Худайберганов. – Т.: Фан, 2019.– Б. 197.

ILK O'RTA ASRLARDA SUG'D TASHQI ALOQALARINING XITOY MANBALARIDA AKS ETISHI

Baratov Hamidullo Ismatillo o'g'li,
QarDU PI o'qituvchisi

Vatanimiz hududi qadimgi davrlardan boshlab jahonning turli mintaqalarida vujudga kelgan tamaddunlarning bir birini bog'lash, ular o'rtasidagi muloqotlar va o'zaro madaniy ta'sir ko'rsatish jarayonlarida almashishlarda muhim rol o'ynagan. Bunga savdo aloqalarning keng yoyilgani, Buyuk Ipak yo'lining ta`siri sabab bo'lgan. Ushbu tarixiy jarayonlari haqida Xitoy manbalari muhim o'rin tutadi.

Arablar bosqini arafasida O'rta Osiyoda bo'lgan Xitoy sayyohi Syuan Szyan Samarqandda bo'lganida, bu shahar haqida juda qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldiradi va shunday deydi: "Samarqandda budda ibodatxonasi ko'p va ularda barcha kishilar birdek ibodat qilishadi, ammo endi ular bo'shab qolib vayron bo'lmoqda va bir qancha muddatdan keyin ularning izini ham topib bo'lmaydi "[1.1].

Bundan tashqari xitoylik muallif o'z asarida sug'diylar Xitoy va Hindiston o'rtasidagi asosiy vositachilar hisoblanadi, deb tarif berib o'tadi. Samarqand va sug'diylarning G'arb va Sharq o'rtasidagi savdo vositachiligi masalasiga etibor qaratgan vizantiyalik tarixchi Menandr Vizantiya imperiyasiga elchi sifatida borgan sug'd elchisi Maniaxdan juda ko'p ma'lumotlarni olishga muvaffaq bo'ladi. Garchi u Sug'diyonada bo'lmagan bo'lsa-da, ammo uning o'zi ham Turk xoqonligiga elchi sifatida kelishi (ma'lumotlarda keltirilishicha, Vizantiya elchilari tarkibiga o'zining xohishi bilan kiritilgan) natijasida juda ko'p ma'lumotlarni olishga erishadi va ana shu eshitganlari asosida Sug'diyona va sug'diylar haqida ma'lumot berib o'tadi.

Xitoylik tarixchi Syuan Szyan har yili Sug'diyonada bo'ladigan yarmarka haqida shunday ma'lumot berib o'tadi: "Bu yerga dunyodagi barcha mamlakatlardan savdogarlar kelishadi va kimga nima kerak bo'lsa hech bir qiyinchiliksiz mana shu yerdan topishi mumkin. Bu bozordan har xil turdagi paxta matolarini, ipak buyumlarni, qimmatbaho taqinchoqlarning juda ko'p turlarini va boshqa barcha hunarmandchilik buyumlarini topish mumkin.

Sug’d bozorida yog’och va temir buyumlar, otlar va qullar, oltin va qimmatbaho toshlar, gilamlar va matolarni juda arzon narxda topish mumkin va faqatgina ipak matolar Xitoydagidan birmuncha qimmatroq”[5.1].

Umuman olganda, Markaziy Osiyoning qadimiy davlatchilik asoslari va o’rta asr Islom davri davlatchiligi bosqichlarini bog’lab turuvchi bo’g’in ilk o’rta asrlar davlatchilik tarixi ilmiylik, tarixiylik nuqtai nazaridan sug’diy yozma yodgorliklar asosida tahlil qilinadi. Sug’d konfederatsiyasining ilk o’rta asrlar davlatchilik tarixida tutgan o’rni juda ko’plab dalillar asosida ochib beriladi. Garchi, bu masalada xitoy yilnomalari o’zining yanada tadrijiy va uzluksiz ma’lumotlarga boyligi bilan qiymati yuqori bo’lsa-da, ularda keltirilgan turli atamalar, shaxslar ismlari, unvonlar, joy nomlari va boshqalar xitoy tili va yozuviga moslashtirilib berilganligi sababli asliyatdan ancha uzoqlashgan va ularni tiklash tadqiqotchilar uchun hanuzgacha muammo bo’lib qolmoqda.

Shu jihatdan olganda ham sug’diy tilidagi yodgorliklar mintaqa tarixini o’rganuvchi tadqiqotchilar uchun birlamchi va ishonchli manba bo’lib qolaveradi. Bundan tashqari, o’zining mahalliy muhitda yaratilganligi bois sug’diy tilidagi manbalar Sug’dning siyosiy hayoti va davlatchiligi haqida yanada yaqqolroq va teranroq tasavvur bera oladi.

Xitoy manbalari orasida sug’dlarga oid aynan bir asar mavjud emas, ammo juda ko’plab manbalarda va hujjatlarda sochilgan holdagi ma’lumotlar kattagina miqdorni tashkil qiladi. Albatta, bu holat tadqiqotchilar uchun ko’plab qiyinchiliklarni yuzaga keltiradi. Qadimiy xitoy tilida yozilgan va ulkan hajmdagi mazkur manbalarning bugunga qadar ham to’liq o’rganib chiqilmaganini tushunish mumkin. Shu sababli ishni yoritishda ayrim manbalardagi ma’lumotlarni, shunda ham faqatgina sug’diylarning vositachilik faoliyati uchun misol bo’la oladigan ma’lumotlarni keltirib o’tamiz.

Sug’d atamasi xitoyliklar tomonidan “sute”, “suyi”, “tesyuymen” va boshqa nomlar bilan tilga olinadi. Ammo miloddan avvalgi davrlarda sug’dlarni “yiamtsat”, “yemtsay” kabi nomlar bilan ham ataganlar. Ma`lumotlarda ko’rsatilishicha milodiy 437 yilning bahorida Sug’d hukmdoridan Shimoliy Vey davlatiga elchilar borishadi va

oradan yana bir yil o'tib, 438 yilning 4- va 11- oylarida Sug'd, Toshkent va Farg'ona hukmdorlaridan elchilar borishgan[2.1].

Ular Xitoydagi savdo buyumlarini sotib olib boshqa mamlakatlarga yetkazib berishni taklif qilishib, ikki mamlakat o'rtasidagi aloqalarni o'rnatish va imkon qadar kuchaytirishni taklif qilishadi[3.1]. Keyingi Xan sulolasi tarixi asarining 88- bobida ham sug'dlar eslab o'tilib, unda ham sug'dlarning elchiligi, mamlakatlarining tavsifi va ularning mashg'ulotlariga oid ma'lumotlar kiritib o'tilgan. V asrda sug'diylarni asosan savdo, dehqonchilik, uzumchilik, bog'dorchilik, qo'ychilik va yilqichilik bilan shug'ullanadi deb ko'rsatib o'tishadi.

Bundan tashqari sug'dlar tomonidan juda ham zotdor otlar parvarishlanadi deb ko'p bora takidlashadi. Ilk o'rta asrlar Xitoy tarixiga oid "Tungdyan" asarida Sug'd davlati haqida quyidagi ma'lumotlar berib o'tiladi: "Bu davlat Pomir tog'larining g'arbida joylashgan yirik davlat hisoblanib, uning tarkibiga 400 ta shahar kiradi va ularning ko'pchiligi katta shaharlar va undan ko'proq qismi kichik shaharlardir"[3.2].

Vey sulolasi davri tarixi asarining 102- bobida sug'diylarning savdo sohasidagi mahorati va aloqalari borasida quyidagilarni aytib o'tadi. Sug'dlar sharqdagi hududlardagi asosiy savdogarlar bo'lib, ularni Uzangda juda ko'p bora uchratish mumkin va ular dunyoning turli mamlakatlaridan ko'plab mahsulotlarni olib kelishadi. Bu yerda aytilgan Uzang shahri aslida ilk o'rta asrlarda Buyuk ipak yo'lining serqatnov va gavjum tarmog'i hisoblangan Xesi yo'lidagi eng yirik savdo va hunarmandchilik markazi hisoblangan[4.1].

Shundan keyingi davrga oid boshqa manbalarda ham Xesi yo'lagi va shu yo'l yoqasidagi boshqa shaharlarda sug'dlarni ko'proq uchrata boshlashgani haqida yozishardi. Hatto Xitoyning yirik shaharlarida sug'dlarning mahallalari vujudga kelib, mana shu haqida asarlarda ham doimo eslab o'tishadi.

Xitoyning taniqli tarixchi olimlari hisoblangan Vang Chjengya, Guan Lyanji, Li Mingvey, Chen Aychju va Jin Yue kabi bir guruh olimlari tomonidan sug'diylarning Buyuk ipak yo'lidagi faoliyatiga oid qator ilmiy izlanishlar olib borilib, ularda asosiy e`tibor sug'diylarning savdo aloqalarida faqatgina savdo-sotiq ishlari emas, balki

madaniy aloqalarining taraqqiyotida ham sezilarli ishlarni amalga oshirishganiga qaratiladi.

Ma’lumki, yurtimiz tarixida davlatchiligimiz asoslarini yuzlab yillarga qadimiylashtirgan jihatlardan biri aynan Sug’d tarixi hisoblanadi. Sug’dlar ilk o’rta asrlarda to arablar bosqini va hatto undan keyingi davrlarda ham Uzoq Sharq, Markaziy Osiyo va Yaqin Sharq hududlarini bog’lagan savdo yo’lidagi asosiy vositachilar hisoblanishardi. Bu Xitoy manbalarida ham o’z aksini topgan bo’lib, vatanimiz tarixiga oid ushbu asarlar hali o’rganilishni talab etadi.

Adabiyotlar

1. Ходжаев А. Китайский историк о Средней Азии / Исследования по истории, истории науки и культуры народов Средней Азии. – Ташкент: Фан, 1993.
2. Хўжаев А., Хўжаев К. Қадимги манбаларда халқимиз ўтмиши. Тошкент, 2001, 66-бет.
3. Чугуевский Л.И. Новые материалы к истории согдийской колонии в районе Дуньхуана // Страны и народы Востока. Вып. X. –М.: Наука, 1971.
4. Хўжаев А. Суғдийларнинг Хитойга бориб қолиши, // Мозийдан садо, 2 (14), 2002.
5. Хўжаев А. Хитой манбаларида суғдийларга оид айрим маълумотлар // “Ўзбекистон тарихи” журнали, 2004 йил, № 1-сон.

НАЌШИ МУТАХАССИСОН ДАР ТАШАККУЛИ ФАРЊАНГИ ИДОРАКУНИИ ЉОМЕАИ МУОСИР

Ҳоҷиев Комронҷон Маҳмадқулович, *Устоди калони Донишкадаи Омўзгории Тоҷикистон дар ш. Панҷакент*

кафедраи “Фанҳои ҷамъиятӣ ва ҳуқуқ”

Дар урфият мегўянд, ки ба њар як шахс аз рўи рафтору кирдораш бањо медињанд. Дар ин љо рафтор ба маънои хулќу атвори шахс дар оила, њаёти

маишӣ, коллектив, љамъият, дар рафти муомила, муносибати байни њамдигарӣ истифода шудааст.

Кирдор муродифи рафтор аст. Тањти мафњуми маданияти рафтор, умуман тарзи муносибат, муомила, шиштухез, либоспўшию сўњбати шахсро дар оила, коллектив, корхонањо, љойњои љамъиятӣ, истењсолот мефањмем, ки дар он дараљаи шуурнокӣ, фаросат, љањонбинӣ, таљрибаи зиндагии шахс зоњир мешавад[1.1]. Маданияти рафтори шахс ба шароити таърихӣ, доираи љањонбинӣ, таљрибаи њаётӣ, имкониятњои сиёсию иљтимоӣ ва оилавию саломатии шахс вобастагии калон дорад.

Инсон њамчун мављудоти оќил доимо бо назардошти имкониятњои мушаххас рафтор мекунад. Маданияти рафтори шахс њамеша якхела нест. Баъзан шахс дар оила якхел рафтор намуда, дар байни коллектив бошад дигар хел рафтор мекунад.

Албатта, мафњуми маданияти рафтор нисбат ба одоби муошират васеътар аст. Чунки маданияти рафтор дараљаи тарбияи сиёсӣ, њуќуќӣ, муносибат ба санъат, аз илму њодисањо бохабар будани касро дар бар мегирад.

Баланд бардоштани дараљаи маданияти рафтори муњандис, сарвар ва ањли љамъият ањамияти ахлоќӣ, сиёсӣ, иќтисодӣ ва илмӣ дорад. Масалан ќоидањои оќилонаю дуруст ташкил намудани мењнат, боинтизомию садоќатро оид ба касби худ баланд бардошта, то ки коргар, мутахассис аз касбу кори худ њаловат барад.

Дар истењсолот ташкили илмии мењнатро осону васеъ менамояд, то ки сарвар ва ё муњандис масъулияти дар дўш доштаи худро дуруст ба љо орад. Умуман, риоя ва татбиќи ќоидањои мазкур, маданияти рафтор барои дар шањру дењот тезтар интишору љорӣ гардидани маданияти баланди ахлоќӣ имконият медињад. Дар рафтори инсон доимо дараљаи маданият, урфу одат, њатто вазъият дар саломатии ў зоњир мешавад. Рафтор воќеияти олами ботинии шахс аст. Риояи талаботњои маданияти рафтор дар навбати худ ба вазъияти рўњии шахс таъсир намуда ўро аз љоњилӣ ва беинтизомӣ нигоњ медорад. Барои ин мо бояд ба олами маданияти сухан назар кунем.

Маданияти сухан низ љузъи маданияти умумиинсонї мебошад. Дар пешонаи њељ кас дараљаи донишу ќобилият, аќидаю маќсад, орзую умедаш навишта нашудааст. Олами маънавї фањму идрок ва кирдору рафтори инсонро факат дар љараёни сўњбат метавон фањмид. Тавре ки мавлоно Љомї фармудаанд:

Њар чї ба дил њаст зи поку палид,
Дар сухан ояд асари он падид.

Пас маданияти сухан чист? Маданияти сухан пеш аз њама, вобаста ба шароит ва мутобиќи маќсади муомила беѓалат ва пурмазмун баён кардани фикр аст. Маданияти сухан мавзўи бањси забон, адабиёт, ахлоќ, зебоишиносї, мантиќ ва фарњангшиносї низ мебошад. Агар тавассути омўзиши фарњангшиносї дараљаи маданияти мардуми љомеа ба мо маълум гардад пас хислати одамонро дар љараёни сўњбат матавон фањмид. Оиди масъалањои фалсафии сухан назар кунем, сухан аз љињати мазмуну шакл ба зебою зишт таќсим мешавад, ин љињати онро илми зебоишиносї мавриди тадќиќ ќарор медињад [2.1].

Њадафи мо ин аст, ки тањлилу тањќиќи маданияти сухан ба таври њамаљониба сурат гирад. Аќидаю пандњои судбахше дар хусуси санъату одоби сухан аз ќадимулайём дар байни мардуми Шарќу Ѓарб вуљуд дорад. Омўзишу азбар кардани он дар таълиму тарбияи њар як фарди љомеа аз рўи маќсади хеш буда, он ќисми таркибии фарњанги миллї мебошад. Асосњои онро дар мактаби олї не, балки дар мактаби миёна бояд омўхт, то ин ки дониш ба малакаю одат табдил ёбад. Агар мо ба маданияти муносибат рў орем, ин маљмўи усул, меъёр ва ќоидањои ахлоќии робитаи тарафайни одамон аст, ки њангоми мубодилаи аќида фикр ва таљриба риояи онњо ногузир аст.

Маълум аст, ки одамон барои њалли масъалањои шахсї, оилавї, касбї, љамъиятї, миллї, илмї, истењсолї ва ѓайра байни хеш мубоњисаю мубодилаи афкор мекунанд. Маданияту муносибати тарафайн талаб мекунад, ки пеш аз њама мавзўи бањс ва маќсади он муайян шавад, то ин ки њар ду тараф ба таври возењ маќсаду мавзўи сўњбатро бидонанд ва онро бо масъалањои дигар омехта накунанд. Ба ибораи дигар, рўзномаи маљлис, сўњбат, мулоќот, музокира,

машварат ва ѓайрањо бояд пешакї маълум гардад, дар љараёни сўњбат тарафњо низоми сўњбатро риоя карда боодобона суханони якдигарро гўш кунанд ва ба саволњо љавоб дињанд.

Фикр бояд возењ ва факту раќамњо муайян бошанд. Манфиат, имконият ва шароити њамдигарро низ бояд ба назар гиранд. Дар ин њолат сўњбат гарму нарм шуда боварии мубоњисон бо њам меафзояд.

Дар ин бора њаким Фирдавсии Тўсї чунин фармудаанд:

Сухан нарм гўй, эй љањондида мард,
Маёлой лабро ба гуфтори сард.

Дар њаќиќат риояи маданияти муносибат обрўю эњтироми роњбарони давлат, корхона, ташкилоту муассисањо, ширкатњои сањомї, намояндагони дипломатия ва намояндагони дигар ташкилотњоро афзуда, боиси зиёд шудани самимияти дигарон нисбат ба онњо мегардад.

Маданияти муносибат дорои ањамияти шахсї ва љамъиятї буда, дараљаи маданияти шахсиро нишон медињад. Вай боиси наздикии одамон ва њамкасбон шуда чунин шароитеро ба вуљуд меорад, ки одамон дар он шароит бо њам аз тањти дил мулоќот карда метавонанд [2.2].

Ва ё суханони баръакси он - суханони шубњаовар, маѓрурона ва авомфиребона муносибатро вайрон ва атрофиёнро асабї намуда, њалли масъаларо душвор мегардонад. Бояд гуфт, ки дар тарбияи шахс ва маданияти муносибат дар пањлўи мактаб наќши оила низ хеле бузург аст.

Шахсони мутахассис ва роњбарикунанда низ ба меъёрњои одоби муошират бояд риоя кунанд. Одоби муошират ин маљмўи ќоидањои рафтор, муомила бо атрофиён мебошад. Ќоидаву тартиби одоби муошират якранг набуда балки мухталиф аст. Масалан: Ќоидаи рафтор дар доирањои гуногун, одоби муоширати дарборї, одоби муоширати дипломатї, одоби муоширати љамъияти олї ва ѓайра дида мешавад.

Он аз тарафи шахсони масъул амалї мегардад, ки дар љомеа хеле зарур ва муњим мебошад.

Одоби муошират дар љомеаи муосир раванди демократикунонї ва инсонпарвариро дар њаёти иљтимої инъикос карда, дар заминаи тамоман дигар бунёд мегардад. Одоби муошират дар ин љомеа хеле соддатар шуда, беандоза озод ва табиї мешавад.

Нисбати њамаи одамон новобаста ба мансабу мавќеи љамъиятиашон хайрхоњона ва бо эњтиромона бояд назар кард. Дар кадом давру замоне набошад, одоби муошират ин маљмўи меъёру ќоидањои бомаданияту мусолиматомез, хайрхоњонаи муносибати одамон мебошад. Аз љониби дигар ќайд кардан љоиз аст, ки одоби муошират мардуми љањон аз њам фарќ мекунад. Муњаќќиќон одоби муоширатро ба ду навъ - Шарќї ва Аврупої људо намудаанд. Ба аќидаи эшон маданияти муоширати Аврупої бештар ба пањлўњои зоњирии њаёти инсон нигаронида шуда, фаќат он чизњоеро ба ќоида даровардааст, ки бо сабабњои гуногун барои одамони бомаданият дастрас будаанд, ки муоширати аврупоињо ба шохањо таќсим шуда аз њамдигар фарќ мекунанд.

Одоби маданияти муоширати Шарќї бештар ба риояи расму ойин такя намуда ба вайрон кардани меъёру ќоидањои ќабули оммагардида роњ намедињад. Дар аксарияти ноњияву дењоти Шарќ мардум побанди меъёру ќоидањои патриархалї, (аљдоду авлодї) гардида аз доираи муносибатњои мањалгароиву хешутаборчигї баромада наметавонанд. Њол он ки низоми демократї бе озодию эљодкорї, воќеъбинию адолатпарастї пеш рафта наметавонад.

Аммо њаёти иќтисодї, маданї, илмї- техникї ва муносибатњои байналмилалї ба одобї муоширати љавонон њатман таъсири худро мерасонад. Одоби муошират ба фаъолияти касбомўзии љавонон низ таъсири бузурге расонида мутобиќи талаботи љомеа ва таќозои замона такмил ёфта дигаргун мешавад. Аз ин рў тадќиќоту тањлили он таќозои замон аст. Чунки одоби муошират њамчун унсури фаъолияти маънавии инсон ба рушду нумўи љомеа таъсири худро мерасонад.

Љомеаи имрўзаро ба Шарќу Ѓарб људо намудан хеле душвор аст. Робитањои имрўзаи мадանї, илмї, техникї, иќтисодии байналмилалї таќозо мекунад, ки аз бањри меъёру ќоидањои мањдуду кўњнашуда баромада, низоми меъёру ќоидањои мутобиќи арзишњои ахлоќии њамидаи умумиинсонї, инсонпарварї ва воќеањои одилонаро ташвиќу тарѓиб карда, маданияти ахлоќии миллии худро такмил дињем ва ѓанї гардонем. Кормандони соњаи маориф мекўшанд, ки њар як фард поянњои дониши илмию техникї ва малакањои мењнатиро аз худ намуда, солиму нерўманд ба арсаи зиндагии мустаќил ќадам гузоранд [2.3].

Адабиёт

1.Асрориён Љ, Сайвалиев Н. Мавод доир ба назарияи фарњанг. - Душанбе, 1994.

2.Муќимов Р. Маданиятшиносї. - Душанбе, 1998.

3. Сулаймонов С. Фарњангшиносї. - Душанбе, 2001.

4.Темур Атахонов, Сафар Сулаймонї. Тамаддун. кит, 1- 2. - Душанбе, 2003-2005.

5.Арбобзода А. Таърихи фарњанги халќи тољик. - Душанбе, 2003 .

6.Дьяконов М. Маданияти ќадими тољикон. - Сталинобод , 1959.

7.Одинаев Ё.,Гадоев Б. Асосњои маданияти шахс. - Душанбе, 2003.

8. Силичев Д. А. Культурология. М., 1998

TOSHKENT VILOYATIDA JOYLASHGAN ZANGI OTA ZIYORATGOHI HAQIDA MULOHAZALAR

Axmedova Shaxzoda, *QarDU PI o'qituvchisi*

O'rta Osiyodagi noyob obidalardan biri Zangi ota nomi bilan mashhur bo'lgan so'fiylik targ'ibotchisi shayx Oyxo'ja ibn Tojxo'ja sharafiga shunday ataladi.

Zangi ota ziyoratgohi Toshkent viloyatining Zangi ota tumanida joylashgan ziyoratgohdir. Ziyoratgoh hududida gumbazli darvozaxona orqasida ikkita pastak minora, ularning janubi-g'arbida XX asr boshlarida qurilgan shiypon va minora bor. Minora g'ishtdan qirrali qilib qurilgan. Uning janubi-g'arbida gumbazli, g'isht ustunli

devorlar, yozuvlar bilan bezatilgan peshayvonli masjid, hovlining qolgan uch tomonida bir qavatli hujralar joylashgan. Shimoli-g'arbida darsxona, shimoli-sharqida esa yana bir darvoza bo'lib, undan qabristonga chiqiladi.

Zangi ota maqbarasi hovlining janubida peshtoqli ayvon, ziyoratxona, xilxonalardan iborat. Ziyoratxonaning devor va burchaklarida yirik va mayda ravoqlar gumbazga asos bo'lgan. Xilxonada burchak va taxmon ravoqlari ikki qavatli gumbazni tutib turadi. Ziyoratxonaning ichkari va tashqarisidagi sirlarning qoldiqlari binoning o'z davrida mahobat bilan naqshlanganligini ko'rsatadi. Janubiy qismida Anbar bibi maqbarasi joylashgan.

Zangi otaning asli tug'ilgan va yashagan maskani Shosh viloyati bo'lib, Toshkent bilan Qovunchi oralig'idagi Zangi ota nomli qishloqdir. Zangi ota Toshkent shahrining Samarqand Darboza ko'chasidagi «Zangi ota» mahallasida tug'ilib o'sgan degan taxminlar ham bor. Oyxo'ja Ibn Tojxo'janing “Zangi” iborasi bilan nisbat berilishi, u kishi qora tanli bo'lganining ramziy ifodasi.

Zangi otaning otasi Tojxo'ja, uning otasi Abdulmalik ota, ul zot o'zining piri murshidi Mansur ota orqali Xo’ja Axmad Yassaviyga borib taqaladi. Tojxo'janing o'zi ham hazrat Yassaviyning xizmatlarida bo'lib, ul tabarruk zotdan bevosita tasavvufiy-ma'naviy ta'limot va irshodot olgan.

Rivoyatlarga qaraganda, Zangi ota cho'ponlarning piri «avliyo» qiyofasida gavdalanadi. Tarixiy manbalarning guvohlik berishicha, Zangi ota Ahmad Yassaviyning muridi, so'fiy shoir Sulaymon Hakim Boqirg'oniyning shogirdi bo'lgan.

Zangi otaning butun hayoti Movarounnahr xalqlarining eng og'ir davriga to'g'ri keladi. Zotan, XIII asrning 20 yillarida Mo'g'ul istilochilari Movarounnahrning eng yirik shahar va qishloqlarini vayron qiladilar. Oddiy mehnatkash xalqni esa qullik iskanjasiga soladilar. Shunday og'ir bir paytda Zangi ota va uning shogirdlari xalq ommasini qahramonlik, vatanparvarlik, mehr-shafqat kabi eng oliy umuminsoniy g'oyalar bilan oziqlantirdi. Zangi otaning bu xizmatlari vaqti kelib Amir Temur tomonidan munosib taqdirlandi. Zangi otaning qabri ustida maqbara qad rostladi. 1420 yilda esa Mirzo Ulug'bek uning ustiga hozirgi peshtoqni bunyod ettirdi.

Zangi ota yoshligida otasidan ta’lim oldi. Otasi vafotidan keyin Ahmad Yassaviyning xalifasi va shogirdi bo‘lmish Hakim ota (Sulaymon Boqirg‘oniy) huzuriga boradi. Bir necha yil uning mulozamatida bo‘lib, undan yassaviylik tariqati sir-asrorlarini, odobini o‘rgandi va bu tariqatning yetuk namoyandasi bo‘lib yetishdi. So‘ng o‘z vatani — Shosh viloyatiga qaytib kelib, aholini ilohiy-axloqiy, tasavvufiy yo‘l yo‘riqlar bilan tarbiyalashga kirishdi, ko‘plab mutasavviflar tayyorladi. Zangi otaning murid va shogirdlari, xususan, Uzun Hasan ota, Sayyid ota, Sadr ota va Badr ota Dashti Qipchoq o‘zbeklari, Volgabo‘yi va Ural tog’i etaklaridagi tatar va boshqirdlar orasida islom dinining yoyilishiga hissa qo‘shadi.

Podachilik qilib, halol rizq topib hayot kechirgan, namoz va zikrni kanda qilmagan Zangi otaning karomatlari va fazilatlarini Xo‘ja Ahror, shoirlar Maxtumquli, Kamiy Toshkandiy va boshqalar tilga olib, she’r va xotiralar yozib qoldirganlar, xalq rivoyatlar to‘qigan. Ba’zi manbalarga ko‘ra, ustozi Hakim ota vafotidan so‘ng uning xotini Anbar bibini nikohiga olib, undan bir necha farzand ko‘radi. Farzandlar ham Zangi ota kabi e’tiqodli, insofli kishilar bo‘lib yetishadilar, xalqni haqiqat yo‘liga boshlashda rahnamolik qiladilar.

Anbar bibining qabri Zangiota tumanidati Zangiota qishlog‘ida dafn etilgan mozor yonida masjid va madrasa qad ko‘targan. Bu joy ziyoratgoh hisoblanadi[1].

Zangi ota hazratlari Markaziy Osiyo mintaqasida IX–XII asrlarda yuz bergan birinchi ilmiy-madaniy yuksalish, ya’ni ilk Sharq Uyg‘onish davrining namoyandasi, o‘z zamonida hikmat va ma’naviyat, din va tasavvuf rivojiga katta hissa qo‘shgan mutasavvif va avliyo bobolarimizdandir. Necha yuz yillardan buyon Zangi ota shaxsiga bo‘lgan qiziqish susaymagan, aksincha, ortib borsa borayaptiki, kamaymayapti.

Rivoyatlarga ko‘ra, Oyxo’ja ibn Tojxo’janing yoshlik yillari IX–XII asrlarda Markaziy Osiyodagi eng yirik shaharlardan biri – Binketda (hozirgi Toshkentda) kechgan. Hozirgi Zangi ota qishlog‘iga aynan shu zot asos solgan. U kishi 1258-yilgacha, ya’ni vafotiga qadar qariyb qirq yil davomida Anbar ona bilan birga shu qishloqda yashagan[2]. Juda ko‘plab odamlarga – oddiy dehqonlardan tortib turli darajadagi hukmdorlarga ham diniy-ma’naviy ustozlik qilgan. Vafotidan so‘ng u

zotning mozori nainki mahalliy, balki olis mintaqalardan keladigan kishilar uchun ham ziyoratgohga aylangan. Shu tariqa Zangi ota mozori ustida ziyoratgoh ko‘rinishidagi dastlabki kamtarona yodgorlik paydo bo‘lgan va keyinchalik nafaqat ziyoratgoh, balki u joylashgan qishloq ham Zangi ota nomi bilan atalgan. Zangi ota majmuasi Toshkent shahridan 16 chaqirim g‘arbda, Samarqandga o‘tadigan qadimiy karvon yo‘lida, Chirchiq daryosining o‘ng sohilida, Zangi ota qishlog‘ining markazida qad rostlagan. Zangi ota maqbarasining bunyod etilishi bilan bog‘liq ibratli rivoyatlar ham, tarixiy voqealar ham birdek chuqur ramziy ma’noga ega. Rivoyat qilishlaricha, Amir Temur Yassi qo‘rg‘onida Ahmad Yassaviy hazratlariga maqbara qurish harakatini boshlaganida nima uchundir ish hadeganda yurishavermagan. Bu holning sababini bilolmay, hayron bo‘lib yurganida bir kechasi tushiga nuroniy bir zot kirib, Yassaviyga maqbara qurishdan oldin Zangi otaning qabrini obod qilishi kerakligini aytadi. Shunda Amir Temur Zangi ota ruhini shod etish uchun maqbara tiklashga kirishadi. Bu muhtasham yodgorlik majmuining qurilishini 1420 yili Mirzo Ulug‘bek tugallagan. Zangi ota ziyoratgohi Markaziy Osiyo mintaqasi xalqlari uchun tabarruk maskan hisoblanadi.

Bu tarixiy-me’moriy majmuaga har kuni besh ming nafar atrofida ziyoratchi va sayyoh kelayotgani buni yaqqol tasdiqlaydi. Ziyoratchilar turli mamlakatlardan ekani ham diqqatga sazovordir[3]. Zangi ota maqbarasi dastlab ikki xonali sodda imorat – ziyoratxona va go‘rxonadan iborat bo‘lib, peshtoq va bezaklari bo‘lmagan. Xonalarning devori ravoqli chorsi asosdan burchaklardagi ravoqli bag‘al gumbaz bilan bog‘langan. Hosil bo‘lgan sakkiz qirrali asos ustiga o‘rnatilgan gumbazlarning kattaligi har xildir. Xonalarga darcha va tobdonlar orqali yorug‘lik tushgan. Go‘rxonadagi oq marmardan ishlangan qabrtosh, ayniqsa, diqqatni tortadi. Toshga g‘oyatda mohirlik bilan nafis o‘yma naqsh va arabiy xatlar bitilgan. Qabr shakli va naqshlardagi uslub uning qadimiyligidan shundoq dalolat berib turadi. Yon tomondagi yuza qismida arab tilida quyidagi mazmundagi she’r o‘yilgan: “Biz sog‘lik va sayohatdan zavqlanamiz. Ammo vaqti kelib bir-birimizdan ayrilamiz. Chunki vaqt seviklilarni ayiruvchidir” degan qancha vaqt o’tsa ham o’zining ahamiyatini yo’qotmaydigan ibratli jumlalar bitilgan. Marmar bitiktoshning bir yon qirrasiga kufiy

va suls xatida Payg‘ambarimiz (sollallohu alayhi va sallam)ning: “Qabr amallar sandig‘idir”, degan hadislari bitilgan. Vaqtlar o‘tib maqbara oldiga peshtoq va ikkita ko‘ndalang xona qurilib, bezak berilgan. Peshtoq va xonalar tashqi devori, ziyoratxona va maqbara poygumbazi sayqallangan g‘ishtchalar, o‘ymakor rang-barang koshinlar bilan bezatilgan.

Zangi ota maqbarasining yana bir noyob va o‘ziga xos jihatiga to‘xtalish joiz. O‘sha davr me’morchiligida peshtoqni imoratning yon qanotlaridan oldinga surib qurish odat tusiga kirganini mintaqamizdagi deyarli barcha me’moriy yodgorliklar misolida ko‘rish mumkin[4]. Zangi ota maqbarasining peshtoqi esa ikki yonidagi xona devorlari bilan bir chiziqda qurilgan, ya’ni shu devorlarning dami bo‘lib tushgan. Bundan tashqari, imoratning sirtidagi izoralar peshtoq ayvonidagi supalar bilan bir balandlikda qilib ishlangan. Maqbara peshtoqini uning yonidagi xona devorlari bilan qo‘shib qurish natijasida binoning mustahkamligini oshirishga erishilgan. Izora va supalarning bir xil balandlikda bo‘lishi imorat qiyofasiga alohida ko‘rk bag‘ishlagan. Maqbaraga old tomondan – ma’lum bir masofadan turib qaralganda, ushbu imorat yaxlit bir supa ustiga o‘rnatilgandek tasavvur uyg‘otadi. Anbar ona maqbarasi Zangi ota majmuasi tarkibida bo‘lib, Zangi ota maqbarasining janubi-g‘arbida joylashgan. U peshtoq, ziyoratxona va go‘rxonadan iborat. Ziyoratxona va go‘rxonaning usti qo‘shqavat gumbazli, qubbali toshdan, kichik doira shaklida yasalgan. Maqbaraga oq marmardan qabrtosh qo‘yilgan. Uning tevarak-sirtiga arabiy xatlar va nafis naqshlar o‘yilgan. Maqbara dastlab ikki xonali bo‘lgan, keyinchalik uning oldiga peshtoq qurilib, koshinlar bilan bezatilgan. Peshtoq tayanchi uncha baland emas. Bu uslub Toshkent maqbaralariga xos. Zangi ota maqbarasi qatori ushbu yodgorlik ham Amir Temur zamonasi me’morchilik an’anasining yorqin namunasi hisoblanadi.

Zangiota tumanidagi Zangiota ziyoratgohi XV asrlarga tegishli me’moriy yodgorlik bo’lib, XII - XIII asrlarda yashab faoliyat yuritgan mashhur shoshlik olim, yirik zohid – Oyxo’ja ibn Tojxo’ja nomi bog`liq. Ushbu qadamjo nafaqat O’zbekistonda, balki O’rta Osiyodagi yirik ziyoratgohlardan biri hisoblanadi [5]. Majmua Zangiota, Anbar bibi maqbarasi, darvozaxona, madrasa, masjid, xonaqoh-

shiypon, minora va hovuzdan iborat. Anbar bibi maqbarasi uchun hovuz, shiypon va darvozaxona alohida-alohida qilib qurilgan.

Xulosa qilib aytganda, Zangiota maqbarasi, madrasasi va masjidini O’zbekiston va O’rta Osiyo xalqlarining Islom dini madaniyatiga oid qarashlar, tushunchalar bilan yaqindan tanishish uchun tashrif buyurishlari mumkin bo’lgan muqaddas ziyoratgohlardan biri sifatida ko’rishimiz mumkin. Majmuadagi inshootlarga Qur’on oyatlari, hadislar nasx kabi ko’hna yozuvlarda bitilgan.

Adabiyotlar

1. O‘zME. Birinchi jild. T.: 2000
2. Sh. Jo’rayeva. O’zbekistonning tarixiy obidalari. S.: 2011
3. M. Po’latova. Me’moriy obidalar va ular haqidagi rivoyatlar. T.: 2000
4. Kun.uz
5. Daryo.uz

JAMIYAT TARAQQIYOTIDA BUYUK ALLOMALARIMIZNING MA’NAVIY - MADANIY MEROSI - XALQIMIZ UCHUN TARIXIY MANBA

Ochilov Abror Qiyom o’g’li,
QarDU PI o’qituvchisi

Jamiyat taraqqiyotidagi har qanday o’zgarishlar, yangiliklar, ayniqsa insoniyat rivojiga katta turtki beradigan jarayonlar, kashfiyotlar o’z – o’zidan yuz bermaydi. Buning uchun avvalo asriy an’analar, shart – sharoitlar, madaniy-ma’naviy muhit shakllangan bo’lishi lozim. Ana shunday ezgu maqsad va tafakkur bilan yashagan xalqimiz jahon taraqqiyotiga ulkan hissa qo’shgan. Sharq-u G’arbni o’zaro bog’lagan, buyuk sivilizatsiyalar tutashgan yurtimiz hududida ilm – fan, madaniyat azaldan rivojlangan. Ayniqsa, o’rta asrlarda ona zaminimizdan minglab olim-u shoirlar, buyuk mutafakkirlar yetishib chiqqan. Ularning falsafa, tarix, matematika, fizika, kimyo, astronomiya, adabiyot, etnografiya, axloq, tibbiyot kabi ko’plab sohalarga oid asarlari, Shahrisabz, Samarqand, Buxoro, Xiva, Qarshi, Toshkent, Termiz va boshqa shaharlardagi qadimiy obidalar butun bashariyatning ma’naviy mulki hisoblanadi.

O’sha davrdagi eng buyuk mutafakkir olimlardan biri Muhammad Muso Xorazmiydir. Bugun butun dunyo foydalanadigan hisob – kitob amallari, zamonaviy texnologiyalari faoliyati ana shu bobokalonimiz yaratgan qoidalarga asoslanadi. Butun dunyo Xorazmiyning ilm – fan rivoji yo’lidagi hissasini yuksak qadrlaydi. Ahmad Farg’oniyning “Astronomiya asoslari” nomli asari o’n ikkinchi asrda lotin va ivrit tillariga tarjima qilingani, keyinchalik Italiya, Germaniya, Fransiya, Gollandiya va AQSH kabi ko’plab mamlakatlarda qayta – qayta chop etilgani uning naqadar ulkan ahamiyatga ega ekanligini ko’rsatadi. Allomaning Yer sharsimon shaklda ekanligi borasidagi qarashlarini oradan sakkiz yuz yil o’tib amalda isbotlagan mashhur sayyoh Xristofor Kolumb “Yer meridianining bir darajasi miqdori haqidagi al-Farg’oniy hisoblarining to’g’riligiga to’la ishonch hosil qildim” deya dastxat qoldirgan.

YUNESKO qaroriga muvofiq 1998 – yilda Ahmad Farg’oniy tavalludining 1200 yilligi xalqaro miqiyosda nishonlandi. Bu buyuk ajdodimizning jahon sivilizatsiyasi rivojiga qo’shgan uikan hissasi , xalqimiz ilmiy salohiyatining yana bir e’tirofi bo’ldi. Davlatimiz rahbarining tashabbusi bilan Quva va Farg’ona shaharlarida mutaffakir haykallari bunyod etildi, Farg’ona davlat universitetiga Ahmad Farg’oniy nomi berildi.

O’rta asrlarda Sharq ilm – fani rivojida Xorazm Ma’mun akademiyasi alohida o’rin tutgan. Ulkan kutubxona, madrasa, tarjimon va xattotlar maktabi kabi tuzilmalarga ega bo’lgan bu dargohda yuzdan ortiq allomalar , iste’dodli talabalar ilmiy izlanishlar olib borgan. Abu Nasr ibn Iroq, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Xo’jandiy, Ahmad ibn Hamid Naysariy kabi qomusiy olimlarning umumbashariy tafakkur rivojiga qo’shgan hissasi beqiyosdir.

Ibn Sino nomi dunyo fani va madaniyati tarixida zarhal harflar bilan bitilgan. Doimo yashil bo’lib turuvchi tropik o’simlik “Avitsenniya” deb atalgan.

O’zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimov 1998-yil 6 - noyabrda YUNESKO ning xalqaro Abu Ali ibn Sino oltin medali bilan taqdirlandi. Bu oliy mukofot xalqimizning umumbashariy sivilizatsiya taraqqiyotiga qo’shgan hissasi va xalqimizning tan olinishi , davlatimiz tomonidan tarixiy, madaniy, ma’naviy merosini asrab avaylash , sog’lom va barkamol avlodni voyaga yetkazish borasida amalga oshirilgan ishlarning munosib bahosi bo’ldi.

Mirzo Ulug’bek yurtimizning bir qator shaharlarida masjidlar, madrasalar qurdirgan , Samarqandda o’ziga xos ilmiy muhit , hozirgi tilda aytganda , akademiya tashkil etgan. U yerda 200 dan ortiq olim faoliyat yuritgan. Falakiyot ilmining nazariy va amaliy masalalari to’la qamrab olingan Ulug’bekning “ Zij’’i o’rta asrlardayoq Osiyo va Yevropa mamlakatlarida keng tarqalgan. Yevropalik astronom olimlar uni lotin , fransuz, ingliz tillarida tarjima qilgan sharhlar bitgan. “Ziji Ulug’bek”, “ Ziji jadidi Ko’ragoniy” nomlari bilan shuhrat qozongan bu asarda 1018 ta yulduzning o’rni va holati aniqlab berilgan. Yulduzlarning balandligi va ular orasidagi masofa , quyosh va oyning harakati , ularning tutilish vaqtlari bayon qilingan. Bu hisob – kitoblar zamonaviy texnologiyalar orqali aniqlangan kuzatuv natijalaridan deyarli farq qilmaydi. Masalan , Ulug’bek hisobi bo’yicha bir yil 365 kun 6 soat 10 daqiqa 8 soniyani tashkil etadi. Bugungi kunda bir yil 365 kun 6 soat 10 daqiqa 6 soniyaga teng. Birinchi Prezidentimiz o’zining “ Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch “ asarida “O’shanda janob Federiko Mayor Ulug’bekning ilmiy merosini yuksak baholab , uning yulduzlar harakatiga oid hisob - kitoblari bugungi kunda komputer yordamida tekshirib ko’rilganda atigi bir necha daqiqaga farq qilishi aniqlandi, degan gapni aytib qoldi. Shunda men unga qarab , yoq janob Federiko Mayor , Ulug’bek xato qilgan bo’lishi mumkin emas, balki kompyuterlar xato qilgan bo’lishi mumkin, degan edim”.

Istiqlol yillarida Mirzo Ulug’bekning hayoti va faoliyatini o’rganish borasida ulkan ishlar amalga oshirildi . Birinchi Prezidentimiz tashabbusi bilan 1994 - yil mamlakatimizda Mirzo Ulug’bek yili deb e’lon qilindi. O’sha yili Mirzo Ulug’bek tavalludining 600 yilligi xalqaro miqyosda keng nishonlandi. Parij shahridagi YUNESKO qarorgohida buyuk allomaning ilmiy merosi va uning ahamiyatiga bag’ishlangan xalqaro anjuman o’tkazildi.

Mizo Ulug’bek siymosi xalqimiz hayotining ajralmas qismiga aylanib qolgan. Yurtimizda Mirzo Ulug’bek nomi berilgan tuman, ma’naviyat maskanlari, mahallalar, ko’chalar ko’p. Ota-onalar ezgu niyatlar bilan farzandlariga Mirzo Ulug’bekning muborak ismini qo’yishadi. Bularning barchasi xalqimizning buyuk allomaga cheksiz hurmatidan darak beradi.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning 2017-yil 14-sentyabrdagi “Mirzo Ulug’bek nomidagi ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim maktab-internati “ hamda “ Astronomiya va aeronavtika” bog’ini tashkil etish to’g’risidagi PQ – 3275-sonli hamda Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-noyabrdagi 935-sonli qarorlari bilan Mirzo Ulug’bek nomidagi fizika , matematika , astronomiya va informatika fanlariga ixtisoslashtirilgan davlat umumta’lim maktab-internati tashkil etilgan .

“ Bu maktabni Mirzo Ulug’bek nomi bilan tashkil etganimiz bejiz emas . Bundan faxrlanishingiz, buyuk bobomizga munosib bo’lishingiz kerak . Buning uchun juda katta intilish, qunt, mehnat zarur. Vatanimizga kerakli, yetuk mutaxasislar bo’lib yetishishingiz uchun hamma sharoitni yaratib beramiz “, – dedi Prezident Shavkat Mirziyoyev.

Ahamiyatli tomoni, butun dunyoda buyuk ajdodlarimizning so’nmas dahosiga hurmat – ehtirom, ularning boy ilmiy merosini o’rganishga qiziqish hamisha yuqori bo’lgan. Buning tasdig’ini turli mamlakatlarda ularning hayoti va faoliyati haqida ilmiy va badiiy asarlar yaratilgani , ulug’ ajdodlarimiz xotirasiga yodgorliklar barpo etilganida ham ko’rish mumkin. Belgiya va Latviyada Ibn Sinoga , Latviyada Mirzo Ulug’bekka , Yaponiya , Rossiya va Ozarbayjonda Alisher Navoiyga , Misrda Ahmad Farg’oniyga o’rnatilgan haykallar xalqimiz tarixiga chuqur hurmat ifodasidir .

2014-yil 15-may kuni “O’rta asrlar Sharq allomalari va mutafakkirlarining tarixiy merosi, uning zamonaviy sivilizatsiya rivojidagi roli va ahamiyati “ mavzusidagi xalqaro konferensiyaning Samarqand shahrida o’tkazilishi bejiz emas. Zero, bu shahar jahon sivilizatsiyasining qadimiy o’choqlaridan biridir. Bu yerdagi obidalar , madaniy yodgorliklar ajdodlarimiz dahosidan , olis va buyuk o’tmishdan so’zlaydi.

Shahrisabz dunyo tan olgan shaharlardan biridir. Bu yerda azaldan ilm ma’rifat markazi sifatida qaraladi. Shahrisabzning alohida albom shaklida nashr etilgan arxitektura epigrafikasi nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun Sharq mintaqasi tarixini o’rganish nuqtai nazaridan g’oyat qiziqarlidir. Yozma yodgorliklarning noyob namunalaridan iborat ushbu bitiklar muhim voqealar, tarixiy shaxslar haqida ma’lumotlarni o’zida mujassam etgan.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, jamiyatimiz taraqqiyotida ota – bobolarimiz tomonidan xalqimizga asrlardan asrlarga o'tib kelayotgan madaniy – ma'naviy yodgorliklar tariximiz uchun boy oltin merosimizdir. Ajdodlarimiz qoldirgan merosni ko'z qorachig'imizdek asrashimiz va kelajak avlodlarga asli holatida yetkazishimiz bizning eng katta yutug'imiz desak, haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ'ib qilish tizimni yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida "gi Qarori . 2017 – yil 2-may. //O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami , 2017 – yil .

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O'zbekistondagi Islom madaniyatin markazini tashkil etish chora tadbirlari to'g'risida" gi Qarori. 2017-yil 23-iyun. //Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi , 16.07.2021 – yil , 07/21/5186/0683 – son.

3. Karimov I. A. Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch . – T.: Ma'naviyat, 2008-yil.

ФОРОБИЙ ТАЪЛИМОТИДА МАНТИҚ ИЛМИ ВА ГРАММАТИКАНИНГ ЎЗАРО АЛОҚАСИ МАСАЛАСИ

Бойгазиев Тулқин Инатуллаевич, *ҚарДУ ПИ ўқитувчиси,*
Боқиев Хушруд Хушвақович, *ҚарДУ ПИ ўқитувчиси,*
Самиева Зарина Хайрулло қизи, *тадқиқотчи*

Шарқ Уйғониш даврининг буюк мутафаккири Абу Наср Форобий мантиқ илми ва грамматиканинг ўзаро алоқаси масаласига диққат эътиборини қаратади.

Аллома фикрича, мантиқ илми фалсафанинг у ёки бу қисмларида қўлланган ҳолларда назарий ва амалий санъатларни қамраб олувчи ҳақиқий билимни қўлга киритиш асбобидир. Мантиқ санъатисиз қайси бир (илм)да бўлмасин ҳақиқий билимга эришишнинг йўли йўқдир. Унинг номи мантиқ (мантиқ, нутқ, гапириш) сўзидан келиб чиққандир. Бу сўз қадимгиларнинг фикрича уч нарсани ифодалайди:

Биринчидан, инсоннинг категорияларни фикрлай олиши, илмлар ва санъатларни эгаллай олиши ҳамда хулқ-атвордаги гўзаллик ва хунукликни фарқ қила олиш қобилиятини ифодалайди.

Иккинчидан, ички нутқ деб аталувчи инсоннинг руҳида (жонида, нафсида) вужудга келган категорияларни ифодалайди.

Учинчидан, ақлдаги нарсанинг ифодаланишини кўрсатади, буни ташқи нутқ деб юритадилар. Бу санъат ақл учун барча тилларга умумий бўлган ички нутқ қоидаларини ҳамда тил ибораларидан иборат бўлган ташқи нутқ қоидаларини ифодалагани учун бу қоидалар ёрдамида ақлни тўғри йўлга бошлайди ва ҳар икки ҳолда ҳам хатолардан сақлайди, шунинг учун ҳам у мантиқ деб аталади.

У (яъни мантиқ) грамматика билан қисман умумийликка эгадир, лекин улар ўзаро тафовут қиладилар ҳам, чунки грамматика тил ибораларининг фақат мазкур миллат тилига хос бўлган қоидаларини берса, мантиқ эса барча тилларга умумий бўлган тил иборалари учун қоида беради[1].

Абу Наср Форобий мантиқ илми билан грамматика ўртасидаги муштаракликни қайд этади: мантиқнинг ақлга муносабати грамматиканинг тилга муносабати кабидир. Грамматика одамлар нутқини тарбиялагани каби, мантиқ илми ҳам тафаккурни ҳақиқий йўлдан олиб бориш учун ақлни тўғирлаб боради.

Ваҳоланки, грамматика тил ҳақидаги фан бўлиб, сўзлар ва гаплар қурилишини ўрганади. У иккита қисмдан иборат: морфология (шакл) – сўзларни ҳосил қилувчи тил бирликларини қўшиш тўғрисидаги таълимот ва синтаксис (тартиб, қуриш) – гапда сўзларнинг қўшилиши тўғрисидаги таълимотлардан ташкил топган. Бу икки ҳодиса бири иккинчисисиз мавжуд бўла олмайди: тил белгиси (уни грамматика ўрганади), маъно-мазмунга эга бўлсагина (уни мантиқ ўрганади), аҳамиятлидир ва мавжуддир; ўз навбатида, фикр, унинг маъноси фақат тил ифодалари (сўз, гап) орқали юзага чиққандагина, реаллашгандагина мулоқот объектига айланади.

Шунинг учун ҳам, мантиқнинг грамматика билан алоқаси тил ва тафаккур(ақл)нинг узвий боғлиқлигини тақозо этади.

Грамматика тилга ва тил ифодаларига бўлган муносабати мантиқ илмининг ақл ва ақлий тушунчаларга бўлган 4 муносабати кабидир. Грамматика ҳар доим тил ифодаларида хатолар келиб чиқиши мумкин бўлганда тилнинг ўлчови бўлганидек, мантиқ ҳам ҳар доим ақлий тушунчаларда хато келиб чиқиши мумкин бўлганда ақл ўлчовидир.

Санъат ахллари мантиқни тасвирлашни предикат, тасвирланувчини эса субъект деб атайдилар. Тасвирлаш, яъни предикат содда ва мураккаб бўлади. Якка тил иборалари орқали ифодаланувчи предикат содда предикатдир, масалан, одам ҳайвон, гапирувчи, оқ, қора ва (бошқа) қўшма тил иборалари билан ифодаланувчи предикат мураккаб (предикат)дир, масалан, нутқли ҳайвон, оқ одам (сўзларини олайлик).

Ҳар бир содда предикат ёрдамида нарса бошқа бир нарсага ўхшайди ёки ундан фарқ қилади. Ўхшашликни кўрсатувчи предикатда ифодаланган нарсалар ёки субстанция жиҳатидан бўлмай, бирор ҳолатда ўхшашлигини сақлайди. Икки ёки ундан ортиқ (нарсаларнинг) ўхшашлиги учун хизмат қилувчи предикат *универсал предикат* деб юритилади, масалан, одам ва ҳайвон. Ҳеч бўлмаганда икки (нарсанинг) ўхшашлигини ҳам ифодаловчи предикат якка (предикат) деб аталади, масалан, Зайд ва Умар.

Икки нарсанинг субстанцияси жиҳатидан ўхшашлигини ифодаловчи икки содда предикатдан умумийроғи жинс, жузъийроғи эса тур деб аталади. Масалан, одам ва ҳайвон (тушунчалари) ёрдамида Зайд ва Умар ўз субстанциялари жиҳатидан эмас, (ҳолати жиҳатидан) фарқ қилишини кўрсатувчи (предикат) атоқли белгидир.

Аллома наздида, содда универсал предикатлар бештадир; *жинс, тур, фарқ қилдирувчи белги, атоқли белги* ва *тасодифий белги*ни ташкил этади. Икки содда предикатдан умумийроғи жинс (тушунчаси) деб белгиланиши мумкин, унинг ёрдамида бу кўринаётган ёки ҳис этилаётган нарса умуман нимадир деган саволга жавоб бериш мумкин.

Улардан (яъни икки содда предикатдан – М.Х.) жузъийроғи тур (тушунчаси) бўлади. Фарқ қилдирувчи белги шундай предикатки, унинг

ёрдамида бир тур мазкур жинснинг иккинчи туридан субстанцияси жиҳатидан фарқ қилади. Масалан, “нутқли” (тушунчаси) ёрдамида ҳайвон бўлиши жиҳатидан бошқа жониворлар билан умумийликка эга бўлган одам бошқа ҳайвонлардан фарқ қилади. Атоқли белги бир тургагина хос бўлган предикатдир, масалан, *иш бажариш* одамгагина хос. Масалан, биз *илм ўзлаштирувчи,* шунингдек, олиш ва сотишга қобилиятли деймиз – буларнинг ҳаммаси фақат одамгагина хосдир.

Тасодифий белги кўп турларга оид бўлиши мумкин бўлган предикат бўлиб, унинг ёрдамида “бу нимадир?” деган саволга жавоб бериб бўлмайди, масалан, қора, оқ. Биз қорага нисбатан оқ одам, отнинг оқлиги, оқ ҳўкиз деймиз.

Мутафаккир фикрича, оддий иборалар уч турли бўлади; исм, калима (сўз) ва адот – ёрдамчи бўлакдан иборат. Араб грамматиклари эса *калима* деганда феълни, адот деганда эса айрим бир маъногагина далолат қиладиган ёрдамчи сўз бўлагини тушунадилар.

Исм – ёлғиз бир талаффуз бўлиб, биргина маънони англатади.. Исмдан бир нарсанинг зотини, тузилишини ва шаклини билиб олиши мумкин (гарчанд бу исм нарса ёки жисмнинг зотини, тузилиши ва шаклига далолат қилмаса ҳам). Масалан, ҳайвон, инсон, Зайд, амр, оц, цора дегандек. Бу иборалардан ҳар бири бир маънога далолат қилувчи айрим бир талаффуз бўлиб, уларнинг ҳар биридан нарсанинг ҳолати ва моҳияти ҳақида маълум тасаввурга келиш мумкин. Лекин булардан ҳеч бири ўз зоти ва шакли билан, нарсанинг мавжудлик вақтини билдирмайди.

Калима (сўз) шундай бир айрим ва далолат қилувчи ибораки, шу иборанинг ёлғиз ўзидан маълум маъно англаш мумкин. Шунинг билан бирга, у нарсанинг зоти, шакли ва қайси вақтда мавжуд бўлганлиги ҳақида маълумот беради. Масалан, юрди, юради ва юражак сўзи (феъллар)нинг ҳаммаси маълум маънони билдиради, шунингдек, шу маънонинг қайси замон билан боғлиқ эканлигини ифода қилади ва бу ўз зоти жиҳатидан бўлиб, бунда тасодифийлик йўқдир.

Адот – ёрдамчи сўз бўлаги ёлғиз бир ибора бўлиб, айрим бир маъно ҳақида далолат беради. Аммо унинг ёлғиз ўзидан бирор маънони англаш мумкин эмас, уни қандайдир бир исм, калима ёки ҳар иккисига бирлаштирганда ёки қўшгандагина, ундан айрим бир маъно чиқади. Масалан: *дан, га* иборалари каби.,

Энди исмларнинг хусусиятларидан бири шундаки, улар субъект ҳам ва ҳеч қандай нарсага қўшилмаган ҳолда ўз-ўзича кесим бўла олади. Бунинг учун уни бошқа бирор сўзга қўшишга ҳожат йўқдир. Аммо калима – феъл бошқа нарса билан боғланган бўлмаса, мустақил ҳолда субъект бўла олмайди. Чунки у юради деган сўзга у юрган инсон калимасини қўшмаса, фикр маълум бўлмайди. Қадимгиларнинг кўплари ўз зоти билан субъект бўлишни исмнинг хусусияти деб билганлар.

Аммо исмнинг ўзм ёлғиз субъект бўла олмайди. Фақат очиқ ёки яширин равишда мавжудликни билдириши вужудни билдирувчи сўзга қўшилгандагина субъект бўла олиши мумкин.

Калиманинг хусусияти шуки, у ўзича ва ёлғиз ҳолда кесим бўла олади, аммо, субъект бўла олмайди.

Қўшимча сўзнинг хусусияти шуки, у кесим ҳам бўла олмайди, субъект ҳам бўла олмайди. Масалан, *ми, эмас, дан* деган қўшимчалар. Булар аксар вақтда кесим ёки субъектнинг бир бўлаги бўла олади. Масалан, Зайд уйда эди сўзида Зайд субъект, уйда сўзи кесимдир. Энди эди деган сўз-чи? Бу субъектни кесим билан боғлашга хизмат қилувчи ва кесимнинг замонини кўрсатувчи бир ишорадир.

Форобийдан фарқли ўлароқ Ғарб олимлари М.Коэн ва Э.Нагелларларнинг мантиқ ва грамматиканинг ўзаро боғланиши тўғрисидаги фикр-мулоҳазалари ҳам диққатга сазовордир. Уларга кўра, фикрда ифода қилинаётган объект ҳамма вақт ҳам унда чин фикр кўринишида акс этмаслиги мумкин. Унинг сабаби шундаки, фикрнинг чинлиги муайян даражада уни акс эттираётган тил ифодасига боғлиқ. Бу ҳолат мантиқнинг лингвистика билан алоқадорлигини кўрсатади. Мантиқ мулоҳазалар импликатцияси билан иш кўрар экан, у бевосита

физикавий ёки тарихий ҳодисалар билан боғлиқ эмас. У фақат сўзлар билан иш кўради. Ва ана шунинг учун ҳам асосий эътиборини сўзнинг маъно-мазмунига қаратади.

Шунингдек, мантиқни сўзлар ва ҳатто уларнинг маъносини ўрганувчи фан деб бўлмайди. Унинг диққат марказида мулоҳазалар импликатцияси туради. Лекин шунга қарамасдан, мантиқ барибир грамматика билан узвий боғлиқ. Аристотель, Дунс Скот ва Ч.С. Пирслар ҳамма вақт ҳам грамматика ва мантиқнинг чегарасини аниқ кўрсатган эмас. Юқорида айтганимиздек, мантиқ сўзларни уларнинг муайян маънога эга бўлиши фактидан келиб чиқиб тадқиқ этади. Сўзларнинг маъносини аниқ тасаввур қилиш мулоҳазаларнинг чин бўлиши учун зарур омил ҳисобланади.

Мантиқ сўзларни мулоҳаза қуришнинг зарурий элементлари ва воситалари деб билади. Ва, бу хулоса чиқаришда хатога йўл қўймасликка имкон беради[2].

Хулоса қилиб шуни айтиш керакки, Форобий мантиқ илми ва грамматиканинг ўзаро алоқадор жиҳатини ўз давридаёқ исботлашга эришган. Бироқ, бу борадаги фикр-мулоҳазалари ҳозирги замон мантиқ фани мезонларига тўғри келмаса-да, унинг асосида муайян ҳақиқат унсурларини мавжуд бўлганлигини инкор этиб бўлмайди.

Адабиётлар

1. Абу Наср Форобий. Рисолалар. -Т.: Фан, 1975. 40-б.
2. Morris R. Kohen, Ernest Nagelan introductionto lojic and scientific method. New York, 2007. P.50-51.

СУҒДИЙ ТИЛДАГИ МАНБАЛАРДА СУҒДИЙЛАР ИЖТИМОИЙ-ИҚТИСОДИЙ ҲАЁТИНИНГ АКС ЭТИШИ

Сатторов Э.Б.,
САМДУ докторанти

Ўзбекистон тарихининг ажралмас қисми Суғд конфедерацияси тарихини ўрганишга эътибор тобора кучайиб бормоқда. Зеро, илк ўрта асрларда Суғд Марказий ва Узоқ шарқ минтақасининг ривожланишида муҳим ўрин эгаллаган. Бу ҳолат Суғднинг қулай географик нуқтада жойлашганлиги, халқаро савдо,

иқтисодий муносабатлардаги фаол иштироки ва ижтимоий ҳаётининг юксаклиги билан чамбарчас боғлиқ.

Суғдийларнинг ижтимоий-иқтисодий ҳаётига оид маълумотлар, арабий ва форсий, Византия, арман, хитой солномалари ва манбаларида қайд қилинган. Шунингдек, суғдий тилдаги манбалар ҳам мавжуд бўлиб уларнинг ижтимоий-иқтисодий ҳаётини ўрганишдаги аҳамияти юқори ҳисобланади.

Муғ тоғи архив ҳужжатларида сарой ҳисоботи матнлари (кирим, чиқим) каттагина ҳажмдаги маълумотлар мавжуд. Муғ тоғи архив ҳужжатларидаги Б-2, Б-8, Б-9, Б-10, Б-5, В-11 Р, Nov.1, В-2, Б-6, , Б-1, Б-12, Нов.6, А-5, А-11, В-9, Б-27 рақамли ҳужжатлар шулар жумласидандир. Ҳужжатларда Панжикент саройининг кундалик, ойлик, йиллик сарф ҳаражатлари, кирим (тушим) ҳақидаги маълумотлар зикр этилган. Улар орасида ижтимоий-иқтисодий ҳаётни кўрсатувчи пул сарф ҳаражатлари ёки пул тушуми билан боғлиқ матнлар алоҳида эътиборга эга. Буларга, Нов.6, А-5, А-11, В-9 рақамли ҳужжатлари мисол бўлади.

Муғ тоғи архивив хужжатларидаги Nov.6 рақамли ҳужжатда Панч ҳокими Деваштичнинг хазинага мансабдор шахслардан олинган пул тушуми ҳисоботи қайд қилинган [1.185]. Келтирилган маълумотлар суғдий ижтимоий-иқтисодий ҳаётининг ўзига хослигини кўрстаишга хизмат қилади. Масалан, ҳужжатнинг Биринчи тушум пуллари буғдой ўрнига олинганлиги (3-5 қаторлар), бу ҳолатда солиқ натура (маҳсулот) ўрнига пул билан тўланганлигини кўрсатади. Ҳужжатда қолган тушум хусусиятлари акс этмаган.

Суғдийлар ижтимоий-иқтисодий масалалари акс этган ҳужжатлардан бири А-5 рақамли ҳужжат ҳисобланади. Ҳужжат Деваштич саройи аъёнлари ва бир қанча бошқа шахслар учун сарф этилган турли буюмлар ва уларга харж этилган пулнинг реестр рўйхати бўлиб, ҳужжатда кўпгина шахслар-турли касбдаги кишилар, лавозим эгалари боғбон, коҳин кабилар ҳақида маълумотлар келтирилган [3.51]. Шунингдек, Деваштичнинг шахсан буйруғи билан хазинадан турли шахсларга пул берилгани ҳам қайд этилган. Мазкур ҳужжатга асосланиб,

сарой ва давлат хизматида тўланадиган пул ҳоким назоратида бўлган дейишимиз мумкин.

Суғддаги ижтимоий жараёнларни очиб беришжа сарф ҳаражатлар туркумига кирувчи Б-1, Б-12 ҳужжатлари ҳам диққатга сазовардир. Уларда ҳарбий ҳаражатлар, кийим-бош, ҳарбий аслаҳалар турли шахсларга берилганлиги қайд этилган. Араблар босқини муносабати билан VIII асрнинг биринчи чорагида кўпгина устахоналар ҳарбий эҳтиёжлар учун хизмат қилгани манбаларда учрайди. Матнда берилган ҳарбий анжомлар учун тўланиши лозим бўлган пул миқдори кўрсатилмаган. Ушбу ҳолат эҳтимол арабларга қарши аҳаолини бепул қуроллантириш жараёни билан боғлиқдир.

Суғдий тилдаги манбалар орасида “Кўҳна хатлар” суғдийларнинг ижтимоий-иқтисодий ҳаётини очиб беришда муҳим. Мазкур хатлар 312-313 йилларда Дунхуанда ёки шимоли-ғарбий Хитойдаги суғдийларнинг манзилгоҳларида яшаган аҳоли томонидан ёзилган [1.3-4]. “Кўҳна хатлар 5 та мактубдан иборат. Фанга “Нанайвандак ҳисоботи” номи билан кирган учинчи мактуб суғдликларнинг ижтимоий ҳаёти ва таркиби тўғрисида қимматли маълумотларни тақдим этади. Мактуб суғдлик савдогарнинг ишончли кишиси Нанайвандак томонидан ёзилган бўлиб, Самарқанддаги савдогарлар бошлиғи Нанайдварга юборилган [4.173-175]. Мактубда Нанайвандак суғдликлар кўчманчи хунларнинг истилоси муносабати билан манзилгоҳдаги қийинчиликлар, азоб, очликдан ўлган суғдликлариннг фожиали тақдири ва батафсил маълумот берган. Яна мактубда самарқандлик савдогарнинг савдо вакили Жиквуан ва Вювей шаҳарларидан олинган буюртмаларни бажариш учун бир нечта тўқувчиларни ёллаганлиги айтилган. Мактубда ижтимоий муносабатларнинг уч даражаси кўрсатилган: самарқандлик савдогар, унинг сотувчиси ва ишлаш учун ёлланган тўқувчилар. Келитириб ўтилган маълумотлар суғд жамиятида ёлланма ишчилар қатлами мавжудлиги кўрсатади.

“Кўхна хатлар”даги бешинчи мактубда маҳаллий ҳудуд ва ундаги савдо тўғрисида карвонбошига хисобот тариқасидаги маълумот берилган. Ушбу маълумотнинг аҳамиятли томони мактубда пуллар ҳақида эслатиб: Мактуб муал-

лифи 20 ёшга тўлганига қарамай, атиги 4,5 статер олганлигини арз килган[1.5. Мазкур маълумот Суғд жамиятида меҳнатга лаяёқатлилик ёши 20 ёш сифатида қаралганлигини, шу ешга тўлган эркин шахслар жамиятнинг тўлиқ аъзосига айланганлигини кўрсатиши мумкиин.

Суғд ижтимоий ҳаётининг нозик жиҳатларини очиб беришда VII асрга оид бўлган фанга Турфон савдо шартномаси муҳим ҳисобланади. Шартнома тузилган вақти 627 -639 йилларга тўғри келади [2.25]. Шартнома иштирокчилари яъни, қулнинг эгаси, қулнинг ўзи, битимнинг тўртта гувоҳи, ҳужжат тузувчиси ва уламолар бошлиғи ҳаммаси суғдийлар. Шартномадаги гувоҳлар Суғд минтақасининг турли жойларидан Чинанчканд шаҳри (Турфон воҳаси) келган. Жумладан, Чумак ўғли Тишрат-маймурғлик, Хутавч ўғли Намтар-самарқандлик ўғли, Гузар ўғли Ишоқ ўғли навкандлик, Няни ўғли Назад кучалик. Ҳужжат хитой тилига оид лекин суғдий алифбода ёзилган. Ҳужжатда ижтимоий ҳаётни ёритиб берувчи қул олди-соти жараёни акс этган. Шартномага кўра Шамен Янсян қул учун сосонийлар Эронида зарб қилинган 120 дирхам тўлаган. Шартномада келтирилган Авпач исмли қул мутлақо ҳеч қандай ҳуқуқларга эга эмас. Унинг соҳиби у билан хоҳлаган нарсани қила оладиган бошқа мол-мулки билан тенглаштирилган. Қизиқ томони бошқа мулклардан фарқли ўларок, қул ҳали ҳам битта ҳуқуқини сақлаб қолган яъни ўзининг истагисиз соҳиби уни бошқа кишига сотишининг иложи йўқ. Суғд жамияти учун 120 сосоний дирхамда сотиладиган қулнинг нархи ўша давр меъёрлари бўйича яхши нарх. Битта нақд сигирнинг нархи 11 дирхамлигини инобатга олиб, 120 дирхам учун 10 та соғин сигир сотиб олиш мумкин эди.

Хулоса қилиб айтганда, ижтимоий ҳаёт масалаларини тадқиқ этишда суғдий ҳужжатларнинг аҳамияти шундаки, унда ёритилган жараёнлар кўп холларда айни иштирокчилар томонидан ёзилганлиги сабабли археологик ва этнографик материаллардан аниқлиги билан ажралиб туради.

Адабиётлар

1.Sims-Williams N. Towards. Sogdian Ancient Letters 1, 2, 3 and 5. – New-York, 2004.

2.Даутов Д. Согдийская купчая из Турфана // Известия Академии наук Республики 3.Таджикистан. Серия: востоковедение, история, филология, № 1 (25). – Душанбе, 1992. – С. 25.
4.Исҳоқов М.М. Унитилган подшоликдан хатлар. – Тошкент: Фан, 1992.
5.Лившиц В.А. Согдийские старые письма // Письменные памятники Востока, № 1 (8). – Москва, 2008 – С. 173-176
6.Согдийские документы с горы Муг. Юридические документы и письма. – Вып. II / Чтение, перевод, комментарии В.А.Лившица. – Москва, 1962.

CHOR BAKR TARIXIY ME'MORIY MAJMUASI XUSUSIDA

Rajabov O.I.,
BuxDU o'qituvchisi

Buxoroi sharif tarixi ming yilliklarga borib taqaluvchi, Movarounnahr uzra islom nurini baland sochgan minora, ilm-fan, din, madaniyat va marifat markazi bo'lib kelgan makonlardan biri hisoblanadi. Qubbatul Islom unvoniga sazovor bo'lgan ko'xna Buxoro zaminida ilm-fan peshvolari dunyoga kelgan. Bu tabarruk diyor o'rta asrlarda ilm maskani sifatida dovrug'i jahonga taraldi, vohada masjidu madrasalar barpo etilib, diniy urfon, dunyoviy ilmlar o'rganila boshlandi.

O'rta asrlarda bunyod etilgan Buxorodagi tarixiy me'moriy obida, Chor Bakr majmuasi Buxoro shahridan 6 km g'arbda joylashgan bo'lib, mazkur hududning qadimiy nomi Sumitan deyilgan. "G'iyosul-lug'at" kitobida yozilishicha, Sumitan "jundan mato to'quvchilar yashaydigan joy" degan ma'noni anglatadi. X asrda Sumitan qishlog'iga Buxorodan Xodsharun nomli darvoza orqali o'tib borilgan. Xodsharun darvozasi XV - XVI asrlarda Talipoch ya'ni "Xon tepaligi" deb nomlangan. To'rtta buyuk avliyo - Hazrat Abu Bakr Sa'd Yamaniy, Hazrat Abu Bakr Homid, Hazrat Abu Bakr Muhammad ibn Fazl, Hazrat Abu Bakr Tarxon sharofatlaridan bu mavze Chor Bakr, ya'ni to'rtta Bakr deb atalgan.

Tarixiy rivoyatlarga qaraganda, Chor Bakrlarning shajaralari Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.)ga borib taqaladi. Tarixchi Muhammad Narshaxiyning "Buxoro tarixi" nomli kitobida keltirgan ma'lumotga ko'ra, 889 - yilda Ali ibn al-Husayn

Xurosondan o'tib, Amudaryo bo'ylab Buxoroga keladi. Amir Ismoil Somoniy hazratni yaxshi kutib oladi. Ali ibn al-Husayn bilan birga o'sha mashhur Chor Bakrlar ham bu yurtga tashrif buyurib, bir umr shu yerda qolib ketadilar. Ja'far va Ali avlodidan bo'lmish Chor Bakrlar Buxoro hukmdorlari atrofida jipslashib, ilmu irfon targ'ibotiga katta hissa qo'shadilar.

Tarixiy manbalarda aytilishicha, amir Ismoil Somoniy Chor Bakrlarga behisob yerlarni vaqf qilib bergan. Ular esa ushbu vaqf yerlaridan keladigan daromadlarni el-ulusga tarqatib, yurtni obodonlashtirish uchun sarflaganlar. Olloh rizoligini topish maqsadida, xalqqa beminnat xizmat qilganlar. Chor Bakr avlodlari Buxoroda katta nufuzga ega bo'lib, bu yerlarni ilmu ma'rifati, ma'naviy hayotida ulkan hissa qo'shganlar. Buxoro hukmdorlari yurtning tinchligi va osoyishtaligi uchun kurashda ularning yordamlariga suyanganlar.

Sumitandagi Chor Bakr majmuasi bir-biriga tutashib ketgan oilaviy xazira va dahmalardan iborat bo'lib, ularning old tomoni peshtoqlar va hujralar husn berib turuvchi yaxlit devor bilan o'ralgan. Chor Bakr nomi bilan mashhur bu majmua O'rta Osiyo me'morchiligining eng ajoyib namunalaridan hisoblanib, unda XVI - XVII asr me'morchiligining Buxoro maktabi usullari yaqqol o'z ifodasini topgan. Xazira va dahmalar ancha puxta ishlangan bo'lib, koshinkor devorlar bilan qurshalgan devorlarning har joy-har joyida ichkariga olib kiruvchi mehrobnusxa eshik mavjud, miyonsaroy (dahliz)ning har ikki tomonida hujralar joylashgan.

Chor Bakr va Jo'ybor xojalari Jo'yi muliyon deb atalishining sababi shundaki, Narshaxiyning "Buxoro tarixi" asarida yozilishicha, 680 yilda Muslim ibn Ziyod tomonidan Buxoroning podshohi Bidun Buxorxudot o'ldirilgan vaqtda undan bir yosh o'g'il bola qoladi. Uning ismi Tug'shoda edi. Tug'shodaning onasi Xotun 680 – 695 - yillar mobaynida Buxoroni boshqaradi. Xotunning vafotidan so'ng taxtga Tug'shoda o'tiradi. Arablar istilosidan so'ng, 709 yil Qutayba ibn Muslim Buxoroni fath qilgandan so'ng, Tug'shoda islomni qabul qiladi va hokimiyatni boshqarish unga topshiriladi. Jo'yi muliyon yerlari serhosil yerlar bo'lgan. Ismoil Somoniy (892-907) otasining mavlosi Simo ul-Kabir "Ulug' siymo"ni do'st tutgani va uni yaxshi ko'rgani uchun bu yerlarni abbosiy xalifa Musta'in ibn Mu'tasimning lashkarboshisi Hasan ibn

Muhammad ibn Tolutdan sotib oladi va mavlaviylarga (ozod etilgan qullar) beradi. Nihoyat u yerlar Jo'yi mavoliyon deb ataladi. Xalq orasida esa Jo'yi muliyon deb nom qozondi. Somoniylar podshohligi davrida faoliyat ko'rsatgan Chor Bakrlar Jo'yi muliyon atrofida o'rnashib, shu yerda yashab qolganlari sababli Buxoro xalqi ularni Jo'yboriy xojalar (Xojayi Jo'yboriyon) deb atagan. Jo'ybor - tojikcha "katta oqar ariq" ma'nosini bildiradi.

Abu Bakr Sa'd ulug' shayx, olim, obid bo'lgan. Bu zoti sharif payg'ambar (s.a.v.) avlodidan bo'lib, Somoniylar hukmronligi davrida yashab, Buxoroda "Shayxul islom" rutbasiga ega bo'lgan. Rivoyat qilishlaricha, Hazrat Abu Bakr Xizr (a.s.)ni uchratib qoladilar. Xizr (a.s.) u kishining ilm yo'lidagi g'ayratini sezib, qirq yil cho'lda saboq beradilar. Halol luqma, ta'masiz xizmat, taqvo, ota-onasining duosi tufayli Abu Bakr Sa'd valiy bo'ldi. Hazrat 970 yilda vafot qildilar.

Abu Bakr Fazl (q.s.) buyuk faqih, taqvodor olim, muhaddis bo'lganligi, sababli Buxoro islomga yot bo'lgan turli firqalardan tozalangan. Ul zod "Musnadi Fazl" kitobini yozgan. Afsuski, kitob Chingizxon bosqini davrida yoqib yuborilgan. Tabarruk zot 991 yilda vafot etganlar.

Abu Bakr Homid (q.s.) ulug' shayx, muhaddis olim, o'z zamonasining buyuk tarbiyachisi, minglab odamlarni to'g'ri yo'lga boshlagan. O'sha davr olimlari orasida Qur'on tafsirida tengi yo'q kishi bo'lgan. Nufuzining balandligi sabab ul zotga "Shayxi olam" unvoni berilgan. Ja'fariyzoda Abu Bakr Homid 937 - yilda vafot etganlar, qabrlari mozori Behishtiyonda.

Abu Bakr Tarxon (q.s.) muhaddis, faqih, buyuk avliyo, ulug' tarbiyachi bo'lib, "Jome' ul-Musnad" kitobining muallifidir. "Tuhfat az-zoirin"da yozilishicha, Hazrat dinu diyonat yo'lida buyuk xizmatlar qilganlar va 945 - yilda vafot qilganlar. Jo'ybor xojalari nomi bilan mashhur bo'lgan avliyolar Abu Bakr Sa'dning avlodi bo'ladi. Hazrat Xoja Faxriddin Muhammad Islom (q.s.) 1493 - yilda Buxoroda tug'ilgan. Ulug' avliyo, naqshbandiya tariqatining piri murshidi Xoja Muhammad Islom hazratlari ilk saboqni bobosidan oladi. Tariqat sabog'ini Hazrat Xoja Ahmad Mahdumi A'zam Dahbediydan (1461 - 1542) olgan. Xoja Islomni Hazrat Ali (r.a.)ning ruhlari ham tarbiyat etgan, bu kishi "uvaysiy" hisoblanadi. Shayboniylardan Iskandarxon (1561 -

1583) va uning o'g'li Abdullohxon (1583 - 1598) Xoja Islomni o'z piri murshidlari deb bilgan. Ul zot Husayn Boyqaroning amirlaridan biri Muhammad Tuman mang'it qiziga uylanadi. Birinchi farzandlari o'g'il bo'ladi. Xoja Islom Miyonqolga Iskandarxon huzuriga boradilar va xon o'g'li Abdulloxon dardga chalinganini eshitib, shunday deydilar: "Agar u kishining hayoti xavf ostida bo'lsa, biz o'z farzandimizni u kishiga fido qildik". Oqibatda hazratning farzandlari vafot etadi va Abdulloxon shifo topadi. Oradan bir yil o'tgach, Xudo hazratga yana bir o'g'il ato qiladi. Uning otini Xoja Sa'd (Kalonxoja) deb qo'yadilar. Xoja Islom Abdullohxonni o'z tarbiyasiga olib, umrining oxirigacha unga farzandiday g'amxo'rlik qiladi. Abdullohxonning Xoja Islomga hurmat - e'tibori shu qadar baland ediki, hazrat o'zi uchun man qilgan narsani albatta Abdullohxon uchun ham man qilardi. Buxoro, uning yorqin kelajagi uchun munosib shoh Abdullohxonni tarbiyalab, uni shuhrat egasi, tarixda "Qutli qadam xon" qilib qo'ygan ham Xoja Islom edi. Hazrat Xarbun (Jondor) hududidagi Somonchuq va Tali mahsi degan joylardan katta yer maydoni sotib olib, ariq qazdirib, suv tanqisligiga barham berdi va u yerlarni dehqonlarga bo'lib berdi. Xoja Islom 68 yil barakali umr ko'rdi. Vafot etishidan 12 kun oldin u kishiga ayon bo'ldi. O'g'illari Kalonxojaga janozaxat yozdirib, bobolari Abu Bakr Sa'd qabrlari yoniga dafn etishni vasiyat qilganlar. 1563-yilning 25-oktyabr kuni, juma tongida olamdan o'tdilar. Hazrat vafotida shoh Abdullohxon II uch kun motam libosini kiyib, boshqalarni ham shunga undaydi. "Abdullanoma"ning muallifi Hofiz Tanish Buxoriy janozaga qatnashib, hazratga atab marsiya o'qigan. Xoja Islom o'rniga Xoja Kalonxoja "qoyim maqom" deb e'lon qilinadi.

Xoja Sa'diddin - Kalonxoja Xoja Islomning katta o'g'li, 1531-yilda tug'ilgan. Otasining vafotidan so'ng Abdulloxon saroyida shayx ul-islom lavozimida xizmat qildi. U kishini Nosiriddin Xoja Sa'd ham deyishadi. Uchta o'g'illari - Tojiddin, Hasan, Abdurahim Xoja (Oyposhshaoyim shu kishining qizlari), Abdu Xojalar ham xon dargorida xizmat qilganlar. Otasi Xoja Islomga qaynotasi Muhammad Tuman mang'itning Xuroson yerlaridan katta yer, mol-mulk meros qoladi. Bu merosiy hujjat Husayn Boyqaro, Badiuzzamon, Muzaffar Husayn va Alisher Navoiy muhrlari bilan tasdiqlangan edi. 1588 yilda Xoja Sa'd mazkur hujjatni shoh Abdullaxonga ko'rsatadi.

Shoh hujjatni qayta tasdiqlash uchun farmon chiqaradi. Merosiy mulk daromadidan Xoja Sa’d juda katta xayrli ishlarni amalga oshiradilar. Karvon yo’llari ustida bir nechta sardobalar qurdiradilar, ariqlar qazdirib, suv chiqaradilar. Xoja Sa’d 1589-yilda vafot etadilar, qabrlari Chor Bakrda. U kishidan keyin o’g’illari Tojiddin Hasan “qoyim maqom” bo’ladilar.

Xoja Tojiddin Hasan ibn Xoja Sa’diddin 1574-yilda tug‘ilgan. Otasining ishlarini davom ettiradi. Kenja o’g’illari Abul Abbos Muhammad Tolib o’zining “Matlab ut-tolibin” kitobida otasi haqida juda ko’p ma’lumot beradi. Unda aytilishicha, Tojiddin Hasan tabobat, me’morchilik ilmi bilan ham shug’ullangan. Hazrati Eshon (Tojiddin Hasan)ning sa’y - harakatlari bilan 70 dan ortiq masjid, madrasa, hammom, jumladan, Buxoro shahristonida, masjidi Jome’ning shimol tomonida madrasa, Korxona masjidi, Ko’i Sari xiyobon masjidi, Jo’ybor mahallasidagi xonaqoh, Kalobod masjidi (aslida Gulobod bo’lgan), Jo’yi zar masjidi, Dehnav, Isqara, Shojamin, Zandana, Qorako’l tumanidagi masjid, 12 ta hammom va sardobalar qurildi. Buxoro shahristonida katta “Dorush-shifo” (Shifo uyi) dorixonasini qurdirib, o’zlari dori-darmon tayyorlab, ehtiyojmandlarga bepul tarqatadilar. Tojiddin Hasan 1646 yilda vafot etdilar. Qabrlari Chor Bakrda, ota-bobolari Xoja Abu Bakr Sa’d va Xoja Islom qabrlarining qibla tomonida, peshtoqli mehrobning orqa qismida joylashgan. U kishining Yusuf Xoja, Muhammad Xoja, Toyyib Xoja va Abul Abbos Muhammad Tolib ismli o’g’illari bo’lgan.

Chor Bakrdagi nurafshon obidalar Hazrat Xoja Faxriddin Muhammad Islom - Hazrat Xoja Islom Jo’yboriyning sa’y-harakatlari bilan bunyod etilgan. Chor Bakr me’moriy ansambli Xuroson yo’li yoqasida joylashgan eng muhtasham bino hisoblanib, uni barpo etish g’oyasi Jo’ybor xojalarining yirik vakili Xoja Islomda paydo bo’ladi. Obida qurilishiga sarf etilgan mablag’larning bir qismi Jo’yboriy xojalar xonadoni hissasiga to’g‘ri keladi. Abdullaxon II Buxoro taxtiga o’tirgach, Sumitan mavzeida o’z piri Xoja Islom rejalashtirgan binolarni qurishga kirishadi. Qurilishning bosh me’mori - Xalifa Ne’matulloh bo’lgan. Natijada, 1559 - 1570 yillar mobaynida masjid, madrasa va xonaqohdan iborat me’moriy yodgorlik vujudga keladi. Jo‘yboriy xojalardan Nasriddin Xoja Sa’d (Xojayi Kalon), Xoja Tojiddin Hasan,

Hazrat Abdurahim Xoja, Hazrat Muhammad Xoja va Yusuf Xojalar ota-bobolari izlaridan borib, bunyodkorlik ishlarini davom ettirganlar. Chor Bakr atrofidagi yerlar obod qilinib, ular vaqfga aylantirilgan. Vaqfdan tushgan mablag‘lar hisobidan majmuadagi masjid, madrasa, xonaqoh, dahma va xaziralar ta’mirlangan. Madrasada ilm oladigan talabalar ham vaqf tushumlaridan ta’minlangan. Chor Bakr ziyoratgohi musulmonlarning ilm oladigan, ibodatlarini ado etadigan, xayr-saxovat manzili bo‘lgan.

Sobiq Sho‘rolar boshqaruvi davrida Buxoro shahrining Chor Bakr majmuasi deyarli vayronaga aylandi. Masjid, madrasa, xonaqoh va hujralar xarob qilindi. Hovuzlar, chashma-quduqlar ko’mib tashlanib, bu muqaddas joyni ziyorat qilish tamoman ta’qiqlandi. Masjidda namoz o’qish man etildi. Yurtimiz mustaqillikka erishgandan so’ng, milliy madaniyat va diniy qadriyatlarimiz qayta tiklandi. Istiqlolimizning dastlabki kunlaridan boshlab, hurmatli Yurtboshimizning sa’y-harakatlari bilan o’lkamizdagi barcha tarixiy memoriy yodgorliklar qayta tiklana boshlangani singari, Chor Bakr ziyoratgohida ham obodonlashtirish ishlari boshlab yuborildi. Hoji Rajab To‘xtayev (1945 - 2010) boshchiligidagi yuzlab mahalliy namozxonlarning talablariga binoan, majmua tarkibidagi “Chahor Bakr” masjidida musulmonlar yana ibodatlarini ado eta boshladilar. Hoji Rajab To‘xtayev mustaqillikning dastlabki yillaridan to 1998-yilgacha “Chahor Bakr”masjidi imom xatibi bo‘lib xizmat qildilar. Tarixiy majmua 1999 - 2000 yilda viloyat hokimi S.Q.Husenov rahnamoligida, Buxoro tumani hokimi N.I.Po‘latov va boshqa rahbarlar, shuningdek, tadbirkorlar, saxovatli insonlar, qo‘li gul ustalar tomonidan ta’mirlandi.

2001 yilda viloyat va tuman hokimligining qaroriga asosan Chor Bakr tarixiy me’moriy majmuasi direksiyasi tashkil qilindi (To’xtaev Rajab direktori etib tayinlandi). “Chahor Bakr” jome masjidi 1998-yil 10-avgustda qayta ro’yxatga olinib, u yerda domla hoji Zayniddin Shodiyev 1998 – 2015-yillar mobaynida imom xatib bo’lib xizmat qildilar. Hozirgi kunda domla Azizxo’ja hoji Inoyatov “Chahor Bakr” jome masjidi imom xatibi lavozimida faoliyat yuritib, me’moriy obidani ta’mirlash hamda obodonlashtirish ishlari olib borilmoqda. 2017-yil 31- dekabr kuni majmuaning

kiraverish darvozasidan o’ng tomonda XVI asr Buxoro me’moriy maktabi usuliga asoslangan zamonaviy obyektlar foydalanishga topshirildi.

Milliy qadriyatlarimiz, ma’naviy boy merosimizni tiklash va ularni chuqur o’rganish, uning mazmun mohiyatini hamda ahamiyatini xalqimiz, yurtimizda yetishib chiqqan buyuk muhaddis, faqix, tasavvuf va mufassir allomalar merosini har tomonlama teran o’rganish, yuksak insoniy g’oyalar va muqaddas qadriyatlarimizni o’zida ifoda etgan manbalarni tadqiq etish, ulardan diniy ta’lim, ma’naviy-axloqiy tarbiya ishlarida foydalanish, yoshlar qalbida ular qoldirgan merosga bo’lgan muhabbat va e’zoz tuyg’usini shakllantirish.

Adabiyotlar

1. X asrdan boshlab turli manbalarda Saqmatin (سقمتين), Samtin (سمتين), Samitan (سمتن), Sumitan (سمتن) deb atalgan.

2. Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар Наршахий. Бухоро тарихи. Т., 1993.

Халқ турадиган жойларнинг рўйхати. Самарқанд. Ўзбекистон марказий районлаштириш комиссиясининг нашри, 1926 йил. Кириш сўзи, араб алифбосидан табдил ва айрим изоҳлар муаллифи А.Аҳмедов. Бухоро, 2017.

3. Бендриков К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане (1865 - 1924).–М., 1960.

4. Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар Наршахий. Бухоро тарихи. Т., 1993.

5. Садриддин Салим Бухорий. Бухоронинг табаррук зиёратгоҳлари. Т., 2015.

6. Халқ турадиган жойларнинг рўйхати. Самарқанд. Ўзбекистон марказий районлаштириш комиссиясининг нашри, 1926 йил. Кириш сўзи, араб алифбосидан табдил ва айрим изоҳлар муаллифи А.Аҳмедов. Бухоро, 2017.

7. Абдулкарим ас-Самъоний. Насабнома (ал-Ансоб).(VIII - XII асрда яшаган Ўзбекистонлик олимлар ҳақида маълумот). Т., 2017.

8. Бухоро атрофидаги муқаддас қадамжолар (Қизбиби ва Ҳазратбиби мисолида). The universal significance of scientifik-spitual heritage of Khojagon, Naqshbandi sufi teachings in the context of world cultural civilization. Internasional scientific conferensi. Navoi, 2019.

9. О.И.Ражабов. “Шайх довуд» муқаддас қадамжоси хусусида” “Buxoro islom madaniyatini modernizatsiyalash va turizmni barqaror rivojlantirish istiqbollari” Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman. 2020-yil 24-fevral, Buxoro.
10. O.I.Rajabov. The holy architectural complex Qizbibi in Bukhara. International Journal of History. 2020.
11. О.И.Ражабов. Маҳмуд Торобий қалъаси тарихи. Kazakhstan and the Turkic world. Нур-Султан, 2021.
12. O.I.Rajabov. Medieval Islamik Scientists of Bukhara (Example of Zhondor Distriet). international journal of development and public polici. ispaniya. 2021.
13. O.I.Rajabov. Bukhara Islamik Scolars VIII-XII centuries. international journal of philosophical studies and social sciencec. samakand 2021.
14. О.И.Ражабов. Бухоролик ўрта аср исломшунос олимлар. Паёми донишкада. Халқаро конференция. Панжикент, 2021.

БУХОРОДАГИ АМИР ТЕМУР ВА ТЕМУРИЙЛАР ДАВРИ МЕЪМОРИЙ ЁДГОРЛИКЛАРИ ТАРИХИДАН

Кўчаров Жамшид Қулназарович, *Қашқадарё вилояти тарихи ва маданияти давлат музейи катта илмий ходими*

Соҳибқирон Амир Темур ҳокимият тепасига келгач, бутун Мовароуннаҳр бўйлаб бунёдкорлик ишларини бошлаб юборган. Ўзаро урушлардан вайрон бўлган шаҳарлар тикланиб, кўмилган ариқ ва каналлар қазилган провардида янги ерлар ўзлаштирилган. Бухоро Амир Темур салтанатининг марказий шаҳарларидан бўлиб, шаҳарнинг тикланишига Соҳибқирон алоҳида эътибор берган. Шаҳарда қурилиш, ободончилик ишлари тўхтамаган. Амир Темургача қурилган ва ўзаро урушларда вайрон бўлган иншоотлар Чашмаи Аюб, Мағоки Аттори ва Намозгоҳ каби меъморий обидалар қайта тикланган [1, 17-18]. Тарихий адабиётларда Амир Темур ва темурийлар даврида қайта тикланиб обод қилинган шаҳарлар орасида Бухоро ҳам бир неча бор тилга олинган [2, 80].

Амир Темурнинг дин аҳлига эътибори алоҳида бўлиб, у дин аҳларини эъзозлаган ва уларнинг қабри, зиёратгоҳлари учун вақфлар жорий қилган. Н.Б. Немцова ўзининг олиб борган изланишларида Бухорода мангу ором топган

Шайх Сайфиддин Бохарзий ва унинг мақбарасини қурилиши архитектураси ва қурилишнинг ўзига хосликни таҳлил этиб, мақбарани Амир Темур ва илк темурийлар даврига оид деб хулоса қилади [7, 214]. Олиб борган илмий изланишларида ҳақиқатдан ҳам Сайфиддин Бохарзий мақбараси XIII асрга оидлиги, аммо XIV асрда хароба бўлиб, ҳозирги кўринишини Амир Темур даврига хос деб хулосалаб, айнан Темур даврида икки гумбазли гўрхона ва зиёратхонадан иборат иншоот қурилган деган фикр-мулоҳазаларни келтириб ўтади [7, 94]. Эскирган ва кўримсиз ҳолга келиб қолган XIII асрда қурилган мақбара бузиб ташланган ва қайта қурилиб, ҳозирги кўринишга келганлигига оид маълумотларни Н.Немцова келтириб ўтади[7, 147]. Бундан ташқари Чашмаю Аюб ёдгорлигининг юқори қисмида жойлашган плитадаги араб имлосидаги ёзув бинони Амир Темур қурганлигига оид маълумотларни беради [3, 66]. Ушбу ёзув биз юқорида келтириб ўтган Бухоро шаҳрининг Амир Темур томонидан қайта тикланишига алоҳида эътибор қаратганлигидан яна бир далолат бўлиб ҳисобланади.

Амир Темур даврида Ўрта Осиё меъморчилигида ўзгаришлар содир бўлиб, ғиштга ҳамоҳанг равишда тошдан ҳам фойдаланишга кенг миқёсда аҳамият берила бошланади. Бу Амир Темур томонидан Озарбайжон ва Ҳиндистондан олиб келинган усталар ва улар фаолияти билан маҳаллий усталар фаолияти уйғунлашуви остида вужудга келганлигини Г.А. Пуганчекова Бухорода қурилган Амир Темур ва темурийлар даври тарихий ёдгорликларининг фундамент қисмида тош ётқизилганлигига эътибор қаратиб, ўзининг илмий изланишларида ушбу хулосаларга келган [8, 44].

Бухорода Амир Темур даврида қурилган яна бир кўркам иншоотлардан бири бу Масжиди Калон жомеъ масжидидир. Бу иншоот Амир Темур даврида ўзининг XII асрдаги ўрнида қайта тикланган. Ушбу жамоат биноси мўғуллар истилоси ва ҳукмронлиги йилларида вайрона бўлиб, маълум бир муддат фойдаланилмай ҳам қолган. Амир Темур Бухоро шаҳрини Мовароуннаҳрнинг марказий шаҳарларидан бирига айлантириш мақсадида қайта тиклар экан, шаҳарнинг жомеъ масжидини тиклаш биринчи галдаги вазифа эканлигини

унутмаган. Масжиди Калонда ўтган аср ўрталарида археолог олимлар иккита шурф тушириб ўрганиш орқали бинони Амир Темур даврида қайта тикланганлигига оид маълумотларни аниқлайдилар. Тарихий адабиётларда эса Масжиди Калон XIV аср охирида қайта қурила бошланганлиги ва унинг тўлиқ қуриб битказилиши 1514 йилга тўғри келиши билан боғлиқ фикр-мулоҳазалар келтириб ўтилган [3, 67].

Бухоро шаҳридаги Масжиди Калон меъморий мажмуасини жамоат аҳамиятига эга бўлганлиги ва унинг қурилиши Амир Темур даврига оид эканлиги хусусида можар сайёҳи Х. Вамбери эътиборидан ҳам четда қолмаган. Х. Вамбери хулосаларида Амир Темур даврида қурила бошланган Масжиди Калон Бухоро Шайбонийларидан Абдуллахон II даврида ҳозирги ҳолатга келтирилганлиги билан боғлиқ маълумотлар мавжуд [5, 303].

Амир Темур вафотидан сўнг мамлакат бирлигини қайта тиклаган Шоҳруҳ Мовароуннаҳр салтанатини ўғли Мирзо Улуғбекка берган. Мирзо Улуғбек ҳам давлат бошқаруви, ижтимоий-иқтисодий муносабатларда бобоси Амир Темур тутган йўлдан боришга ҳаракат қилиб, қурилиш ва ободончилик ишларида Амир Темур анъаналарини такрорлашга ҳаракат қилган. Тарихчи А.Ю. Якубовский маълумотларида Мирзо Улуғбекнинг Самарқанд ва Бухорода қурдирган иморатлари тўлиқ равишда Амир Темур даври анъаналарини такрорлаши ва улар ўзларида Шарқ архитектура ёдгорликлари анъаналарини мужассам этиб, юксак бадиий қиймат ва техник мукаммалликни акс эттириши билан боғлиқ фикр-мулоҳазаларни келтириб ўтганлигини кўришимиз мумкин [11, 62-63].

Амир Темур ва темурийлар даври бинокорлигини ўрганган бухоролик таниқли олим И.Мўминов темурийлар даври архитектурасининг бетакрор эканлигини таъкидлаб, XIV - XV аср Мовароуннаҳр архитектураси ўзининг формаси (ҳажми), салобатлилиги, декоратив безакларининг ва орнаментларнинг бойлиги билан характерланади[6, 6], деган фикрларни келтириб ўтган.

Темурийлар даври бўлган XV аср давомида Мовароуннаҳрнинг кўплаб шаҳарларида бўлгани каби Бухорода ҳам жамоат эҳтиёжи учун зарур бўлган ҳашаматли иншоотлар қурилган[2, 83]. Жамоат иншоотларидан бири бу

мадрасалар қурилиши бўлиб, мадрасалар нафақат илм-фан марказлари, балки қатор инфратузилма билан боғлиқ масалаларни ҳам ҳал қилган. Мирзо Улуғбек ўзи бунёд этган мадрасаларнинг биринчисини Бухорода бежизга қурдирмаган. Мақсад шаҳарда илм-фанни ва инфратузилмаларни ривожлантириш кабилар ҳам бўлган деб хулоса қилиш мумкин. 1417 йилга Бухоро ва 1432-1433 йилларда Ғиждувон мадрасалари қурилиши давлат томонидан ташкил этилган инфратузилмаларни шакллантириш тадбирларидан бири бўлиб, шаҳар ва қишлоқларнинг ободонлашишига хизмат қилиши лозим бўлган[1, 24]. Шунингдек, тарихий адабиётларда Бухородаги Мирзо Улуғбек мадрасасининг қурилиш тархини яратган ва уни қуришда фаол иштирок этган меъмор Исмоил ибн Тоҳир Исфаҳоний [4, 24] эканлиги, Улуғбек мадрасаси ўзаро урушларда зиён кўрганлиги ва у 1585 йилда таъмирланганлиги билан боғлиқ маълумотлар ҳам мавжуд [3, 66].

Бухоро шаҳри хусусида илмий тадқиқотлар олиб борган О.И. Сухарева Искандархон гузари (микрорайон) 1263, 1273, 1276 йилларда, шунингдек, Ҳусайн Сўфи ва Тўхтамишхон даврида таланганлиги, бу ҳудудларни Бухоро шаҳрига қалъа девори билан қўшиб олишни Улуғбек номи билан боғлайди. Ушбу ҳудудларда археологик изланишлар олиб борган В.А. Шишкин уз маълумотларини келтириб, бу ҳудудда асосан темурийлар даври сополлари учрашини келтириб ўтганлигини кўриш мумкин [9, 226].

Бухоро бинокорлик қурилиши тарихида Амир Темур ва темурийлар даврида асос солинган анъаналар XVI асрнинг 30-йилларига қадар давом этди. Амир Темур ва дастлабки темурийлар даврида бинолар бой ва кўп меҳнат талаб қиладиган декоратив (безак бериш) анъанаси устунлик қилган бўлса, кейинги даврларда аста-секин темурийлар даври учун хос умумийликдан чекиниб, Бухорога хос анъаналар шакллана бошлаган[10, 97].

Хулоса қилиб айтиш мумкинки, Амир Темур ва темурийлар даврида Бухоро Мовароуннаҳрнинг том маънодаги иккинчи йирик шаҳри мавқеини мустаҳкамлаб олди. Гарчи ободонлаштириш, архитектура иншоотларини қуриш ва уларнинг ҳажм, ўлчамлари Самарқандда шу йўналишда олиб борилган

ишлардан бир қадар ортда қолган бўлса-да, мўғуллар истилоси ва ҳукмронлиги даврида қарийб вайрон бўлган шаҳарнинг тикланиши ва минтақада асосий мавқедаги шаҳарга айланишининг ўзи Амир Темур ва темурийлар даврида Бухорога бўлган эътиборнинг қай даражада эканлигини кўрсатиб беради.

Адабиётлар

1. Абдураҳмонов А. Улуғбек Академияси. - Т.: Қомуслар бош таҳририяти, 1994. – 24 б.
2. Амир Темур жаҳон тарихида. – Т.: Шарқ, 1996. - 293 б.
3. Ашуров Я.С. и др. Бухара. Краткий справочник. Изд. 5-е, испр. и доп. Под общ. ред. Д.Н. Намазова. – Т.: Узбекистан, 1971. – 90 с.
4. Булатов М.С. Зодчий и эпоха//Ўзбекистонда ижтимоий фанлар 1969. № 8-9. – 20-25 с.
5. Вамбери А. Путешествие по Средней Азии. – М.: Издание А.И. Мамонтова 1867. //Туркестанский сборник. Т. 12. – 369 с.
6. Мўминов И.М. Об исторических условиях развития искусства Средней Азии эпохи темуридов//Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 1969. № 8-9. – 3-11 б.
7. Немцева Н.Б. Ханака Сайф-ад-дина Бахарзи в Бухаре (к истории архитектурного комплекса). – Бухара: 2003. – 214 с.
8. Пугаченкова Г.А.К проблеме стиля и школ архитектуры феодального Востока//Ўзбекистонда ижтимоий фанлар. 1963. № 6. – 41-45 с.
9. Сухарева О.А. Квартальная община позднефеодального города Бухары (в связи с историей кварталов). – М.: Наука, 1976. – 353 с.
10. Юсупова М. Эволюция зодчества Бухары XVI - начала XVII века//Ўзбекистонда ижтимоий фанлар 1997. 9-10-11-сонлар. – 97-108 б.
11. Якубовский А.Ю. Самарканд при тимуре и тимуридах. – Ленинград, 1933. – 63 с.

ҚАДИМГИ СУҒД ТАРИХШУНОСЛИГИ ТАДҚИҚОТЛАРДА

Эгамбердиев Фахриддин Панжиевич, *Қашқадарё вилояти тарихи ва маданияти давлат музейи илмий ходими*

Жаҳон замонавий тарихшунослигида Суғддаги давлатлар таркибидаги маданий воҳаларнинг тарихий-географик жойлашуви ва халқаро муносабатларини ўрганишга катта эътибор берилмоқда. Зеро, сўнгги антик даврда Кушонлар давлатининг қулашидан сўнг, Марказий Осиё Араб халифалиги таркибига киргунига қадар Суғддаги давлатлар Эфталийлар давлати ва Турк ҳоқонлиги тасарруфида бўлиб, Сосонийлар давлати, Византия, Хитой империяси каби йирик сиёсий тузилмаларнинг сиёсий, ижтимоий-иқтисодий муносабатларида муҳим ўрин эгаллаб келган. Шу сабабли, Суғднинг маъмурий-худудий бирликларининг ҳудуди, тарихий географияси, маданий алоқаларини тадқиқ этиш Марказий Осиё ҳалқларининг илк ўрта асрлардаги ижтимоий-иқтисодий ва маданий тарихига оид масалаларини ёритиш муҳим илмий аҳамият касб этади.

Ўзбекистон мустақиллиги йилларида халқимизнинг кўп асрлик бой моддий ва маданий меросини асраш, тадқиқотларни тубдан яхшилаш, илмий изланишлар усулларини такомиллаштириш, тарих фанининг замонавий тадқиқот услубларини манбашунослик ва тарихшунослик изланишларига кенг жорий қилиш борасида кўплаб амалий ишлар бажарилди.

Мустақиллик йилларида мамлакатимиз ҳудудида рўй берган тарихий жараёнларни холисона ўрганишга ҳукумат томонидан берилган катта эътибор туфайли манбашунослик соҳаларидаги тадқиқотлар янги босқичга кўтарилди. Қарийб бир ярим аср давомида бирламчи манбалар устида амалга оширилган тадқиқот ва яратилган асарларга янгича илмий ёндашув, уларни таҳлил этиш, тарих фанининг бошқа соҳаларида эришилган ютуқлар натижасида қўлга киритилган янги маълумотлар билан қиёсий солиштириш ва қайта тўлдириш асосида мамлакатимизда манбашунослик соҳасида алоҳида илмий мактаблар ривожланди.

Суғдлар ҳақида зардуштийларнинг муқаддас китоби “Авесто”да ҳам тилга олинади. Шунингдек, Суғд (Суғдиёна) билан боғлиқ маълумотлар турли даврларга оид суғдий, хитой, қадимги туркий, форс, араб, арман ва юнон халқларининг тарихий ёдгорликларида ҳам кўплаб учрайди. Булар асосан, эпиграфик ва ёзма манбалар бўлиб, қарийб уч минг йиллик тарихни ўз ичига қамраб олади. Кеш воҳасида илк ўрта асрлар даври қишлоқлари шаклланишининг янги босқичини тадқиқ этишда бу каби манбаларнинг алоҳида ўрни бор.

Унинг бой тарихий- маданий мероси XIX асрнинг иккинчи ярми – XX асрнинг бошларига қадар изчил тадқиқотлардан четда қолиб келди. Марказий Осиё халқлари тарихига бағишланган умумлаштирувчи тарихий нашрларда XX асрнинг қарийб 30 50-йилларигача эрамизнинг дастлабки асрлари, айниқса, араб истилосигача бўлган даври ҳақидаги маълумотлар ниҳоятда оз ва узуқ-юлуқ бўлган. Бунга сабаб ўтмишнинг шу муҳим босқичлари бўйича ёзма манбалар мукаммал ўрганиб чиқилмагани, қолаверса, мазкур ҳудуднинг ўзидан қадимиятга, хусусан, араб истилосига қадар даврига оид ёзма ёдгорликлар жуда кам топилганлигидир. Бундан ташқари, кўрилаётган даврда археологик тадқиқотлар ҳам кенг кўламда ривожланмаган эди. Шунга қарамасдан, XIX асрнинг иккинчи ярмидан эътиборан фан тасарруфидаги манбаларни умумлаштириш асосида бир қатор тадқиқотлар юзага келди.

Суғд тарихига бўлган қизиқиш туфайли хорижлик мутахассислар томонидан ҳам манбашунослик борасида муҳим тадқиқотлар амалга оширилмоқда.

Марказий Осиёнинг қадимий тарихий-маданий ўлкаларидан бири бўлган Суғд (Суғдиёна) ўлкаси минтақанинг ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва маданий тараққиётида муҳим ўрин тутган.

XX асрнинг 50 60-йилларида Суғд тарихига доир манбашунослик соҳаларида ҳам муҳим тадқиқотлар амалга оширилди. Жумладан, илк ўрта асрлар даври Суғд тарихига доир муҳим манба ҳисобланган, IXX асрларда битилган араб географлари асарлари, хусусан, Ибн Ҳавқалнинг “Масофалар ва

мамлакатлар” асарининг Ўрта Осиё ҳақидаги қисмлари рус тилига таржима қилинди [1].

Айнан ушбу даврда Шарқий Туркистон ва Еттисув ҳамда Мўғулистон ҳудудларида аниқланган кўҳна турк-руний манбалар ҳам тадқиқ этилиб, илмий муомалага киритилди [2].

Турк-руний ёзма манбаларнинг тадқиқ этилиши Ўрта Осиё тарихи ҳамда Шарқий Туркистондаги Суғд савдо марказлари – колониялари ҳақида қўшимча маълумотлар олиш имконини берди. Шунингдек, Хитой йилномаларидаги маълумотлар асосида Н.Я.Бичуриннинг асари тўлдирилган ҳолда уч жилдда нашр этилди [3].

1967 йилда мавжуд хитой ҳамда бошқа манбаларни тадқиқ этиш асосида Л.Гумилевнинг Турк хоқонлик тарихи ҳамда хоқонликнинг халқаро сиёсий ва иқтисодий алоқаларига бағишланган тадқиқоти вужудга келди [4]. Тадқиқотчи ўз асарида Туркий хоқонлигининг халқаро алоқалари доирасида Кешнинг савдо-сотиқ жараёнлардаги ҳамда хоқонлик бошқарувида, шунингдек, савдо-транзит алоқалар ривожидаги ўрни хусусида тўхталиб ўтади.

XX асрнинг 70 80-йилларида манбашунослик соҳаларидаги тадқиқотлар изчил давом эттирилди. Хусусан, Ўрта Осиёнинг V VII асрлар тарихига доир арман ҳамда турк-руний манбалари тадқиқ этилди. Турк-руний манбаларнинг тадқиқ этилиши Турк хоқонлиги ҳукмронлиги даврида суғдийларнинг хоқонлик иқтисодий ҳаётидаги мавқеи борасида қўшимча маълумотлар олиш имконини беради [5].

Мазкур даврда суғдшуносликда ҳам бир қатор тадқиқотлар амалга оширилди [6]. Жумладан, суғдшуносликнинг қарийб 75 йиллик натижалари асосида умумлаштирувчи асар нашр юзини кўрди [7]. Ушбу натижалар асарнинг иккинчи жилдида, библиографик илова сифатида акс этди [8]. Қолаверса, М.М.Исҳоқов ўзининг Муғ тоғи ҳужжатлари ҳамда суғдча битиклар устидаги тадқиқотларида ҳам муайян хулосалар ва маълумотларни келтириб ўтди [9].

Шунингдек, бу даврда Хитой йилномаларидаги тарихий-географик маълумотларга доир тадқиқотлар ҳам давом эттирилиб, муҳим хулосалар

чиқарилди [10]. Жумладан, истиқлолнинг дастлабки йилларидаёқ Суғд битикларини тугал ўрганиш асосида М.М.Исҳоқовнинг тадқиқоти юзага келди [11]. Шунингдек, Муғ тоғи ҳужжатларини тадқиқ ва таҳлил этиш асосида тадқиқотчи ҳамда унинг шогирдлари – А.Отахўжаев, Ш.Шоёқубов, Б.Бобоқулова томонидан мавзуга доир самарали ишлар амалга оширилди [12].

Сўнгги йилларда Суғдиёнанинг тарихий-географиясига оид айрим араб манбалари ҳам тадқиқ этилди [13]. Шунингдек, хитойшунос А.Хўжаев изланишлари туфайли энг сўнгги тадқиқотларни ўзида акс эттирган, Хитой тилида чоп этилган суғдийларнинг савдо-сотиқ жараёнларидаги иштироки ҳамда Марказий Осиё тарихида тутган мавқелари ва Хитойдаги суғдийлар ҳаёти борасидаги муҳим тадқиқотлар нашр этилмоқда [14]. Қолаверса, Марказий Осиёнинг бир қатор ҳудудларида аниқланган турк-руний ёзувлари устида ҳам маҳаллий, ҳам хорижий тадқиқотчилар томонидан изчил тадқиқотлар давом эттирилмоқда.

Хулоса қилиб айтганда, XIX асрнинг ўрталаридан бошлаб ўтмишнинг турли жабҳаларини ёритишда муҳим аҳамиятга эга бўлган манбалар устида амалга оширилган тадқиқотлар Кеш воҳасида ўрнашган чорвадор қабилалар ҳаётида ўтроқ турмуш тарзининг қарор топиши ҳамда янги қишлоқ маконларининг шаклланишига доир муайян маълумотлар олиш имконини берди.

Адабиётлар

1. Бетгер Е.Г. Извлечение из книги “Путы истраны” Абу-л-Касыма Ибн Хаукаля//Труды САГУ. - Т.,1957. Вып. CXI. – С. 13-46.

2. Малов С.Е. Памятники древнетюркской письменности. Тексты и исследования. - Москва-Ленинград: АН СССР,1951. – 451 с.

3. Бичурин Н.Я (Иакинф). Собрание сведений о народах, обитавщих в Средней Азии в древние времена. –Москва-Ленинград: АН СССР,1950. Часть I. -382 с.; -1950.Часть II.-335 с.; -1953.Часть III. -137 с.

4. Shafer E. The golden peaches of Samarkand. A studies of Thang Exotics.Bearcle-LosAngeles,1963.; Шефер Э. Золотые персики Самарканда. Книга о чужоземных диковинах империи Тан.-М.,1981.

5. Гумилев Л. Древние тюрки. - М.: Наука,1967. -502 с.; Гумилев Л.Н. Қадимги турклар / Б.Ўрдабекли ва А.Айритомий таржимаси. - Тошкент: Фан,2007. -500 б.
6. Тер-Мкртичян Л.Х. Армянские источники о Средней Азии V VII вв.-М.: Наука,1979.-97 с.
7. Лившиц В.А. Новые находки согдийских письменных памятников / Сборник. - М.: Наука,1986. -320 с.
8. Основы иранского языкознания. Среднеиранские языки. - М.: Наука,1981. - 583 с.
9. Исҳоқов М.М. Суғдиёна тарих чорраҳасида. - Тошкент: Фан,1990. - 34 б.; Ўша муаллиф. Суғд ёзувининг шаклланиши ва тараққиёти масалалари // Ўлмас обидалар. - Т.,1989. - Б. 4-41.; Ўша муаллиф. Некоторые вопросы палеографического изучения согдийских письменных памятников// Адабий мерос. - Тошкент,1987. №1. – С. 26-31.
10. Малявкин А.Г. Танские хроники о государствах Центральной Азии.-Новосибирск,1989.-367 с.
11. Основы иранского языкознания... С.362.
12. Исхаков М.М. Палеографическое исследование согдийских письменных памятников: Дисс…соиск.докт.ист. наук.Тошкент,1992
13. Исҳоқов М.М. Унутилган подшоликдан хатлар. Тошкент,1992. - 60 б. ва бошқ.
14. Отахўжаев А. Суғд қурол-аслаҳаси ва чокарлари ҳақида манбалар // Ўзбекистон Республикаси Қуролли кучларининг тарихи, бугуни, келажаги: Илмий-амалий анж.мат. - Тошкент, 2005. Б. 25 28.

MARKAZIY OSIYODAGI ETNIK NIZOLARNING IJTIMOIY MUNOSABATLARGA TA’SIRI

Mo‘minova Muqaddas Ibodullayevna,
Qarshi shahridagi 34-maktab o‘qituvchisi

Globallashgan davrda davlat xavfsizligi oldidagi muammolarni bartaraf etish choralari xalq va davlat munosabatlarini o‘zaro yakdil, tinimsiz mehnati, ishlab

chiqilgan ichki va tashqi strategik konsepsiyalarining nechog‘lik ijtimoiy hayot bilan bog‘langani, millatning o‘zligini anglagan holda zamonga hamohang intilishi asosida kechadi. Shu sababli ham Markaziy Osiyo mintaqasida etnik nizolarni oldini olish muammosi dolzarb ahamiyat kasb etmoqda. Buning uchun avvalo, mintaqada etnik nizolarni shakllanishining tarixiy zaminlarini o‘rganish, uning oldini olishning konseptual asoslarini takomillashtirish hamda ilmiy jihatdan tahlil qilishni kun tartibiga qo‘ymoqda.

Markaziy Osiyodagi mintaqa davlatlarining barchasi polietnik guruh tipidpgi mamlakatlardir. Masalan, O‘zbekistonda 130 dan, Qozog‘istonda 130 dan, Tojikistonda 80 dan, Turkmanistonda 60 dan, Qirg‘izistonda 100 dan ortiq millat va elatlar yashaydi. Sobiq Ittifoq tuzimidan qolgan o‘ta xavfli nizolarni keltirib chiqaruvchi va bugungi kunda ham keng ko‘lamli ta’sir doirasiga ega bo‘lgan etnik guruhlar va millatlar o‘rtasida mintaqaviy xavfsizlik tushunchasini shakllantiruvchi omillardan biri ekanligi o‘z isbotini topgan. Chor Rossiyasi ham undan keyin tashkil topgan Ittifoq siyosatida ham o‘z e’tiqodiga, xalqiga sadoqatli bo‘lgan shaxslarni millatchilikda ayblab qatog‘on qilgan edi. Mintaqaning milliy xususiyatlarini yo‘qotib, majburiy baynalminallashtirish va ko‘p millatli birlikni shakllantirishga intildi. Sun’iy ravishda xalqlar va millatlarni yaqinlashtirishga qaratilgan siyosat yashirin “millatchilik” g‘oyalarini kuchayishiga zamin yaratdi. Stalin tomonidan amalga oshirilgan ko‘chirish siyosatida ham mustamlaka respublikalarni doimiy boshqarishga qaratilgan reja mujassamlashgani sir emas. Aynan mayda millatlarni mahalliy xalq orasida shakllantirib ularga juda katta imkoniyatlar (yaxshi yashash joylari, normal ish o‘rinlari, mahalliy aholini nazorat qilish va Markazga ma’lumot barishga undash va h.klar)ni berish orqali o‘zaro tiyib turish jarayonlariga e’tibor qaratildi. Bu holat boshqaruvda yengillikni keltirsa-da, keyinchalik milliy etnik nizolar va mahalliychilikni kuchaytirib yubordi. 1920-1930 yillardagi sanoatlashtirish, xalqlarni deportatsiya qilish va majburiy ko‘chirish, urbanizatsiya jarayonlarining faollashuvi va boshqa omillar ta’sir ko‘rsatdi. 1980 yillarning oxirlarida milliy etnik nizolar sobiq Ittifoqda shu jumladan Markaziy Osiyoda ham keng qamrovli tus oldi. Natijada 1989 yilda Farg‘ona viloyatining Quvasoy, Marg‘ilon va Qo‘qon shaharlarida, Toshkent

viloyatining Parkent va Bo‘ka tumanlarida, Namangan viloyati, Qirg‘izistonning O‘sh, Tojikistonning tog‘li Badaxshon viloyatlarida bir-biriga bog‘liq bo‘lgan etnik nizolarni keltirib chiqardi. Bularning hammasi mintaqaning mustaqil davlatlariga meros bo‘lib qoldi.

Mustaqillikni ilk yillarida Tojikistonda etnik nizolar fuqarolik urushini keltirib chiqardi. Buning ta’siri butun Markaziy Osiyo mintaqasini keng qamrab ola boshladi. O‘zbekiston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Qozog‘iston davlatlarida ham bu jarayonlarning ziddiyatli tus olishi kuzatildi. Natijada mintaqa davlatlari integratsion jarayonlarida muammoli vaziyatlarni keltirib chiqardi. Mintaqaning barcha davlatlarida ochiqcha qarama-qarshilik yuzaga kelmasada, etnik nizolar pishib yetilgan edi. 2010 yilda Qirg‘izistonda ro‘y bergan etnik nizolarni xavfli tus olishida ham mana shu ziddiyatlarning natijasi deb qarash mumkin.

Markaziy Osiyoda ro‘y berishi mumkin bo‘lgan etnik nizolar haqida siyosiy tahlilchilar guruhi fikrlarida – mintaqa keng miqiyosli ixtiloflardan holi hudud, lekin chegaraviy nizolar va etnik ziddiyatlar unga begona emasligini – ta’kidlaydilar. Jorj Vashington universitetida tadqiqot olib borayotgan Qirg‘izistonlik Diana Mamatovaning xulosasiga ko‘ra – ixtiloflar so‘ngi yillarda odatiy xolga aylangan, 2010-2013 yillar orasida tojik-qirg‘iz chegarasida 60 dan ortiq, qirg‘iz-o‘zbek chegarasida ularning soni 100 dan - oshganligini ta’kidlaydi. Tadqiqotchi nizolarni keltirib chiqarayotgan omillarni: - mintaqada chegaralarni aniq belgilanmaganligi bois xavfsizlik kuchaytirilganligi; suv va yer resurslari ustidan kurashning avj olishi; tobora avj olayotgan millatchilikni [2] – asosiy sabab qilib ko‘rsatadi.

Bo‘hronlarni o‘rganish xalqaro guruhining Markaziy Osiyo dasturi rahbari Pol Kvin Jaj mintaqada etnik nizolar omili anchaligini, bunga sabab sifatida Qirg‘izistonning O‘sh viloyatidagi voqealarni misol tariqasida keltiradi. U O‘zbekistonning Tojikiston, Tojikistonning Qirg‘iziston, Afg‘oniston hattoki Qozog‘iston chegaralarida ham etnik nizolar chiqib turganligini ta’kidlaydi. Pol Kvin Jaj nizolarni avj olishini –mintaqada mavjud muammolarni to‘g‘ri va real hal qila oladigan liderlar o‘rtasidagi o‘zaro kelishmovchilik [2] – natijasi sifatida qaraydi. Xalqaro masalalar bo‘yicha mustaqil tahlilchi Rashid G‘ani Abdullo Markaziy

Osiyoda nizolar etnik ozchilikni tashkil qiladigan millat vakillari manfaatlarining inobodga olinmasligini sabab sifatida ko‘rsatadi. U – bunday davlatlarda yashayotgan milliy ozchilik vakillari manfaatlari albatta etiborga olinishi shart. Ko‘p hollarda buning aksi kuzatiladi. Etnik ozchilik vakillarining son jihatini e’tiborga olgan holda, ularning davlat boshqaruvi tizimida ishtirokini ta’minlash lozim – degan xulosasini keltirgan. Tojikistonlik tahlilchi Farrux Umarov mintaqada ro‘y berayotgan etnik nizolarni – chegaralarda delemitatsiya va demarkatsiya ishlarining paysalga solinayotganligini asosiy sabab qilib ko‘rsatadi. Buning oqilona hal qilinishiga to‘siq bo‘layotgan – to‘rtta omil: **birinchidan,** chegaradagi tarixiy yerlarning noto‘g‘ri taqsimlanayotganligi; **ikkinchidan** mintaqadagi tabiiy boyliklar mavjud hududlarning ayrim davlatlar geosiyosiy manfaatlaridan kelib chiqqan holda taqsimlanishi; **uchinchidan,** odamlar milliy o‘zlikni anglashning kuchayatganligi; **to‘rtinchidan ,**mintaqadan manfaatdor tashqi kuchlarning vaziyatdan foydalanishga urinishi [2] – asoslariga bog‘likligida degan xulosaga keladi.

Umuman yuqoridagi omillarni tahlil qilgan holda Markaziy Osiyoning bir xalqini boshqasiga qarama-qarshi qo‘yish, milliy ustunlik mavjudligi to‘g‘risidagi afsonalarni tarqatish yo‘lidagi har qanday urinishlarning oldini olish lozim. Aynan Markaziy Osiyo davlatlari faoliyati nazoratidan manfaatdor geosiyosiy kuchlar tomonidan amalga oshirilayotgan turli xil xurujlar asosida milliy etnik nizolarni chiqarish XXI asrda ham keskin avj olishi davom etmoqda. Bu hol nimalarga olib kelishi mumkinligini dunyo miqiyosidagi fojiali voqealar ko‘rsatib turibdi. Afsuski, mintaqa xalqlari ham bu sohada achchiq tajribaga ega.

Mintaqa davlatlarida amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy islohotlarning mazmuni va sur’atlaridagi ayrim farqlar ham millatlar va elatlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligi o‘z-o‘zidan ayon. Bu esa, etnik siyosatni puxta o‘ylab amalga oshirishni talab qiladi. Shunisi quvonalarliki, mintaqadagi hamma davlatlar millatidan qat’i nazar, fuqarolarning huquqlarini ta’minlash hamda bu mamlakatlarda yashayotgan xalqlarning milliy madaniyatini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratib berish yuzasidan o‘zaro majburiyatlar olgan [1;78-79].

Markaziy Osiyoda milliy etnik nizolarni oldini olishga qaratilgan 2017-2021 yillarga mo'ljallangan O'zbekistonni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "Harakatlar strategiyasi"ning beshinchi yo'nalishida ilgari surilgan ilmiy-amaliy dasturlar mintaqada yakdil taraqqiyotni amalga oshirishning yangi bosqichini boshlab berdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev tashabbusi bilan 2017-2021 yillar davomida mintaqa mamlakatlari bilan yaqin qo'shnichilik va o'zaro hamkorlik tizimini rivojlantirish borasida keng qamrovli faoliyat olib bordi va hozirda ham izchil davom ettirilmoqda. Uzoq tanaffusdan keyin O'zbekiston-Tojikiston, O'zbekiston-Qirg'iziston, Tojikiston-Qirg'iziston munosabatlarida iliqlik siyosati faollashmoqda. 2022 yilga kelib O'zbekiston-Qirg'iziston chegarasida kuniga 20 mingga yaqin, Tojikiston-O'zbekiston chegarasida 40 mingga yaqin kishi o'tib qaytmoqda. Prezident Shavkat Mirziyoyevning "Markaziy Osiyo raxbarlari Maslahat kengashi"ni tashkil etish haqidagi taklifi Qozog'iston Respublikasi Prezidenti Nursulton Nazarboyev tomonidan maqullandi va 2018 yil 15-martda birinchi yig'ilishida Qozog'iston davlati mezmonlik qildi. Qozog'iston Respublikasi Prezidentlik saroyida Qozog'istonning birinchi Prezidenti Nursulton Nazarboyev, Qirg'iziston Respublikasining sobiq Prezidenti Sooronbay Jeyenbekov, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev, Tojikiston Respublikasi Prezidenti Imomali Rahmon va Turkmaniston Majlisi rahbari Akja Nurdiberdiyeva ishtirok etdi. Ilk majlis uchrashuvida Markaziy Osiyoda kechayotgan muammoli vaziyatlarni bartaraf etishda, o'zaro integratsiyani rivojlanishida, madaniy va xalqlar o'rtasidagi o'zaro hurmat, do'stlik, birodorlik munosabatlarini saqlab qolish va mustahkamlash haqida qaror qabul qilindi. 2019 yil mart oyida ikkinchi yig'ilish O'zbekiston poytaxti Toshkent shahrida o'tkazildi. Ushbu Kengashda mintaqa rahbarlari uchrashuviga doir har qanday tashabbus amalga oshadigan bo'lsa, bu mintaqa hamkorligi va xalqlar o'rtasidagi birdamlikni mustahkamlanishiga xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. Karimov I. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. T.: "O'zbekiston" 1997. -B.78-79.

2. http://www.ozodlik.org/content/article/24108742.html.

NAZAR ESHONQUL QISSACHILIGIDA YANGICHA TASVIR VA BAYON USULI

Mirzayeva S.,
QarDU PI o'qituvchisi

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.Mirziyoyev bugungi kunda adabiyotning jamiyat taraqqiyotida tutgan o'rni hamda yozuvchining asosiy vazifasi haqida to'xtalar ekan shunday ta'kidlaydi: *"Adabiyot hayotimizning asosiy jihatlari – go'zallik, yaxshilik, olijanoblik kabi xislatlarni tarannum etsa-da, musbatga qarshi, uning yo'liga g'ov bo'lgan barcha manfiyliklarga qarshi kurashni ham o'z oldidagi vazifa sifatida belgilaydi. Adabiyot xalqning yuragi, elning ma'naviyat ko'zgusi.Bugungi murakkab zamonda odamlar qalbiga yo'l topish,ularni ezgu maqsadlarga ilhomlantirishda adabiyotning ta'sirchan kuchidan foydalanish kerak"*[1]. Inson tafakkurining yangilanishida, uning ongiga ma'lum bir g'oyani singdirishda hech qaysi soha adabiyotchalik imkoniyatga ega emas. Shu nuqtayi nazardan qaraganda, yangi XXI asr inson tafakkuri taraqqiyotiga, uning tez o'sishi va yangilanishiga jiddiy ta'sir ko'rsatdi. Chunki adabiyot badiiy so'z va obrazlar vositasida omma ruhiyatida tubdan o'zgarish yasaydi. Buning uchun ijod ahli erkin nafas olish, xohlagan mavzusida qalam tebratish, istagan muammosini ko'tarish va, albatta, ko'ngliga ma'qul keladigan qahramon timsoli orqali tasvirlash huquqiga ega bo'lishi kerak.

Badiiy adabiyotdagi ijodiy izlanishlar an'anaviy obrazlarning mohiyatini vaqt o'tishi bilan o'zgarishini ham ko'rsatadi. Qora rang tun faqatgina yovuzlik yoki jaholat ranglarigina emas, balki ezgulikni qadrlash inson hayotidagi oydin kunlarni e'zozlash ma'nolarida ham kelishi mumkin. Nazar Eshonqul uslubida rang bilan bog'liq ramzlar muhim rol o'ynaydi. Qora rang yozuvchi asarlarining sarlavhalariga ham chiqqan: "Zulmat saltanatiga sayohat", "Qora kitob" , "Tun panjaralari". Qora rang, tun bilan bog'liq metaforalar bu asarlarda yetakchilik qiladi. Shu ma'noda N. Eshonqulning "Tun panjaralari" qissasidagi tun tasvirlarida ramziy majoziy ma'nolari bo'rtib turadi. Qissa qahramoni tun qo'ynidan yorug'lik izlaydi.

Qissago'y – roviy ma'rifatli odam. U ilmiy tadqiqot yozayotgan kishi jurnalda ishlayotgan ziyoli kimsa. Shuning uchun o'zbek adabiyoti, jahon adabiyoti va tarixi bilan ham yaxshi tanish. Roviy dunyo san'atidagi qora ranglar bilan manzaralar

chizadigan san’atkorlarni ham yaxshi biladi. ”Tun panjaralari” qissasining bir sahifasida faqat tun manzaralarini chizgan holland musavviri Gerard Gontarast nomini keltirib o’tadi: *”Qish va bahor paytlari Gerard Gontarastning rasmlariga o’xshab sirli va bir oz qo’rqinchli tuyuladi. Tun qa’riga tikilib qarasang qip-qizil, yog’du oqib yotganday bo’ladi. Biroq Gerard Gontrast tunda mash’alani ko’rgan. Mash’alani ko’rgan kishi ertasi nima bo’lishini tasavvur qila oladi*”. Asar qahramoni tun bag’ridagi yorug’likni anglaydi. Ammo tun panjaralariga qarab turgan qahramon tabiatida muvozanatdan chiqqan holatlar hukmronlik qiladi. Qahramon ma’lum bir fikr atrofida o’ralashib qolmaydi. U o’z xayolida, botinida kechayotgan ruhiy ahvoldan hikoya qiladi. Shuning uchun qissa uslubiy-kompozitsion jihatdan tarqoqdek taassurot beradi. Ammo ong oqimi qahramonning ong ostida kechayotgan psixologik asarga butunlik bag’ishlaydi. Qahramonning o’tmishida xayolining bir burchagida qolib ketgan Robiya ismli bir muhabbat bor. Robiya- qahramonning bolalik xotiralarini qayta tiklash vositasi. Hosila esa uning hayotida topgan yana bir muhabbati. Bu obraz qahramonning ayni paytdagi hayotini maromga solib turadi.

Qissaga Alisher Navoiyning *”Boshimg’a ko’rki ne tun kelturubsen...”* misralari epigraf qilib olingan. Bu bir jihatdan asarning birinchi muhabbat fojiasi ekaniga dalolat qiladi. Hayot so’qmoqlari aro adasha-adasha ma’lum bir manzilga kelgan qahramon ortiga nigoh tashlaydi. Anglaydiki u yetib kelgan manzilga qadar ortidagi yagona chiroq yoritib turibdi. Bu o’sha birinchi muhabbat atalgan chiroq. Qahramon kayfiyati o’y-fikrlari hatto ifoda ohanglari tragik pafos ham aynan mana shundan kelib chiqadi. Qahramonning ortga qarab yagona haqiqatni anglashi uning fikrchan, ulug’vor insonligidan dalolat beradi. Lekin bosib o’tilgan yo’lni, vaqtni orqaga qaytarish mumkin emas. Fojia shunda. Asardagi tun va u bilan bog’liq tasvirlarni kuzatar ekanmiz beixtiyor savol tug’iladi: nega ijodkor tunga murojaat qilyapti. Bizningcha bu o’rinda savolga javob topish uchun tun bilan bog’liq ramzlarga e’tibor qaratish lozim.

“Tun gulzori bir-bir ochila boshladi. Aftidan tun o’zining ulug’vorligi va go’zalligini bilsa kerak- men mana shu oqshomlari kimnidir intiq bo’lib kutaman.

Tun shohona libosda asta-sekin hamma narsani o’z izmiga bo’ysintirmoqda.

Tun xushbo'y siyohrang atirgulga o'xshaydi. Bu gulni kim uzib ko'k qo'yniga qo'yib ketdi ekan, men bilmayman".

Tasvirdagi tun tasviri *"tunning ulug'vorligiyu go'zallligi*" haqidagi*, "tun gulzori bir-bir ochila boshladi*" kabi tasvirlarning ma'nolarini anglash uchun chuqur tasavvur va mushohadaga berilmay turib yozuvchining niyatini ramzlar ortidagi ma'noni anglash qiyin. Yozuvchining o'zi aytgandek: *"Tunning kun kabi, kunning tun kabi cheksizligi bu jarayondagi evrilishlarning bepoyonligi va adabiyligini ko'rsatadi".* Inson hamisha yorug' xayollar olamida yashasa sekin-asta nurning mohiyatini unuta boradi. Unutish xotiraning yo'qolishi insonni turli ko'rgiliklarga olib keladi. Shuning uchun ham dunyo adabiyotida tan olingan daholar yovuzlik orqali ezgulikni, zulmatdan yorug'likni, nafratdan shafqatni, chirkindilardan tiriklikni, ufunatdan iforni yoritishga harakat qiladi. Bir qarashda *"Tun gulzori ham bir-bir ochila boshladi",* - degan gapning qo'llanishi o'rinsizday tuyuladi. Chunki gulzor emas, gul ochiladi, odatda. Lekin dastlab qorong'ulikka qarasangiz, ko'zingiz hech narsani ko'rmaydi. Ozgina diqqat bilan tikilsangiz sekin asta tun qo'ynidagi narsalar ko'rina boshlaydi va ana shu narsalar bir-bir ochila boshlayotgan tun gulzoriga o'xshatadi. Aslida ham ochlikdan keyin to'qlikning hijron azobidan keyin muhabbatning qarilikda yoshlikning qadri oshganidek zimistonda ko'rina boshlagan narsaning ham zavqi gulzorda ochila boshlagan gullarni esga soladi. Samoda chaqnagan yulduzlar ham birdaniga emas asta-sekinlik bilan ya'ni bir-bir ochila boshlaydiki bu ham *"Tun gulzorlari asta-sekin, ochila boshlaydi",* - degan tasvirga monandir.

"Tun romga ko'kraklarni qo'yib qora kiygan kampirdek menga sinovchan tikilib o'tiribdi. Faqat tungina bepoyon va mangudir",- deydi qissago'y. Haqiqatan tunda osmonga razm solib qarasangiz "Samon yo'li" yulduzlari odamga yo'l ko'rsatuvchi ona siymosini esga soladi. Hayot taridan bezigan, o'ziga yo'l qidirayotgan insonning xayollari "Samo yo'li" yulduzlariga najotkor tikilishi natijasida paydo bo'lgan tasavvur boshqacha bo'lishi mumkin emas-da.

"Tun panjaralari"qissasi voqelik asosiga qurilgan syujetga ega emas. Ammo qissa qahramon tabiatidagi o'zgaruvchanlik, o'ychanlik falsafiy mushohadakorlik syujet

chizig'ini ta'minlaydi. Asar qahramoni "xilvat odam"dir. Xilvatda turib fikrlayotgan o'z dunyosiga nazar solayotgan odam. Mana uning e'tirofi: *"Yo'q, men to'satdan shunday hamma narsadan sovigan xilvat odamga aylanganim yo'q. Men o'zimni tushunadigan birorta do'st izlab turli davralarga suqilib kirishga harakat qildim. Lekin hamisha qandaydir shafqat kuch meni ular orasidan surib tashlayveradi".* Ana shu xilvatdagi odam hayotining mazmuni baxt va baxtsizlik to'g'risida fikr yuritmoqda. Ma'lumki fikr hamma vaqt ham bir tekis silliq va bir chiziq asosiga qurilmasligi turli to'siqlarga chalg'ishlarga, chekinishlarga uchrashi mumkin. Qissaga ana shunday noan'anaviy uslubiy tajriba tanlangan

Qissa qahramon: *"Men hozir baxt ba baxtsizlik haqida gapirmoqchiman. Odam hayotda o'z o'rnini bilishi uchun bu savollarga javob topishi zarur deb bilaman",* - degan iqrorini aytadi. Ammo asar mavzusi bu bilangina chegaralanib qolmaydi. Bu tomonlarga "chalg'idi". Bu asardagi o'ziga xos jihat shuki qahramon sirlarini tunga aytadi*: "Tun mening xilvat boshpanam. Balki yolg'iz manzilim ham shu yerdir. Men faqat tun qo'ynidagina mana shu kichkina qorong'u burchagimdagina o'zimni erkin his etaman, ko'nglimdagi o'ylarni sirlarni unga aytaman".* Qissaning mana shunday dil rozi, qalb tubidagi ziddiyatlarga to'la voqeliklar tahlili vaqt o'tgan sari kengayib boradi. O'quvchini ham tafakkur yuritishga ijodkor tasavvurini anglashga undaydi.

Istiqlol adabiyoti inson hayotidagi turfa xil iztiroblarni, ziddiyatlarni, inson tafakkuridagi o'zgarishlarni haqli ravishda tasvirlash an'anasini yuzaga chiqardi. Fikr va ruhning yangilanishi estetik qarashlarning ham bugungi kun nuqtayi nazaridan o'zgarishiga sabab bo'lmoqda. Nazar Eshonqulning qissalarida milliylik, ma'naviy barkamollik, odamiylik va yuksak insoniy tuyg'ular tarannum etilgan. Uning milliy, ijtimoiy, maishiy va shaxs haqidagi qarashlari , "ommaviy madaniyat" va olomonchilikka doir chuqur xulosalari adabiy, falsafiy, estetik qarashlari asosini tashkil qilgan. U "ommaviy madaniyat" xavfiga milliy qadriyatlar hamda ma'naviy an'analarni qarshi qo'ygan. Nazar Eshonqul ijodida musiqa, tovush, ohang, suratlar, ranglar ramziy ma'no kasb etib, qahramon ruhiyatini ochishga xizmat qilib, asarlaridagi ifoda va badiiy talqin originalligiga asos bo'lgan. Nazar Eshonqul ijodiga

xos bunday xususiyatlarning barchasi undagi ijodiy niyat va badiiy ifoda sintezini ta’minlagan.

Adabiyotlar

1. O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Alisher Navoiy nomidagi O’zbekiston milliy bog’ida barpo etilgan Adiblar xiyobonining ochilishida so’zlagan nutqi. Xalq so’zi, 2020, 21 may, №106 (7608).
2. N.Eshonqul. “Men”dan “Men”gacha. Toshkent.2014.
3. Qahramonov Q.Adabiy tanqid: yangilanish jarayonlari. Toshkent-2009.
4.Nazar Eshonqul “Qissalar va hikoyalar”. Toshkent. “Sharq”, 2008-yil.

O‘ZBEK ADABIYOTIDA YETIMLIK MOTIVI

Norbaboyeva Matluba Tohirovna,
QarDU PI o‘qituvchisi

O‘zbek adabiyotida yetimlik motivi alohida o‘rganilishi lozim bo‘lgan muammolardan biridir. O‘zbek adabiyotida yetimlik motivini o‘rganish, avvalo, Qur’oni karim va hadisi sharifga asoslanadi. Qur’oni karimda “Yetim” so‘zi 31 ta o‘rinda qo‘llanilgan, unda yetimlar haqida, ularning haqlari haqida keltirilgan. Niso surasi 2-3-5-6-8-9-10-36-oyatlar, Mo’un surasi 2-oyatida, Zuho surasi 6-7-8-9-oyatlarida, Baqara surasi 83-177-215-220-oyatlarida, Al-Isro surasi 34-oyat, Kahf surasi 82-oyat, Hashr surasi 7-oyat, Inson surasi 8-oyat, Fajr surasi 17-oyat, Balad surasi 15-oyatlarida, yetimlar, ularning haqlari haqida keltirilgan.

Ya’ni yetimlarni siylash, ularga rahm-shafqatli bo‘lish, ko‘chada qolganda esa boshpana berishlik haqida Qur’oni karim oyatlarida ko‘rsatma berilgan. Yetim qolgan bolalarni qaramog‘iga olishlik, ularga g‘amxo‘rlik qilish kabi amallarning savob ekanligiga ishorat mavjud.Ularni g‘ofillikdan hidoyatga boshlash, kambag‘allikdan boylikka yetkazish amallari haqida so‘z yuritilgan, yetimlarga faqat yaxshilik qilishlik buyurilganki, ya’ni hech qachon ularning ko‘ngli o‘ksimasiligi nazarda tutilgan. Ya’ni Navoiy baytlarini eslasak, izohga yaqinlashamiz:

Kimki bir ko‘ngli buzuqning xotirin shod aylagay,
Oncha borkim, Ka’ba vayron bo‘lsa obod aylagay.

Ya’ni bir ko‘ngilni shod qilishlik Ka’bani bunyod qilishga tenglashtirilmoqdaki, hadisi sharifda esa insonning ko‘nglini vayron qilish Ka’bani vayron qilishga tenglashtirilgan. Ka’bani Ibrohim Halilulloh bunyod etganligi, ko‘ngilni esa Alloh bunyod etganligi nazarda tutilgan. Ya’ni Alloh buyuk va qudratli, uning ishlari buyukdir.

Mo’un surasi 2-oyatida yetimni jerkiydiganlar haqida keltirilgan.

Surada imonsiz bandalarning razil sifatlaridan ba’zilari sanab o‘tiladi. Jumladan, oxirat jazosini inkor etish, yetim holidan xabar olmaslik… kabi nuqsonlar ibrat uchun bayon etiladi.

Oxiratni inkor etadiganlar, yetimni jerkiydigan, miskinlarga taom bermoqlikni targ‘ib qilmaydigan kimsalarning gunohlari kattadir. Ya’ni yetimning ko‘ngli yarim, ularga faqat yaxshi muomalada bo‘lishlik, siniq ko‘nglini ko‘tarishlik yaxshi amallardandir.

Niso surasi 2-3-5-6-8-9-10-oyatlarida yetimlar, ularning haqlari haqida keltirilgan. Bu surada asosan oila, turmush, meros masalalari, yetimlarga munosabat, er-xotin huquqlari va boshqa muhim ma’lumotlar o‘z aksini topgan.

Yetimlarning haqlari ular voyaga yetishlari bilan qaytarib berilishi lozimdir, bu pok ish hisoblanadi, mabodo, qaytarilmas ekan, bu katta gunoh sanaladi. Yetim haqidan qo‘rqish buyurilgan.

Yetimlarning haqlari Allohning bandalariga omonatidir. Kimki uni o‘z maylicha sarflab yuborar ekan, yetimlarga nisbatan adolatsizlik qilgan bo‘ladi.

Yetimlarning haqlaridan qo‘rqish kerakligi, ularga qoldirilgan merosni ular voyaga yetishidan qo‘rqib tezroq tasarruf qilib qo‘yishlikdan Alloh ogohlantiradi. Boy insonlarga yetimlarning haqlariga tegmasdan ularni voyaga yetkazish, mabodo kambag‘allikda yetim boqayotgan taqdirda ham ularning haqlarini suiiste’mol qilmasdan me’yorida yeyishlik nazarda tutilgan.

Meros taqsim qilinayotganda uzoq qarindoshlar, yetim va miskinlar ham haqlidirlar, ular haqlarini talab qilganda ularga yaxshi gaplar aytishlik buyurilgan. Merosni adolat bilan taqsimlash ham maqsadga muvofiqdir.

Yetim molini yegan hech bir zamonda oqlanmaydi, ya'ni uning yemagi xarom sanaladi, agar yetimning haqini yeydigan kimsa zulm qilib yesa doʻzax olovida toblanadi va qornida olov yegan hisoblanadi. Muqaddas oyatdagi bu soʻzlar yetim molidan qoʻrqishga, insonni insofli, adolatli boʻlishga, yetimlarga gʻamxoʻrlik qilishga undaydi.

Yuqorida keltirilgan izohlar Qur'oni karimdagi suralarda keltirilgan oyatlarning izohidir. Ularda yetimlarning haqlari haqida toʻla fikrlar mavjudki, bularni bilgan kishi yetim molidan qoʻrqishlikka, yetimlarga mehribon boʻlishga chaqirilgan.

Adabiyotda yetim bolalar haqida soʻz yuritganda hadislarni ham eslash maqsadga muvofiq. Abu Abdulloh Muhammad ibn Ismoil al-Buxoriy "Al-Jomi' as-sahih" sahih hadislar toʻplamining 1-3-kitoblarida ham "Yetim" soʻzi keltirilgan boʻlib, 1-kitobda bu soʻz 15 marta, 3-kitobda esa 41 marta qoʻllanilgan. Yetim bolalarning haqi, yetimlarning koʻnglini ogʻritmaslik, ularga koʻmak berish haqida bir nechta hadis keltirilgan boʻlib, quyidagi hadisda ham yetimlar haqida shunday deyilgan: Abu Hurayra roziyallohu anhudan rivoyat qilinadi: Rasululloh sollallohu alayhi vasallam aytdilar: "Men jannat eshigini birinchi boʻlib ochuvchi shaxsman. Faqat bir ayol mendan ildamroq ekanini koʻraman. Undan: "Sen kimsan?" – deb soʻrayman. U: "Men yetimlarimga qarab oʻtirgan ayolman", – deydi". (Abu Ya'lo rivoyati) [2]Yuqoridagi hadisda ham paygʻambarimizning yetimni boqqan ayoldan keyin jannatga kirishi haqidagi fikrlari naqadar ta'sirli ifodalangan. Yetimni boqqanning savobi katta ekanligi ushbu hadislarga oʻz ifodasini topgan. Yetimlarga qarab oʻtirgan, ularning tirikchiligiga mas'ul hisoblangan ayol jannatga hattoki paygʻambarimiz Rasululloh sollallohu alayhi vasallamdan ham avvalroq kirishga haqlari borligiga ishorat qilinmoqda. Ya'ni hadislarda insonning koʻnglini shod etishning savobi ulugʻligiga ishorat qilinmoqda. Ayniqsa, ular ota-onasining qaramogʻidan mahrum boʻlgan yetim bolalar boʻlsa.

Yetimni qaramogʻiga olish degani uni tarbiyalash, yedirib-ichirish, kiydirish va agar mol-mulki boʻlsa, uni koʻpaytirishdir. Bordi-yu, mol-mulki boʻlmasa, unga Alloh taoloning roziligini istab infoq-ehson qilinadi.

Hadisi sharifda yetimni boqqan, unga g‘amxo‘rlik qilgan kimsaga Allohning jannati vada qilingan. Hadisda har qanday gunohlari kechirilishi (shirkdan bo‘lak) va tavbalari qabul bo‘lishi nazarda tutilgan. Hadislarni o‘qib ularga amal qilib yashashlikda ham ko‘p hikmat bor.

Abu Hurayra roziyallohu anhu aytadilar: “Bir kishi Rasululloh sollallohu alayhi vasallamga qalbi qattiqligidan shikoyat qildi. U zot sollallohu alayhi vasallam: “Yetim boshini sila va miskinga taom ber”, – dedilar” (Ahmad rivoyati, sahih hadis) [2]

Kimki qalbi qattiq bo‘lsa, yetimning boshini silasa va bechoraga taom bersa, hadisi sharifda keltirilganidek, qalbi yumshab, ko‘ngli halovat topadi. Ya’ni bu o‘rinda yetimning holini ko‘rgan kishining qalbi yumshashligi, mehribon, muruvvatli bo‘lishligi nazarda tutilgan.

Rasululloh sollallohu alayhi vasallamning xodimlari Anas ibn Molik roziyallohu anhu aytganlarki: “Uylarning yaxshisi unda yetim bo‘lib, unga yaxshilik qilinadigan uydir. Uylarning yomoni unda yetim bo‘lib, unga yomonlik qilinadigan uydir. Alloh taologa bandalarining eng suyuklisi yetim yoki bevaga yaxshilik qilgan kishidir” [2]

Hadisda keltirilganidek, uylarning yaxshisi yetimi bor uy va unga yaxshilik qilinadigan uydir, ya’ni kimki uyida yetim asrab olib boqsa, unga mehribon, shafqatli bo‘lsa, unga Alloh taolo ham mehrli bo‘lishi nazarda tutilgan. Uylarning eng yomoni deyilganda esa yetimi bor-u, unga shafqat qilinmaydigan, ya’ni yomonlik qilinadigan uy ekanligi keltiriladi. Hadisda yetim va bevaga marhamat ko‘rsatishning savobi orqali Alloh taolo bandalarining eng suyuklisi bo‘lishi ta’kidlanadi.

Dovud (a.s.) o‘z munojotlarida: “Ey Ilohim, roziligingni istab yetim va bevani qo‘llab-quvvatlagan kishining mukofoti nima?” – deb so‘ragan edilar, “Mukofoti – soyamdan o‘zga soya yo‘q kunda soyamga olishimdir”, – deya javob berdi. Ma’nosi, qiyomat kunida arshim soyasida bo‘ladi, – deganidir [2] Ya’ni ushbu hadisdan shunday ibrat olish mumkinki, yetimlarga g‘amxo‘rlik qilish, ularga shirinso‘z bo‘lish, moddiy va ma’naviy ko‘mak berish, ularning ko‘nglini ko‘tarish katta savobga qo‘l urishdir. Buni, avvalo, Alloh roziligi uchun qilishlik maqsadga muvofiqdir.

Adabiyotlar

1.Qur’oni karim. Abdulaziz Mansur tarjimasi.– T.: 2000.

2. Buxoriy. Al jome’ as-sahih.1-3-kitob. – T.: 1992.

3. www.ziyouz.com kutubxonasi

4. Sarimsoqov B. Badiiylik asoslari va mezonlari. – T.: 2004.

ЖАНУБИЙ ЎЗБЕКИСТОНДА ДЕҲҚОНЧИЛИК МАДАНИЯТИНИНГ ВУЖУДГА КЕЛИШИ ВА РИВОЖЛАНИШИ ТЎҒРИСИДАГИ АСОСИЙ ҚАРАШЛАР

Нишонов Жамшид Тўрақулович,
ҚарДУ тадқиқотчиси

Маълумки, қадимги Шарқнинг турли минтақаларида илк давлатлар ва шаҳарлар ишлаб чиқарувчи хўжаликлар ривожланиши ҳамда ихтисослашган ҳунармандчиликнинг ажралиб чиқиши асосида, ижтимоий–иқтисодий, маданий ва сиёсий омиллар туфайли пайдо бўлган.

Жанубий Ўзбекистонда деҳқончиликнинг вужудга келиши масаласи, тадқиқотчилар томонидан Шимолий Афғонистон ва Жанубий Туркманистон бронза даври маданиятлари тарихи билан боғланган ҳолда кўриб чиқилган, чунки улар умумий тарихий илдизларга эга.

Жанубий Туркманистонда Номозгоҳ, Шимолий Афғонистонда Даштли, Жанубий Ўзбекистонда Сополли маданиятларининг ўрганилиши Ўрта Осиё археология фанидаги муҳим кашфиётлардан бири бўлиб, бронза даври тарихи тўғрисида бой илмий маълумотлар тўпланган**[1].** В.И. Сарианидининг нашрларида бронза даври ёдгорликлари ва топилмалари умумлашган ном билан, Бақтрия–Марғиёна археологик комплекси (мажмуаси) деб аталган**[2].** У.В. Рахманов Номозгоҳ–Сополли маданияти атамасини фанга жорий этишни таклиф қилган**[3:17].** А.С. Сагдуллаевнинг фикрига кўра, Бақтрия доирасида бронза даври маданиятини Даштли–Сополли маданияти деб номлаш мақсадга мувофиқдир**[4:14].** А.А. Асқаров ва Т.Ш. Шириновлар бу маданиятни Сополли–Даштли археологик мажмуаси деб номлаганлар**[1:40-45].**

Бронза даври моддий манбалари илмий адабиётларда кенг ёритилгандан сўнг хорижий археологлар ушбу маданиятларга нисбатан цивилизация терминини қўллай бошлашди. Америкалик тадқиқотчи К.К. Ламберг–Карловски

биринчи бўлиб “Окс цивилизацияси”, италиялик олим М.Този эса “Турон цивилизацияси” ибораларини ишлатишди**[5:398-405].** Т.Ш. Ширинов ўз асарларида “Турон цивилизацияси” тушунчасини қўлламоқда**[6:27].** Шу билан бирга, А.А. Асқаров ва Т.Ш. Шириновлар умумийликка эга Ўрта Осиёнинг жануби, Шимоли–шарқий Эроннинг ва Шимолий Афғонистоннинг бронза даври маданиятларини “Номозгоҳ тарихий–маданий бирлиги” тушунчаси билан боғлашни таклиф қилганлар**[1:42].**

Бронза даврида зироатчилар жойлашган ҳудудлар янги ерларни ўзлаштириш ҳисобига кенгайтирилган. Бу жараёнларда миграциялар – аҳолининг бир ҳудуддан иккинчи ҳудудга кўчиши муҳим аҳамиятга эга бўлган. Марғиёна ва Бақтрия ҳудудларида деҳқончилик маданиятининг вужудга келиши аҳолининг янги ерларга кўчиб келиши билан боғлиқ бўлган.

Дастлаб, А.А. Асқаров бронза даврида Жанубий Ўзбекистон ҳудудлари Эроннинг шимолий–шарқи ёки Афғонистоннинг жануби ва Туркманистоннинг жанубидан кўчиб келган зироатчилар томонидан ўзлаштирилган деб таҳмин қилган[**7:120-125].** Тадқиқотчи Сополли маданиятининг кулолчилик буюмлари ва бронзадан ишланган қуролларини Жанубий Афғонистондаги Мундигак, Шимолий–шарқий Эроннинг Хисор ва Шоҳтепа, Жанубий Туркманистоннинг Номозгоҳ топилмалари билан таққослаб, уларнинг ўхшашлигини қайд этган. Кейинги тадқиқотларида А.А. Асқаров бу борадаги ўз қарашларини бирмунча ўзгартирган. Олимнинг таъкидлашича, Жанубий Ўзбекистон ҳудудларига зироатчилар Жанубий Туркманистон деҳқончилик воҳаларидан кўчиб келган. Сополли маданияти археологик ашёларида Жанубий Афғонистон ва Эроннинг шимоли–шарқий мажмуаларидаги мавжуд ўхшашликлар маданий алоқалар таъсирида пайдо бўлган деб хулоса чиқарилган**[8:108-109].**

Сополли маданияти ва Жанубий Туркманистон ёдгорликлари (Намозгоҳ, Олтинтепа, Улуғтепа) топилмаларини қиёслаш жараёнида айниқса, бир–бирига шакл бериш ва ишлаб чиқариш технологияси жиҳатидан анча яқин сопол идишлар (кулолчилик чархида ясалган вазасимон идишлар, туваклар, кўзалар, косалар) ҳамда антропологик материаллар муҳим аҳамият касб этган**[8:112].**

А.А. Асқаров, Сурхон воҳаси бронза даври идишларида Хараппа маданияти кулолчилигининг таъсирини қайд этиб, бу маданият вакилларининг Шимолий Афғонистон ҳудудларига кўчиб келишини тахмин қилган**[8:110-111].**

ХХ асрнинг 70–йилларида Франция археолог олимлари Афғонистоннинг шимолий–шарқидаги Толлиқон ва Шўртўқай туманларида (Панж дарёсининг чап қирғоғи) мил. авв. IV–II – мингйилликларга оид 26 та манзилгоҳ қолдиқларини топиб текширганлар**[9:6-8].** Толлиқон даврида (мил. авв. 3500 – 2500 йиллар) Бақтриянинг шарқий ҳудудларини ўзлаштиришда Жанубий Афғонистоннинг қадимги зироатчи – аҳолиси фаол қатнашган**[10:19-35].** Шўртўқай босқичида (III – мингйилликнинг иккинчи ярми) Хараппа маданияти вакиллари миграция жараёнларида муҳим аҳамият касб этган**[11:30-32].** Франциялик олимларнинг таъкидлашларича, Шўртўқай каби ёдгорликлар савдо маскани – фактория вазифасини бажарганлар**[12: 39-46].**

Фикримизча, металлчилик ҳамда заргарлик касблари ривожланиши учун табиий бойликлар, мис, қалай, қўрғошин, олтин, кумуш ва қимматбаҳо тошлар доим зарур бўлиб турган. Бақтриянинг тоғ олди ҳудудларида бронза даври ёдгорликларининг жойлашиши ҳам бундан далолат беради.

ХХ асрнинг 70–йилларида ва 80–йилларнинг бошларидаги илмий қарашларга кўра, Марғиёна ва Бақтрия ҳудудларида деҳқончилик маданиятининг вужудга келиши Қадимги Шарқнинг турли минтақалари билан боғланган. Шимолий Ҳиндистон, Жанубий Афғонистон, Шарқий Эрон ва Жанубий Туркманистон шулар жумласидандир**[13:158].**

К.К. Ламберг–Карловскининг фикрича, Окс цивилизацияси, яъни Марғиёна ва Бақтрия аҳолиси ўз ҳудудларини бошқа қабилалар ерлари ҳисобига кенгайтириб борган. Бу цивилизацияга юқори ривожланган мудофаа тизими хос бўлиб, қалъалар деворларига буржлар ўрнатилган. Қалъалар тўғри тўрт бурчак ва доира шаклларида қурилган. Ушбу йирик бинолар – қалъалар сардорлар яшайдиган қўнимгоҳ, бир неча меъморий биноларни жамлаган ибодатхона, ички сарой ва бошқа меъморчилик мажмуаларини ўз ичига олган. Улар мил.авв. III – мингйилликнинг сўнггида ва II – мингйиллик бошида ўзлаштирилгандан сўнг,

сув ва ер манбалари учун тўқнашув – курашлар сабабли юзага келган бўлиши мумкин. К.К.Ламберг–Карловскининг ёзишича, қалъаларнинг соҳиблари бронза ва илк темир даврида ишлаб чиқаришни, жумладан деҳқончилик ишларини ташкиллаштириш вазифаларини ҳам бажарган**[14:17-32].**

К.К. Ламберг–Карловски Бақтрия цивилизациясининг пайдо бўлишида чорвачиликнинг аҳамияти тўғрисида тўхталиб, бой буюмларга эга қабрлар, тасвирий санъатдаги туя, эчки, кийикнинг ифодаланиши ҳамда мураккаб меъморий қурилмалар чорвадор ва зироатчи қабилаларнинг маданий алоқалари тимсолидир, деб таърифлайди**[14:26].**

Қадимги Бақтрия ҳудудларидаги бронза даври маданиятининг пайдо бўлиши тўғрисида франциялик археолог П. Амъе қуйидагича ёзади: “Ташқи Эроннинг тоғли ва чўл воҳаларида Месопотамия ва Сузиананинг таъсирида “кўчманчи” ёки “кўчманчи–ҳунарманд” маданиятлар шаклланган, деҳқончилик маданиятлари билан бақамти чорвадор–ҳунарманд аҳоли ҳам яшаган”. Тадқиқотчининг ёзишича, Даштли 3 каби қалъаларининг функцияси карвонсарой ва омборхона вазифасини ўтаган. Бу бинолар чорвадорлар жамиятида зодагонлар мавжудлигини ҳам кўрсатади**[15:137-138].**

М. Този Ўрта Осиёда чорвачилик ва деҳқончилик бир–бирига уйғун равишда ривожланган, халқаро савдо уларни мувофиқлаштириб турган деб ёзади. Тадқиқотчи Сополлитепада топиб текширилган аёллар қабрларида бой ашёларининг мавжудлигини кўчманчиларга хос одат деб ҳисоблайди**[16:69-71].**

Бақтрия ва Марғиёнада маданиятларнинг ривожланишида кўчманчи–чорвачиликнинг ўрни тўғрисидаги ушбу фикрлар В.М. Массон ва В.И. Сарианиди томонидан кўриб чиқилиб, уларнинг танқидига учраган. Тадқиқотчилар мил.авв. III–II – мингйилликларда чорвадор–кўчманчилар эмас, балки тоғ ва чўлларда яшайдиган чўпонлар тўғрисида гапирса тўғри бўлади, деган фикрга келишган**[17:99-10].** Е.В. Антонованинг фикрича, В.М. Массон ва В.И. Сарианиди П. Амъе ва М. Този нотўғри танқид қилишган ва чорвадор деганда ўзларининг қалъалари бўлган, деҳқонларнинг қўшниларини тушуниш керак деб ёзади**[18:197-240].**

Қалъа сифатидаги йирик биноларнинг вазифасини аниқлашда этнографик маълумотларни келтирсак мақсадга мувофиқ бўлади. Б.В. Андриановнинг маълумотларига қараганда, турк тилли кашкайлар аҳолисининг 3\1 қисми ўтроқ, 3\2 қисми кўчманчи ҳаёт кечиради. Улар Лур– Бахтиёр оралиғида кўчманчилик қилади ва қишда йиғилиб келишади. Кашкай кўчманчи – чорвадорларининг доимий қишлайдиган маконлари бўлиб, улар тўғри тўрт бурчак, квадрат шаклли бинолардан иборат. Уйлар девор бўйлаб қурилган ва марказий қисми очиқ майдондан иборатдир**[19:150-151].**

Жарқўтон қалъасининг жанубий қисмида олиб борилган тадқиқотлар давомида кўпдан–кўп суяклар топилган бўлиб, улар қўй, эчки ва қора молларга оидлиги аниқланди. Сополли маданияти аҳолисининг чорвачиликни ривожлантирганлигини топилган суяклар сони ҳам кўрсатади. Фикримизча, П. Амьенинг юқорида келтирилган хулосаси етарлича асослаб берилмаган, яъни Бақтрия аҳолисининг асосий қисми чорвадорлар эди, деган хулосани турли маълумотларга таянган ҳолда асослаб бериш лозим. Чорва моллари чўпонлар кўмагида боқилган десак, тўғри бўлади. Шунинг учун ҳам П. Амъенинг Бақтриянинг Даштли 3 каби қалъа бинолари чорвадор аҳолининг омборхоналари вазифасини бажарган, деган фикрини қўллаб бўлмайди.

Бу борада А.А. Асқаровнинг хулосаларини келтириш лозим. Сополитепада дон (арпа, буғдой) қолдиқлари топилган. Улар хумларда сақланган. Сополли маданиятига ерга ишлов бериш, ҳосилни йиғиш ва деҳқончилик маҳсулотларига ишлов бериш билан боғлиқ кўпдан – кўп меҳнат қуроллари топилган. Тадқиқотчининг фикрига кўра, Сополли атрофида ўртача 60–70 гектар майдонга ишлов берилган, бу ва бошқа маълумотлар Сополли аҳолиси ҳаётида деҳқончилик устунлик қилганлигидан далолат беради**[7:130-131].** Сурхон воҳасида бронза даврида асосан майда чорва (қўй, эчки) боқилган. Бу чорвачилик шакли тоғ олди ва дашт туманларида ривожланган.

Адабиётлар

1. Массон В.М. Древнеземледельческая культура Маргианы // МИА, – Л., 1959, №73; Аскаров А.А. Древнеземледельческая культура эпохи бронзы юга

Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1977; Аскаров А.А., Ширинов Т.Ш. Ранняя городская культура эпохи бронзы юга Средней Азии. – Самарканд, 1993; Сарианиди В.И. Древние земледельцы Афганистана. – М: Наука. – 1977.
2. Сарианиди В.И. Некрополь Гонура и иранское язычество. – М: Наука, 2001.
3. Рахманов У.В. Керамическое производство эпохи бронзы Южного Узбекистана: Автореф. дисс... канд. истор. наук. – Самарканд: Институт археологии, 1987. – С.17.
4. Сагдуллаев А.С. К изучению поселения Муллали // Краеведение Сурхандарьи. – Ташкент: Узбекистан, 1989 – С.14.
5. C.C. Lamberg–Karlovsky. The Bronze Age khanates of Central Asia // Antiquity. – Rom, 1994, Vol. 68 – P. 398–405.
6. Ширинов Т.Ш. Туранская цивилизация Бактрии и Маргианы во II тыс. до н.э. // Культурное наследие Туркменистана: Тез. докл. – Ашхабад. – СПб, 2000. – С.27.
7. Аскаров А.А. Сапаллитепа. – Ташкент: Фан, 1973. – С.120–125.
8. Аскаров А.А. Древнеземледельческая культура эпоха бронзы юга Узбекистана. – Ташкент: Фан, 1977. – С.108–109.
9. Gardin J.C., Lyonnet B. La prospection archeologique de la Bactriane Orientale (1974–1978): premiers resultats // Mesopotamia. – 1978–1979. – Vol. XIII–XIV. – P.99–154; Гарден Ж.К. Об археологической географии Средней Азии // Древнейшие культуры Бактрии: Тез. докл. симпозиума. – Душанбе: Дониш, 1982. – С.6–8.
10. Lyonnet B. Decouverte desites L'age Bronze dansle N. E. de L'Afganistan: leurs rapports avec la civilization de L'Indus // Estratto da Annali dell' Istituto oriental di Napoli. – Napoli, 1977 – Vol.37 – P.19–35.
11. Франкфор Н.П. Хараппская традиция и бактрийская инновация в Шортугае // Древнейшие культуры Бактрии: Тез. докл. симпозиума. – Душанбе: Дониш, 1982. – С.30–32.
12. Gardin J.C. Pour une geographie archeologique de la Bactriane: Actes du collogue franco – sovietique. – Paris, 1985. – P.39–46.

13. Массон В.М. Проблема древнего города и археологические памятники Северной Бактрии // Древняя Бактрия. – Л.: Наука, 1974. – С.7; Ўша муаллиф. Афганистан в древности // История Афганистана. – М.: Мысль, 1982. – С.10; Гарден Ж.К. Об археологической географии Средней Азии… – С.7.; Сарианиди В.И. Древние земледельцы Афганистана.. – С.158.
14. Lamberg–Karlovsky C. The Bronze Age of Baktria // Baktria. An Ancient Oasis Civilizations. – Roma–Venezia, 1989. – P. 17–32.
15. Amiet P. Elam and Baktria // Baktria. An Ancient Oasis Civilizations. – Roma–Venezia, 1989. – P.137–138.
16. Tosi M. The Origins of Early Bactrian Civilization // Baktria. An Ancient Oasis Civilizations. – Roma – Venezia, 1989. – P. 69–71.
17. Массон В.М. Протобактрийский блок древневосточных цивилизаций (К выходу книгу: Amiet P. L’age des echanges inter–iraniens 3500–3700 avant J.–C. Paris, 1986) // Информационный бюллетень МАИКЦА, М.: 1988. Вып.14; Amiet P. L’age des echanges inter–iraniens 3500–3700 avant J.–C. Paris,1986 // Информационный бюллетень МАИКЦА, М.: 1988. – Вып.14 – С. 99–100.
18. Антонова Е.В. Контакты Месопотамии с восточными землями в IV–III тыс.до н.э // Азия – диалог цивилизаций. – С. – Петербург, 1996. – С. 197–240.
19. Андрианов Б.В Неоседлое население мира (Историко–этнографическое исследование). – М.1985. – С. 150–151.

AMIR TEMUR DAVRI NEMIS TARIXSHUNOSLARI NIGOHIDA

Rustamov Davron,
SamDU magistranti

Amir Temur hayotlik davrida nechog‘liq mashhur bo‘lgan bo‘lsa, vafotidan keyin Sharqda ham, G‘arbda ham yanada shuhrat qozondi. Uning buyuk, betakror va yorqin shaxsi, qudratli irodasi va keng qamrovli, tobora ilgarilab boruvchi harakatlari o‘z dovrug‘i ta’sirini tobora kuchaytirib, bir qator mamlakatlar va davlatlardagi million-million xalq ommasining ongi o‘rnashib qoldi.

Amir Temurning davlat arbobi, tashkilotchi va bunyodkor, siyosatchi va diplomat sifatidagi ko‘p qirrali tarjimai holini uning ichki va tashqi siyosati doirasiga kirgan xalqlar taqdiri bilan chambarchas bog‘liq holda o‘rganishga dunyo olimlarining qiziqishi ortib borayotganligi boisi ham mana shunda.

Jumladan, mashhur nemis tarixchisi, qudratli Rim saltanatining tanazzulga uchrab, barbod bo‘lishiga bag‘ishlangan salmoqli asar muallifi E.Gibson (1745 — 1800) G‘arbiy Yevropa va Sharqning o‘rta asr tarixini tasvirlaganda Amir Temur shaxsiga ham e’tibor berdi. «...Amir Temur dunyoni zabt etib, unga hukmron bo‘lish maqsadini ko‘zlagan edi...

Avlodlar xotirasida hurmat qozonish uning olijanob qalbining ikkinchi istagi edi... Uning vasiyatlari (chamasi, «Temur tuzuklari» nazarda tutilayotgan bo‘lsa kerak) Yevropaga notanishligicha qoldi».

Heydelberg tarixchilar maktabining namoyandasi bo‘lmish, Fridrix Shlosserning (1776—1861) salmoqli «Jahon tarixi » asarida ham Amir Temur nomi uchraydi. Shlosserning xalqchillik va ma’naviy ma’rifatparvarlik ruhidagi asari dunyodagi ko‘pgina ilg‘or jamoat arboblarining e’tiborini o‘ziga tortdi[1].

Shlosserning so‘zlariga qaraganda, Amir Temur — «omadli jangchi, dunyoning yangi hukmdori, taktik va strategik bilimlarni uyg‘unlashtirgan zot».

Ayni vaqtda Shlosser Amir Temur qiyofasini tasvirlashdagi dabdabozlikni rad etdi va saroy solnomachilari xushomadgo‘yligini qayd qildi. Shu bilan birga Shlosser Amir Temurning safarlardan Buxoro va Samarqandga kaytib kelganida
«o‘zining yangi davlatiga tuzuk va qonunlar hadya etganini» ta’kidladi.

Yana bir nemis tarixchisi «Umumiy tarix» asari muallifi Georg Veber ta’kidlashicha, «buyuk sarkarda, hukmdor va qonunshunos iste’dodiga ega bo‘lgan Amir Temur turli bilimlarga qiziqqan, olimlar va san’atkorlarga homiylik qilgan[2].

Shu nuqtai nazardan Veber: Amir Temur «inson sifatida ham, hukmdor sifatida ham Boyazid (Usmoniylar saltanatining sultoni)dan yuqori turar edi», degan xulosaga keldi. Boyazid faqat tillolar haqida o‘ylab va davlatni idora qilish ishini mensimay, uni och- ko‘z, maishatparast va shuhratparast qozilar qo‘liga berib qo‘ygan edi, deya xulosa chiqardi.

Yangi zamonning boshqa ko‘pgina tarixchilari kabi Gibson, Shlosser, Veber ham (manbalardagi ma’lumotlarga ergashib) Amir Temur zamonidagi harbiy yurishlar shiddatli bo‘lganini qayd etdilar.

XIX asrning birinchi yarmida Peterburgda xizmat qilgan fransuz sharqshunosi M.SHarmua Amir Temurning 1391 yildagi To‘xtamishga qarshi yurishini batafsil yorituvchi katta asar tayyorlab, nashr qildi. SHarmua o‘sha paytda Nizomiddin Shomiyning Fransiyada hali ma’lum bo‘lmagan kitobidan tashqari, shu masalaga oid bir qancha manbalarga tayandi. SHarmua bu asarlarni fransuz tiliga tarjima qildi. SHarmuaning kitobi 1391 yilgi yurish tarixini o‘rganish uchun hozir ham o‘z ahamiyatini yo‘qotgani yo‘q.

Theodor Mommsen «Jahon tarixining buyuk arboblari»dan biri bo‘lgan Amir Temur «Horib-charchash nimaligini bilmaydigan faoliyat sohibi» ekanini to‘g‘ri ta’kidlab o‘tdi, biroq ayni vaqtda Amir Temurning «muayyan va aniq idrok etilgan siyosiy maqsadi bo‘lmagan edi», degan noto‘g‘ri fikrga bordi, bu fikr Sohibqiron tarjimai holining haqiqiy voqealariga mos kelmas edi.[2]

Taniqli rus tarixchisi S.M.Solovev (1820 — 1879) ham Amir Temur shaxsiga e’tibor bilan qaradi. Uning ta’kidlashicha, Amir Temurning harbiy qo‘shinlari o‘jar va betayin To‘xtamishga qarshi kurashda «Rossiya hududlariga kirib, Eletsni ishg‘ol qildi». Solovev XIV asr o‘rtalarida tarix sahnasida paydo bo‘lgan Amir Temur «1371 yilda Kaspiy dengizidan Manjuriyagacha bo‘lgan erlarni qo‘lga olganligi»dan iborat unutilmas voqeani ta’kidlab o‘tadi. Uning tan olishicha, Amir Temur tomonidan tor-mor etilgan Oltin O‘rda uzoq vaqtgacha Moskva knyazligiga xavf sola olmadi.

Akademik V.V.Bartold ilmiy merosida Amir Temur va o‘sha zamon haqidagi ma’lumotlar juda ko‘p. Bu ma’lumotlar uyg‘unlikda kattagina bilim xazinasini tashkil etadi.Amir Temur haqidagi adabiyotda uning shaxsiga xos qiziquvchanlik, olimlarga, adabiyot va san’at arboblariga homiylik, shatranj o‘yiniga qiziqish, tashqi va ichki siyosat masalalaridan xabardorlik kabi fazilatlar tez-tez ta’kidlab o‘tiladi. Sohibqironning bu muhim jihatlari V.V.Bartold tomonidan lo‘nda, aniq va ifodali tarzda aks ettirilgan.

«Temur, — deb yozgan edi V. V. Bartold, —- o‘z ona (turkiy) tilidan tashqari fors tilida ham so‘zlashar, olimlar bilan suhbatlashishni, ayniqsa tarixiy asarlarni o‘qitib tinglashni yaxshi ko‘rar edi; o‘zining tarix sohasidagi bilimlari bilan musulmon tarixchilarining eng buyugi bo‘lmish Ibn Xaldunni hayratga soldi; Amir Temur o‘z jangchilarining ruhini ko‘tarish uchun tarixdagi shavkatli va afsonaviy qaxramonlar haqidagi rivoyatlardan foydalanardi... Temur harbiy kuchlar tashkil etilishining barcha ikir-chikirlarini shaxsan surishtirib turar, dushmanlarning kuchi va ular o‘lkasining ahvoli haqida batafsil ma’lumot olar edi. Amir Temur- ning shaxsan ishtirokida bunyod etilgan imoratlar noyob badiiy did bilan bino qilingani sezilib turibdi...»

Olimning yana bir xulosasi diqqatga molikdir: Amir Temur musulmon ruhoniylariga nisbatan avvalo siyosiy mulohaza bilan ish tutar edi. Amir Temur dindorlarga sirtdan izzat-ikrom ko‘rsatar, diniy mol-mulkni boshqarishga aralashmas... o‘z fuqarolari din aqidalariga rioya etishlari haqida g‘amxo‘rlik qilar edi... Ammo xarbiy kurilish va aholining turmushi faqat qonunlar bilan belgilanar edi».

Amir Temur davlatda tartib bo‘lishi g‘oyalarini ilgari surganligini, Movarounnahr aholisining farog‘ati uchun shunday bo‘lishi zarur ekanini va bir- biriga dushman bo‘lgan mayda hukmdorlar mavjudligi sharoitida bunga erishib bo‘lmaydi, deb hisoblaganini ham Bartold ta’kidlab o‘tadi.

Amir Temur «serg‘ayrat quruvchi» bo‘lganini M.Brandt bir necha bor ta’kidlab o‘tdi. U go‘zal bog‘lar bilan kurshalgan muhtasham binolar bunyod etdi, shahar va qishloqlarni qayta tikladi, ariq va zovurlar qazdirdi va ularni tuzattirdi; rasmiy tarixdagi (Sharafuddin Ali Yazdiy asaridagi) iboraga ko‘ra, u biron-bir ekin ekish mumkin bo‘lgan erlarning bo‘sh yotishiga yo‘l qo‘ymas edi. Matnning ruhiga qaraganda, bu o‘rinda Bartold ayni Movarounnahr erlarini nazarda tutgan bo‘lsa kerak. Ammo boshqa bir o‘rinda Bartold «Temur o‘zi tug‘ilib o‘sgan Movarounnahrdagina emas, Xurosonda ham, Mug‘on dashti va Kobul havzasi kabi olis joylarda ham ulkan sug‘orish inshootlari qurdirganini» ta’kidlab o‘tadi (Sharafuddin Ali Yazdiy va G‘iyosiddin Alining asarlarida ham shu fikr uchraydi). M.Brandtning Amir Temurga bag‘ishlangan asari birinchi marta 1950-yilda bosilib chiqdi.[3] U Sohibqironning dovyuraklik, saxiylik, odamlarning yaxshi xislatlarini sezish, o‘ziga kerakli

yordamchilar tanlay olish, rahbarlik qila olish kabi fazilatlarini alohida uqtirib o'tadi. U Movarounnahrning barcha hukmdorlari orasida birinchi va yakkayu yagona hokim bo'lib olgach, ayrim joylarda itoatsiz va jangari hokimlarga qarshi kurashni kuchaytirdi, «ko'pgina shaharlarning aholisi va dehqonlar, shunggngdek, musulmon ruhoniylarning namoyandalari uning bu ishini bajonu dil qo'llab-quvvatladilar».

M.Brandtning ta'kidlashicha, Amir Temur «katta miqyosda hukmdor sifatida savdo-sotiqning foydali ekanini yaxshi tushunar», «dunyo karvon savdosi yo'llarida xukmronlik qilishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan edi». U Oltin O'rdani uzil- kesil tor-mor etganida, shu niyatni ko'zlagan edi.

Zo'r tashkilotchilik iste'dodiga va bu- kilmas irodaga ega bo'lgan Amir Temur «tom ma'noda o'z davrining farzandi edi». Amir Temur bepoyon feodal saltanatni bar-po etish bilan birga uni mayda er-mulklarga (suyurg'ol tizimi) parchalab tashladi. Faqat Movarounnahrgina (Farg'onadan tashqari) bulinmadi, bu erda ma'muriy birliklar (tumanlar) saqlanib qoldi.

Adabiyotlar

1. Шлоссер Фридрих Кристоф. Всемирная история / Русский перевод под. ред. В.А. Зайцева. Том 1. – Москва: 1967.
2. Etters on the war between Germany and France, by T. Mommsen, D. F. Strauss, F. Max Müller and T. Carlyle (1871)
3. Бартольд ВВ. Темур // Сочинение. Том 5. Москва: 1963.
4. Temur's state of Maverannahr and Khorasan under the Temurids (XV century)., Hamburg-1965.

ABU NASR FOROBIY ASARLARIDA KOMIL INSON G'OYASI

Ahmadova Zilola,
QarDUPI magistranti

Komil inson g'oyasi hamma vaqt ham dolzarb ahamiyatga ega bo'lib, ayniqsa bugungi global jamiyatda ustuvorlashib bormoqda. Mafkuraviy xurujlarning avj olishi, ma'naviy, ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy qarama-qarshliklar fuqarolar intelektual salohiyatini yusaltirishni kun tartibiga qo'ymoqda. O'zbekistonning sobiq ittifoq

tarkibidan chiqib mustaqil faoliyat olib borishi fuqarolarning ijtimoiy-iqtisodiy, ma'naviy-mafkuraviy, siyosiy jarayonlarga qarshi immunitetini yetarlicha takomillashmagani davlat barqarorligini ta'minlash sohasida ko'plab muammolarni yuzaga keltirdi. Mustaqillikni dastlabki yillarida yoshlarning turli ekstremistik guruhlar ta'siriga tushib qolishi Komil inson g'oyasiga ehtiyojni mavjuligini ko'rsatdi.

Komil inson g'oyasi ajdodlarimiz nazariyasining eng ilg'or na'munasi bo'lib, jismoniy, ruhiy hamda ma'naviy salohiyati yuqori inson qiyofasini aks ettiradi. Shu sababli komil inson g'oyasini shakllantirish borasida ko'plab faylasuf-olimlar izlanish olib borishgan hamda o'z asarlarida komillikning fazilatlari haqidi yozib qoldirishgan. Abu Nasr Forobiy ham komillik g'oyasini keng ko'lamda o'rgangan faylasuflar sarasiga kiradi. Atoqli qomusiy olim, siyosiy mutafakkir **Abu Nasr ibn Muhammad Forobiy** (870-950) o'z davrining porloq yulduzlaridan, qadimgi Bag'dod universitetining tashkilotchilaridan biri bo'lib, tabiiy, ijtimoiy, siyosiy fanlarni chuqur o'rgangan va dono faylasuf sifatida dovruq qozongan. Forobiy ilmiy merosida ijtimoiy-siyosiy masalalar, xususan, davlat tuzilishi va uni idora etish, yetuk va mukammal jamoaga erishish masalalarida komillik g'oyasining shakllantirish va takomillashtirish muammosi alohida o'rin egallaydi.

Forobiy yashagan vaqtda zaruriyat yoki zo'rlik haqidagi nazariya ko'pchilik tomonidan qabul qilingan hisoblanar edi. Forobiy shu vaqtgacha qo'llanilmagan "ixtiyor" istilohini ilmiy adabiyotga olib kirish bilan, insonning iroda erkinligi uning taqdiriga ta'sir etishi mumkinligi masalasini o'rtaga tashlab, haqiqatda keng yoyilgan nazariyaga ochiqdan-ochiq qarshi chiqdi. U bunday fikrni yoyish bilan birga, kishilarni tabiiy, irsiy, sinfiy to'siqlarga qaramasdan o'z bilganicha, o'zini qaytadan shakllantirishi va siyosiy nuqtai nazardan ham madaniy jamiyatning "yetuk" va "barkamol" a'zosi bo'lishiga da'vat etdi. Shunga ko'ra, Forobiy inson mohiyatini tarbiyalashni uzoq muddat davom etadigan yaxshi amal, deb bildi. Uning fikricha, har qanday yaxshi axloq, agar zehnda takroran joylana borsa, uning natijasida inson ongining quvvati va fazilati orta boradi.

Forobiy "Fozil odamlar shahri aholisining qarashlari" asarining "Istak, iroda bilan erkin tanlovning farqi va baxt-saodat haqida" deb ataluvchi 23-bobida qo'yidagilarni

keltiradi: “Aqldan, fikrlashdan emas, balki his etishdan yoki tasavvuridan tug‘ilgan istak, intilish bo‘lsa (insonga ham), jonivorlarga, hayvonlarga ham xos qobiliyatdir. Ilk boshlang‘ich bilimlaridan foydalanib, yangi bilimga ega bo‘lish insonga berilgan birinchi imkoniyatdir. Inson shu imkoniyatdan foydalanib kamolotga yetishadi” [1;231]. Forobiyning bu fikrida insonni kamolati ilmga bog‘liqligi birlamchi qo‘yilgan. Ilm orqali insonda fikrlash quvvati kuchayishini ilmiy, amaliy jihati ochib beriladi. “Fikrlash quvvati amaliy va nazariy bo‘ladi. Amaliy fikrlash quvvati nazariy fikrlash quvvatiga xizmat qiladi. Nazariy fikrlash quvvati insonni baxt-saodatga yetkazadi” [1;232].

Forobiy nazlida bularning hammasi bilimlarni boshqaruvchi tug‘ma qobiliyat quvvatining ko‘rsatgichidir. Fikrlash va tahlil etish tufayli odam o‘zida avvaldan noma’lum bo‘lgan bilimlarni topadi. Ko‘pincha u qaysi xulosa foydali, qaysi biri zararli ekanligini bilmay hayratlanishi ham ehtimoldan holi emas. Ko‘pincha u tahlil, tekshiruvlar natijasida kashfiyoti, avval o‘zi sezmagan bo‘lsa ham, xato ekanligini keyin bilib qolardi. Fanlarga rag‘bat qilib, ularni o‘rganib, tahlil etib inson ulardan ba’zilari ishonchli va haqiqiy, ba’zilari esa – bo‘sh va ahamiyatsiz ekanligini bilib oladi. Ammo u o‘z izlanishlari tufayli haqiqatga olib boruvchi yo‘lda turgan bo‘lsa, bu kamolot darajasi bo‘ladi. Bu barkamollik o‘zining haqqoniyligi bilan intihosiga yetib bormagan bir chegara, o‘zidan keyin yana bir haddi bor manzildir [2].

Forobiy bilim tashkil bo‘lishi mexanizmini aniqlash, uning tabiatini tushuntirishga xarakat qiladi. Faylasuf tomonidan aqlga (intellekt) berilgan talqin bu masalaga doir qarashlarini oydinlashtiradi. Forobiy inson tug‘ilishi bilan tabiiy holda aqlga ega bo‘ladi. Aql aqliy shakllarni qabul qiluvchi moddada joylashadi [1;228-229], degan xulosaga keladi.

Forobiyning faol aql to‘g‘risidagi ta’limoti bilish nazariyasida ham yetakchi ahamiyatga ega. Faol aql nazariyasi orqali Forobiy fanning, ayniqsa, falsafaning cheksiz qudratini, kuch salohiyatini isbotlab berdi. Insonning faol aql bilan birlashuvi uning darajasiga ko‘tarilishi eng oliy baxt-saodatga erishuv demakdir. Bu birlashuv bilish yordamida amalga oshiriladi. Forobiy bilishning eng yaxshi usuli deb, ilm-fanni aytadi. Uning ta’kidlashicha, baxt-saodatga erishuvning eng to‘g‘ri vositasi ilm-fanni

egallashdan iborat bo‘lishi kerak. Uning falsafasidagi ratsionalizm olamni bilishning ilm-fanga asoslanganligini e’tirof etishidadir.

Forobiy ta’kidlashicha, haqiqatni bilish uchun ruhni tabiatning qullik zanjiridan xalos etishga yordam beradigan ma’naviy kamolot usullari(riyozat)dan foydalanish zarur. Forobiyning aql darajalari, ularning xususiyatlari va vazifalari haqidagi qarashlari borliq materiya, ong, jamiyat, inson to‘g‘risidagi barcha ta’limotlarida uyg‘unlashib ketgan. Bu holatni uning “Fozil shahar odamlari” asarida, ayniqsa, yaqqol ko‘ramiz. “Birinchi vujud (vujudi avval) haqida so‘z” deb nomlanadigan birinchi bobda barcha nuqsonlardan holi (pok) va abadiy mavjudlik hamda mutlaq komillik sohibi, ya’ni Tangri taolo haqida fikr yuritiladi. Faylasufning fikriga ko‘ra, azaliy vujud (Birinchi sabab) barcha borliqning ibtidosidir, uning muqaddas ruhidan aqli avval yuzaga kelgan Bu moddiyundan (materiyadan) kelib chiqmagan, bir vaqtning o‘zida azaliy vujud haqida ham va o‘z-o‘zi haqida ham fikrlovchidir. Aqli avval azaliy vujud fikri tufayli aqli soniy (ikkinchi aql)ni vujudga keltiradi va mazkur aqlning mohiyati xususida mushohadalari natijasida birinchi osmon paydo bo‘ladi. Ikkinchi aql (aqli soniy) o‘zi va birinchi aql haqida o‘ylaydi. Va uning o‘z vujudi va mohiyati to‘g‘risidagi mushohadalari (o‘ylari) natijasida ikkinchi osmon paydo bo‘ladi. Birinchi mavjudlikning (borliqning) mushohadasidan uchinchi aql paydo bo‘ladi. Bu darajalar o‘n birinchi mavjudlikkacha davom etadi, o‘n birinchi mavjudlik esa o‘ninchi aql va oxirgi sayyora, ya’ni oydir. O‘ninchi aql darajasida materiya (moddiyun yoki xayulo)dan holi, o‘z mohiyatiga ko‘ra ham aql va ham o‘z-o‘zicha aql hisoblanadigan narsalar darajalari tugaydi. Oyning paydo bo‘lishi bilan esa samoviy jismlar, ya’ni o‘z xususiyatiga ko‘ra aylanadigan jismlar darajalariga nuqta qo‘yiladi [1;175-176]. Forobiyning ushbu qarashida komillikning takomili bir qancha mavjudliklarni rivojlantirish asosida kechishi talqin etilgan. Unda ruhiylik (gen)ning o‘rniga ham alohida urg‘u bermoqda. YA’ni, xudo hammasidan oldin paydo bo‘lgan va undan keyin ruh (xudo tomonidan) yaratilgan. Ruh ba’zi hollarda insonda salbiylikni ham keltirib chiqarishi, aqlga to‘sqinlik qilishi mumkin. Forobiy axloqiy fazilatlarni ruh uchun badan salomatligidek narsa, deb tushungan. Demak, sihat-salomatlikni tiklash uchun inson tabibga ehtiyoj sezganidek, bemor insonning ruhi

uchun ham tabib zarurdirki, uni davolay olsin. Bundan ko'rinadiki, ruhni tarbiyalash aql va bilimni mujassam rivojlanishiga bog'liq bo'ladi. Ahloqiy fazilatlar va bilimni rivojlanishi komillik sari undashga yo'naltiradi. Komillikning shakllanishi insonda ko'plab fazilatlarni mujassamlashishiga olib kelishi ta'kidlanadi.

Forobiy o'z ustozlari yo'lidan borib boshliq aqliy haqiqatlar, ezgulik va haqiqiy saodatga eltuvchi bilimlarni egallagan faylasuf shahar raisi(hukmdor) bo'lishi lozim, deb hisoblaydi. Forobiy fikricha, falsafa haqiqat haqidagi fan. Haqiqatni esa faol aql bilan qo'shilgan odamgina qabul qila olishi mumkin. O'z aqlini oxirigacha takomillashtirgan odamgina shu martabaga ko'tarilishi. Shundagina insonda komillik fazilatlari namoyon bo'ladi. Faylasufning bu haqdagi fikrlari quyidagicha: "Agar odam nazariyada ham, amaliyotda ham o'z imkoniyati va qobiliyatini ishga solsa harakatchan bo'lsa mustafad aql orqali munfail aqlga o'tadi va undan xayolot quvvatiga o'tadi. Bunday odam faol aql yordamida munfail aqlga o'tgan qobiliyati tufayli komil faylasuf va mutafakkirga aylanadi. Aytish mumkinki, u shunday darajaga erishgan bo'ladiki, Alloh amrlari, g'ayb, olami ishlari haqida tushunish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bunday odam komillikning eng oliy darajasiga va baxtiyorlik cho'qqisiga ko'tarilgan bo'ladi, uning ruhi oldin aytganimizdek, faol aql bilan qo'shiladi. Bu odam qanday harakatlar saodatga olib kelishini biladi – deb ta'kidlaydi.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, Forobiyning komil inson g'oyasi haqidagi fikrlari bugungi kun tarbiyasida juda muhim ahamiyat kasb etadi. Forobiy asarlarida ilgari surilgan komillik har doim ham o'z o'rniga ega bo'lib qoladi. Uning g'oyalarida aks etgan teran fikrlar millionlab ilmiy asarlarni yuzaga kelishiga zamin yaratadi. Chunki, bir nechta maqola yoki ilmiy asarlar bilan Forobiy nazariyasini xalqqa yetkazib bo'lmaydi. Shu sababli ham Forobiy ilmiy merosini o'rganish uchun, jahon ilmiy markazalarini yo'naltirish maqsadga muvofiq bo'ladi va komil inson g'oyasini shakllantirish imkoni yanada kengayadi. Forobiy asarlarini tahlili bugungi tezisda qisqartirilgan holda talqin etilayotgani belgilangan reglament asosiga ko'ra tayyorlangan bo'lsada, keyingi ilmiy maqolalarimizda yanada kengroq izlanishlarni olib borish maqsad qilingan.

Адабиётлар

1. Abu Nasr Forobiy. Fozil odamlar shahri. “Янги аср авлоди” -Т.: 2018. 320 б.
2. Абу Али ибн Сино. Логика. Избранные произведения, том 1. Душанбе, “Ирфон” 1980 – С.420

Ilmiy rahbar: B.Omonov

ФАРҒОНА ВОДИЙСИНИНГ АНТИК ДАВР ҲИМОЯ ИНШОАТЛАРИ ҲАҚИДА АЙРИМ МУЛОҲАЗАЛАР

Норбобоев А.,
ҚарДУ магистранти

Бутун Ўрта Осиёда бўлгани каби антик даврнинг биринчи ярмида яьни (мил. авв. IV-I асрлар) Фарғона водийсида ҳам давлатчиликнинг тараққий этиши ҳимоя ва мудофа иншоотларининг ривожи учун кенг имкониятлар яратган эди. Бу жараён антик даврнинг иккинчи ярмида ҳам давом этди. Шунга қарамасдан водийдаги антик давр ҳимоя иншоотлари тараққиётига архаик (янада қадимгироқ) даврга асос солинганлигини ҳам таькидлаш лозимдир.

Атик давр Фарғона водийсида мил. авв. IV-I асрлар Шурабашот даври ва милодий I-IV асрлар Марҳамат даврлари ажратилган**[1:106-112].** Ҳозирги кунга келиб Шурабашот даври ёдгорликлари ҳимоя иншоотларида қатор тадқиқотлар олиб борилган. Шурабашот, Мингтепа, Сарвонтепа кўҳна шаҳарлари, Кулунчак, Хўжамбоғтепа каби қўрғонларнинг ҳимояланиш ҳимоя иншоотлари ҳақидаги тасаввурларни кенгайтиради.

Мингтепа кўҳна шаҳри Андижон вилояти, Марҳамат шаҳрининг шарқий чеккасида жойлашган бўлиб, 38 гектар майдонни эгаллаган. Ушбу кўҳна шаҳар антик давр Фарғона водийси бошқа ёдгорликлардан майдони, тўғри бурчакли режаси ва мустаҳкам ҳимояланганлиги билан ажралиб туради. Тадқиқотлар натижасида аниқланишича, кўҳна шаҳар тўғри бурчакли миноралари, 5 метр қалинликдаги мустаҳкам пойдевор устида қурилган қальаси бўлган қалин девор билан ўраб олинган**[2:64-66].** Аммо? дастлабки тадқиқотлар давомида кўҳна шаҳар ҳимоя деворларининг босқичма-босқич ривожланиши, кўҳна шаҳардаги бошқа ҳимоя иншоотларининг пайдо бўлиши масалалари очиқ қолганлиги сабабли кейинги тадқиқотларга эҳтиёж сезилди. Янги тадқиқотлар кўҳна

шаҳарнинг ҳимоя деворларида олиб борилди**[3:101-104].** Ушбу тадқиқотлар натижасида Мингтепа кўҳна шаҳрининг ҳимоя деворлари қўйидаги ўрта даврда мустаҳкамланиб борганлиги кузатилган:

Биринчи давр-мил. авв.III-I асрлар. Бу даврда энлилиги 2,5 метр ва тўғри бурчакли миноралари бўлган ҳимоя девори бунёд этилади. Минораларнинг ички томондан ўлчами 10,5x5,5 метр. Миноралар ва девор пахсадан қурилган бўлиб, уларда ўқ отиш шинаклари мавжуд**[4:39-48].**

Иккинчи давр-милодий I-II асрлар. Ҳимоя деворлари ва миноралар кучайтирилади, яьни, деворнинг қалинлиги 4 метргача баландлиги 4,2 метрга боради. Миноралар атрофи хом ғишт териб, ўраб олинганлиги боис эни 18 метрга кенгаяди. Эҳтимол минора хоналари ҳам мавжуд бўлган.

Учинчи давр-милодий III-IV асрлар. Ҳимоя деворлари ён томонида хом ғишт терилиб, ички ва ташқи томондан кенгайиб қалинлиги 7,3 метрга боради. Деворларда камондан ўқ отиш шинаклари кўпайтирилиб, минора хоналари қисқаради.

Мингтепа кўҳна шаҳри ҳимоя иншоотларининг ўзига хослиги шундаки, ҳар уччала даврда ҳимоя деворларида ички камондан ўқ отиш йўлаклари (коридор) мавжуд эмас эди. Худди шундай ҳолатни шимолий-шарқий Фарғонанинг Каркидон воҳасидаги Миқтиқурғон кўҳна шаҳридаги ҳимоя деворлари (қалинлиги 10 метргача)да ҳам кузатиш мумкин**[5:97-100].**

Шаҳарга кираверишдаги ҳудуд ҳамда шаҳар ичининг, ҳимоя деворларининг кўплаб қальалари билан ўраб олинганлиги Мингтепанинг кучли ҳимояланган кўҳна шаҳар бўлганлигини далиллайди. Худди шунга ўхшаш ўтроқ аҳолининг кучли ҳимоя тизими Парфия кўҳна шаҳарларида ҳам ўрганилган**[6:72-74].**

Водийдаги яна бир антик даврга оид ёдгорлик Сарвонтепа ҳисобланади. Ушбу ёдгорлик Андижон шаҳрининг шимоли-ғарбий қисмида жойлашган бўлиб, 6 метр баландликдаги тепаликдан иборат. Сарвонтепа илк марта Б. Абдулғозиева томонидан ўрганилган бўлиб, “милодий I-VIII асрлар” билан саналанган. Қазишмалар натижасида ушбу ёдгорликиккита қурилиш даврида қурилганлиги

ва 3 метр қалинликдаги деворлар билан ўраб олинганлиги аниқланган. Деворлар 1,5 метр шиббаланган тупроқ пойдевор асосда қурилган**[7:21].**

Мустақиллик йилларида Андижон шаҳрининг ёшини аниқлаш мақсадида Сарвонтепада ёдгорликлар қайта тикланди. Дастлабки ишлар Эйлатон маданиятига оид материаллар ёйилган маданий қатламларни аниқлашдан бошланиб, кейинроқ пойдевор асосларининг янада қадимгироқ қатламларини аниқлашга ҳаракат қилинган. Олиб борилган тадқиқотлар натижасида умумий майдони 15 гектардан иборат бўлган Сарвонтепа қальали манзилгоҳ бўлиб, мил. авв. I минг йиллик охирларидан милодий I минг йиллик ўрталаригача мавжуд бўлганлиги аниқланган. Ёдгорликда кучли ҳимоя иншоотларининг мавжудлиги Сарвонтепа воҳага киришдаги маьлум ҳимоя вазифасини бажарганлиги**[8:24]** ҳақидаги хулосаларга асос бўлиб хизмат қилган.

Фарғона водийсининг антик давр ҳимоя иншоотлари ҳақида гап кетганда таькидлаш лозимки, кўҳна шаҳарларнинг тархий режаси ҳар доим ҳам тўғри бурчакли бўлмасдан улар атрофи миноралар билан кучайтирилган мудофаа деворлари билан ўраб олинган. Кўҳна шаҳарларни бунёд этишда баьзан икки, баьзан уч томонида дарё, сой, жарлик кабилар мавжуд бўлган жойлар танланган. Айрим кўҳна шаҳарлар қўрилишида уларнинг ҳарбий-стратегик аҳамияти шунда кўринадики, улар айнан воҳалар марказида эмас, воҳани назорат қилиш мумкин бўлган чекка баландлик жойларда қад кўтарган.

Хуллас, антик давр Фарғона водийси мудофаа иншоотларини мавжуд манбалар асосида ўрганиш, бу жараённи Ўрта Осиёнинг бошқа тарихий-маданий вилоятлари мудофаа тизими билан қисман қиёсий таҳлил этиш шуни кўрсатадики, Фарғона мудофаа тизими эволюцияси ўзига хос бўлсада, бошқа ҳудудлардаги шу жараёнлар билан ўхшашлик топади. Таькидлаш лозимки, антик давр водийнинг ҳимоя тизимиривожида иккита аньана- деворлар қўрилишидаги аньанавийлик ҳамда илгариги тажрибаларни тез ўзлаштириш ҳолатлари яққол кузатилади. Вақт ўтиши билан ҳарбий қуролланиш, уруш олиб бориш стратегияси ва усулларининг ўзгариб бориши билан кўҳна шаҳар ва қальалардаги мудофаа тизими ҳам такомиллашиб борадики, бу жараён нафақат

Фарғона водийси, балки қадимги Ўрта Осиёнинг барча тарихий-маданий вилоятлари учун ҳам хосдир.

Адабиётлар

1. Горбунова Н.Г. Поселения Ферганы первых веков нашей эры// С.А.М., 1977. №3. С.106-112.

2. Заднепровский Ю. А., Матбабаев Б.Х. Городище Мархамат// ИМКУ. Ташкент. 1991. Вып. 25. С. 64-66

3. Матбабаев Б.Х., Абдуллаев Б.М. Исследование на западной оборонительной стены городишаМингтепа// Археологические исследование в Узбекистане-2001 год. Ташкент. 2002. С. 101-104.

4. Матбобоев Б.Х. Қадимги Фарғона мудофаа иншоотлариниг ривожланиш босқичлари // ОНУз.- Тошкент, 1997. 39-48 бб.

5. Горбунова Н.Г. Памятники Керкидонской группы в Южной Фергане // АСГЭ.- М., 1987.-Вып. 28. С. 97-100.

6. Кошеленко Г. А. Парфиянскаяфортификация // СА. №2. 1963. С. 72-74.

7. Абулгазиева Б. Восточная Фергана в дверности и раннем средневековье // Автореф. дисс. канд. ист. наук. Самарканд: ИА АН РУз. 1988. 21с.

8. Абдуллаев Б. М. Возникновение и этапь развития фортификации Ферганы в древности и средневековнье (кон. II тыс.дон.э.-нач. II тыс. ы. э) // Автореф. дисс. канд. ист. наук. самарканд. 2007. 24с.

BADIIY ADABIYOT: MAZMUNI VA IJTIMOIY AHAMIYATI

Qurbonov Asqar Bahodir o'g'li,
QarDU tyutori

Adabiyot atamasi oʻzbek adabiy tiliga XX asrning boshlarida kirib kelgan. Oʻtmishda badiiy adabiyot bilan birga ilmiy, tarixiy, axloqiy kitoblar ham adabiyot atamasi tushunchasi ham doirasiga kiritilgan boʻlib adabiyotning biror sohasidagi yutuqlarni umumlashtiruvchi asarlar majmui texnikaviy adabiyot, qishloq xoʻjaligi adabiyoti, siyosiy adabiyot va boshqalarga boʻlinadi. Sanatning bir turi badiiy adabiyot deb ham ataladi; voqelikni soʻz yordamida obrazlar orqali aks ettiradi. Adabiyot avval

og‘zaki bo‘lgan(xalq og‘zaki ijodi deb yuritilgan) yozuv paydo bo‘lgandan keyin esa yozma shaklga o‘tilgan. Adabiyot so‘z orqali insonning his-tuyg‘ularini keng va chuqur aks ettirish imkoniyatiga ega, shuning uchun ham u san’atning eng ommaviy turi hisoblanadi. Badiiy adabiyotning yetakchi 3 turi - epos, lirika, drama mavjud. Epos- voqelikning o‘zini inikos etadi, lirikada esa insonning voqelikdan olgan taassurotlari qo‘shib tasvirlanadi. Sharq qadimdan she’riyat tuyg‘ulari o‘lkasi bo‘lgan. Shu boisdan Sharq badiiy adabiyotida,ayniqsa, lirika keng rivojlangan. Drama - hayotni harakatda ifodalab, muallif asarni nutqisiz aks ettirgan. Badiiy adabiyot deganimizda, ilg‘or va taraqqiyparvar yozuvchilarning asarlaridan iborat badiiy olamni nazarda tutamiz. Qadimiy davrdan to hozirgi kunga qadar davom etib kelayotgan Sharq va G‘arb adabiyotining ilg‘or namoyandalari uchun adabiyotning birinchi vazifasi hayotning haqqoniy badiiy in’ikosi(obyektlarning o‘zaro tasiri natijasida modda, energiya va axborot almashishi jarayoni)ni yaratishdir. Biz hayot deganda mamlakat, jamiyat, xalq va ayrim shaxslar hayotini nazarda tutamiz. Badiiy adabiyot hayotni badiiy aks ettirish jarayonida shu hayotdagi go‘zallik va ezgulikni tasdiqlaydi, jamiyat va kishilar hayotidagi yangi va ilg‘or tamoyillarning qanot yozishiga xizmat qilib kelmoqda.

Badiiy adabiyotning muhim vazifalari inson obrazini yaratish, uning ichki olamini tasvirlash, tabiati va ruhiyatidagi go‘zallik kurtaklarining tashqi olam ta’sirida g‘uncha tugishi va gullashi jarayonini ko‘rsatishdan iborat. Kishilar tabiati va ruhiyatidagi ichki kechinmalar tashqi omillar ta’sirida har doim ham porlab turmasligi, aksincha, salbiy xislatlar, xuddi gulzordagi yovvoyi o‘tlar singari, bo‘y cho‘zishi mumkin. Badiiy adabiyot, ibrat maktabi sifatida, kishilarda yaxshi fazilatlarni shakllantiradi va hayotiy ko‘nikma insonni va uning ruhiy olamini aks ettiribgina qolmay, tabiatdagi va kishilar ruhiyatidagi go‘zallikni tasvirlash, tarixiy o‘tmishdagi, shuningdek, hozirgi davrdagi ibratli voqealar va ajoyib kishilar hayotini aks ettirish orqali kishilarga emotsional ta’sir o‘tkazish, zavq-shavq bag‘ishlash, ularni tarbiyalash, ularning barkamol insonlar bo‘lib shakllanishida faol ishtirok etadi. Badiiy adabiyot ana shu jihatlari bilan adabiyotning boshqa turlaridan farqlanadi. Badiiy adabiyotga oshno har bir odam tabiat va jamiyat go‘zalliklaridan yanada ko‘proq

bahramand bo‘ladi. "Kitob tafakkur qanotidir", degan edi alloma adibimiz Oybek. Kitob o‘qigan inson, qaysi sohada ishlamasin, to‘g‘ri fikrlash, oq-u-qorani ajratish, murakkab vaziyatlarda oqilona qaror qabul qilish ko‘nikmasi shakllanib boradi. Kitob o‘qigan inson nutqi ravon bo‘ladi, odamlarni o‘z ortidan ergashtira olishga qodir bo‘ladi.

Kitob – umr yo‘llarini yorituvchi so‘nmas nur, inson hayotiga mazmun baxsh etuvchi saodat manbai, unga har qanday vaziyatda ham hamroh bo‘luvchi sodiq do‘st bo‘lib xizmat qiladi. Insonning ma’naviy kamolotini ta’minlashda kitob singari kuchli qudratga ega bo‘lgan vosita yo‘q. Shu bois azal-azaldan ma’rifat ko‘zgulari, ahli donishlar butun insoniyatni kitob o‘qishga, undan ilm-u odob sirlarini o‘rganishga bo‘lgan chorlovi hozirgi kungacha davom etib kelmoqda. Kitob insonni yerdan ko‘kka ko‘taruvchi, uning ma’naviy quvvatini oshiruvchi buyuk kuchdir. U insoniyatning tarixiy xotirasi, ma’naviy olamini ilmiy yuksalishini mustahkamlovchi, kelajakni yorqin ko‘rsatib borishga qodir mash’ala hisoblanadi.

Axloq-odob borasida buyuk asarlar yaratgan Muhammad Jabalrudiy kitob haqida shunday deydi: "Ey, aziz! Kishi uchun kitobdan azizroq va yoqimliroq suhbatdosh yo‘qdir. Kitob fasohat, balog‘atda, latofatda tengi yo‘q, munofiqlikdan xoli hamrohdir. Yolg‘izlikda va g‘amli ayyomlarda munis ulfatdir. Unda na nifoq boru, na gina. U shunday hamdamki, so‘zlarida yolg‘on va xato bo‘lmaydi. Suhbatidan esa kishiga malollik etmaydi. U o‘z do‘stining dilini og‘ritmaydi. Yuragini esa siqmaydi. U shunday rafiqdirki, kishi orqasidan g‘iybat qilib yurmaydi. Uning suhbatidan senga shunday fayzli foydalar yetadiki, bunday foydani odamlardan topa olmaysan. Aksincha, aksar odamlar suhbatidan kishiga zarar yetadi. Kitobdek do‘st ichida barcha ilmu bilim mujassamdirki, u kishilarni o‘tmishdan va kelajakdan ogoh qilib turadi”.

Bugun jamiyatimizda kitobxonlikni rivojlantirish, ayniqsa, yoshlar o‘rtasida mutolaa madaniyatini rivojlantirishga davlat tomonidan alohida e’tibor berilib, ko‘plab samarali ishlar amalga oshirilmoqda. Jumladan, Prezidentimizning 2017- yil 12-yanvardagi " Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risida"gi farmoyishi, 2017-yil 13- sentabrdagi " Kitob

mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ib qilish bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar dasturi to‘g‘risida"gi va 2018-yil 12-maydagi "Buyuk allomalar, adib va mutafakkirlarimiz ijodiy merosini keng o‘rganish va targ‘ib qilish maqsadida yoshlar o‘rtasida kitobxonlik tanlovlarini tashkil etish to‘g‘risida"gi qarorlari asosida mamlakatimizda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirishga qaratilgan bir qator tashkiliy-amaliy chora-tadbirlar amalga oshirilishi jamiyatda kitobga bo‘lgan munosabatning ijobiy tomonga o‘zgarishiga zamin yaratdi. Yurtboshimiz tomonidan kitob mutolaasi muhimligini, yoshlar, rahbarlar orasida buni targ‘ib qilish lozimligi haqida ko‘p bora aytilmoqda. Davlat rahbari tomonidan Yoshlar ma’naviyatini yuksaltirish va ularning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etish bo‘yicha ilgari surilgan 5 ta muhim tashabbusning bittasi aynan kitobxonlikka qaratilgan bo‘lib, yoshlarimiz ma’naviyatini yuksaltirish, ular o‘rtasida kitobxonlikni keng targ‘ib qilish bo‘yicha tizimli ishlarni tashkil etishga yo‘naltirilgan. Ma’naviy hayotimizni yuksaltirishda ulkan ahamiyatga ega bo‘lgan ana shunday muhim vazifalarni kompleks hal qilish, kitob mahsulotlarini nashr etish va tarqatish tizimini takomillashtirish, o‘zbek va dunyo adabiyotining eng yaxshi namunalarini internet tarmoqlariga joylashtirish va ularni targ‘ib qilish hamda keng kitobxonlar ommasiga yetkazish ishlarini samarali tashkil etish, qadimiy va betakror diyorimizdan yetishib chiqqan buyuk alloma, adib va mutafakkirlarimizning boy ma’naviy merosini, umumbashariy sivilizatsiya, madaniyat, dunyoviy va diniy ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan ulug‘ ajdodlarimizning noyob asarlarini asrab-avaylash, kelgusi avlodlarga bezavol yetkazish, ularning nodir merosini, ibratli hayoti va ijtimoiy faoliyatini har tomonlama chuqur o‘rganish va targ‘ib etish, yoshlarimizni o‘zlikni anglash, milliy va umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ular o‘rtasida kitobxonlik madaniyatini ommalashtirish maqsadida keng ko‘lamli ishlar olib borilmoqda. O‘zbek tilidagi badiiy-adabiy kitob bazasiga 100 ga yaqin yangi kitoblar qo‘shildi va zukko kitobxon, yosh kitobxon tanlovlari e’lon qilindi,tanlovlar yosh kesimida o‘tkazildi va tanlov g‘oliblariga Prezident sovg‘alari topshirildi.

Odamlarda kitobga nisbatan uyg'onish bo'ldi,"Kitob turganda nega men bolalarimga mashina olib berishim, to'yini qilib berishim, eng zo'r kiyimlarni olib berishim kerak? Avvalo, ularga ilm berish kerak-ku", degan fikr paydo bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2020-2025-yillarga mo'ljallangan kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturi to'g'risida"gi qarori loyihasi muhokama uchun e'lon qilindi.

O'zbekistonda kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlashni yangi bosqichga olib chiqish, infratuzilma va o'quv tizimi, kitobxonlik bilan bog'liq muammolarga samarali yechimlar ishlab chiqish maqsadida, 2020-2025-yillarga mo'ljallangan kitobxonlik madaniyatini rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash milliy dasturi va uni amalga oshirish bo'yicha " Yo'l xaritasi" tasdiqlandi. Xalqimiz, avvalo, yoshlarning ma'naviy-marifiy, badiiy-estetik talablariga javob beradigan kitoblarni yuksak sifat bilan chop etish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar loyihasi belgilandi. O'zbekistonda 2021-yildan boshlab har yili aprel oyining birinchi haftasini "Kitobxonlik haftaligi" etib belgilangan.

Xulosa qilib aytganda, Kitob - insonning eng yaqin do'sti va maslahatchisi, aql qayrog'i va bilim manbaidir. Kitob fikrlash quroli, xazinalar kaliti, tafakkur manbai bo'lgani uchun ham xalqimiz uni nonday aziz, mo'tabar va muqaddas deb hisoblagan. Shuning uchun kitobga muhabbat, uni qadrlash, o'qishga ishtiyoq xalqimizning qon-qoniga singib ketgan. Kishining madaniyati uning kitobida aks etadi. Shu ma'noda bugungi kunda kitob o'qish va unga munosabat bir qadar susaygandek. Chunki yoshlar ko'proq kino, video, televideniye, kompyuter va uyali aloqa vositalariga berilib ketmoqda.

Istalgan yangilig-u axborotlarni uyali aloqa vositalari orqali, internet tarmoqlarining telegram, twittrr, whatsap, instagram, YouTube kanallaridan olish mumkin. Achinarlisi, bugun kitob o'qish uchun vaqt sarflashga hojat yo'qdek, aslida, hech bir axborot vositasi, kino yoki videofilm badiiy asar o'rnini bosolmaydi. Masalan, «O'tgan kunlar» romani asosida ishlangan film qanchalik mahorat bilan suratta olingan bo'lmasin, kitobning ta'sirini, jozibasini berolmaydi. Kitobxonlik oiladagi muhitga ham bog'liq. Ma'rifatli oilalarda kitobga e'tibor farzandlar

tarbiyasida qo‘l keladi. Inson o‘zining fikrlash qobiliyati, ma’naviyat dunyosi bilan tirik. Odamni boshqa mavjudotlardan ajratib turuvchi omillardan biri ham uning ma’naviyati hisoblanadi. Yuksak intellektual salohiyatga, o‘z mustaqil dunyoqarashiga ega, tashabbuskor, jismonan sog‘lom va ma’nan yetuk bo‘lgan haqiqiy vatanparvar insonlargina bugun tizimda amalga oshirilayotgan islohotlarning hal qiluvchi kuchi, xalqimizning haqiqiy ma’nodagi himoyachisi hisoblanadi. Jamiyat fuqarolariga yuqoridagi ijobiy sifatlarning shakllanishida esa ularning kitobga oshno bo‘lishi, nafaqat o‘z kasbiy faoliyatiga oid, balki turli janrdagi kitoblarni o‘qib, o‘z bilimi va dunyoqarashini kengaytirib borishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori, 13.09.2017 yildagi PQ-3271-son.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qarori, 14.12.2020 yildagi 781-son.
3. O‘zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.

YOSHLAR MA’NAVIYATINI TAKOMILLASHTIRISHDA SHARQ FAYLASUFLARINING QARASHLARI

Hamidov Farruh Tolibjonovich,
QarDU PI magistranti

Hozirgi davr bizdan ma’nan yetuk, ruhan sog’lom, ijtimoiy jihatdan salohiyatli barkamol yoshlarni tarbiyalashni talab qiladi. Bu borada yoshlarimiz ma’naviyatini kerakli darajada yuksaltirish davlatimiz taraqqiyotini muvaffaqqiyatlar cho’qqisiga yetaklaydi. Buning uchun avvalo yoshlar ma’naviyatini yuksaltirishimiz va bu bilan xalqimiz hayoti va turmushi farovonligiga erishishimiz mumkin.

O’z-o’zidan bugungi zamon ma’naviyatni davlat ahamiyatiga molik masalaga aylantira oldi. Jamiyatga ham jismonan, ham ruhan sog’lom fikrlovchi tarbiyali avlod zarur. Bunday avlodni tarbiyalashda bizga albatta sharqona odob-axloq me’yorlari, xalqimizga xos umumbashariy g’oyalar, ota-bobolarimizning buyuk nodir meroslarida jam bo’lgan yuksak ma’naviy qarashlar ruhida tarbiyalangan yoshlar zarur.

Mamlakatimizning barqaror taraqqiyotiga, qadriyat va urf-odatlarga hamda insonparvarlik g‘oyalariga xavf soluvchi turli ichki va tashqi tahdidlarga qarshi

samarali targ‘ibot ishlarini olib borish. aholining ijtimoiy-ma’naviy hayotida bunyodkorlik g‘oyalarini kuchaytirish, diniy bag‘rikenglik va millatlararo totuvlik muhitini yanada mustahkamlash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4307-sonli Qarori [1] qabul qilingan edi. 2019 yil 31 dekabrda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059-sonli Qarori [2] e’lon qilinib, 8 bob va 70 banddan iborat uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasi ilova qilindi. Shuningdek, ushbu konsepsiyada uzluksiz ma’naviy tarbiyani oilada, maktabgacha ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus kasb-hunar va oliy ta’lim tizimi, ishlab chiqarishda faoliyat ko‘rsatayotgan hamda band bo‘lmagan yoshlar o‘rtasida amalga oshirish bo‘yicha vazifalar ko‘rsatib berildi

Millatimizning ma’naviy xazinasida hikmatli so’zlar, pandu-nasihatlar, maqollaru masallar, ibrat-namuna olishga arziydigan, asqotadigan dono fikr- mulohazalar juda ko’p. Bu kabi tafakkur qarashlarida odob-ahloq, mehnatsevarlik, vatanparvarlik, oila sha’ni, ota-ona burchlari, farzandning ota-ona oldidagi vazifa- burchlari, vafo, sadoqat singari insoniy fazilatlar haqidagi uy-fikrlarni keng doirada qamrab olgan.

Bashariyat tarixining buyuk siymolaridan biri bo’lgan Amir Temur va Temuriylar davrida ilm–fan va madaniyat yuksalgan edi. Amir Temur nafaqat mohir sarkarda, u shuningdek, o’z hukmronligi davrida mamlakatda ilm-fan, san’at va madaniyat rahnamosi ham edi. U o’z rahbarlik yillari davomida mamlakatda ilm-ziyo tarqatish maqsadida bir qancha iqtidor va iste’dod egalarini kashf qildi va ilm-fan taraqqiyotida o’zining mislsiz homiyligi bilan mamlakatni butun dunyoga tanita oldi va bu ishlar keyinchalik temuriy shahzodalar tomonidan davomli amalga oshirildi.

Husayn Voiz Koshifiy o‘zining “Futuvvatnomai Sultoniy yohud javonmardlik tariqati” asarida futuvvat ilmining mohiyati, uning mavzui, kelib chiqishi, piru muridlik, shayxlik va shogirdlik munosabatlari, so‘fiylar va futuvvat ahliga qo‘yiladigan talablar, firqa shartlari, ular kiyadigan liboslari, bosh kiyimlar xulq odobi haqidagi fikrlar batafsil bayon qilinadi [3]. Koshifiy futuvvat ilmi to‘g‘risida so‘z yuritar ekan, uni tasavvuf va tavhid ilmining bir bo‘lagi sifatida ta’rifllaydi va uning

asosiy mavzusi inson ruhini tarbiyalash deb biladi. “Zero insonning ruhini fazilatli qilib yetishtirish mumkin”,-deydi mutafakkir. Allomaning fikricha, futuvvat tariqatiga mansub inson yaxshi axloqli, javonmard, shijoatli, sahovatli, xalq g‘amini o‘ylaydigan, insonparvar, kamtar, xokisor, xushfe’l bo‘lmog‘i zarur deyiladi.

Koshifiy ushbu risolasida javonmardlik tariqati, uning xususiyatlari, sifatlari shartlari, futuvvat axlining xislatlari, tariqatning maqomlari va boshqalar haqida ham ma’lumot beradi. Yana mutafakkir javonmardlikning ruknlari haqida gapirib, ular oltita botiniy ruknlardan iborat ekanligini aytadi. Husayn Voiz Koshifiy asarlarini o‘z davrining ilmiy tili –fors tilida yozgan bo‘lib, undan ko‘pgina ilmiy, badiiy tarjima asarlari ham meros qolgan. U falsafa, axloq, tilshunoslik, adabiyotshunoslik siyosat, tarix, kimyo, astronomiya, matematika, musiqa, voizlik, she’r san’ati, din tarixi, fiqh, tibbiyot kabi fanlarga oid 200 dan ortiq asarlar yozganligi manbalardan ma’lum.

Husayn Voiz Koshifiy “Axloqi Muhsiniy” asarida barkamol inson va u egallashi zarur bo‘lgan ma’naviy–axloqiy go‘zal fazilatlar haqida so‘z yuritadi. Ushbu fazilatlar inson komilligining zamini bo‘lib xizmat qiladi.

Buyuk mutafakkir Abulqosim Firdavsiy shunday degan edi: “Olamda eng avvalo inson aqli yaralgan. Aql-qalb posbonidir. Aql yana uch qo‘riqchi: til, ko‘z, quloqning ustidan ham posbonlik qilguvchidir. Zero, ezgulik va yovuzlik aynan ana shu uch a’zo orqali qalbga kirib boradi”.

Ahmad Yassaviy insondagi yomon illatlarni nafs deb biladi va unga qarshi kurash lozimligini uqtiradi. Nafsni tiymaslik, mol-dunyoga xirs qo‘yish, ta’magirlik, badnafslik, nokaslik, nodonlik, jaholat va razolatni qattiq qoralaydi.

Ahmad Yassaviy hikmatlarining katta bir qismi ayni shu masala talqinlariga bag‘ishlanadi. Uning ta’rifiga binoan, nafs “Yabon qushdek qo‘lga qo‘nmas” bir narsa. Bu “qush” o‘z xohishicha “parvoz” etaversa, odamni kundan-kun to‘g‘rilikdan ozdiraveradi. Oqibatda esa:

Nafs yo‘liga kirgan kishi rasvo bo‘lur.
Yo‘ldan ozib, toyib to‘zib gumroh bo‘lur [4-6].

Alisher Navoiy kishilarga mehr-muruvvat ko‘rsatishga, solih amallarni bajarishga, nafsni tiyishga, kambag‘allarga xayr-ehson qilishga, rahmdil va shafqatli

bo‘lishga, doimo xalq g‘amini yeyishga, ular tashvishida yashashga insonlarni da’vat qildi, insoniylik va odamiylikni har narsadan yuqori qo‘yadi:

Odamiy ersang demagil odami,
Oniki yo‘q xalq g‘amidin g‘ami [5].

Hazrat Navoiy o‘zining nasriy va nazmiy asarlarida komil inson uchun poydevor bo‘lib xizmat qiladigan odamiylikka, insonparvarlikning turli jihatlariga e’tibor beradi. Shoirning ta’kidlashicha, hayotda shunday odamlar borki, ular tashqi tarafdan inson qiyofasida bo‘lsa ham, qilgan ishlari, fe’l-atvori insonlarga xos emas. Ularning so‘zi bilan ishi turlicha, qilgan ishlari qabihlik va riyokorlikdan boshqa narsa emas. Bunday odamlarni insonlar qatoriga qo‘shib bo‘lmaydi, ular bilan do‘stlashishdan qochish kerak:

Kimniki inson desang, inson emas,
Shaklda bir, fe’lda yakson emas, Naxl sifat sham’ ila muz jo‘shasi ,
Munung o‘t, oning suv erur xo‘shasi. Kimniki aylay der esang mahraming
Ko‘p sinamay aylamagil hamdaming.

Buyuk alloma Abdulla Avloniyning “Turkiy guliston yoxud axloq ” kitobida keltirilgan so’zlari “Bolaning salomati va saodati uchun yaxshi tarbiya qilmak, ta’nini pok tutmak, yosh vaqtidan maslakini tuzatmak, yaxshi xulqlarni o’rgatmak, yomon xulqlardan saqlab o’sdurmakdur. Tarbiya qilguvchilar tabib kabidurki, tabib xastaning badaniga kasaliga davo qilgan kabi tarbiyani bolaning vujudidagi jahl maraziga “yaxshi xulq” degan davoni ichidan “poklik” degan davoni ustidan berub, katta qilmog’i lozimdur. Zeroki, “Hassinu axloqiko’m amri sharifi uzra xulqimizni tuzatmakg’a amir o’linganmiz. Lekin xulqimizning yaxshi bo’lishining asosiy panjasi tarbiyadir. Axloqimizning binosining go’zal va chiroyli bo’lishiga tarbiyaning zo’r ta’siri bordur, ba’zilar “ tarbiyaning axloqqa ta’siri yo’q, insonlar asl yaratilishida qanday bo’lsalar shunday o’sarlar, tabiat o’zgarmas ”, demishlar” [7].

Bu kabi misollar buyuk ajdodlarimizning nodir asarlarida juda ham mohirona tasvirlab berilgan. Ta’lim-tarbiya jarayoni bugun Yangi O’zbekistonda ham davlat siyosati darajasiga ko’tarilganligi, bu borada juda ko’plab islohotlar amalga oshirilishi zamonaviy ta’lim va tarbiyaga birdek yondashilayotganligi muammo va

kamchiliklarga barham berish borasida ko’plab ishlar qilinmoqda. Bu buyuk ishlarni amalga oshirish uchun biz albatta yana o’sha ildizlarimizga, ya’ni buyuk alloma va mutafakkirlarimizning bebaho ilm-ma’rifatiga suyanamiz. Bu ilmiy qarashlarning tub mohiyati yuksak fazilatlar egasi bo’lgan shaxs kamolotini tarbiyalashga qaratilgan.

Buyuk yunon olimi Aristotelning “Vatan taqdirini yoshlar tarbiyasi hal qiladi”, degan so’zlari bor. Qarang, bu fikrlar miloddan avval aytilgan . Demak, insoniyat ongli hayot kechira boshlagan davrdan buyon ta’lim va tarbiya masalasi doimo dolzarb ahamiyat kasb etib kelmoqda.

Bir o’ylab ko’raylik, dunyodagi rivojlangan davlatlar qanday qilib yuksak taraqqiyot va turmush farovonligiga erishmoqda? Eng avvalo, ilm-fan va ta’limga qaratilgan ulkan e’tibor tufayli emasmi? Shuning uchun ham keyingi yillarda yurtimizni har tomonlama taraqqiy ettirish, Yangi O’zbekistonni yaratish maqsadida barcha sohalar qatori ta’lim tizimida ham tub islohotlar olib borilmoqda.

Tarbiya ta’limning bir qismini, yaxshi xulq esa bir qismini tashkil etadi,.yaxshi xulqni o’z nafsimizga qarshi ishlatsakkina natijaga erishamiz. Yaxshi xulqlarni tarbiya bilan qo’lga kiritishimiz uchun oilada ota-ona, jamiyatda muallim ustozlarimizning, ota-bobolarimizning pand-nasihatlarini jon qulog’i bilan tinglovchi, doim xotirasida saqlovchi oiladagi tarbiya bilan zamonaviy ta’limni bog’lashimiz zarur.

Inson qalbiga yo’l avvalo ta’lim-tarbiyadan, ajdodlarimiz qoldirgan bebaho merosni o’rganishdan, oiladan boshlanadi. Zamonaviy ta’lim bu tinimsiz rivojlanib takomillashib boruvchi barcha zamon va makonni bir butun qilib o’rganishning turli yo’llarini ko’rsatuvchi tizimdir. Zero,”Moziyga qarab ish ko’rmoq xayrlidir”.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning “Ma’naviy-ma’rifiy ishlar samaradorligini oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-4307sonli Qarori.
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Uzluksiz ma’naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 1059sonli Qarori.

3. Husayn Voiz Koshifiy. Futuvvatnomai sultoniy yohud javonmardlik tariqati.– T.,1994–y. 7–b.
4. Кенжаева, Х. П., Тожиев, Ф. И., & Жураев, Б. Н. (2014). Роль женщин в создании и развитии демократического общества в Узбекистане. Инновации в технологиях и образовании (pp. 119-123).
5. Alisher Navoiy. Hayratul-abror. – T.: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1989. – 155 b.
6. Кенжаева Х. (2021). Миллий маънавий меросимизда таълим-тарбия масалалари. Общество и инновации, *2*(6/S), 18-24.
7. Abdulla Avloniy. Turkiy guliston yoxud axloq kitobi.- T.: 2008-yil 8-9-bet.

Ilmiy rahbar: I.Shoymardonov

ТАХТИ САНГИН ЁДГОРИИ БЕЗАВОЛИ ТОҶИКОН

Элмуродов Лутфулло, *донишҷӯи курси 5-уми ихтисоси таъриху бостоншиносии факултаи таърихӣ ДОТП Тоҷикистон*

Ёдгории Тахти Сангин дар қисмати ҷанубу шарқии ноҳияи Қубодиён, дар соҳили рости саргаҳи Амударё, ки оби рӯдҳои Вахшу Панҷ, Куҳандизи Афғонистон, Кофарниҳон ба ҳам омезиш меёбад ва рӯди Амударёро ташкил медиҳад, ҷойгир аст. Ёдгории мазкур аз тарафи ғарби кӯҳи Тешиктош (Рафеъ), аз шимол ва ҷануб бо иншооти дуқабатаи муҳофизаткунанда иҳота шудааст. Маъбад пурра сангӣ буда на танҳо сохтӣ меморӣ, балки ҳама ҷузъиёти он то ба имрӯз хуб пойдор мондааст[1]. Номи пешинаш шаҳраки Тахти Сангин маълум нест. Бо ин ном дар ягон сарчашмаҳои таърихи ёдовар нашудааст. Аммо дар ҳангоми кофтуковҳои бостоншиносӣ маълум гардид, ки тамоми девору роҳравҳо ва сутунҳои бузурги он аз санг бино шудааст, бинобар ин, олимони бостоншинос онро “Тахти Сангин” “Каменный городеще” номиданд[2]. Масоҳати умумии ин ёдгорӣ 85 гектарро ташкил медиҳад.

Дар солҳои 50 – уми асри – 20 бостоншиносон дар бораи ёдгории Тахти Сангин маълумотҳо ҷамовари кардан. Бостоншиноси шуравӣ А.М. Манделштам солҳои дароз дар водии Кофарниҳон кофтуковҳои бостоншиносӣ мегузаронд. Аз

рӯи маълумотҳои Хазинаи Амударё А.М. Манделштам соли 1952 дар шаҳраки Тахти Сангин хандақӣ омӯзишии бостоншиносӣ мегузорад, аммо чоҳи кандаи бостоншинос ягон натиҷа надод.[3] Баъдан дар солҳои 70-80 – уми асри бистум корҳои бостоншиносӣ дар шаҳраки Тахти Сангин аз тарафи Б. А Литвинский ва И. П. Пичикян аз нав рушд ёфт[4]. Дар натиҷаи ҳафриёт аниқ гардид, ки шаҳраки Тахти Сангин дар замони Ҳахоманишиён бунёд шуда дар замони Юнону Мақдуниҳо рушду тараққӣ ёфтааст. Қабатҳои аз ҳама болои ёдгори ба замони Кӯшониён рост меояд. Аз ин маълум мегардад, ёдгори бисёр қабата буда, аз замони санг то замони Кӯшониёнро фаро мегирад.

Кофтуковҳои бостоншиноси нишон доданд, ки шаҳраки Тахти Сангин дар асрҳои IV пеш аз милод бунёд шуда, то асри III милодӣ арзи вуҷуд кардааст. Дар дохили шаҳристон диж ё арки бузург қомат афрохта, ки дарозиаш 237 метр ва бараш 165 метр будааст. Диж ё арк аз қисматҳои дигар бо бузургию азамат фарқ мекард. Ин дижро боз Маъбади Ому (Храм Окс) низ меноманд[5]. Ин мавзеъ маҳалли зисти ашрофзодагон ва роҳбарони шаҳр ҳисоб мешуд. Ин албатта хоси шаҳрҳои пешрафтатарини замони атиқа аст. Арк бо деворҳои сангин иҳота шуда буданд, ки то ду метр ғафсӣ доштанд. Дар чор самт бурҷҳои дидбонӣ (муҳофизатӣ) вуҷуд дошт, ки то ҳашт метр баланд ва гирду пеши деворҳо хандақҳои семетра кофта буданд[6].

Дар тули 50 соли кофтукови пайдар пайи бостоншиносӣ аз ёдгории Тахти Сангин бозёфтҳои нодири аҳди атиқа ва маданияти элинистӣ ба дарс оварда шуд. Ҳамасола кофтуковҳои бостоншиносӣ дар ёдгории Тахти Сангин аз тарафи бостоншиносони тоҷик ва хориҷӣ идома додааст. Барои таърихи куҳанбунёди антиқаи тоҷикон саҳифаҳои нави маданияту фарҳанги аҷдодамонро равшани медиҳад.

Адабиётлар

1. Нъматов Н., Носирова Ф., Бобомуллоев С., Довутов Д., Исматов М. Таърихи халқи тоҷик Душанбе “Сарпараст” соли 2003 саҳ. 128

2. И.Р. П и ч и к я н. Открытие культового комплекса на Каменном городище в 1978 года. АРТ, выпуск XVIII. Душанбе: "Дониш" с. 1978 саҳ. 102-116

3. Қувати Дод, Фозили Абдуррашид, Қиёмиддин Сатторӣ Қубодиён Таърихи мухтасар аз аҳди қадим то ба имрӯз Душанбе “Бухоро” с. 2014. саҳ. 115

4. Пичикян И.Р. Возобновление работ на Каменном городище. АРТ, выпуск XVI. Душанбе: "Дониш" с. 1976 саҳ. 73 – 84

5. А.П. Дружинина, Т.У. Худжагелдиев, Х. Инагаки. Отчет о раскопках на городише Тахти Сангин в 2009-2010 гг. Работы на площади Храма Окса в раскопах №17 и №18. АРТ выпуск XXXVII. Душанбе: “Нашри Камол” с. 2016 саҳ. 280-317

6. Ҷонибек Асрориён, Музаффар Азизов. Тахти Сангин “Ирфон” Душанбе с. 2012 саҳ-32

O‘ZBEKISTONDA MODDIY- MADANIY YODGORLIKLAR, ADABIY YODGORLIKLAR O‘RGANILISHINING TARIXSHUNOSLIGI VA MANBASHUNOSLIGI

G‘aniyeva Mo‘mina Arslon qizi,
QarDU PI talabasi

O‘zbekiston xalqining umummilliy boyligi hisoblanadigan madaniy merosimizni muhofaza qilish, ilmiy oʻrganish va undan foydalanish borasida mamlakatimizda qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Xususan, "Buxoro, Samarqand, Xiva va Shahrisabz shaharlarining tarixiy markazlari YUNESKOning Umumjahon madaniy merosi ro’yxatiga, “Boysun madaniy muhiti”, “Shashmaqom musiqasi”, “Navroʻz”, “Katta ashula”, “Askiya”, “Palov madaniyati va anʼanalari” nomzodlari Insoniyat nomoddiy madaniy merosi reprezentativ roʻyxatiga, Usmon Qurʼoni, Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutining qoʻlyozmalar toʻplami, Xiva xonligi devonxonasi hujjatlari Jahon xotirasi roʻyxatiga kiritilgani yurtimiz madaniy merosining dunyo miqyosida eʼtirof etilganiga yorqin misol boʻla oladi"[1] .Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targʻib qilish tizimi yanada takomillashtirildi, Imom Termiziy

xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzurida O‘zbekistonga oid xorijdagi madaniy boyliklarni tadqiq etish markazi va O’zbekistondagi Islom sivilizatsiyasi markazi tashkil etildi.

Shu bilan birga, moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish uchun mas’ul organning tashkiliy-shtat tuzilmasi sohada davlat nazoratini samarali tashkil etish imkonini beryapti. Moddiy madaniy meros, shu jumladan, arxeologiya merosi obyektlari, muzey ashyolari va kolleksiyalari hamda madaniy boyliklarni muhofaza qilish va ulardan foydalanishga oid qonun hujjatlariga rioya etilishi ustidan davlat nazoratini amalga oshirish, moddiy madaniy meros obyektlarining davlat kadastrini yuritish, tarixiy, ilmiy, badiiy yoki o’zgacha madaniy qimmatga ega bo‘lgan obyektlarni aniqlash, ularni hujjatlashtirish va davlat hisobiga olish, moddiy madaniy merosning ko‘chmas mulk obyektlari toifalari va qo‘riqlanadigan tegralarini belgilash, shuningdek ulardan oqilona foydalanilishini ta’minlash.Tarixiy-madaniy va loyiha-smeta hujjatlarining ekspertizasini, moddiy madaniy meros obyektlarining tarixiy-madaniy qimmati va noyobligiga asrashga doir ishlarni putur yetkazmagan holda amalga oshirilishi bo‘yicha uzluksiz ilmiy-texnik nazoratni olib borish yulga qo‘yilgan.Alohida muhofaza qilinadigan tarixiy-madaniy va jahon madaniy merosi obyektlari jumlasiga kiritilgan hududlarda shaharsozlik va boshqa xo‘jalik faoliyatlarini ularning tarixiy-madaniy muhiti, tabiiy landshafti va o‘ziga xosligini saqlab qolgan holda olib borilishini muvofiqlashtirilmoqda. Adabiy-madaniy meros – o‘tmish moddiy-madaniy boyliklari. Ajdodlardan avlodlarga qolgan xalq og‘zaki ijodi, yozma adabiyoti, san’ati, me’morlik va hokazo namunalari. Adabiy-madaniy meros uni yaratgan xalq tarixi bilan izchil va mustahkam bog‘langan bo‘ladi; shu xalqning qadimgi davrlardan boshlab hozirgacha yaratgan va saqlanib kelgan adabiy-ma’naviy yodnomalari, moddiy-madaniy obidalarini o‘z ichiga oladi. "O‘zbek xalqining boy adabiy-madaniy merosi yozma tarix boshlangandan keyin axomaniylar (mil.av. 558 – 330), salavkiylar (mil. av. 312–64), O‘rxun-Yenisey tosh bitiklari, turkiy (uyg‘ur) qo‘lyozma yodgorliklar, Turk xoqonligi (552–745), Arab xalifaligi (632–1258) va keyingi davrlar, xususan Amir Temur va temuriylar, shayboniylar, ashtarxoniylar, uch xonlik, Rossiya istilosi, sho‘rolar tuzumi davrlarida va, nihoyat,

mustaqillik yillarida bunyod etilgan og‘zaki, yozma va moddiy yodno-ma hamda yodgorliklardan iborat. Bular o‘zbek xalqining urf-odatlari, rasm-rusmlari, bayramlari, xalq ijodi namunalari, adabiyot va fan sohasida yaratilgan manbalar, tasviriy va amaliy san’at hamda musiqa asarlari, qadimgi bitiklar va arxeologik topilmalar, rang-barang me’moriy obidalarni qamrab oladi".[1] Adabiy-madaniy merosni saqlash va o’rganish ham tarixiy, ham ma’rifiy qimmatga ega. Bular o‘zbek xalqining milliy iftixori hisoblanadi. Sho‘rolar tuzumi davrida, xususan qatag‘on yillarida adabiy-madaniy merosga nisbatan butunlay noto‘g‘ri, mafkuraviy munosabatda bo‘lindi. O‘tmishda yashab ijod etgan bir qancha shoirlar ijodini o‘rganish man etildi, arab yozuvida bitilgan qo‘lyozmalar yo‘q qilindi. Adabiy-madaniy merosning zukko bilimdonlari quvg‘in ostiga olindi; Abdulla Qodiriy, Fitrat, Cho‘lpon va boshqa adib, shoir, olim va ziyolilar qatl etildi, o‘nlab masjid va madrasalar buzib tashlandi, xalq marosimlari va bayramlarini o‘tkazish taqiqlandi. Bu borada turg‘unlik yillari qatag‘on davrining o‘ziga xos davomi bo‘ldi. 12 jildli O‘zbekiston milliy ensiklopediyasini nashr etishga kirishilganligi adabiy-madaniy merosni ilmiy o‘rganish yo‘lidagi muhim tadbir bo‘ldi. Imom Buxoriy, Bahouddin Naqshband singari islom dinini targ‘ib qilish yo‘lidagi xizmatlari bilan dunyoga tanilgan buyuk vatandoshlarimiz dafin etilgan joylar obodonlashtirilib, ziyoratgohga aylantirildi. Ularning hayoti va ilmiy merosini o‘rganishga bag‘ishlangan kitoblar chop etidi." Amir Temir hayoti va faoliyati, temuriylar davri madaniyatiga oid kitoblar nashr etildi. O‘rta asrning noyob madaniy yodgorligi "Usmon Qur’oni" o‘z egalariga – O‘zbekiston Diniy boshqarmasiga qaytarildi. "Alpomish" dostoni yaratilganligining 1000 yillik yubileyi o‘tkazildi. Xalq me’morligining noyob namunalari bo‘lgan bir qator me’moriy yodgorliklar ta’mirlandi. Ahmad Yassaviy, Rabg‘uziy, Husayniy, Huvaydo, Behbudiy va boshqalar ijodi haqida tadqiqotlar olib borilmoqda, asarlari nashrga tayyorlanmoqda, Qur’on va Hadis ham birinchi marta o‘zbek tiliga tarjima qilinib ommalashtirildi, qatag‘on qilingan shoir va adiblarning asarlari ko‘plab nusxalarda chop etildi, unutilishga mahkum etilgan qator hunarmandchilik sohalari qayta tiklandi va xalq bayramlari tantanali nishonlanmoqda.O‘zbekiston – turli davrlarga oid arxeologik yodgorliklar saqlanib qolgan qadim Sharq mintaqalaridan biri sifatida, dastlab XIX asr oxirlaridan

boshlab V. V. Bartold, N. I. Veselovskiy kabi yirik sharqshunos olimlar, Akram Polvon Asqarov, Mirzo Abdullo Buxoriy, Muxammada Vafo, V. L. Vyatkin kabi mahalliy ishtiyoqmandalar tomonidan tadqiq etilgan boʻlib, bu oʻz navbatida Oʻzbekistondagi yosh fanlardan biri arxeologiyani shakllanishiga va rivojlanishiga zamin yaratgan".[2] Oʻzbekistonda arxeologiya fanining toʻlaqonli shakllanishi XX asr boshlariga toʻgʻri kelib, bu OʻzR FA Tarix va arxeologiya instituti, muzeylar, universitetlar, San’atshunoslik institutlarining davriy ekspeditsiyalari faoliyati bilan bevosita bogʻliqdir." 1970-yil 19-avgustda Oʻzbekiston Vazirlar Mahkamasining № 426-qarori asosida OʻzR FA Tarix va arxeologiya instituti bazasida Oʻrta Osiyo mintaqasida yagona boʻlgan Arxeologiya instituti tashkil etildi. Arxeologiya instituti 1970-yil 30-sentabrdan Samarqand shahrida oʻz faoliyatini boshladi va 1988 yilda institutga uning tashkil etilishida katta hissa qoʻshgan olim, OʻzR FA akademigi Yahyo Gʻulomov nomi berildi".[4] Shu vaqtdan boshlab moddiy va ma’naviy madaniyat tarixini tiklash uchun qadimgi yodgorliklarni tadqiq qilish, Oʻzbekistonning qadimgi davri yodgorliklarini davrlashtirish, mintaqaning sugʻorilishi tarixi, arxeologik yodgorliklarni restavratsiya va konservatsiya qilishning ilmiy uslublarni ishlab chiqish institutning asosiy tadqiqot sohalariga aylandi. Shu bilan bir qatorda Oʻzbekiston halq xoʻjaligi qurilish hududlaridagi tarixiy madaniy yodgorliklar roʻyxatini tuzish ishlarini tashkil etish kabi amaliy ishlar ham olib borila boshlandi. "Institut ilmiy xodimlarining tadqiqotlari tufayli tosh davriga oid oʻnlab: Paltou va Obiraxmat gʻor manzilgohlari, Koʻlbuloq, Qoʻtirbuloq, Xoʻjamazgil kabi ochiq turdagi manzilgohlar, Uchtut, Koʻlbuloq, Qopchigʻay, Vaush singari tosh davri kremniy sanoati ustaxonalari, Qoʻshilish, Obishir gʻori, Machay gʻori kabi mezolit manzilgohlari; Amudaryo va Zarafshon havzalaridagi yuzlab neolit davriga oid manzilgohlar oʻrganilib, Oʻzbekiston xalqlarining qadimgi davrdagi madaniyati Yevropa va Janubiy – Sharqiy Osiyo madaniyatlari oʻrtasidagi koʻprik vazifasini bajarganligi aniqlandi."[3]

Adabiyotlar

1. Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent, 2000-yil.

2.http/savia.uz.

3. ziyonet.uz.

4.lex.uz.

ISLOM DINI TA`LIMOTIDA KOMIL INSON OMILI

Raximova Anora Alijonovna,
QarDU PI magistranti

Bugungi kunda zamon shiddat bilan o`zgarib bormoqda. Bu o`zgarishlarni har bir sohada ko`rishimiz mumkin. Masalan xoh u ta`lim sohasida, xoh oilada, xoh tarbiya mezonlarida yaqqol namoyon bo`lmoqda. Bu jarayonlarda dinning o`rni alohida o`rin egallamoqda. Xo`sh din o`zi nima? Din bu xulq, din xushmomilalik, din e`tiqoddir. Din so`zining lug`aviy ma`nosi arabcha so`z bo`lib, " e`tiqod, ishonch" degan ma`nolarni bildiradi. Islom dini ta`limotiga ko`ra yakkaxudolik dinidir. Islom so`zi arabcha so`z bo`lib " bo`ysinish, itoat etish, o`zini ollohga topshirish" ekanligini anglatadi. Islom diniga amal qiluvchilar esa " muslim " deb ataladi. Muslim so`zi arabcha so`z bo`lib, " sadoqatli" degan ma`noga ega. Islom dini VII asrda Xijozda ya`ni Arabistonda paydo bo`lgan. Din barcha sohadagi odoblarni va komillikni o`rgatadi.

O`zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyev ta`biri bilan aytganda ,, Jinoyat qidiruv sohasidagi dolzarb muammolardan biri terrorizm va diniy eksterimizmga qarashi kurashdir. Hozirgi kunda diniy eksterimistik oqimga qo`shilayotganlar sonini keskin kamaytirib, bu illatni ildizi bilan butunlay quritish taminlanmayotganligi uchun kim javob beradi? Eng achinarlisi, mazkur shaxslarning 11% ayollar, 9% esa 18 yoshdan 30 yoshgacha bo`lgan yoshlar tashkil etadi. Qidiruv e`lon qilingan 2988nafar diniy eksterimizm tarafdorlaridan o`tgan yili bor yo`g`i 75% nafari ushlangan, xolos". [1:318]

Dining asosiy vazifasi shaxsni komil inson qilib tarbiyalashdir. Bu borada islom dini eng yetakchi dinlardin biri hisoblanadi. Nafaqat islom dini balki, jahondagi barcha yirik dinlar bu dunyoni foniy o`tkinchi hisoblaydi. Ular insonning yashashdan asl maqsadi bu dunyoda xayrli savobli ishlar qilib keyingi dunyoga yaxshi amallar bilan borishdir. Barcha dinlarda inson hayotining mohiyati, mazmuni, kishilar o`rtasidagi siyosiy, huquqiy, ahloqiy munosabatlarni tenglik va adolat mezonlari asosida o`rnatish masalasi ozmi ko`pmi o`z aksini topgan. Shu boisdan har bir inson avvalo dinlar tarixini, ularning asl mohiyatini chuqur bilishi lozim. Shundagina

g`arazli maqsadlarni ko`zlab yurgan kuchlar ularni yo`ldan chalg`ita olmaydi. Bu o`z navbatida dunyoviy va huquqiy davlat barpo etishga xizmat qiladi. Dunyoviy davlatda davlat qonunlari asosida barcha dinlarga , aqidalarga , e`tiqod egalariga keng imkoniyatlar yartib bergan. Diniy tashkilotlar bilan munosabatlarning qonun asosida, ularning haq-huquqlarini xurmat va himoya qilish asosida olib borilayotgan e`tiqod erkinligi amalda taminlamoqda. Ayni vaqtda diniy tashkilotlar ham qonun oldidagi burch va majburiyatlarni bajarish yo`lida o`z xoxish hamda irodasi bilan bog`liq faoliyat olib borish uchun barcha imkoniyatlarga egadirlar.

Odamlar doimo turli dunyoqarash va e`tiqod bilan yashaydilar. Har kimning o`z ichki dunyosi, o`z e`tiqodi bo`ladi. Komil insonni tarbiyalash uchun ma`naviyat-ga odob-ahloqqa bag`ishlab o`lmas asarlar qoldirgan donishmandlarni alohida asalarni eslatib o`tishimiz lozim. Bu asarlar yoshlarimizni to`g`ri yo`lga , vatanga muhabbat ruhida tarbiyalashga asosiy ro`l o`ynaydi. Jumladan, Nizomul-Mulkning ,, Siyo-satnoma", ,,Rushoinoma", Yusuf Xos Xojibning ,, Qutadg`u bilik ", Mahmud Qosh-g`rining ,, Devonu lug`atit turk" , Kaykovusning ,, Qobusnoma", Ahmad Yugnakiy-ning ,, Xibbatul-xaqoyiq ", Alisher Navoiyning ,, Mahbub ul-qulub" , ,, Vaqfiya" kabi qimmatli , sermazmun asarlari bu o`rinda haligacha o`z qimmatini yo`qotmagan.

Mumtoz shoirlarimiz Abdulqosim Firdavsiy, QAbdulla Rudaki, Nosir Xusrav, Ahmad Yugnakiy, Sakkokiy, Alisher Navoiy, Abduraxmon Jomiy, Maxtumquli, Ogahiy, Zahiriddin Muhammad Bobur kabi daholarimiz o`zlarining bebaho badiiy asarlarida jamiyathayotiga, yoshlar ma`naviyati va dunyoqarashiga, tarbiyasiga oid qimmatbaho fikrlar qoldirganlar. Vatan mehri, milliy g`urur ma`naviyatini tarannum etganlar [2:252]

Har bir jamiyat o`z sharoiti, xususiyati, ijtimoiy mazmuniga tayanib yoshlarni tarbiyalaydi, ma`naviyatini boyitadi, dunyoqarashini shakillantiradi. O`z navbatida yoshlar kattalardan ortirgan tajribalarini amaliyotda qo`llab, o`zlariga ma`qul bo`lgan qarashlarga asoslanib ish yuritadilar. Islomning Qur`oni Karimdan tashqari yana bir muqaddas manbai hadislardir. Ularning to`plami-sunnatdir. Yuzlab arab muhaddislari to`plagan, dunyodagi eng yirik xalqlar tillariga tarjima qilingan hadislar islomning g`oyat boy, ko`p qirrali manbasi hisoblanadi. Respublikamizda eng ko`p tarqalgan va

o`zbek tiliga tarjima qilingan hadislar Ismoil Buxoriyning 4 jildli ,,Sahihi al-Buxoriy" to`plamlari, Iso Termiziyning Sahihiy Termiziy" degan majmuasidir. [3:483] yana Alouddin Mansurning ,,Muhammadpayg`ambarning qissasi. ,, Hadislar" nomli kitobi shular jumlasidandir.

Islom manbalari bo`yicha diniy va ilmiy asarlar yaratgan alloma- olimlar, ulamolarning fikrlarini tahlil qilishimizning sababi shundaki, yoshlar o`z ma`naviyatlari, ilmiy-falsafiy dunyoqarashlari uchun kerakli xulosalarni bu manbalardan foydalanishimiz mumkin. Zero, demokratik va huquqiy davlat qurishga kirishgan O`zbekiston yoshlarining qanday dunyoqarashga ega bo`lishlariga aslo befarq qaray olmaymiz.

Xulosa qilib aytganda, islom dini ta`limotida komil inson omilini shakillantirishda islom manbalaridan va hadislaridan hozirgi kunda oqilona foydalanish mumkin va zarur. Komil insonni shakillantirishda faqat diniy manbalardan emas, balki dunyoviy fanlar, umumbashariy qadryatlar asosida lmiy hamda tarbiyaviy, ishlar amalga oshirilishi maqsadga muofiqdir. Fan texnika taraqqiyoti davrida jamiyatimiz hayotiga radio, video, auitexnika qurilmalari kirib kelmoqdaki, natijada yoshlarda turli videofilmlar ko`rish imkoniyati kengaymoqda. Ayniqsa, sharqona mintalitetimizga mos kelmaydigan g`arb davlatlarining jangari tasma va yozuvlari, behayolik, zino kirdikorlarini aks ettiruvchi vidofilmlarni ko`rishga yoshlar yashirincha jalb qilinish hollari uchrab turadi. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi asosida mamlakatimizdagi turli diniy tashkilotlar vakillarining bir-birlari bilan do`stona munosabat o`rnatishlari va hamkorlikda faoliyat ko`rsatishlariga yaqindan yordam ko`rsatmoqda. Bu esa o`z navbatida , dinlararo, millatlararo do`stona munosabatlar aloqalarini yana ham tiklamoqda. Milliy davlatchiligimizga hos bo`lgan dinlararo bag`rikenglik, odamlar orasidagi munosabatlarni ijobiy tomonlarini boyitib borishga qaratilgan davlatimiz siyosati va uning inson qadrini ulug`lash, haq-huquqlariga daxl qilmaslik , ularning urf-odati qadryatlariga xurmat bilan qarash kabi jihatlarni faqatgina dinlar emas, balki davlatimiz hamda yurtboshimiz tomonidan olib borilayotgan ishlarda o`z ifodasini topmoqda. Bu yuqorida aytilgan dunyoviy, diniy ta`limotlar va hadislardan foydalanib o`tkaziladigan tadbirlar katta ahamiyatga ega.

Adabiyotlar

1.Sh Mirziyoyev. Milliy taraqqiyot yo`limizni qat`iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko`taramiz. –T O`zbekiston NMIU,2019. 318- bet.

2. Siyosatnoma (siyar-ul muluk).T. „Yangi asr avlodi" 008. Sh. Vohidov. Fors tilidan tarjima. 252-bet.

3.A.Mansur. Qur`oni Karim ma`nolar tarjimasi. T.2013.483-bet

4.Qutadg`u bilig`.-Toshkent. : Yangi asr avlodi" 201.145-bet

5 Dinshuoslik. O`quv qo`llanma. T-.: O`zbekiston faylasuflari milliy jamiyati, 2020. – 72-bet.

6. O`zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi –Toshkent, O`zbekiston. (1992) 2011 yil.

Ilmiy rahbar: Mamatov Mahmut

O‘ZBEK MATNSHUNOSLIGI TARAQQIYOTIGA BIR NAZAR

Mahmudov A'loxon Ahadjon o‘g‘li,
QarDU PI talabasi

O‘zbek matnshunosligi shu paytga qadar salmoqli yutuqlarni qo‘lga kiritdi. Bu yutuqlar, ayniqsa, ulug‘ mutafakkir Alisher Navoiy asarlarini o‘rganishda yaqqolroq ko‘zga tashlanadi. Solih Mutalibov, Bois Qoriyev (Oltoy), Rahmat Majidiy, Holid Rasulov, Hamid Sulaymonov, Mahmudali Yunusov, Porsoxon Shamsiyev, Azizxon Qayumov, Mahbuba Qodirova, Matyoqub Qo‘shjonov, Suyima G‘aniyeva, Shuhrat Sirojiddinov, Vahob Rahmonov singari ustoz olimlarning bu boradagi faoliyati tahsinga loyiq. “Xamsa”, “Mezonul-avzon”, “Majolisun-nafois” kabi asarlarning ilmiy-tanqidiy matnining yaratilgani nafaqat navoiyshunoslikni, shu bilan birga matnshunoslik sohasini ham yangi bosqichga yuksaltirgani bugun hech kimga sir emas [7.].

Matnshunoslik tarixida temuriylar davri katta bir yuksalish bosqichi sanaladi. Bu davrda o‘zbek matnshunosligida klassik asarlarni o‘rganish va ularni tayanch nusxalarini yaratish borasida katta yutuqlarga erishildi. Hozirgi zamon matnshunosligi o‘tgan asrning 30-yillaridagi suronli davrlardan keyin yangidan bo‘y ko‘rsatdi.

O‘zbek matnshunosligining shakllanishi uzoq davom etgan jarayon. Uning dastlabki, sodda ko‘rinishlarini turkiy bitiklar bilan bog‘liq hollarda ko‘rish mumkin. O‘zbek matnshunosligi deganda faqat arab yozuvidagi qo‘lyozma manbalarni o‘rganish tushinilmasligi kerak. Matnshunoslikning qamrovi nihoyatda keng: bunga ko‘k turk yozuvidagi bitiglardan tortib moniy, uyg‘ur va islomdan oldingi davrlarda boshqa yozuvlarda yaratilgan matnlarni o‘rganish ishlari ham kiradi. shunday ekan, ota-bobolarimiz islomdan burungi davrlarda yaratgan bitiglarni o‘rganish, ularning ilmiy nashrlarini yaratish ham muhim ishlardan sanaladi [1. 7-14 B.].

Qadmgi matnchilikning eng muhim belgilaridan biri shundaki, matn bitguchilar, matn mazmuniga, uning tuzilishi, uslubiga jiddiy e’tibor qaratib kelganlar. Matn tuzish jarayonida o‘zlaridan avval to‘plangan bilim va tajribalarga izchil amal qilingan. Qay zamonda ko‘chirilishidan qat’i nazar, matnni aslidek saqlash kotiblarning burchi sanalgan. Yozma merosni o‘rganishda buning singari qoidalar e’tibordan chetda qolmasligi kerak.

Matnshunoslikning barcha ijtimoiy fanlar, jumladan, adabiyotshunoslik, arxeografiya, dialektologiya va tarixiy tilshunoslik singari sohalar bilan munosabati masalasi ancha chuqur o‘rganilgan. Bu fanga oid muammolarni hal etishda dunyo olimlari paleografiya, mumtoz poetika va stilistikada erishilgan yutuqlardan samarali foydalanmoqda. Modomiki sohani rivojlantirmoqchi ekanmiz, bu tajribalarni tanqidiy o‘rganishimiz zarur. O‘zbek matnshunosligi o‘ziga xos xususiyatlarga ega.

Ma’lumki, o‘tgan asrda xalqimiz tarixiga oid yozma manbalarni izlab topish, to‘plash, ilmiy muomalaga olib kirish bo‘yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi [3. 3-9 B.]. O‘zbekiston hududida mavjud davlat kutubxonalarida to‘plangan yuzlab qo‘lyozma manbalar O‘zbekiston Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik instituti tashkil etilgach, uning qo‘lyozmalar fondiga birlashtirildi. Uzoq yillar davomida institut xodimlari tomonidan olib borilgan izlanishlar natijasida jahonda o‘zining hajmi va salmog‘i bilan yetakchi o‘ringa chiqqan bebaho qo‘lyozmalar xazinasi yaratildi. Tarixiy manbashunoslik sohasi jadal rivojlanib, olamshumul yutuqlar qo‘lga kiritildi.

O‘zbekiston mustaqillikka erishgandan so‘ng esa Sharq qo‘lyozmalarini o‘rganish, xalqimiz mulki bo‘lgan turli qo‘lyozma manbalarni topish, tadqiq qilish va nashr etish ishlarining keskin jonlanishi, ayniqsa, milliy uyg‘onish, milliy iftixor va g‘urur mafkurasi asosida o‘tmish ijodkorlarimiz asarlarini o‘rganish matnshunoslik sohasining jadal rivojlanishiga turtki berdi. Yuzlab qo‘lyozma manbalar hozirgi o‘zbek imlosiga transliteratsiya qilinib chop etildi. O‘zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik ilmiy-tadqiqot instituti, mamlakatimiz kutubxonalari va ma’rifatli fuqarolarimizning qo‘llarida saqlanayotgan bebaho qo‘lyozma manbalar olimlar ko‘magida nashr etilib, xalqimizga taqdim etildi. Ana shunday sa’y-harakatlar natijasida biz ilgari nomlari butkul noma’lum bo‘lgan yoki mustabid sho‘ro tuzumi mafkurasi o‘rganishni man etgan yuzlab mutafakkirlarimiz, diniy arboblarimiz va adiblarimizning ilmiy-ijodiy merosidan bahramand bo‘la boshladik.

Ayniqsa, badiiy asarlar matnini o‘rganish, chop etish ishlarida sezilarli ko‘tarilish bo‘ldi. Ilgari kam o‘rganilgan ko‘plab shoirlarimizning asarlari to‘liq tiklanib, mustaqillik mafkurasi nuqtai nazaridan qayta ko‘rib chiqildi. Ushbu xayrli ishlarni amalga oshirishda faqat sharqshunos olimlar emas, balki arab imlosidan xabardor barcha adabiyot ixlosmandlarining hissa qo‘shgani mamlakatimizda qo‘lyozma manbalarni to‘plash, o‘rganish va chop etish ishlarining keskin ko‘tarilishiga xizmat qildi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoev tomonidan 2017-yil 24-mayda imzolangan “Qadimiy yozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qaror matnshunoslik, adabiy manbashunoslik, tilshunoslik, madaniyat tarixi sohalarida milliy madaniyatimizning hali o‘rganilmagan ko‘pgina qatlamlarini ochib berishga yo‘naltirilgan ilmiy tadqiqodlarni olib boorish, qo‘lyozmalar bilan ishlash malakasiga ega bo‘lgan yosh mutaxassislarni reja asosida maqsadli tayyorlash uchun katta imkoniyat eshiklarini ochdi.

Ustoz Mahmud Hasaniy va Alimulla Habibullayevlar tomonidan 2012-yilda magistrlar uchun “Sharq mumtoz adabiyoti manbashunosligi va matnshunosligi” fani

doirasida yozilgan o’quv qo’llanmasi ham tahsinga loyiqdir. Mazkur o‘quv qo‘llanma ikki qismdan iborat bo‘lib, birinchi qism o‘tmish yozma yodgorliklari matni ustida ishlash va ularni ilmiy jamoatchilikka, xalqqa yetkazishning nazariy masalalarini, ikkinchi qism esa qo‘lyozmalar fondida qo‘lyozma kitoblarni ilmiy tavsiflash jarayonida barqarorlashgan tartibotni o‘zida mujassam etgan. Ya’ni, matnshunoslik hamda adabiy manbashunoslik sohasining bir qancha nazariy masalalari umumlashtirilib kitobxon e’tiboriga havola qilingan. Qo‘llanmada fihrist nashrlaridan olingan ko‘pgina namuna va ko‘rgazmali hujjatlar, manbashunoslik va matnshunoslik sohasidagi zamonaviy yutuqlar natijasida yuzaga kelgan ko‘pgina nazariy fikrlar o‘z tajassumini topgan.

Shuningdek, asarda rus matnshunos olimi akademik D.S. Lixachev tadqiqotlarining sharq matnshunosligi uchun muvofiq keladigan o‘rinlari bilan o‘zbek matnshunosligining yutuqlarining sintezi ifodalangan [2.136 B.]. Qolaversa, o‘zbek matnshunos olimlaridan I.Abdullayev va M.Hamidovalarning ilmiy ishlariga murojaat qilingan.

O‘zbek matnshunosligining yana bir mo‘tabar manbasi 2015-yilda ustoz Shuhrat Sirojiddinov va Sohiba Umarovalar tomonidan yozilgan va “Akademnashr” nashriyotida chop etilgan “O‘zbek matnshunosligi qirralari” nomli monografiyadir [4. 128-b.]. Sharqshunos va filolog mutaxasislar, milliy ilmiy-adabiy merosimiz tadqiqotlari, qo‘lyozma manbalar tadqiqi bilan qiziquvchi barcha kitobxonlarga mo’ljallangan mazkur monografiyada o‘zbek matnshunosligi o‘z taraqqiyot bosqichlarida tajribadan o‘tkazgan tadqiq usullari va prinsiplari tahlil etilgan hamda bir sistemaga keltirilgan.

Qisqasi, mustaqillik yillarida matnshunoslik va manbashunoslik sohasida sezilarli ilmiy ishlar amalga oshirildi. Biz maqolamizda ulardan ayrimlari haqida fikr-mulohaza yuritdik xolos. O‘zbek matnshunosligi hali rus matnshunoslari erishgan yutuqqa erishmagandir. Biroq bizning dono xalqimiz tomonidan meros qolgan adabiy manbalar soni va salmog‘i shu qadar ko‘pki, ularni ilmiy aspektda o‘rganish va ma’lum bir sistemaga olib kelish jarayoni o‘zbek matnshunosligi taraqqiyotini ta’minlaydi degan umiddamiz.

Xullas, matn va manba bilan shug‘ullanish, haqiqiy matnshunos bo‘lib yetishish, nazarimda, har bir filologiya yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabaning o‘z oldiga qo‘ygan bosh maqsadi bo‘lishi lozim. Negaki adabiyot namunalarini asl manbalardan o‘rganish, ikkilamchi manbalardan o‘rganishdan ko‘ra afzalroq. Men o‘zbek matnshunosligi tarixiga nazar tashlarkanman bu borada hali qilinishi zarur bo‘lgan ishlar ko‘pligiga amin bo‘ldim. Shuning uchun soha talabalariga matn va manba sirlarini ham nazariy va ham amaliy jihatdan puxta o‘rganishni tavsiya etaman.

Adabiyotlar

1. Аҳмедов Б. А. Ўзбекистон тарихи манбалари. - Тошкент: “Ўқитувчи”. 2001. Б. 7-14.
2. Маҳмуд Ҳасаний, Алимулла Ҳабибуллаев. Адабий манба шунослик ва матншуносликнинг назарий масалалари. Магистрлик мутахассислиги учун ўқув қўлланма. – Тошкент давлат шарқ шунослик институти, 2012. – 136 b.
3. Саидқулов Т.С. Ўрта Осиё халқлари тарихининг тархнавислигидан лавҳалар. – Тошкент: “Ўқитувчи”. 1993. –Б. 3-9.
4. Сирожиддинов Шухрат, Умарова Соҳиба. Ўзбек матншунослиги қирралари: монография. – Тошкент: Академнашр, 2015. – 128 б.
5. Шамсиев П. Ўзбек матншунослигига оид тадқиқотлар. – Т.: Фан, 1986. – Б.256.
6. Yo‘ldoshev Ibrohim. O‘zbek kitobatchilik terminologiyasi. – T.: Fan, 2004.
7. www.literature.uz
8. www.kutubxona.uz

III SHO'BA: O'ZBEKISTONDA ZIYORATGOH VA QADAMJOLAR, TURIZM XIZMATLARINI JADAL RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

МЕЪМОРИЙ ЁДГОРЛИКЛАР ВА ЗИЁРАТГОҲЛАР – НОЁБ МАДАНИЙ МЕРОС

Хасанов Акрам Муминович,
ҚарДУ доценти, т.ф.д.

Ўзбекистон мустақиллигини қўлга киритгандан сўнг юртимизда тарихий ҳақиқатни тиклаш, маънавиятни юксалтириш, миллий қадриятларни ривожлантириш соҳасида кенг қасровли ишлар амалга оширилди.

Бугунги кунда Ўзбекистонда 7,3 мингдан зиёд маданий мерос объектлари мавжуд. Ўзбекистон кўплаб маданиятлар ва цилизацияларнинг кесилиш маркази бўлиб келган, бу ерда турли динлар тарғиб қилинган, шу боисдан ҳам ислом, ҳам буддизм ва христиан динларига тегишли ноёб ёдгорликлар сақланиб қолган. Қашқадарё вилоятининг моддий маданий меросининг кўчмас мулк объектлари миллий руйхатида 1468 та маданий мерос объектлари рўйхатга олинган бўлиб, шундан, 1189 таси археология ёдгорликлари, 208 таси архитектура, 43 таси монументал санъат ёдгорликлари, 28 таси диққатга сазовор жойлар (зиёратгоҳлар) сифатидахатловдан ўтказилган[1].

Ўзбекистон кўп минг йилликлар давомида бунёд этилган қадимий ёдгорликларга бой минтақа ҳисобланади. 1991 йилда Хивадаги Ичанқалъа, 1993 йилда Бухоро шаҳрининг тарихий маркази, 2000 йилда Шаҳрисабзнинг Амир Темур ва темурийлар даври меъморчилик обидалари, 2002 йилда Самарқанд шаҳрининг тарихий ёдгорликлари “Бутунжаҳон маданий мерослари руйхати”га киритилди[2].

Ҳозирги кунда Оқ остона Бобо, Аработа, Мир Сайийд Баҳром мақбаралари, Баҳоуддин Нақшбанд, Чор Бакр, Шайхмухтор Вали, Ҳаким Термизий, Работи Малик мажмуалари, Хўжақўрғон, Вобкент миноралари, Қирққиз саройи, Хон Банди тўғони сингари 36 та нодир обидаларни шу руйхатга киритиш учун тайёргарлик ишлари олиб борилмоқда.

Мустақиллик йилларида ўзбек халқининг буюк фарзандлари, тарихий шаҳарлар саналарини нишонлашга алоҳида эътибор қаратила бошланди, тарихий ёдгорликлар ҳамда меъморий обидалар тўлиқ таъмирланди.

Соҳибқирон Амир Темур таваллудининг 660 йиллиги арафасида 1996 йилда Самарқандда А.Темур мақбараси, Регистон мажмуаси, Бибихоним масжиди, Шаҳрисабзда Доруттиловат ва Доруссиёдат мажмуалари таъмирланиб обод этилди. Бухоро шаҳрининг 2500 йиллик, Хива шаҳрининг 2500 йиллик, Шаҳрисабз шаҳрининг 2700 йиллик, Қарши шаҳрининг 2700 йиллик, Тошкент шаҳрининг 2200 йиллик юбилейларини нишонлаш ва ўтказиш арафасида ҳам тарихий обидалар осори-атиқаларга қайтадан жило киритилди.

Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1993 йилда жаҳон фани, тарихи ва маданияти ривожига катта ҳисса қўшган буюк олим, давлат арбоби Мирзо Улуғбек таваллудининг 600 йиллигини нишонлашга тайёргарлик кўриш ва ўтказиш ҳақидаги қарори қабул қилинди. Мирзо Улуғбек томонидан Самарқандда бунёд этилган расадхона, Улуғбек мадрасаси, Бухоро ва Ғиждувон шаҳарларидаги алломанинг номи билан аталувчи мадрасалар, Шаҳрисабз ва Қарши шаҳарларидаги Кўкгумбаз масжидлари асл ҳолига келтирилди.

Қўқон шаҳридаги Даҳмаи Шоҳан, Модарихон мақбараларида, Дастурхончи, Норбўтабек ва Камолқози мадрасаларида, Қўқон ўрдасида, Бухоро шаҳридаги Арк, Жоме, Хўжа Зайниддин масжидларида, Абдулазизхон, Улуғбек, Тошсарой, Турки Жанди, Чуқур мадрасаларида кенг миқёсдаги таъмирлаш ва ободонлаштириш ишлари давом этмоқда.

Қашқадарё вилоятининг Ғузор туманидаги Мири Жанда ота, Мусофир ота, Қамаши туманидаги Мушкул ота, Косон туманидаги Исахон ота, Аллаёр Эшон, Китоб туманидаги Қабри Охун ота, Чироқчи туманидаги Кўктош ота, Кўктўнли ота, Ҳаким ота, Қарши туманидаги Еттитуғ ота, Шайх Шиблий, Касби туманидаги Насафийлар қадамжоси, Муродбахш ота, Яккабоғ туманидаги Қура шайх, Тутак ота каби табаррук масканлар ободонлаштирилмоқда.

Мамлакатимиз ҳудудида мавжуд бўлган тўрт мингдан зиёд миллий-маънавий обида умумжаҳон меросининг ноёб намунаси сифатида ЮНЕСКО

рўйхатига киритилган. 2000 йил 15 декабрдаа Шаҳрисабз шаҳри мазкур ташкилотнинг Бутунжаҳон ёдгорлик шаҳарлари рўйхатидан жой олди. 2002 йилда Шаҳрисабз, 2006 йилда эса Қарши шаҳрининг 2700 йилликлари халқаро миқёсда нишонланди.

Қашқадарё воҳасида ҳам йирик муқаддас зиёратгоҳлар сони анчани ташкил этади. Шаҳрисабз шаҳридаги Оқсарой, Доруссиёдат, Доруттиловат, Мавлоно Хожагий Имканагий, Китоб туманидаги Ҳазрати Башир, Қамаши туманидаги Катта Лангар, Қарши шаҳридаги Кўкгумбаз, Одина, абу Убайда ибн Жарроҳ, Қарши туманидаги Ҳазрати Имом Муъйин, Касби туманидаги Султон Мирҳайдар, Косон туманидаги Хусам Шайх, Муборак туманидаги Абдуллоҳ ибн ал-Муборак Марвазий зиёратгоҳлари шулар жумласига киради.

Қуйида биз Ўзбекистонда мавжуд бўлган булоқлар ва сиҳат-саломатликка боғлиқ бўлган зиёратгоҳларнимисол сифатида кўрсатиб ўтмоқчимиз.

Зиёратгоҳларни ўзига хос вазифаларига кўра 4 та асосий гуруҳга ажратишимиз мумкин:

1. Шамоллашни ва йўтални даволовчи зиёратгоҳлар.

2. Танадаги турли яра ва сўлагини даволовчи зиёратгоҳлар.

3. Бепуштлик ва фарзандсизлик билан боғлиқ касалликларни даволовчи зиёратгоҳлар.

4. Руҳий хасталикларга даво деб ҳисобланувчи зиёратгоҳлардир[5].

Фозилмон ота зиёратгоҳи – Андижон вилоятининг қўшни Қирғизистон билан чегарадош бўлган энг чекка шарқий ҳудудидаги Хонобод шаҳрида жойлашган. Ушбу муқаддас зиёратгоҳининг муҳим ҳосияти унинг инсонлар саломатлигига ижобий таъсир қилувчи шифобахш булоғидир. Ушбу булоқ суви инсон организмига тетиклик, қувват бахш этиши, кўплаб хасталикларга, айниқса, ички ва тери касалликларига яхши даво бўлиши билан катта аҳамиятга эга[3].

Сўнгги йилларда маҳаллий зиёратчилар ва туристлар оқимини ошириш, уларга қулай шароит яратиш мақсадида мақбара ва зиёратгоҳни яхлит мажмуа

сифатида ташкил этиш, ободонлаштириш борасида кенг кўламли ишлар амалга оширилди.

Андижон Оби зам-зам булоғи: Андижон вилояти, Пахтаобод тумани, Тўраобод МФЙда жойлашган, даври VIII аср, майдони 17000,0 кв.м бўлиб, Пахтаобод тумани Учкўза қишлоғидаги Ховускон ота ёдгорликлари қадимий археология тепаликлари, зиёратгоҳ ва шифобахш булоқлардан таркиб топган. Тарихий археологик манбалар Хувускон тепаликлари эрамиздан аввалги 1-мингйилликларга оид “Миён Рудон” (икки дарё оралиғи), Норин ва Қорадарё оралиғидаги қадимий шаҳарлардан бирининг қолдиғи эканлигидан далолат беради.

Ўзбекистон спелеотерапия маскани: Хўжаикон кони Сурхондарё вилояти Шеробод туманидан 60 км узоқликда, Кўҳитанг тоғ тизмасининг жануби-шарқий ёнбағрида, денгиз сатҳидан 650 км баландликда жойлашган туз кони. Ушбу кон 1942 йилда ишга туширилган. Кон ётиқ синклиналь бурмада жойлашган, бунда туз қатламлари тескари қатламланган бўлиб, оқ тузлар юқори, қизил тузлар пастда жойлашган. Қизил туз қатламларида калий тузларининг 6 қавати ажралиб туради. Конда туристлар, шифоталаб инсонлар учун бир қатор қулайликлар яратилган ғор фаолият олиб боради. Ғорнинг узунлиги 145 метр, 5 та камера-палата бўлиб умумий майдони 1000 кв м дан ортиқ. Ғор йўлаклари табиий деворлари туз билан қопланган. Ғорда булоқ бор, мутахассислар маълумотига кўра, ғорда бетакрор микроиқлим, ҳаво ҳарорати шаклланган[3].

Балиқли кўл зиёратгоҳи: Наманган вилоятининг Чортоқ туманида “Балиқли кўл” зиёратгоҳи борлигини кўпчилик яхши билади. “Балиқли кўл”ни сув билан таъминланиб турувчи манба бу кўлни ташкил қилган “сирли” булоқлардир.

Ривоятларга қараганда Балиқли кўлни пайдо бўлиши Увайс Қараний номли авлиё кишининг каромати ёки шарофати билан бунёд бўлган. Ана шу булоқлардан ҳар дақиқада 140 литрга яқин сув отилиб чиқади ва Наманган вилоятининг Чортоқ туманидаги сув омборига етиб келади. Қуюқ дарахтларнинг соя-салқинлиги кўнгилга ҳузур бағишловчи “Балиқли кўл” зиёратгоҳидаги булоқ

суви нафақат чанқоқни босади, балки кучингизга куч қўшади, руҳингизни кўтаради[3].

Шунингдек, Мирпўстин МФЙ (Андижон шаҳри) Дониёрбек Чашмаси XIX аср. (Самарқанд шаҳри) Чашма булоқ, (Самарқанд вилояти Пахтачи тумани), Шифобулоқ, Омонхона, Қўтирбулоқ, Ўринбулоқ (Сурхондарё), Чиллабулоқ (Қашқадарё) каби табаррук зиёратгоҳ булоқлар ҳам мавжудки, буларни ободонлаштириш бугунги куннинг давр талабидир.

Қашқадарё вилоятининг Китоб туманидаги Неъматуллоҳ зиёратгоҳи ҳам кишиларнинг диққатини узоқ асрлардан буён ўзига тортиб келади. Алломанинг рамзий қабри яқинидан улкан булоқ оқиб туради[4]. Булоқ суви Жиннидарё дарёсига қуйилади. Бу ердаги қабртош тоғ тошларидан қўлбола усулда терилган махсус супа устига ўрнаштирилган бўлиб, қабртош устидан ўйиқ жойга сув қуйиб ичилса кўк йўтал касалига дучор бўлган беморлар шифо топиши кўп бора ўз исботини топган. Бу турдаги зиёратгоҳлар талайгина.

Ўрта Осиё, хусусан, Ўзбекистон жаҳон цивилизациясининг азалий марказларидан бири бўлиб, халқимиз бой маданиятига, меъморчилик ва ҳунармандчилик анъаналарига эгадир. Минтақага ислом дини кириб келгач, маҳаллий анъаналар исломий маданият билан уйғунлашиб, янада юксак даражада маънавий жиҳатдан тараққий этиб борган ҳамда бу жараёнлар муқаддас зиёратгоҳлар тарихида ўз илмий аксини топган.

Табаррук қадамжолар билан боғлиқ алломалар, уламолар, авлиёларнинг ибратли ҳаёти, илмий мероси ҳақидаги тарихий маълумотларни бойитиш ва уларни маънавиятимизни юксалтиришдаги аҳамиятини очиб бериш диншунослик ҳамда тарих фанлари олдида турган энг долзарб вазифалардан ҳисобланади. Жаҳон тан олган буюк аждодларимизни ҳозирги пайтда катта қизиқиш билан ўрганилаётган бой меросига ўзбек халқининг ворис эканлигини тарихий далиллар асосида исботлаш ҳам муҳим аҳамиятга эгадир.

Юқоридаги фикрлардан келиб чиқиб қуйидаги таклиф ва тавсияларни беришимиз мумкин.

- муқаддас қадамжоларда зиёратчилар учун қулай шарт-шароитларни яратиш ҳамда зиёратгоҳларнинг санитария-гигиена ҳолатини янада яхшилаш мақсаддидаЎзбекистон Республикаси Туризм ва маданий мерос вазирлиги, Ўзбекистон Мусулмонлари идораси ҳамда Республика “Маънавият ва маърифат маркази” томонидан юртимиздаги зиёратгоҳларнинг жойлашуви ва хусусиятидан келиб чиқиб, “Зиёрат қилиш одоби” тўғрисидаги Низом ишлаб чиқилиши ҳамда амалиётга жорий қилиш орқали аҳоли орасида зиёрат одоби ва маданияти тўғрисида тарғибот ишларини олиб бориш;

- тарихий обидалар, зиёратгоҳлар ва бошқа туристик объектларни замонавий ускуналар билан жиҳозлаган ҳолда, уларга кириш ҳамда ҳеч қандай тўсиқларсиз зиёрат қилиш имкониятини яратиш ва тарғиботини кучайтириш, уларнинг мифологиясига алоҳида эътибор қаратган ҳолда ташриф буюрувчилар қизиқишини орттириб, ҳудуд имиджини яхшилашга хизмат қилади.

Зиёратгоҳлар билан боғлиқ қарашлар, урф-одатлар, диний амаллар ҳамда уларнинг таъсири тарих давомида турли кўринишларда намоён бўлишини кўрсатиб бериш ҳам муҳимдир. Маънавият маскани ҳисобланган қадамжоларни хурофот ва бидъат маконига айлантиришга бўлган тубан интилишлар, маърифий исломга ёт қарашларни фош этиш ҳамда халқимизга, хусусан ёшларга теран тушунтириш лозим. Муқаддас зиёратгоҳларнинг халқимиз маънавий ҳаётидаги ролини инкор этувчи бир ёқлама мутаасиблик нуқтаи назаридан қарашларга қарши холисона тарихийлик асосида хулосаларни бериб, уларнинг ўзликни англаш, миллий мафкурани шакллантириш ва ривожлантиришдаги ролини далиллар асосида кўрсатиб бериш жуда долзарбдир.

Тарихий манбалар асосида ва маҳаллий аҳоли орасидаги сўровлар орқали зиёратгоҳларда номи зикр этилган саҳоба, авлиё ва алломаларнинг таржимаи ҳоллари ва улар ҳақидаги ривоятларни синчиклаб ўрганиш керак. Қадамжолари мавжуд бўлган баъзи авлиёлар фаолиятига доир тарихий манбаларни излаб топиш шарт. Халқимиз орасида улар ҳақида кўплаб ривоятлар ва афсоналар мавжудлигини ҳам аниқлаб, илмий йўналишга киритиш лозим.

Зиёратгоҳларда фаолият юритаётган мутасаддиларнинг ислом тарихидан хабардор бўлиши, диний мадраса, масжид билан бевосита боғланган ҳолда мукаммал, холисона диний билимни ўзлаштириши долзарб масаладир. Чунки муқаддас зиёратгоҳлар ҳақида фикр юритаётган раҳнамолар миллат маърифати, давлат таянчи ва у билан инсон омилини тушуниш ва ҳар бир қадамжога холисона нуқтаи назардан қараши лозим.

Воҳадаги азиз-авлиёлар, уламою алломаларнинг қабрларини зиёрат қилиш ҳам фарз, ҳам фарз эканлиги аҳоли, жумладан ёшлар онгига сингдирилиб, уларнинг диний-маънавий меросга нисбатан соғлом дунёқарашини шакллантиришда холисона бағрикенглик ғояларини тарғиб қилиш муҳим аҳамиятга эга эканлиги тарихий ва ҳаётий мисоллар давомида очиб берилиши лозим.

Фикримизча, муқаддас зиёратгоҳлар жойлашган ҳудуднинг тарихий-географик жойлашувини акс эттирувчи хариталарни ҳамда улар ўртасидаги оралиқ масофаларни белгиловчи аниқ тизимни яратиш зарур.

Зиёратгоҳларни тиклаш, таъмирлаш ва ободонлаштириш мақсадида махсус ҳуқуқий қонунлар тизмини ишлаб чиқиш, қонунбузарликларнинг олдини олиш мақсадида зарур маърифий тадбирларни мунтазам ўтказиб бориш керак. Зиёратгоҳларга бағишлаб тарихий-илмий монографиялар, рисолалар, қўлланмалар, мақолалар чоп эттириш, ОАВ ларда чиқиш, халқаро, республика ва минтақавий илмий-амалий анжуманлар ташкил этиш лозим деб ҳисоблаймиз.

Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори, 04.10.2019 йилдаги 864-сон Моддий маданий мероснинг кўчмас мулк объектлари миллий рўйхатини тасдиқлаш тўғрисида

2. Бўриев О., Ачилов А. Қашқадарё воҳаси этномаданий қадриятлари. Т.: “Yangi nashr”., 2017. Б. 166.

3. Яркулов А., Умаров Б ва бошқ. Ўзбекистоннинг тарихий-маданий объектлари. Т.: “Ўзбекистон География жамияти ахбороти” журнали нашриёти. 2020., 51 б.

4. Шаропов Ш. Қашқадарё зиёратгоҳлари. I қисм. Т.: “Voris” нашриёти. 2010. Б.188.

5. Хайитова Ф. Ўзбек халқи этномаданиятида зиёрат ва зиёратгоҳлар тарихи (Қашқадарё воҳаси мисолида). Тарих фанлари бўйича фалсафа доктори(PhD) диссертацияси автореферати. – Қарши, 2021. – Б. 17

БУХОРОДАГИ МАШҲУР МЕЪМОРИЙ ЁДГОРЛИКЛАР ЗИЁРАТГОҲЛАР ҲОЛАТИ (БУХОРО АРКИ ВА ҚАЛЪАСИ ҲАМДА БАҲОУДДИН НАҚШБАНД МЕЪМОРИЙ МАЖМУАСИ МИСОЛИДА)

Ражабов Қаҳрамон, *Ўзбекистон ФА Тарих институти профессори, т.ф.д.*

Бухоро шаҳри кўплаб тарихий-меъморий обидаларга бой. Ҳозирги вақтда Бухоро давлат меъморий-бадиий музей-қўриқхонаси ҳисобида 997 та тарихий ёдгорликлар мавжуд. Шаҳарнинг 118 та тарихий обидаси БМТнинг илм-фан ва маданият ишлари бўйича ташкилоти ЮНЕСКОнинг Бутунжаҳон маданий мерос рўйхатига киритилган ва давлат муҳофазасига олинган.

Бухоро шаҳридаги Арк, Масжиди Калон, Мир Араб мадрасаси олд майдони каби ўрта асрларнинг нодир меъморий обидалари илмий асосда таъмирдан чиқарилди. Чашмаи Айюб ёдгорлиги таъмирланиб, унинг олдида Имом Бухорий ёдгорлик музейи ташкил этилди. Қадимда Бухоро улуғлари дафн қилинган, лекин совет даврида текисланиб, устига замонавий иморатлар қурилган мозорнинг бир қисми обод этилиб, унга Даҳмаи Беҳиштиён (Жаннатийлар даҳмаси) деган рамзий ном берилди.

Бухоро шаҳри ўрта аср мудофаа деворининг айрим қисмлари ва шаҳар эски дарвозаларини қайта тиклаш лойиҳаси доирасида Шайх Жалол, Самарқанд, Ҳазрати Имом, Намозгоҳ дарвозалари янгидан қад кўтарди, қолганларини қайта тиклаш ишлари давом этмоқда.

Мағоки Атторий, Лаби Ҳовуз меъморий ёдгорликлари ва Кўкалдош мадрасаси атрофларида ҳозирги пайтда кенг кўламда ободончилик ишлари

амалга оширилмоқда. XVII аср ёдгорлиги Абдулазизхон мадрасасининг олд қисми таъмирдан чиқарилди.

Шаҳар қиёфасининг ўзгариши ўтмиш ва замонавийлик уйғунлашган ҳолда кечмоқда. Шаҳар маркази, айниқса, унинг тарихий этнографик қисмида олиб борилаётган қайта қуриш ва ободончилик ишлари айнан шу мезон доирасида амалга оширилмоқда.

Бухорода 100 дан ортиқ йирик тарихий меъморий ёдгорликлар: Бухоро Арки, Исмоил Сомоний (Сомонийлар) мақбараси, Чашмаи Айюб мақбараси, Мағоки Атторий масжиди, Намозгоҳ масжиди, Пойи калон ансамбли, Қалъа-девор қолдиқлари, Арслонхон минораси (Минораи Калон), Масжиди Калон, Мир Араб мадрасаси, Тим ва тоқилар, Лабиҳовуз ансамбли, Улуғбек мадрасаси, Чор минор, Болоҳовуз масжиди, Ситораи Моҳи Хоса ансамбли ва бошқалар сақланган. Булар шаҳарнинг янги қисмидаги замонавий кўп қаватли бинолар (Бухоро вилояти ҳокимияти биноси, «Бухоро», «Зарафшон», «Варахша», «Гулистон» меҳмонхоналари ҳамда “Бухоро маданий маркази” мажмуаси, Даҳмаи Беҳиштиён меъморий мажмуаси, Ўзбекистон Республикаси Президенти қароргоҳи) билан уйғунлашиб кетган.

Бухоро Арки (Арки Олий) – Бухородаги қадимги шаҳарсозлик ёдгорлиги. Турондаги илк ҳукмдорлар саройи. Дастлаб Афросиёб (Алп Эр Тўнга) томонидан мил. авв. VII асрда қурилган. Кейинчалик бир неча марта қайта қурилган ва таъмирланган. Бухоро шаҳрининг қадимги қалъаси.

Аркда илк ўрта асрларда Бухоро Суғди ҳукмдорлари – бухорхудотлар яшаган. Бидун Бухорхудот томонидан Арк қайта қурилган. Араблар истилоси даврида яна вайрон бўлган. Сомонийлар даврида қайта қурилиб, девор ва буржлар билан мустаҳкамланган. Чингизхон бошчилигидаги мўғуллар ҳужуми вақтида Арк бир неча марта вайрон қилинган. Арки Олийнинг ҳозирги қиёфаси асосан шайбонийлар сулоласи Бухоро хонлигини бошқарган даврда шаклланган.

Арк баландлиги 20 метрча бўлган тепалик устига қурилган бўлиб, тарҳи кўпбурчакли. Турли даврларда деворлари тош, пишиқ ва хом ғишт, пахсалар билан мустаҳкамланган. Арк ичкарисига олиб кирадиган узун далон – йўлакнинг

чап деворида 12 та ва ўнг деворида 13 та тахмонтокча қилинган. Гулдаста (бурж)лар тагида зах ва дим ертўлалар бўлган. Бухоро Аркининг шимоли-шарқидаги Бухоро зиндони манғитлар сулоласи даврида қурилган.

Аркнинг ғарб томонидаги ҳовлида мирзалар ва хизматчилар учун икки қаватли бинолар қурилган. Аркнинг шимоли-шарқий бурчагида Чилдухтарон мақбараси, жануби-ғарбида Баттол Ғозий хонақоси ҳамда хос ҳаммом бўлган. Аркдаги қарийб 80 фоиз иморат 1920 йил август – сентябрда Россиянинг М. Фрунзе бошчилигидаги қизил армияси ҳужуми натижасида вайрон қилинган ва йўқотилган.

Бухоро шаҳрининг 2500 йиллиги муносабати билан XX аср охирларида Арк ичкарисидаги тахт жойлашган ҳовли таъмирланиб, ўз ҳолига келтирилди. Арк деворлари янгиланди. Гўриён (Ғуриён) дарвозаси қайта тикланди ва бошқа ободонлаштириш ишлари олиб борилди. Ер сатҳидан 2,5 – 3 м чуқурликда гумбазсимон ер ости йўли борлиги аниқланди. Аркда Бухоро давлат меъморий-бадиий музей қўриқхонаси жойлашган.

Бухоро қалъаси – шаҳарни ташқи ҳужумлардан сақлаш мақсадида қурилган мудофаа деворлари (мил. авв. VII аср – милодий XVI аср). Икки минг йилдан ортиқ вақт давомида шаҳар қалъаси бир неча марта қайта қурилган ва таъмирланган.

Наршахийнинг ёзишича, Бухоро қалъасига Афросиёб (Алп Эр Тўнга) томонидан мил. авв. VII асрда асос солинган. Кейинчалик Бухоронинг илк қалъа девори милодий VI аср иккинчи ярмида Шери Кишвар томонидан бунёд этилган Арк девори бўлган. VIII – XIII асрларда шаҳар кенгайиши натижасида қалъа деворлари бир неча марта қайта қурилган. Чингизхон 1220 йилда Бухорони босиб олганда унинг мудофаа деворларини бузиб ташлаган. Бухоро хони Абдуллахон II даврига келиб шаҳар деворларининг сўнгги шакли пайдо бўлган.

XIX асрда Бухоро қалъаси деворининг умумий узунлиги 12 км, баландлиги 10 метр, асосининг қалинлиги 5 метрни ташкил этган. Деворнинг юқори қисмида кенглиги 2 метрга тенг ўтиш жойлари бўлиб, улардан девор орқали мудофаа қуроллари олиб ўтиш учун фойдаланганлар. Қалъа деворининг 116 та кичик

минорачалар ва 11 та икки миноради дарвозадан иборат айрим ерларида ўқ отиш учун мўлжалланган жойлар мавжуд бўлиб, деворнинг юқори қисми ўткир учлар (дандона)дан иборат қилиб ясалган.

Бухорога қизил армиянинг 1920 йил август – сентябрда қилган босқини натижасида қалъа деворларига жиддий зарар етказилди. Кейинги даврда шаҳарнинг кенгайиши натижасида қалъа деворлари шаҳарнинг ичкари бир қисмида сақланиб қолган. Эски қалъа деворлари бузилиб, унинг ўрнига янги иншоотлар барпо этилган. Ҳозирги кунда қалъа деворининг сақланиб қолган қисми Бухоро шаҳрининг ўта қадимий ва бой тарихидан далолат беради.

Баҳоуддин Нақшбанд меъморий мажмуаси – Бухоронинг шимоли-ғарб томонида, шаҳардан 10 км узоқликдаги Қасри Орифон қишлоғида барпо этилган меъморий мажмуа (XVI аср). Меъморий мажмуага Абдулазизхон ибн Убайдуллахон томонидан 1544 йилда асос солинган. Унинг буйруғи билан қабристон ва унинг атрофи тартибга солиниб, ансамбль шаклига келтирилган ва 1544 – 1545 йилларда комплекснинг энг катта биноси – хонақоҳ қурилган. Комплекснинг асосий қисмига дахмалар, мақбара, иккита масжид, сакхона, ҳовуз, кудуқ, минора, мадраса ва Абдуллахон хонақоҳи ҳамда Даҳмаи Шоҳон қабристони киради.

Комплекс кичик гумбазли чортоқ дарвозахонадан бошланади. Йўл давомида чапда Бухоро хонлари ва амирлари мозори – Даҳмаи Шоҳон ва ўнгда кичкина масжид жойлашган. Даҳмаи шоҳон тўртбурчак, баландлиги 2,5 метр, усти кулранг мармар билан қопланган қабрлардан иборат. Мармарларга токчалар, устунчалар, шарафалар, сарв суратлари ва бошқа безаклар ўйилган. Даҳмаи шоҳондан ўтгач, йўлак нафис безатилган пештоққа олиб келади. Пештоқнинг эшигидан ўтгач, ўнгда гумбазли мақбара бор. Чапда кираверишда 6 устунли, олди айвонли оддийгина қилиб қурилган Музаффархон масжиди жойлашган. Масжид ёнида 2 устунли Ҳаким қўшбеги масжиди қурилган. Унинг жанубида нақшдор, шимолида айвонлар бор. Баҳоуддин Нақшбанд даҳмаси мармар қопланган квадрат супа бўлиб, атрофи мармар панжара билан ўралган. Ундан шимолда томонлари 9,5 м бўлган

айлана зинали мармар ҳовуз жойлашган. Дахма билан ҳовуз орасида қудуқ бўлиб, унинг ёнида чиройли шийпон – сакхона яратилган. Сакхонада зиёратчиларга “муқаддас” сув улашилган.

Ҳаким қўшбеги масжидининг шимолида азон ўқилувчи минора ва ҳовуз, ғарбида эни 37 м, бўйи 40 м.ли хонақоҳ мавжуд. Марказида атрофи пештоқ равоқли айвонлар билан ўралган масжид, унинг тўрида чорзамин услубда ишланган қирма нақшли меҳроб бор. Иморатнинг ҳар икки томонида симметрик қурилган икки қаватли катта-кичик ҳужралар бор.

Баҳоуддин Нақшбанд меъморий мажмуасига ундан 500 м шимоли-шарқда жойлашган Қасри Орифон масжиди ҳам киради. Масжиднинг чап томонида минора ва ҳовуз, ўнг томонида ҳазрат Баҳоуддин оналарининг қабри жойлашган.

2003 йилда бу ансамбль қайта реконструкция қилиниб, қадимги дарвозалар – Хожа Диловар ва Бобуссалом асл ҳолига келтирилди. Баҳоуддин Нақшбанд мақбарасининг шарқ ва жануб томонлари шимол томондаги айвонга уйғунлаштирилиб, айвонлар тикланди. Хонақоҳ, масжид ва мадраса бинолари таъмирланди. 2003 йил 27 ноябрда Абдулхолиқ Ғиждувоний таваллудининг 800 йиллик тантаналари асосан шу жойда ўтказилди.

Адабиётлар

1. Абу Бакр Муҳаммад ибн Жаъфар Наршахий. Бухоро тарихи. Форс-тожик тилидан А. Расулов таржимаси. – Тошкент: “Фан”, 1966.
2. Амир Саййид Олимхон. Бухоро халқининг ҳасрати тарихи. Форсчадан А. Ирисов таржимаси. – Тошкент: “Фан”, 1991.
3. Бухоро Шарқ дурдонаси. – Тошкент: “Шарқ”, 1997.
4. История Бухары с древнейших времён до наших дней. – Ташкент: Фан, 1976.
5. Муҳаммаджонов А. Қадимги Бухоро (Археологик лавҳалар ва тарих). – Тошкент: “Фан”, 1991.
6. Муҳсинов И., Муҳсинова М. Мозийнинг ноёб гавҳари (Бухоро обидалари тарихидан лавҳалар). – Бухоро: “Бухоро” нашриёти, 2013.
7. Ражабов Қ. Алп Эр Тўнга (Афросиёб). – Тошкент: “O’zbekiston”, 2014.

8. Раҳматова С., Қурбонов Ҳ. Бухоро гузарлари тарихидан лавҳалар. – Бухоро: “Бухоро” нашриёти, 1995.

9. Ражабов Қ. Бухоро вилояти тарихи. Қисқача маълумотнома. – Тошкент: “Tafakkur”, 2015.

10. Ражабов Қ., Иноятов С. Бухоро тарихи. – Тошкент: “Tafakkur”, 2016.

11. Ражабов Қ. Бухорога қизил армия босқини ва унга қарши кураш: тарих ҳақиқати (1920 – 1924 й.). – Тошкент: “Маънавият”, 2002.

12. Шишкин В.А. Варахша. – Москва: Изд. АН СССР, 1963.

ЮНЕСКО КАФЕДРАСИНИ ТАЪСИС ЭТИШ ЗАРУРИЯТИ, УНДАН КУТИЛАЁТГАН ИЛМИЙ, ИЖТИМОИЙ ВА ИҚТИСОДИЙ САМАРАДОРЛИК (ШАҲРИСАБЗ ШАҲРИ МИСОЛИДА)

Худойқулов Тўлқин Дўстбобоевич,
ҚарДУ ПИ доценти, т.ф.д.

Шаҳрисабз шаҳри Ўзбекистоннинг кўпгина минтақалари каби туризмни ривожлантириш бўйича етарли даражада салоҳиятга эга бўлиб, бугунги кунда вилоятда туризмни ривожлантириш асосий макроиқтисодий муаммолар ҳисобланган ишсизликни бартараф этиш ҳамда аҳоли даромадларини оширишдаги истиқболли йўналишлардан бири сифатида қаралмоқда. Шаҳрисабз шаҳрининг мавжуд улкан туристик салоҳиятидан самарали фойдаланиш давлат миқёсидаги устувор масалаларидан бири ҳисобланади. Мустақиллик йиллари давомида мунтазам олиб борилаётган комплекс чора-тадбирлар натижасида Шаҳрисабзга ташриф буюраётган сайёҳлар сони йилдан-йилга ўсиб бормоқда. Вилоятга ҳар йили кўплаб сайёҳлар ташриф буюриб, уларнинг таркибида хорижлик сайёҳлар сони салмоқли ўрин эгаллайди.

Статистик маълумотларга кўра, Шаҳрисабзда бугунги кунда 84 та тарихий объект мавжуд. Давлат муҳофазасига олинган тарихий-маданий мерос объектлари 73 та бўлиб, улар вилоятга ташриф буюраётган туристларни ўзига жалб қилмоқда[1]. “Ўзбекистон Республикасининг туризм соҳасини жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида”ги [2] 2016 йил 2 декабрдаги ПФ-4861-сонли Ўзбекистон Республикаси Президентининг

Фармонида “...ҳудудларда янги туризм йўналишларини ташкил этиш” вазифаси қўйилган. Шунингдек, сўнги йилларда Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 2 мартдаги ПФ-5953-сон Фармони билан тасдиқланган 2017 - 2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини «Илм, маърифат ва рақамли иқтисодиётни ривожлантириш йили»да амалга оширишга оид давлат дастурига ҳамда «Ўзбекистон Республикаси Маданият вазирлиги фаолиятини такомиллаштириш чора-тадбирлари тўғрисида»ги [3] 2020 йил 26 майдаги ПҚ-4730-сон қарорига мувофиқ, шунингдек, Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2020 йил 29 декабрдаги Олий Мажлисга Мурожаатномасида белгиланган вазифаларни амалга ошириш мақсадида Вазирлар Маҳкамаси томонидан муҳим қарорлар қабул қилинган. [4]

Шаҳрисабз шаҳри 2700 йиллик ёшга эга тарихий шаҳарлар сирасига киради. Кўплаб қадимги юнон-рим тарихчилари асарларида, қадимги хитой сайёҳлари йилномаларида, Ўрта Осиё халқлари тарихи ҳақида қимматли манба берувчи “Авесто”да келтирилган географик ва сиёсий маълумотлар бунинг ёрқин далилидир. Мамлакатимиз тарихини ўрганган тарихчилар шаҳар қадимда Наутака, кейинчалик Кеш, VIII асрда араблар босқинидан сўнг Шаҳрисабз, яъни “Яшил шаҳар” номини олганлигини эътироф этадилар. ЮНЕСКО ҳалқаро ташкилоти ҳам шаҳарнинг қадимий эканлигини тан олиб 2002 йил 2 декабрда Шаҳрисабз шаҳридаги 18 та тарихий ёдгорликларни “Бутунжаҳон маданий мероси” рўйхатига киритган. Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти И.А.Каримов ташаббуси билан 2002 йил 29 мартда Шаҳрисабз шаҳрининг 2700 йиллик юбелийини ўтказиш тўғрисида қарор қабул қилинди. Шаҳрисабзда ЮНЕСКО томонидан Шаҳрисабз шаҳрига тақдим этилган “Бутунжаҳон маданий мероси рўйхати”га олинганлиги тўғрисидаги сертификат ҳам мавжуд. ЮНЕСКО кафедрасини (“Маданият туризми” кафедраси мисолида) ташкил этиш Республикамиздаги аксарият эътибордан четда қолаётган музейлар фаолиятини тиклаш, маҳаллий музейларда экспонатлар ҳажми ва турини ошириш, моддий маданий мерос объекти ҳисобланган давлат музейлари биноларини мукаммал

таъмирлаш ишларини жадаллаштиради. Юнеско кафедраси шаҳримиз туризмининг обрўсини кўтариш, мутахассис тарбиячилар, атроф муҳит, табиат, зиёратгоҳлар ва ёдгорликларни асраб-авайлашини таъминлаш учун бор имкониятни ишга солади.

Умуман олганда, кафедрага асос солиш учун асос бўлган Ўзбекистон Республикаси Президентининг фармон ва қарорлари, Вазирлар Маҳкамаси қарори, фармойишлари ёки бошқа манбалар мавжуд бўлиб, жумладан, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг “2017–2027 йилларда давлат музейлари фаолиятини такомиллаштириш ва моддий-техник базасини мустаҳкамлаш бўйича комплекс чора-тадбирлар дастурини тасдиқлаш тўғрисада” ги қарори эълон қилинди. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7 февралдаги ПФ-49-47-сон Фармони билан тасдиқланган “2017–2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегиясини “Халқ билан мулоқот ва инсон манфаъатлари йил”да амалга оширишга оид Давлат дастури” ҳамда Ўзбекистон Республикаси Президентининг “Маданият ва санъат соҳасини янада ривожлантириш ва такомиллаштиришга доир чора-тадбирлар тўғрисида”ги 2017 йил 31 майдаги ПҚ – 3022-сон қарорини ижро этиш юзасидан Вазирлар Маҳкамаси қарор қилди.

Шунингдек, ҳукумат томонидан “Туризм тўғрисида”ги қонун ҳужжатларининг тартибга солиниши республикада ички ва ташқи туризмни ревожлантиришда айрим қулайликлар яратди. Жумладан, виза талаблари соддалаштирилди. Мамлакатлар орасида виза режимини соддалаштириш фуқароларнинг мобиллигини таъминлаш билан бир қаторда расмийлаштириш харажатларини камайтиради ва чет эллик сайёҳлар оқимини кўпайтиради.

“Маданият туризми” кафедрасининг илмий йўналиши, мақсади ва вазифаларига қуйидагиларни киритиш мумкин. Илмий йўналиши ижтимоий – гуманитар соҳа ҳисобланади. Сўнги йилларда амалга оширилаётган ислоҳотлар мазмунини кўрсатиш ҳамда юксак маънавий ва ахлоқий талабларга жавоб

берувчи шахсни тарбиялашнинг устувор йўналишларини белгилаб олиш кафедранинг бош мақсади ҳисобланади.

Ушбу мақсадни амалга ошириш учун қуйидаги вазифаларни бажариш мақсадга мувофиқ:

Биринчидан, Шаҳрисабз шаҳрининг улкан маданий ва маънавий меросини, ноёб тарихий ёдгорликларини асраб-авайлаш, ёш авлодни буюк аждодларимизнинг муносиб ворислари қилиб тарбиялаш ва уларни озод мамлакатимиз буюк истиқболини яратишга қодир кишилар қилиб вояга етказиш.

Иккинчидан, "Қуббат-ул илм ва-л- адаб" деб номланган қадимий шаҳар, йигирма етти асрлик Шаҳрисабз ҳамма вақт кишиларда катта қизиқиш уйғотиб келган ва ҳозир ҳам шундай. Унинг ғаройиб бой тарихи археологлар томонидан очилган кўҳна шаҳар қолдиқлари ва меъморий ёдгорликларини асраб-авайлаш ва келгуси авлодга бешикаст етказиш учун мутахассис тарбиячилар етказиб бериш.

Учинчидан, ҳозирги замонавий тарихий ҳақиқатида – Ўзбекистон мустақилликка эришганидан сўнг – маънавий меросни, жумладан, моддий маданият соҳаларини сақлаш, муҳофаза қилиш, тиклаш ва уларни ривожлантириш. Зеро, улар ўзбек халқининг маълум тарихий даврларида моддий ва номоддий маданий мерос дурдоналари сифатида миллий тенгликнинг умумий тамойиллари инъикоси бўлиб, келгуси авлод учун муҳим маънавий вазифани бажаради.

Тўртинчидан, ўзбек халқининг кўҳна ва бой моддий маданияти асрлар оша қудратли маънавият манбаи бўлганлиги ўтмиш тарих зарварақларидан маълум. Кўп асрлик Ўзбекистон халқларининг моддий маданияти ҳозирги кунда жуда бой анъанавий ва замонавий намуналари ва дурдоналарига эга. Улар маълум вақтларда кўп шаклли ривожланиш ва ўзгаришлар жараёнига дуч келган. Ҳозирда сақланаётган моддий ва маънавий мерос, турли экспонат намуналари умуминсоний цивилизациянинг ноёб қадрияти бўлиб, уни асраб-авайлашни давлат сиёсати даражасига кўтариш вақти келди. Хулоса қилиб айтганда, Ўзбекистонда сайёҳлик соҳасини инновация ва рақамлаштириш орқали ўзгартириш зарурияти мавжуд. Эгалланмаган имконият сифатида энди

ривожланаётган агро ва этно туризм каби бозор сегментларини ривожлантириш лозим.

Туризмни ривожлантиришнинг жаҳон амалиёти шуни кўрсатадики, мазкур индустрияни юқори даромадли соҳага айлантириш учун давлат ва хусусий сектордаги барча иштирокчиларнинг саъй-ҳаракатларини бирлаштириш ва мустаҳкамлаш зарур. Бунда, ҳукуматнинг роли халқаро, ҳукумат ва хусусий сектор даражаларида туризм соҳасидаги ривожланиш сиёсатини мувофиқлаштириш ва режалаштиришни таъминлашдир.

Мавжуд муаммоларни тезкор ва сифатли ечиш пандемиядан кейинги даврда Ўзбекистонда туризм имкониятларини ривожлантиришда муҳим роль ўйнайди.

Адабиётлар

1. Қашқадарё вилоят маданий мерос департаменти ҳсоботидан. 2021 йил.
2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг Фармони, 02.12.2016 йилдаги ПФ-4861-сон. https://lex.uz/docs/3077025
3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг қарори, 26.05.2020 йилдаги ПҚ-4730-сон.https://lex.uz/docs/4828880
4. Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг қарори, 03.03.2021 йилдаги 119-сон.https://lex.uz/docs/5320217
5. Ўзбекистонда туризмни ривожлантиришда тарихий музейларнинг ўрни/Халқаро илмий-амалий конференция. 23 март, 2021 йил. – Шаҳрисабз. - 332 бет.

ШАҲАРЛАРДА ЗАМОНАВИЙ ТУРМУШ ТАРЗИ ОМИЛЛАРИГА ОИД ТАРИХИЙ ТАҲЛИЛАР

Турсунов Анвар Сайпуллаевич,
ТерДУ, т.ф.б.ф.д. (PhD)

Шаҳарларга совет давридан муаммо бўлиб қолган ичимлик суви ва газ таъминоти масаласини ҳал қилиш мустақиликнинг дастлабки йилларидан давлат дастурига киритилди.1991-2000 йилларда республиканинг Сурхондарё, Қашқадарё вилоятлари шаҳарларида тез суръат билан ўсиб бораётган меҳнат

ресурсларини иш билан таъминлаш, асосан, янги иш жойларини очиш ҳисобига амалга оширилди. Аҳолини иш билан таъминлаш, кам даромадли ва серфарзанд оилаларга ижтимоий кўмак кўрсатиш давлат сиёсатининг устувор масалалардан бири бўлди. Сурхондарё,Қашқадарё вилоятлари шаҳарларида ҳам аҳолининг турмуш тарзини яхшилашга алоҳида эътибор берилди. Истиқлол йилларида Қарши шаҳрида бу борада анча ижобий ўзгаришлар кузатилди. 2000 йил февралига келиб, Қарши,Шаҳрисабз, Ғузор, Муборак, Китоб шаҳарлари бўйича аҳолини ичимлик суви билан таъминлаш 60 фоизни, табиий газ билан таъминлаш 22 фоизни ташкил қилди.

Вазирлар Маҳкамасининг 275-сонли қарори бажарилишини Қашқадарё вилояти шаҳарлари мисолида кўрадиган бўлсак, 1990-1993 йиллар давомида 2000 км дан ортиқ газ ва 1 минг 176 км сув қувурлари ишга туширилди. 1990-1994 йилларда шаҳарларда қурилиш, индустрияда 1 млн. 334 минг йиғма темир бетон буюмлар, 420 млн. дона ғишт, 557 минг керамзит ишлаб чиқарилди. 1995 йилда 4 млрд. 814 млн. сўмлик фонд фойдаланишга топширилди, 7 млрд. 564 млн. сўмлик капитал маблағлар ўзлаштирилди ва 4 млрд. 504 млн. қурилиш - монтаж ишлари амалга оширилди. 1995 йил 367. минг кв.м. уй-жой қурилиб, фойдаланишга топширилди.

Мустақиллик йилларида Қашқадарё ва Сурхондарё шаҳарларида ўсиб келаётган ёш авлод тақдирини ўйлаб катта ишлар қилинди. 2009 йилда жанубий шаҳарларда алоқа хизматини йўлга қўйиш, замонавий алоқа воситаларни ўрнатиш, аҳолини талаб-эҳтиёжларидан келиб чиқаб, янги хизмат турларини йўлга қўйиш масаласида муҳим амалий ишлар қилинди.2010 йил Термиз аҳолисига хизмат кўрсатиш 330,0 млн сўмни ташкил этиб, 2008 йилга нисбатан ўсиш суръати 132,9 фоизни ташкил этди. Шундан 48,8 млн сўми аҳолига хизмат қилиш натижасида қўлга киритилиб, бу соҳадаги хизмат 2010 йилга нисбатан 160,5 фоизга ўсди. Ушбу амалга оширилган хизмат турларини бажаришда Термиз шаҳридаги «Сурхондарё телеком» ДП нинг халқ хўжалигига хизмат кўрсатиш туфайли амалга оширган даромади 241,3 млн сўм (120,9 фоиз), аҳолига

хизмат кўрсатишдан олинган даромад 40,4 млн сўм (169,3 фоиз) га амалга оширилган бўлса, Термиз шаҳридаги «Сурхондарё почитаси» давлат акциядорлик жамиятининг хизмат натижасига олган фойдаси 88,7 млн сўм (182,0 фоиз), аҳолига хизмат кўрсатиш туфайли олган фойдаси 8,4 млн сўм (127,1 фоиз)ни ташкил этди.

Қарши шаҳар меҳнат биржаларининг маълумотларига кўра, «Бандлик» дастурига биноан 2010 йилда 35303 та (100,3фоиз) янги иш ўринлари яратилди. 2010 йилда Шаҳрасабз, Ғузор, Муборак, Китоб шаҳарларидаги ишчи ва хизматчиларнинг ўртача ойлик маоши 15038 сўмни ёки 2008 йилга нисбатан ўсиш 128,2фоизни ташкил этди. Тармоқлар бўйича энг юқори ўртача маош саноат (16676 сўм), молия, кредит, суғурта ва пенсия таъминоти (16988 сўм), транспорт (13964 сўм), геология ва гидрометеорология (11729 сўм), маиший хизмат (12650 сўм) соҳаларида қайт этилди.

Бозор иқтисодиётига ўтиш даврида нафақадагилар ҳам ижтимоий ҳимоялаш учун уч тоифага ажратилиб, босқичма-босқич ўртача пенсия миқдори ошириб борилди. Ўзбекистонда ўртача нафақа миқдори 2003 йил 15987 сўмни ташкил этган бўлса, 2006 йилга келиб, 37548 сўмга тўғри келди.

Қарши шаҳрининг 2700 йиллик тўйи арафасида Президент ташаббуси билан марказий стадионда қад кўтарган "Эл-юрт таянчи" монументи оила тўғрисидаги ғамхўрликнинг яна бир рамзига айланди. Қашқадарё шаҳарларида "Кам таъминланаган оилаларни барқарор даромад манбаи билан таъминлаш ҳудудий дастури", "Оила мустаҳкамлиги ва ёшларни ҳар томонлама оилавий ҳаётга тайёрлаш" дастури ишлаб чиқилди. Дастурлар асосида фарзандлари 16 (18) ёшгача бўлган 107,8 минг нафар кам таъминланган оилага 18 миллиард 486,5 миллион сўм миқдорида нафақа берилди. 14,9 минг нафар кам таъминланган оилага 1 миллиард 154,7 миллион сўм ҳажмда моддий ёрдам кўрсатилди. Ижтимоий ҳимоялаш мақсадида 157 млн. 9 минг оилага 31 млрд. 884,4 млн. сўм сарфланди. Буларнинг барчаси миллий, маънавий қадриятларни ривожлантириш учун замин яратмоқда.

2006 йилда шаҳарларда касаначилик асосида аҳолини иш балан таъминлаш дастури йиллик режаси 28 иш ўрни қилиб белгиланган бўлиб, ҳозирги йирик саноат корхоналарида касаначиликни ривожлантириш ҳисобига иш ўринларини яратиш йиллик режаси 100 фоизга уддаланди. 2006 йилда 4647 та янги иш ўринлари яратилди, шу жумладан, кичик бизнес ва хусусий тадбиркорликда 3291 нафар, янги объектларни қуриш, реконструкция қилиш ва фаолиятни кенгайтириш ҳисобига 1228 нафар, ижтимоий ва бозор инфратузилмасини ривожлантириш ҳисобига 128 нафар янги иш ўринлари барпо этилди. Термиз шаҳрида 2010 йил давомида умумий чакана нархдаги товар айланмаси амалдаги нархларда 89149,3 млн сўмни ташкил этиб, 2005 йилга нисбатан 139,1 фоизни, шу жумладан расмий ташкилотлар ҳисоботига 31223,0 млн сўм бўлиб, 2005 йилга нисбатан 156,3 фоизни ташкил этди ва аҳоли жон бошига нисбатан 160,3 фоизга тўғри келди, аҳоли жон бошига нисбатан амалдаги нархларда 718,8 минг сўмлик савдо хизмати кўрсатилди.

Мустақилликнинг дастлабки йилларида ижтимоий соҳада ҳам қийинчиликлар ва мураккаб ҳолатлар юзага келган эди. Ижтимоий муносабатлардаги муаммолар нафақат Ўзбекистонда, балки собиқ СССРнинг барча республикаларида кўзга ташланди. Натижада мустақилликнинг дастлабка давридан бошлаб мураккаб ижтимоий муносабатлар тез назоратга олинди ва тегишли чора-тадбирлар амалга оширилди. Авваллари собиқ Иттифоқ миқёсидаги кўпгина режалаштирилган ишлар амалга оширилмай қолиб кетарди. Масалан, Ўзбекистон Республикаси Вазирлар Маҳкамасининг 1990 йил 275-сонли "Аҳолини ичимлик суви ва табиий газ билан таъминлашни яхшилаш" тўғрисидаги қарори айтарли бажарилмади. Бундай мисоллар истиқлол арафасидаги йилларда кўп учрайди.

Мустақиллик йилларида эса шаҳарлар аҳолисини ижтимоий ҳимоялашга алоҳида эътибор қаратилди. Чунки ислоҳотларнинг бошланғич пайтидаёқ, унинг асл мақсади инсонга муносиб турмуш ва фаолият шароитларини вужудга келтиришдан иборат деб белгиланган эди. Дастлабки йиллярданоқ аҳолини олдиндан ижтимоий ҳимоялаш юзасидан зарур чора-тадбирлар кўриб борилди.

Шу мақсадда, миқдори мунтазам ўзгартириб турилган иш ҳақи, нафақалар, стипендиялар, конпенсация тўловлари тарзидаги пул тўловлари кенг қўлланилди. 1991 йилда Сурхондарё вилояти шаҳарларида аҳолини табиий газ билан таъминлаш атиги 13.6 фоиз эди. 2000 йилга келиб, 55,5 фоизга етди, ичимлик суви билан таъминлаш 50 фоиз атрофида бўлган бўлса, 2010 йилда 75,4 фоизни ташкил этди.

Хулоса қилиб шуни таъкидлаш керакки, урбанизация жараёнларини илмий таҳлил этиш жараёнида шаҳарларнинг ижтимоий-маиший қиёфаси мустақиллик туфайли тубдан ўзгарганлиги амалга оширилган ислоҳотлар натижаси эканлиги асослаб берилди.

Адабиётлар

1. Қашқадарё вилояти статистика бош бошқармаси1991-2005й. Қарши: 2006й.. – Б. 10.
2. Ўзбекистон Республикаси Президенти девони архивининг Қашқадарё вилояти филиали жорий архиви. 829-жамғарма. 4-рўйхат. 35-йиғма жилд. 36-варақ
3. Ўзбекистон Республикаси Президенти девони архивининг Қашқадарё вилояти филиали жорий архиви. 829-жамғарма. 1-рўйхат. 88-йиғма жилд. 49-варақ
4. Сурхондарё ВДА 313-ж, 1-р, 19-иш, 34 в.
5. Қашқадарё вилояти статистика бош бошқармаси. 2008-2010 й.Қарши: 2011.й.31.б.
6. Сурхондарё вилояти статистика бош бошқармаси. Термиз: 2007 й. 142 б
7. Қашқадарё вилояти истиқлол йилларида (Президент Ислом Каримовнинг “Ўзбекистоннинг 16 йиллик мустақил тараққиёт йўли” рисоласидан келиб чиққан ҳолда, вилоятнинг иқтисодий-ижтимоий ривожига бир назар) / Муаллиф гуруҳи раҳбари А.Эркаев. Тошкент: Маънавият. 2007, Б. 22.

MADANIY-TARIXIY TURIZM

Alqarov Eldor Mahmudovich, *SamDCHTI mustaqil izlanuvchisi*

Olloh yaratgan jonzotlar ichida inson eng buyugidir! Insoniyat jamiyatida har bir shaxsning o'ziga yarasha tutgan o'rni bor. Zero, har bir insonning jamiyatdagi tutgan o'rni bevosita uning ma'naviyati, ma'rifai, muomala layoqati va boshqa bir qator fazilatlariga ko'ra belgilanadi! Inson zotining bilishga bo'lgan qiziqishi uni buyuk yangiliklar sari yetaklamoqda. Sahar turib, o'zingiz yashab turgan shahringizga bir nazar soling, erta tongdan harakatlanayotgan mashinalar ovoziyu, piyoda o'tayotgan odamlarning o'zi ko'zlagan maqsadlari sari harakatlanishi, kimdir esa telefon orqali yana kimdir do'sti, sherigi yoki ota-onasi bilan suhbatlashadi, axborot almashadi. Jamiyat harakatlanishing har bir jabhasida shaxslar o'zaro muloqotda va har kuni turli sohalar bo'yicha uzluksiz kommunikativ va no verbal muloqotda bo'ladi. Bu axborot almashinuvi jarayoni bevosita bir millat vakillari orasida emas balki butun dunyo millatlari orasida amalga oshadi desak adashmagan bo'lar edik. 2020-yil shubhasiz butun dunyo hamjamiyati uchun bir ayanchli yil bo'ldi. Xususan bu kabi "Pandemiya" davrida eng qahshatqich zarbaga uchragan sohalardan biri bu "Turizm" sohasidir.

Turizm sohasi barcha xalqlar nazdida turlichadir. Xususan butun dunyo xalqlarining etnik kelib chiqishidan kelib chiqib, turizmni rang-barang turlarga ajratish mumkin. Ba'zilar uchun turizm bepoyon va qadimiy yo'llar, yana kimdir uchun esa chodir, olov qo'shiqlar bilan qadimiy bir yashash tarzini his qilish,yana boshqalar uchun esa tarixiy joylarga sayohat yoki turli davlat shaharlariga sayohat qilishdir. Insoniyat bir necha ming yillar davomida yer sharida istiqomat qilib kelar ekan, hamisha boshqa bir xalq madaniyati, urf-odatlari va yashash tarziga undan tashqari tarixiga va me'moriy obidalariga juda ham katta qiziqish bildirib yashab keladi.

Turizm – insonlar yashash tarzining odatiy muhitidan, tashqari boshqa bir muhitni yaratib, qamrab olgan sayohat qiladigan va yashaydigan, odamlarni bevosita qamrab oladi.Xususan, O'zbekiston Respublikasida Turizmni rivojlantirish davlat qo'mitasi tomonidan 10.01.2020-yilda Toshkent shahridagi "Poytaxt" biznes

markazida qo’mita rahbariyati ishtirokida 2019-yilda amalga oshirilgan ishlar hamda 2020-yilgi rejalarga bag’ishlangan brifing bo’lib o’tdi.Unda Turizimni rivojlantirish davlat qo’mitasi raisi Abdulaziz Allaqulov hamda uning o’rinbosarlari Ulug’bek A’zamov va Faxriddin Davrukovlar hisobot berdilar. Tadbirda turizm statistikasi, soha targ‘iboti va turizmning alohida turlarini rivojlantirish, transport infratuzilmasi rivojlanishi, xorijdagi diaspora bilan ishlash va investisiyalarni jalb etish, hududlarda turizm infratuzilmasining rivojlanishi va tadbirkorlar bilan ishlash bo‘yicha 2019 yilda amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risida batafsil ma'lumot berildi[1]. Statistika ma'lumotlariga ko‘ra, 2019 yil davomida O‘zbekistonga 6 748 500 nafar sayyoh tashrif buyurgan, 2018 yilda esa bu ko‘rsatkich 5 346 200 kishini tashkil qilgan. Ularning orasidan aksariyat, ya'ni 51,3 foizni 31-55 yoshdagi kishilar (2018 yilda 52,1 foiz), 20,2 foizini 55 yosh va undan kattalar (2018 yilda 19,4 foiz), 19,5 foizini 19-30 yoshdagilar (2018 yilda 20,4 foiz) va 9,1 foizini 0-18 yoshlilar (2018 yilda 8,1 foiz) tashkil qiladi. Eng ko‘p sayyoh Markaziy Osiyo mintaqasidan tashrif buyurgan bo‘lib, ularning soni 5 764 500 kishiga yetgan. MDH mamlakatlaridan kelganlar soni 495 600 kishini tashkil qilgan[2]. Uzoq xorijiy mamlakatlardan tashrif buyurgan mehmonlar soni esa 488 400 ming kishini qayd etgan. Sayyohlarning aksariyati Qozog‘iston, Tojikiston, Qirg‘iziston, Turkmaniston, Rossiya Federatsiyasi, Turkiya, Afg‘oniston, Xitoy, Koreya Respublikasi, Hindiston kabi davlatlardan tashrif buyurgan. O‘zbekistonga tashrif buyurganlar orasida qarindosh-urug‘ va do‘stlarini ko‘rishga kelganlar soni 81,8 foizdan iborat bo‘lgan bo‘lsa, dam olish uchun kelganlar 15,5 foizni tashkil etgan. Boshqa sabablar, jumladan davolanish, xaridlar, biznes uchrashuvlarda ishtirok etish hamda ta'lim olish maqsadida kelgan xorijliklar soni 2,7 foizni qayd etdi. 2019 yil yakuniga ko‘ra, turistik xizmatlar eksporti ko‘rsatkichi 1 mlrd 313 mln AQSh dollarini tashkil qilib, 2018 yilga nisbatan (2018 yilda 1 mlrd 041 mln) 26,1 foizga o‘sish qayd etildi. Joylashuv vositalari soni jami 1188 tadan iborat bo‘lgan bo‘lsa, shundan 833 tasi – mehmonxonalar, 214 tasi – xostellar va 141 tasi boshqalar. Hududlar kesimida joylashuv vositalarining yuklanish darajasi quyidagicha: Qoraqalpog‘iston Respublikasi – 62,6 foiz, Andijon viloyati – 65,0 foiz, Buxoro viloyati – 96,6 foiz, Jizzax viloyati – 52,5 foiz, Qashqadaryo

viloyati – 61,0 foiz, Navoiy viloyati – 74,3 foiz, Namangan viloyati – 40,6 foiz, Samarqand viloyati – 82,3 foiz, Sirdaryo viloyati – 64,4 foiz, Surxondaryo viloyati – 68,8 foiz, Toshkent viloyati – 76,1 foiz, Farg‘ona viloyati – 42,7 foiz, Xorazm viloyati – 81,5 foiz, Toshkent shahri – 85,7 foiz. Mamlakat turizm salohiyatini dunyo jamoatchiligi orasida keng targ‘ib etish maqsadida AQSh, Yaponiya, Germaniya, Italiya, Xitoy, Indoneziya, Rossiya va boshqa mamlakatlardan jami 30 OAVning 160 dan ortiq vakillarining tashrifi tashkillashtirildi. An'anaviy targ‘ibot usullari bilan bir qatorda zamonaviy targ‘ibotning zamonaviy usullaridan foydalanilmoqda, xususan, 17-21 dekabr kunlari Tokio (Yaponiya) shahridagi Sibuya maydonida O‘zbekiston turizm salohiyatini targ‘ib qiluvchi videorolik namoyish etildi[1]. O‘zbekistonga sayyohlarni jalb etishda turli ommaviy-madaniy ko‘ngilochar tadbirlar ahamiyatini hisobga olib, o‘tgan yildan boshlab har bir hududning o‘ziga xosligidan kelib chiqqan holda turli ommaviy tadbirlar tashkil etildi. Jumladan, birinchi marotaba tashkil etilgan Ziyorat turizmi forumi (Buxoro viloyati), Baxshichilik san'ati festivali, Arxeologiya forumi (Surxondaryo viloyati), Bahodirlar o‘yini (Xorazm viloyati), “Mo‘ynoq” avtoralli, “Stixiya” musiqa festivali (Qoraqalpog‘iston Respublikasi), MDH turizm yarmarkasi, (Samarqand viloyati), Geoturizm forumi, Anor festivali (Qashqadaryo viloyati), Elektron musiqa festivali, Gastronomik festival, “World Influencers Congress” (Toshkent shahri) kabi yirik tadbirlar o‘tkazildi. Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan MICE-turizmni rivojlantirish bo‘yicha chora-tadbirlar rejasi doirasida hududlardagi MICE-tadbirlar uchun salohiyatli obyektlar o‘rganib chiqilib, ularning yagona reestri shakllantirildi va “Meetings & Events Catalogue” katalogi ishlab chiqildi. Bundan tashqari, hozirda shu kabi tadbirlarni muvofiqlashtirish maqsadida Qo‘mita tuzilmasida Kongress va ko’rgazmalar markazi tashkil etilmoqda[1].

2019-yilning 5-yanvarida O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyev tomonidan PF-5611 farmoni imzolandi.Farmonga muvofiq O’zbekiston Respublikasida turizimni jadal rivojlantirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida[2].

Undan tahsqari mustaqilligimizning dastlabki yillarida ya’ni 1993-yilda o’z safiga 170dan ortiq davlarlarni birlashtirgan Jahon turistik tashkiloti (WTO)ga a’zo bo’ldi. Shuningdek, O‘zbekiston WTO Yevropa komissiyasi rayosatining ham a’zosidir. 2004 y. "Buyuk ipak yo‘li" loyihasi doirasida Samarkand viloyatida Jahon turistik tashkilotining vakolatxonasini ochish ko‘zda tutilgan. O‘zbekistonda turizm sohasiga oid "Buyuk ipak yo‘li" xalqaro turistik reklamaaxborot gaz. (1994-yildan), "Biznes Gayd" JUR (RUS va ingliz tillarida) va boshqa ommaviy nashrlar chop etiladi[1].

Yurtimizda oxirgi 5-yil davomida koreys tili bo’yicha gid-tarjimon va sinxron tarjimon sifatida turizm sohasida o’z faoliyatimni olib borayapman.Sohada yaxshi natijalarga erishganimiz bilan, o’ziga yarasha bartaraf etadigan muammolar ham yetarlidir. Xususan, xorijiy sayyohlarni jalb etishimizda bevosita narx barqarorligini tashkil etishimiz, sayyohlar oqimining uzluksiz bo’lishini ta’minlaydi. Yevropa mamlakatlari xalqidan farqli o’laroq Koreys va Yapon xalqlari mustaqil turizmni xush ko’rishadi va sayyohlik firmalariga murojaat etishmaydi. Ko’chalardagi yo’lovchi tashish xizmatidan tortib, tarixiy obidalar ichidagi suvinir do’konlarigacha, undan tashqari ovqatlanish maskanlarigacha barqaror ya’ni juda ham ko’p tafovutga ega bo’magan narx-navoni joriy etishimiz kelgusida yurtimizga sayohat qilish istagida bo’lgan sayyohlar ishonchini yanada kuchaytiradi. Sohada xizmat ko’rsatayotgan gid-tarjimon va haydovchilar malakasini oshirish yoki muomala va ish jarayonida mobil aloqa vositalaridan foydalanmaslikga jalb etish, xususan ko’plab sohada ishlovchi haydovchilarimiz ham o’z shaxsiy avtomashinasida o’z faoliyatini olib borib, haydovchilik etika-estetikasidan bilim ko’nikmalari juda ham sayoz. Yurtimizning qadimiy va hozirgi salohiyatini to’la-to’kis sayyohlarga namoyish etish va tushuntirib berish biz gid-tarjimonlarga yuklatilgan. O’z kuztishlarim davomida ya’ni rus, ingliz va koreys tillarini mukammal bilishim va Janubiy Koreada olgan ta’limim asosida o’z kasbdoshlarimda ko’plab xato va kamchiliklarni guvohi bo’lgan man. Xususan koreys tilida O’zbekiston bo’yicha til mutaxassislari juda ham kam, ayni payda Samarqand shahrida koreys tili bo’yicha ayrim qo’shtirnoq ichidagi gid-tarjimon hamkasblarimiz ham til, ham obidalar bo’yicha o’z tushuntirishlari

davomida qo’pol xatoliklarga yo’l qo’yishlarining guvohi bo’lganman. Ustiga – ustak ma’lumotlar yodlangan va sayyoh tomonidan savol berilganda, savol javobsiz qolib vaziyatdan chiqib ketishga uriniladi. Turizm qo’mitasi qoshidagi gid-tarjimonlikka tayyorlash markazlarida ko’plab yoshlar gid-tarjimonlik kasbiga qiziqish bildirmoqda. Ammo faqatgina qiziqish bilan bu yetarli bo’lmaydi. Tinglovchilarning ko’pchiligi o’zbek tilida ma’ruzalarni eshitib, keyinchalik boshqa bir tilda ma’lumotlarni yodlashadi bu esa uning xorijiy til ko’nikmalari yaxshi rivojlanmaganligi va o’sha tilda ravon so’zlasha olmasligiga sabab bo’ladi. Qo’mita qoshida tashkil etilgan gid-tarjimonlik kurslarida tinglovchilarning til ko’nikmalriga ham e’tibor berishi lozim yoki ular o’rgangan tili bo’yicha o’z faoliyatini olib borishlari lozim.Bu esa o’z navbatida xizmat sifatini oshiradi. Undan tashqari Temir yo’l vokzallarida ko’plab haydovchilarning ham transport, ham gidlik xizmatlarini yo’lga qo’yganligi turizm sohasida sayyohlarda noto’g’ri taasurot qoldiradi. Viloyatlar aro havo kemasi orqali harakatlanganda aeroport xodimlarining ingliz tilini bilish ko’nikmalarini shakllantirish lozim. Ko’plab vaziyatlarda sayyohlarning yuklarni topshirish paytida yuzaga keladigan bizning ayrim qo’shtirnoq ichidagi aeroport xodimlarimizning ingliz tilini bilish ko’nikmalari juda ham past. Janubiy Korea dunyoda ko’plab iqtisodiy va boshqa sohalar bo’yicha yetakchi o’rinlarga egadir. Xususan, Inchon aeroportiga tashrif buyurar ekansiz sizni davlat chegarasi tekshiruv xizmatidan oldin milliy kiyimdagi koreys qizlari turli shaharlar va koreys madaniyati haqidagi bukletlarni sizga taqdim etadi.Mamlakatga kirishdan oldin uning madaniy-tarixiy shukuhini his qilasan kishi.Bizda ham har bir reyslarda shunday tadbirlar tashkil etilsa nur ustiga a’lo nur bo’lar edi, buni nafaqat havo balki temir yo’llar sohasida ham joriy etish mumkin. Temir yo’l shahobchalaridagi chiptalarning sun’iy taqchilligi ham sohada sayyohlarda noto’g’ri taasurot qoldiradi.Asosiy transport harakatlanish yo’llarida haydovchilarning yo’l qoidalarini qo’pol ravishda buzishi va qoidalarga amal qilmasligi sayyohlar ko’z o’ngida sodir bo’lmaydi deb hech kim va’da berolmaydi. Gid-tarjimonlar tarixiy obyektlar bo’yicha tushuntirayotgan paytda, suvinir do’konlari xodimlarining o’z o’rnini bilmasligi va ekskursiyaga xalaqit berish kabi muammolarni yuzaga keltirib, sayyohning to’liq

ma’lumot olishiga to’sqinlik qilmoqda. Aynan suvinir do’konlari ishchi xodimlariga yagona milliy kiyimlar joriy etilsa, obidaning qadimiy shukuhiga qo’shimcha hamohang bo’yoqdorlik kasb etadi deb o’ylayman.Milliy bozorlarda ham milliylikka asoslangan yagona bir kiyim joriy etilsa yurtimizning qadimiy “Buyuk Ipak Yo’li” o’tgan chorraha ekanligiga yana bir karra ishonch hosil qilishadi.

Adabiyotlar

1. Lex uz.PF5611.2019

2. Kun.Uz 10.01.2020

O'ZBEKISTONDA TURIZM RIVOJLANISHIDA MUAMMMO VA IMKONIYATLAR

Tilayev Ermat Rahmatovich,
QarDU PI dotsenti, t.f.n.

O`zbekiston istiqlolga erishgach iqtisodiy ijtimoiy ma'naviy madaniy hayotning barcha jabhalarida islohatlar olib borildi, jumladan muxtaram Prezidentimiz rahbarligida turizm sohasi bilan bir qatorda muqaddas qadamjolarni obodonlashtirishga ham alohida e'tibor berila boshladi. Milliy an'ana hamda milliy qadriyatlarimizni tiklash, boy merosimizni chuqur o'rganish, uning mazmun-mohiyati va ahamiyatini xalqimiz, ayniqsa yoshlar o'rtasida keng targ'ib etishga katta e'tibor qaratila boshland. Milliy an’ana hamda qadriyatlarimizni tiklash, boy merosimizni chuqur o`rganish, uning mazmun-mohiyati va ahamiyatini xalqimiz, ayniqsa, yoshlar o`rtasida keng targ`ib etishga katta e’tibor qaratila boshladi. O`zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26-maydagi “Madaniyat va san’at sohasinining jamiyat hayotidagi o`rni va ta’sirini yanada oshirish chora-tadbirlari to`g`risi”dagi PF-6000-sonli farmonichiqdi. Olib borilayotgan islohotlarning barchasi xalq manfaati uchun xizmat qiladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev nafaqat muzey sohasiga, balki turizm sohasiga katta e’tibor berdi. Yurtboshimiz tashabbusi bilan Ziyorat turizmi bo`yicha o`quv dasturi ishlab chiqiladi.

Prezidentimizning Turizm - O'zbekiston iqtisodiyotining drayveri mavzusidagi ma'ruzasida "Yurtimizda 8 ming 200 dan ziyod madaniy meros ob'ektlari mavjud

bulib, turizm marshrutiga ularning 500 tasi kiritilgan. Ziyorat va an'anaviy turizmni rivojlantirish mumkin bo'lgan marshrutlardagi ob'ektlar sonini 800 taga yetkazish bo'yicha choralar ko'rishimiz kerak" degan taklifni aytib o'tdi.

2021-2022 o`quv yilidan boshlab xorijiy tillar bo`yicha mutaxassis yetishtiruvchi oliy ta’lim muassasalarining 3-4 kurs talabalari uchun ziyorat turizmi fani bo`yicha o`quv dasturi ishlab chiqilib joriy etildi. O`zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Ichki va ziyorat turizmini rivojlantirish bo`yicha qo`shimcha chora - tadbirlar to`g`risi” dagi 100 - sonli qarorida ma’lum qilindi.

2010-2017 yillar davomida turizm xizmatlari eksporti hajmi ikki baravar oshdi va 2017 yilda 546,9 million AQSH dollari, 2018-yil esa-1041 million AQSH dollarini tashkil etdi. 2016 yilgacha xorijiy tashrif buyuruvchilar sonining o`sish sur’ati o`rtacha yillik 8 foizni, 2017 yilda 7 foizni tashkil qilib, 2,69 million nafardan oshdi. 2018 yil yakunlari bo`yicha respublikaga 5,3 million xorijiy turistlar tashrif buyurdi. Xususiy sektorni qo`llab -quvvatlash va muhofaza qilishga qaratilgan choralar ko`rilgani natijasida, 2015 yilda 398 tani tashkil etgan turizm tashkil otlarisoni 2018 yil yakuni bo`yicha 950 taga, mehmonxona xo`jaliklari soni 661 tadan 900 taga yetdi.

Turizm va ichki turizmga doir bir qancha qarorlar, farmon hamda farmoyishlar chiqadi. Prizedentimiz o`z ma’ruzalarida mamlakat iqtisodiyotini ko`tarishda ichki turizmning o`rni haqida alohida to`xtalib, xalqimiz o`z oila a’zolari bilan mamlakatimizdagi birqancha qadamjolarga borishi kerakligini ta’kidlab o`tdi. Shu bilan birgalikda yosh olimlar ilmiy xodimlarni muzey ishi sohasidagi yangiliklar, ilg`or tajribalar bilan yaqindan tanishtirish, ko`rgazmalar tashkil etishda axborot texnologiyalaridan unumli foydalanish, mutaxassislar tayyorlash tizimini yanada takomillashtirish borasida ham qator chora-tadbirlar amalga oshirilyapti. “O`zbekmuzey” jamg`armasi, YUNESKO ishlari bo`yicha O`zbekiston Respublikasi Milliy komissiyasi hamkorligida Qoraqalpog`iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahrida “Muzeylar boshqaruvi” mavzusida o`tkazilgan seminarlar bunga yaqqol misoldir. Ular O`zbekiston tarixi davlat muzeyi, O`zbekiston Davlat san’at muzeyi, Temuriylar tarixi Davlat muzeyi, O`zbekiston geologiya muzeyi, Xalqaro Amir Temur fondi, Kamoliddin Behzod nomidagi Milliy rassomlik va dizayn instituti

vakillaridan iborat mutaxassislar guruhi qatnashib, mashg`ulotlar olib borishdi. Bu muzeylarga maktab o`quvchilarini, kasb-hunar maktabi o`quvchilarini, talaba yoshlarni olib borib o`z tariximizini ko`rsatsak, ularda vatanga bo`lgan mehr-muhabbat tuyg`usi yanada oshadi. Davlatimiz yoshlari tomonidan yoshlarga alohida e'tibor berilib, "O`zbekistonda muzeylarni tashkil etish masalalari", "Muzey ashyolari va muzey kolleksiyalarini hisobga olish tartibi", "Muzeyning ilmiy konsepsiyasi", "Muzey faoliyatida tashrifchilar uchun xizmatlar va hamkorlik masalalari", "Muzeylarga bolalarni jalb etishda pedagogik texnologiyalarning o`rni" va "Vertual muzey istiqbollari" kabi mavzulardagi ma'ruzalar tadbir ishtirokchilarining sohaga oid bilimlarini boyitishda alohida o`rin tutgani shubhasiz.

Darhaqiqat, mustaqillik yillarida turizm, ichki turizm, muzeylar faoliyatini rivojlantirishga qaratilgan ezgu sa'y - harakatlar ko`lami beqiyos. Yuksak e'tibor tufayli yana ko`plab muzeylar bunyod etildi, mavjudlarining ishi esa zamon talablari darajasida yo`lga qo`yildi, muzey-qo`riqxonalar tashkil qilindi. Temuriylar tarixi Davlat muzeyi, O`zbekiston tarixi Davlat muzeyi, Qatag`on qurbonlari xotirasi muzeyi, Termiz arxeologiya muzeyi, Olimpiya shon-shuhrati muzeyi kabi o`nlab maskanlar barpo etilgani va Samarqand, Buxoro, Xiva shaharlaridagi ochiq osmon ostidagi muzeylar qaytadan ta'mirlangani fikrimiz tasdig`idir. Poytaxtimizga tashrif buyurgan turistlar sayohat davomida O`zbekistonning nufuzli shaharlari Samarqand, Xiva, Buxoro, Qo`qon, Shahrisabz singari bir qancha turizm rivojlangan shaharlarni aytib o`tishimiz mumkin. Aytish joizki, ichki turizm rivojlanishida barcha viloyat hokimlari ham o`z hududidagi qadamjo joylarida obodonlashtirish ishlariga e'tibor berilmoqda. Ichki turizm bilan bir qatorda muzeyshunoslik keng fan tarmog`i bo`lib o`zida tarix, arxeologiya, san'atshunoslik, Kamoliddin Behzod nomidagi Milliyrassomlik va dizayn institutida muzeyshunoslik yo`nalishi faoliyatyuritadi. Aynan ushbu ta'limdargohi soha uchun kadrlar tayyorlab beradigan yagona ilm maskani hisoblanadi. Bu yerda talabalar bakalavr, magistratura hamda doktarantura bosqichlarida tahsil olishadi. Shu o`rinda Vazirlar Mahkamasining 2014 yil 11-iyuldagi "Davlat muzeylarining bolalar va ularning ota - onalariga ochiqligini ta'minlash chora - tadbirlari to`g`risida" gi qarori o`sib kelayotgan yosh avlodni ona -

Vatanga muhabbat, istiqlol g`oyalariga sadoqat, milliy hamda umuminsoniy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalash, ular ongiga xalqimizning boy milliy madaniy me’rosi va tarixiy o`tmishini hurmat qilish hamda e’zozlashni singdirish va aholining dam olishini mazmunli tashkil etish borasida yana bir muhim qadam bo`lganini ta’kidlab o`tish lozim. Ushbu qarorga muvofiq haftaning har seshanba va juma kunlari 18 yoshgacha bo`lgan bolalar va ularga hamrohlik qiluvchi ota -onalar davlat muzeylariga bepulkiritilyapti. Shu kuni o`zbek muzeylari jamoatchilikni o`z faoliyatining yangi jihatlari bilan tanishtiradi, ochiq eshiklar kunlari o`tkaziladi, turli ko`rgazmalar tashkil etiladi. Muhtasar aytganda, ichki turizm va muzeylarga sayohat ma’naviy yetuk, komil insonni tarbiyalashda o`ziga xos o`rintutadi. Mamlakatimizdagi tarixiy obidalar, tarixiy qadamjolar saqlanayotgan tarixiyashyolar, nodir qo`lyozmalar, hujjatlar avlodlarga tarixdan, ajdodlarimiz hayoti, yuksak ma’naviyatidan hikoya qiladi. Bu esa yoshlar qalbida ota -bobolarimiz qoldirgan merosga hurmat, e’zoz va muhabbat tuyg`usini uyg`otish bilan birga, ularda shu aziz va tanga munosib farzand bo`lish tuyg`usini ham shakllantiradi.

ЎЗБЕКИСТОНДА ИЧКИ ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА НАВОИЙ ВИЛОЯТИДАГИ ҚАДАМЖОЛАРНИНГ ЎРНИ

Қандаҳаров Анваржон Ҳасанович,
НДПИ доценти, т.ф.н. (PhD)

Республикамиз вилоятлари ичида ёш жиҳатидан кичик бўлса-да, ҳудуди ва майдони жиҳатидан энг йириги бўлган Навоий вилояти ҳам ўзига хос қадимий тарихига эга бўлиб, бу ерда инсониятнинг илк аждодлари маданиятига оид кўплаб топилмалар мавжуд. Вилоятда Навоий шаҳри, Кармана, Конимех, Қизилтепа, Нурота, Хатирчи, Навбаҳор каби туманлар ва худудининг асосий қисми бепоён Қизилқум саҳроси кенгликларидан иборат. Бу ҳудудлар ўзининг саноати ва бой маъданлари билан қадимдан халқимиз учун хизмат қилиб келган. Президент Ш.М.Мирзиёев ҳам Навоий вилояти хусусида “Азим Зарафшон воҳасида, беҳисоб табиий бойликлар макони бўлган Қизилқум минтақасида жойлашган Навоий вилояти, таъбир жоиз бўлса, мамлакатимизнинг дуру

жавоҳирлар ҳазинасидир”[4: 111], ёки вилоят тарихи хусусида, “Навоий вилояти бой маданий ва тарихий ёдгорликлари билан ҳам алоҳида ажралиб туради. Айниқса, Кармана шаҳри, Қосим Шайх мақбараси, Работи Малик ёдгорлиги, Қизилқум бағридаги тош ўрмон, Сармишсойдаги тошга ўйилган қадимий расмлар – буларнинг барчаси вилоятнинг кўҳна тарихи ва маданиятидан далолат беради”[4: 119], деб таъкидлайдилар. Ҳақиқатдан ҳам Навоий вилояти ҳудуди инсоният цивилизацияси бешикларидан бири бўлиб, унинг тарихини бу заминда яшаган улуғ алломалар, тариқат пирлари ва уларнинг қадамжолари тарихи билан боғлаш мумкин. Уларнинг маънавий меросларини ўрганиш бугунги кунда ҳукуматимиз томонидан миллий қадриятларимиз ва анъаналаримизни ривожлантириш борасида олиб борилаётган сиёсий жараёнлар билан ҳам узвий боғланади.

Бугунги кунда Навоий вилоятида жами 230 дан ортиқ маданий мерос объектлари рўйхатга олинган бўлиб, шундан меъморчилик иншоотлари 63 та, археология иншоотлари 121 та, монументал иншоотлар 48 тани ташкил этади. Кармана туманининг ўзида эса республика миқёсидаги тўртта, маҳаллий ҳокимиятларга тегишли бўлган 15 та тарихий ёдгорлик бор. Бундан ташқари 15 та монументаль санъат асари мавжуд [11 : 69].

Мустақиллик туфайли халқимизнинг ўтмишига, миллий-маънавий меросига, ота-боболаримизнинг хотирасига, муқаддас урф-одатлар, миллий анъаналарга катта ҳурмат кўрсатилиб, бизга номаълум бўлган ноёб қўлёзма асарларимиз, қадимий ёдгорликларимиз тадқиқотчи олимларимиз томонидан ўрганилмоқда. Ҳеч шубҳа йўқки, бу каби ҳайрли ишлар халқимизнинг ва асосан, ўсиб келаётган ёш авлоднинг дунёқарашида, ижобий шаклланишида ўз таъсирини кўрсатмай қолмайди. Республикамиз Президенти Ш. М. Мирзиёевнинг 2017 йил 14 июлда қабул қилинган “Абдухолик Ғиждувоний таваллудининг 915 йиллигини ва Бахоуддин Нақшбанд таваллудининг 700 йиллигини нишонлашга тайёргарлик кўриш ҳамда уни ўтказиш тўғрисида [10.]” ги Фармойишида буюк ҳаёти ва фаолиятини, улар қолдирган бой илмий-диний меросининг гуманистик моҳиятини чуқур ўрганиш, шу асосда халқимизни, айниқса, ўсиб келаётган ёш

авлодни миллий ва умуминсоний қадриятлар руҳида тарбиялаш лозимлигига алоҳида эътибор қаратилди.

Марказий Осиёда XIV асрда пайдо бўлган йирик тасаввуфий тариқатлардан бири Нақшбандия тариқати Хожа Муҳаммад Баҳоуддин Нақшбанд номи билан боғлиқдир. Саййид Муҳаммад Баҳоуддин Нақшбанд ҳижрий 718 йил мезон ойида (милодий 1318 йил август-сентябрь) Бухородан 12 чақирим наридаги Қасри Ҳиндувон қишлоғида косиб оиласида дунёга келади. Баҳоуддин у кишининг фахрий номлари бўлиб, маъноси диннинг нури, динга равшанлик берувчи демакдир. Хожанинг “Нақшбанд” кунияси эса арабча “нақш”, форсча “банд” сўзларининг бирикмасидан ясалган бўлиб, «нақш солувчи, нақш боғловчи» деган маъноларни билдиради[4: 19].

Манбаларда таъкидланишича Саййид Амир Кулолдан Ҳазрат Баҳоуддин Нақшбан билан бирга машҳур мутасаввуф аллома Мавлоно **Ориф Деггароний** ҳам таҳсил олган. Деггароний Ҳазрати Баҳоуддин Нақшбанд билан ҳамнафас, тенгдош ва дўст бўлиб, у киши тахминан 1313-1375 йиллар оралиғида бугунги Навоий вилоятининг Хазора қишлоғида Деггарон маҳалласида яшаб ўтганлар [5: 78] .

Манбаларда кўрсатилишича, Мавлоно Ориф Деггароний Баҳоуддин Нақшбандга устозлик қилган. “Мақомати шоҳи Нақшбанд” китобида ёзилишича, - Ҳазрат Баҳоуддин Нақшбанд Ҳазрат Сайид Мир Кулолдан ижозат олгандан сўнг, етти йил Ҳазрат Мавлоно Ориф Деггароний хизматларида бўладилар” [7 :174].

Саййид Муҳаммад Носирнинг “Туҳфат уз-зоирин” асарида: “Мавлоно Ориф Амир Саййид Кулолнинг аввал ўтган халифаларидан бўлиб, у Бухородан 9 фарсанг нарида, Кўҳак (Зарафшон) дарёсининг бўйида, Ҳазора қасабасида, Деггарон даҳасида Ҳожа Аҳмад Мисгар оиласида туғилган” деб айтилади. Шунингдек, Саййид Амир Кулол айтган эдилар: “Менинг ёронларим орасида мана шу икки киши, яъни Ҳожа Баҳоуддин ва Мавлоно Ориф Деггаронийга ўхшаган ҳеч ким йўқ” [1: 49].

Амир Кулол тарбиясини олган Мавлоно Ориф Деггароний кейинчалик Хазрат Хўжа Баҳоуддин Нақшбандга устозлик қилиб, етти йил мобайнида унинг тарбияси билан шуғулланган. Ҳазрат Баҳоуддин Нақшбанд ҳам ўз навбатида Мавлоно Ориф Деггаронийни жуда ҳурмат қилган, унга бехад иззат-икром ва илтифотлар кўрсатган. Мавлоно Ориф Деггароний нақшбандия тариқатида пирлик мақомига етган соҳиби кароматлардан ҳисобланиб, Амир Кулолнинг асхобларидан бўлиб Хўжа Баҳоуддин Нақшбанднинг маънавий устози саналган. Хусусан, Баҳоуддин Нақшбандийнинг Хазорада, Мавлоно Ориф Деггароний хизматида бўлган кезлари манбаларда қуйидагича келтирилади: "Хожа Баҳоуддин Нақшбанд ўша нафас туфайли етти йил Мавлоно Ориф Деггаронийнинг хизмати ва мулозаматида бўлдилар. Бу мулозаматда хилма-хил риёзат ва жидду жаҳдни ўз бўйниларига олдилар. Деггарон ва унинг атрофларида юрдилар. Кўп вақтлар Мавлоно Ориф билан бирга Работи Малик қурилишида мардикорлик қилдилар" [1: 50].

Айрим ривоятларда келтирилишича, буюк пир Саййид Амир Кулолнинг тўрт нафар ўғиллари бўла туриб, 1372 йили бандаликни бажо қилаётганда қабрга ўнг томондан Мавлоно Ориф, чап томондан эса Баҳоуддин Нақшбанд қўйишини васият қилади. Тахминан 1375 йилда вафот этган Мавлоно Ориф Деггароний ҳам қабрга ўз ўғли эмас, Баҳоуддин Нақшбанд қўйишини ва қабри бошидан уч кун жилмаслигини васият қилади. Бу васият Баҳоуддин Нақшбанд томонларидан тўлалигича адо этилади.

Бугунги кунда Хазора қишлоғида Мавлоно Ориф Деггароний мажмуаси жойлашган бўлиб, қабр худди Ҳазрат Баҳоуддин Нақшбандийнинг қабри каби мармар тошлар билан сайқалланган ва обод зиёратгоҳлардан бирига айлантирилган.

Нақшбандия тариқатининг яна бир машҳур уламоларидан, Ҳазрат Баҳоуддин Нақшбанд билан бир замонда яшаб, унинг эътиборли шогирдлари қаторида бўлган **Хожа Хусравдир**. У кишининг туғилган ва вафот этган санаси аниқ бўлмасада, манбаларда Хожа Баҳоуддин билан билан ҳамсуҳбат бўлиб, унинг мажлисларида иштирок этганлиги айтиб ўтилади. Хусусан: "Нақл қилишларича

бир куни Шайх Хожа Хусрав Ҳазрат Баҳоуддин ҳузурларида илтижо қилиб арз қилдилар: Ҳаромком (Зарафшон) суви гоҳо Кармана анҳори бошланишини ювиб кетиб, яна қайтадан анҳорни ковлашга тўғри келаябди, бундан халққа қаттиқ ташвиш етмоқда. Шу куни яна уни вайрон қилай деб турибди. Яна йўлтўсарлардан Кармана аҳлига кўп ташвиш етмоқда”,-дейди. Шунда Ҳазрат Ҳожа (Баҳоуддин Нақшбанд) дедилар: “Энди Харомком суви тошиб, Кармана анҳорини вайрон қилмайди. Йўлтўсарлар энди Кармана аҳлига ташвиш келтирмайди”. Бу сўзлар у кишининг муборак оғизларидан чиққан кунлари подшоҳдан “Йўлтўсарлар Кармана аҳлига зиён келтирмасин” деган хукм эълон қилнди [1: 141]. Ушбу асарда шу кундан бошлаб Кармана аҳли тинч ва осойишта ҳаёт кечирганлигига ишора қилинади.

Ҳазрат Баҳоуддин Нақшбаннинг яна бир карманалик шогирларидан бири **Шайх Нуриддин** деган киши бўлиб, у ҳам XIV асрда яшаб ўтган нақшбандия тариқати пешволаридан саналган. Манбаларда Ҳазрат Шайх Нуриддиннинг яшаб вафот этган санаси тўғрисида аниқ маълумотлар учрамасада, у киши ҳақида келтирилган ривоятлар юқоридаги фикрни тасдиқлйди. Фахриддин Али Сафийнинг “Рашоҳату айнил ҳаёт” китобида қуйидаги фикрлар келтирилади:“Махфий қолмасунким, хизмати Амир Ҳамзага бу азизларданким, зикрлари ўтди, бошқа асҳоблар ҳам бор экан, мисли Шайх Умар Сўзангар Бухорий ва Шайх Аҳмад Хоразмий, Мавлоно Атауллоҳ Самарқандий ва Хўжа Маҳмуд Ҳаммўйи ва Мавлоно Ҳамидуддин ва Мавлоно Нуриддин ва Мавлоно Саййид Аҳмад – бу учлари Карминий турурлар... ва булардан ўзга асҳобларким ҳаммалари фозили комил эрдилар. Аммо вақтеким, оларнинг ҳолларидан бир нимарса эшитилган нақл масмуъ ва маълум бўлгани йўқ эрди, ҳар бирларининг зикри алоҳида ирод топмади” [9: 73]. Тарихдан маълумки Амир Ҳамза, Ҳазрати Амир Кулолнинг иккинчи фарзанди бўлиб юртдошимиз Мавлоно Ориф Деггаронийнинг шогирдларидан ҳисобланади. Китобдан кўриниб турибдики Мавлоно Шайх Нуриддин Амир Ҳамзанинг шогирди экан. Агарки Мавлоно Шайх Нуриддин Амир Ҳамзанинг шогирдларидан бўлган экан демак, улар замондош бўлиб XIV асрда яшаб ўтишган. Ҳазрат Шайх Нуриддин қабри Қосим

Шайх Азизон мақбарасидан 200 метр шимоли-ғарбда жойлашган. Қабр устига мақбара ўрнатилган.

Яна бир нақшбандия шайхларидан **Мир Сайийд Баҳром** X-XI асрларда яшаган етук аллома, дин арбоби, тақводор, кароматлар соҳиби, комилликка эришган авлиё бўлиб, силсиласи бўйича пайғамбар Муҳаммад (с.а.в)га бориб тақалади [2: 69]. Унинг мақбараси Кармана шаҳри марказида жойлашган. У X-XIасрларга хос бўлиб, республика ҳисобидаги обидалар қаторига киради. Бино сомонийлар даврида бунёд этилган бўлиб, унинг ички қисми ўртасида Мир Сайийд Баҳром дафн этилган. Қабр ёнида арабча битиклар ёзилган иккита қабр тоши ҳам сақланиб қолган. Мақбаранинг ғарб томонида табиий тепалик бўлган. Атрофи мозор бўлиб, уни Мир Сайийд Баҳром мозори деб аташган. Ҳозирги кунда тепалик, мозор ва мачит бузилиб кетган. Мир Сайийд Баҳром мақбараси хусусида ўтган асрнинг 50-йилларида рус шарқшуносларидан В.А.Нильсен ва А.К.Писарчиклар алоҳида тадқиқот олиб боришган. Уларнинг тадқиқотларида асосан обидаларнинг меъморчилигига оид маълумотлар келтирилади.

Тарихий манбалардабугунги Навоий вилояти ҳудудида кўплаб яссавия тариқати вакиллари ҳам яшаб фаолият юритганлигини кўришимиз мумкин. Биргина Қосим Шайх Азизон (1500–1578) ва Шайх Худойдод Валий (1461–1532) ва уларнинг кўплаб муридлари бўлганлиги ҳам фикримизни тасдиқлайди. Шунингдек, Кармана Миёнқоли ва унинг чегара ҳудудларида Хожа Ахмад Яссавий ва яссавия тариқатига тааллуқли жойлар, номлар ва тушунчалар кўплаб учрайди. Жумладан, бугунги Навбаҳор тумани Қаҳрамон қишлоғида Аҳмад Яссавий зиёратгоҳи мавжуд бўлиб, бу ерда унинг рамзий қабри ҳам бор [11:81].Шу атрофларни халқ тилида Туркистон деб аталиши ҳам фикримизни яна бир бор тасдиқлайди.

Тасаввуф тарихи ва моҳиятига бағишлаб ёзилган кўплаб манбаларда “Ота” ва “Азизон” атамалари бевосита Яссавия тариқатига мансуб шайхларга нисбатан қўлланилган. Бугунги Навоий вилояти ҳудудида ҳам “ота” номи билан боғлиқ жойлар кўплаб учрайди. Масалан: Сабр ота(Хожа Савр), Қалқон ота, Оқ ота, Қилич ота, Кавкабий ота, Полвон ота, Занги ота, Авлиё ота, Ғойиб ота, Имом

Баҳра ота, Саййид ота Бадр ота ва хоказо. Шу ўринда Карманага туташ бўлган Қарнаб ота хусусида фикр билдирганда бу ерда яшовчи халқ Яссавий юрти томонлардан экани айрим урф-одатлари ва шеваларида кўзга ташланади.

Саййид ота зиёратгоҳи ҳозирги Хатирчи тумани Боғчакалон қишлоғида жойлашган бўлиб, бу кишининг сифатлари ва яссавия тариқатидаги силсиласи "Ламаҳот" асарида айтиб ўтилади. Асарда келтирилишича, Саййид отанинг асли исми Саййид Аҳмад бўлиб, 1318-1319 йилларда Хоразмда туғилган ва ўн тўрт ёшларида Бухорога келиб, мадрасада таълим олган. Узун Ҳасан ота, Саййид ота ва Бадр оталар Бухорога келиб бир хонадонда туриб дарс ўқишган. Кейинчалик тақдир тақозоси билан шарққа томон силжиб, Кармана Миёнқолига келиб яшайди ва 1380-1390 йилларда бу ерда бир масжид барпо этади. Бу масжид бугунги кунда "Оқмасжид" номи билан аталиб, мустақиллик йилларида обод зиёратгоҳга айлантирилди [11:82].

Бадр ота (вафоти тахм. 1336-1337 йиллар). "Ламаҳот"да келтирилишича, Занги отанинг тўртинчи ҳалифаси бўлиб, яссавия тариқатининг етук пирларидан ҳисобланган. Ҳазрат Бадр отанинг ҳаёти ва фаолияти тўғрисида кўплаб тарихий асарлар ва тазкираларда маълумотлар келтирилади. Жумладан, "Темурнома" асарида Ҳазрат Бадр ота қабрини Тошкентдан тўрт тош йўллик Куйик номли мавзеда деб кўрсатади. Ҳақиқатдан ҳам Тошкент вилоятининг ҳозирги Зангиота туманида Бадр ота номли қабр ҳам мавжуд. Лекин айрим тарихий асарларда ва тадқиқотларда Бадр отанинг қабрини қадимги Миёнқолда деб кўрсатади. баъзи тадқиқотларда келтирилишича, Бадр ота ҳақида маълумот берувчи энг ишончли манба Тоҳир Эшоннинг "Тазкираи Тоҳир Эшон" асаридир [9: 69]. Ушбу асарда 31 нафар Шайхларнинг таржимаи холи ҳақида маълумотлар берилади. Ушбу асарда таъкидланишича: "Бадр отанинг муборак қабрлари Миёнкўл отлиғ мавзедадир ва фақир Муҳаммад Тоҳир Бадр отанинг қабрларини зиёрат этдим. Қорача аҳли хўжалари ҳазратнинг авлодларидир"[12: 91], -деб маълумот беради. Демак, ушбу маълумотларни инобатга олиб Ҳазрат Бадр отанинг муборак қабри қадимий Миёнқолнинг Хатирчи музофотидаги Қорача қишлоғида деб тахмин қилишимиз мумкин.Бугунги кунда ҳозирги Хатирчи тумани Ибн Сино жамоа

хўжалигининг Қорача қишлоғида Бадр Ота қабри мавжуд бўлиб, қабр устига мақбара ҳамда унинг ёнида тахминан 15 метр баландликдаги минора ҳам ўрнатилган [11:83].

Хулоса қилиб айтганда, ўрта асрларда бугунги Навоий вилояти ҳудудида яшаган кўплаб тасаввуф алломалари ва уларнинг маънавий меросларини ўрганиш,тарғиб қилиш ҳамда ўрта асрларда яшаган алломаларнинг ҳаёт ва фаолиятлари, зиёратгоҳларига оид қўплаб тарихий манбалар, архив хужжатлари ва қабртош ёзувларидаги маълумотларни тарихий нуқтаи назардан таҳлил қилиш Ўзбекистонда ички туризмни ривожлантиришда муҳим аҳамиятга эга.

Адабиётлар

1. Абул Мухсин Муҳаммад Боқир ибн Муҳаммад Али. МақоматиХожа БаҳоуддинНақшбанд. –Т.: Ёзувчи, 1993.
2. Абу Тоҳирхожа. Самария. Форс тилидан Ш.Воҳидов, Б.Аминов таржимаси. Т.: Янги аср авлоди, 2009.
3. Мирзиёев Ш.М. Буюк келажагимизни мард ва олижаноб халқимиз билан бирга қурамиз. – Т.: Ўзбекистон, 2017.
4. Садриддин Салим Бухорий. Икки юз етмиш етти пир. Бухоро, 2006.
5. Сатторова Г. Бадр ота – тариқат илмининг намояндаси. / Ҳожагон тариқати ва Абдуҳолиқ Ғиждувонийнинг маънавият тарихидаги ўрни. Илмий-назарий конференция материаллари. Навоий, 2003.
6. Фаҳруддин Али Сафий. Рашаҳоту айнил-ҳаёт. (الحیاتعاینراشاخات). /Форс тилидан Худойберган ибн Бекмуҳаммад таржимаси. –Т.: Абу Али ибн Сино нашриёти, 2004.
7. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг “Абдухолик Ғиждувоний таваллудининг 915 йиллигини ва Бахоуддин Нақшбанд таваллудининг 700 йиллигини нишонлашга тайёргарлик кўриш ҳамда уни ўтказиш тўғрисида” ги ПФ-4988-сон Фармойиши. www.lex.uz
8. Қандаҳаров А. Бухоро хонлиги ва унда карманалик шайхлар фаолияти.Т.: Тафаккур қаноти, 2018.

БУЮК СОҲИБҚИРОН АМИР ТЕМУР МЕҲР ҚЎЙГАН ТАРИХИЙ ВА БОҚИЙ ШАҲАРЛАР – ТУРИЗМ ЮРАГИДИР

Бобожонов Ш.,
ҚарДУ ПИ доценти

Туризм соҳаси мамлакатимиз Президенти Ш.Мирзиёевнинг ташаббуслари ва раҳнамоликларида кенг ривожланмоқда. Жумладан, Самарқанд, Хива, Бухоро, Тошкент, Термиз, Қўқон, Қарши каби ўнлаб тарихий шаҳарлар қаторида Шаҳрисабз ҳам кундан-кунга ривожланиб, тарихийлик билан замонавийлик уйғунлашиб бормоқда.

Амир Темур таваллудининг 686 йиллиги мамлакатимиз мустақиллигининг 31 йиллиги кенг нишонланадиган йилга тўғри келганида ҳам рамзий маъно бор. Кучли марказлашган давлатга асос солган йирик давлат арбоби, енгилмас саркарда Буюк Соҳибқирон Амир Темур бугун ўзбек халқининг ғурур ифтихори, беқиёс қудрати тимсолига айланган.

Инсоният тарихида кўплаб давлат арбоблари, буюк алломалар, ҳарбий саркардалар ўтиб, улар ўзларининг олижаноб фазилатлари, қолдирган мерослари билан номларини абадийлаштирганлар. Амир Темур ҳам ана шундай буюк зотлардан ҳисобланади. Соҳибқирон Амир Темур XIV асрнинг иккинчи ярми – XV асрнинг бошларида Мовароуннаҳрда қудратли давлатга асос солди. Бу давлатни бошқариш, уни бутун дунёга танитишда буюк соҳибқироннинг ўтказган ички ва ташқи сиёсати барча давлат арбоблари учун ибратлидир. Қарши, Самарқанд, Кеш шаҳарлари атрофида мудофаа қўрғонлари қуриб, қўшинлар ичида ҳарбий ислоҳотлар ўтказди.

Амир Темур ўз давлатининг пойтахти Самарқандни дунёда энг гўзал шаҳарга айлантиришга, киндик қони томган она Ватани Кеш (Шаҳрисабз) ни йирик маданий марказ қилишга катта эътибор берди. Бу ерларда улкан бинолар, муҳташам саройлар,мадраса ва масжидлар, гўзал боғлар барпо қилинди. Бу даврда меъморчилик ва ободонлаштириш ишлари айниқса, ривож топди, дунёда тенгги йўқ обидалар яратилди. Самарқандда Гўри Амир, Бибихоним мадрасаси, Жоме масжиди, Шаҳрисабздаги Оқсарой, ”Дорут - тиловат“, ”Дорус - саодат“,

мажмуалари шулар жумласидандир. Соҳибқирон бобомиз ҳар бир ғалабасини бирорта обида қуриш билан абадийлаштирган. Онаси Тегина бегим Моҳ шарафига 1380 йилнинг баҳорида Шаҳрисабздаги Оқсарой қурилишини бошлаган. У йигирма йилдан ортиқроқ давр мобайнида қурилган. Бу обида ҳақида Испания элчиси Рюи Гонзалес де Клавихо қизиқарли, ажойиб илмий ва тарихий қимматга эга бўлган маълумотлар беради. Соҳибқирон бобомиз Оқсаройнинг пештоқига ”Қудратимизга шубҳанг бўлса, биз қурдирган иморатларга боқ” деб ёзишни буюрган экан. Рюи Гонзалес де Клавихонинг ёзишича бунёд этилаётган мазкур сарой қурилиши йигирма йилдан бери ҳар куни тинимсиз давом этаркан. Шу кунларда (1403 йил 26 август, пайшанба) ҳам кўплаб усталар ишлар эдилар деб саройнинг безатилишига у юқори баҳо берган.

Оқсарой азиз ва қадрлидир. Уни асраб - авайлаб, келгуси авлодларга безавол етказиш ҳар бир юртдошимизнинг фарзандлик бурчидир.

Улуғ бобомизнинг боғлари ҳақида фикр юритиб, унинг таърифига тўхталсак. Жаҳонгир бобомиз Самарқанд атрофида 12 та машҳур боғ бунёд этганлар. Булар - ”Боғи нақши“, ”Боғи Беҳишт“, ”Амирзода Шоҳрух боғи“, ”Боғи Бўлду“, ”Боғи Дилкушо“, ”Боғи Зағон“, ”Боғи Баланд“, ”Давлат Обод“, ”Боғи Чинор“, ”Боғи нав“, ”Боғи Шамол“, ”Боғи Жаҳоннома“ лардир. Бу боғларнинг ўзига хос оромгоҳу ҳашаматли саройлари бўлган. Улардан бутун эл, фуқаро баҳраманд бўлган. Соҳибқироннинг Самарқанд атрофида барпо этган боғлари ўзининг тенгсиз таровати, ҳаловати, хуштаъм мевалари билан бошқа боғлардан ажралиб турган.

Мустақилликка эришгач халқимизниг Амир Темур бобомиз ва темурийларга бўлган юксак эътиборлари туфайли Тошкент, Самарқанд, Шаҳрисабз шаҳарларида Амир Темур ҳайкаллари ўрнатилди. Тошкент шаҳрида 1996 йили улуғ бобомизнинг 660 йиллиги муносабати билан ”Темурийлар тарихи давлат музейи“ бунёд этилди. Буюк Жоҳонгир бобомиз қурдирган обидалар қайта таъмирланиб, боғ- роғларнинг қайта тикланганлиги қувончлидир.

Тарихий манбаларнинг гувоҳлик беришича, Амир Темур бобомиз олий ҳимматли, адолатли давлат арбоби, буюк ҳарбий саркарда сифатида гавдаланади.

Улуғ бобомиз, Соҳибқирон Амир Темур давлатни бошқаришда халқимизнинг ”Етти ўлчаб, бир кес “ деган мақолига амал қилгандек сиёсат юргизган. Амир Темур бобомиз давлат арбоби сифатида мамлакатни идора қилиш учун илм-фаннинг аҳамиятига катта эътибор берган. У олиму уламоларга катта иззат-икром кўрсатиб, ҳар томонлама қўллаб- қувватлаб, ўз атрофига тўплаб маслаҳатларини олган. Бу ҳақда буюк бобомиз ”Мен олимларга, илоҳиятчиларга, файласуфларга ва тарихчиларга ҳурмат- эҳтиром кўрсатдим. Мен уларни ҳурмат қилдим ва эъзозладим “ деган эди.

Улуғ бобомиз Соҳибқирон Амир Темур ”Тузуклар“ида ”Биз ким – мулки Турон, Амири Туркистонмиз. Биз ким – миллатларнинг энг қадими ва энг улуғи Туркнинг бош бўғинимиз“, деб ёзилган. Бу муқаддас сўзларда буюк давлат арбоби Амир Темурнинг ўз Ватанига, халқига бўлган муносабати мужассамлашган. Миллатнинг тимсолига айланиб қолган Амир Темур қадрияти ҳозирги кунда умуминсоний қадрият даражасига кўтарилиб, халқимиз қалбидан мустаҳкам ўрин олмоқда.

Амир Темур Марказий Осиё халқлари тарихида буюк ҳарбий саркарда сифатида қолди. У ўзининг таржимаи ҳолида , ”Мен 15 ёшимда отда юриш ва қиличбозлик саънатини мукаммал эгалладим, 16 ёшимда отам ўзининг қўшинлари бошлиғи қилиб, саройда оқ фотиҳа берди, 17 ёшимда отамнинг молу-мулки менга мерос қилиб топширилди, 20 ёшимда эса ҳарбий юриш ва лашкарларни бошқариш саънатини чуқур ўргандим“ деб ёзган эди. Амир Темур ўзининг 35 йиллик умрини ҳарбий юришларда ўтказди, қарийб 27 давлатни ўзига тобе қилди. Унинг ҳарбий таланти беҳисоб бўлган.

Буюк Соҳибқирон Амир Темур бобомизнинг Боязид қўшинлари устидан ғалабаси билан Европа мамлакатлари давлат бошлиқлари жумладан, Англия, Франция, Испания қироллари унга табрик мактубларини юбориб, ғалаба билан қутлаганлар. Соҳибқирон Амир Темур Европа халқларининг халоскори деб эълон қилинган.

Бобокалонимиз Соҳибқироннинг буюк ишларига олимлар, давлат ва жамоат арбоблари юксак баҳо берганлар. Ҳерман Вамбери ”Бухоро ёхуд Мовароуннаҳр тарихи“ асарида Амир Темур ҳақида ёзиб, ” ... у жуда ҳақли равишда македониялик Искандар, Цезарь ва ундан сўнг ўтган Наполеон билан бир сафда туради“, деган эди.

Тарихнинг гувоҳлик беришича Соҳибқироннинг онаси Тегина бегим Моҳ бўлиб, бу мўътабар аёл Бухородаги Садр аш- шариа исмли олимнинг қизи бўлган. Соҳибқироннинг отаси Муҳаммад Тарағай билан онаси Тегина бегим ўртасидаги никоҳ 1334 йилда бўлиб ўтган. 1336 йил 9 апрель куни Соҳибқирон Амир Темур таваллуд топган. (Соҳибқирон - Амир Темурнинг лақаби: ”соҳиб“ – эга, ”қирон“- илми нужумда икки шарофатли сайёра, Зуҳра (Венера) ва Муштарий (Юпитер) ўз ҳаракатида бир-бирига яқинлашган ҳолатни ”қирон буржи“ деб атаб, уни бахт- саодат аломати деб башорат қилинган. Соҳибқирон – мазкур икки сайёра бир -бирига яқинлашган пайтда туғилган бахтли подшоҳ). Бу ҳолат ҳар 800 йилда содир бўлар экан.

Бугунги кунда Амир Темурни, ўзбек халқини билмайдиган дунёда халқлар ва мамлакатлар кам топилади.

Бу йил она Ватанимиз Ўзбекистонда Амир Темур бобомиз таваллудининг 686 йиллигига бағишлаб кенг миқёсда маънавий – маърифий тадбирлар бўлиб ўтмоқда. Темур ва темурийлар давридаги илм-фан тараққиёти, маданият ва маориф сарчашмаларини чуқур ўрганиш ва шу асосда мустақил давлатимиз ёшларини ватанпарварлик руҳида тарбиялаш, бугун айниқса, муҳим ахамият касб этмоқда. Мамлакатимизда бўлгани каби Қарши ва Шаҳрисабз шаҳарларида буюк бобомизнинг 686 йиллигига бағишланган кенг миқёсдаги қурилиш, ободонлаштириш ва кўкаламзорлаштириш ишлари олиб борилмоқда. Қашқадарё дарёси устидаги Амир Темур кўприги қайта таъмирланиб, унинг икки соҳили тасаввур қилиб бўлмайдиган даражада катта сайилгоҳга айлантирилди. Кўприк атрофига экилган ноёб 4000 дан ортиқ дарахт ва буталар соҳил гўзаллигига кўрк қўшмоқда. Бу ердаги гулларнинг ифори ўзгача. Шаҳрисабз шаҳридаги Оқсарой, ”Дорут - тиловат“,”Дорус - саодат“,

мажмуалари, Амир Темур майдони, Чубин мадрасаси ажойиб манзара касб этган хиёбонга қараб тўймайсиз. Тарихий обидаларни боғлаб турган аллеянинг бетакрор гўзаллигидан юраклар тўлқинланиб кетади. Бу ердаги 30000 дан ортиқ тупга яқин ноёб, ҳамиша яшилликка бурканиб турган дарахт кўчатлари ва буталар шаҳар кўркига кўрк қўшмоқда.

Юқоридаги амалга оширилган бунёдкорлик ва ободонлаштириш ишлари натижасида юртимизга келаётган хорижий туристлар оқими кундан-кунга кўпаймоқда. Бу эса халқлар ўртасидаги азалий дўстликни янада мустаҳкамлаб, маамлакатимизни дунёга танитишда муҳим ўрин тутади. Маҳаллий саёхатчиларнинг сон-саноғи йўқ. Чунки ҳар бир инсон саёҳат қилишни ва янгиликни кўришни, дунёни теран тушунишни ҳохлайди. Ҳозирги кунда Ўзбекистонимиз бўйлаб саёҳатчилар қадами етиб бормаган замин қолмади. Чунки Юртимизнинг ҳар бир фасли мафтункор ва гўзалдир. Бу эса ҳар бир сайёҳни ўзига мафтун этади.

Мустақиллик йилларида Амир Темурга бўлган ҳурмат ва эътибор давлатимиз сиёсати даражасига кўтарилди. 1996 йили 26 апрелда ”Амир Темур“ ордени таъсис этилди. Шаҳрисабз, Термиз ва руйи замин сайқали, буюклик маскани – Самарқанд шаҳрига ”Амир Темур“ орденини топширилди. Эндиликда Амир Темур номи билан боғлиқ бўлган мактаб, кўча ва хиёбонлар, маҳаллалар ҳамда тарихий музейлар ҳам улуғ бобомизга юртдошларимизнинг юксак эҳтироми рамзидир.

САМАРҚАНД ВИЛОЯТИ ҚИШЛОҚ ТУРИЗМИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Усманов М.Р, *Сам ДУ доценти, г.ф.н.,*
Баротова Гулмира, *СамДУ магистранти,*
Тошмуродов Шоберди, *СамДУ талабаси*

Ўзбекистон туризм соҳасида улкан имкониятларга эга, хусусан мамлакатда жами 7300 дан ортиқ маданий мерос объектлари, шу жумладан 4300 дан ортиқ археологик объектлар, 2000 дан ортиқ архитектура объектлари мавжуд. Улардан 500 дан ортиқ объектларда туристлар ташрифи учун шароит ташкил қилинган

ҳамда туризм йўналишига киритилган. 8 тақурикланадиган ҳудуд, 3 та миллий табиат боғлари, 6 та табиат ёдгорликлари, 11 та давлат буюртма хоналари мавжуд. Бундан ташқари, юзлаб табиий, тарихий, этнографик, экотуристик, агротуристик, гострономик туризм имкониятларига эга бўлган қишлоқлар мавжуд бўлиб, уларни географик жиҳатдан ўрганиш муҳим аҳамиятга эгадир. Мавжуд имкониятларни янада кенгроқ ўрганадиган бўлсак, юқоридаги кўрсаткичдан анча кўп туристик масканларни кашф қилиш мумкин. Статистик маълумотларга кўра, 2017 йилда республикага ташриф буюрган туристлар сони 2 млн 520 минг нафардан ортиқни ташкил этди ва 2016 йилга нисбатан 44,3 % га ошган [2].

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 3 февралдаги «Ўзбекистон Республикасига туризм салоҳиятини ривожлантириш учун қулай шарт-шароитлар яратиш бўйича қўшимча ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПФ-5326-сон Фармонининг 10 - бандида [1] туристик карталар тайёрлаш масаласининг қўйилганлиги географлар олдига катта вазифалар белгилаб берди. Шунингдек, фармон бандларида ҳудудлар туристик имкониятларини янада ривожлантириш масалалари ҳам белгилаб қўйилган. Демак, "ҳудуд эгаси" бу албатта географлардир. Шунинг учун ҳар бир ҳудуд, туман, қишлоқ, тоғ ва дарёлар, чўллар туристик нуқтаи назардан тадқиқ этилиши лозимдир.

Маълумки, Самарқанд вилояти Ўзбекистоннинг туризм соҳаси энг ривожланган вилоятларидан саналади. Вилоят ҳудудида 1865 та маданий мерос объектлари мавжуд. Уларнинг аксарияти археологик объектлар, монументал санъат асарлари, архитектура ёдгорликларидир. Самарқанд вилояти ҳокими Э.Турдимовнинг "Kun.uz" (09.10.2019) мухбирига берган интервьюсида «2018 *йилда Самарқандга йил бўйи 380 минг нафар сайёҳ келган, бу 2017 йилгига қараганда икки баробар кўп дегани. Бу йил келган сайёҳлар сони эса 510 минг нафарга етиши кутилмоқда. Аммо бу ҳам Самарқанд учун кам. Грузиянинг 4 миллион аҳолиси бор ва бу мамлакат йилига 8 миллион сайёҳни қабул қилади. Самарқандда ҳам шунча аҳоли бор ва биз ҳам сайёҳлар оқимини*

кўпайтиришимиз керак. Шунинг учун туристик зона қурилишини бошладик. Чунки, сайёҳлар фақат тарихий биноларни кўриш билан чекланмайди-ку, тўғрими? Уларнинг кечки ҳаётни ҳам мазмунли ўтказишлари учун ҳаракат қилишимиз керак», – деб таъкидлаган[8]. Қишлоқ жойларидаги маданий меърос объектларидан туризм мақсадида жуда кам фойдаланиб келинмоқда.

Гарчи Самарқанд вилоятида туризмни ривожлантиришнинг катта имкониятлари мавжуд бўлса-да, унда асосан тарихий (обидаларни кўриш) ва диний туризм ривожланган холос. Ваҳоланки, вилоят туманларидаги зиёрат, экологик, маърифий, этнографик, спорт, даволаш-соғломлаштириш каби турларини амалга ошириш учун кенг имкониятлар мавжуд. Бинобирин, вилоятда туризмнинг имкониятларидан тўлиқ фойдаланилмоқда, деб бўлмайди.

Ўзбекистонга келган туристларнинг аксарияти Самарқандга келишади. Бу вилоят учун катта имкониятдир. Президентимиз Самарқанд вилоятига ташрифи чоғида Самарқанд бугунги кунда 5 млн туристни қабул қилиши кераклиги, бу эса минглаб иш ўринлари демакдир, деб таъкидлаган эди. Дарҳақиқат, Самарқанд вилояти ўзининг улкан туристик салоҳияти билан жаҳонга машҳурдир. Аммо вилоятнинг туманларидаги туристик салоҳиятдан самарали фойдаланиш учун имкониятлар юқори бўлишига қарамасдан улардан самарали фойдаланилмаяпти. Буни қуйидаги жадвал маълумотларидан кўриш мумкин[6].

Самарқанд вилоятидаги мавжуд тарихий обидалар* (2017 йил 1 январ ҳолатига)

№	Туман, шаҳарлар номи	Жами тарихий обидалар сони	Шундан:				
			музейлар сони	меъморий обектлар сони	археология обеъктлаи сони	зиёратгоҳ жойлар сони	монументал объектлар сони
Вилоят бўйича		1626	11	581	975	34	36
	шаҳарлар:						
1	Самарқанд ш.	490	9	417	14	23	36
2	Каттақурғон ш.	23	1	23	-	-	-
	туманлар:						
3	Булунғур	25	-	6	19	-	-
4	Жомбой	45	-	6	39	-	-

5	Иштихон	70	-	8	62	-	-
6	Каттақўрғон	50	-	8	42	-	-
7	Қўшработ	57	-	3	54	-	-
8	Нарпай	56	-	10	46	-	-
9	Нуробод	55	1	5	50	-	-
10	Оқдарё	114	-	8	105	1	-
11	Пойариқ	97	-	6	91	-	-
12	Пастдарғом	148	-	3	144	1	-
13	Пахтачи	41	-	9	32	-	-
14	Самарқанд	140	-	34	102	4	-
15	Тойлоқ	71	-	13	58	-	-
16	Ургут	144	-	22	117	5	-

*Вилоят Маданий мерос объектларини муҳофаза қилиш ва улардан фойдаланиш Давлат инспецсиясининг маълумотига асосан тузилди.

Юқоридаги жадвалдан кўриниб турибдики, вилоятнинг аксарият туманларида туристик объектлар мавжуд. Аммо мавжуд имкониятлардан барча туманлар ҳам фойдалана олмаяпти. Чунки, туризмнинг инновацион имкониятлари ҳудудларда янги иш ўринлари яратиш, қўшимча даромад манбаи сифатида ижтимоий-иқтисодий ривожланишига туртки беради.

Қоратери қишлоғи Самарқанд вилояти Оқдарё тумани ҳудудида жойлашган. Қишлоқнинг 33-мактабида француз тили ўргатилади. Туманнинг халқ усталари маҳоратлари, кўп миллатли маданиятининг этнографик хусусиятлари, урф-одат ва анъаналари ўзбек миллий анъанавий маросимлари (чимилдиқ, миллий тўй либослари, ёр-ёр, келин салом, бешикбойлар, алла), халқ қўшиқлари (лапарлар), сайёҳлар билан рақсга тушиш, табиий иқлим шароитининг турли-туманлиги, ландшафтлар бойлиги ва бошқа жиҳатлари катта қизиқиш уйғотади ва чет эл сайёҳлиги ривожига имкон яратади.

Самарқанд вилоятининг Қашқадарё вилоятига яқин ҳудудида Нуробод туманидан ўтувчи А 378 автомагистрал йўлида жойлашган "Доктор кобра" туризм маскани ўз фаолиятини бошлаши билан нафақат самарқандликлар, балки қашқадарёликлар орасида ҳам машҳур масканга айланишга улгурди. Зоопарк

сифатида ташкил этилган масканда кўплаб ёввойи ҳайвонлар, паррандалар, жумладан, чия бўри, бургут, туяқуш, эчкиэмар, жайра, олмахон, укки, лочин ва 30 дан ортиқ илонлар мавжуд. Оламшумул илон томошаларини фақатгина шу ерда томоша қилиш мумкин. Ҳозирги кунда "Доктор кобра" туризм маскани илонлар шоу дастури орқали "Гиннес рекордлар китоби"га киритилиши режалаштирилган. Ҳудудда умумий овқатланиш, илон заҳри билан даволаш, квадротциклда сайр қилиш каби қўшимча хизмат кўрсатиш турлари яратилган.

Самарқанд вилояти Жомбой тумани "Катта қишлоқ" маҳалласи 1997 йилда ташкил топган. Қишлоқда хонадон 1425 та мавжуд бўлиб, 6273 нафар фуқаро истиқомат қилади. "Катта қишлоқ" МФЙ да Кўл қишлоғи, Ширинкент қишлоғи, Гул қишлоғи, Узуновул қишлоғи, Катта қишлоқ қишлоғи, Қора қишлоғи, Ровот кишлоғи, Шайман қишлоғи, Мойжувоз қишлоқлари мавжуд.

Самарқанд тумани Оҳалик тоғ ён-бағрида жойлашган Янгиариқ маҳалласи ҳудудида ташкил этилган "Оқбўйро гарден" экотуризм маскани дам олиш учун кемпинглар, шийпонлар, сузиш ҳавзаси, болалар учун ўйин майдончаси кабиларни ўз ичига олади. Шунингдек, очиқ ҳавода меҳмонлар учун турли концерт ва шоудастурлар ташкил этилади. Ҳудудга ташриф буюрувчилар тоғ манзарасидан баҳраманд бўлиш ҳамда пиёда, отда, эшакда сайр қилиш имкониятларига эга бўлишади. Ушбу масканда меҳмонлар учун экстремал туризм хизматларидан фойдаланиш, квадроциклларда сайр қилиш, пароплан, делтаплан ва ҳаво шарларида парвоз қилиш имкониятлари яратилган.

Пангат қишлоғи Кўшработ тумани марказидан 34 км, Самарқанд шаҳридан эса 140 км узоқликда, Қизилбел қишлоғи туман марказидан 25 км, Самарқанд шаҳридан эса 121 км узоқликда жойлашган. Тоғли ҳудудда жойлашган ушбу қишлоқлар аҳолиси эрта тонгдан туриб меҳнат қилишга киришади, аёллари нон ёпиш, сигир соғиш ва бошқа маиший ишларни саранжом қилишади, эркаклари эса асосан чорвачилик билан машғул. Пангат ва Қизилбел қишлоқларида ўзига хос этнографик ўйинлар (чиллак, оқ теракми- кўк терак, арқон тортиш, беш тош, қўчқор уруштириш, хўроз уруштириш), ҳунармандчилик (қўй юнгига ишлов

бериб қўлда гилам тўқиш, сўзана тикиш, эгар ясаш), урф-одат ва анъананалари сақланиб қолинган.

Бундан ташқари, қишлоқ жойларда экотуристлар учун қизиқарли бўлган объектлар, яъни алоҳида муҳофазага олинган ҳудудлар (миллий боғ ва қўриқхона) доирасидаги турли табиий ва маданий вужудга келган ландшафтлар, ўсимлик ҳамда ҳайвонот олами ресурслари, ажойиб табиат комплкслари, табиат ёдгорликлари билан қизиқарлидир. Бу ҳудудларда табиат неъматларидан фойдаланилган ҳолда табиий хизмат кўрсатиш соҳаси (сервис)ни йўлга қўйиш, комплекс ривожлантириш ва турли тематик маршрутларни ташкиллаштириш соҳанинг ривожида ҳамда қишлоқ жойларида кўпгина янги иш ўринларининг яралишига замин бўлади.

Қишлоқ жойларимиз туризмни ривожлантириш ресурсларига бой экан, фақат ундан самарали фойдаланишда туристларни жойлаштириш ва овқатлантириш, транспорт хизматини кўрстиш, умуман олганда хизмат кўрсатиш соҳаларини шакллантириш асосий омил ҳисобланади. Қолаверса:

- қишлоқ манзилгоҳларида янги иш ўринлари очилиб, меҳнат ресурслари иш билан таъминланади;
- аҳоли саломатлиги яхшиланади;
- қишлоқ манзилгоҳларидаги туристик – рекреация ресурсларидан самарали фойдаланиш катта иқтисодий фойда келтиради ва шу жойнинг экологик ҳолатини яхшилаш имкониятлари яратилади;

қишлоқ манзилгоҳларида туризм ривожланиб, туристик инфратузилма шаклланади ва ҳ.к.

Адабиётлар

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг «Ўзбекистон Республикасида туризм салоҳиятини ривожлантириш учун қулай шарт-шароитлар яратиш бўйича қўшимча ташкилий чора-тадбирлар тўғрисида»ги ПФ-5326-сон Фармони**.** – Тошкент шаҳри, 2018 йил 7 февраль.

2. Абдуҳакимов А. Ӯзбекистонда туризмни ривожлантириш истиқболлари ва унинг мамлакат иқтисодиётига аҳамияти.-Uzbekistan Today.-2018.

3. Солиев А.С., Усмонов М. Туризм географияси. с Самарқанд, 2005.
4. Мавлонов А. Чўл урбанизацияси. – Бухоро, Дурдона, 2015. 176 б.
5. A’zamov S. Turizmda innovatsiyalar: soha taraqqiyoti va kadrlar masalasi. – Toshkent, 2017.
6. Samarqand viloyat Madaniy meros ob’ektlarini muhofaza qilish va ulardan Foydalanish Davlat inspeksiyasining ma’lumotlari, 2017.
7. Самарқанд вилояти туризмни ривожланиш департаменти. –Самарқанд, 2021, www. samstat.uz. www.kun.uz

АНДИЖОН ВИЛОЯТИНИНГ МАДАНИЙ ТУРИСТИК САЛОҲИЯТИ

Аҳмедов Жасурбек Зокиржонович, *Камолиддин Бехзод номидаги Миллий рассомлик ва дизайн институти ўқитувчиси, т.ф.н. (PhD)*

Мустақиллик йилларида барча соҳалар каби туризм соҳасида ҳам қатор ислоҳотлар амалга оширилмоқда. Мазкур соҳани ривожлантиришга қаратилган бир қатор ҳукумат қарорлари қабул қилинди. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2016 йил 2 декабрдаги ПФ 4861-сонли «Ўзбекистон Республикасининг туризм соҳасини жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида»ги [1] Қарори туризм салоҳиятини янада юксалтириш, мазкур жабҳада олиб борилаётган ислоҳотларни янги босқичга олиб чиқишга қаратилган муҳим ҳужжат сифатида тарихий аҳамиятга эгадир. Сабаби, унда туризмга иқтисодиётнинг стратегик сектори мақомини беришдек улкан вазифа белгилаб берилган. Бу бежиз эмас, албатта. Чунки, аҳоли бандлигини таъминлаш, саноат, транспорт-коммуникация, хизмат кўрсатиш каби тармоқлар равнақида туризм соҳаси алоҳида роль ўйнайди. Бугунги кунда унинг жаҳон ялпи ички маҳсулотидаги улуши 10 фоиздан кўпроқни ташкил этаётгани, ишга лаёқатли аҳолининг 8 фоизга яқини шу жабҳада меҳнат қилаётгани ана шундан далолатдир [2].

Ўзбекистон тарихий қадамжолари кўплиги бўйича дунёдаги етакчи ўнта мамлакат қаторида туради. Қадимий цивилизация ўчоқлари бутун дунёда юксак қадрланади. Шунинг учун ҳам бугунги кунга келиб юртимизнинг бой маънавий-

маданий мероси ва ранг-баранг табиати экотуризм, геотуризм, альпинизм, маданий туризм, балиқ ови каби туризмнинг замонавий турлари учун қулай имконият яратмоқда.

1993 йилдан буён Ўзбекистон БМТнинг Бутунжаҳон Туризм ташкилоти (ЮНВТО) аъзоси ҳисобланиб, бугунги кунда ўзаро мустаҳкам ҳамкорлик ўрнатилганлиги натижасида мамлакатимизнинг туризм салоҳиятини юксалтириш, унинг бошқа давлатлар билан туризм соҳасидаги муносабатларини кенгайтириш ҳамда Буюк ипак йўли маданий меросини жаҳонга танитиш учун хизмат қиладиган лойиҳаларни ҳаётга татбиқ этиш мақсадида дунёнинг 24 мамлакати қаторида Бутун жаҳон сайёҳлик ташкилоти (ЮНВТО)нинг «Буюк Ипак йўлида туризм» дастурида ҳам фаол иштирок этиб келмоқда [3].

Ўзбекистонни кўриш, унинг ҳавосидан нафас олиш истагида дунёнинг турли бурчакларидан ташриф буюраётган сайёҳлар сони йил сайин ортиб бормоқда. 2016 йилда **1,3 миллион** нафар хорижий давлат фуқаролари мамлакатимизга сайёҳ сифатида ташриф буюрган бўлса, бу кўрсаткич 2019 йилда **6,7 миллион** нафарга етди [4].

Туризм соҳасидаги юксак салоҳият, замонавий инфратузилмага эга Андижон вилоятида маҳаллий ва хорижий меҳмонларнинг қадами узилмайди. Андижонга аҳоли зичлигининг юқорилиги ҳамда қадимдан ўтроқ ҳаёт кечириши туризмнинг бир неча турларининг ривожланишига замин яратган. Хусусан, археологик туризм, зиёрат туризми, тарихий ва архитектура обидалари, агротуризм, бизнес туризм, этнографик туризм, тиббий туризм, гастрономик туризм каби йўналишларни ривожлантириш учун етарли имкониятлар мавжуд. Шунингдек, миллий ҳунармандчилик ва хизмат кўрсатиш соҳаларининг ривожланганлиги келаётган туристларда янада катта қизиқиш уйғотади.

Истиқболда Хўжаобод туманида **«Имомота»** туризм маҳалласи, Хонобод туманида **«Афсона дам олиш маскани»**, Шаҳрихон туманида **“Ҳунармандлар маркази»** ва Андижон шаҳрида **«Туризм кўчаси»** ташкил қилиниши режалаштирилган. Андижон вилоятида археологик туризмни ривожлантириш учун етарлича объектлар мавжуд. Мингтепа ва Эйлатон археологик

ёдгорликлари кўплаб хорижлик сайёҳлар эътиборини тортмоқда. Шуниндек, Андижон шаҳрининг Эски шаҳар қисмидаги Сарбонтепа (мил. авв. VI–IV асрлар), Култепа, Жалалқудуқ туманида жойлашган Далварзинтепа (мил. авв. XII–VIII асрлар), Булоқбоши туманидаги Тоштепа ва Шўрабашот каби қадимий шаҳар қолдиқлари вилоят туристик салоҳиятининг жозибадорлигини янада оширади.

Биргина Андижон шаҳрининг ўзида Мирпўстинота мақбараси, Ганчтепа, Девонабой масжиди, Дувохон масжиди, Жомеъ мажмуаси, Аҳмадбек ҳожи меҳмонхонаси, Уйғур масжиди, Ҳожар Ноиб мадрасаси, Қилич Бурҳонидин ота мозори каби тарихий-меъморий обидаларни маҳаллий ва халқаро туристларга таништириш мумкин. Бироқ бу архитектура ёдгорликлари Андижон шаҳрининг маълум бир қисмида комплекс жойлашмаган.

Дарвоқе, Андижоннинг Эски шаҳар қисмидаги «ҳунармандлар растаси» том маънода очиқ осмон остидаги музейдир. Сабаби, ҳунармандлар шу ерда истиқомат қилиб, отамерос касб-корларини юритадилар. Бу эса сайёҳларга миллий ҳунармандчилик маҳсулотлари яратилиш жараёнига яқиндан гувоҳ бўлиш, айни чоғда унинг иштирокчисига айланиш имконини беради.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2018 йил 7 февралдаги «Ички туризмни жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида»ги ПҚ-3514-сонли Қарори [5] ижроси таъминлаш борасида ҳам вилоятда салмоқли ишлар қилинди. Кўплаб қутлуғ қадамжоларда ободонлаштириш ишлари амалга оширилиб, зиёрат қилиш учун шарт-шароитлар яратилди.

Хонобод шаҳридаги Фозилмон ота, Қўрғонтепа туманидаги Бибисешанба, Юнус пайғамбар, Жалақудуқ туманидаги Қутайба ибн Муслим, Хўжаобод туманидаги Имомота, Булоқбоши туманидаги Ширмонбулоқ, Асака туманидаги Пистамозор, Марҳамат туманидаги Бобохуросон, Балиқчи туманидаги Учбулоқ, Тузлуқбуви, Избоскан туманидаги Хўжа Қамбар ота, Андижон туманидаги Меҳмони Валий, Пахтаобод туманидаги Кўктўнлик ота, Отақўзи мадрасаси каби зиёратгоҳларни санаб ўтиш мумкин. Бу зиёратгоҳлар маданий мерос сифатида давлат муҳофазасига олинган. Улар ўз хусусиятига кўра маҳаллий, республика

ва халқаро аҳамият касб этади. Шу боис бу туристик объектларга нафақат маҳаллий ёки республикадан, балки қўшни Қирғизистон, Қозоғистон, Тожикистондан, шунингдек, Россия, Хитой, Туркия, Германия, Малайзия ва Индонезия каби мамлакатлардан ҳам зиёратчилар ташриф буюрмоқда [6].

Жалақудуқ туманидаги Кутайба ибн Муслим ёдгорлиги, Тош масжид, Шаҳрихон туманидаги Гумбаз мажмуаси қайта тикланди. Шу билан бирга, Хожа Аҳрор Валийнинг шогирди Мулла Асомиддин номи билан боғлиқ Мирпўстин ота, Балиқчи туманидаги Ғойиб бува каби тарихий ёдгорликлар қайта таъмирланиб, табаррук қадамжоларга айлантирилди [7].

Туризмни ривожлантириш давлат қўмитаси Андижон вилояти ҳудудий бошқармаси ташаббуси билан Хўжаобод туманидаги Имомота қишлоғини туризм қишлоғига айлантириш, мазкур қишлоқда туристик хизматларни ташкил этиш, инфратузилмани яхшилаш масалалари ўрганилмоқда.

Мамлакатимиз раҳбари 2017 йилнинг 2–3 июнь кунлари Андижон вилоятига ташрифи чоғида Хонобод шаҳрига ташриф буюриб, «Ўзбекистон Швейцарияси» номини олган ушбу масканни туристик масканга айлантириш юзасидан тегишли кўрсатмалар берди. Мазкур кўрсатмалар ижросини ўз вақтида ва сифатли амалга ошириш, белгиланган вазифалар ижросини таъминлаш ва доимий назорат қилиб бориш учун махсус ишчи гуруҳ тузилди. Ишчи гуруҳ томонидан Хонободдаги туристик объектлар ҳолатини ўрганиб чиқиш, аниқланган камчиликларни бартараф этиш бўйича чора-тадбирлар дастури ишлаб чиқилмоқда. Шунингдек, туризм йўналишига инвестиция жалб этиш бўйича ҳам тизимли ишлар олиб борилмоқда [8].

1993 йилда Заҳириддин Муҳаммад Бобур таваллудининг 510 йиллиги муносабати билан Андижонда улкан ободончилик ишлари амалга оширилди. Чунончи, шаҳар марказида Бобур Мирзо ҳайкали ўрнатилди. Боғишамол тепалигида эса Ҳиндистоннинг Тожмаҳал атрофидаги Ором боғидан ҳамда Қобулдаги қабридан олиб келинган муборак хоки қўйилган рамзий мақбара бунёд этилди. Бобур номидаги халқаро жамғарма ташаббуси билан буюк зотнинг қадамжолари бўйлаб бир неча бор илмий экспедициялар амалга оширилди.

Экспедиция 1992 йилдан то ҳозиргача 20 дан ортиқ сафарлар уюштирди. Экспедиция аъзолари Жануби-Шарқий Осиё, Форс кўрфази ва Яқин Шарқ минтақасидаги қатор мамлакатларда бўлиб, улуғ аждодимизнинг ҳаёти ва фаолиятига оид ноёб ёдгорликлар, илмий далил ва материалларни тўплашга эришди. Жамғарманинг Боғишамолдаги «Бобур ва жаҳон маданияти» музейида Осиё, Европа, Африка ва Америка қитъаларининг ўнлаб мамлакатларидан келтирилган нодир қўлёзма ва нашрлар (айримларининг фото нусхалари) ҳамда даврий матбуот материаллари сақланади ва ўз навбатида, улар кенг жамоатчилик оммасига, шунингдек чет эллик сайёҳларга беминнат намойиш этиб келинмоқда [9].

Мухтасар қилиб айтганда Андижон вилояти туризм соҳасида юксак салоҳият, замонавий инфратузилмага эга. Шундай экан вилоятдаги ёдгорликларни музейлаштирилган, қисман музейлаштирилган ва музейлаштириш зарур бўлган объектларга ажратиб чиқиш, энг муҳим аҳамиятга эга бўлган тарихий-маданий ёдгорликларни музейлаштириш услубларини ишлаб чиқиш, туристик объектлар оралиғидаги масофа узоқлигини ҳисобга олиб, туристлар зерикиб ёки толиқиб қолмасликлари учун археологик, экотуристик, этнографик, миллий ҳунармандчилик, гастрономик, рекреация объектларини киритиш орқали аралаш турларни ташкил қилиш мақсадга мувофиқдир.

Адабиётлар

1.Халқ сўзи, 2016 йил 7 декабрь.

2.Халқ сўзи, 2016 йил 13 декабрь.

3.http://www.uzbektourism.uz/uz/mk-haqida/yunvto

4.Akhmedov J., Kudratova I. Prospects for the Development of the Tourism Industry in Uzbekistan // Theoretical & Applied Science. Philadelphia, 2022. №2. P. 179-182.

5.https://lex.uz/pdfs/3551112

6.Маҳмудов М. Андижон вилояти туристик салоҳияти ва унинг минтақа ривожланишига таъсири // Иқтисод ва молия. 2018. №6, 21–26 бетлар.

7.Бугунги Андижон. – Тошкент: Ўзбекистон, 2006, 162-бет.

8.https://uza.uz/oz/society/khonobod-far-ona-vodiysining-turizm-markaziga-aylanadi-27-05-2020

9.Аҳмедов Ж. Жаҳонгашта мерос // Бобур ва дунё. 2018, №3, 37-бет.

ЎЗБЕКИСТОНДА ЗИЁРАТГОҲ ВА ҚАДАМЖОЛАР – ВАТАН ТАРИХИНИНГ МУҲИМ ТАРКИБИЙ ҚИСМИ СИФАТИДА (НАВОИЙ ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА)

Мустафоев Ж., *НавДПИ катта ўқитувчиси,*
Рахматиллаева З., *НавДПИ тадқиқотчиси*

IX-XII асрларда Ўрта Осиё Ренессансини вужудга келишида дунёвий илм-фанлар қаторида, диний-маърифий соҳасини ҳам алоҳида ўрни бор. Тарихдан маълумки, Кармана музофоти қадимдан маданий ва маърифий масканлардан бўлиб, ўз бағрида ислом олами эътироф этган кўплаб буюк авлиё ва анбиёларни ўстирган маскандир. XII аср муаррихи Муҳаммад ас-Самъонийнинг таъкидлашича, Кармана рустоғи ҳудудидан оқиб ўтган Зарафшон дарёсининг икки соҳиллари бўйлаб Арфуд, Варқуд, Мизямажкас, Харамкас ёки Харгонкас ва Харжонкас ҳамда Худиманкан каби катта-кичик шаҳарча ва қишлоқлар жойлашган. Истахрийнинг ёзишича, Пойканд томон йўналган карвон йўлининг ўнг томонида Карманадан бир фарсаҳ, шарқда Суғд йўлидан чапроқда эса Худиманкан, шунингдек, бир фарсаҳ масофада дарёнинг нариги томонида эса Харгонкас номли қишлоқлар ўрин олган.[1].

Бу даврда Навоий вилояти ҳудудидан ҳам буюк сиймоларнинг катта қисми етишиб чиққан. Уларнинг баъзилари тарихий манбаларда ҳам мухрланиб қолишган. Хусусан, X асрнинг иккинчи ярми ва XI аср биринчи ярмида яшаб ўтган Ислом силсилайи оламининг еттинчи сиймоси ҳазрат Абул Ҳасан Харақоний бўлган, яъники, Ҳасанхожа Нисорийнинг “Музаккири аҳбоб” асарида бу қуйидагича келтирилади: “Абул Ҳасан Харақоний тасаввуфдаги насаби бир неча орқа айланиб орифлар султони ҳазрат Абу Язид Бастомийга боғланади, аларники имом Жафъар Содиққа, аларники оталари ҳазрат имом Муҳаммад Боқирга, аларники падарлари ҳазрат имом Зайнулобидинга, аларники ҳазрат оталари шаҳидлар саиди имом Ҳусайнга, аларники эса ҳазрат амирил-мўминин

Алига – Оллоҳи таоло ундан рози бўлсин ва аларники ҳазрати саиди коинот, санади мукаввинот саллоҳи алайҳим вассалам (Муҳаммад саллоҳи алайҳим вассалам)га бориб боғланади”[2].

Абул Ҳасан Харақоний милодий 937 йили Румда туғилган. Бу муҳтарам зот вояга етгач, ислом оламидаги энг катта илм масканларидан бири бўлган Бухоро шаҳрига таълим олиш учун келади. Бу ерда ислом динининг муқаддас аҳкомларини, калом, шариат, фиқҳ фанларини зиёда билиб, шайхлик даражасига эришади. 974 йили Хатирчи, Харақона атрофларига шимолдан мажусийдаштликлар ҳужум қилганида, душманга қарши уюштирилган ғазовотда Абул Ҳасан Харақоний ҳам қатнашиб, ўзининг каромати, жасорати ва донишмандлиги билан ғозиларга йўл кўрсатади. Юқорида таъкидланганидек, Ижанд қишлоғининг даштида ёвга қарши ҳал қилувчи шиддатли ҳужумга ўтилган. Шу боис жанг бўлган жой ҳозир ҳам Ҳужум деб аталиб келинади. Шундан сўнг, Харқона, Хатирчи атрофларидаги қишлоқ аҳолиси ором топади ва ҳеч қандай ёв ҳужум қила олмайди. Шу воқеадан сўнг маҳаллий халқ севинганидан, “энди бизнинг Қалқон отамиз бор” дейишган[3]. Шу тариқа Харқона қишлоғининг иккинчи номи Қалқонота дея юритилади. Абул Ҳасан Харақонийнинг бундан кейинги олтмиш йилга яқин фаолияти мана шу замин билан боғлиқ бўлиб қолади ва улуғ шайх милодий 1033 йилда 96 ёшида вафот этиб Харқонат ул Улвиё ариғининг шимолий қисмида дафн этилгани тахмин қилинади[3]. Бу муқаддас қадамжо устига беш аср ўтиб, Абдуллахон Шайбоний томонидан мақбара қурдирилгани оғзаки манбалар орқали бизгача етиб келган[4]. Мақбара 6х10 метр ўлчамда бўлиб, ичидаги сағананинг эни икки метр, бўйи саккиз метрни ташкил этади. 2004 йилда Навоий вилояти ҳокими қарори билан Абул Ҳасан Харақонийнинг қадамжоси қайта таъмирланди ва ҳозир бу ерда “Қалқонота” жоме масжиди фаолият кўрсатади.

Юқоридаги зикрлардан кўриниб турибдики, ҳазрат Абул Ҳасан Харақоний ҳамдили, ҳам тили билан Оллоҳнинг сифатларини кашф қилиб, уни халққа, муридларига етказиб, халойиқни ҳидоятга чорлаб сабоқ берган улуғ аллома ва авлиёлардан бири бўлган. Мустақиллик йилларида Ҳазрат Абулҳасан

Харақонийнинг қабри кириш йўлаги (эни 5 метр, узунлиги 50 метр) бетон қопламалар билан қопланди. Йўлакнинг икки тарафи қабристондан ажратилиб, баландлиги 2 метр ғиштин деворлар билан ўралди, кириш дарвозаси пишиқ ғиштдан нақшинкор, пештоқли қилиб қурилди. Йўлак тугаши билан ўнг томонида чоғроқ қина масжид, чап томонида масжид имоматининг уч хонадан иборат маъмурий биноси ҳашар йўли билан халқ томонидан қурилган. Йўлакнинг тўғрисида Шайх қабри устига 6x14 метр ўлчамдаги мақбара қурилиб, қабрнинг ўзи эса сағана қилинган. Сағананинг эни икки метр, бўйи ўн метрдир. Сағана бошида туғ кўтарилган. Зиёратгоҳни обод қилишда Қалқон ота қишлоғида яшаб ўтган Ихтиёр Агзамов ва Исмат ҳожи Турдиевларнинг ҳиссалари катта бўлган[5].

Қалқонотада қишлоғида яшовчи Барноқул Ҳамроевнинг 1898 йил туғилган оталари Ҳамро Фозиловдан эшитиб хотирлашича, Абулҳасан Харақоний зиёратгоҳи икки қисмдан иборат бўлиб, зиёратгоҳ ички ва ташқи ҳовлидан иборат бўлган. Биринчи ҳовлини киришида катта аркали дарвоза бўлиб ичкарида ҳужралар бўлган. Бу ҳужралар болаларга таълим бериш учун мўлжалланган эди. Ички ҳовлида ҳазрат Абул Ҳасан Харақонийнинг мақбаралари жойлашган бўлган[6]. Ҳозирда зиёратгоҳда сақланиб қолган 3 дона гужум ва тутдан тайёрланган, 3 метр узунликдаги устун нақшлар билан безатилган. Илгариги масжидни ичида 3 тадан икки қатор -6 донадан иборат устунлар кўтариб турарди. 8x10 метр катталикдаги бу масжидни Исмат ҳожи Турдиев бошчилигидаги маҳаллий аҳоли 2008 йилда зах чиқиб кетгани, фойдаланишга яроқсиз бўлиб қолгани учун, ён томонидан янги бино барпо этишади. Масжид бузилаётган вақтда пойдевор қисми ва пол ўрнидан споролдан тайёрланган 25x25 см катталикда квадрат шаклидаги ғиштлар (маҳаллий аҳоли мусулмон ғишт деб номлайдиган 100 дан ортиқ ғишт ҳозиргача сақланади) топилди. Урушдан кейинги 1950 йилларда зиёратгоҳнинг биринчи ҳовлиси ва аркалари бузиб олинган, фақат қабр, масжид сақланиб қолган[7]. Орадан 70 йилга яқин вақт ўтиб, Шайх Абул Хасан Харақоний масжиди яна қайта қад кўтарди. Абдикарим

Саксанов томонидан 2019 йилда қиймати 2,3 млрд. сўмдан ортиқ бўлган “Шайх Абул Хасан Харақоний” жомеъ масжиди ҳомийлик асосида қуриб берилди.

Маҳобатли қилиб бунёд этилган жомеъ масжиди бир вақтнинг ўзида 500 нафар намозхонни ўз бағрига сиғдира олади. Жомеъ масжиди устунсиз ҳолда, саккиз қиррали девор устига диаметри 6 метрлик гумбаз ўрнатилиб, бунёд этилган. Жомеъ масжиди гумбазининг баландлиги 20 метр бўлиб, иншоотга асосий эшикка қўшимча равишда, кириш ва чиқишда қулайлик яратиш учун яна иккита эшик ўрнатилган. Жомеъ масжидининг меҳроби ва деворларига нақшинкор қилиб Қуръони Каримнинг Бақара сурасидан Оятил Курси тўлиқ ёзилиб, унинг ўнг томонида “Аллоҳ жалла жалолуҳу” сўзи, чап томонида “Муҳаммади расуллолоҳу алайҳи вассаллам” деб араб имлосида ёзилган. Жомеъ масжидининг ёнидан имом хатиб хонаси, маънавият хонаси ва замонавий типдаги таҳоратхона барпо этилган. Жомеъ масжидининг қурилишида Бухоро, Самарқанд, Тошкент, Шаҳрисабз шаҳридаги масжидлар тархи ўрганилиб, табиий шароитларга мослаштирилган мукаммал лойиҳа асосида қурилган.

Тарихий манбалар таҳлили шуни кўрсатадики, Навоий вилояти ҳудудида кўплаб Яссавия тариқати вакиллари яшаб фаолият юритишган. Жумладан, Кармана Миёнқоли ва унинг чегара ҳудудларида (Қизилқум чўллари) Хожа Аҳмад Яссавий ва Яссавия тариқатига тааллуқли жойлар, номлар ва тушунчалар кўплаб учрайди. Чунончи, бугунги Навбаҳор тумани Қаҳрамон қишлоғида айнан Аҳмад Яссавий номи билан боғлиқ зиёратгоҳ мавжуд бўлиб, бу ерда унинг рамзий қабри ҳам бор. Шу атрофларнинг халқ тилида Туркистон деб аталиши ҳам фикримизни яна бир бор тасдиқлайди[8]. Бу ўринда таниқли тадқиқотчи Суюндик Мустафо Нуротоий минтақада Яссавия тариқатининг устуворлигини кўпгина омиллар қаторида қадимий Кармана сарҳадида Аҳмад Яссавий зиёратгоҳлари ва рамзий қабрлари борлиги билан асосласа, иккинчидан, ҳудудда учрайдиган зиёратгоҳ ва муқаддас қадамжолар номига “Ота” қўшимчасини қўшилиши билан изоҳлайди. Маълумки, “Ота” ном атамаси Яссавия тариқатига бевосита мансуб бўлиб, Сафийнинг “Рашоҳат”ида: “Хожа Аҳмад Яссавий – Хожа Юсуф Ҳамадоний қуддиса сирруҳининг хулафоларидан

учланчи халифа эрдилар ва турклар они Ото Яссавий дерлар. Ва “ото”ником, туркий лафзида падарни айтурлар”, улуғ машойихларга итлоқ(тадбиқ) қилурлар. Бу деган маъно араблардаги “шайх”, форс-тожиклардаги “пир”нинг туркона (жумладан, ўзбекча) талқинидир[9].

Ўрганилаётган ҳудуднинг азиз авлиёлар ва улуғ зотлари асосан Яссавия (жаҳрия-султония) тариқатининг пири муршидлари бўлиб, улар маълум бир мақом ва даражага етишиши билан ё пешволарининг тавсияси, ёки Аллоҳнинг ғайбий ишораси билан кўрсатилган жойни макон тутиб, у ерда Ислом дини арконларини мустаҳкамлашга хизмат қилган. Айтиш жоизки, баъзи ўринларда азиз авлиёлар ва кароматли шахслар тўғрисида келтирилаётган ривоят, афсоналар ва фикрларни икки турга бўлиш мумкин. Биринчиси, манбалардан келиб чиқиб асосланган ёки ҳақиқатга яқин саҳиҳ мулоҳазалар, иккинчиси асосланмаган, ҳақиқатга яқин келмайдиган носаҳиҳ мулоҳазалардир. Навоий вилояти ҳудудида кўплаб авлиёлар, валийлар, олиму-фозиллар, пиру муршидлар яшаб ўтган. Аммо шу нарсани алоҳида эътироф этиб ўтиш жоизки, тумандаги жуда кўплаб муқаддас қадамжоларнинг тарихи ҳақида илмий адабиётлар ва манбаларда зарур маълумотлар кам учрайди. Шунга қарамасдан давлатимиз томонидан миллий-диний қадриятларимизни, урф-одатларимизни, кўҳна ва муқаддас тарихимизни қайта юзага чиқариш мақсадида олиб борилган саъйи ҳаракатлар натижасида ушбу заминда яшаб ўтган ва юрт равнақига ўзининг беқиёс ҳиссасини қўшган буюк зотларнинг номлари қайта тикланди. Ушбу заминда буюк зотлар изидан бориб, ўзининг бутун умрини илмга, маданий-маънавий ҳаётга бахшида этган улуғ зотлар борки, бугунги кунда улар халқимизнинг фахрига айландилар[10]. Ана шундай зотлардан бири Қилич ота бўлиб, бу кишининг шижоатлари “қиличдек кескир” валий, яъни “Қилич” нисбасини олган Яссавия тариқати пирларидандир. “Ота” – Яссавия тариқатига кўра туркона “шайх” маъносини беради. Ҳазрати Қилич ота пир ва руҳоний тарбиячи бўлиб муридларининг ихлос ва ҳурматини қозонган[11]. Юртимизда Қилич ота номи билан аталувчи кўплаб зиёратгоҳ ва қадамжолар мавжуд. Жумладан, Навбаҳор туманида ҳам Қилич ота номи аталувчи зиёратгоҳ бўлиб,

бу зот хусусида маҳаллий ўлкашунослар томонидан тўпланган далилларга кўра, Қилич отанинг исмлари “Саййид Бурҳониддин” деб кўрсатилади. Саййид авлодидан бўлганлиги ва ҳазрати Абу Сиддиқ шажарасига мансублиги ҳам қайд этилади. Отасининг исми Камолиддин бўлиб, у асли бағдодлик бўлган деб тахминланади. У зот маҳаллий беклардан Илгим Аъзамнинг қизига уйланиб, бу никоҳдан Саййид Бурҳониддин туғилган эканлар.

Бу воқеалар XII асрга нисбат берилади. Саййид Бурҳониддин хотинлари билан намоз ўқиб турган пайтда, ҳозирги қабри ўрнида шаҳид бўлганлиги ривоят қилинади. Ул зотнинг кароматлари, ҳоллари хусусида оғзаки баёнлар маҳаллий аҳоли ўртасида машҳур бўлиб кетган[12]. Айрим манбаларда, жумладан Алишер Навоийнинг “Насойим ул муҳаббат” асарида Қилич ота хусусида: “азим қурбатлиғ киши эқандур ва сайёфлик (қиличбозлик) санъатига машғул экандир”, дейилади. Юртимиздаги тасаввуф вакиллари ҳаёти ва фаолиятини чуқур тадқиқ этаётган олим Суюндик Мустафо Нуротоий Қилич ота шахсига доир яна бир маълумотни келтирмоқда. Маълумотга кўра, Қашқадарё вилояти Ғубдин қишлоғидаги нисбалари “Кўк тўнли ота” бўлган ўрта асрларда яшаб ўтган таниқли фақиҳ, Имом Маҳмуд ибн Аҳмад ибн ас – Садр ал Модига боғлаб маълумот келтирилади. Ғубдиндаги “Кўк тўнли ота” қабридаги қайроқ тош илм кишилари иштирокида ўқилиб, ушбу мозордаги марҳумнинг шахсияти аниқланди. Унда: “Ушбу қабр улуғ имом, қози, шайх, дин ва миллатни улуғловчи, ислом ва мусулмонларнинг тўлин ойи, подшоҳлар ва султонлар ихтиёр қилган, Шарқу Чин қозиларининг қозиси, имомлар фахри, шариат ёрдамчиси, умматнинг сараси, икки фирқанинг покроғи, икки ҳазрат рози бўлган, диннинг шамшири, хушхулқ Маҳмуд ибн Аҳмад бин ал – Ҳусайин (Аллоҳ уни раҳмат ва розилик билан ўрасин)нинг қабридир. (Унинг вафоти 576 ҳижрий сана муборак рамазон ойининг 26 кечасидир (Милодий 1181)”.

Маълумотда яна келтирилишича, Кўк тўнли ота Ҳазрати Алининг ўғиллари Муҳаммад Абу Ханафия авлодларига мансуб зотлардан бўлиб, аслида улар уч ака-ука бўлишган эканлар. Бирлари доимо кўк тўнда юрганлари учун халқ орасида Кўк тўнли ота лақабини олганлар. У ҳақида Туркистонлик

яссавийшунос олим Аширмат Толиб “Қул Хожа Аҳмад Яссавий” китобида Ҳазрат Аҳмад Яссавий билан бир даврда яшаб ўтганлар, тарихий шахс, исмлари номаълум дея нақл қилади. Тарихий манбаларда Ҳазрати Яссавий билан беллашмоқ талабида бўлган валийлар сирасида тилга олинишича, ўз даврининг етук илм аҳлларидан бўлган. Бир воқеа сабабли Аҳмад Яссавийни ўзларига пир тутиб, тариқатини ихтиёр этган. Шундай қилиб Кўк тўнли ота ва икки оға-иниси пирлари ишораси билан Туркистон томонлардан келишган эканлар. Укаларидан бири Қорасоқол ота, яна бирлари Қиличли ота лақаблари билан танилганлар. Қиличли ота кенжалари бўлиб, жасорати ва қиличбозлик санъати элда оввоза экан. Ўртанчилари Қорасоқол ота эса илонлар билан тиллашар эканлар, бунинг устига моҳир ҳунарманд эканлар. Тўнғичлари Кўк тўнли ота руҳоний тарбиячилардан бўлиб, шу йўлда машҳур бўлган эканлар. Уларнинг бу ерларга (Қашқадарё воҳасига) келишликлари маҳаллий халқ учун иноят бўлган[13]. Жуда кўп омиллар хусусан, халқ орасидаги турли ривоят ва ҳикоятлар хилма-хиллиги, кўплаб адабиётлардаги турлича ёндашувлар ҳамда бир қанча тадқиқотчиларнинг турли нуқтаи назарларидан келиб чиқиб, Навбаҳор тумани Янгийўл қишлоғидаги Қилич ота зиёратгоҳи Қилич ота қадамжоси бўлиши (бундан ташқари туманнинг Сармиш ҳудудида ҳам Қиличли бобо, зиёратгоҳи ва қабр ўрни мавжуд, Конимех туманида ҳам Қилич ота номи билан аталувчи зиёратгоҳ бор. Ёки Кармана тумани Дўрман маҳалласидаги қабристон ҳам Қилич ота деб номланади. Карманалик ўлкашунос Шойим Шерназар қишлоғидаги зиёратгоҳни қишлоқ кексаларининг фикридан келиб чиқиб, қорақалпоқларнинг хитой қабиласининг кичик бир тармоғи бўлган Қиличли уруғи билан мазкур зиёратгоҳни алоқаси бор бўлиши мумкин деган фикрни илгари суради[14]. Қилич ота номи диёримизнинг жуда кўплаб жойларида учраётганидан билиш мумкинки, бу инсон ўз даврининг йирик тасаввуф вакилларидан бири бўлганлигини англаш мумкин.

Юқоридаги хилма-хил фикрлардан келиб чиқиб, Қилич ота Кармана вилояти бўйлаб ўтаётганда Сармиш яқинида ёхуд Навбаҳор туманининг Янгийўл қишлоғи ёхуд Конимехнинг Шўркўл қишлоғида ёхуд Дўрмон қишлоғида тўхтаб

ўтиши мумкинлиги нуқтаи назаридан бу жойлар қадамжо бўлганлиги ҳам истисно тариқасида тахминланади) ёхуд ўрганилаётган Қилич ота шахси билан Конимех тумани ҳудудидаги Қилич ота номи билан аталувчи авлиёлар ёхуд, Қашқадарё воҳасидаги Қиличли ота ёхуд "Қандия" китобида келтирилган Саййид Бурҳониддин Қилич алоҳида алоҳида шахс эканлигига, шунингдек, биз тадқиқ этаётган ҳудуддаги Қилич ота хусусида аниқ ёзма манба орқали маълумот олиш имконсизлиги туфайли биз тадқиқ этаётган ҳудуддаги зиёратгоҳ ва Қилич ота хусусида якуний фикр айтишдан йироқ бўлишни лозим топдик.

Фариддин Аттор ўзининг "Тазкират-ул-авлиё" асарида авлиё сифат, кароматли кишилар ҳақида қуйидаги мулоҳазаларни келтиради: "Авлиёларнинг сўзи киши қалбининг малҳами ва руҳининг қувватидир, кимки авлиё сўзини дилига жо этса, у Қуръон ва ҳадислар мағзига эшик очади, ўзининг ҳолати, ахлоқини, қилаётган ишларининг яхши-ёмонлигини ўйлайдиган бўлиб қолади ва ҳаёт, охират, инсонийлик хусусида мулоҳаза юритиб, ички оламини тартибга солади"[16]. Валийлар руҳий дунёнинг раббоний табиатли зотлари бўлиб, феъли атвори, мушоҳадаси, ҳавориқ одатлари (ғайри табиий) кароматлари, зеҳни ва фаросати билан асосий кўпчиликдан ажралиб туради. Улар суфий деб аталганларми, шайх деб икромланганларми, муҳаддис деб шарафланганларми, имом деб ҳурматланганларми, муҳаддис деб шарафланганларми ва ёки комил инсон деб улуғларганларми, қатъи назар, ўз замони ва маконининг табаррук зотларидир. Улар сабр, тафаккур ва тақво бобида ибратлари билан маънавий оламни мунаввар ёрита билувчи машъалалардир[16]. Жумладан мамлакатимиз ҳудудида яшаган улуғ алломалар, тариқат пирлари ва уларнинг маънавий меросларини ўрганиш бугунги кунда миллий қадриятларимиз ва тарихий меросларимизни асраб-авайлаш ва тадқиқ этиш борасида олиб борилаётган ишларнинг муҳим бир қисмига киради. Халқимизнинг ўтмиши, миллий-маънавий мероси, урф-одат ва анъаналарига юксак ҳурмат кўрсатилиб, бизга номаълум бўлган ноёб қўлёзма асарлар, тарихий ёдгорликлар тадқиқотчи олимларимиз томонидан кенг ўрганилмоқда. Бу каби ишлар халқимизнинг

ва асосан, ўсиб келаётган ёш авлоднинг дунёқарашида, шаклланишида ўзининг ижобий таъсирини ўтказади.

Адабиётлар

1. Ҳайитова О. Карманалик буюк сиймолар ва муқаддас қадамжолар. Т.: Янги аср авлоди.2004 йил.-Б.4-5
2. Ҳасанхожа Нисорий. Музаккири аҳбоб (Дўстлар ёдномаси). Тазкира, тарж. Исмоил Бекжон. Т.: Абдулла Қодирий, 1993 йил.-Б.18
3. Ҳотамов А., Бекниёзов Н.Кармана - қадимий диёр. Т.: Ўзбекистон, 2007 йил.-Б.96; Ҳайитова О. Карманалик буюк сиймолар ва муқаддас қадамжолар. Т.: Янги аср авлоди.2004 йил.-Б.38-39
4. Абул Ҳасан Харақонийнинг туғилган ва вафот этган жойи хусусида фикрлар хилма хил бўлиб, ягона тўхтамга келинмаган. Шайх Муҳаммад Содиқ Юсуф ҳазратларининг "Тасаввуф ҳақида тасаввур" номли китобида Абул Ҳасан Харақоний Эроннинг Ҳарақон деган жойида туғилиб, ўша ерда вафот этгани келтирилган.
5. Бўлдиева С. Нурота. Т.: Шарқ. 2003 йил.-Б.144
6. Бекниёзов Н.,Мардонов Ф. Кармананинг еттипири. Т.: Туронзаминзиё. 2017 йил.-Б.17-18
7. Жонибек Мустафоевнинг Қалқонота қишлоғида яшовчи Барноқул Ҳамроев билан суҳбатидан, 2020 йил июнь
8. Жонибек Мустафоевнинг Қалқонота қишлоғида яшовчи Барноқул Ҳамроев билан суҳбатидан, 2020 йил июнь
9. Суюндик Мустафо Нуротоий, Аблаев М. Туронзамин азиз авлиёлари ва уламолари тазкираси.-Т.: Сано-стандарт, 2015 йил.-Б.284; KandaharovAnvarjon.SacredplacesofNakkshbandiaandYassaviainNavoiregion, // TheLightofIslam: Vol. 2019 :Iss. 4 ,-P.72
10. Суюндик Мустафо Нуротоий. Кармана азизлари. -Т.: Муҳаррир, 2010 йил.-Б.15-17
11. Ҳамроева С.Ватан саждагоҳ, тарихи муқаддас. .-Т.: Муҳаррир, 2011 й.-Б.12

12. Суюндик Мустафо Нуротоий. Миёнкол ёхуд Навоий вилояти уламолари. -Т.: Сано-стандарт, 2016 йил.-Б.169
13. Суюндик Мустафо Нуротоий, Аблаев М. Туронзамин азиз авлиёлари ва уламолари тазкираси.-Т.: Сано-стандарт, 2015 йил.-Б.276
14. Жонибек Мустафоевнинг Суюндик Мустафо Нуротоий билан суҳбатидан, 2020 йил июнь
15. Шойим Шерназар. Эркак тут қиссаси (Дўрмон қишлоғи ва атрофдаги қишлоқлар ҳақида илмий-тарихий маълумотлар, ҳикоялар ва ривоятлар) Навоий, 2003 й.-Б.35
16. Ҳамроева С.Ватан саждагоҳ, тарихи муқаддас. .-Т.: Муҳаррир, 2011 й.-Б.7
17. Ҳ.Ҳомидий. Тасаввуф алломалари.-Т.: Шарқ, 2004 й.-Б.3
18. Суюндик Мустафо Нуротоий, Аблаев М. Туронзамин азиз авлиёлари ва уламолари тазкираси.-Т.: Сано-стандарт, 2015 йил.-Б.17-18

ЎЗБЕКИСТОНДА ТУРИЗМ СОҲАСИНИ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИНИНГ АЙРИМ ЖИҲАТЛАРИ (КОНИМЕХ ТУМАНИ МИСОЛИДА)

Мустафоев Ж., *НавДПИ катта ўқитувчиси,*
Рахматиллаева З., *тадқиқотчи*

Замонавий дунёда туризм бозор иқтисодиётининг ажралмас қисми сифатида мамлакат иқтисодиётига, унинг ички маҳсулотининг кўпайишига салмоқли ҳисса қўшадиган соҳасига айланиб бормоқда. Дунёнинг кўплаб, мамлакатларида туризм энг етакчи тармоқлардан бирига айланган. Жаҳон тажрибаси шуни кўрсатдики, халқаро туризм иқтисодий ўсишни таъминлаш, валюта тушумини ошириш, жаҳон хўжалик тизимига интеграциялашиш, янги иш ўринларини яратиш орқали ижтимоий муаммоларни ҳал этиш, иқтисодиётнинг бошқа тармоқлари, хусусан, ижтимоий ва ишлаб чиқариш инфратузилмасини ривожлантиришда муҳим роль ўйнайди. Бундан ташқари, у ташқи ижтимоий-сиёсий муносабатлар ўрнатилишига, турли халқлар маданияти, анъаналари, урф-одатлари билан кенг кўламда танишишга кўмаклашади.

Туризм соҳасидаги мутахассисларнинг фикрича, туризм XXI асрда дунё миқёсида энг сердаромад соҳага айланади. Ҳозирги кунда бу соҳа дунё бўйича автомобилсозлик ва нефтни қайта ишлаш соҳасидан кейин учинчи ўринни эгаллаб турибди. Туризм индустрияси жаҳон иқтисодиётининг энг жадал ривожланиб бораётган тармоқларидан бири ҳисобланади, туризмнинг жаҳон ялпи ички маҳсулотидаги улуши 10 фоиздан кўпроқни ташкил этади, тармоқда жаҳондаги меҳнатга қобилиятли аҳолининг 8 фоизга яқини иш билан банд, туризм хизматлари жаҳон экспортининг 7 фоиздан кўпроғини ташкил этади. Шу нуқтаи назардан келиб чиқиб Конимех туманида сайёҳларни жалб қилувчи экотуризм билан боғлиқ, бетакрор гўзал табиати, ландшафтлар, хилма-хил ноёб ўсимлик ва ҳайвонот дунёси, нодир, дунё аҳамиятига эга бўлган археологик топилмалар, палеонтологик қолдиқлар, дунёда кам учрайдиган геологик кесимлар мавжуд. Бир сўз билан айтганда, Конимех туманида экотуризмни ривожлантириш бўйича жуда катта туристик салоҳият мавжуд, туризм индустриясини ривожлантириш имкониятлари юқори. Буни қуйидагиларда кўришимиз мумкин:

Биринчидан, мамлакатда дунёга машҳур ва хорижий саёҳатчиларни жалб қилувчи қадимий жойлар, тарихий ёдгорликлар билан бир қаторда экотуризм билан боғлиқ бўлган бетакрор гўзал табиат, ландшафтлар (саҳро, чўл-адирлар, тоғлар, паст текисликлар) мавжуд. Қизилқум Евроосиёнинг энг йирик саҳроларидан бири ҳисобланиб, шимолда Орол денгизи соҳилидан жанубда Зарафшон дарёси ёнидаги нисбатан тор фаровон оазисгача чўзилган. Қизилқум битмас-туганмас ер ости ва ер усти бойликларига эга. Навоий вилоятида Оллоҳ ўзи халқимизга инъом этган, юртимизни бақувват, қадр-қимматимизни баланд, қўлимизни узун қиладиган, одамларнинг фаровон турмушига асос бўладиган кўпдан-кўп табиий бойликларнинг улкан захиралари мавжуд. Буларнинг энг асосийси – ўзининг юксак сифати билан бутун дунёда машҳур бўлган Қизилқум олтинидир. Мутахассисларнинг таъкидлашича, Менделеевнинг даврий системасига кирувчи кўплаб элементлар бу ерда мавжуд. Қизилқумнинг яна бир бойлиги шундан иборатки, бу ернинг табиати ёввойи ҳолда бўлгани, чўллар

беқиёс гўзаллиги, ўсимлик ва ҳайвонот дунёсининг ранг-баранглиги туристларнинг қизиқишларига сабаб бўлмоқда.

Иккинчидан, ҳудуддаги энг катта сув ҳавзаси Айдаркўлдир. 1969 йилнинг қиши ўлкада узоқ ва жуда қорли бўлди. Баҳорда бу сув кўтарилишига ва Сирдарёнинг ўзанидан тошиб кетишига олиб келди. Сувнинг ҳалокатли даражаси Чорвоқ сув омбори ва кўпгина аҳоли зич яшайдиган туманларни ювиб кетиш хавфини туғдирди. Шунда ортиқча сув авария шлюзи орқали шўрхок Арнасой чуқурлигига оқизиб юборилди. Шу тариқа, Қизилқум саҳросида сув ҳавзаси Айдаркўл пайдо бўлди. Ўзининг бетакрор табиати, жозибали сув дунёси, ўсимлик, ҳайвонот ва ортафаунаси Айдаркўлни Қизилқумнинг гўзал “жавоҳири” деб аташга тўла асос бўла олади. Айдаркўл шароитлари экзотуризмни ривожлантириш учун жуда қулайдир. Бу ерга Бирлашган Араб Амирликларидан дам олиш ва ов қилиш мақсадида тез-тез сайёҳларнинг келишлари фикримиз исботидир.

Учинчидан, Айдаркўл каби туман худудидаги Шўркулсув ҳавзасида ҳам экотуризм имкониятлари юқори ҳисобланади.

Тўртинчидан, худудда “Чордара” тарихий-археологик ёдгорлиги, “Қилич ота” зиёратгоҳи, Мих ота масжиди каби зиёратгоҳлар хам мавжуд.

Бешинчидан, ўзбек, қозоқ, қорақалпоқ халқи удумлари, урф-одатлари, фольклор қўшиқлари, кўпкари ўйинлари каби маданий мероснинг бойлиги туризмни ривожлантиришга омил бўла олади.

Олтинчидан, Конимехда бошқа ҳудудларга нисбатан ўзига хос хусусиятига кўра ажралиб турувчи гастрономик туризм алоҳида аҳамиятга эга. Шу ерда яшовчи халқнинг қимиз, шубат каби ичимликлари, бешбармоқ, ош, кабоб каби таомлари туризмнинг бу соҳасини ривожлантиришга тўла асос бўла олади.

Бир сўз билан айтганда, Конимех туманидаги тарихий ёдгорликлардан ташқари, ҳудуднинг ўзига хос ва бетакрор табиати, Қизилқумнинг табиий гўзаллиги, алоҳида ажралиб турувчи ўсимлик ва ҳайвонот дунёси, Айдаркўлдек ноёб сув ҳавзаси алоҳида ва ўзгача аҳамият касб этмоқда. Шаҳар шовқинидан

чарчаган, табиат қўйнида дам олиш иштиёқида бўлган туристлар учун бу жойлар вақтларини ўзлари истагандан ҳам аъло даражада ўтказишларига бағоят қулай жойдир.

Бироқ бу салоҳият ва имкониятлардан тўла-тўкис фойдаланиш омиллари мукаммал ишлаб чиқилмагани натижасида туристларни қабул қилиш мавжуд имкониятга нисбатан камдир. Тўғри, кейинги йилларда туризм, айниқса экотуризмни тараққий эттириш мақсадида дастлабки қадамлар ташланди ва бу соҳани ҳам аста-секин ривожлантириб бориш тенденциялари кузатилмоқда. Навоий вилоятига ташриф буюрадиган сайёҳларга хизматларни яхшилаш мақсадида Конимех туманидаги "Сарибел" ширкат хўжалигида қозоқ ва қорақалпоқ миллий кийимларини ишлаб чиқаришга йўналтирилган цех ишга туширилди ва бу цехда 10 та янги иш ўринлари яратилди. Учқудуқ туманидаги "Аяққудуқ" ширкат хўжалигида ўтов жиҳозлари ва безакларини тайёрлайдиган кичик корхона ишга туширилиб, 11 та янги иш ўринлари ташкил этилди.

"Ўзбектуризим" миллий компанияси Навоий вилояти саёҳат ва экскурсиялар бюроси вилоятда туризмни ривожлантириш борасида самарали ишларни амалга ошираяпти. 20 хил туристик йўналиши дастури инглиз, немис ва рус тилларида чоп қилиниб, республикадаги барча туристик ташкилотларга тарқатилган. Вилоятнинг туристик картаси ҳам ишлаб чиқилган. Туристик маршрутлар, тарихий обидалар интернетга киритилган. Ушбу туристик базалар Айдаркўл яқинидаги Янгиқазғон ва Дўнгалак қишлоқларида туристик фаолият кўрсатмоқда. Бу ерда сайёҳлар учун ҳамма шарт-шароитлар яратилган. Қизилқум саҳросидаги бетакрор гўзаллик, ҳайвонот олами, туяларда сайр қилиш, Айдаркўл каби ноёб табиат мўъжизалари чет эллик сайёҳларни ўзига жалб этиб йилдан-йилга уларнинг сони ортиб бормоқда. Навоий вилоятида 2017 йил ҳолатига кўра сайёҳларга хизмат кўрсатувчи 8 та сайёҳлик фирмаси, 26 та меҳмонхоналар мавжуд бўлиб, 3 таси Конимех туманида жойлашган. Ушбу менҳмонхоналарнинг хорижий сайёҳларга хизмат кўсатиш лицензиялари мавжуд бўлиб, сайёҳларга хизмат кўрсатиш имкониятларига эга. Бундан ташқари вилоятнинг чўл ҳудудларида 4 та ўтов лагери ҳам яратилган. 2019 йилда

Конимех туманига 15 мингдан кўпроқ сайёҳлар келган бўлиб, 2018 йилга нисбатан 2 мартага ошган. Сайёҳларнинг 6355 нафари яқин хорижий давлатлардан келишган. Уларнинг асосий қисми Франция, Германия, Буюк Британия, Испания, Нидерландия, Бельгия, Австрия каби давлатлар ҳиссасига тўғри келади.

Туристлар оқимини янада кўпайтириш мақсадида Конимех туманида бир қатор амалий ишлар қилинмоқда. Жумладан, Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёевнинг 2018 йил 7 февралдаги "Ички туризмни жадал ривожлантиришни таъминлаш чора-тадбирлари тўғрисида"ги ПҚ-3514-сонли қарори ҳамда 2019 – 2020 йилларда Конимех туманини ижтимоий-иқтисодий ривожлантириш Дастури ижросини таъминлаш мақсадида "Konimex-Qizilqum-Shubat" МЧЖ томонидан эко-туризм маркази ташкил этилган. Мазкур экотуризм маркази нафақат ички сайёҳлар, балки хорижий сайёҳларни қабул қилиш учун ҳам барча имокниятларга эга. Бу ерда фонтан, ўтовлар, туя сутини соғиш ва истеъмол қилиш маскани, сунъий кўл ва сунъий чўл, миллий ҳунармандчилик устахоналари, миллий таомлар кафеси (ресторан) фаолият юритмоқда. "Қизилқум"да туялар ва квадроциклларда сайр ва сафарлар ҳамда туя пойгаларини ташкил этиш, "Qaraqata - Shubat" ФХ томонидан экотуризм ва туя сути билан даволаш масканини ташкил этиш белгиланган.

Замонавий меҳмонхоналарнинг вилоят чекка ҳудудларида ҳам фаолият олиб бориши ҳудудда туризмни янада ривожлантиришда муҳим аҳамиятга эга бўлмоқда. Бироқ, бизнингча, бу меҳмонхоналарнинг сайтларини яратиш, уларда замонавий интернет хизматларини (Wi-Fi, интернет роутерлари, планшетлар, комьпютер хизматлари в.ҳ.) ташкил этиш, ҳудуд ва меҳмонхона тўғрисида интернет орқали матн, фото, видео материаллари билан кўпроқ таъминлаш туристлар оқимини кўпайтиради. Шунингдек, туманда туризмни ривожлантириш учун "Буюк Ипак йўли: Кармана – Конимех – Айдаркўл" ва "Навоий – Айдаркўл экотуризм", "Навоий – Конимех – Шўркўл" экотуризм йўналишларини ҳамда "Навоий – Конимех – Чордара – Қилич ота" тарихий туризм йўналишларини ташкил этиш бу борада зарур. Транспорт

коммуникациялари, гид ва таржмонлар хизматлари, маҳаллий миллий маҳсулотлар, шу ерда яшовчи халқнинг қимиз, шубат каби ичимликлари, бешбармоқ, ош, кабоб (гастрономик туризм) каби ва таомлари, меҳмонхона вазифасини бажарадиган юрт, ўтовлар типидаги замонавий меҳмонхона (Motel), кемпинг кабиларни ташкил этиш лозим. Шунингдек, меҳмонхоналарни Trip Advisor халқаро веб сайтига жойлаштириш ҳамда сайтга меҳмонхоналарнинг қулайлик имкониятларини ошириш мақсадга мувофиқ. Бу вазифалар туманда экотуризмни ривожлантириб, маҳаллий ва хорижий сайёҳлар оқимини кўпайтиради.

Адабиётлар

1. Файзиева Ш. Основные направления развития туризма в Узбекистане / Экономический вестник Узбекистана.: 2004. № -3-4, – С.64.
2. http://uza.uz/oz/documents/zbekiston-respublikasining-turizm-so-asini-zhadal-rivozhlant-06-12-2016 19.12.2016)
3. Ўзбекистонда кон металлургия тарихи: ўтмиши ва бугуни. Навоий шаҳри, 2007; Кучерский Н.И., Аставцатурян.Г.Г., Бердникова Е.А Навоийский горно-металлургической комбинат. – Ташкент: Шарқ 2002.; Кучерский Н.И. Флагман индустрии независимого Узбекистана. – Ташкент: Шарқ, 1997 ва. б.
4. Materials of Navoi international business forum.– Navoi.: 2018. – P.121.

SHAHAR MUHITINING BADIIY YUKSALISHI - TURIZMNI SHAKLLANISHI OMILI SIFATIDA

Tursunov Shavkat Sharibjonovich,

Namangan muhandislik-qurilish instituti katta o`qituvchisi,

Botirov Azizbek Umidjon o`g`li,

Namangan muhandislik-qurilish instituti talabasi,

Sirojiddinov To`lqinjon Nosirjon o`g`li,

Namangan muhandislik-qurilish instituti talabasi

Bugungi kunda shakllangan shahar muhiti har doim ham insonning farovon hayoti uchun estetik jihatdan uyg'un makonni rivojlantirishning yangi ehtiyojlarini qondira olmaydi. SHu sababli, me'morlar va rassom, dizaynerlar tobora ko'proq shahar muhitini shakllantirish vositasi sifatida badiiy yondashuvdan foydalanishga qiziqish bildirmoqdalar. Ular mavjud me'moriy-rejaviy karkasini va bunyod etilayotgan qurilishlarni mazmunan va vizual idrok etish nuqtai nazaridan yangi shahar muhitini yaratishga qodir badiiy elementlar bilan to'ldirish zarurligiga duch kelmoqdalar.

So'nggi yillarda dunyoda sodir bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar jamiyat hayot faoliyatida tub o'zgarishlarga, ijtimoiy tizimning transformatsiyasiga olib keldi. Zamonaviy shaharlar aniq ifodalangan ijtimoiy shartli hududlarga (farovonlikning ma'lum darajalariga ega bo'lgan "uxlab yotgan" hududlar, sanoat hududlari, dam olish bo'shliqlari) bo'linadi. Markaziy tumanlarda bu an'analar ko'pincha aralashtiriladi: iste'mol, ijodiy, ma'naviy va boshqalar. Bu asosan vizual aloqaning turli shakllarini keng miqyosda rivojlantirishda ifodalanadi. Piktogrammalarning paydo bo'lishi (ma'lum ma'lumotlarni olib boradigan soddalashtirilgan grafik tasvirlar) odam uchun notanish muhitda yo'nalish olishni osonlashtirdi.

Ko'pgina shaharlarning zamonaviy shahar muhiti ko'pincha yangi maydonlarni shakllantirishda va allaqachon mavjud bo'lgan shahar muhiti uchun alohida ob'ektlarni ishlab chiqishda vakolatli badiiy yondashuvning yo'qligi bilan tavsiflanadi. SHahar makonining qoniqarsiz ahloqiy va jismoniy holati mavjudligi va uning yetishmasligi hissiy va badiiy tarkib, uning odamlar uchun jozibadorlik darajasini keskin pasaytiradi. Bunga qo'shchimcha ravishda shuni anglash kerakki, boshqa turdagi transformatsiyalar samarasiz yoki imkonsiz bo'lgan (rejalashtirish, landshaft, shaharsozlik va boshqalar) shahar muhitlarini loyihalashda badiiy yondashuvdan foydalanish me'morlar va dizaynerlarning mavjud me'moriy ob'ektlarning yaxlitligini buzmasdan allaqachon o'rnatilgan muhit xususiyatlarini o'zgartirishiga imkon beradi.

Ko'plab ochiq shahar maydonlarining noaniqligi muammosi va ularni badiiy tashkil etishga e'tibor bermaslik estetik jihatdan qulay makonni shakllantirish uchun yangi imkoniyatlarni amalga oshirish zarurligini belgilaydi.

Ko'p asrlar davomida shahar makonini loyihalashtirish monumental va dekorativ san'atning ekspresiv vositalaridan foydalanishga asoslangan. An'anaga ko'ra, bu haykallar, yodgorliklar, binolarning old qismidagi devoriy rasmlar va dekorativ panellar va boshqalarni, shuningdek atrof-muhitni badiiy tashkil etishning barcha vaqtinchalik vositalarini (gulzorlar, shaharni bayramona bezatish va boshqalar) o'z ichiga oladi. Qoidaga ko'ra, monumental-dekorativ san'at ob'ektlari me'morchilikka "bo'ysunadi", uni to'ldiradi va shahar makonini tashkil qilishning ikkita asosiy funktsiyasini bajaradi - monumentalizatsiya (atrof-muhitga ahamiyat va tantanavorlik berish) va atrof-muhitning vizual xususiyatlarini oshirish. Ma'lumki, vizual muhit, uning vizual elementlar bilan to'yinganligi, shaharda bo'lgan insonning psixofiziologik holatiga kuchli ta'sir ko'rsatadi.

So'nggi yillarda tasviriy san'at vositalarining palitrasi (video va lazer proektsiyalari, supergrafika, kinetik san'at) kengayishi munosabati bilan shahar makonida o'zlarini shakllantirishga qodir bo'lgan boshqa g'oyaviy va badiiy mazmundagi narsalar paydo bo'ldi, bu esa me'moriy muhit bilan doimo bog'liq bo'lmagan fazoviy kompozitsiyalar bo'lib, bunda atrof-muhitni shakllantirishda ko'pincha ob'ektlarning muhandislik-texnik imkoniyatlaridan foydalaniladi.

SHunday qilib, bugungi kunda monumental va dekorativ san'at shahar muhitini loyihalashga badiiy yondashuvning tarkibiy qismlaridan biridir. Zamonaviy san'at va me'morchilik amaliyotida yangi faoliyat yo'nalishi paydo bo'ldi – bu "art-dizayn, uning asarlari har qanday ob'ekt va inshootlarning badiiy ta'sirini alohida ta'kidlab, ularni "haykallar"ga, dekorativ panellarga va boshqalarga aylantiradi"[1].

Art-dizayn ob'ektlarini(art-ob'ektlar) yaratishda turli xil san'at turlarining ekspresiv vositalaridan foydalaniladi: rangtasvir, grafika, haykaltaroshlik, installyatsiya, dekorativ-amaliy san'at, monumental san'at va boshqalar, shuningdek, zamonaviy muhandislik va qurilish vositalari va hok. Ushbu vositalarni shahar atrof-muhitini loyihalashning zamonaviy amaliyotiga joriy etish dolzarb va ayni vaqtdagi vazifadir, chunki bu atrof-muhitning barqaror fazilatlariga erishish va "aholi didini" rivojlantirishga yordam beradi. Inson atrof-muhitini loyihalashtirish uchun badiiy yondashuvning tamoyillarini ishlab chiqish va qo'llash, ayniqsa ehtiyojlarni aniqlash

va tushunish kerak, chunki u shahar muhitining zamonaviy ko'rinishini aks ettiradi, uning ko'ngil ochishi, hissiy va axborot bilan to'yinganligini kuchaytiradi. Bundan tashqari, shahar atrofidagi narsalarning estetik va badiiy fazilatlarini o'rganishga qaratilgan ilgari olib borilgan tadqiqotlar va ushbu mavzu bo'yicha nashrlarning boyligiga qaramay, jamoat shahar maydonlarini shakllantirishga badiiy yondashuvning jihati shu kungacha o'rganilmagan bo'lib qolmoqda.

Jamiyat barqaror va uyg'un rivojlanishi uchun unga yuqori sifatli yashash muhiti zarur. SHahar muhitini loyihalashtirishga badiiy yondashish insonning madaniy ehtiyojlarini hisobga oladi. San'at ob'ektlari odamlarning xatti-harakatlariga ta'sir qilishi, ong qiyofasini o'zgartirishi, yangi qadriyatlar tizimini yaratishga qodir.

Jamiyatning madaniy holatini umumiy rivojlanishining bir qismi sifatida art-ob'ektlari quyidagi funktsiyalarni bajarishi mumkin:

Ta'lim funktsiyasi - san'at ob'ekti shaxsda go'zallik tuyg'usi uslubini tarbiyalashga qodir. SHahar muhitini loyihalashda zamonaviy san'atni qo'llash jamiyatning jahon an'analari asosida san'at, adabiyot, moda, texnologiyalarni rivojlantirish va shu bilan uning intellektual darajasini oshishiga imkon beradi.

Kognitiv funktsiya – art-ob'ektlar ijtimoiy tajribani avloddan avlodga, mamlakatdan mamlakatga, odamdan odamga uzatishga qodir. Bugungi kunda Yevropa mamlakatlarida atrof-muhitning estetik fazilatlarini yaxshilash va ko'proq sayyohlar oqimini jalb qilish uchun shahar muhitini ob'ektlarini loyihalashda badiiy yondashuv faol qo'llanilmoqda. Art-ob'ektlari jamiyatni madaniy qadriyatlar bilan tanishtiradi.

Adaptiv funktsiya - art-ob'ektlar odamga tez moslashish, navigatsiya, yangi shahar sharoitida o'zini qulay his qilish imkoniyatini beradi.

Kommunikativ funktsiya (navigatsiya) – art-ob'ekt ramzlar, belgilar va boshqalar shaklida kodlangan ma'lumotlarni olib yurishi mumkin. Media arxitektura ham binolarning frontal yuzalarini dekorativ-badiiy bezash vositasi, ham ma'lumot uzatuvchi vosita (reklama, televizion ko'rsatuvlar va hok). Ko'cha san'ati ham shuningdek, o'ziga xos bitta sub'ektni jamiyat o'rtasidagi o'zaro aloqasidir.

Belgilar funktsiyasi - ba'zan art-ob'ekt shahar muhitida belgi(ramz) maqomiga ega bo'ladi. Bular orasida Ozodlik haykali va Nьyu-Yorkdagi AQSH fond birjasi

oldida "G’azablangan buqa" shahar janrli haykali, Rossiyaning Sankt-Peterburgdagi "CHijik pijik", "Bryusseldagi bola”, Germaniyadagi “Berlin devori" va boshqalar.

Rekreativ funktsiyasi. SHahar muhitida siz funktsional art- ob’ektlarini topishingiz mumkin: o’tirib dam olish joylari.

Postanovkali funktsiya (stsenariyli). Zamonaviy ijtimoiy hayot teatrga, yorqinlikka, konventsiyaga, uning namoyon bo’lishining gipertrofiyalangan ifodaviyligiga moyil. Art-faoliyat (karnavallar, yurishlar, quvonchli hodisalar, aktsiyalar va boshqalar) tufayli jamiyatning psixologik bo’shashishi uchun qulay muhit yaratiladi. Interaktiv installyatsiyalar, shuningdek, sub’ektni qisqa vaqt ichida o’yinga jalb qilishga qodir va shu bilan zarur dam olishni ta’minlaydi[2].

Turastat tahliliy agentligi MDHning qadimgi tarixiy shaharlari reytingini tuzib chiqdi. Shunday qilib, unda sayyohlik turlari va sayyohlar orasida o‘zining boy tarixiy va madaniy merosi tufayli mashhur bo‘lgan shaharlariga aniqlik kiritildi. Ma'lum bo‘lishicha, MDH davlatlarining sayyohlar orasidagi eng mashhur tarixiy shaharlari, asosan, Markaziy Osiyodagi Buyuk Ipak yo‘li va Kavkazortida joylashgan. Shunday qilib, MDHning tarixiy shaharlari Top-10l igiga Turkiston (Qozog‘iston), Samarqand(O‘zbekiston), Buxoro(O‘zbekiston), Taroz (Qozog‘iston), Ganja(Ozarboyjon), Vitebsk(Belorussiya), Xiva(O‘zbekiston), Gumri(Armaniston), Xo‘jand(Tojikiston) va Marv(Turkmaniston) shaharlari kiritilgan. Reyting turlar taklifi va mintaqaviy sayyohlik idoralari ma'lumotlarini tahlil qilish asosida tuzib chiqilgan.

Prezidentimizning 2019 yil 5 yanvardagi “O’zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi 5611-sonli Farmonida diyorimiz hududlarida turizmning istiqbolli turlari, shu jumladan gastronomik turizm salohiyatini hisobga olgan holda yangi turizm dasturlarini ishlab chiqish vazifasi belgilangan.

2022 yilning birinchi kunida Buyuk Britaniyaning ommabop «The Independent» onlayn-nashri saytida «2022 yilda sayohat qilish uchun eng yaxshi joylar» sarlavhali maqola e’lon qilinganini ma’lum qildi. Nashr 2022 yilda sayohat qilish uchun eng ommabop 10 ta yo’nalishni e’lon qilgan. Ushbu ro’yxatga Normand orollari, SHimoliy Irlandiya, Kanada, Ispaniya, Italiya, Turkiya, Misr, Butan va O’zbekiston kiritildi.

Nashrning sayyohlik bo'yicha muharriri Helen Koffi O'zbekiston haqida to'xtalar ekan, Ipak yo'lining madaniy va tarixiy jihatdan qoq markazida joylashgan, boy merosga ega mamlakatga sayohat qilish taassurotlarga boy bo'lishini ta'kidlagan. SHuningdek, O'zbekiston bir necha yil avval Buyuk Britaniya fuqarolariga viza talablarini yengillashtirgani, endi ular mamlakatda vizasiz 30 kungacha bo'lib turishi mumkinligi qayd etilgan. O'zbekistonga safarni rejalashtirayotganlarga joriy yil o'tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro festivallar va boshqa yirik madaniy tadbirlarni o'z jadvaliga kiritish maslahat berilgan. Helen Koffi Xivada o'tkaziladigan «Lazgi» xalqaro raqs festivali, Mo'ynoqdagi «Stixiya» musiqa festivali, Qo'qonda uyushtiriladigan xalqaro hunarmandchilik festivali, Samarqandda har ikki yilda bo'lib o'tadigan «SHarq taronalari» xalqaro musiqa festivali, Toshkent va Buxorodagi «Ipak yo'li» adabiy festivali, Qo'qon hunarmandlar xalqaro festivali va Toshkent xalqaro kinofestivalini sanab o'tgan. Bundan tashqari, san'at va me'morchilik ixlosmandlari e'tibori bu yil ochilishi kutilayotgan Islom tsivilizatsiyasi markazi va qayta ta'mirlangan Davlat san'at muzeyiga ham qaratilgan[3].

Jamiyatning yuksak badiiy muhitga bo'lgan talabi tobora o'sib bormoqda, yirik shaharlarda chiroyli, funktsional jihatdan boy va informativ muhitlarni yaratish o'zini iqtisodiy jihatdan oqlaydi, chunki u mahalliy aholini ham, sayyohlarni ham o'ziga jalb qiladi.

Adabiyotlar

1. В.Т.Шимко. Основы дизайна и средовое проектирование: учеб. пособие

/ В.Т. Шимко. - М.: Архитектура - С, 2004. - 160 с.

2. Е.Д.Енютина. Особенности художественного подхода к формированию современной городской среды. канд.дис. на соискание ученой степени арх. Самара 2015г. Стр 66-683.

3. https://www.inform.kz/oz/zbekiston-2022-yilda-sae-at-kilish-uchun-eng-yahshi-y-nalishlardan-biri-deb-topildi_a3881282.

BUGUNGI KUN TURIZMI VA UNING EKOLOGIK AHAMIYATI

Qurbonova Ulashoy,
QarDU PI katta o`qituvchisi

Zamonaviy turizm ma'lum darajada atrof-muhitga zarar etkazmoqda. Tabiiy sharoitning o'zgarishi, xususan, odamlarning yashash sharoitlari, o'simlik va hayvonot dunyosining yomonlashishi kuzatiladi.

Turistik mintaqaning eng muhim xomashyo resursi sifatida tabiiy muhitni saqlash zarurligi to'g'risidagi bayonotda turizm bilan shug'ullanadigan odamlar o'rtasida nizolar mavjud emas. Ammo turizmning tabiiy muhitga ta'siri va unga qarshi kurashda turlicha fikrlar mavjud. Atrof-muhit hodisalarini idrok etish va ularni boshqarish muammosi shundaki, bu hodisalarning ko'pchiligini aniqlab bo'lmaydi. Ularning sayyohlar va mahalliy aholiga ta'sirini obyektiv baholash ham mumkin emas. Bundan tashqari, ko'plab almashinuv effektlari tufayli ularning oqibatlarini baholash qiyin.

Tan olishimiz kerakki, ekologik muvozanatning buzilishi juda kech tan olinadi. Ko'pincha shunday bo'ladiki, birinchi bo'lib aniqlangan va uzoq muddatli xarakterga ega bo'lgan ta'sirlar emas, balki ularning oqibatlari insonga salbiy ta'sir qiladi.

Sayyohlar va mahalliy aholining to'qnashuvi, tabiatning turizm bilan tirbandligi bugungi kunda insoniyatning asosiy muammosiga aylandi. Turistlarning atigi 52 foizi turizm ta'siri natijasida landshaft va tabiatning ifloslanishi aholi uchun katta xavf tug'diradi, deb hisoblaydi. Turizmning zararli ta'siridan kelib chiqadigan omillar orasida mahalliy aholi transport va yerdan foydalanish natijasida havo ifloslanishini birinchi o'ringa qo'yadi. Sayyohlar tabiatdan uzoq muddatli foydalanish g'amxo'rligidan ko'ra, dam olishga bo'lgan shaxsiy ehtiyojlarini qisqa muddatli qondirishni yuqori baholaydilar.

Ekologik muvozanatni saqlash maqsadida turistik oqimlarni boshqarish uchun tashriflarni boshqarish vositalaridan foydalaniladi. Tashrifchilar boshqaruvi sayohat vaqtini (maksimal qolish muddati, tashrif vaqti), tashrif turlarini (ruxsat etilgan sport turlari va boshqalar) yoki mintaqadan foydalanish intensivligini (maksimal ruxsat etilgan tashrif buyuruvchilar soni) nazorat qiladi. Cheklov choralari aholini xabardor qilish, sayohat xarajatlarini oshirish yoki hukumat qarorlari bilan joriy etiladi.

Birinchi navbatda, tashrifni boshqarishdan to'liq foydalanishga quyidagi omillar to'sqinlik qiladi: mahalliy aholi bo'sh vaqtlarida o'z faoliyatida cheklanishni istamaydi; muhofazaga muhtoj tabiatning uni asrashga qodir egasi yo'q; cheklovlar turistik korxonalarning qisqa muddatli manfaatlariga mos kelmaydi.

Bizning hayotimiz sharoitlari jiddiy xavf ostida va turizm iqtisodiy manfaatlar bilan chambarchas bog'liq bo'lganligi sababli atrof-muhitni maqsadli muhofaza qilish qiyin. Ekologik muammolar va iqtisodiy manfaatlar o'rtasidagi qarama-qarshilikda ko'pincha ikkinchisi foyda keltiradi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish muammolarini iqtisodiy muammolardan keyin hal qilish kerak, deb ishoniladi. Darhaqiqat, atrof-muhitning yaxlitligini saqlash turizmni rivojlantirishning eng muhim shartidir. Chunki toza tabiat sayyohlarni o'ziga jalb qiladi va ularning yaxshi dam olishiga yordam beradi. Atrof-muhitning buzilishi ertami-kechmi turizmning mintaqada iqtisodiyotning bir tarmog'i sifatida yo'qolishiga olib keladi. Shuning uchun turizmni rivojlantirishdagi muammolarni quyidagicha belgilash mumkin: bir tomondan turizmdan iqtisodiy omil sifatida voz kecholmaymiz; boshqa tomondan, bizning yashash joyimiz ekalogik xavfsizligi uchun umumiy javobgarlikni o'z zimmasiga oladi. Shunga ko’ra:

1) Individual darajada atrof-muhitni asrab-avaylash zarurati har bir sayohatchi tomonidan tan olinishi va shunga mos ravishda uning bu muhitga munosabatini o'zgartirishi; 2) Davlat darajasida ekoturizmni rivojlantirish kerak. Bu atrof-muhit, rekreatsiya va iqtisodiy ko'payish yoki ekologiya, jamiyat va iqtisodiyot o'rtasidagi muvozanatni saqlashga intiladigan turizm. Atrofdagi dunyo muammolariga yo'naltirilgan turizm – bu turizmning bir turi bo'lib, unda boshqaruv tizimli va maqsadli ravishda atrofimizdagi dunyo muvozanati mezonini ishlab chiqishi; 3) Yangicha fikrlash jarayoni turizm faoliyati uchun mas'ul shaxslarga ham ta'sir qilishi kerak, chunki turizm saqlanib qolishi uchun qisqa muddatli foyda olish manfaatlaridan ko'ra, atrof-muhitni maqsadli muhofaza qilish maqsadlari muhimroq bo'lishi; 4) Siyosat to’liq ekologiyalashtirilishi kerak bo’ladi.

Shunday qilib, ekologiyaning holati turizm tizimiga katta ta'sir ko'rsatadi. Chunki turizm sanoati iqtisodiyotning boshqa barcha tarmoqlariga qaraganda atrof-muhitning

yaxlitligiga ko'proq bog'liqdir. Turizm ommaviy hodisa sifatida atrof-muhitni sezilarli darajada buzadi.

Ekologiyada turizm ta’sirini kamaytirish maqsadida “Ekoturizm” kirib keldi.

Ekoturizm – bu mahalliy aholining an'anaviy turmush tarzini saqlab qolgan, nisbatan tabiatga zarar yetkazmaydigan, rekretsion jozibali joylarga maqsadli sayohatidir. Terminologik jihatdan “ekoturizm” tushunchasi 1980-yillarning boshida meksikalik ekolog iqtisodchi Seballos-Laskuri tomonidan atrof-muhitga ekologik sezgir munosabatda bo'lgan cho'l hududlariga tashrif buyurishning kombinatsiyasi sifatida taklif qilingan dunyoda keng tarqalgan. UNWTO va Birlashgan Millatlar Tashkilotining Atrof-muhit bo'yicha Dasturi (YUNEP) tomonidan tashkil etilgan Butunjahon ekoturizm sammitida (2002) qabul qilingan Kvebek deklaratsiyasiga ko'ra, “ekoturizm” atamasining nisbatan umumiy talqini “siyosiy turizmga” qaratilgan turizm turi sifatida ishlab chiqilgan. Unga ko’ra ekoturizm “atrof-muhitni muhofaza qilish, mahalliy va mahalliy jamoalarning huquqlarini tan olish va hurmat qilish, turistlarning madaniy va ekologik ta'limini moliyaviy qo'llab-quvvatlash” ni nazarda tutadi [1].

Xalqaro ekoturizm jamiyati turizmning ushbu turiga to‘liqroq ta’rif beradi: “Mahalliy madaniyat va tabiiy muhitni chuqur anglash, ekotizimlar yaxlitligini buzmasdan, tabiiy resurslarni muhofaza qilish mahalliy aholi uchun foydali bo'lishini ta'minlashga yordam berish maqsadida tabiiy hududlar bo'ylab maqsadli sayohatlar” [2]. Deklaratsiyani qabul qilish va Sammit davomidagi muhokamalar chog‘ida quyidagi tamoyillar asosida mahalliy aholini turizmni rivojlantirishga jalb etishga katta ahamiyat berildi:

- ekoturizm tabiatni muhofaza qilish va asrashda yordam berishi kerak;
- ekoturizm ish o'rinlari yaratishga va bu orqali mahalliy aholi uchun qo'shimcha daromad keltirishiga hissa qo'shishi kerak;
- ekoturizm mahalliy madaniyat haqida bilim va xabardorlikni oshirishi kerak.

Ekologik turizm va ochiq havoda dam olish va unga hamroh bo'lgan xizmat ko'rsatish sohasini rivojlantirish mintaqada barqaror rivojlanishning ekologik va ekologik talablariga eng yaxshi javob beradigan faoliyat sifatida qaraladi [5].

Atrof-muhitning yashash va rekreasiya uchun maqbul sifatini ta’minlashning asosiy shartlaridan biri qo‘riqlanadigan tabiiy hududlarning amaldagi tarmog‘ini kengaytirish va ularni rejalashtirish va boshqarishni takomillashtirish orqali ekoturizm bilan qamrab olish nuqtai nazaridan muhofaza etiladigan tabiiy hududlarning yangi toifalarini jalb etishdan iborat. Chet elda, masalan, Kanadada bo'lgani kabi, ekoturizm rivojlangan qo'riqlanadigan hududlar tizimi bilan ifodalanadi, uning hududining 40% ga yaqini qo'riqlanadi. Bu yerda 34 ta milliy bog‘, 46 ta milliy fauna qo‘riqxonasi va 100 dan ortiq qushlar qo‘riqxonasi mavjud.

Ekologik turizmni rivojlantirish ekologik ta’lim, tabiatni o‘rganish bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, unga ehtiyotkorona munosabatda bo‘lish, aholi o‘rtasida ekologik madaniyat va ekologik tafakkur shakillantirishini taqozo etadi.

Adabiyotlar

1. Barqaror rivojlanish bo'yicha Yoxannesburg deklaratsiyasi. URL: http://www.conventions.ru/view_base.php?id=1002 Ecotourism Society, 1994. Western D. Defining Eco- tourism // Ecotourism: A Guide for Planners and Man- agers. The Ecotourism Society, North Bennington, USA, Vermont, 1993. P.7-11.
2. Ecotourism Society, 1994. Western D. Defining Eco- tourism // Ecotourism: A Guide for Planners and Man- agers. The Ecotourism Society, North Bennington, USA, Vermont, 1993. P.7-11.
3. Grumbine R.S. Ghost Bears: Exploring the Biodiversity Crisis. Washington, 1992. – 336 p.
4. Soykan A. Ecology - based environmental education in years between 1999- 2008 in protected areas of Turkey: Aims and objectives, problems and suggestions [Электронный ресурс] // Procedia Social and Behavioral Sciences, 1 (2009), P. 1704–1708.
   URL: https://www.sciencedirect.com/science/article/pii/S187704280900305X
5. Чибилёва, В.П. Разработка концепции развития единой и непрерывной сети особо охраняемых природных объектов и формирования ландшафт- но-экологического каркаса степных регионов // Основные итоги научно-исследовательской и научно- организационной деятельности Института степи

УрО РАН за 2002-2206 годы. – Оренбург: Печатный дом «Димур», 2007. 160 с. ИПК «Газпромпечать» ООО «Оренбурггазпромсервис», 2006. 60 с.
6. Даркшевич, Я.Н. В Бузулукском бору: научн. - попул. монография. – Бузулук: Бузулукское изд., 1963. 23 с.

O'ZBEKISTONDA TURIZMNI BARQAROR RIVOJLANTIRISHDA EKOTURIZMNING O'RNI

Olimova Dilso'z Abduxalimovna,
QarDU PI o`qituvchisi

Ma'lumki, iqtisodiy rivojlanishning dunyodagi barcha davlatlar uchun umumiy qonuniyatlari mavjud bo'lish bilan birga, u yoki bu mamlakatning jo'g'rofiy joylashuvi, tabiiy sharoiti, iqlimi, aholisi, tabiiy resurslari va boshqa ko'plab omillar ta'sirida iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlari turlicha bo'ladi.

Ekoturizmning maqsadi – hozirgi va kelajak avlodlarning ekologik xavfsizligi va barqaror rivojlanishini ta'minlash uchun tabiatdan turistik yo'nalishda oqilona foydalanishdir. Demak, mamlakatimiz iqtisodiy rivojlanishida ekoturizmning iqtisodiyotdagi o'rni va ahamiyatini aniqlash, rivojlanish parametrlarini tahlil qilib, uni respublikamiz turizmiga tatbiq etish, ekoturizm faoliyati bozorini tashkil qilish hamda uning istiqbolli yo'nalishlarini ishlab chiqish katta ahamiyatga molik. Sohada yechimini kutayotgan dolzarb muammolar ko'p. Ularni chuqur o'rganish, ilmiy tahlil qilish orqali olingan xulosalar hamda sohada to'plangan bilimlarni umumlashtirishga doir takliflar kiritish zarur.

Jahon Turistik Tashkilotining turizmni barqaror rivojlantirish konsepsiyasiga ko'ra: "Turizmning barqaror rivojlanishi kelajak uchun imkoniyatlarni saqlab turish va yaxshilab borish davri mobaynida hozirgi paytda turistlar va ularni qabul qiluvchi hududlar ehtiyojlariga javob beradi. Bu barcha resurslarni boshqarishning shunday yo'nalishiki, uning natijasida iqtisodiy, ijtimoiy va estetik ehtiyojlar madaniy qadriyatlarning, ekologik jarayonlarning, biologik xilma-xillikning hayot faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini saqlab qolinishi bilan birga qondirilib boradi".

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’biri bilan aytganda, “Bizda turizm ko'pincha qadimiy shaharlarimiz, tarixiy-madaniy yodgorliklar doirasida cheklanib qolmoqda. Vaholanki, mamlakatimizning betakror tabiati, milliy qo’riqxonalar, tog'li hududlarda turizmni rivojlantirish uchun katta salohiyat mavjud. Ayniqsa, tibbiy otturizmi, ziyorat turizmi va eko turizmni rivojlantirish nafaqat iqtisodiyot, balki ijtimoiy sohalari va juda ham katta turtki beradi» bo’lib qolishi lozim[1]. Shuni ta’kidlash lozimki, ekoturistik resurslarga juda boy bo'lgan respublikamizda ekoturizmning rivojlanishi talab rajasida emas. Fikrimizcha, bunga to’sqinlik qilayotgan asosiy omillardan biri – muhofaza qilinadigan tabiiy hududlar hamda milliy tabiiy bog’larimizda Markaziy Osiyoda kamyob hayvonlar erkinlikda yuzlab, minglab yashashi uchun yetarli darajada moddiy–texnik bazasining yaratilmaganligidadir.

Jahon talablariga javob bera oladigan yangi milliy tabiiy bog'larni yaratish uchun birinchi navbatda ekoturizmning O'zbekistondagi salohiyat ko'rsatkichlari, maqsadi, tashkiliy-huquqiy, ekologik ta'lim-tarbiya va ijtimoiy-iqtisodiy xizmat va servis sohasini rivojlantirish masalalari bo'yicha omillar tizimi puxta ishlab chiqilishi lozim. Eko turizmning maqsadi – hozirgi va kelajak avlodlarning ekologik xavfsizligi va barqaror rivojlanishini ta’minlash uchun tabiatdan turistik yo'nalishda oqilona foydalanishdir[2].

Demak, turizmning barqaror rivojlanishi tabiat, madaniyat va inson omilini birlashtirib atrof-muhit muvozanatini saqlaydi. Barqaror turizm tamoyilini anglash va rivojlantirishga mahalliy aholining tabiiy resurslarni tejashi va muhofaza qilishi xizmat qiladi. Bu esa ekologik turizmni turizm sohasida muhim o’rin egallashidan dalolatdir. Ekologik turizm tushunchasini ko’rib chiqsak, ekologiya − tirik organizmlar va ular jamoasinig o’zaro hamda atrof muhit bilan munosabatini o’rganadi[3]. Turizm esa jismoniy shaxsning doimiy yashash joyidan farqli joyga dam olish, sog’liqni tiklash, o’rganish va boshqa maqsadda, haq to’lanadigan faoliyat bilan shug’ullanmaslik sharti bilan 1 sutkadan 1 yilgacha bo’lgan muddatda sayohat qilishidir.

Ekoturizm tabiiy muhitga, tabiatga ziyon yetkazmagan holda sayohat qilib uning betakror joylaridan zavq olish uchun atrof-muhitga “yumshoq” ta’sir etish, mahalliy xalqning ijtimoiy-iqtisodiy sharoitini faollashtirishdir.

Ekoturizm maqsadiga ko'ra bir necha tarmoqqa bo'lish mumkin:

- · noyob hayvonot va o'simlik dunyosi bilan tanishish;
- · foto tasvirlar va hujjatli filmlar olish;
- · agro-turizm;
- · ilmiy ekskursiyalar;
- · nisbatan ziyon yetkazilmagan yovvoyi tabiatga sayohat.

Sayyoramizda inson faoliyati natijasida zarar yetkazilmagan yovvoyi tabiat maskanlari kam qolganligi sababli bunday hududlarga sayohat qilish cheklangan va ularning narxi ham yuqori. O'zbekistonda esa eko turizmning bu yo'nalishi hali yaxshi rivojlanmagan. O'zbekiston hududining ma'lum qismi cho'l zonasiga to'g'ri keladi. U yerlarda "qora uy"lar va boshqa sharoitlar yaratilib, turlar tashkil etish mumkin. Ekologik inqirozga yuz tutgan Orol dengiziga ham maxsus ekoturlarni tashkil etish mumkin[4].

Respublikamiz faunasi 97 turdagi o'txo'r hayvonlar, 424 turdagi qushlar, 58 turdagi sudralib yuruvchilar, 83 ta baliq turlariga ega. O'zbekiston flora dunyosida 4100 dan ortiq o'simlik turlari mavjud. Ularning 9 foizi endemik, ya'ni aynan shu hududda o'sadigan o'simliklardir. Demak, O'zbekistonda noyob hayvonot va o'simlik dunyosi bilan tanishtiradigan maxsus turlar ishlab chiqish imkoniyati mavjud.

Agro-turizmga to'xtaladigan bo'lsak, qishloq joylarida o'ziga xosliklar: tandirda non yopish jarayoni, "xo'roz jangi", qovun sayli, hosil bayrami, sumalak sayli va hokazo urf-odatlarni o'z ichiga olgan ekoturlar sayyohlar tomonidan katta talabga ega bo'lishi mumkin.

Ilmiy-ekologik ekskursiyalar, ya'ni bilishga qaratilgan ekoturlar tarixiy yodgorliklar hamda dunyoda kam uchraydigan arxeologik topilmalar, paleontologik qoldiqlarni o'rganish uchun qilinadigan sayohatlardir. Buxoro viloyati Shofirkon tumanida joylashgan ham tabiiy, ham tarixiy yodgorlik hisoblangan Vardonze potensial ekoturistik obyekt sanaladi[5]. Ushbu obyektda zarur infratuzilma tahkil etilsa, turist nazaridan chetda qolmaydi.

Sog'liqni tiklashga qaratilgan ekoturlar ham mavjud bo'lib, Jizzax viloyatidagi Zomin salomatlik markazi shifobaxsh ob-havosi bilan, Buxoro tumanidagi issiq suv

salomatlik markazi yer ostidan 60˚C dagi suv chashmasi bilan xalqga xizmat qilmoqda. Buxoro viloyati Olot tumanida mavjud tuz bilan davolash maskanini ham potensial ekoturistik obyektga aylantirish mumkin.

Tabiiy quyosh energiyasidan foydalangan holda ekologik sof mahsulotlarni yetishtirish, tabiiy, vitaminlarga boy juvoz yog'i tayyorlanish jarayoni, undan tayyorlangan oziq-ovqat mahsulotlari taklifi shakllantirilsa, potensial talabga ega bo'ladi.

O'zbekistonda ekoturizmni rivojlantirishdan asosiy maqsad – jamiyat ehtiyojlarini qondirish, xizmat korsatish sifati va hajmini kengaytirilgan holda sohaga bozor iqtisodiyotining dunyo standartlari darajasidagi modeli kirib kelishini ta'minlashdir. Jamiyat ehtiyojini qondirish turistlar talabini ichki va tashqi turizm xizmatlariga aholining ekskursion xizmatlarga bo'lgan ehtiyojlarini qondirish shu bilan xizmat importi va eksportiga bo'lgan xalqaro talabni o'rganish bilan bog'liqligi masalaning nechog'li muhimligini ko'rsatadi[6].

Umuman olganda, O'zbekiston ekoturizmni rivojlantirish uchun barcha resurslarga boy va bu jihatdan dunyoda 15-o'rinda turadi. Respublikamizda tashkil etiladigan ekoturlar quyidagi tamoyillarga amal qilishi darkor:

- tabiatni muhofaza qilish va barqaror rivojlanish masalalarining ustuvorligi va uni ekotur yo'nalishlarida aks ettirish;
- ekoturizm zamirida ekologik va ijtimoiy-iqtisodiy manfaatdorlik yotishi;
- ekoturizmning tarixiy, madaniy va boshqa turizm turlari bilan bog'liq rivojlantirilishi;
- davlat va mahalliy boshqaruv organlari, aholining ekoturizdan manfaatdorligi;
- Vatanni asrab, rivojlantirishda milliy iftixorni shakllantirish zaruriyati[7].

Adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 22 yanvardagi « 2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning besh ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasini «Faol tadbirkorlik, innovatsion g'oyalar va texnologiyalarni qo'llab-quvvatlash yili»da amalga oshirishga oid davlat Dasturi to'g'risida»gi PF-5308 son Farmoni. O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlari to'plami, 2018 yil 29 yanvar, 4-son, 68-modda.

2.Tabiatni muhofaza qilish to’g’risida. O’zbekiston Respublikasi qonuni. 1992 yil 9 dekabr.
3.I.S.Tuxliyev “Turizm asoslari ” fanidan o‘quv qo‘llanma, Samarqand 2010.
4. Mirzayev Murod Ahmadjonovich, Aliyeva Mahbuba To‘ychiyevna “Turizm asoslari fanidan” o’quv qo’llanma, – Toshkent 2011.
5. M.N.Pardayev, R.Atabayev ma’ruzalar matni, Samarqand 2007.
6. N.E.Ibodullayev. “O’zbekistonning turistik resurslari” (ma’ruzalar matni). Samarqand, 2008.
7.R.Xayitboyev. R.Amriddinova – “Turizmning maxsus turlari”, uslubiy qo‘llanma. – Samarqand.

ABU UBAYDA IBN AL-JARROH HAZRATLARINING ISLOM DINI RIVOJIDAGI QILGAN ISHLARIGA BERILGAN AYRIM FIKRLAR

Xudoyorov Lochinbek,
QarDU PI o’qituvchisi

Abu Ubayda ibn Jarroh (583 - 639) - sahoba, Makkalik ilk musulmonlardan islomga birinchi bo‘lib kirgan kishilardan.

Ismi Omir, Quraysh qabilasining bani Fixr urug‘idan bo‘lgan. Abu Ubayda ibn al-Jarroh Habashistonga, keyin Madinaga hijrat qilgan. Muhammad (s.a.v.) bilan hamma g‘azotlarda qatnashgan.

Islom tarixida shijoatli va o‘ta jasur mujohid, buyuk sarkarda, odil bir inson sifatida tanilgan. Otasi Badr jangida Makkalik mushriklarga qo‘shilib, musulmon qo‘shinlariga qarshi kurashgan, o‘g‘li Abu Ubayda ibn al-Jarrohni o‘ldirishga qasd qilgan, doimo uni ta'qib etgan.

Abu Bakr Siddiq xalifaligi davrida Shom (Suriya) fathi uchun yuborilgan. Abu Ubayda ibn al-Jarroh odil, shafqatli va halim zot bo‘lgan. Bu hol dushmanni yengishga qo‘l kelgan, Shomning urushsiz olinishiga sabab bo‘lgan.

639-yil Shomda og‘ir, yomon kasallik (touni amvos) tarqalgan. Kasallik dastlab Falastindagi Amvos qishlog‘idan chiqqan bo‘lib, bu kasallikdan bir oy ichida yigirma ming musulmon vafot etgan.

Abu Ubayda ibn al-Jarroh ham shu kasallik qurboni bo‘lgan. Abu Ubayda ibn al-Jarroh Urdun (Iordaniya) hududida vafot etgan, qabri Shariat daryosining g‘arb tomoni, Amyo qishlog‘idadir. Umar (ra) o‘zidan keyin xalifalikka Abu Ubayda ibn al-Jarrohni munosib ila nomzod deb bilgan. Har bir ummatning o’z ishongan kishisi bo’ladi. Bu ummatning ishongan kishisi Abu Ubaydadir Muhammad Rasululloh ta’rif berganida u kishi ochiq chehrali, istarasi issiq, jussasi ozg’in, soqoli siyrak kishi edi. Ko’rgan odamning ko’zi quvonar, qalbida yana qayta uchrashuvga zavq paydo bo’lar va u haqida iliq taassurot uyg’onardi. Bundan tashqari, nihoyatda xushmuomala, sertavoze, g’oyatda uyatchan edi. Lekin ahvol og’irlashib, vaziyat keskinlikni talab qilsa, go’yoki g’azabdan arslonday bo’lib, uni tanib bo’lmay qolardi. U o’zining dadil va o’ktam xatti-harakatlari bilan keskir qilichga o’xshagan.

Abdulloh ibn Umar uni quyidagicha ta’riflagan: — Quraysh qabilasida uch kishi borki, ular insonlarning eng ochiq chehrali, go’zal ahloqli va hayoliroqlaridir. Agar sizga gapirgudek bo’lsalar, bir luqma ham yolg’on qo’shmaslar. Agar siz ularga gapirsangiz, sizni yolg’onchiga chiqarmaslar. Bular Abu Bakr Siddiq, Usmon ibn Affon va Abu Ubayda ibn al-Jarrohlardir deb fikr bildirgan.

Abu Ubayda islom dinini eng avval qabul qilgan musulmonlardan edi. Abu Bakr Siddiqdan bir kun keyin, u kishining da’vati bilan dinga kirgan va Abdurahmon ibn Avf, Usmom ibn Maz’un, Arqam ibn Abu Arqam bilan birga Payg’ambar alayhissalomning huzurlariga borib, haq kalimasini aytgan, shunday qilib buyuk islom binosini bunyod etishlik uchun qo’yilgan eng avvalgi g’ishtlardan bo’lgan edi. Abu Ubayda Makkada ilk islom shu’lalari tarala boshlagan ondan tortib og’ir sinovlarni boshidan kechirdi. Peshqadam musulmonlar qatori turli xil zulmu bedodliklar, haqoratu tazyiqlar, g’amu alamlarni totib ko’rdiki, Yer yuzidagi bironta din tarafdori bunday sinovlarga duchor etilmagandi. U kishi esa bu sinovlarga mardonavor dosh berdi. Har qancha ahvollari tang, holatlari ayanchli bo’lsa ham Alloh taolo va Payg’ambar alayhissalom janoblariga bergan va’dalariga sodiq qolishdi. Ammo Badr jangi Abu Ubaydani yetti uxlab tushiga kirmagan, inson zoti tasavvur qilishdan ojiz bo’lgan nihoyatda mushkul imtihonga ro’para etgandi.

Badr kuni Abu Ubaydaning dushmanlar safini parokanda etishlikda ko'rsatgan jangovar mahorati mushriklar qalbiga g'ulg'ula soldi. U xuddi o'limni pisand qilmayotganday jangning eng qonli tus olgan nuqtalarida hozir bo'lar, Quraysh suvoriylari esa, unga yuzma-yuz kelishdan o'zlarini olib qochardilar[1]. Ammo ular orasida bir kishi Abu Ubaydani yakkama-yakka olishuvga chorlab, bot-bot oldidan kesib chiqar, Abu Ubayda esa har safar unga yo'liqqanida otining jilovini chetga burardi. Haligi odam xira pashshaday Abu Ubaydani ta'qib qilishdan charchamas, u bo'lsa yakkama-yakka jangdan chetlanishini qo'ymasdi. Nihoyat, taqib qiluvchi niyatiga yetdi. Abu Ubaydaning ro'parasiga ko'ndalang turib olib, Allohning dushmanlariga qarshi jihod qilishdan yo'lini to'sib qo'ydi. Haqorat qilishdan o'zga iloj topolmagan mujohid qilichining bir zarbi bilan raqibining boshini qoq ikkiga bo'lib tashladi. Abu Ubayda boshiga yetgan kishi uning otasi Abdulloh ibn al-Jarroh edi.

Abu Ubaydani bu og'ir imtihondan yorug' yuz bilan o'tishi, aytarli, ajablanarli hol emas edi. Uning Allohga bo'lgan iymoni shu qadar baquvvat, o'zi dinga shunchalik sodiq va Muhammad alayhissalom ummati o'rtasida shu darajada ishonchga sazovor, omonatga vafodor ediki, hatto Alloh taoloning nazdida buyuk maqomga ega bo'lgan zotlar ham unga havas qilishardi.

Muhammad ibn Ja'far hikoya qiladi: Bir kuni Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning huzurlariga nasroniylar guruhi kelib: - Yo Abul Qosim, biz o'rtamizdagi molni taqsimlay olmay, bir-birimiz bilan salkam jiqqamusht bo'layozdik. Siz, musulmonlar, to'g'ri so'z, omonatdor odamlarsiz. Shuning uchun biz bilan o'zingiz ishongan odamni yuborsangiz, u bizga mollarimizni adolat bilan taqsimlab bersa, - deb iltimos qilishdi. - Ertaga kelinglar, men siz bilan eng ishonchli odamimni yuboraman, - dedilar Rasululloh sollallohu alayhi va sallam. Davomini Umar ibn Xattob shunday deb bayon qiladi: - Ertasi kuni peshin namozini o'qishga masjidga keldim. Xudo haqqi, men umrim bino bo'lib, bironta masalada qozilik qilishni istamagandim, lekin o'sha kuni "Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning ishonchli kishisi" nomini olish uchun bu vazifani menga topshirilishini ich-ichimdan xohladim. Rasululloh sollallohu alayhi va sallam bizga peshinni o'qib bergach, orqalariga o'girildilar. Ko'zlari bilan odamlar orasidan kimnidir izlay boshladilar.

Bir kuni Rasululloh sollallohu alayhi va sallam sahoblaridan bir guruhini Quraysh qabilasiga tegishli karvonni qo'lga kiritish uchun yubordilar. Guruhga Abu Ubaydani amir qilib sayladilar va askarlarning ozuqasi uchun bir qop xurmo berdi. Abu Ubayda butun safar mobaynida kuniga har bir kishiga bittadan xurmo berib borgan bo'lsa, ular esa kun bo'yi xurmoni shimib, ustidan suv ichib yurishardi. Bir kecha-kunduzlik tamaddi shundangina iborat edi.

To'qqiz nafar birodari bilan Rasululloh sollallohu alayhi va sallamni himoya qilish uchun mushriklarning nayzalariga ko'kragini qalqon qilgandi. Lekin bu ehtiyot choralari Rasululloh sollallohu alayhi va sallamni aziyatlardan asrab qololmadi. U zotning muborak qoziq tishlari sinib, peshonalari yorildi. Egnilaridagi titilib ketgan sovutning ikki simi lunjlariga kirib, chuqur botdi. Abu Bakr Siddiq endi simlarni sug'urib tashlamoqchi bo'lganida Abu Ubayda: — Azbaroyi xudo, bu ishni menga qo'yib bering, - deb iltimos qildi. U qo'lini ishga solsa, Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning jonlari og'rishidan cho'chib, sovutning simini mahkam tishlab tortdi. Sim sug'urildi, lekin jon-jahdi bilan tishlash natijasida Abu Ubaydaning kurak tishi sinib ketdi. So'ng u ikkinchi kurak tishini qurbon qilish badaliga Rasululloh sollallohu alayhi va sallamning yuzlaridan ikkinchi simni ham sug'urib tashladi. Abu Bakr bu voqeani eslaganida "Abu Ubayda kurak tishi yo'q kishilarning eng chiroylisidir", deb qo'yardi.

Abu Ubayda Rasululloh sollallohu alayhi va sallam qatnashgan janglarning hammasida ishtirok etdi. So'nggi lahzalargacha Payg'ambar alayhissalomning eng yaqin mulozimlaridan bo'lib qoldi[2]. Saqifa kuni (Abu Bakr Siddiq xalifa etib saylangan kun) Umar ibn Xattob: - Qo'lingni ber, men senga bay'at qilaman, chunki Rasululloh sollallohu alayhi va sallam "Har bir ummatning o'z ishonchli kishisi bo'ladi, bu ummatning eng ishonchli kishisi sensan" degandilar, - deb Abu Ubaydaga xalifalik lavozimini taklif qilganda, u: — Rasululloh sollallohu alayhi va sallam namozda imom bo'lishlikka buyurgan va to payg'ambarimiz vafot etgunlariga qadar imomgarchilik qilgan bir odam turgan joyda menga xalifalikka yo'l bo'lsin, - deb kamtarlik qilgandi. Shundan keyin Abu Bakr Siddiqqa itoat izhor etilib, bay'at qilindi. Abu Ubayda haq yo'l uzra uning xolis nasihatgo'yi, xayrli ishlarida yelkadosh

yordamchisi bo'ldi. Abu Bakr xalifalikni o'zidan so'ng Umar al-Foruqqa vasiyat qilib ketdi. Abu Ubayda hazrati Umarga ham itoatda bo'ldi, sira o'zboshimchalik qilmadi. To'g'ri, bir marta u xalifaming buyrug'iga bo'ysunmadi. Abu Ubayda musulmonlar amiriga itoat etishdan bosh tortgan farmon nima haqida edi? Voqea Shom diyoriga yuborilgan Abu Ubayda ibn al-Jarroh sarkardaligi ostidagi musulmonlarning zafarli qo'shini ketma-ket g'alabaga erishib, shomiy shaharlarni hammasini fath etib, sharqdan Frot daryosi yoqasiga, shimoldan Kichik Osiyo chegarasiga yetib kelgan paytda ro'y berdi. Shu vaqtda Shom bo'ylab dahshatli vabo tarqalib, kuniga minglab odamlarning yostig'ini qurita boshladi. Bu mudhish xabar hazrati Umarning qulog'iga chalinishi bilan Abu Ubaydaga quyidagi mazmunda maktub yo'lladi: - "Biz mushkul ahvolga tushib qoldik. O'zing kelib yordam bermasang bo'lmaydi. Maktubim senga tunda yetib borsa, tong otishini kutib o'tirmay, yo'lga tush. Agar kunduzi yetib borsa, shu zaxoti oyog'ingni qo'lingga olib, shamolday yel". Abu Ubayda xatni o'qib chiqib: - Halifaning menda qanday ishi borligini sezib turibman. U bir insonning ajalini kechiktirishga behuda urinyapti, - dedi. So'ng qo'liga qalam olib, javob xatini yozdi: - "Amirul mo'minin janoblari, meni nima maqsadda chaqirtirganingizni his etib turibman. Men musulmonlar qo'shinining bir askariman. Ularning boshiga ne kun tushsa, mening ham taqdirim o'shadir. Boshga tushganni ko'z ko'radi. Alloh peshonamga yozib qo'ygan ish sodir bo'lguncha, lashkardan ajralmayman. Sizdan o'tinib so'rayman, avvalgi buyrug'ingizni bekor qilib, meni shu yerda qolishimga ijozat bersangiz". Maktubni o'qigan hazrati Umarning ko'zlari jiqqa yoshga to'ldi. Buni ko'rib atrofdagilar xavotir ichra: - Abu Ubayda halok bo'libdimi? - deb so'rashdi. - Yo'q, - dedi xalifa, - lekin u o'lim bilan yuzma-yuz turibdi. Amirul mo'minnining gumoni to'g'ri chiqdi – mudhish vabo Abu Ubaydani ham o'z domiga tortdi. O'limi yaqinlashganini sezgan sarkarda qo'shinni to'plab, ularga qarata dedi: - Vasiyatimni tinglang, birodarlar. Aytganlarimni qabul qilsangiz, o'zingizga yaxshi. Namozni doimo ado etib boring, Ramazon ro'zasini tuting, haqdorlarga zakotu sadaqasini bering, haj va umra qiling, bir-biringizni haqqa, yaxshilikka chorlang, rahbarlaringizdan samimiy maslahatingizni ayamang, sizlarni o'tkinchi dunyo aldab qo'ymasin. Chunki inson ming yil umr ko'rsa ham hozir meni changalida tutib turgan

o'likdan qochib qutila olmaydi. Sizlarga Allohning salomi va rahmati bo'lsin. So'ng Muoz ibn Jabalga yuzlandi: - Ey Muoz, odamlarga imom bo'lib, namoz o'qib bering. Namozga buyurishlik Abu Ubaydaning so'ngi so'zlari bo'ldi. Janoza namozidan keyin Muoz to'planganlarga va'z qildi: — Musulmonlar, siz bir birodaringizdan judo bo'ldingiz. Xudo haqqi, men sofdillikda, yomonlikdan yiroq yurishda, oxiratga muhabbatda va musulmonlarga yordam berishda uning oldiga tushadigan kishini ko'rganimni eslay olmayman. Marhumning haqqiga duo qiling, ey Allohning rahmatiga sazovor bo'lgurlar.

Adabiyotlar

1. Абу Убайда ибн Аль-Джаррах
2. Абу 'Убайда — сподвижник Пророка, мир Ему, archived from the original on 2016-04-22, qaraldi: 2017-12-04

TURISTIK MAQSADLAR UCHUN ZAMONAVIY SHAHAR MUHITINI RIVOJLANTIRISH OMILLARI

Tursunov Shavkat Sharibjonovich,
Namangan muhandislik-qurilish instituti katta o`qituvchisi,
Turg`unov Obidjon To`lqinjon o`g`li,
Namangan muhandislik-qurilish instituti talabasi,
Sadriddinov Akramjon Anvarjon o`g`li,
Namangan muhandislik-qurilish instituti talabasi

Shahar muhiti shahar potentsialining muhim tarkibiy elementi bo'lib, u tufayli taraqqiyotning manbai sifatida o'zining tarixiy vazifasini bevosita bajaradi. Turli va ko'p aloqali shahar muhiti inson faoliyatining eng xilma-xil sohalarida yangilarning paydo bo'lishi va rivojlanishiga yordam beradi. Odamlar uchun qulay shahar muhiti bevosita shahar aholisining jismoniy, psixologik va ijtimoiy farovonligini, shaharning uyg'un, ijtimoiy va iqtisodiy farovonligini ta'minlaydi.

Shahar muhiti shahar aholisiga katta va xilma-xil ta'sir ko'rsatadigan tabiiy, tabiiy-antropogen va ijtimoiy-iqtisodiy omillarning ko'p funktsiyali majmuasi sifatida ishlaydi. Zamonaviy inson hayotining shahar hamjamiyati - bu uyning yashash muhiti, uydan tashqaridagi sun'iy muhit - (tashkilotlar, ko'chalar, yo'llar, transport va boshqalar), madaniy landshaftlar muhiti (tematik bog'lar va boshqalar), tabiiy muhit,

shuningdek, ijtimoiy-psixologik va ijtimoiy-iqtisodiy muhit, bularning barchasi yashash muhitining yig'indisidir.

Shahar muhitinining jozibadorligi va qulayligining asosini shaharning "moddiy" asosi bo'lgan rivojlanishining uzoq muddatli tarixiy davrida yaratilgan "karkasli infratuzilma" (uy-joy, muhandislik, transport, ijtimoiy, ekologik, tarixiy va madaniy) tashkil qiladi. Karkasli infratuzilma shaharning barqaror rivojlanishi uchun potentsialni ta'minlaydi va aholi punktining kommunal mulkida bo'lgan ko'plab ob'ektlarni o'z ichiga oladi. Hayot uchun jozibali shaharlar kuchli va yuqori sifatli karkasli infratuzilmaga ega bo'lishi kerak - bu barqarorlik va uzoq muddatli shahar rivojlanishini anglatadi.

Shaharlar rivojlangan ijtimoiy infratuzilmaga, shu jumladan, aholi hayoti va tanlov manfaatlari obyektlari uchun qulay shart-sharoitlarni ta'minlash uchun ijtimoiy ahamiyatga ega ob'ektlarning quyi tizimlariga ega bo'lishi kerak. Shahar xizmat ko'rsatish darajasidagi sog'liqni saqlash, ta'lim, madaniyat, jismoniy tarbiya va sport muassasalari tarmog'i ijtimoiy standartlarga muvofiq ob'ektlar tomonidan shakllantiriladi va aholi tomonidan eng ko'p talab qilinadigan elementlar bilan to'ldiriladi.

Tarixiy va madaniy asosni saqlash shahar atrof-muhitining sifat darajasini belgilaydigan va uning o'ziga xosligini ta'minlaydigan muhim vazifadir. Madaniy meros obyektlarini zamonaviy shaharning iqtisodiy va ijtimoiy sohalariga joriy etish, agar tarixiy qadriyatlarni asrab-avaylash zarur bo‘lsa, shahar taraqqiyotining lokomotivlaridan biriga, uning raqobatbardoshligini oshiradigan omilga aylanadi.

Ekologik karkas tabiiy potentsialni saqlash uchun asos yaratishga yordam beradi, atrof-muhit sifatini ta'minlaydi va "yashil" hududlar, suv havzalari va ochiq maydonlarning butun tizimini o'z ichiga oladi. Agar ushbu olti turdagi karkas infratuzilmasining barchasi yuqori sifatli bo'lsa, shahar nafaqat hayot sifatini yaxshilaydi, balki iqtisodiy jihatdan ham muvaffaqiyatli bo'ladi[1].

Xorijiy tajribani tahlil qilish natijasi barqaror rivojlanishni ta'minlaydigan shahar makonining parametrlarini aniqlashning turli xil yondashuvlarini ko'rsatadi.
Shahar makonining sifatini baholash uchta tasnif blokiga asoslanishi kerak:

1) shaharning "karkas" infratuzilmasining sifati (uy-joy, muhandislik, transport, ijtimoiy, ekologik, tarixiy va madaniy); 2) shahar muhitining sifati:

- umumiy foydalanish zonalari va joylari mavjudligi;
- qulay va insonga yo‘naltirilgan shahar muhiti (obodonlashtirish, koklamzorlashtirish);
- madaniy-tarixiy merosning shahar kundalik hayotiga integratsiyalashuvi;
- xizmat ko'rsatish ob'ektlari va rekreatsion-dam olish ob'ektlar elementlari bilan to'yinganlik;
- shahar va shahar landshaftlarining o‘ziga xos “yuzi”ni saqlash;
- qulay ekologik sharoitlar; 3) aholining barcha ijtimoiy-demografik toifalari (bolalar, nafaqaxo'rlar, nogironlar, yoshlar, ishlaydigan fuqarolar, sayyohlar va boshqalar) uchun yashash xavfsizligi va qulayligi va xizmatlardan foydalanish imkoniyati[2].

Shaharning turistik muhitining shakllanishi mavjud aholi punktlari tizimining tabiati, rejalashtirish va ijtimoiy-demografik sharoitlar bilan bog'liq. Turistik muhit bir nechta tarkibiy qismlarning kombinatsiyasidan iborat:

- tabiiy muhit (bog‘lar, parklar, suv havzalari, o‘rmonlar va boshqalar);
- madaniy-tarixiy muhit (tarixiy-madaniy yodgorliklar, me’moriy ob’ektlar);
- rekratsion muhitlar (tibbiy turizm ob'ektlari: sanatoriylar, pansionatlar, kasalxonalar, sport inshootlari va inshootlari, suzish havzalari va boshqalar);
- xizmat ko'rsatish muhiti (turar joy, ovqatlanish, transport, savdo va boshqalar);
- etnik muhit (etnik-madaniy markazlar, etnik qishloqlar, etnik bog‘lar, hunarmandchilik markazlari va ustaxonalari, xalq amaliy san’ati);
- tadbirlar maydoni (ko‘rgazmalar, festivallar, yarmarkalar, tanlovlar, yubileylar, teatr fasllari)[3].

TurStat tahliliy agentligi MDHning qadimgi tarixiy shaharlari reytingini tuzib chiqdi. Shunday qilib, unda sayyohlik turlari va sayyohlar orasida o‘zining boy tarixiy va madaniy merosi tufayli mashhur bo‘lgan shaharlariga aniqlik kiritildi. Ma'lum bo‘lishicha, MDH davlatlarining sayyohlar orasidagi eng mashhur tarixiy shaharlari, asosan, Markaziy Osiyodagi Buyuk Ipak yo‘li va Kavkazortida joylashgan. Shunday qilib, MDHning tarixiy shaharlari Top-10l igiga Turkiston (Qozog‘iston),

Samarqand(O‘zbekiston), Buxoro(O‘zbekiston), Taroz (Qozog‘iston), Ganja(Ozarboyjon), Vitebsk(Belorussiya), Xiva(O‘zbekiston), Gumri(Armaniston), Xo‘jand(Tojikiston) va Marv(Turkmaniston) shaharlari kiritilgan. Reyting turlar taklifi va mintaqaviy sayyohlik idoralari ma'lumotlarini tahlil qilish asosida tuzib chiqilgan.

Prezidentimizning 2019 yil 5 yanvardagi “O’zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo’shimcha chora-tadbirlar to’g’risida”gi 5611-sonli Farmonida diyorimiz hududlarida turizmning istiqbolli turlari, shu jumladan gastronomik turizm salohiyatini hisobga olgan holda yangi turizm dasturlarini ishlab chiqish vazifasi belgilangan.

2022 yilning birinchi kunida Buyuk Britaniyaning ommabop «The Independent» onlayn-nashri saytida «2022 yilda sayohat qilish uchun eng yaxshi joylar» sarlavhali maqola e’lon qilinganini ma’lum qildi. Nashr 2022 yilda sayohat qilish uchun eng ommabop 10 ta yo’nalishni e’lon qilgan. Ushbu ro’yxatga Normand orollari, SHimoliy Irlandiya, Kanada, Ispaniya, Italiya, Turkiya, Misr, Butan va O’zbekiston kiritildi. Nashrning sayyohlik bo’yicha muharriri Helen Koffi O’zbekiston haqida to’xtalar ekan, Ipak yo’lining madaniy va tarixiy jihatdan qoq markazida joylashgan, boy merosga ega mamlakatga sayohat qilish taassurotlarga boy bo’lishini ta’kidlagan. SHuningdek, O’zbekiston bir necha yil avval Buyuk Britaniya fuqarolariga viza talablarini yengillashtirgani, endi ular mamlakatda vizasiz 30 kungacha bo’lib turishi mumkinligi qayd etilgan. O’zbekistonga safarni rejalashtirayotganlarga joriy yil o’tkazilishi rejalashtirilgan xalqaro festivallar va boshqa yirik madaniy tadbirlarni o’z jadvaliga kiritish maslahat berilgan. Helen Koffi Xivada o’tkaziladigan «Lazgi» xalqaro raqs festivali, Mo’ynoqdagi «Stixiya» musiqa festivali, Qo’qonda uyushtiriladigan xalqaro hunarmandchilik festivali, Samarqandda har ikki yilda bo’lib o’tadigan «SHarq taronalari» xalqaro musiqa festivali, Toshkent va Buxorodagi «Ipak yo’li» adabiy festivali, Qo’qon hunarmandlar xalqaro festivali va Toshkent xalqaro kinofestivalini sanab o’tgan. Bundan tashqari, san’at va me’morchilik ixlosmandlari e’tibori bu yil ochilishi kutilayotgan Islom tsivilizatsiyasi markazi va qayta ta’mirlangan Davlat san’at muzeyiga ham qaratilgan[4].

2022 yil 24-31 may kunlari Namangan shahrida an'anaviy «Gullar festivali»niing 60 yillik yubileyi yuqori darajada tashkil etildi. 60 yillik tarixga ega bu bayram Namanganda ilk bor – "Gul ko'rgazmasi" 1961 yil 19-20 avgust kunlari bo'lib o'tgan. 2022 yil Hukumat farmoyishiga ko'ra, Namangan viloyatida gulchilik an'analarini saqlash, qayta tiklash, sohada ilmiy o'rganish va izlanishlarni amalga oshirish, o'zaro tajriba almashish, gulchilik tarixini, xorijdan keltirilgan gul navlarini yetishtirish tajribasini o'rganish, yosh avlod qalbida gulchilik san'atiga bo'lgan qiziqishni shakllantirish, chet ellik turistlarni keng jalb etish hamda Namangan shahrini gullar markaziga aylantirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirildi. Bundan tashqari festival doirasida Namangan shahrining asosiy ko'chalarida maxsus gullar bilan bezatilgan 150 ta avtotransport vositalaridan iborat «Bayram paradi» o'tkazildi. SHahar markazidagi Zahiriddin Muhammad Bobur nomidagi madaniyat va istirohat bog'i esa hunarmandchilik buyumlari, kitoblar, fotosuratlar, milliy liboslar namoyishiga mezbonlik qildi. Bir so'z bilan aytganda xalqaro «Gullar festivali» butun O'zbekistonni, jumladan, Namanganni dunyoga keng tanitish barobarida sayyohlar oqimini ko'paytirish, turizmni rivojlantirish, mavjud hamkorlik doiralarini kengaytirishga xizmat qiladi.

So'nggi yillarda turizm sohasi mamlakatimizda milliy iqtisodiyotning strategik tarmoqlaridan biriga aylandi. Bu borada sohani jadallik bilan rivojlantirishga qaratilgan 90 dan ortiq normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Namangan viloyatida eko, etno, tog', agro (baliqchilik, mevali bog'lar, yilqichilik), gastronomik, ziyorat, ekstremal, tibbiyot turizm turlarini rivojlantirish imkoniyatlari mavjud. 2022-2026 yillarda Namangan viloyatining Pop tumanida «CHodak», Yangiqo'rg'on tumanida "Nanay», CHust tumanida "G'ova», Kosonsoy tumanida «Olmazor» turizm qishloqlarini tashkil etish yuzasidan ishlar olib boriladi. Namangan shahrida «Gullar sayilgohi» ekoturizm ob'ekti yaratiladi va «Namangan - gullar shahri» brendi yanada ommalashtiriladi va viloyatdan o'tuvchi xalqaro yo'l bo'yida turizm hamda xizmat ko'rsatish ob'ektlari tashkil qilinadi. Bundan tashqari, viloyat hududidan oqib o'tuvchi Sirdaryo va Norin daryosi qirg'oqlarida eko va agro turizm loyihalari amalga oshiriladi va sayyohlar uchun joylashtirish, ovqatlanish, ko'ngilochar xizmatlar tashkil qilinadi.

Shaharning turistik muhiti dinamik bo`lib, tegishli muassasalar va munosabatlar tizimi tomonidan iqtisodiyot asosiga qurilgan. Shahar qanchalik katta bo'lsa, uning turistik muhiti qanchalik keng va ko'p qirrali bo'lsa, uning diversifikatsiya darajasi yuqori bo'lsa, uning turistik funktsiyalarini amalga oshirishda ishtirok etadigan intensive bozor raqobati kuchliroq xo'jalik yurituvchi sub'ektlar soni shunchalik ko'p bo'ladi.

Shuni ta'kidlash kerakki, shahar muhiti antropogen, tabiiy va tabiiy-antropogen elementlar majmuasidir. Shahar muhiti bir-biri bilan uzluksiz va doimiy o'zaro ta'sirda bo'lgan turli komplekslarning butun tizimidir. Shaharning kuchayishi va rivojlanishi jarayoni, ya'ni urbanizatsiya sekinlashadi, lekin hali ham davom etmoqda, qishloq aholisining soni qisqaradi va shahar aholisining o'sishi ortadi. Shu munosabat bilan shahar muhitida va unga yaqin hududlarda dam olish va dam olishni rejalashtirish va tashkil etish zarurati tug'iladi. Dam olish va hordiq chiqarishni tashkil etish dunyodagi har bir inson hayotining ajralmas elementi bo'lgan turizm sohasi bilan shug'ullanadi.

Adabiyotlar

1. Баталина Т. С. Анализ особенностей формирования общественного пространства // Бизнес и дизайн ревю. 2017. Т. 1. № 1(5). С. 11.
2. Булатова Е. К., Ульчицкий О. А. Подход устойчивого развития в истории формирования туристско-рекреационной среды // Научно-методический электронный журнал «Концепт». – 2017. – Т. 31. – С. 451–455.
3. Сарян А. А., Пустовойтенко С. И. Организационно-методические основы построения системы управления региональными туристско- рекреационными комплексами // Современная научная мысль. 2015. № 3. С. 86-93.
4. https://www.inform.kz/oz/zbekiston-2022-yilda-sae-at-kilish-uchun-eng-yahshi-y-nalishlardan-biri-deb-topildi_a3881282.

TURIZM TARAQQIYOT KALITI: BUXORONING DIQQATGA SAZOVOR JOYLARI VA MUZEYLARI TARIXI

Djurayev Mansur Egamberdiyevich, *GulDU o'qituvchisi,*
Husenov Jahongir Qo'shmurod o'g'li, *GulDU talabasi*

Bugungi kunda turizm eng tez rivojlanayotgan tarmoqlardan biri bo‘lib, XXI asrning eng daromadli sohasiga aylanib bormoqda. Bugunda joxon bo‘yicha turizm sohasi avtomobilsozlik va neftni qayta ishlash sohasidan keyingi o‘rinnni egallaydi. Shu boisdan O‘zbekistonda ham turizmni rivojlantirish uchun alohida e’tibor qaratilmoqda va turizmdan tushadigan yillik daromad mutaxasislar fikricha 1,5 milliard AQSH dollarini tashkil qiladi.

Davlatimiz rahbari Shavkat Mirziyoyev o‘zining Oliy Majlisga murojaatnomasida “Hozirgi kunda milliy iqtisodiyotga yuqori daromad keltiradigan istiqbolli tarmoqlardan biri – bu turizmdir. O‘zbekiston turizm sohasida ulkan salohiyatga ega bo‘lgan davlat hisoblanadi. Yurtimizda 7 ming 300 dan ortiq madaniy meros obyektlari mavjud va ularning aksariyati YuNESKO ro‘yxatiga kiritilgan”,– deb takidlagan edi. O‘zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirishga qaratilgan qator qonun va loyihalar ishlab chiqilgan. Jumladan, 2019-yil 5-yanvarda 2019–2025-yillarda O‘zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish Konsepsiyasi, hamda 2019-yil 18-iyul kuni “Turizm to‘g‘risida”gi qonunning yangi tahrirda qabul qilindi.

O‘zbekiston tarixiy madaniy obidalarga boy bo‘lgan mamlakat hisoblanadi. 7200 dan ortiq madaniy yodgorliklardan 200 ga yaqini YUNESKO ro‘yxatiga kiritilgan. Albatta tarixiy shahar bilan bir qatorda zamonaviy shaharlarning bunyod etilishi turistlarning qamrovini kengaytiradi. Anashunday tarixiy va zamonaviy infratuzilma sharoiti shakllangan shaharlarimizdan biri bu Buxorodir.

Markaziy Osiyoda joylashgan O‘zbekiston, maftunkor sayyohlik maskani hisoblanadi. Toshkent va Samarqanddan tashqari, Buxoro mamlakatimizning eng muhim shaharlaridan biridir. Buxoroda tarixiy islom arxitekturasi yaxshi saqlangan va Eski shahar YUNESKO ning Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan. Eski shahar, Labi-Xovuz, Ko‘kaldosh madrasasi, Xo‘ja Nasriddin haykali, Somoniylar maqbarasi, Ark qal’asi, Imom-Begi madrasasi, Poi-Kalon ansambli, Bolo Hovuz masjidi, Miri-Arab madrasasi, Chor-Minor, Toki-Sarrafon bozori, Toki-Zargaron bozori, Ulug‘bek madrasasi, Abdullazizxon madrasasi, Qo‘g‘irchoqlar muzeyi, Nugay karvonsaroyi, Fayzul Xo‘jaev uy-muzeyi, Xoja-Zaynutdin majmuasi, Moxi-Xosa saroyi, Bahoutdin

Naqshbandiy majmuasi shular jumlasidandir. Ulardan ba’zilariga to‘xtaladigan bo‘lsak:

Labi-Hovuz maydoni. Labi-Hovuz "hovuz yoni" degan ma’noni anglatadi. Hovuz maydonida uchta muhim bino mavjud bo‘lib, ular Labi-Hovuz ansambli deb ataladi. Birinchisi, Ko‘kaldosh madrasasi bo‘lib, unda diniy maktab o‘quvchilari uchun 160 xona mavjud. Ikkinchi bino “Chanaka” bo‘lib, ziyoratchilar uchun joy ma’nosini bildiradi. Uchinchisi, mahalliy rivoyatlardagi afsonaviy qushlar tasvirlangan noodatiy bezakli juda o‘ziga xos bino – Nodir Devon-Begi madrasasi. Shunday qilib, bir paytlar suv havzasi vazifasini o‘tagan sun’iy yo‘l bilan yaratilgan ko‘lmak, uning atrofidagi madrasa va Nasriddin haykali maydonning markazi va dam olish uchun qulay joy hisoblanadi. Ko‘kaldosh madrasasi Buxoroning diqqatga sazovor joylari yani-Hovuz maydonida joylashgan. Ko‘kaldosh madrasasi butun O‘rta Osiyodagi eng yirik madrasalardan biri bo‘lib, o‘z vaqtida butun mintaqadagi eng yirik Islom maktabidir. Bu islom maktabi 1569 yilda qurilgan va Labi-Hovuz maydonidagi eng qadimgi bino hisoblanadi. Bu yerda siz O‘zbeklarning urf-odatlari haqida tasavvurga ega bo‘lishingiz mumkin.

Devon-Begi madrasasi. Buxoroning diqqatga sazovor joylaridan yani biri-Hovuz maydonidagi navbatdagi diniy diqqatga sazovor joydir. Dastlabki rejaga ko‘ra, Nodir Divon-Begi madrasasi o‘rniga Buxoroda karvonsaroy, ya’ni o‘ziga xos “mehmonxona” qurilishi kerak edi. Biroq hukmdor imomning buyrug‘i bilan karvonsaroy o‘z-o‘zidan madrasaga aylantirilgan. Madrasa devorlariga chizilgan rasm diqqatga sazovordir. Madrasaga kirish eshigi tepasida afsonaviy olov qushlari va quyosh tasvirlangan. Ko‘p o‘tmay, madrasa oldiga Xo‘ja Nasriddin haykali o‘rnatildi. Bu mahalliy afsonalarda uchraydigan yarim afsonaviy shaxs. Italiyadan tortib Hindistongacha Nasriddin o‘zining hazillari bilan mashhur. 1979-yilda qurilgan bronza haykalda Nasriddin an’anaviy libosda eshak minib o‘tirgani tasvirlangan. Haykal “Devon-Begi” masjidi oldida joylashgan.

Somoniylar maqbarasi. O‘rta Osiyoda me’moriy va madaniy qadriyat jihatidan noyob bo‘lgan Somoniylar maqbarasi X asrda qurilgan. Maqbara XII asrda loy va qum bilan qoplangan va yaqin atrofdagi boshqa binolardan ajralib turmagani uchun

saqlanib qolgan, deb ishoniladi. Boshqalar esa bu joy qadimdan muqaddas joy hisoblanib, mahalliy aholi maqbarani himoya qilish maqsadida uni ataylab qum bilan qoplagan, deb hisoblashadi. Biroq maqbara 1930-yillarda juda yaxshi holatda qazilgan.

Ark-qal’asi

Ark-qal’asi. Somoniylar davrida ark qal’asida dunyoning turli burchaklaridan nodir kitoblar saqlanadigan katta kutubxona bo‘lgan. Xonlik davrida Amir Olimxonning qarorgohi bo‘lgan. Qal’a bir necha marta vayron qilingan va bugungi kunda faqat kichik bir qismi tiklangan. Qal’a Buxoroning mashhur diqqatga sazovor joyi bo‘lib, u yerda hukmronlik qilgan turli sulolalarga bag‘ishlangan eksponatlar bilan shahar va mamlakat tarixiga oid turli muzeylar joylashgan.

Chor-minor. „Chor mino‘‘ Buxoroning shimoli-sharqida joylashgan. Buxoro me’morlarining me’moriy asarlaridan farqli o‘laroq, g‘ayrioddiy me’morlikka ega bino. Uning minorali kichik, bosh binosi masjid bo‘lib, to‘rtta 17 mertlik o‘xshash minoralardan iborat. Minoralar to‘rt burchakda joylashgan bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos bezaklarga ega. Mutaxassislarning fikricha, minoralar dizayni to‘rtta jahon dinlari – islom, nasroniylik, buddizm va iudaizmning diniy-falsafiy idrokini aks ettiradi.

Poi-Kalon ansambli. Uchta bino - minora, masjid va madrasa Buxorodagi muhtasham Poi-Kalon ansamblini tashkil etadi. Poi-Kalon ansamblida mamlakatdagi eng baland Minorai Kalon bo‘lib, balandligi 48 metrni tashkil qiladi. U 1127 yilda turk qoraxoniylar sulolasi tomonidan qurilgan va tuzilishga o‘ziga xos chiziqlarni beradigan terakota g‘ishtlari bilan bezatilgan. Minorayi Kalon 1220 yilda mo‘g‘ul qo‘shinlarining hujumi natijasida vayron qilingan. Afsonaga ko‘ra, Poy-Kalon ansamblining minorasini Chingizxonning o‘zi saqlab qolgan. U qattiq shikastlangan masjiddan chiqib, minora tepasiga qaraydi va bosh kiyimi yerga tushadi. U bosh kiyimini olish uchun egilib, uni ta’zim qilishga majbur qilgan dunyodagi birinchi narsa ekanligini payqaydi. Bu voqeadan keyin u minorani qayta tiklashni buyuradi. Shu jumladan Muzeylar Buxoroning ko‘zgusidir.

1-Abu Ali Ibn Sino memorial muzeyi (Peshko‘ tumani).

Muzeyning ochilishi Sharqning buyuk olim-entsiklopedisti tavalludining 1000 yilligi munosabati bilan o‘z ona yurtida, Buxorodan 40 km uzoqlikda joylashgan Afshona qishlog‘ida o‘tkazildi. Majmuaning markaziy maydonida mashhur olim haykali qad rostlagan. Zamonaviy muzeyning keng zallarida olim davri va o‘rta asrlar Buxoro tarixi, iqtisodiyot, madaniyat, fan, san’atning gullab-yashnagan davriga oid 400 dan ortiq moddiy va ma’naviy madaniyat eksponatlari joy olgan. Muzey ekspozitsiyasida 1523 yildagi "Tib qonunlari" ning lotin tiliga tarjimasi, derazalarda olim davri (X asr) tibbiy asboblari nusxalari aks ettirilgan. Muzeyning X-XI asrlarga oid arxeologik kolleksiyasi alohida qiziqish uyg‘otadi, ular orasida yupqa devorli sopol buyumlar, tibbiyot va jarrohlik idishlari, suyakdan yasalgan shaxmat figuralari mavjud.

2- Fayzulla Xo‘jaev nomidagi uy-muzeyi.

Bu mezuy aslida qadimda yashash uchun mo‘ljallangan uy bo‘lib, egasi boy savdogar, dunyoning ko‘plab mamlakatlariga qorako‘l va paxta yetkazib beruvchi Ubaydullo Xo‘ja Qosim Xo‘jaev edi. 1920-yilda Buxoroning so‘nggi amiri hokimiyati ag‘darilgach, savdogarning vorisi, inqilobchi Buxoroning taniqli siyosiy arbobi Fayzullo Xo‘jayev uyga egalik qilish huquqini davlatga o‘tkazdi. XX asrda uning hududida shaharning davlat va ta’lim muassasalari, san’at ustaxonalari joylashgan. Bugungi kunda hashamatli savdo xonalarida mahalliy va Yevropa ishlab chiqarilgan mebel, shisha idishlar, kulolchilik va chinni buyumlar, milliy musiqa asboblari, Buxoroliklarning milliy kiyimlari, XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlariga oid Buxoro gilamlari va badiiy kashtachilik namunalarini ko‘rish mumkin. Muzeyda siz etnografik dastur bilan tanishasiz, Buxoroda hozirgacha saqlanib qolgan qadimiy va noyob marosimlar – “Gavorabandon” va “Sallabandon”mishtirokchisi bo‘lishingiz mumkin.

3-„Paykent qadim tarixi” muzeyi.

Muzey Qorako‘l tumanida Buxorodan 60 km janubi-g‘arbda joylashgan qadimiy savdo shahri Paykent xarobalari yaqinida joylashgan. Shahar-qal’a eramizdan avvalgi III-II asrlarda Hindiston, Eron, Xitoy, Yaqin Sharq, G‘arbiy va Sharqiy Yevropa mamlakatlari bilan bo‘lgan voha bo‘lgan Buyuk Ipak yo‘li yo‘nalishida barpo etilgan.

XI-asrga kelib, daryo o‘zanlarining o‘zgarishi bilan bog‘liq bo‘lgan global tabiiy jarayonlar natijasida shahar suvsiz qolgan va aholisi uni tashlab ketgan. O‘zbekiston, Fransiya (Luvr) va Rossiya (Davlat Ermitaj muzeyi) arxeologlari qadimiy manzilgohda olib borilgan ko‘p yillik tadqiqotlar davomida 15000 mingdan ortiq ashyolarni aniqladilar. Muzey zallarida siz quyidagilarni ko‘rasiz: devor bezaklari (VII-VIII-asrlar), me’moriy frizlar (VII-X-asrlar), kumush tangalar, I-II asrlarga oid kumush tetradraxmalar, zargarlik buyumlari, noyob o‘rta asr kulollari, qadimgi jangchilarning qurollari va boshqalar.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining «O‘zbekiston Respublikasi sayyohlik sohasini rivojlantirishni tezlashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi farmoni. – T:.2.12.2016y.

2. Боголюбов В.С. Экономика туризма: Учебное пособие. - М.: Академия, 2005. - 192 с

3. Tuxliev I.S., Qudratov G‘.H., Pardaev M.K. Turizmni rejalashtirish.T.: — Iqtisod-moliya 2010 y.

4. Fayzieva Sh.R. O‘zbekistonda turizm rivojlanishining iqtisodiy mexanizmini takomi llashtirish. Nomzodlik dissertasiyasi. – T.: O‘zMU, 2006 y

www.interunion.ru

www.e-tours.ru

www.ziyonet.uz

ТАБИАТ ТУРИЗМИНИНГ ЭСТЕТИК ВА ИЖТИМОИЙ АҲАМИЯТИ

Ниёзов Собиржон, *ҚарДУ ўқитувчиси*

Соғлом ёшлар кучли жамият гаровидир, шунинг учун ёшлар ўртасида соғлом турмуш тарзини шакллантириш ҳукуматнинг энг муҳим вазифаларидан биридир. Ўзбекистонда ёшларга оид давлат сиёсати асосларига кўра, сўнгги йилларда ёшлар ўртасида соғлом турмуш тарзини сақлашга интилиш кучайиб

бормоқда. Ушбу устувор мақсадлар орасида қуйидагиларни алоҳида ажратиб кўрсатиб ўтиш мумкин:

•ёшлар туризмининг инфратузилмасини ривожлантириш ва унинг имкониятларини ошириш;

•соғлом турмуш тарзи қадриятларини шакллантириш, ёшларнинг жисмоний ривожланиши учун шароит яратиш, экологик маданиятни шакллантириш, шунингдек, ёшларнинг ҳаёти хавфсизлиги маданияти даражасини ошириш.

Шу сабабли талабалар ўртасида экологик туризмни ривожлантириш муаммоси долзарб бўлиб қолмоқда. Экологик туризм маҳаллий аҳолининг анъанавий турмуш тарзини сақлаб қолган ҳолда табиий муҳитга зиён етказмасдан, дам олиш учун жозибали жойларга чиқишга мўлжалланган саёҳатдир.

Туризмнинг ушбу тури соғлом турмуш тарзини шакллантиришга ҳисса қўшади. Албатта бу унга талаба ёшларни жалб қилиш учун жуда муҳимдир. Глобал ахборотлаштиришнинг тез суръатларда ўсиши ва ўқув жараёнида ортиқча юкламаларнинг кўпайиши, кўпинча чекиш ва спиртли ичимликларни истеъмол қилиш каби ёмон одатлар кўпайиб, талаба ёшларни жисмонан заифлаштиради.

Экологик туризм ўзининг қадриятлар тизимини ўзгартириш орқали кишиларнинг ижтимоий хатти-ҳаракатлари моделини ўзгартиришга қодир. Ушбу турдаги туризм оммабоплигининг сири нафақат дам олиш ва қулай шароитда эришиладиган даволовчи эффект билан, балки сайёҳнинг ҳеч ким билан рақобатлашишга ҳожат йўқлигидир. Бу ўринда сайёҳнинг асосий “рақиби” ўзи ва унинг Экологик туризм томонидан шаклланган комплекслари. Экологик тоза табиий ҳудудларга сайёҳлик сафари жараёнида нафақат танани жисмоний, балки маънавий тикланиш ҳам содир бўлади. Табиат гўзаллигини тафаккур қилиш, цивилизация "афзалликлари" бўлмаган шароитларда атрофдан эстетик завқ олиш билан боғлиқлигини таъкидлаб ўтиш жоиз.

Табиатни утилитар объект сифатида эмас, балки эстетик объект сифатида қабул қилиш, сайёҳлар орасида экологик онгни инсоннинг атроф-муҳит билан уйғун яшашига йўналтирилган қадриятлар тизими сифатида шаклланишига олиб келади. Экологик туризм фаолият билан машғулшахс табиатга мутлақо бошқача муносабатда бўлади. У атроф-муҳитни ифлослантирмай, аксинча, табиий муҳитнинг софлигини сақлашда фаол иштирок этади.

Ушбу турдаги туризмни чуқурроқ англаш учун Халқаро экотуризм ташкилоти сайёҳлар учун ўзининг 10 та тамойилини ишлаб чиққанлигини эслаш ўринлидир:

1. ернинг техноген жараёнларга ўта таъсирчанлигини унутмаслик;
2. фақат фотосуратларни олиб кетиш мумкин холос;
3. олам, халқлар маданияти, география билан танишиш;
4. маҳаллий аҳолини ҳурмат қилиш;
5. атроф-муҳитга хавф соладиган маҳсулотларни сотиб олмаслик;
6. ҳар доим мавжуд суқмоқлардан фойдаланиш;
7. атроф-муҳитни муҳофаза қилиш дастурларини қўллаб-қувватлаш;
8. атроф-муҳитни сақлаш воситаларидан фойдаланиш;
9. атроф-муҳитни муҳофаза қилишни тарғиб қилувчи ташкилотларни қўллаб-қувватлаш;
10. экотуризм тамойилларини қўллаб-қувватловчи компаниялар билан саёҳат қилиш[1].

Шубҳасиз, экологик туризмнинг аҳамияти унинг инсон экологиясига қаратилганлигидадир. Саёҳат туфайли кишилар нафақат янги қизиқарли жойларни кашф этиш, табиий шароитда бўлишдан маънавий завқ олиш, балки ўз таналарига ғамхўрлик қилиш муҳимлигини англай бошлайдилар.

Экологик туризм турларига қараб сайёҳларнинг жисмоний фаоллигига қараб фарқланиб туради. Миллий боғлар ва қўриқхоналарга ўқув ёки илмий мақсадларда ташриф буюриш кучли жисмоний тайёргарликни талаб қилмаслиги маълум. Саргузашт туризми эсаэкологик туризмнинг бир тури бўлиб, бу сув ва

қоя каби саёҳатларини ўз ичига олади. Бунинг учун махсус жисмоний тайёргарлик, маҳорат ва мукаммал соғлик талаб этилади.

Бундан келиб чиқиб айтиш мумкинки, саёҳатларда кишилар жисмонан ва руҳан иродали ҳамда жамоада ишлаш кўникмаларни ортирадилар.Айниқса, бундай сайёҳатларда шахснинг ўз хатти-ҳаракати учун масъуллик, жамоа аъзолари ва табиий муҳит учун жавобгарлик туйғусини ривожлантириши катта аҳамиятга эгадир.Ишонч билан айтишимиз мумкинки, экологик туризм баркамол шахсни шакллантиришга ҳисса қўшади.

"Табиат туризми - бу жаҳон иқтисодиётининг енг тез ривожланаётган соҳаларидан бири бўлиб, дунёда табиат туризмининг ўсиши мутахассисларнинг фикрига кўра, йилига 20-30% ни ташкил этади. 2020 йилги пандемия олдидан соҳа кунига 1 миллиард долларгача даромад келтирди ҳамда дунёдаги барча сайёҳларнинг учдан бир қисми айни табиат ихлосмандларига тўғри келади"[2].

Экотуристик маршрутларнинг маркетинг стратегияси ишлаб чиқилиши ва ривожланишида, Марказ экологик ресурсларнинг яхлит сақланиши мажбурийлиги ва бу ортиқча кучланишларга йўл қўйилмаслигини назорат қилади. Ушбу аспектда ўз фаолиятини амалга оширишда Ўзбекистон Республикасининг табиатни асраш қонунчилиги, шунингдек, атроф-муҳит ва мустаҳкам ривожланиш соҳасида халқаро келишувларда қабул қилинган нормалар Марказнинг ўз мақсадига етишишида амалий ёрдам беради.

Ўзбекистон Республикасида экотуризмнинг ривожланиши билан боғлиқ бўлган кўпгина муаммолар мавжудлигини ҳам инкор этиб бўлмайди. Жумладан, маҳаллий аҳолини экотуристик фаолиятга жалб қилиш, малакали мутахассисларнинг етишмаслиги, кўпгина мамлакатлардаги потенциал сайёҳларнинг Марказий Осиё минтақасининг экотуристик ноёб табиий-ландшафт имкониятларидан бехабарлигидир.

Минтақанинг экотуристик имкониятлари тўғрисида хорижий жамоатчиликни хабардор қилиш мақсадида чет эллик туристик марказлар, турфирмалар билан маслаҳат учрашувлари олиб борилмоқда. Бу ишда хорижий давлатлардаги Ўзбекистон элчихонаси ва «Экосан» фондининг чет элдаги

бўлимлари иш олиб боришяпти. Марказ томонидан табиий, ижтимоий ва иқтисодий аспектларда лойиҳанинг амалга оширилиши тўхтовсиз равишда кузатилмоқда, уларнинг ўзаро алоқаси экотуризмнинг мустаҳкамлиги кўрсаткичидир.

Экотуристик фаолиятнинг натижаларини ҳисобга олиб, таъкидлаш мумкинки, Ўзбекистонда туризмнинг мустаҳкам ривожланишида экотуризм муҳим фактор бўлиб ҳисобланади. Экотуризм табиатни асраш зарурлиги, ўрмонларни кесишни қисқартириш, бузилган табиий экотизимларни тиклашда қатнашиш борасида маҳаллий аҳоли онгида бурилиш ясайди. Экотуризмнинг ўтказаётган тадбирлари аҳолининг экологик маълумотларини сезиларли даражада кенгайтиришга ёрдам бераяпти ва минтақа аҳолисининг ижтимоий-иқтисодий ҳолатини яхшилашга олиб келади.

Экологик туризмни тушунишга кенг ёндошган ҳолда айтиш мумкунки, сайёҳлар ташриф буюриши ва томоша қилишининг асосий объектлари алоҳида муҳофаза қилинадиган ҳудудлардир. Шунингдек, қуйидагиларни экотуризм объектлари сифатида олиб қарашимиз мумкин: 1) машҳур ва ажойиб биологик турлар, (кўпинча ҳайвонот дунёси вакиллари); 2) жонсиз табиатнинг ноёб объектлари - геоморфологик, геологик, гидрологик ва бошқа ландшафт елементлари (тоғ чўққилари, канёнлар, ғорлар, кўллар, булоқлар, қоя тошлар ва бошқалар); 3) палеонтологик топилмалар, тошлар ва минералларнинг намуналарини тўплаш мумкин бўлган жойлар (карьерлар); 4) экзотик ўсимликлар; 5) маданий, этнографик, археологик, тарихий диққатга сазовор жойлар.

Екотуризмнинг естетик ва ижтимоий аҳамиятини таҳлил қилиб қуйидаги таснифини тузишга ҳаракат қилдик.

Тадқиқотлардан маълумки, экологик туризмни когнитив, илмий ва рекреацион туризмга ажратиш одатий ҳисобланади.

Когнитив экологик туризм - бу экологик саёҳатнинг энг кенг тарқалган, классик кўринишидир. Бундай саёҳатларнинг мотивлари ҳар қандай ўқимишли одамнинг табиий эҳтиёжлари: қизиқиш, ўз дунёқарашини кенгайтириш ва

янгиликка интилиш истаги. Экологик саёҳатларда когнитив мақсадлар конкрет объектни ўрганишга, унинг намуналари ва ҳолатини аниқлашга қаратилган бўлади.

Экотуризмнинг когнитив мақсадлари хилма-хил бўлиб, таълим, экологик тарбия, ҳайвон ҳамда ўсимликлар, гўзал ландшафтларни суратга олиш, гербарийлар, минераллар коллекцияларини яратиш кабиларни ўз ичига олади. Улар дам олиш фаолиятининг ўзига хос шакллари орқали амалга оширилиши мумкин.

Илмий экологик туризм умумий саёҳлик оқимининг кичик қисмини ташкил қилади. когнитив ва илмий саёҳат мақсадларини фарқлаш кўпинча қийин. Илмий саёҳатлар таркибига олимларнинг експедициялари, талабаларнинг ёзги дала амалиётлари, ташриф буюрган минтақа ҳақидаги илмий, шу жумладан атроф-муҳит ҳақидаги маълумотларни йиғиш киради. Кам ўрганилган объектларга бундай екскурсиялар пайтида олинган маълумотлар илм-фаннинг ўзи, туризм ва атроф-муҳитни муҳофаза қилиш учун фойдали бўлишишини алоҳида таъкидлаб ўтиш жоиздир.

Фаол экологик саёҳатлар жисмоний фаолликнинг ошириб, тунаш ва овқат тайёрлаш учун махсус турар жой базаларидан фойдаланмаслик билан тавсифланади. Фаол саёҳат иштирокчилари қуйидаги мақсадларни кўзлайдилар: қийин маршрутлар орқали танани чиниқтириш, қийинчиликларни енгишда иродани тоблаш. Спорт туризмининг аксарият турларини фаол экологик саёҳатлар деб таснифлаш мумкин: пиёда юриш, отда юриш, чанғи, велосипед, спелеотуризм ва алпинизм кабилар. Бундай саёҳатларни экологик деб таснифлашнинг муҳим мезонларидан бири шундаки, улар амалга оширилганда табиат учун хавфли бўлган воситалардан фойдаланилмайди ва иштирокчилар умумэътироф етилган экологик қоидаларига риоя қилишади.

Хулоса қиладиган бўлсак: 1) экологик тоза табиий ҳудудларга сайёҳлик сафари жараёнида нафақат жисмоний, балки руҳий-маънавий тикланиш ҳам содир бўлади. Табиат гўзаллигини тафаккур қилиш цивилизация қулайликлари бўлмаган шароитларда атрофдан эстетик завқ олиш билан боғлиқ бўлади; 2)

минтақанинг экотуристик имкониятлари тўғрисида хорижий жамоатчиликни хабардор қилиш мақсадида чет эллик туристик марказлар, турфирмалар билан маслаҳат учрашувлари олиб бориш устувор вазифа бўлиб қолмоқда; 3) когнитив экологик туризм - бу экологик саёҳатнинг энг кенг тарқалган, классик кўринишидир бўлиб, бундай саёҳатларнинг мотивлари ҳар қандай ўқимишли одамнинг табиий эҳтиёжлари: қизиқиш, ўз дунёқарашини кенгайтириш ва янгиликка интилиш истаги билан изоҳланади; 4) Рекриацияни инсоннинг жисмоний, интеллектуал ва ҳиссий кучларини турли хил дам олиш ва бўш вақт ўтказиш орқали қайта тиклаш жараёни сифатида тушуниш лозим.

Адабиётлар

1. Бабкин А.В. Специальные виды туризма. Ростов-н/Д, 2008. 252 с.
2. Не Йеллоустоун: почему в России не развивается экотуризм // Газета.Ru, 1

ЎЗБЕКИСТОННИНГ ОСИЁ ДАВЛАТЛАРИ БИЛАН ХАЛҚАРО МАДАНИЙ АЛОҚАЛАРИ РИВОЖИДА ТУРИЗМНИНГ ЎРНИ (1950 – 1991 ЙИЛЛАР)

Ахмедов Сарвар, *ҚарДУ магистранти*

Мамлакатларнинг ижтимоий-сиёсий, иқтисодий ва маданий ривожланиши мамлакатда туризм соҳасига бўлган эътибор билан белгиланади. Шу сабабли, жаҳондаги мамлакатлар ўз имкониятларидан келиб чиқиб туризмни ривожлантириш орқали келадиган даромад ҳисобига мамлакатнинг иқтисодий барқарорлигини таъминлаганлар. Лекин туризм соҳаси моҳияти жиҳатидан биргина даромад манбаи бўлиб қолмай, балки у цивилизациялараро уйғунликнинг ривожланишида ҳам сезиларли даражадаги муҳим аҳамият касб этади. Шунингдек, мамлакатнинг халқаро туризмга жалб этилиши саноат, маданият, транспорт ва бошқа коммуникация соҳаларининг ривожланиши ва ишлаб чиқаришнинг такомиллашувига бевосита таъсир кўрсатади. Шу сабабли бугунги кунда туризмни ривожлантиришдан манфаатдор бўлмаган давлатни топиб

бўлмайди.

1952 йилнинг июлида Марказий Комитет томонидан Ўзбекистон ССРда халқаро туризм тўғрисидаги махсус кўрсатмаси қабул қилиниши, халқаро туризм соҳасида янги тадбирларни бошлаб берди. Бунинг натижасида шу йилда Ўзбекистонга хорижий ташриф буюрувчиларнинг сони 2000 тадан 5000 тага кўпайди [1].

Ўзбекистон эса, собиқ Иттифоқ таркибидаги тарихий жойлари, тарихий обидалари жаҳон мамлакатларининг диққатга сазовор нуқтасн сифатида халқаро туризмнинг ривожланиш манбаларидан бирига айлантирилди. XX асрнинг 50-йиллари собиқ Иттифоқ тарихида халқ хўжалигининг урушдан кейинги тикланиш йиллари сифатида ҳарактерланади. Ўзбекистон ўзининг тарихий шароити, бой тарихий-меъморий обидалари, азалий анъаналари ва қадимий урф-одатларининг деярли сақланиб қолаётгани жиҳатидан Совет Иттифоқининг халқаро туризм тизимидаги ҳудудларидан бири ҳисобланган. Архив ҳужжатларида қайд этилишича, чет элликларнинг Ўзбекистонга ташрифи мазмун ва моҳиятига кўра қуйидаги йўналишларда: дипломатик мақсадлар бўйича, сайёҳлик туризми йўналиши бўйича ва бошқа халқаро сиёсий-ижтимоий ва маданий алоқалар бўйича тасниф этилади.

Осиё мамлакатлари билан туризм соҳасидаги халқаро маданий алоқаларни йўлга қўйиш, қолаверса Осиё мамлакатлари билан амалга оширилган халқаро маданий алоқалардаги азалий анъаналар, урф-одатларнинг нисбатан муштараклик хусусиятлари туризмни ривожлантириш учун қулай омил саналган.

Ўзбекистоннинг Осиё мамлакатлари билан туризм соҳасида амалга оширган халқаро маданий алоқалари амалиётини шартли равишда қуйидаги уч асосий босқичга ажратиб таҳлил этиш мақсадга мувофиқдир:

Биринчи босқич - Ўзбекистоннинг Осиё мамлакатлари билан туризм фаолиятининг шаклланиш даври (1950-1960 йиллар).

Иккинчи босқич - Ўзбекистоннинг Осиё мамлакатлари билан туризм фаолиятининг ўсиш даври (1960-1980 йиллар).

Учинчи босқич - Ўзбекистоннинг Осиёда мамлакатлар билан туризм фаолиятининг кенг қамровли ривожланиш даври (1980-1990 йиллар)

XX асрнинг 50 йилларида ўз фаолиятини бошлаган “Чет мамлакатлар билан маданий алоқа қилиш жамиятининг - Ўзбекистон бўлими айнан сайёҳлик туризми соҳасидаги маълумотларга кўра, 1956 йилда 54 та хорижий мамлакатдан 1113 нафар чет элликлар ташриф буюрган. Чет мамлакатлар билан маданий алоқа қилиш Ўзбекистон жамияти раиси ўринбосари Б.Саидовнинг ҳисоботига кўра, 1957 йилда чет эллик туристлар ташрифининг асосий салмоғи Осиё минтақасидан келган сайёҳлар ҳиссасига тўғри келган. Чунончи, 1956 йилда 150 нафар сайёҳларнинг 60 нафардан ортиғи Осиё мамлакатларидан ташриф буюрган туристлар бўлса, бу кўрсаткич 1957 йилда 100 нафардан ортиб кетганини кузатиш мумкин [3].

1957 йилда эса, бу кўрсаткич 51 та мамлакатдан ташриф буюрган 2041 нафар чет элликлардан, шундан 32 нафарини Осиёдаги мамлакатларидан ташриф буюрган сайёҳлар ташкил этган. Бу йилларда, асосан, туристик мақсадлар бўйича 279 нафар сайёҳлар ташриф буюрган. Шундан атига 31 нафаригина Осиё мамлакатларидан ташриф буюрган сайёҳлардир [4].

Ўзбекистонга ташриф буюрган сайёҳларнинг умумий сонидан атига 11 фоизигина Осиё мамлакатларидан ташриф буюрган сайёҳлар ташкил этган. Юқорида келтирилган рақамлар таҳлилига кўра, XX асрнинг 50-60 йилларда Осиёдаги давлатларда туризм соҳасида айрим камчиликлар мавжудлиги кўзга ташланади. Шунингдек, айнан шу йилларда йўлга қўйилган халқаро маданий алоқалар энди шаклланаётгани, аммо асосий ташриф савдо-иқтисодий, ижтимоий-сиёсий, илмий ҳамкорлик ўрнатилгани кузатилади. Бунинг сабаби, мавжуд даврдаги ҳукмрон мафкура бошқараётган сиёсий тузум фаолияти деб баҳолаш мумкин.

Мазкур жараёнда хорижий давлатлар билан маданий алоқаларнинг кенгайишини назорат қилиш мақсадида КПСС комитетининг 1964 йил 16 июндаги кўрсатмасига биноан, икки томонлама алоқаларда фан, маданият ходимлари, партия хизматчиларидан тузилган делегациялар ташрифи,

газета, радио, телевидения ходимларидан тузилган гуруҳларнинг ташрифи уюштирилиши белгиланди.

1960 йил 20 июлда Бутуниттифоқ касаба уюшмалари марказий кенгаши, “Туризмни янада ривожлантириш тўғрисида” қарор қабул қилиниб унда туризм бўйича республика, ўлка, област кенгашларини ташкил этиш кераклиги кўрсатиб ўтилган. Бу ташкилот кейинчалик “Туризм ва экскурсия бўйича Кенгаш” деб номланган. Бу кенгашлар мамлакатда туризм ва экскурсияни ривожлантирувчи ва раҳбарликни амалга оширувчи органга айланди. 60-70 йилларда Ўзбекистонда экскурсия бюроси тузилди, палаткали турбазалар Чимёнда, Шоҳимардонда, Ширмонбулоқ, (Андижон вилояти), Пачча ота дарёси қирғоғида (Наманган вилояти) ҳушманзара жойлар ташкил этилди [5].

XX асрнинг 50-йиллар охири 60-йиллар бошида халқаро туристик ҳаракатнинг ривожланиши муносабати билан Ўзбекистонда қизиқиш ортди. Нфтижасида республиканинг халқаро туристик алоқалари ривожлана бошланди. Тошкентда Бутун иттифоқ акционерлик жамиятининг “Интурист” меҳмонхонаси 100 нафар чет эллик меҳмонларни қабул қилди. 1960 йилда жаҳоннинг 30 та мамлакатидан 2 минг нафар меҳмонини қабул қилган. Туристларни кутиб олиш, режага мувофиқ керакли маршрут бўйича жўнатиш, малакали экскурсоводлар билан таъминлаш ва уларни ҳавфсизлигини таъминлашдек масъулиятли вазифалар ўз вақтида талаб даражасида адо этилган. Шунингдек, халқаро ёшлар туризм Бюроси орқали 1964 йилда Ўзбекистондан 30 минг нафар ишчи, хизматчи, ёш зиёлилар, талабалар жаҳоннинг 40 тадан ортиқ мамлакатларида бўлдилар [5].

Бирлашган Миллатлар Ташкилоти 1967 йилни халқаро туризм йили деб белгиланди. 1967 йилда республикада “Чет эл сайёҳларини кутиб олиш ва хизмат кўрсатиш тўғрисида” ги ҳисобот ҳужжатларида қайд этилишича, ҳорижий мамлакатларга ташвиқот ишларининг кенг тарғиб этилиши учун халқаро туризм тизими энг асосий жабҳалардан бири экани алоҳида таъкидланган [4].

Хорижий туризм бошқармаси бошлиғи А.Аҳмедовнинг 1967 йилда “Чет эллик туристларни қабул қилиш ва хизмат кўрсатиш бўйича йиллик ҳисоботи”да қайд этилишича, юқоридаги саъй-ҳаракатларга қарамай, чет эллик сайёҳларни, асосан, Ўзбекистоннинг тарихий шаҳарлари, тарихий обидаларига бўлган кучли қизиқишлари, юртимизнинг ўтмиши уларни янада кўпроқ ташрифини таъминлаган.

Аксарият чет эл сайёҳларининг Ўзбекистонга ташрифидан асосий мақсади юртимиздаги бой архитектура ва шаҳарсозлик тарихи билан тўлиқ танишиш бўлган. Аммо улар “у ёки бу сабабларга кўра” (доимий реставрациялар ва таъмир каби сабаблар) ушбу ёдгорликлардан тўлақонли таассурот ололмаётганликлари эътироф этилади.

Қолаверса, бу каби бебаҳо тарихий обидаларни юртимиз тарихи, архитектураси ва маданиятига мутлақо алоқаси бўлмаган савдо ташкилотларига ижарага берилгани, уларнинг бу бинони бўшатиб, муайян таъмирлаш ва қайта тиклаш ишларини амалга ошириш вақти келганини ҳам таъкидлайдилар.

Архив ҳужжатлари ва даврий нашрлар маълумотлари ўрганилганда 50-йилларда Ўзбекистоннинг халқаро туристик ташкилотлар билан маданий алоқалари динамикасида туризмни ривожлантиришнинг асосий экстенсив омилларидан бири бўлган ходимлар, яъни кадрлар масаласида ҳам етарли даражада чекланганлиги кўзга ташланади.

1969 йилда Республика турист-экскурсия органларининг ташкилотчилик фаолиятининг жонланиши натижасида туризм ва экскурсия бўйича Республикада 11 та област Кенгашлари, саёҳат ва экскурсия бўйича 29 та бюро, 5 та туристлар учун 1400 ўринли меҳмонхона 4,6 минг ўринга мўлжалланган 12 та турбаза, 415 ўринли 2 та кемпинг (1980) маиший ишлаб чиқариш комбинати ва қатор автохўжаликлар (1980) қурилди. Ўзбекистонга ташриф буюрган сайёҳлар, туристлар учун тўлиқ шароитлар тайёрлаш масаласи давлат сиёсатида устувор йўналишлардан бирига айланган. Шунингдек, туристларга хизмат

кўрсатишга талаб оширилган [5].

1971-1975 йилларда Республикада хорижий туризмнинг моддий-техник базасини ривожлантириш мақсадида 15 млн. рубл ажратилди. Тошкентда 930 та ўринга мўлжалланган замонавий, “Ўзбекистон”, “Интурист”, Самарқандда 368 та ўринга “Самарқанд”, Бухорода 378 ўринга мўлжалланган “Бухоро” меҳмонхоналарини кўриш ишлари амалга оширилган. Ўзбекистоннинг оммавий туризм районларида жумладан, Тошкентда 6800 нафар чет эллик туристлар, 29 минг нафар Совет туристлари, Самарқандда 5643 нафар чет эллик туристлар, 7000 совет туристлари, Бухорода 5500 чет эллик туристлар, 5300 нафар совет туристлари ташриф буюриб Ўзбекистон халқининг маънавий мерослари, моддий ва маънавий маданияти, тарихий обидалари, архитектура ва санъати, шаҳарсозлик, деҳқончилик ва кулолчилик маданиятлари билан яқиндан танишиш имкониятига эга бўлганлар [3].

XX асрнинг 70-80 йилларда Ўзбекистон Собиқ Иттифоқдан ва хориждан келадиган туристлар сони кўпайиш кузатилди. Фақат 1978 йилда туризм бўйича республика кенгаши томонидан 562,4 минг совет ва 3,8 мингта хорижий туристларга хизмат кўрсатилган. Экскурсияда 3481,6 нафар киши иштирок этган. Маълумотларда келтирилишича, 1978 йилнинг ўзида 162028 нафар турист ва сайёҳларнинг Ўзбекистонга келиб кетганлиги маданий алоқаларнинг ривожланиш тарихи таҳлили шуни кўрсатадики Самарқанд, Тошкент, Бухоро, Хива шаҳарлари Республикада оммавий туризм марказига айланган. Тоғли жойлардан Оқтош, Чимён, Шоҳимардон, Арсланбоб, Пачча ота, Шаҳрисабз ва туристларни ўзининг гўзал табиати билан мафтун этадиган, тарихий ва архитуктура ёдгорликлари билан жалб этадиган ҳудудларда 70-йиллардан бошлаб туристик районлар Тошкент, Самарқанд, Жиззаҳ ҳамда Фарғонада шакллана бошланди [5].

Бу жараёнда Ўзбекистон дўстлик жамияти ва хорижий мамлакатлар билан маданий алоқалар олиб борувчи муассасаларнинг ҳам алоҳида ўрни бўлиб, улар томонидан 1977 йилда жаҳоннинг 25 та мамлакатларидан 100 та

туристик гурух (минг нафар), 1978 йилда жаҳоннинг 50 та мамлакатидан ташриф буюрган 2771 нафар туристларга талаб даражасидаги хизмат кўрсатилган. Шунингдек, мазкур алоқалар икки томонлама бўлиб, 1977 йилда Ўзбекистондан Европа, Осиё, Африка ва Лотин Америкасининг жами 28 та мамлакатларига 70 та йўналиш бўйича 4900 нафар туристлар жўнатилган. 1978 йилда 415 нафар ўзбекистонлик 32 та хорижий мамлакатларга турист ва сайёҳ сифатида бориб, ҳорижий мамлакат халқларининг ижтимоий-иқтисодий, сиёсий ва маданий ҳаёти тўғрисида тасаввурларга эга бўлиб қайтдилар [2].

XX асрнинг 80-йилларида Ўзбекистон бўйича 38 та туристик йўналишлар фаолиятини бошлаши туризмни ривожлантиришда муҳим аҳамиятга эга бўлди. 90-йиллар охирида собиқ Иттифоқда, жумладан Ўзбекистонда ҳам ижтимоий-сиёсий ва иқтисодий соҳаларда бошланган беқарорлик жараёнлари мамлакатимизда туризмнинг ривожланиши салбий таъсир эта бошлади. Метрополия билан қарам миллий республикалар, айрим миллат, элатлар ўртасидаги зиддиятлар туфайли чет эллик туристларнинг Ўзбекистонга келиш оқими камайгани кузатилади.

Юқоридагилардан шундай хулоса қилиш мумкинки, Ўзбекистонда халқаро маданий туризм жамияти ҳам давлат манфаатларини ҳисобга олган ҳолда тарғибот тадбирларини олиб борган. Бундай тадбирларнинг аксарияти Осиё давлатлари билан туристик алоқалар ривожланишига кўзга ташланиб, совет давлатининг асосий мақсади социализмнинг мавжудлигига ижобий фаолияти тўлиқ назорат остига олинган бўлиб, мазкур муассаса ходимлари профессионал юқори даражада тайёрланган. Хориж ташриф буюрувчилар билан ишлаш юқори даражада ташкил этилган. Мазкур маданий алоқаларда миллат маданияти, халқларнинг миллий манфаати охирги ўринга сурилиб қўйилишига қарамасдан туризм, сайёҳлик ва экскурсия шаклларида олиб борилган тадбирлар Ўзбекистон маданий меросини жаҳон халқларига танитишда маълум аҳамиятга эга бўлди. Бу ўзаро алоқалар миллатлараро муносабатларни мустаҳкамлаш, маданий туризмни ривожлантириш ва

мустаҳкамлашда муҳим роль ўйнаганлигини кўрсатади.

Адабиётлар

1. Абуталипов Ч.А. Ўзбекистоннинг халқаро алоқалари. –Тошкент: 1964. –Б. 153.
2. Борисов К.Г. Международно-правовые аспект международного туризма // Советское государство и право. 1965. 7 – С. 138-142
3. Маматхонов Ҳ. СССРнинг хорижий мамлакатлар билан маданий алоқасида Ўзбекистоннинг ҳиссаси – Тошкент: Ўзбекистон, 1982. – Б. 31.
4. ЎзМДА, Р-837 фонд, 38-рўйҳат, 8464 йиғмажилд, 6-варақ.
5. ЎзМДА, Р-837 фонд, 37-рўйҳат, 8464 йиғмажилд, 3-6-варақ.
6. Эрназаров Ф.Ҳ. Ўзбекистоннинг Осиё давлатлари билан маданий алоқалари. –Т.: Иқтисодиёт, 2018. – Б.220-225.

ЖИЗЗАХ ВОҲАСИ ЗИЁРАТГОҲЛАРИНИНГ ТАСНИФИ ВА ТУРЛАРИ ХУСУСИДА

Акчаев Фаррух Шавкатович, *Жиззах ДПИ доценти,*
Сайдамов Шахзод Арслан ўғли, *Жиззах ДПИ талабаси*

Зиёратгоҳлар ҳар бир халқнинг миллий қадриятларини моддий ва маънавий маданиятини ўзида мужассам этган муқаддас жойлар сифатида муҳим аҳамият касб этади. Бошқа ҳудудларда бўлгани каби Жиззах воҳасида ҳам зиёратгоҳлар, асосан, авлиёлар, муқаддас саналган предметлар, табиий-географик объектлар, ҳайвонларларни муқаддаслаштириш ҳамда табиат мўъжизалари билан боғлиқ ҳолда шаклланган. Муқаддас мозорларнинг баъзилари исломдан аввалги маҳаллий культлар ва ислом динини ёйган саҳобалар ҳамда дин равнақ топгач, шу заминда яшаб ўтган авлиёлар, уларнинг яқинлари билан боғлиқдир. Бу ҳақда олим С. Токарев: “Мусулмончиликнинг кириб келиши ўзи билан янги ислом динини олиб келди. Натижада Марказий Осиёдаги маҳаллий илоҳлар ўзгаришга учради. Барча жойда маҳаллий авлиёларга топиниш кенг ёйилди. Гарчи, уларнинг айримлари мусулмон номлари билан аталса-да, аслида қадимги маҳаллий худоларининг ҳомийлари билан боғлиқ бўлган”[17,С. 534], – деган фикрни илгари сурган. Муқаддас

қадамжолар ва зиёратгоҳларни таснифлаш борасида турли қарашлар ва ёндашувлар мавжуд. Жумладан, шу йўналишда тадқиқот олиб борган олимлардан Н. Абдулаҳатов Фарғона водийсида мавжуд бўлган муқаддас қадамжоларни географик жойлашувига кўра тўрт гуруҳга ажратган бўлса[1, Б.14] (Марғилон, Қўқон, Фарғона ва Сўх ҳудудларига хос зиёратгоҳлар), З. Абидова эса Хоразм воҳасига доир зиёратгоҳларнинг тарихий келиб чиқишига эътибор қаратган ҳолда саккиз гуруҳга **(**Қуръонда зикр этилган пайғамбарлар билан боғлиқ; Ҳазрати Али ва унинг авлодлари билан боғлиқ; саҳобалар, тобеъинлар билан боғлиқ; маҳаллий авлиёлар билан боғлиқ; дин уламолари билан боғлиқ; аёллар билан боғлиқ; шаҳидлар номи билан боғлиқ; тасаввуф тариқати пирлари ва уларнинг авлодлари билан боғлиқ **бўлган зиёратгоҳлар)[3,**Б. 17**]** бўлиб таснифлаган**.**

Жиззах воҳасига хос зиёратгоҳларни ҳам географик ва тарихий келиб чиқишига кўра таснифлаш мумкин. Шу билан бир қаторда, айрим хусусий ҳолатлар ҳам борки, буларни инобатга олмаслик муқаддас қадамжоларнинг воҳага хос кўринишларини очиб бериш имконини чеклайди. Биз ушбу мақолада Жиззах воҳасининг авлиёлар ва диний уламолар билан боғлиқ зиёратгоҳлари хусусида тўхталмоқчимиз. Одатда, авлиёлар қайсидир бир иши, хизмати ёки хислати туфайли Аллоҳга яқин, дуолари мустажоб, солиҳ, қобил, камтар кишилардир, дея таърифланади[16,Б.7–8]. Авлиёлар ўз мақоми бўйича пайғамбарлар даражасидан кейин туради ва уларнинг мозорларини зиёрат қилиб, ибрат олиш ислом динининг ҳанафийлик мазҳабида савобли ишлардан саналади[11,Б. 19]. Аслида “авлиё”, “валий” сўзларининг маъноси Аллоҳнинг энг яқин дўсти, яқин кишиси, демакдир[11, Б.19]. Умуман олганда, ўтган аждодлар руҳига сажда қилиш, уларни хотирлаш, табиат кучларига сиғиниш натижасида жуда кўп муқаддас жойлар ва авлиёлар вужудга келган[10,Б. 236]. Жиззах воҳасида авлиёлар номи билан аталувчи бир қанча зиёратгоҳлар мавжуд бўлиб, уларнинг аксарияти нафақат маҳаллий аҳоли ўртасида, балки қўшни республикаларда ҳам машҳурдир.

Саъд ибн Абу Ваққос зиёратгоҳи. Ғаллаорол туманида жойлашган мазкур муқаддас қадамжога номи берилган Саъд ибн Абу Ваққос шахсияти мавжуд адабиётларда қайд қилинишича, бу шахс биринчилардан бўлиб ислом динини қабул қилган маккалик мусулмонлардан бўлиб, ҳаётлигидаёқ жаннат башорат қилинган ўн саҳобалардан бири ҳисобланади[8,Б. 243–244]. Зиёратгоҳда машҳур булоқ жойлашган бўлиб, у ерда “муқаддас балиқлар”ни, жумладан, Ўзбекистон “Қизил китоби”га киритилган реликт қора балиқларини кўриш мумкин. Қадамжодаги булоқ сувига турли касалликларга даво сифатида қаралиб, бефарзанд зиёратчилар муқаддас қабрни тавоф қиладилар ва атрофини супуришиб, тупроғини ўзлари билан олиб кетадилар. Бундан ташқари, зиёратгоҳга, асосан, қассоблик ҳунари билан шуғулланувчи кишилар ҳамда эркак зиёратчилар турли сабабларга кўра кўпроқ ташриф буюришларини кўриш мумкин. Маҳаллий аҳоли орасида сақланиб қолган ривоятга кўра ҳозирги зиёратгоҳ жойлашган Авлиё қишлоғи яқинида бўлиб ўтган бир жангда Саъд ибн Абу Ваққос яраланиб, синчилоғи узилиб тушади, хонақоҳ ўрнига қони тўкилади ва табаррук зотнинг қони тўкилган жойда булоқ пайдо бўлади[22]. Фарғона водийсидаги Саъд ибн Абу Ваққос зиёратгоҳи тўғрисида сақланиб қолган ривоятда ҳам ул зотнинг қонлари сувга айланганлиги тўғрисидаги фикрлар учрайди[1,Б.29].

Бизнингча, Саъд ибн Абу Ваққос билан боғлиқ ривоятлардаги бармоғи узилиб қони тўкилган жойда булоқ сувининг пайдо бўлиши, бошидан оққан қоннинг зилол сувга айланиши каби ҳолатлар вақт ўтган сари аҳоли орасида қассоблик билан шуғулланувчи касб эгаларининг ҳомий авлиёсига айланишига олиб келган.

Айрим манбаларда Сурхондарё вилоятининг Олтинсой тумани, Навоий вилояти Қизилтепа тумани, Андижон шаҳри Қирлик маҳалласи, Тошкент вилояти Зангиота тумани ва Фарғона вилояти Қува туманидаги Толмозор қишлоқларида ҳам айнан шу номдаги қадамжолар борлиги таъкидланган[20,Б. 63]. Бу ҳолат, албатта, халқимизнинг улуғ саҳоба – Саъд ибн Абу Ваққосга бўлган чексиз ҳурмат ва эътиқоди нишонаси эканлигини кўрсатади.

Соврук ота зиёратгоҳи. Ғаллаорол тумани Соврук ота қишлоғидаги қабристон ҳудудида жойлашган бўлиб, зиёратгоҳда рамзий қабр устига мақбара бунёд этилган. Совруксойнинг ўнг тарафида муқаддас саналган, асосан, қутуриш касаллигини даволовчи булоқ ва чап қисмида руҳий тушкунликлардан фориғ қилувчи афсонавий тешиктош мавжуд. Маҳаллий аҳоли зиёратгоҳни Сўфиён Саврий билан, муқаддас булоқни эса Нурота зиёратгоҳи булоғи билан боғлиқлиги борлигига ишонишади[23].

Хўжамушкент ота зиёратгоҳи. Янгиобод туманидаги мазкур зиёрат манзили воҳадаги авлиёлар номи билан боғлиқ энг йирик зиёратгоҳлардан бири ҳисобланади. Маҳаллий аҳоли орасида зиёратгоҳнинг пайдо бўлиши ва номланиши Хўжа ибн Исоқ шахси билан боғланади. Зиёратгоҳга номи берилган шахс тўғрисида Алишер Навоийнинг "Насойим ул-муҳаббат"[6, Б.252], Абу Тоҳирхожа Самарқандийнинг "Самария"[4, Б.153-154] асарида, Абу Хафс Насафийнинг "Қандия"[5, Б.15], Хожа Абдухолиқ Ғиждивонийнинг "Мақомати Юсуф Ҳамадоний"[19,Б.26] асарларида маълумот берилади. Ахборотчиларнинг таъкидлашича, Хўжа ибн Исоқ ғорни мушти билан урган ва у ерда ғор пайдо бўлган, шу боисдан қишлоқ ва зиёратгоҳнинг номи "Хўжамушкент"дир, дейилади[26]. Фикримизча, ушбу сўз учта сўзнинг бирикувидан ҳосил бўлган бўлиб, қуйидагича ифодаланади: "Хўжа" – ҳурматли, обрў-эътиборли киши, кимсанинг ёки нарсанинг эгаси, хўжайин маъносида ёки ўзларини чорёрларнинг авлодлари, деб ҳисобловчи мусулмонларнинг фахрий номи[18,Б.435]. Унга қўшилган "муш" сўзи мушкулкушод сўзининг қисқартмаси бўлиб, қийинчиликларни бартараф этиш маъносини англатади. "Кент" эса шаҳар ва қишлоқдан фарқланиб турувчи, аҳоли яшайдиган жой, шаҳарча[18, Б.353] маъносини билдиради. Бундан хулоса шуки, "Хўжамушкент" атамаси, мушкулларни осон қилувчи жой, макон, деган маънони англатади. Хўжамушкент ота зиёратгоҳи ҳудудида жойлашган муқаддас ғор ва Ниятбулоқ, Иситмабулоқ, Қўтирбулоққа зиёратчилар ўз дардларига шифо истаб, фарзанд кўриш, бахти очилмаган йигит ва қизлар оила қуриш ниятида келадилар. Улар

сувдан ичиб, ғордаги чиллахонада ният қилиб намоз ўқиб, мато боғлашар экан[25].

Ўсмат ота зиёратгоҳи. Бахмал туманида жойлашган “Ўсмат ота” зиёратгоҳи ўрта асрлар мусулмон шарқининг машҳур олимларидан бири бўлган Муҳаммад ибн Абдулҳамид Усмандий Самарқандий номи билан боғлиқ. Ёзма манбаларда аллома туғилиб ўсган жойнинг “Асманд” ёки “Усманд”, деб номланиши билан боғлиқ кўпгина ихтилофлар мавжудлиги келтирилган. Баъзи олимлар бу жой “Асманд” деб номланган ва алломанинг нисбаси Асмандий бўлган, деб келтиришса, бошқалари қишлоқнинг номини “Усманд”, яна баъзилари эса “Саманд” шаклида баён этганлар[2,Б. 35]. Маҳаллий аҳоли Ўсмат ота зиёратгоҳига турли мушкулотлардан халос бўлиш, ишлари бароридан келишлари учун ҳамда ўтганлар хотирасини ёд этиш учун ташриф буюрадилар.

Ҳазрати Зайнулобиддин зиёратгоҳи.Фориш туманининг энг чекка, Навоий вилояти Нурота тумани билан чегарадош ҳудудида Можурум қишлоғида жойлашган бўлиб, унга номи берилган Ҳазрати Зайнулобиддин тўғрисида Ўзбекистон Республикаси Фанлар академиясининг Абу Райҳон Беруний номидаги Шарқшунослик институтининг қўлёзмалар фондида сақланаётган “Хазинат ул-асфиё” китобида маълумот берилган. Унга кўра, Зайнулобиддин деган лақабни олган зот ҳазрат Ҳасан ибн Али ибн Абу Толибнинг 24-авлодлари, яъни ҳазрат Алининг 25-авлодлари исмлари – Алоуддин, лақаблари – Зайнулобиддин (тақрибан 895 йилда туғилиб, 915 йилда вафот этган) бўлиб, у зот айни йигитлик даврларида Ногур йўлида отасининг кўз олдида йўлтўсарлар қўлида шаҳид бўлган[15, Б.4-7].

Ушбу зиёратгоҳга маҳаллий аҳоли вакиллари йил давомида турли кўринишдаги маросимларни ўтказиш билан бир қаторда, ҳар йили бир маротаба ота-боболари асли ушбу қишлоқлик бўлган, ҳозирда Республикамизнинг турли ҳудудларида ҳамда қўшни Қозоғистон ва Тожикистон Республикаларида истиқомат қилувчи кишилар томонидан “Авлодлар учрашуви” маросими ўтказилади.

“Қулписар ота” зиёратгоҳи. Шароф Рашидов туманининг Чимкўрғон мавзеида жойлашган бўлиб, зиёратгоҳнинг асосини ташкил этувчи қабрнинг узунлиги 12–13 метрни ташкил этади. Маҳаллий аҳоли таърифича, мазкур қабрда авлиёнинг боши қулфлаб кўмилган. Шунинг учун қадамжонинг номи “Қулфисар”, яъни “қулфлаб кўмилган бош” деган маънони билдиради[12, Б.37]. Археолог М. Пардаев ўзининг қарашларида “Қулписар” атамасининг бошқа шаклини, яъни “Қулфисар”нинг маъноси “бош қулф”, “асосий қулф” деганидир. IX асрда Қизилқумдан Жиззах воҳасига ҳужумга ўтган кўчманчи қабилаларга қарши бу ердаги қалъада катта ҳарбий куч турган. Бу ҳолат Жиззах йўли душман талончилари учун ёпилди, қулфланди деган маънони англатган[14,Б.33], деган фикрни келтирган. Бизнингча ҳам, зиёратгоҳ жойлашган ҳудуд географияси ва тарихий ўрнига эътибор берсак, иккинчи таъриф ҳақиқатга яқиндир. Бугунги кунда бу зиёратгоҳга нафақат маҳаллий аҳоли, балки қўшни республикалар, жумладан, Қозоғистон Республикасидан кўплаб зиёратчилар (“Авлодлар учрашуви” маросимини ўтказиш мақсадида) ташриф буюришади. Бу ерга зиёратга келувчилар, асосан, аждодлар руҳини хотирлаш, баҳор фаслида чорвадорлар учун йилнинг яхши келиши ва йил давомида оила аъзоларининг соғ-саломат бўлиши учун қурбонлик қилишиб, яратгандан мадад истаб келадилар.

Жондаҳор ота зиёратгоҳи. Фориш тумани Гараша қишлоғи қабристонига дафн қилинган авлиёнинг асл исми Муҳаммад Шариф (тахаллуси “Гиреҳ кушод” – тугунларни, тилсимларни ечувчи) бўлган. Одатда, мақбара, масжидлар пештоқидаги тилсимий, ислимий нақшларни ўқиб, маъносини очувчи кишиларга “гириҳ” нисбаси берилган. Аслида “гириҳ” сўзи “муаммо”, “тугун”, “чигал” маъноларини билдириб, меъморчилик ва бадиий ҳунармандчиликда кенг қўлланиладиган нақш туридир[9, Б.34]. Ушбу зиёратгоҳга кишилар узоқ йиллар мобайнида фарзандли бўлмаган эркак ва аёллар, турмушга чиқмаган қизлар, тадбиркорлиги ривожланмаётган кишилар ишларининг ривожланиши мақсадида, шунингдек, зиёратгоҳдаги булоқ сувидан ошқозон-ичак тизими касалликларини даволаш учун келишади[24].

Сайфин ота зиёратгоҳи. Ғаллаорол туманининг Сайфин ота қишлоғидаги эски қабристон ҳудудида жойлашган бўлиб, унинг асосини бешта нақшинкор безаклар билан безатилган ва арабий ёзувлар битилган катта мармартош, бир нечта кичик қабртошлар ташкил этади. Бешбулоқ сойининг ўнг томонида жойлашган ушбу қабртошлардаги ёзувлар Жиззах давлат педагогика институтининг шарқшунос мутахассислари томонидан ўқиб таржима қилинганда, Сайфин ёки Сайфиддин, деган исм тилга олинмаган. Бу шундан далолат берадики, Сайфиддин бирор бир кишининг исми эмас, балки лақаби ёки унвонидир. Сайфиддин сўзи арабчадан таржима қилинганда "диннинг қиличи" деган маънони англатади.Таъкидлаш жоизки, Сайфин ота қишлоғи ҳудуди ва унинг атрофидан ўндан ортиқ археологик ёдгорликлар топилган. Аксарияти милодий IV–V асрлардан XV–XVI асрларга қадар фаолият кўрсатган ушбу иншоотлар қадимда қалъа, қўрғон, карвонсарой вазифасини бажарган[13]. Бу эса ҳозирги Сайфин ота қишлоғи ҳудудида азалдан диний-руҳоний ҳаёт билан боғлиқ турли тасаввурларнинг шаклланишига сабаб бўлган.

Ғўбдин ота зиёратгоҳи. Ғаллаорол тумани Ғўбдин ҚФЙ ҳудудида, қишлоқнинг Ғўбдин тоғига қараб бораверишдаги тоғ оралиғи қисмида жойлашган. Қабристондаги эски қабрлар устида йигирмага яқин турли кўринишдаги ва катталикдаги мармар қабртошлар бугунги кунгача сақланиб қолган. Уларда араб алифбосидаги Қуръон оятлари битилиши билан бир қаторда, саналар ҳам кўрсатилган[21]. Ўзбекистон Мусулмонлар идораси ходими Муслим Атаев томонидан 2014 йилда чоп этилган "Жиззах алломалари"[7, Б.89-90] номли китобида олти нафар Ғўбдиний нисбаси билан тарихда қолган алломалар тўғрисида маълумотлар келтирилган.

Жиззах воҳасидаги авлиёлар билан боғлиқ зиёратгоҳлар тарихига назар солсак, уларнинг аксарияти маҳаллий диний уламолар ва авлиёларнинг номлари билан боғлиқ бўлиб, бу ерда Қуръонда зикр қилинган Пайғамбарлар ва уларнинг саҳобалари номлари билан аталадиган зиёратгоҳлар жуда кам учрайди. Воҳада авлиёлар номи билан боғлиқ зиёртгоҳлар географик жиҳатдан бир-биридан анча олисда, муайян кичик маданий воҳа ҳудудида бўйлаб воҳага туташ алоҳида-

алоҳида, Моргузар, Қўйтош, Нурота, Ойқортоғ, Зомин ва Ғўбдинтоғ сингари тизмаларнинг тоғолди ҳудудларида жойлашган бўлиб, уларнинг қабрлари ва мақбаралари асосан шифобахш ҳисобланган сув манбаи ҳавзасида ёки булоқлар атрофида жойлашган.

Адабиётлар

1.Абдулаҳатов Н. Фарғона водийси зиёратгоҳлари ва қадамжолари (Фарғона вилояти мисолида): Тар.фан. ном.... дис. – Тошкент, 2006. – Б. 14.

2.Абдуллоҳ Абдулҳамид Саъд. Ўрта Осиё олимлари қомуси. − Тошкент: Имом Бухорий республика илмий-маърифий маркази, 2007. − Б. 35.

3.Абидова З. Хоразмвоҳасизиёратгоҳларивақадамжолари: Тар. фан. бўйича фал. док. (PhD)... дис. автореф. – Тошкент, 2018.– Б. 17.

4.Абу Тохирхўжа Самарқандий. Самария (Самарқанд мозорлари зикри). – Тошкент: Янги аср авлоди, 2009. – Б. 153–154.

5.Абу Ҳафс Насафий. Қандия ёҳуд китоб ул-қанд фи тарихи Самарқанд. – Тошкент: Минҳож, 2005. – Б. 15.

6.Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. 17– том. Насойим ул-муҳаббат. – Тошкент: Ғофур Ғулом, 2001. – 252 б.

7.Атаев М. Жиззах алломалари. –Тошкент: Адиб, 2014. –Б. 89-90.

8.Аҳмад Лутфий. Саодат асри қиссаси// Интизор кутилган тонг. 1-қисм. – Тошкент: Шарқ, 2004. – Б. 243–244.

9.Булатов С., Мансуров Ў. Миллий меъморчиликда наккошлик фалсафаси. – Тошкент: Фан, 2005. – Б. 34.

10.Жабборов И. Ўзбек халқи этнографияси. – Тошкент: Ўқитувчи, 1992. – Б. 236

11.Ислом энциклопедияси / З.Ҳусниддинов таҳрири остида. – Тошкент: Ўзбекистон миллий энциклопедияси, 2004. – Б. 19.

12.Оға Бургутли. Жиззах вилояти зиёратгоҳлари. – Тошкент: Фан, 2008. – Б. 37.

13.Пардаев М. “Жиззах ва Сирдарё вилоятлари археология мероси объектларининг мажмуасини тузиш ва уларнинг тарихий-географик харитасини

яратиш" лойиҳа бўйича ҳисобот / ЎзРФА Археология институти архиви. Самарқанд, 2017. ФА-АI-Г009.П3-2014-0913000301.
14.Пардаев М. IX – X асрларда Жиззах – ғозийлар шаҳри // "Тарих ва қадриятлар" номли республика анжумани матиреаллари. – Тошкент, 2015. – Б. 33.
15.Рустамжон Раҳматуллозода. Аждодлар меросига эҳтиром.- Тошкент: Фан, 2006.–Б. 4-7.
16.Суюндик Мустафо Нуратоий. Мунаввар қадамжолар. – Тошкент: "නоширлик ёғдуси", 2011. – Б.7-8.
17.Токарев С. Религия в истории народов мира. – М.: Политическая литература, 1976. – С. 534.
18.Ўзбек тилининг изоҳли луғати. 4-жилд. – Тошкент: ЎзМЭ, 2008. – Б. 435.
19.Хожа Абдулхолиқ Ғиждивоний. Мақомати Юсуф Ҳамадоний. – Тошкент: Янги аср авлоди, 2005. – Б. 26.
20.Эралиев Б., Қораев М. Саъд ибн Абу Ваққос зиёратгоҳи. – Тошкент: Турон замин зиё, 2016. – Б. 63.

Дала ёзувлари:

21.Дала ёзувлари. Ғаллаорол тумани Ғўбдин қишлоғи. 2016 йил.
22.Дала ёзувлари. Ғаллаорол тумани, Авлиё қишлоғи. 2016 йил.
23.Дала ёзувлари. Ғаллаорол тумани, Соврук ота қишлоғи. 2016 йил.
24.Дала ёзувлари. Фориш тумани Гараша қишлоғи. 2017 йил.
25.Дала ёзувлари. Янгиобод тумани Хўжамушкент қишлоғи. 2014 йил.

НАВОИЙ ВИЛОЯТИДА ЖОЙЛАШГАН ЗИЁРАТГОҲ ВА ҚАДАМЖОЛАРДА ТУРИЗМ ХИЗМАТЛАРИНИ ЖАДАЛ РИВОЖЛАНТИРИШ ИСТИҚБОЛЛАРИ

Савриев Жасур Фахриддинович,
Кармана туман касб-ҳунар мактаби директори,
мустақил тадқиқотчи

Навоий вилоятида тарихий ёдгорликлар асосан қадимий ва ўрта аср шахарларида жойлашган. Нурота Навоий вилоятининг Нурота тумани ҳудудида жойлашган қадимий шаҳарлардан бири ҳисобланади. Нурото ёки Нури Бухоро номи билан тарих саҳифаларидан ўрин олган мазкур тарихий шаҳар ҳақида тарихчи Абу Бакр Наршахий (899 – 959) X асрдаёқ маълумот бериб, уни Бухоро таркибидаги тарихий жой сифатида қайд этади. Ўзбекистон ҳудудида ғарбдан шарққа ўтувчи иккита йўл бўлиб, бири Зарафшон водийси орқали ўтган бўлса, иккинчиси Фарғона водийсидан ўтган. Нурота туманининг деярли марказида Нурота шаҳри жойлашган. У денгиз сатҳидан 500 – 512 метр баландликда жойлашган. Бу водий Қоратов ва Оқтов оралиғидаги водий бўлиб, ушбу тоғ даҳаси ўз ичига учта тизмани олган – Каратау, Актау, Нуратау. Тоғ даҳаси шарқдан шимолий йўналишга қараб 100 – 130 километр масофани ташкил этади. Унинг айрим жойларининг кенглиги 20 – 25 километргача боради.

Нурота тизма тоғлари Помир-Олой тоғ тизмасининг шимоли-ғарбий тармоғи бўлиб, Нурота воҳасини шимол ва ғарб томондан ўраб туради. Нуротанинг географик жиҳатдан қулайлиги қадимдан эътиборда бўлган. Хитой билан Европани боғлайдиган Буюк ипак йўлининг бир тармоғи Нур Мингбулоқ ботиғи, Хоразм орқали Волгагача борган. Шимолий ёнбағри бепоён Қизилқумга, у орқали Айдаркўлга ҳамда Қозоғистон даштларига туташиб кетади. Воҳани жануби-ғарбдан Зарафшон воҳаси ва Зомин тоғ тизмалари ўраб туради. Тоғликлардаги энг машҳур ёдгорликлардан бири “Темурий дарвозалар” ҳисобланади. Бу Сангзор дарёсидаги катта бўлмаган дара бўлиб, Жиззах яқинидаги Нурота тоғларининг шарқий қисмидан оқиб ўтади. Кенглиги 120–130 метрни ташкил қилувчи бу дара бир тарафдан иккита йирик қоялар билан беркитилиб, буюк саркардамиз Амир Темур шарафига номланган 40 метрлик ўтиш йўлини ташкил қилади. “Дарвоза”ларнинг ўнг қоясида шу ердан ўтган ҳукмдорлар Мирзо Улуғбек ва Абдуллахонлар томонидан ёзиб қолдирилган форс тилидаги ёзувларни кўриш мумкин. Нурота тоғларининг ғарбий ёнбағрида яна бир жуда қизиқ ёдгорлик бўлмиш Сармишсой дараси жойлашган. Бу ер кўплаб петроглифлари билан машҳур бўлиб, шу номли дарё чегараси бўйлаб

топилган. Булардан ташқари, бу жой ғайритабиий зона ҳисобланиб, олимлар буни ноёб кимёвий элементлар мавжудлиги, ўзига хос иқлими ва мураккаб ландшафти билан тушунтиришади. Мазкур сирли ва кам ўрганилган ўлка нафақат олимлар ва уфологларни, балки кўплаб сайёҳларни ҳам ўзига жалб қилади.

Меъморий ёдгорликлар асосан шайбонийлар даврига тегишлидир, улар дастлаб манғитлар сулоласи ҳукмронлик қилган вақтда (1756 – 1920) йиллар таъмирланган. Наршахийнинг "Бухоро тарихи"да Нурота ҳақида шундай таъриф келтирилади: "Нур катта жой. Унда масжиди жомеъ бор, у кўпгина работларга эга. Бухоро ва бошқа жойларнинг одамлари ҳар йили зиёрат учун у ерга борадилар. Бухоро аҳолиси бу ишда кўп муболаға қиладилар. Нур зиёратига борган киши ҳаж қилган кишининг фазилатига эга бўлади. У зиёратдан қайтиб келганида табаррук жойдан келганлиги сабабли шаҳарни хавозабанд қилиб безайдилар. Бу нурни бошқа вилоятларда "Нури Бухоро" деб атайдилар. Тобеинлардан кўпчилиги у ерга дафн этилганлар, худо уларни ҳаммаларидан то қиёматгача рози бўлсин". Ушбу маълумотлардан кўриниб турибдики, Нурнинг зиёратгоҳ бўлиши бу ерда муқаддас қадамжоларнинг мавжудлиги билан боғлиқдир. Муқаддас булоқ, балиқлар, тарихий обидалар, Саъид ад-Дин Абул Ҳасан Нурий, Ар-Румий сингари тарихий шахсларнинг қабрлари мавжудлиги, шунингдек, араблар истилоси даврида Мовароуннаҳрга келиб қолган ва шу тупроқда фонийликдан боқийликка кетган ҳамда Нурда дафн этилган тобеинларнинг қабрлари мавжудлиги шундан далолат беради.

Зиёратгоҳлари: Нуротада имом Ҳасан, имом Ҳусайн мақбараси (XIX аср, 14 км Деҳибаланд кўрғонида);

Ҳазрати Шоҳимардон мақбараси ва меъморий обидаси (XVI аср, 30 км Ғозғонда); Имом Муҳаммад Ҳанифа мақбараси (14 км Деҳибаланд кўрғонида); Нуқриддин қаттол авлиё (Темир қовоқ кўрғонида);

Хўжа Аҳмад Кибор мақбараси (4 км шарқда); Шайх Абул Ҳасан Нурий мақбараси (шаҳар ичида); Шайх Абул Ҳасан Румий мақбараси (шаҳар ичида); Орасой Зулқарнай қишлоғидаги мақбара ва ёдгорликлар (4 км жанубда);

Саидкул ота мақбараси ва меъморий мажмуаси (XXI аср, шаҳар марказида); Зангиота мақбараси (Қучот ҳудудида, 20 км Шарқда).

Археологик ёдгорликлари: Ғозғонтепа қўрғони (32 км, Ғазғон ҳудуди); Деҳибаланд қўрғони (14 км Деҳибаланд);

Пироста мудофаа девори қолдиқлари (Нуротадан 1 км); Бандикушоҳ мозори (шаҳар ичида).

Табиий ёдгорликлари: "Бобо Қамбар туяси" рельеф шакли (30 км Ғозғонда), "Учтурсанг" шакли (5 км шарқда); Сентоб водийси табиий ландшафти (130 км); Чуя қишлоғидаги чашма (35 км); Ғозғон чашмаси (30 км); Деҳибаланд чашмаси (14 км); Нур чашмаси ва балиқлари (шаҳар ичида); Айдаркўл ландшафти (100 км шимолда).

Меъморий ёдгорликлари: Чилустун жомеъ меъморий обидаси (XVI аср, шаҳар ичида); Панжвахта–Катта гумбаз меъморий обидаси (шаҳар ичида); Баргсўз меъморий обидаси (XX аср, шаҳар ичида); Домалла меъморий обидаси (XX аср, шаҳар ичида); Саидота меъморий обидаси (XX аср, шаҳар ичида); Масжиди Сафед меъморий ёдгорлиги (шаҳар ичида); Нурота коризлари (4 км шарқда); Нур қалъаси (Нурота шаҳрида).

Монументал ва санъат ёдгорликлари: Пайгансой қоятош суратлари (Пайгансойда); Зулқарнай қоятош суратлари (Зулқарнай қишлоғи (14 км); Чашмалисой қоятош ёзувлари (Жанубий Қоратовда 40 км); Тутақсой қоятош суратлари (Оқтовда, 32 км); Ҳовуз бўйидаги шер ва балиқ ҳайкаллари (Ғозғон қўрғонида).

Нуротада антик даврда қурилган Нур қалъаси қолдиқлари (уни Искандария, Искандар қалъаси ҳам дейишган), Пироста мудофаа деворлари қолдиқлари ва қадимий коризлар тизими (тахминан милоддан аввалги IV–III асрлар), "Чилустун" жоме масжиди (IX–XX аср бошлари), Катта Гумбаз масжиди (1582–1590 йиллар), "Саййидота", "Оқмасжид", "Барқсўз" масжидлари (XIX аср охири–XX аср бошлари), Судур Бобо ҳаммоми (1828 йил) каби меъморий ва тарихий ёдгорликлар сақланиб қолган. Шаҳарда Мозори Санг Андоз (Паҳлавон Аҳмад Замжоий), Шоҳирис (Бибиситам Тагалбоз), Мозори

Бандикушо (Хожа Бурхониддин Жарроҳ), Чилла мозор (Хожа Убайдуллоҳ Жарроҳ), қадимий Нур чашмаси каби зиёратгоҳлар мавжуд.

Деҳи Баланд масжиди VI асрнинг ўрталарида Бухородаги Жўйбор шайхларидан бўлмиш Хожа Саъд (вафоти–1588 йил) томонидан қурдирилган. Масжид мармар билан қопланган баланд шоҳсупа (қарийб 2 метр) устида барпо этилган. У намоз ўқиладиган хонақоҳ ҳамда жанубий ва шарқий фасадлардан унга тақаб қурилган айвондан иборат. Сўнгги таъмирлашдан аввал масжид шарқ томонга учта кириш йўлаги бўлган деворлар тўғри тўртбурчагини ўзида ифода этар эди. Ўрта иншоотда масжид, унинг иккала томонида эса Имом Ҳасан ва Имом Ҳусайнларнинг рамзий марқадлари мавжуд бўлган. Масжидга бораверишда чап томонда Деҳи Баланд қалъаси харобалари бор. Мазкур сўфийлар даргоҳи–хонақоҳ биноси ҳисобланиб, 1277/1860 йили қайта таъмирланган ва бу ҳақда махсус тарих битилган. Асосий таъмирлаш ишларини нуроталик таниқли халқ устаси, меъмор Абдураҳим сангтарош асли исми Абдураҳим Турдиев (1870-1938 йиллар) амалга оширган. Қайта таъмирлаш ишлари 1988 ва 1999 йилларда амалга оширилган. Атрофида машҳур бўлган эски мармар конлари ҳам мавжуд.

Жорий йилнинг 2021 йил 14–15 октябрь кунлари Туризм ва спорт вазирлиги, Навоий вилояти ҳокимлиги ҳамда вилоят Туризм ва спорт бош бошқармаси ҳамкорлигида вилоятда жойлашган тарихий ёдгорликларни, зиёратгоҳлардаги туристик салоҳиятларни ўрганиш мақсадида инфо-тур ташкил этилди. Унда бир қатор маҳаллий ва хорижий ОАВ вакиллари Навоий вилоятининг туристик салоҳияти билан танишиб чиқишди. Вилоятнинг 5 та диққатга сазовор жойлари қаторида Нурота шаҳрининг асосий кириш йўли ҳисобланган “Деҳибаланд қўрғони” атрофида жойлашган бир қатор зиёратгоҳлар ва уларнинг мустақиллик йилларида таъмирланиши, бугунги кундаги туристик аҳамиятига ҳам алоҳида эътибор қаратишди. Жумладан, зиёрат туризмини ривожлантириш учун алоҳида манзилли дастурлар асосида ҳар бир вилоятда замонавий қулай меҳмонхоналарнинг қурилиши сайёҳлар оқимининг кўпайишига хизмат қилиши учун асос бўлиб хизмат қилиши иштирокчилар

томонидан кўрсатиб ўтилди. Бунинг амалий исботи сифатида 2022 йилда Нурота туманида дам олиш маскани сони яна бир нафарга кўпайиб, 1 апрель куни "Деҳибаланд" МФЙ ҳудудида "Кўҳна Нурота боғлари" МЧЖга қарашли "КАРАВАН" экотуризм дам олиш масканининг очилиш маросими бўлиб ўтди. Дам олиш маскани очилишига Навоий вилояти Туризм ва маданий мерос бош бошқармаси ўринбосари Дилшод Хўжаев, Нурота туман ҳокимининг ўринбосари Шуҳрат Вафоев, туризм бизнеси вакиллари ва оммавий ахборот воситалари иштирок этишди. Дам олиш масканида сендвич панеллардан қурилган 10 та эко-уйлар, 2 та ўтов, ресторан, ёзги саҳна, 5 та хонадан иборат катта сауна, ёпиқ бассейн мавжуд. Шу билан бир қаторда ушбу "КАРАВАН" меҳмонхонаси ҳам қурилиб фойдаланишга топширилиб, меҳмонхонага ташриф буюрган зиёратчи сайёҳлар ва меҳмонларга бир қатор қулайликлар яратилди. Раҳбарият томонидан туманда жойлашган зиёратгоҳ ва тарихий ёдгорликларни томоша қилдириш мақсадида махсус енгил автобус ва таржимон гитлар гуруҳларининг шакллантирилгани фикримизнинг яққол исботидир.

Вилоятимиздаги узоқ ўтмишга медитатив саёҳатларга, яъни аввалги расмий маълумотларга юзланамиз: 2021 йилнинг учинчи чорак якунларига кўра, вилоятда ҳордиқ чиқарган сайёҳларнинг сони қарийб 124,8 мингни ташкил этган, шундан 4,5 минг нафари хорижликлар бўлган. Бу рақамлар коронавирус пандемиясининг авж олиши ички туризмнинг ривожланишига туртки бўлганидан далолат беради. Ушбу зиёратгоҳ атрофида жойлашган меҳмонхонанинг янгитдан пайдо бўлиши албатта Нурота тумани иқтисодини ривожлантиришига ҳам албатта ўз таъсирини кўрсатади. Меҳмонхонанинг шарқ томонида Оқтов билан туташиб кетган “Сармишсой” давлат музей-қўриқхонасининг ўрин олгани сайёҳлар оқимининг кўпайиши учун асос вазифасини ўтайди. Таъкидлаш жоизки, Сармишсой ўзининг ажойиб табиати билан ажралиб туради. Масканнинг истиқболли ҳудуди 20 минг квадрат километрни ташкил этади. Бу ердаги қаттиқ жисмлар билан уриб, тирнаб ишланган 10 мингдан зиёд петроглифлар одам ақлини шошириб қўяди. Зеро, уларнинг энг қадимгиси неолит даврига мансуб. Қўриқхона раҳбари Рамазон

Эгамовнинг сўзларига кўра, дара 10 мингта турли-туман петроглифларига эга. Улар бошқа ҳеч бир давлатда учрамайди. Сайёҳлар умуминсоний маданий мерос тўпламларини, хусусан, скиф, саклар ҳаттоки айрим жойларда греклар маданиятини ўз ичига олган қоятош суратларни илмий томондан ўрганиш учун ташриф буюришади. Бундан ташқари, бу ердаги табиатнинг хушманзаралиги, табиат қўйнида ҳордиқ чиқариб, Қизил китобга киритилган ҳайвонот олами билан танишиш имкони борлиги сайёҳларни ўзига оҳанграбодек тортади.

Адабиётлар

1. Хошимов М. Буюк Ипак йўлининг Самарқанд вилоятидаги туристик йўл кўрсатгичи.- Самарқанд.: Зарафшон, 2012-Б.103.
2. Кориев М. Ўзбекистон табиий географияси.-Т.: Ўқитувчи,1968-Б. 44.
3. Наршахий. Бухоро тарихи. Мерос туркумида / Форс тилидан А. Расулов таржимаси. –Т.:Камалак,1991– Б. 95.
4. Тобеинлар – Саҳобаларни ўз кўзи билан кўрган ва замондош бўлган кишилар.
5. Наршахий. Бухоро тарихи. Мерос туркумида / Форс тилидан А. Расулов таржимаси. – Т.: Камалак, 1991. – Б. 95.
6. Маданият вазирининг 2019 йил “28” июндаги 401-сон буйруғига илова Навоий вилояти бўйича Моддий маданий мерос объектлари давлат кадастрига киритилган маданий мерос объектларининг янгиланган рўйхати.
7. Абдуҳолиқов Ф. Ўзбекистон обидаларидаги битиклар Навоий.Т .: “Uzbekistan Today”, 2015.- Б.175.
8. Жўйборий шайхлари-нақшбандия тариқатининг Бухородаги машҳур вакиллари. Шаҳарнинг шарқий тарафидаги Жўйбор қишлоғида жойлашган Чор Бакр қабристонидаги хонақоҳда макон тутишган. Оилага асос солган Хожа Ислом Жўйборий (вафоти-1563 йил) бўлиб, у машҳур нақшбандия шайхи Маҳдум Аъзам (вафоти-1542 йил) муриди эди. Хожа Ислом Бухорода машҳур аллома Абу Бакр Саъд (X-аср)ни авлоди сифатида тарихий манбаларда зикр этилади. Иванов. Хозяйство Джуйбарских шейхов. С.-4-17; Babajanov B. La Naqshbandiya. P.-82-84; Бабаджанов Б. Из истории одного “светого семейства”

средневековой Бухары, С.-86-99; Бабаджанов Б. Джуйбари, // Узбекистан в средние века: история и культура. Т.:, 2003. -С.138-139

9. Манбаларда, Деҳи Баланд масжидини таъмирлашга жўйборий шайхлардан энг машҳури бўлмиш Хожа Саъд анча маблағ ажратган, деган маълумотлар мавжуд. Бабаджанов Б. Архетиктурные памятники. // Строительство и архетектура Узбекистана. Т.: 1989-№9. С.7.

10. Имом Ҳасан-Пайғармар (с.а.в)нинг невaралари, Ҳазрати Али ибн Абу Толиб ва Фотима бинти Муҳаммаднинг катта ўғиллари. У Мадинаи Мунаввapада ҳижрий 50 (милоддий 669) йили 45 ёшларида заҳарланиб, вафот этган ва Жаннат ул-Бақийъ қабристонида, онаси Фотимаи Заҳронинг ёнларига дафн қилинган.

11. Имом Ҳусайн- Пайғармар (с.а.в)нинг невaралари, Ҳазрати Али ибн Абу Толиб ва Фотима бинти Муҳаммаднинг кичик ўғиллари. У ҳижрий 61 (милоддий 680) йили Карбалода қатл этилган.

12. Абдуҳолиқов Ф. Ўзбекистон обидаларидаги битиклар Навоий. “Uzbekistan Today”, -Т.: 2015- Б.25

13. Навоий вилояти ҳокимлиги матбуот-ахборот хизмати маълумотлари.-2021 й, 5.ноябрь.

14. Интернет маълумотлари.- Нуротада янги дам олиш масканлари очилди. **navoitourism.uz**›uz-cl/news/65.

15. Интернет маълумотлари.- Нуротада янги дам олиш масканлари очилди. **navoitourism.uz**›uz-cl/news/65.

НАВОИЙ ВИЛОЯТИДА ЖОЙЛАШГАН ЗИЁРАТГОҲ ВА ҚАДАМЖОЛАР (НАВБАҲОР ТУМАНИ ТАРИХИ МИСОЛИДА)

Савриев Жасур Фахриддинович,
Кармана туман касб-ҳунар мактаби директори, мустақил тадқиқотчи

Илк цивилизация ўчоқларидан бири бўлган Навоий вилояти Навбаҳор тумани ҳудуди ўзининг кўҳна тарихига эга. Навбаҳор Навоий вилояти таркибидаги энг кенжа туман бўлиб, 1980 йил 12 мартдан ташкил топган. 1992 йилда алоҳида туман сифатида қайта тузилган. Туман ҳудудидаги ибтидоий

одамлар шахталари, қоятош тасвирлар, кўҳна мозор қўрғонлар каби тарихий обидаларнинг Марказий Осиё минтақасида мисли йўқ десам, адашмаган бўламиз[1]. Гарчи туман номланиши “янгиланиш”, “янги баҳор”, “Навбаҳор”, дея таърифланса-да, бу ўлканинг тарихи юртимизнинг тоғ-кон саноати асос солинган ҳудуд сифатида эътироф этилади[1]. Туман ҳудудида милоддан аввалги минг йиллик асрларига оид археологик ёдгорликлар каби муқаддас тарихий жойлар мавжуд.

Туманда Жиллибулоқ чашмаси ҳам бор. Жумладан: Зиёратгоҳлари: Қалқон ота меъморий ёдгорлиги (*XVI аср Қалқонота ҚФЙ*); Тошмасжид меъморий ёдгорлиги (*1850 йил Армижон ҚФЙ*); Имом Бобо меъморий ёдгорлиги (*XVI аср Истиқлол ҚФЙ*).

Тумандаги Сармишсой дараси инсониятнинг энг қадимий маданият марказларидан бири ҳисобланади. Айни пайтда бу тарихий мажмуани ўрганиш ва ободонлаштириш борасида салмоқли ишлар амалга оширилган. Қарийб 6-7 минг йиллик тарихга эга ушбу қадимий маскан 5 минг гектарлик майдонни эгаллаган бўлиб, денгиз сатҳидан 1000 метр баландликда жойлашган. Қоя тошларга ишланган 10 мингга яқин суратлар юртимизнинг тарихий ривожланиш даврларини ўзида акс эттирган. Сармишсой тасвирларини ўрганишни мақсад қилиб қўйган ва умрининг 30 йилдан кўпроқ вақтини тизимли ўрганишга, тадқиқ қилишга бел боғлаган ўлкашунос Б.Шалатонин фаолияти билан боғлиқ[1]. Ўлкашунос Б.Шалатонин 1960 йилдан бошлаб ўз ташаббуси билан Навоий вилояти тарихи, табиати, географиясини тадқиқ эта бошлаган. 1961 йил баҳорида Б.Шалатонин раҳбарлигида қизиқувчи ўлкашунослар томонидан Сармиш дарасида қадимий петроглифларни ўрганилиши ўлка тарихини ўрганишда янги давр саҳифасини очди [1]. Тадқиқотлар шуни кўрсатадики, Сармишсой дараларидаги аниқланган 3000 га яқин петроглифларда, қадимги Зарафшон ўлкасида ҳар хил даврларда яшаган бизнинг аждодларимизнинг ҳаёти, маданияти, тарихи тўғрисида жуда ҳам яққол намоён бўлган. Сармишсойдаги петроглифлар бу даврда ва унинг атрофдаги табиат қандай бўлганлиги ва у 5-7

минг ичида қандай ўзгарганлиги тўғрисида ўзларида батафсил “сўзлаб” беришлари мумкин.

Навбаҳор тумани Қоратоғ тоғининг жанубий ёнбағирларида жойлашган Учтут қишлоғи ҳудуди қадимда Зарафшон дарёси соҳилларида, Қоратоғ тизмаси ён бағирларида яшовчи аҳоли манзилгоҳи бўлган. 1958 йили Х.Мухаммедов, 1959 йили А.Окладников, 1958-66 йилларда М.Қосимов, Т.Мирсаатовлар раҳбарлигида қазишма ишлари олиб борилади. Ўтказилган археологик изланишлар ва тадқиқотлар натижаларидан маълум бўлишича, Зарафшон водийсининг ўрта қисмида жойлашган бу маконда аҳоли ўрта тош даври (мустье-милоддан аввалги 100-40 минг йилликлар) босқичидан бошлаб яшаб келган. Бунинг исботи эса, Учтут маконидан топиб, текширилган ўрта тош даври чақмоқтош синдириб олинган хом ашё кони-сангбур, тош қуроллар ясаш устахонаси ва ибтидоий одамлар макони ҳамда янги тош (неолит) даври (милоддан аввалги 6-4 минг йилликлар)да чақмоқтош бўлаклари ковлаб олинган энг қадимги макон “Учтут шахтаси”нинг ўрни ва лаҳмларини келтириш мумкин. Учтут устахоналари ва неолит шахталарини ўрганиш иши билан археолог тарихчи олим М.Қосимов, тадқиқотчи Т.Мирсаатов билан биргаликда тадқиқот ишларини олиб борган. 1958-1966 йилларда 13 та шахтани очадилар. Коннинг умумий майдони 8000 м² бўлиб, шундан 1000 м² қазиб ўрганилган ва 32 та чақмоқтош кони очилган. Учтут чақмоқтош конлари учи торайиб борувчи ўра шаклида (эни 95-110 см дан 4-5.5 метргача, чуқурлиги 5-5.5 метргача) бўлган. Тоғ жинслари қатлами бошланган, 1-2 метр қолганда конлар 3-4 метргача кенгайиб борган[2]. Учтут чақмоқтош конларининг тупроқ қатламидан сақланиб қолган қурол излари шахталар қандай қуроллар ёрдамида қазилганлигини аниқлаш имконини беради. Тадқиқотчи Т.Мирсаатовнинг таъкидлашича, неоген қатламларни кесиб, гоҳ пастга гоҳ ён томонга кенгайиб борган бу урасимон шахталар то палеолит қатламигача давом этганди. 13 та шахтадан фақат 3 тасида (9, 10, 11- шахталар), уларнинг чегараларини неоген қатламлари доирасида аниқланиб, улар деворининг кесмаси бўлишган, 10 та шахта чегаралари эса қачонким уларда қазишма ишлари қаттиқ палеоген қатламига етказилгандагина

аниқланган. Чунки, у шахталарнинг шакли ва стратиграфияси дастлаб методик жиҳатдан шахта қазиш услубига тўғри келмайдиган, ер юзасидаги манзилгоҳларнинг географик шурфлаш методи билан олиб борилган эди [2]. Ушбу тадқиқот олиб борилмаганда эди, ер соти хом ашё захираларини топиш билан боғлиқ аждодларимизнинг дастлабки техник кашфиётлари, тоғ саноатининг сир асрорлари очилмасдан қоларди [2].

Навбаҳор туманининг муқаддас қадамжоларидан бири Қалқонотадир. X аср Бухоро тарихчиси Муҳаммад Наршахийнинг "Бухоро тарихи" китобида ҳам Харконруд, қадимий масканлардан бири сифатида қайд этилган[2]. Зарафшон воҳасининг билимдони,археолог тарихчи олим А.Муҳаммаджонов: "Руд-дарё, канал, ҳар йирик, катта маъносида, кон канал, ариқ",-деган фикрни билдиради[3]. О.Ҳайитованинг "Карманалик Буюк сиймолар ва муқаддас қадамжолар" номли монографиясида, нима учун Харкон қишлоғи Қалқонота деб аталиб кетган? деган саволига қуйидагича изоҳ бериб ўтилган. Бу ҳақида турлича фикр мулоҳазалар бор. Шу ердаги аҳоли томонидан айтилиши бўйича, Искандар Зулқайнар қўшинлари кўп вақтгача қишлоқни ололмайди, кейин улар шу атрофдаги баландликга чиқиб алам билан қараб бақириб-бақириб "Бу ерлик халқ-Қалқон жон",- дейилади. Қишлоқ шунинг учун "Қалқон" номини олган эмиш. Балки бизнингча, "Харкон" сўзи вақт ўтиши билан товуш талаффузлари ўзгариб, "Қалқон" деб аталиб кетгандир[2]. Яна бир бошқа маълумотда эса, "Хақойиқ ул-асрор" китобида қайд этилишича, Абул Ҳасан Хараконий пайғамбаримиз Муҳаммад саллолоҳу алайҳи вассалламнинг вафотларидан 305 йил кейин, Румдаги Хараконий қишлоҳида туғилган туркий инсондир. Садриддин Салим Бухорий ва Самад Азимовлар томонидан нашр қилинган "Ҳазрати Мавлоно Ориф Деггароний" номли монографияларида Ҳазрати Абул Ҳасан Харақоний Хожагон-Нақшбандия тариқати силсиласидаги еттинчи халқа пири муршиди ҳисобланади деб айтиб ўтишади. Алқисса, Шайх Абулҳасан Харақоний ҳазратлари Хожагон тариқатининг улкан тарғиботчиси, буюк валий, кароматлар соҳиби, комил инсон бўлган. Шайх Абулҳасан Харақоний (Қалқонота) ҳижрий 425 (1033-34 милодий) йилда Харқон (Қалқонота)

қишлоғида вафот этган ва "Харқонруд" ариғининг шимолий томонидаги қирнинг жанубий бағрига дафн этилган. Бу жой ҳозирги вақтда Қалқонота қабристони деб юритилади. Абу Бакр Наршахийнинг берган маълумотига асосланиб, Шайх Абулҳасан Харқонийнинг қабрларини Навбахор туманининг Харқона қишлоғида, яъни ҳозирги Қалқонота қишлоғида деб кўрсатади, ва бу айни ҳақиқат. Қалқонота-Харқона қишлоғи Қумработ, Чордара, Шодибек каби аҳоли манзилгоҳлари қаторида Бухоро воҳасининг энг қадимги қишлоқлари сирасига киради. Хусусан, тарихчи Наршахийнинг "Бухоро тарихи" асарида энг қадимги қишлоқларнинг бири сифатида тавсифлаган. Демак, Харқона катта ариқ бўйидаги қишлоқ деган маънони билдирар экан. Ибн Хавқалнинг "Китоб сурат ал-ард (Мовароуннаҳр)" асарида Бухоро рустоқлари қисмида Карминия (Кармана) қаторида Юқори Ҳарқона рустоқи ҳам келтириб ўтилади. Бундан ташқари Қалқонота қишлоғи Харқона, айрим ўрта аср тарихий ёзма манбаларда эса, Харганкан, Хаганкас шаклларида ҳам учрайди. Харқона Конимех воҳаси атрофида тадқиқ этилган милоддан аввалги VI-V асрларга тегишли деҳқончилик қишлоқларидан бири. Қишлоқнинг шимолида кўҳна мозор бўлиб, унинг ичига ибтидоий одамлар дафн этилган. Мозор қўғончалар шаклида мавжуд бўлган. Алишер Навоийнинг "Насойим ул-муҳаббат" асарида Абул Ҳасан Харқоний ҳазратлари тўғрисида маълумот берилган, яъни китобда 770 шайх тўғрисида фикр юритар экан, рўйхатда 372-рақам билан Шайх Абул Ҳасан Харақонийга тасниф берган. Абул Ҳасан Харақоний халқ бошига тушган бало қазолар қаршисида ҳам мардонавор тура олган, у киши юртга шимолдан бостириб бораётган мажусийларга қарши ғазовотнинг бошида туриб юртни ҳимоя қилган. Хатирчи, Нурота ва Харқона қишлоғининг ўша даврдаги аҳолисига ҳеч қандай ёв ҳужум қила олмаган. "Харқонат ул-Улвиё" (Юқори Харқон) ариғига яқин жойидаги шайх қадамжоси устига Абдуллахон Шайбоний хонакоҳ қурдирган. Маҳаллий аҳоли томонидан ҳозирда Харқон номи Қалқон, Қалқонота номи билан юритишади. Агар ёрлиқ аҳоли талаффузини эътиборга олиб, "қ" ҳарфи ўрнига "х", "л" ҳарфи ўрнига "р" ҳарфини ишлатсак, албатта, Харқон атамаси

келиб чиқади, “Харқон” сўзининг ўзгарган шакли “Қалқон” эканлиги маълум бўлади.

Қалқонота тарихи билан чамбарчас боғланган қадимий ва кўҳна Сармишсой дараси Қоратоғнинг жанубий ён бағрига жойлашган. Қоратоғ тизмаси Нурота ва Оқтоғ тизмалари билан Ўрта Осиё тоғларининг энг чекка ғарбий тармоқларини ташкил қилади. Сармишсой тоғ тизмаси денгиз сатҳидан 1000-1200 метр баландликда жойлашган. Сармишсойнинг жанубий ён бағрида Зарафшон воҳаси, унинг ўртасида эса қадимий Зарафшон дарёси оқиб ўтади. Шарқ, шимолий-шарқ томонида эса, у Оқтоғ тизмасига бориб туташади. Сармишсой серсув сой бўлиб, у Сувбоши деган жойдан чиқадиган катта булоқдан сув олади. Сармишсой дараси ва унга туташ бўлган 500 квадрат километр жойнинг ўзида 70 дан ортиқ булоқлар борлиги аниқланган. Дарада 686 хилдан ортиқ ўсимлик дунёси аниқланган. Қоратоғ ва унинг атрофларида тулки, бўри, чиябўри, бўрсиқ, қуён, ёввойи мушук, жайра каби ҳайвонлар яшайди.

Сармиш топоними ҳақида сўз юритардиган бўлсак, таниқли олим М.Исоқовнинг “Сармиш” топоними икки қисмдан иборат - “сар” ва “миш” эканлигини таъкидлайди. Иккинчи қисмдаги “миш” компонентидаги бу сўз қадимий оташпарастларнинг муқаддас “Авесто” китобида зикр қилинган “митр” сўз кейинчалик сўзлашувда “миш” сўзи орқали ифодаланиб келинади. “Сармиш” топоними иккинчи қисмидаги “миш” сўзи-муқаддас Митранинг ҳомийлигида кун кўрувчи маъносини берди. “Сар” сўзи сўғдийдан таржима қилинса, ҳаракат йўналишини ифодалайди. Хулоса қилиш мумкинки, “Сармиш” сўзи муқаддас Митра довони томонга йўналган манзил маъносини беради.

Сармишдаги қоятош суратлари тарих фанида “петроглиф” деб аталади (юнонча “петро-қоя, глифо-чизиш, нақш солиш маъноларини билдиради”). Суратларнинг асосий қисми Сармишсойнинг ўрта қисмида жойлашган бўлиб, қолган суратлар эса, Қораунғурсой ва Биронсой далаларидаги қоятошларда ўз аксини топган. Қадимий даврдан ҳабар берувчи ушбу суратларни олимлар ва ўлкашунослар уч тарихий даврга: тош ва бронза даврлари, илк темир даврлари (сак-скиф) ва сўнги давр расмларга бўлиб ўрганишади. Тасвирларда Зарафшон

воҳасидаги бой ҳайвонот дунёси ва аждодларимизнинг илк тасвирий санъат намуналари тасвирланган. Аждодларимиз томонидан қоя тошларга ўйиб битилган бу ажойиб ёдгорликлар келажак авлодга юртимиз тарихининг энг қадимги давр тарихидан баён этади. Сармишсой суратларида асосан қадимий одамлар тасвири билан бир қаторда от, ит, эчки, туя, алқор, кийик, буқа, ёввойи тўнғизлар тасвирлари ўз аксини топган. Ушбу суратлар қадимда бу ерда яшаган аҳолининг турмуш тарзи, диний эътиқоди ва кундалик ҳаёти борлигидан далолат беради.

Адабиётлар

1. Нарзуллаев У.,Тилавов Н., Мустафоев Ж. Навбаҳор тумани тарихи (1-қисм).-Т: “Адабиёт учқунлари”, 2018. -Б. 4.
2. Нарзуллаев У., Мустафоев Ж., Джунаев Ф., Тилавов Н. Навбаҳор тумани (кеча ва бугун).-Т: “Шаффоф”, 2021.- Б.14.
3. Маданият вазирининг 2019 йил “28” июндаги 401-сон буйруғига илова Навоий вилояти бўйича Моддий маданий мерос объектлари давлат кадастрига киритилган маданий мерос объектларининг янгиланган рўйхати.
4. Знамя дружбы. Сармишсай музей под открытом небом. 2004 г. 08 октябрь.
5. Иноятов С., Ҳайитова О. Кармана тарих кўзгуси.-Т.: “Шарқ, 2006.-Б. 20-21.
6. Облақулов Ғ. Навбаҳор тумани тарихи-(тарихий, иқтисодий, ижтимоий, табиий, маърифий, жуғрофий, адабий маълумотлар).-Т.: “Абу Али ибн Сино, 2000. - Б. 15.
7. Ўзбекистон миллий энцеклопедияси.-Т.: “Ўзбекистон миллий энцеклопедияси” Давлат илмий нашриёти, 2011-Б.206.
8. Джуракулова Д. Зарафшон водийсининг тош ва бронза даври маданияти.-Т.: “Фан”, 2011.-Б.39.
9. Наршахий. Бухоро тарихи.-Т.: “Мерос”,1999.- Б.166.
10. Муҳаммаджонов А.Қадимги Бухоро.-Т.: “Фан”,1991.-Б.40-41.
11. Ҳайитова.О. Карманалик Буюк Сиймолар ва Муқаддас Қадамжолар.-Т.: “Янги аср авлоди”,2004.- Б.38-39.

12. Ўша китоб.- Б.38-39.
13. Салимов Садриддин-Бухорий., Азимов.С., Ҳазрат Мавлоно Ориф Деггароний.- Бухоро.: Сано Стандарт, 2004.-Б.45.
14. Бекниёзов Н., Мардонов Ф. Карманaнинг етти пири.-Т.: “Турон Замин Зиё”, 2017.-Б.17.
15. Наршахий.Бухоро тарихи.-Т.: “Камалак”, 1991.-Б. 166.
16. Ибн Хавқал. Китоб сурат ал-ард (Мовароуннаҳр).-Т.: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси”, 2011.- Б.44.
17. Ҳайитова О. Карманалик буюк сиймолар ва муқаддас қадамжолар.-Т.: “Янги аср авлоди”, 2004.-Б.39., Алишер Навоий. Мукаммал асарлар тўплами. Насойим ул-маҳаббат. 17-том.-Т.: 2001.- Б.209.

HUDUDLARDA ZIYORAT TURIZMINI RIVOJLANTIRISHNING IMKONIYATLARI (QASHQADARYO VILOYATI MISOLIDA)

Hakimova Malika Madullayevna,
Qashqadaryo viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi ilmiy xodimi

Bugungi kunda har qaysi mamlakat o’zida mavjud imkoniyatlardan unumli foydalangan holda, iqtisodiyotini barqaror rivojlantirishga harakat qilib kelmoqda. Bu jarayonda ular, geografik joylashuvi, o’zining hududida mavjud bo’lgan tabiiy va antropogen resurslari hamda iqlimi kabi bir qancha jihatlarga e’tibor qaratadi. Mazkur resurslar negizida turistik xizmatlarning eksporti bilan shug’ullanishni maqsad qilib qo’yishadi. Xizmatlarning qanchalik ko’p eksport qilinishi, iqtisodiyotning rivojlanishi, sohani kuchaytirish uchun infratuzilmani yaxshilashda moliyaviy resurslarning oqimini ta’minlashi bilan xarakterlanadi.

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, 2019-yilda sayyohlik xizmatining dunyo YAIMga qo‘shgan hissasi qariyb 10,4 foiz (9,2 trln. AQSH dollar)ni, yangi ish o‘rinlarining 1/4 qismini, barcha ish o‘rinlarining 10,6 foizini (334 mln. kishi) xizmatlar eksportidagi ulushi 6 foizni, xalqaro turizmdan kelgan foyda esa 3 trln. AQSH dollarini tashkil qilgan. Biroq, 2020-yilda COVID-19 pandemiyasi butun dunyo bo‘ylab iqtisodiyotning ko‘plab tarmoqalariga, shu qatori turizm va unga tutash sohalarga

jiddiy zarar yetkazdi. Sayohat va turizm sektori deyarli 4,5 trillion dollar zarar ko‘rdi va 2020-yilda 4,7 trillion AQSH dollariga yetdi, yalpi ichki mahsulotga qo‘shgan hissasi 2019-yilga nisbatan 49,1 foizga kamaydi. O‘tgan yilda 62 million ish o‘rni yo‘qolib, 18,5 foizga pasaydi va bu sohada 2019-yildagi 334 millionga nisbatan bor-yo‘g‘i 272 million kishi ish bilan ta’minlandi. Hozirda ko‘plab ish o‘rinlari hukumatlar tomonidan qo‘llab-quvvatlanayotganligiga qaramasdan, pandemiya bilan bog‘liq vaziyat o‘zgarmasa, kelgusida ish o‘rinlarini yo‘qotish xavfi saqlanib qolmoqda. Mahalliy tashrif buyuruvchilar xarajatlari 45% ga kamaydi, xalqaro tashrifchilar xarajatlari esa misli ko‘rilmagan 69,4% ga kamaydi.

Mamlakatlar Pandemiyaning ta’sirini kamaytirish va turistik xizmat ko’rsatish tarmog’ini asrab qolish maqsadida, muqobil imkoniyatlardan foydalanishmoqda. Xususan, O’zbekistonda xorijdan tashrif buyuradigan turistlar soni kamayib ketganligi sabab, asosiy e’tiborni ichki turizmga qaratdi. Bu yo’nalishda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” PF-6165-sonli farmoni qabul qilindi. Farmonda asosiy masalalar sifatida respublikada turizm bozorining turli segmentlariga yo‘naltirilgan turizm mahsuloti va xizmatlarini diversifikatsiya qilish, ularning raqobatbardoshligini yanada oshirish, maqbul va qulay ichki va xalqaro ziyorat turizmi muhitini yaratish, transport yo‘nalishlarini kengaytirish, transport xizmatlari sifatini oshirish, turizm mahsulotlarini keng targ‘ib qilish, shuningdek, mamlakatimizning sayohat va dam olish uchun xavfsiz manzil sifatidagi imijini mustahkamlash kabilar belgilangan.

Qarorning ijrosini ta’minlash jaroyonida qo’shimcha vazifalar sifatida, O‘zbekistonning ziyorat turizmi salohiyatini to‘liq o‘rganish, ma’lumotlarni tizimlashtirish, ziyoratgohlar, ulamolar va ularning ilmiy merosi haqida ilmiy asoslangan ma’lumotlarni shakllantirish kabi ham belgilangan. Demak, O’zbekiston o’zining turistik xizmatlar eksporti hajmini oshirishda asosiy yo’nalish sifatida ziyoratgohlar va ular negizida ziyorat turizmini rivojlantirish uning istiqbolini belgilashda ham ijobiy ta’sir o’tkazadi.

Hozirgi kunda mamlakatimizda turli davrlar va sivilizatsiyalarga oid 7 mingdan ortiq tarixiy yodgorliklar, obidalar va muqaddas qadamjolar kabi madaniy meros obyektlari mavjud va ularning aksariyati YUNESKO ro'yxatiga kiritilgan. Ularning salmoqli qismini ziyorat va unga aloqador obyektlar tashkil etadi. O'zbekiston ziyorat amallarini bajarishda nafaqat mahalliy aholi yoki qo'shni mamlakatlar, balki Yaqin Sharq va Janubi-Sharqiy Osiyo mamlakatlari aholisi orasida ham mashxurdir. Mamlakatda uchinchi Xalifa "Usmon Mushaf Qur'oni" ni saqlanayotganligi, shuningdek, respublikamizda «Imom-Al-Buxoriy majmuasi», «Hazrat Bahouddin Naqshband majmuasi», «Hazrat Abduxoliq G'ijduvoniy majmuasi», «Chor Bakr majmuasi», «Abu Muin an Nasafiy majmuasi» kabi islom olamida mashxur ulamolarning yodgorlilari mavjud. Bu kabi muqaddas qadamjolar dunyo islom ahlining asosiy ziyorat qiladigan maskanlarga aylanmoqda.

Bundan tashqari yurtimiz nafaqat islom olamida mashxur bo'lgan diniy qadamjolar bilan, balki qadim davrlardan beri saqlanib kelayotgan boshqa dinga tegishli bo'lgan madaniy meroslarning mavjudligi ham ziyorat turizmi uchun qo'shimcha iste'molchilarni jalb qilishi tabiiy. Bunday maskanlarga Xorazm viloyati va Qoraqalpog'iston Respublikasi hududida joylashgan Zardushtiylik bilan bog'liq yodgorliklar: Kalajik qal'a, Ayozqal'a, Gaur qal'a va h.k., Surxondaryo viloyatidagi buddaviylik bilan bog'liq bo'lgan Fayoztepa (mil. av. 1-asr – milodiy 3-asr), Kampirtepa, Qoratepa kabi yodgorliklar, Samarqand viloyatida joylashgan uch din — islom, xristianlik va iudaizm vakillari orasida mashxur bo'lgan Xo'ja Doniyor maqbarasi kabilarni kiritishimiz mumkin.

Ziyorat turizmini o'ziga xos xususiyatlarini aniqlash va uni rivojlantirish istiqbollarini belgilash maqsadida turizm obyekti sifatidagi ziyoratgohlar va muqaddas qadamjolar kiritiladi. Bundan tashqari ziyorat turizmining shakllanishi uchun yana boshqa tarkib kerak bo'ladi. Unga ko'ra ziyorat turizmining asosini tahlil qiladigan bo'lsak u quyidagi tarkibiy qismlarni o'z ichiga oladi:



1-chizma. Ziyorat turizmining tarkibiy tuzilishi

Chizmadan ko'rinib turibdiki, ziyorat turizmining asosi ikki yo'nalish tashkil etadi. Ziyoratgohlarning turistik imkoniyatlarini oshirish uchun albatta infratuzilmani rivojlantirish talab etiladi. Turistik infratuzilmani yaratish uchun esa o'sha hududda joylashgan ziyorat turizmi bilan bog'liq ma'lum obyektning mavjud bo'lishi kerak.

Qashqadaryo viloyati bo'yicha ziyorat turizmini tahlil qiladigan bo'lsak, vohada mavjud ziyorat obyektlari soni 20 tani tashkil etadi. Ularga Qarshi tumanidangi Abu Muin an Nasafiy ziyoratgohi, Kitob tumanida joylashgan Hazrati Bashir ziyoratgohi, Qamashi tumanidagi Hazrati Langar ota ziyoratgohi, Qarshi shahridagi Abu Ubayda ibn al-Jarroh majmuasi kabi obyektlar kiritiladi. Biroq, hududda boshqa ziyoratgohlar ham mavjud bo'lib, ular qatoriga Dehqonobod tumanidagi "Xo'jaipok Ota" ziyoratgohi, G'uzor tumanida joylashgan "Miri Janda" ziyoratgohi, Kasbi tumanidagi Sulton Mir Haydar yodgorlik majmuasi shular jumlasidandir. Mazkur obyektlarning turistik salohiyatini ochib berishda ular haqida mavjud ma'lumotlarni to'plash, saralash, ma'lumotlarning orginalligi va tarixiyligini aniqlash orqali ularni ham turistik jozibadorligini oshirish uchun mumkin bo'lgan obyektlar ro'yxatiga kiritish kerak bo'ladi.

Mamlakatimizda ziyorat turizmini va uni rivojlantirishda sohaga ko'plab omillar ta'sir o'tkazadi. Ularni tahlil qilish maqsadida quyida PEST tahlildan foydalanilgan:

a) Siyosiy omillar

Hukumatning turizmning bu yo'nalishiga bo'lgan e'tibori;

Milliy qonunchilik bazasida vijdon erkinligini ta'minlanishi;

Diniy tashkilotlar va ularga davlatning munosabati;

Xorijiy turistlarning ziyorat turizmiga tashrifi uchun qulay imkoiyatlarni yaratish (chegaradan o'tish, VISA masalasi va h.k)

Turistlarning ziyorat safarlarini amalga oshirishda muhim jihatlar (xavfsizlik, tinchlik, barqaorlik kabi masalalar)ni ta'minlash.

Iqtisodiy omillar

Pandemiyadan keyin mazkur sohani qo'llab – quvvatlash uchun iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish ;

Mavjud xizmatlarga belgilangan narxlarning tartibga solinishi;

Xorijiy valyuta bilan erkin savdo qilish yoki uni ayirboshlash bilan bog'liq imkoniyatlar;

Xorijiy tashkilotlar tomonidan mavjud diniy obyektlarga ajratiladigan mablag'larning ahamiyati;

Turistik paketni xarid qilish narxi va aholining daromadi o'rtasida mutanosiblikni yirik bo'lmasligi.

Ijtimoiy omillar

Aholi orasida diniy qarashlarning mustahkamligi;

Ma'lum bir dinga e'tiqod qiluvchi aholining soni;

Diniy savodxonlikni oshirish va uning natijalari;

Jamoatchilik orasida diniy qarashlarga bog'liq bo'lgan mif, afsona, asotir, rivoyat va shu kabilarning o'rni

Qardosh mamlakatlar bilan diniy qarashlarning umumiyligi.

Texnologik omilar

Diniy obyektlarda yaratilgan qulay imkoniyatlar(WiFi hududlari, diniy amallarni bajarish uchun maxsus tablolar va joylar va h.k.);

Xorijiy OAV larda mahalliy diniy turistik obyektlarning reklama qilinishi;

Chekka hududlarda(aholi yashash punktlaridan yiroqda) bo'lgan diniy qadamjolarni ham tezkor internet hamda mobil aloqa sifatini yaxshilash;

Mavjud obyektlar haqida ma’lumotlarni raqamlashtirish va ularni kerakli Web sahifalarga yuklab borish;

Tarixiy joylar haqida to’planadigan ma’lumotlarning sifatli va mukammal bo’lishida sun’iy ong va innovatsion kompyuter texnologiyalaridan foydalanish.

Yuqorida keltirib o’tilgan omillardan tashqari sohani rivojlantirishga boshqa ko’plab (iqtisodiy inqroz, siyosiy barqarorlik, aholining madaniyati, innovatsion texnologiyalardan foydalanish kabi) omillar ta’sir etadi. Ularni ta’minlash esa nafaqat hukumat balki, mahalliy aholining bevosita ishtiroki ham katta ahamiyatga egadir. Shunday ekan, O’zbekistonda iqtisodiyotni barqarorlashtirish, xorijiy valyuta oqimini oshirish, turistik brendlarni shakllantrish hamda ishsizlik muammosini kamaytirish uchun turizmning har qaysi yo’nalishidan foydalanish kerak. Ziyorat turizmi esa yuqorida sanab o‘tilgan muammolarni ijobiy hal etishda muhim yo’nalish sifatida hisoblash mumkin.

Hududlarni rivojlantirish nuqtayi nazaridan qaraydigan bo’lsak, Qashqadaryoda mavjud ziyorat obyektlari imkoniyatlarini kuchaytirishda:

- obyekt atrofidagi yo’l, kommunal va savdo infratuzilmasini yaxshilash hamda hududni ko’kalamzorlashtirish;
- marketing tadbirlarini amalga oshirish, bunda turistik obyektga qiziquvchi turistlar sonini oshirishga xizmat qiladigan dastur(festival, tadbir , ilmiy anjuman va h.k)larni yo’lga qo’yish;
- obyektlar haqida ma’lumot bera oladigan elektron axborot bazasini yaratish hamda uni kerakli ma’lumotlar bilan to’ldirib borish.

Yuqorida keltirilgan takliflarni nafaqat, Qashqadaryo viloyatida mavjud ziyoratgohlarda balkim, respublikaning boshqa hududlarida ham amalga oshirish mamlakatning turistik jozibadorligini oshirishda xizmat qiladi.

Adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 9 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasida ichki va ziyorat turizmini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-6165-sonli farmoni;

2. Navruz-Zoda, B., Navruz-Zoda, Z. (2016) ‘The Destination Marketing Development of Religious Tourism in Uzbekistan’, International Journal of Religious Tourism and Pilgrimage: Vol. 4: Iss. 7, Article 3. Doi:10.21427/D7G01X.

3. Байлагасов Л.В., Гоппа М.И. О классификации паломнического туризма // Символ науки. — 2016. — № 10—3. — С. 192—194. — ISSN 2410-700X

4. https://wttc.org/Research/Economic-Impact;

5. https://center-yf.ru/data/economy/turizm-v-mirovoy-ekonomike-v-2019-godu.php.

ZIYORAT TURIZMINING MOHIYATI VA XILLARI

Abdullayev S.I., *QarDU dotsenti,*
Nurmatov.N., *QarDU magistranti*

Turizm kishilarning o`zlarining doimiy yashash va ishlash joylaridan farq qiladigan joylarga o`zgartirishi va bo`lishi tufayli vujudga keladigan munosabatlar va hodisalar majmuasidir [5]. Turizmning muhim turlaridan birini turli konfessiyalar kishilarining diniy ehtiyojlariga asoslangan, dindorlarning muqaddas joylarga sig`inish va diniy obyektlarni ziyorat qilish uchun safarlari bo`lgan diniy turizm tashkil etadi. Odatiy bo`lgan muhitdan tashqaridagi muqaddas joylarga va diniy markazlarga borayotgan turistlarga xizmat ko`rsatish va ularning ehtiyojlarini qondirish bilan bog`liq bo`lgan faoliyat turlari diniy turizm deb tushuniladi. Diniy turizm muqaddas joylarning tarixi, aziz - avliyolarning hayoti, me’morchilik, diniy yodgorliklar san’ati bilan tanishish maqsadlarida amalga oshiriladi.

XX asrning 90 - yillarida diniy ongning uyg`onishi tufayli ijtimoiy leksikonga unutilgan ziyorat so’zi kirdi va faol qo`llanila boshlandi hamda ziyorat an’analari qayta tug`ildi. Dinning bir qismi bo`lgan ziyorat aniq bir sig`inish (kult) maqsadlariga ega bo`lgan muqaddas joylarga sayohatdir. Ziyorat muayyan shaklda deyarli barcha dinlarda mavjud. Uning mazmunini muqaddas joylarga sajda qilish, diniy marosimlarni bajarish yoki ularda ishtirok etish, diniy takomillashish, ruhiy yoki jismoniy shifo topishdan iborat.

Butunjahon turizm tashkiloti (WTO) – turizmning beshta turini istiqbolli yo'nalish deb e`lon qilgan. Ana shulardan biri bu - madaniyatni o'rganish turizmi bo'lib, u diniy - ziyoratgoh turizmi va madaniy – tarixiy turizmga bo'linadi. Dastlab inson o'zida paydo bo'lgan e'tiqod xissi nuqtai - nazaridan o'z dinidagi barkamol insonlar, avliyo va shayxlarga, keyinchalik ularning qabriga sig'inadi, bu harakatlari unga xotirjamlik, osoyishtalik keltirishini sezadi. Bunday harakatlar turizmda ziyorat qilish yoki diniy turizm nomini oldi. Tarixiy - madaniy meros barcha ijtimoiy - madaniy muhitni bor an'analari va urf - odatlari, maishiy turmush xususiyatlari bilan birga qamrab oladi. [4,5].

Diniy turizm ikki asosiy turga ajratiladi: ziyorat turizmi, ekskursia – bilish yo`nalshidagi diniy turizm.

Ammo, dindorlarning fikriga ko`ra "ziyotat qilish" va "turizm" tushunchalarini batamom bir - biridan farq qiladi. Ziyorat qilish muqaddas joylarga qilinadigan safar bo`lib, uning maqsadi dindorlarning diniy burchini bajarish, xudoning marhamatiga sazovor bo`lish, shuningdek orombaxsh, muqaddas sajiyadagi sig`inish amallarida qatnashishdan iborat. Ziyoratchi xudoning marhamatiga sazovor bo`lish va muqaddaslikka aloqador marosimlarda qatnashish maqsadida o`z dinining asoschisi va uning yaqin safdoshlari tomonidan muqaddaslashtirilgan joylarga tashrif qiladi. Ba'zan qabul qilgan qarorining to`g`riligiga ishonch hosil qilish, tana va ruhiy shifo olish, ruhiy azobni bartaraf qilish yoki shifo topganligi uchun shukur qilish maqsadlarida ham ziyorat qilinadi. Ziyorat qilish turizmga nisbatan ancha ilgari ham bo`lgan va bir necha ming yillik tarixga ega [4,5]. Ta'kidlash joizki, ilmiy adabiyotlarda ziyorat qilish turizmning bir turi sifatida qaraladi.

- Ziyorat qilish uchun sabablar orasida quyidagilarni ajratish mumkin:
- ma'naviy va jismoniy xastaliklardan shifo topish hohishi;
- qarindoshlari va yaqinlari uchun ibodat qilish;
- xudoning marhamatiga erishish;
- savob ish qilish;
- gunohlarni otmolitm qilish;
- yuqoridan yuborilgan ne'matlar uchun minnatdorchilik izhor etish;

- e’tiqodga sodiqligini namoyon qilish;

- e’tiqod uchun zohidlikka intilish;

- hayotning maqsad-mazmuniga ega bo`lish**.** [2**].**

Turli belgilarga ko`ra tasniflanadigan ziyoratning bir necha turi ajratiladi.

- yil vaqtlari bo`yicha (mavsumiyligiga ko`ra) – ommaviy hordiq davriga, diniy bayramlarga bog`liq bo`lgan ziyoratlar;

- ishtirokchilarning soni va tarkibi bo`yicha – individual, oilaviy va guruhiy ziyorat;

- borib ko`riladigan obyektlar bo`yicha – arxitektura – sig`inish inshootlarini (machit, monastir, xram), shuningdek tabiatning sakral yodgorliklari (suv havzalari, g`orlar, tog`lar, daraxtzorlar va b.);

- geografik belgiga ko`ra – mahalliy, regional, rayonlararo, milliy, internatsional;

- davomiyligiga ko`ra – uzoq va qisqa muddatli;

- tashrif qilinadigan obyektlar bo`yicha – konfessional kult joylariga (cherkov, machit,monastir va b.), shuningdek, tabiiy kult joylarni (tog`lar, ko`llar, g`orlar, buloqlar, daraxtzor);

- ziyorat joylarining joylashuvi bo`yicha – ichki (davlat chegaralari doirasida) va xorijiy ziyorat turlari (lot.tornare kruglit) ;

- shartligi (majburiy, kerakligi)ga ko`ra – ixtiyoriy va majburiy ziyorat turlari (masalan, islomda xaj ziyorati har bir dindor musulmon uchun shart hisoblanadi) [2,3].

Turli din vakillarining ziyorat maqsadlaridagi safarlarining majmuasi bo`lgan ziyorat turizmi turizmning eng qadimiy va ayni paytda eng yangi turi hisoblanadi. Ziyorat qilish muqaddas hisoblanadigan joylarga sig`inish maqsadida qilinadigan sayyohatdir. Ziyorat qilish an‘analarining rivojlanishi barcha asosiy dinlar uchun xos. Diniy turizmning bir turi bo`lgan ziyorat turli din vakillarining sayohatlaridan iborat. Soddaroq qilib aytganda dindor kishilarning muqaddas joylarga sajda qilish uchun sayohatidir. Kishilarning ziyorat qilish juda ko`p turli sabablar mavjud: diniy marosimlarni (ibodat, gunohlarga tavba qilish) bajarish, ruhiy takomillashish, xudoning marhamatiga erishish, ruhiy va jismoniy maslahat olish, diniy ma’rifatga

erishish, muqaddas joyga ibodat qilish va boshqa sabablar mavjud bo`ladi. Yakka xudolik bo`lgan barcha dinlarda ziyorat Xudoga ruhiyat, makon va zamonda kechadigan yo`l [1]. Barcha hududlarida diniy sig`inish bilan bog`liq bo`lgan va tabarruk deb hisoblanadigan joylar, narsalar va voqealar "muqaddas" hisoblanadi. Jahonning deyarli barcha xalqlarida qadim zamonlardan buyon muqaddas joylar maqomiga ega bo`lgan obyektlar mavjud.

Ommaviy turizmdan farq qilgan holda ziyorat turizmning hudud uchun asosiy sotsial - iqtisodiy afzalligi to`g`ridan – to`g`ri foyda olish emas, balki hududda yashaydigan aholi uchun sakral dasturlarning sotsial - psixologik va pedagogik sinergiyadadir. Bu yerda fuqoraviy mas'uliyatni oshirishda, madaniyat va ma'naviyatni shakllantirish, yosh avlodga yo`naltirilgan tarbiyaviy ish to`g`risida bormoqda. Ziyorat turizmini rivojlantirish uchun ko`p yillik ma'naviy an'analarning mavjudligi muhim omildir. Diniy sig`inish bilan bog`liq bo`lgan va tabarruk deb hisoblanadigan joylar, narsalar va voqealar "muqaddas" hisoblanadi. Insoniyat bunday madaniy, tarixiy va tabiiy meros yodgorliklariga "muqaddas joylar" maqomini beradi. Shu asosda muqaddas joylarni inson tomonidan yaratilgan va tabiiy muqaddas joylarga ajratish mumkin.

Ziyorat turizmi tirli din vakillaring ziyorat maqsadlarida safarlarining majmuasidan iborat. Ziyorat qilishni amalga oshirish ko`pgina har xil sabablar tufayli bo`ladi. Masalan, jismoniy yoki ruhiy xastaliklardan xalos bo`lish, qarindosh va yaqinlar uchun duo qilish, xudo marhamatiga erishish, kuch to`plash, biror - bir ishni amalga oshirish istagi bo`lishi mumkin. Shuningdek, qudratli kuchlarga bergan baxt - saodati, ravnaqi, ezguligi, dinga sadoqatini namoyon qilish, o`zining riyozat chekish, fidoyilik niyatlari va imkoniyatlarini sinovdan o`tkazish, shukrona aytish va boshqa maqsadlarda ziyorat qilinadi.

Ziyorat turizmning ildizlari ziyorat qilishgachilikka borib taqaladi. Ziyorat tabarruk sakral ahamiyatli joylarga sig`inish maqsadida qilinadigan sayyohatdir. Ziyorat qilish an'analarining rivojlanishi barcha asosiy dinlar uchun xos. Muqaddas Yer (Quddus - Ierusalim), Afon, Rim, Kompostella, Valaam va b. xrestianlarning ziyoratgohlari hisoblanadi. Musulmonlar Makka va Madinani ziyorat qilish – haj,

induslar uchun Ilahobod va Varanasini ziyorat qilish, lamaistlar Lxassni, buddistlar va sintoislar Narani ziyorat qilishadi

Ammo, kishilarning (ishonchdanmi yoki Yerdan tashqi kuchlarning ta'siri tufaylimi) shifo topishishi to`g`risida biror narsa deyish juda qiyin. Ammo, chuloqlarning yurib ketishi, ko`zi ojizlar ko`zining ko`rishi, og`ir kasalliklardan foriq bo`lganliklari inkor qilib bo`lmaydigan faktlardir.

Ekskursiya - ziyoratning bir qismi, ammo qo`shimcha, yordamchi qismi bo`lishi mumkin. Maqsadi yodgorliklarni, ibodatxonalarni, muzeylarni ko`rishdan iborat bo`lgan ekskursiya turlarida kishilar o`zlarining ma'naviy dunyosini boyitishga, dunyo qarashini kengaytirishga, din tarixi to`g`risida yangi bilimlar olishga harakat qiladilar. Ekskursiyada ma'naviy (diniy) niyat bilan sayohat qiluvchi va muqaddas joylarga sig`inishni orzu qiluvchi kishilar ishtirok etishadi

Ziyorat maqsadlarida amalga oshiriladigan safarlarning muhim jihatini ma'naviy - ma'rifiy maqsadlar tashkil etadi. Kishilar muqaddas joylarga borishida diniy muassasalarning tarixini va ma'naviy an'analarini, ibodat qilish xususiyatlarini, ziyorat yo`nalishidagi muqaddas joylar bilan hayoti va faoliyati bog`liq bo`lgan taqvodor avliyo va zohidlar to`g`risida ma'lumotlarga ega bo`lishadi.

Adabiyotlar

1.Abdullaev S.I. Ziyorat turizmining geografik jihatlari // Ўзбекистонда география таълими методикаси ва топонимика: тарихи, муаммолари ва истиқболлари. 26 - 27 апрель, 2019 йил Toshkent, 2019. 126 - 128 b.

2.Бабкин А.В. Специальные виды туризма. – Ростов-на-Дону: Феникс, 2008. – 252 с.

3.Байлагасов Л.В., Гоппа М.И. Классификации паломнического туризма // Международный научный журнал «СИМВОЛ НАУКИ» №10 - 3/2016 ISSN 2410 -700X 192. НАУКИ О ЗЕМЛЕ.

4.Лагусева Н.Н. Паломничество и религиозный туризм: грани различия (размышления в рамках круглого стола) // Вестник РМАт № 1 • 2017. - С. 95-100.

5.Мазин К.А. Паломничество и религиозный туризм: сравнение сквозь призму тысячелетий // Современные проблемы сервиса и туризма. – 2009. – № 4. – С. 8-24.

AMIR TEMUR G'ORI - TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA MUHIM MASKAN

Eshmurodov Kamol Alisherovich,
QarDU PI talabasi

Ma'lumki, O'zbekiston 1993-yilda o'z safiga 120 dan ortiq mamlakatlarni birlashirgan Jahon turistik tashkilotlarga a'zo bo'lgan. Turizm turlarining turli xil asosiy tasnif tamoyillari yoki belgilariga asoslangan turli xil tasniflar mavjud. Hozirgi davrda turizm dunyoning juda ko'p mamlakatlarida ommoviy tus olgan. Odatda turizm tashkilotlari orqali turizim marshutlari bo'yicha uyishtiriladi. Turizmning juda ko'p turlari va shakillari mavjud (ichki, xalqaro, havoskorlik turizmi, uyushgan turizm, yaqin joyga sayohat, uzoqqa sayohat, toqqa sayohat, suv turizmi, avtoturizm, piyoda yuriladigan turizm, sport turizmi va boshqalar).

Biz sizlarga Qashaqadaryo viloyati Yakkboq tumanida joylashgan eng guzal va eng qadimgi Amir Temur g'ori haqida o'z bilganlarimiz haqida ma'lumot bermoqchimiz.[1]

Amir Temur g'ori Yakaboq tumani Qizil daryoning Qal'ar Sheron irmog'i hududida joylashgan. G'or tabiati inson tomonidan o'zgartirilmagan, g'orda havo har doim yozda salqin qishda esa issiq hudud hisoblanadi. U yerda xilma xildagi daraxtlar jumladan, bodom, zirk, olcha, yovvoyi olma, zarang va boshqa daraxt turlari o'sadi. Shuning uchun g'or yaqinida dam olish maskanini tashkillashtirish maqsadga muvofiq boladi.

Hisor qo'riqxonasidagi mazkur g'or nega Amir Temur nomi bilan atalishiga to'xtalsak. Taqdir taqozasi bilan sarkarda ma'lum vaqt qo'shini bilan mazkur g'orda jon saqlagan. O'sha joyda turib otli qo'shin to'plagan, u yerga yaqin joydagi aholidan tashkil topgan qo'shin tuzgan. Xullas g'or uning qo'shiniga dushman hamlasidan

mustahkam va ishonchli qo’rg’on vazifasini o’tagan. Shundan so’ng Amir Temur g’ori nomi bilan atala boshlagan.

Amir Temurning bu yerda qolganligining asosiy tasdig’i g’orning kirish qismi boshida sun’iy ravishda yaratilgan maydoncha bor. U tosh bilan terilgan bo’lib, puxta tekislangan va tuproq bilan qoplangan. Shuningdek otlarni bog’lash uchun ham katta xoda mavjud[2]. G’orning ichida g’ayrioddiy pog’onalar g’alati shaklga ega tosh stalaktitlarni ko’rishimiz mumkin. Markaziy qismida katta ko’chki, janubiy qismida esa ko’l mavjud bo’lib, undagi suv 6-8 daraja atrofidagi haroratni saqlab turadi. G’aroyib ko’lga o’tadigan yo’lak tor bo’lib, undan faqat tana og’irligi 90 kilogrammdan oshmaydigan odamlar o’tishi mumkin.

G’orning umumiy uzunligi 670 metr yer osti qasrining to’rtta zali bor ular kichik zal, sumalakli zal, keng zal va ko’lli zal deb ataladi. Kichik zalning uzunligi 180 metr kengligi 8-10 metr ga teng. Devor va shiftlari tabiiy shakillar bilan bezatilgan. Ikkinchi zalga arka sifat torgina joydan o’tilgach kenglik boshlanadi. Sumalakli zalning 180-190 metr balandligi 15-20 metrga eni o’rtacha 6-8 metrga teng, zalning devor va shiftlarida turli xildagi sumalaklar, betakror tosh qoyachalar, marjon qoyalar va boshqalar ko’p. Keng zal boshqalariga nisbatan kattaroq uning uzunligi 200-210 metrni tashkil qiladi, eng baland joyi 25 metr, eni esa 28-30 metrni tashkil etadi. Hisor qo’riqxonasi yaqinidagi Qal’ai Sheron soyining tugash qismida baland ko’kimtir tosh qoyada Yura davriga oid 190-195 million yil avval yashagan 31 ta dinozavr izi mavjud..

G’orning kirish qismi balandligi 6 metr va kengligi 7 metrgacha bo’lgan arkaga o’xshaydi. Ichkarida balandligi 10-15 metrli ulkan yo’lak bor. Devorlarida medusa va boshqa hayvonlarga o’xshagan ohak oqib turadi. G’orning taxminan 400 metr ichkarisiga kirib boruvchi asosiy yo’lakda yon tomondan tarmoqlari mavjud emas va boshqa chiroyli obyektlar sayyohlarni o’ziga jalb qiladi. Bu yerda turizm maskanini qurishdan asosiy maqsad odamlarni o’ziga jalb qilishi va insonlar undan maroqli hordiq olish deb o’ylaymiz.

Amir Temur g’orida yil davomida havo bir xil 6-8 daraja iliq bo’ladi. Oxirgi ko’lli zalga tulki uyasidek keladigan laximdan o’tiladi, laximning uzinligi 15-18 metr

radusi 55-60 sm. Amir Temur g’ori haqiqiy ekoturizm maskan desak mubolag’a bo’ylaydi[3].

Langar ota ziyoratgohi haqida ham to’xtalib o’tsak, Langar ota ziyoratgohi Istiqlol yillarida ta’mirlanib, ziyoratchilar bilan gavjumlashgan Hazrati Langar ota ziyoratgohi Langar ota qishlog`ida joylashgan. Dengiz sathidan salkam 1000 metr balandlikda, XVI asrning oxiri XVII asrning boshlarida Ashtarxoniylar davlati hukmdorlari tomonidan barpo etilgan qo’sh maqbara Shayx Abul Hasan Ishqiya avlodlari Langar ota shayxlari maqbarasidir. Shiftdagi rangdor naqshlarda Sohibqiron Amir Temur bayrog`idagi "Abadiy hayot" ramzi shakllari naqshlangan. Shuningdek, Sulton Vayisdan qolgan ming yillik chinor va ul zotga daxldor Hukaktosh-Teshiktoshga chiqib, shifobaxsh Boshmanbuloq suvidan ichish mumkin.

Langar qishlog‘i uzoq asrlardan buyon odamlar uchun nafaqat muqaddas ziyoratgoh, balki tadqiqot manbai ham bo‘lib kelgan. XIX asrning ikkinchi yarmida Turkiston o’lkasi Rossiya tomonidan istilo qilingach ko‘plab rus ziyolilari harbiylari ulka tarixini o‘rganish maqsadida bu yerda saqlangan obidalar bilan tanishishga kirishganlar. Ular shu maqsadda o‘lkaning turli tomonlariga sayohatga chiqqanlar. 1889 yili Buxoro amirligining sharqiy hududlarida harbiy harakatlar olib borgan polkovnik Belyavskiy Langar qishlog‘ida bulgan va bu joyda saqlangan tarixiy obidalar haqida o‘z xotiralarida yozib qoldirgan. Langar qishlog‘iga yaqinlashgan sari baland qir ustida qad rostlab turgan mu’jaz maqbara ko‘zga tashlanadi[4]. Umuman olganda bu qishloqning manzarasi o‘ziga xos ko‘rinishiga ega bo‘lib, bu yerda tabiat va inson qo‘li bilan barpo qilingan go‘zallik o‘zaro uyg‘unlashib ketgan.

Langar qishlog‘ining qabristoni soyning chap tomonida yastanib yotgan qirning usti va yon bag‘rida joylashgan. Qabristonning atrofi va ichida pista daraxtlari o‘sib yotibdi. Qirning yon bag‘ridagi yo‘lak qirning ustida joylashgan maqbara tomon eltadi. O‘z bag‘rida Langarlik ulug‘ shayxlarni olib yotgan bu tabarruk maqbaraning gumbazi oppoq ko‘rinishda bo‘lib, uning tarxi xochsimon shaklda egadir, maqbara gumbazining ichki tomoni nozik nafis rang-barang naqshlar bilan qoplangandir[5]. Maqbaraning devorlari yaxshi pishirilgan qizg‘ish rangli g‘ishtlardan barpo etilgan va ganch qorishmasi bilan terilgan.

Nima uchun tog'li asosan tog'li hududdan turizm maskanini qurish kerak deb savol bersangiz unga javob tariqasida hozir tekislik qismga emas asosan hamma tog'li hududga intilyabdi, shunung uchun tog'li hududda dam olish maskanini qurish maqsadga muvofiq bo'ladi. U yerda turistlar uchun alohida avtomobillar ajratish kerak avtomobillarni ijaraga berishni ham yo'lga qoyish kerak. U yer tabiati haqida gapiradigan bo'lsak. Men o'sha g'or yaqiniga borganimda sharros yomg'ir quyib yuborgan edi. Yomg'irda ivib qolmaslik uchun ulkan archa daraxtining ostiga o'tirdim. Yomg'ir to'xtagach yana yo'limda davom etib baland qoyalar tomon chiqa boshladim. Tasavvur qilinga shundoq yonizda oppoq bulutlar suzib yursa qanday chiroyli manzarani ko'rishimiz mumkin.

Dam olish maskanini quramiz degan joy Hisor qo'riqxonasing tarixiy geografik nuqtalaridan biri hisoblanadi. G'or dengiz sathidan 2750 metr balandlikda joylashgan.

Pandemiyaning turizmga ta'siri haqida gapiradigan bo'lsak bu judayam salbiy oqibatlarga sabab bo'ldi. 2020-yilda taxminan 90 foiz turistlar kelishi kamaydi. Sayyohlarga ko'rsatilgan xizmatning hajmi ancha kamayib ketdi. Koronavirus pandemiyasing salbiy ta'sirini kamaytirish uchun O'zbekistonda turizm sohasi ishtirokchilariga bir qator imtiyozlar berish kerak deb o'ylayman.

Sarguzasht izlovchilar g'orlarning naqadar sirliligini bilishadi. Shuning uchun, tadqiqotchilar oldiga faqat jasurlar erisha oladigan o'ta murakkab vazifalar yuklatilgan. Bu gap Amir Temur g'orini o'rgaanishga nisbatan ham haqdir. Aytishlaricha, g'orning eng chuqir qismida xazina yashirilgan[6].

Qashqadaryoda ekoturizm yo'nalishi bo'yicha viloyatning tog' va tog'oldi hamda cho'l hududlarida sayyohlarning maroqli dam olishlari uchun barcha shart-sharoitlarni yaratish mazkur hududlarga xorijiy va mahalliy sayyohlarni jalb etish borasida bir qator ishlar olib borilyabdi. Hozirgi kunda asosan Muborak, Mirishkor, Yakkabog', Shahrisabiz, Kitob tummanlari bo'ylab ekoturistik yo'nalishlarni rivojlantirish yo'ga qo'yilgan.

O'zbekiston hozirda rivojlangan transport infrastrukturasiga ega. Manzilga yetib olishingiz uchun sizga Buyuk Ipak Yo'li davridagidek bir oy kerak emas. O'zbekiston

bo'ylab katta shaxarlarga aviatsiya yordamida yetib olish tez va qulay. Sayyohlar mamlakatning chiroyli manzaradan qulay va tez bo'lgan transport vositasi mashina yoki avtobuslardan foydalanadilar.

O'zbekiston faqatgina tarixiy va afsonaviy me'morchiligi bilan mashxur bo'lib qolmasdan, aktiv sayyohlik yo'nalishlariga ham ega. Mamlakatimizning geografik jihatdan qulay joylashganligi bu yerda zamonaviy qulaylik va yovvoyi tabiatning uyg'unlikka kirisha olishiga inkoniyat beradi. O'zbekiston hududida har qanday tabiat landshaftlarini; tog', vodiy, cho'l, daryo va ko'lni uchratish mumkin.

Adabiyotlar

1. AManbaa: www.centralasia-adventures.commir "Temur g'ori" O'zME. A-harfi 2. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil.

3. Tabiatni muhofaza qilish to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi qonuni. 1992 yil 9 dekabr.

4. I.S.Tuxliyev "Turizm asoslari" fanidan o'quv qo'llanma, Samarqand 2010.

5. Mirzayev Murod Ahmadjonovich, Aliyeva Mahbuba To'ychiyevna "Turizm asoslari fanidan" o'quv qo'llanma, Toshkent 2011.

6. M.N. Pardayev, R.Atabayev ma'ruzalar matni, Samarqand 2007

Ilmiy rahbar: D.Olimova

TARIXIY QADAMJOLARDA XO'JA DONIYOR MAQBARASINING O'RNI

Chuliyeva Oynur, *QarDU PI talabasi,*
Hazratqulova Zarina, *QarDU PI talabasi*

Xo'ja Doniyor maqbarasi Samarqanddagi eng mo'tabar va mashhur ziyoratgohlardan hisoblanadi. Xo'ja Doniyor maqbarasini uch din – islom, xristianlik va hinduizm vakillari bir xil darajada aziz va tabarruk deb ziyorat qiladilar. Doniyor, Daniil, Daniel – bu musulmon, nasroniy va yahudiy adabiyotlaridagi bitta aziz avliyoning nomidir. Injilda talqin etilishicha, Daniil yahudiy tilidan tarjimasi «Olloh hakam» ma'nosini bildiradi. Doniyor Iyerusalimda eramizdan avvalgi 603-yilda tug'ilgan bo'lib, shoh Dovud va Sulaymon (Solomon) larning avlodiga mansubdir. Er. avv. 586-yilda Isroil, Bobil shohi Novoxudonosor tomonidan bosib olinganidan so'ng,

Doniyor, Bobil (Iroq) ga boshqa zodagonlarning bolalari bilan olib ketiladi. Ular turli xil fanlarni o‘rganishadi. Doniyor eng qobiliyatli yahudiy yoshlardan hisoblangan. U o‘zining diniy e’tiqodlari mustahkamligini namoyon qilgan, sharob va may ichishdan, go‘shtli ovqatlardan voz kechib, faqat sabzavotlarni iste’mol qilgan holda diniy qoidalarga rioya qilgan. Shuning uchun uning donishmandligi, dinga taqvodorligi Injilda talqin etilishicha, Ollohning mukofoti deb bayon etiladi. Shoh Novoxudonosorning tushi ta’birini donishmandlik bilan izohlab bergani uchun uni katta ehsonlar bilan siylaydi va o‘zining yaqin kishilari qatoriga qo‘shadi. Forslar kelishi bilan, shoh Doriy Doniyorni mamlakatni boshqaradigan kishilar qatoriga ko‘tardi. Bunday iltifotlar shohga yaqin saroy xodimlarining rashkini keltiradi. Bu kishilar Doniyorga tuhmat uyushtirib, shoh farmoni bilan uni och sherlar chohiga tashlaydilar, lekin hayvonlar unga tegishmaydi ham. Shunda shoh buyrug‘i bilan bo‘htonchilarning o‘zini chuqurlikka tashlashadi va sherlar ularni tilka pora qilishadi. Afsonaviy avliyo yahudiy asirlarning fors shohi tomonidan ozod etilishigacha bo‘lgan davrgacha yashagan, lekin keksayganligi sababli vataniga qayta olmaydi va Suza shahrida, hozirgi Mosul (Iroq) shahrida izzat-hurmat bilan ko‘miladi. Shundan avliyoning ko‘milgan joyi to‘g‘risida tarixchilarning ba’zi chalkashliklari kelib chiqqan. Olimlar o‘rtasida haligacha, qachon va qay tarzda Samarqandda Doniyor payg‘ambarning maqbarasi paydo bo‘lganligi to‘g‘risida yagona fikr mavjud emas. Keng tarqalgan afsonaga muvofiq, buyuk sarkarda Amir Temur o‘zining Kichik Osiyoga (1397-1404) yetti yillik yurishi vaqtida, buyuk sarkarda bo‘lishiga qaramay, Suzani zabt eta olmagan. Sohibqiron xudojo‘ylardan, shaharni avliyo Doniyorning tabarruk xoki asrab keladi deb eshitadi. Shunda Amir Temur qamal qilinganlar bilan ahdlashib, ularning mol-mulkiga tegmaslikka va asirlarni qullikka olib ketmaslikka va’da berib, buning evaziga avliyoning bir qism xokini, ya’ni o‘ng qo‘lini Samarqandga olib ketishni, toki saltanatini har xil ofatlardan saqlasin deb taklif etadi. [1]

Avliyo Samarqandga ko‘milganidan so‘ng qabrning bosh tarafidan buloq otilib chiqadi va shahar aholisi, uning atrofidagilar bu suvni tabarruk deb biladilar va undan foydalanadilar. Lekin bu afsona islom dini udum va qoidalariga zid bo‘lib chiqadi,

ya’ni o‘tganlarni bezovta qilish mumkin emasdir. Haqiqatga yaqini balki, buyuk sarkarda Samarqandga Suzadan bir qism xoklarini olib kelgan bo‘lsa kerak va uning buyrug‘i bilan maqbara harbiy yurishning muvaffaqiyatli g‘alabasi nishonasi sifatida qurilgandir. Amir Temurning tarjimai holi tadqiqotchilarining yozuvlarida ham bu voqea to‘g‘risida hech qanday ma’lumotlar yo‘q. Ba’zi tarixchilarning ta’kidlashicha, fors tarixchisi Ishtahriy Movarounnahrga, Temur tug‘ilganidan to‘rt yuz yil oldin kelgan va hazrati Doniyor maqbarasi shaharda o‘sha davrda mavjud ekanligini yozadi. Ba’zi bir tadqiqotchilarning ishonchli asoslariga ko‘ra esa, Samarqandga hazrati Doniyorning tabarruk xokini islom dinigacha mavjud bo‘lgan yahudiylar diniy jamiyati olib kelgan bo‘lib, mahalliy otashparastlar bu dindorlarga hurmatda bo‘lib, shahar chetida ibodatxona qurishga ruxsat etganlar. Buning tasdig‘i sifatida maqbaraning atrofidagi madaniy qoldiqlar arxeologlar tomonidan er.av. VII-VI asrlarga tegishli bo‘lib, Injilda ko‘rsatilganidan Doniyor payg‘ambarning yashab o‘tgan davriga to‘g‘ri keladi.

Samarqandga payg‘ambarning xokini nasroniylar ham olib kelishlari mumkin edi, chunki ma’lumki, Vizantiya hukmdori Zenon davrida, Doniyorning bir qism xoki Konstantinopolga (hozirgi Istanbul) ko‘chirilgan edi. Va nihoyat, shunday mulohaza ham borki, maqbarada haqiqatdan ham Doniyorning - Muhammad Payg‘ambarning amakisining o‘g‘li Qusam ibn Abbos safdoshining xoki ko‘milgan. Bu haqda Samarqandlik tarixchi Abu Tohirxo‘ja «Samariya» kitobida shunday yozadi: «Xo‘ja Doniyorning qabri Samarqand shahrining chetida, Afrosiyob qo‘rg‘onining shimoliy devori pastida joylashgan. Maqbaraning yaqinidan Siyob daryosi oqadi. Avom bu qabrni Doniyor payg‘ambarning qabri deb biladi, lekin uning qabri Mosul viloyatidadir. Aytishlaricha, bu qabr Qusam ibn Abbos safdoshlaridan birining qabridir. Olloh rahmat qilsin! Qabr Zarafshonning toshlari bilan qoplangan. Aytishlaricha, Xo‘ja Doniyor juda taqvodor, xudojo‘y bo‘lgan. Qabrning bosh tomonida, Siyob arig‘i yaqinidan Xo‘ja Doniyor buloq-chashmasi ham bor. Xalq uni tabarruk bilib ichadilar va cho‘miladilar. Uni ko‘p kasallar shifosiga sabab deb biladilar. U kishiga tangrining rahmati bo‘lsin!.» Bu haqda Abul Hakim Samarqandiyning «Qandiya» kitobida quyidagilarni yozadi:» Samarqandda bir

chashma borkim, jannat chashmalaridandur va Obi Rahmat arig‘i yaqinidadur. Tarixchilarning aytishlariga qaraganda, ushbu suv Doniyor Payg‘ambar qabrlari bosh tarafidan oqadi va mazkur chashma shifo-salomatlik sababchisidir va bu suvning bir qismi Bog‘i Maydon tomon oqar va Obi Rahmatga qo‘shilur. Yuqorida Doniyor Payg‘ambarning qabri bo‘lib, ul zot baraka keltiruvchi Payg‘ambar hisoblanganlar». Yana bir O‘rta Osiyo manbalari bizga Doniyor Payg‘ambarning xizmatlari haqida ma’lumot beradi – bu Binoiyning «Tush ta’biri» kitobidir. Bunda ko‘pgina hikmatli so‘zlar «Doniyor alayhissalom keltiradilarkim»- so‘zi bilan boshlanadi. Maqbaraning shimoliy tomonida 500 yoshlik pista daraxti hamon ko‘karib turibdi. Yarim qurigan bu pista daraxti 1996-yili Moskva va Butun Rossiya patriarxi Aleksiy II tomonidan qabrni ziyorat qilinib va daraxtni muqaddaslashtirilganidan so‘ng, yana gullab ketishi diqqatga sazovordir. Maqbara ichida dunyodagi eng uzun qabrni ko‘ramiz, u 18 metr uzunlikka ega. Qabrning balandligi janub tomonida 90 sm, shimol tomonida – 160 sm, shimol tarafi birmuncha kengroq – 2m chunki, bu tomondan to‘rtburchak sag‘ana o‘rnatilgan. Sag‘ana pishiq g‘isht bilan terilib, qumshuvoq qilingan va qur’oniy yozuvlarga ega bo‘lgan marmar panellar bilan bezatilgan. Sag‘ananing qarama-qarshi tomonida, maqbaraning shimolga qaratilgan derazasining tokchasida, hajmi uncha katta bo‘lmagan, mahalliy aholi «niyattoshi» deb atalgan, arabiy yozuvlarga ega bo‘lgan tosh bor. Ziyoratchilar Hazrati Doniyor qabrini bir yoki uch marta niyat qilib aylanadilar va bu toshni ko‘tarishga yoki hech bo‘lmasa qimirlatishga xarakat qiladilar. Qabrning uzunligi to‘g‘risida bir necha rivoyatlar bor. Ularning birida aytilishicha, olib kelingan turbatmuqaddas hisoblanganligi uchun, yomon niyatli kishilar qoldiqlarni kovlab olib ketishlari mumkin edi. Shuning uchun uzun qabr kovlanib, Payg‘ambarning qoldiqlari uning qayerigadir ko‘milgan. [1]

Boshqa mulohazalarga qaraganda (bu ingiliz olimi Stounga tegishli) dunyoda o‘sadigan qabrlar bor emish. Va Doniyor Payg‘ambarning qabri shu qabrlar sirasiga kiradi. Bu fikrga ko‘ra, har 100 yilda payg‘ambarning suyaklari bir gazga (72 sm) o‘sar ekan, shuning uchun qabr shunday uzunlikka ega ekan. Pirovardida, agar qabrning ikki tomoni aylana shaklida birlashib, yer sharini qamrasa, yer yuzida jannat bo‘lar ekan. [2]

Doniyor payg‘ambar maqbarasi turli davrlarda turlicha ko‘rinishga ega bo‘lgan. Chor Rossiyasi davrida nashr etilgan kitobda Doniyor Payg‘ambarning 1870-1980-yillardagi gravyura surati aks ettirilgan. Undan shu ma’lum bo‘ladiki, o‘sha davrlarda Doniyor Payg‘ambar qabri usti daryo toshlari bilan terilgan va uning atrofida kichik ayvon va xona (masjid) mavjud bo‘lib, qabr atrofida ruhoniy va avliyolarning belgisi bo‘lgan oltita tug‘ o‘rnatilgan. Tug‘lar maxsus toshlarga o‘rnatilgan bo‘lib, hozirda ham ushbu tug‘larni ushlab turgan toshlar bor, lekin tug‘lar saqlanmagan. XIX asr oxirlarida ushbu qabr ustida maqbara qurildi. Unga boradigan asosiy yo‘l qadimiy Afrosiyob shaharchasidan bo‘lib, maqbaradan sal balandroqda kirish darvozaxona-ayvoni qurilgan. Uning qoldiqlari hanuzgacha saqlanib kelinmoqda va u ham maqbara qurilgan paytda bino etilgan. Hazrati Doniyor qabri ustidagi mavjud bo‘lgan maqbara XX asrning boshida Samarqand sovunpazlarining ustozi Mahmud oqsoqol tomonidan bunyod etilgan, chunki Hazrati Doniyor sovunpazlarning piri hisoblanadi. [3]

Ba’zi ma’lumotlarga ko‘ra, maqbaraning qurilishida Miroshnichenko ismli rus tadbirkor-savdogar ham o‘z hissasini qo‘shgan. Maqbarada ko‘pgina ta’mirlash ishlari amalga oshirilgan. Ziyoratgoh atrofi devor bilan o‘ralib, ziyoratgohga chiqish uchun 3 qismli zinapoya qurildi. Shu bilan birgalikda qabr atrofi oniks va qora marmar bilan qoplandi. XX asrning boshlarida olingan bir fotosuratda maqbara olti gumbazli bo‘lgan, hozirgi vaqtda esa gumbazlarining soni beshta bo‘lib, ular keyinchalik buzilib, qaytadan tiklangan bo‘lishi mumkin. Maqbaraning shimol tomonida imoratning yuqori qismini ikki burchagidan pishiq g‘ishtdan terilgan qubbalar bezatadi. Ular yevropacha uslubda qurilgan. Ichki qismida, o‘sha davrda qo‘llaniladigan, qalqonsimon langarlar, hamda gumbazlarni ko‘tarib turgan ravoqlar ishlatilgan. 2001-yilda majmua atrofida arxeologik qazishmalar olib borildi. XIV asrga tegishli masjid qoldiqlari topildi. Masjidning mehrob tokchasi Makka tomoniga qaratilgan. Qariyalarning aytishlaricha, masjid ikkinchi jahon urushi davrida noma’lum sabablarga ko‘ra buzilgan. Imoratning devorlari cho‘pkori uslubida qurilgan bo‘lib, tagsinch bolori pishiq g‘ishtli asosga yotqizilgan edi. Masjidning shimoliy qismida maydoni 25 kv.m. li ayvoni va masjidga kirish eshigi shu yerdan bo‘lgan. Ayvonning shimoli-g‘arbiy burchagida uzunligi 80sm, eni 40sm, qalinligi 20sm

kattalikdagi ikkita to‘g‘ri burchakli tosh plitasi topildi. Ular qabr toshlar yasash uchun xomashyo edi. Masjid janubiy devorining tag qismi sinchiklab o‘rganilganda u yerda XVII asrga oid g‘ishtlar topildi. Mehrobli devor esa, ancha qadimgi devor o‘rnida, jarlikning yonbag‘rini ushlab turish uchun qurilgan ekan. Bu yerdagi va janubiy devor tagidagi g‘ishtlar XIV asr oxiri va XV asr boshlariga oiddir. Quyiroqda buloq tomon boradigan yo‘lakda esa, IV-VII asrga va hatto I-IIasrlarga oid buyumlar topildi. Islom dinigacha, mahalliy zardushtiylar shunday buloqlar oldida turli diniy marosimlarni bajargan. Bu yerda ham islomgacha bo‘lgan davrda muqaddas hisoblangan qandaydir maskan bo‘lgan bo‘lishi ehtimoldan holi emas. Xulosa qilib aytganda bularning barchasi Hazrati Doniyor payg‘ambarning muqaddas majmuasi haqida, bizlarga hali o‘z sirlarini to‘laligicha ochgan emas. Arxeologik qazish ishlari davom ettirilmoqda va kelgusida maqbara to‘g‘risida kengroq ma’lumotlar olinadi degan umiddamiz. 1995-yildan boshlab maqbara va uning atrofidagi maydonlarda katta qurilish-ta’mirlash va obodonlashtirish ishlari olib borildi.

Adabiyotlar

1. “Tarixiy obidalar – ma’naviyatimiz yog’dusi” Germaniya GlobeEdit – 2021[1]
2. https://uz.m.wikipedia.org/wiki/Xoja_Doniyor_maqbarasi [2]
3. https://meros.uz/object/xoja-doniyor-maqbarasi [3]

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИДА ТУРИЗМНИ РИВОЖЛАНТИРИШДА МУЗЕЙЛАРНИНГ АҲАМИЯТИ (СУРХОНДАРЁ ВИЛОЯТИ МИСОЛИДА)

Эралов Азамат Жомуродович,
ҚарДУ стажёр-тадқиқодчиси

Сурхондарё вилоятига ташриф буюрган хорижий сайёҳларни энг авволо вилоятдаги маданий туристик ресурс маркази Термиз шаҳридаги ўкашунослик ҳамда археология музейини таништиришдан бошланади. Шу сабабли вилоятга ва вилоят марказига ташриф буюрган хорижий сайёҳларга шаҳарнинг жойлашган ўрни ва таркиб топиш тарихи ҳақида батафсил сўзлаб бериш мақсадга мувофиқ ҳисобланади.

Вилоят ўлкашунослик музейи, “Ҳаким ат–Термизий” меъморий мажмуасидаги “Мерос” тармоқ музейи бор. Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти И.А.Каримовнинг 2500 йиллигини акс эттирувчи Сурхондарё археология музейи бунёд этилди. Вилоят мусиқа драма, қўғирчоқ театрлари ишлаб турибди; 4 та шаҳар кутубхонаси ҳамда 2 та тармоқ кутубхона мавжуд, ҳайвонот боғи бор. Хорижий ва маҳаллий сайёҳларни шаҳарнг келиб чиқиш тарихи ва диққатга сазовор жойлари билан таништирилгач, уларни “Ҳаким ат-Термизий” меъморий мажмуаси билан таништирилади.

1) Сурхондарё вилоятининг муҳим маданий туристик объектларидан бири вилоятнинг **археологик музейи** ҳисобланади. Ушбу музей Ўзбекистон Республикаси мустақиллиги шарофати ва шахсан Ўзбекистон Республикаси Биринчи Президенти И. А. Каримов лойиҳаси ва ташаббуси билан бунёд этилган маънавият масканидир.

2) Марказий Осиёда ягона ҳисобланган Термиз шаҳридаги Сурхондарё вилоятидаги Археология музейи кўргазмалари кириш зали, 9 та зал ва устунли айвон (галереядан) иборат. Музейнинг кириш залида воҳанинг ҳар бир тарихий даврига хос тош ва ганчдан ясалган ноёб ҳайкаллар, тош ҳовуз ва катта ҳажмдаги сопол идишлар жой олган бўлса, 9 та асосий кўргазма залларида милоддан аввалги 100 минг йилликдан XX аср бошларига қадар Сурхондарё вилояти ёдгорликларини ўрганиш жараёнида топилган оддий тош қуролларидан тортиб, юксак дид билан яратилган санъат намуналаригача намойиш этилган. Кириш залидан кўргазмалар қўйилган 9 та залга ўтилади:

3) Сурхон воҳаси тош даврида (милоддан аввалги 100-3 минг йилликлар)

4) Сурхон воҳаси жез даврида (милоддан аввалги 3-1 минг йиллик бошлари)

5) Қадимги Бахтрия маданияти (милоддан аввалги 1-минг йилик бошлари-милоддан аввалги IV аср)

6) Бахтриянинг македониялик Искандар ва эллинистик давлатлар даври маданияти (милоддан аввалги 329 йил - милоддан аввалги II аср ўрталари)

7) Қадимги Бахтриянинг Кушон даври маданияти (милоддан аввалги 1-милодий, III асрлар)

8) Шимолий Тоҳаристон илк ўрта асрлар даврида (милодий IV–VII асрлар)

9) Шимолий Тоҳаристон ривожланган ўрта асрлар даврида (IX–XII асрлар 1-чораги)

10) Термиз ва Чағониённинг Амир Темур ва темурийлар даври маданияти (1370 йил–XVI аср бошлари)

11) Сурхон воҳаси XVI–XX аср бошларида.

Музейнинг киришидан кейинг 1-залида Сурхон воҳасининг тош даври (милоддан аввалги 100-3 минг йилликлар) маданиятига хос экспанатлар ва ибтидоий одамлар яшаган Ҳисор ва Кўҳитанг тоғларидаги ғорлар ва ушбу ғордан топилган ёш боланинг бош суяги ҳайкал тарзида ясаб кўргазма залига қўйилган. Бундан ташқари ушбу залда ибтидоий одамлар томонидан тошдан ясалган кескич, тараилагич ва чопқиларнинг намуналари қўйилган. Бундан ташқари ушбу залда ибтидоий одамлар томонидан чизилган тасвирий санъат намуналари Зараутсойдаги ғор деворларига битилган суратлар ҳам акс эттирилган. Зараутсойдаги ғор деворларига чизилган суратларда ибтидоий одамларнинг ов қилиш маросими тасвирланган. Музейнинг 2-зали Сурхон воҳасининг бронза даври (милоддан аввалги 14-1 минг йиллик бошлари) даги маданий ҳаёти тасвирланган экспонатлар жойлаштирилган. Милоддан аввалги 2-1 минг йилликларни қамраб олган бронза (жез) асрида Марказий Осиёда туб ўзгаришлар юз берган. Бу даврда ибтидоий одамлар қалайи, мис ва қўрғошин қотишмаларидан таркиб топган жез (бронза) қуроллари янада такомиллаштирилади, кулолчилик ва чархнинг ихтиро қилиниши ҳунармандчиликнинг деҳқончиликдан алоҳида хўжалик сифатида ажралиб чиқишига олиб келди. Жез даврига келиб меъморчилик ривожланган ва суғорма деҳқончиликка асос солинган, минтақалараро мос айирбошлаш юзага кела бошлаган. Вилоят ҳудудида сўнги жез даврига оид дастлабки ўрганилган

ёдгорлик **Сополлитепа** ёдгорлиги ҳисобланади. Шу боис Сурхон воҳасининг сўнги жез асрига мансуб маданияти Сополлитепа маданияти деб аталади.

Милоддан аввалги XV асрда Сополлитепада ҳаёт излари сўнади ва бу жойда истиқомат қилган одамлар Шерободдарё ҳавзасига унинг қадимий ирмоқларидан бири –Бўстонсой қирғоқларига кўчади. Бу обида **Jarqo'ton** номи остида маълум. Жарқўтон ёдгорлиги алоҳида муҳофазаланган қалъа сарой ва унга туташ қисмдан, шу жумладан, воҳа учун диний марказ вазифасини ўтаган ибодатхона, алоҳида – алоҳида тепаликлар шаклида турар жой биноларидан иборат маҳаллалар, кулоллар устахоналари ва хумдонлар, шунингдек, мозор – қабристондан иборат. Жарқўтон ёдгорлигининг умумий майдони, унда маҳобатли иншоатларнинг мавжудлиги, ҳунармандчиликнинг тараққий этгани, бу жойлар шаҳар **туркумидаги маданият бўлганлигини кўрсатади.**

Музейнинг 3-зали милоддан аввалги 1 минг йиллик бошлари - милоддан аввалги ИВ асрни ўз ичига олган Қадимги Бақтрия ўлкаси маданиятига оид кўргазмалар билан жиҳозланган. Милоддан аввалги минг йилликнинг биринчи чорагида ўз тасаррувфига Сурхон воҳаси, Жанубий Тожикистон ва Шимолий Афғонистон ерларини бирлаштирган Бахтрия ўлкасининг иқтисодий, сиёсий ва маданий ҳаётида чуқур ўзгаришлар юз берган. Бу жараён бевосита темирдан меҳнат қуроллари ясашнинг ихтиро қилиниши билан боғлиқ. Воҳада **қадимги Бақтрия** подшолиги даврида шаҳарсозлик ва меъморчилик билан бир қаторда ҳунармандчилик ҳам тараққий топган. Буни Миршоди воҳасида топилган тошдан ясалган одам бош суяги тасвири, Кучуктепа, Қизилтепа, Талашнон каби обидалардаги уч қиррали тошкесар, темир ва тошдан ясалган ярим ой шаклидаги ўроқлар, кели ва келисоплар шулар жумласига киради. Милоддан аввалги ВИ–ИВ асрлар кулолочиликнинг асосий хусусиятларидан бири–дон ва сув сақлашга мўлжалланган улкан хумлардан тортиб мўъжаз сапол идишларнинг аксарияти чархда ясалганлиги ва банкасимон кўринишга эга бўлганлигидадир.

Археология музейининг 4-залида Бақтриянинг **македониялик Искандар** ва **эллинистик давлатлар** даври маданияти (милоддан аввалги 329 йил

милоддан аввалги II аср ўрталари)га бағишланган кўргазмалар билан жиҳозланган.

Милоддан аввалги 320 йилда македониялик Искандар бошчилигидаги юнон – македон қўшинларининг Окс (Амударё) ва Яксарт (Сирдарё) оралиғидаги худудни эгаллаши учун юриши бошланди. Бу юриш милоддан аввалги 327 йилда Окс ва Яксарт оралиғидаги катта бир қисмини эгаллаш билан тугади. Македониялик Искандар бошчилигидаги юнон–македон қўшинларининг истибдоди қўшни ўлкалар сингари Бахтрияда ҳам тушкунликка ва вайронагарчиликка олиб келган.

Воҳа ҳаётининг қайтадан тикланиши Салавкийлар ва айниқса юнон–Бахтрия шоҳлиги даврига келиб Окс (Амударё) бўйларида жойлашган Кўхна Термиз шаҳри сифатида шаклланган, кечув жойида қалъа вазифасини ўтаган Кампиртепа, Ҳаитободтепа, Жондавлаттепа каби шаҳарчалар кенгайтирилган ва Далварзинтепа каби шаҳар, қишлоқ ва қалъаларга асос солинган.

Юнон – Бахтрия шохлари номидан зарб этилган тангачаларнинг юза қисмида Диёдот, Димитрий ва бошқа ҳукумдорларнинг кўкрагигача тасвири туширилган бўлиб, айнан портрет шаклидадир. Юнон – Бақтрия подшолиги даври ўймакорлик, шишасозлик, сангтарошлик каби ҳунармандчилик турларининг энг тараққий этган давридир. Музейнинг 5-зали Қадимги Бақтриянинг Кушон даври (милоддан аввалги I – милодий III асрлар) кўргазмалари билан жиҳозланган. Милоддан аввалги I милодий III асрларда ҳукумронлик қилган кушон подшолиги нафақат Ватанимиз тарихида, балки бутун Марказий Осиё тарихий ўлкалари халқлари, иқтисодий ва маданий тараққиётида муҳим ўрин тутган давлатлардан бири саналади.

Археология музейининг 6-залида Шимолий Тоҳаристон илк ўрта асрлар даври (милодий IV–VIII асрлар) даги кўргазмалар билан жиҳозланган. Тоҳаристён ўз таркибига Сурхондарё вилояти, Жанубий Тожикистон ва Шимолий Афғонистон ерларини қамраб олган бўлиб, ҳудудий жиҳатдан Кушон даври Бақтрия ўлкасига тенг бўлган. V–VIII асрлар давомида Тоҳаристон марказий ҳокимияти расман қарам кўплаб кичик мулкликларга (уларнинг сони

24 та) бўлган. Чағониён, Термизшоҳлар, Куфтан каби мулкликлар Шимолий–Ғрбий Тоҳаристон, яъни Сурхон воҳасида жойлашган. Термизшоҳлар (хитойча Томи) пойтахт номи билан аталиб, Амударёнинг ўнг қирғоғидаги ерларни ва ҳозирги Ангор, Термиз ва Жарқўрғон туманларини ўз ичига олади. Бу мулклик Термизшоҳ тамонидан идора этилган. Чағониён мулклигининг матказий шаҳри Чағониён Қизилсувнинг Сурхондарёга қуйилишида жойлашган Будрач ҳисобланади.

Музейнинг 7–зали Шимолий Тоҳаристоннинг ривожланган ўрта асрлар даври (IV –XIII асрлар биринчи чораги)га оид экспонатлар ва ашёвий далиллар билан жиҳозланган. IV аср охиридан то XIII асрнинг 20–йилларига қадар Термиз ва Чағониён Самонийлар, Қорахонийлар, Ғазнавийлар, Салжуқийлар, Қарлуқлар ва Хоразмшоҳлар давлатлари ҳукумронлиги остида бўлиниб кетди.

Археология музейининг 8-зали Термиз ва Чағниённинг Амир Темур ва Темурийлар давлати даври маданиятини ёритишга қаратилган (1370 йил – XVI аср бошларида). 1370 йилда Амир Темурнинг тахтга келиши баёнида Термиз саййидлари ака – ука худоваизодалар Абу муъали ва Али Акбарлар тилга олинган. Айни шу йилдан бошлаб Соҳибқирон ва Термиз саййидлари ўртасида яқин муносабатлар юзага келган. Амир Темур 1399 йилда Ҳиндистон юришидан ва 1404 йилда Ғарб томонга амалга оширган муҳобасидан қайта туриб Термизда қўниб ўтган. 1409 йилга қадар Термиз термизий Ҳалил Султон ва ундан сўнг Шоҳруҳ мирзо ҳукмронлиги даврида Мирзо Улуғбек давлати тасарруфида бўлган.

Амир Термур даврида Чағонён ўлкасининг марказий шаҳри Чағонён ҳам ўз мавқеини сақлаб қолган. Археологик далилларга кўра, XV аср оҳири – XVI аср бошларига келиб Чағониёнда ҳаёт шаҳристонидан работга кўчган.

Музейнинг 9-зали Сурхон воҳасининг XX аср бошларидаги тараққиётига бағишланган. XVI асрнинг бошларидан XVIII асрнинг биринчи ярмига қадар Сурхон воҳаси Шайбонийлар ва Жонийлар (Аштархонийлар) давлатлари қўл остида бўлган. XVIII асрнинг биринчи ярмида XX аср бошларигача воҳа Бухоро амирлигининг таркибий қисми ҳисобланган. Воҳанинг хонликлар давридаги

муҳим марказларидан бири Термиз шаҳри ҳисобланган. Шаҳарнинг муҳим қисми ҳукмдор қароргоҳи, бозор, мадраса ва ҳашаматли жума масжиди ҳисобланган. XVIII аср бошида Шерободга асос солинган. XIX асрга келиб Шеробод Шарқий Бухоронинг йирик иқтисодий ва маданий марказига айланган. XVI аср оҳирида Чағониён (Будрач)нинг батамом тушкунликка юз тутиши оқибатида янги шаҳар Қизилсувнинг юқори ҳавзасидан Деҳинау (Денов) ўрнида шаклланган. XVIII аср ёзма манбаларида Денов мустаҳкам қалъадан иборат, говжум бозорли, катта хонақоҳ шаҳар тусини олган. Ташқи савдода ва Жайхун (Амударё) бўйлаб юк ташишда Паттакесар, Термиз, Ёргоҳ, Чўчқагузар ва Қоракамар кечувлари жуда муҳим бўлган. XVI асрдан то XX аср бошларига қадар, яъни Амударёда Чор Россияси флотилияси ташкил бўлгунга қадар бу гузарлардан мунтазам фойдаланилган.

Адабиётлар

1. Мирзиёев Ш.М. Миллий тараққиёт йўлимизни қатъият билан давом эттириб, янги босқичга кўтарамиз. 1-ж. – Т.: – “Ўзбекистон” НМИУ, 2017. – 592 б.

2. Мирзиёев Ш.М. Нияти улуғ халқнинг иши ҳам улуғ, ҳаёти ёруғ ва келажаги фаровон бўлади. 3-ж.– Т.: – “Ўзбекистон” НМИУ, 2019. – 400 б.

3. Мирзиёев Ш.М. Олий Мажлисга Мурожаатномаси 2020 йил 24 январь. / – “Халқ сўзи”, 2020 йил 25 январь.

4. 2017-2021-йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2017 йил 7-февралдаги Фармони. / – Т.: – “Адолат” 2017.

5. Аҳмедов Э. Ўзбекистон шаҳарлари мустақиллик йилларида.- Тошкент, 2002.

6. Комилова Ф.К. “Туризм соҳасининг ривожланиш истиқболлари”.“Иқтисодиёт ва таълим” № 1, 2004 йил 68 бет.

7. Назарова Г. Комилова Ф.“Ўзбекистонда туризм имкониятларини кенгайтириш”. Ўзбекистон иқтисодий ахборотномаси. Журнал. 2000 йил 49 бет.

MUNDARIJA

I SHO'BA: O'ZBEKISTONDA TURIZM VA REKREATSIYANI RIVOJLANTIRISHNING GEOGRAFIK MUAMMOLARI VA IMKONIYATLARI

1.Jankabilov I. X. "Nivelirlash" mavzusida laboratoriya mashg'ulotlarini o'tishda interfaol metodlardan foydalanish.	4-10
2.Шодманов Ф. Ю. Перспективы развития туризма в узбекистане.	10-16
3.Ғаффарова Г. Зиёратгоҳлар - ўзбекистонда зиёрат туризмини ривожлантиришнинг асосий пойдевори.	16 -24
4. Mukumova H.I., Abdullayev S.I., Nurmatov N. Muqaddas joylar sakral geografiyaning obyekti sifatida.	24-30
5. Байқабилов Х. М. Пойтахт шаҳарларни кўчириш режалари.	30 - 38
6. Файзуллаев М.А., Новотова Д.И. Қашқадарё вилоятида аграр-индустриал циклнинг шаклланиши ва ривожланиши.	38-44
7. Азимов Б. Г., Жанкобулов И. Х., Эркинова К. Б., Абдуназаров Н. Ш. Роль «полезных россыпей антропогенного происхождения» в стратегии развития Узбекистана.	44-49
8. Ярашев Қ.С., Юсупов Б.Б., Очилов С. Тоғ ва тоғолди ландшафтларида экотуризм ривожлантиришнинг айрим масалалари (Ҳисор давлат қўриқхонаси мисолида).	49 -55
9. Lapp E. A., Kochetkova E. O. Scientific and theoretical basis for studying the historiography of the uzbek people.	55-65
10. Хидиров Ҳ. Ж. Ўзбекистон иқтисодиёти ривожида Термиз дарё портининг аҳамияти.	65-73
11. Туропова М. Т. Жанубий ҳудудлар аҳолисни ижтимоий қатламларида антропологик омилларни ўзгариб бориш жараёнлари	73-78
12. Dusaliyev M. T. Turizm va rekreatsiyani rivojlantirishda O'zbekistonda geografik muammolar va yechimlar.	78 -84
13. Назиров У.Қ. Мамлакатимизда туризм соҳасини ривожлантириш истиқболлари (Бухоро вилояти мисолида).	84-87
14. Mukumova H.I., Hasanova N.S. Geografiya ta'limida turistik o'lkashunoslik, muzey hamda ekologik yo'nalishlarning o'rni.	87-92
15. Бекмуродова Ҳ. Н. Касб танлашга таъсир этувчи ижтимоий-психологик омиллар.	92-97
16. Боймуродова Х. Туристик рекреацияни ривожлантиришнинг географик жиҳатлари.	97-102
17. Noraliyev K.J. Dehqonobod tumanidagi muqaddas qadamjolar va ziyoratgohlar.	102-107
18. Abdiholiqova G. A. Qashqadaryo viloyati tabiiy sharoit va resurslarining shaharlar shakllanishiga ta'siri.	107-110
19. Safarov I. B. Ziyorat turizmining iqtisodiy geografik jihatlari.	111-114
20. Eshonqulova D. Q. O'zbekistonda turizm va rekreatsiyani rivojlantirishning geografik muammolari va imkoniyatlari.	114-118

21. Abdurayimov P. Q. Markaziy Osiyo sivilizatsiyasi. 118-126

22. Tuychiyev A. B. Kitob geologiya milliy tabiat bog'idan amaliy maqsadlarda foydalanish. 126-130

23. Тожиев А. И. Қашқадарё вилояти рекреация ресурсларидан фойдаланишнинг географик экологик масалалари. 130-135

II SHO'BA: O'ZBEKISTONDA MODDIY-MADANIY, ADABIY YODGORLIKLAR O'RGANILISHINING TARIXSHUNOSLIGI VA MANBASHUNOSLIGI

1. **Ergasheva Y.A., Xosiyatov X.O.** Amir Temur nomidagi Shahrisabz shahar moddiy madaniyat tarixi muzeyining xalqaro hamkorlikdagi o'rni. **136-**140

2. **Doniyorov A.X.** "Avesto" adabiy yodgorligining tarixshunosligi va manbashunosligi. **140-147**

3. **Турсунов С.Н.** Surxon vohasi janubiydagi moddiy madaniyatning Rus sharqshunoslari tomonidan o'rganilishi va uning natijalari (XIX asr – XX asr boshlari) **147-154**

4. **Kosanbayev S.K., Muldaxmetova J.I.** Мавзолеи Карахана, Айша – Биби как важный центр паломничества мусульман. **155-159**

5. **Kosanbayev K., Aydarbekova G.S., Jumatayeva J.A.** Из истории постройки мавзолея Ходжа Ахмед Яссави в наследии дореволюционных российских исследователей. **159 -163**

6. **Homidzoda O.** Асари "ал-камил фи-т-таърих"-и ибни асир. **163 - 170**

7. **Джолдыбаев Ж.Т.** Надгробный памятник козы-корпеша и баян – сулу как важный центр паломничества. **171-174**

8. **Temirov F.U.** Shahar ichidagi shaharcha. **174-180**

9. **Omonov B.N.** "Shohnoma" asari geosiyosiy bilimlarni o'rganishda muhim tarixiy manba. **181-185**

10. **Soxibov A.R.** Научно-теоретическая основа изучения историографии узбекского народа. **186-194**

11. **Rashidov O.R.** Kommunistik partiyaning mafkura jabhasidagi targ'ibotchilik faoliyati. **195-199**

12. Muhammadiyev A. Muhyining xorijiy safarlar davomidagi ijodi. **200-206**

13. **Tilayev E.R.** Miri Janda ota yohud shayx Shahobiddin Suhravardiy qadamjosi tarixi. **206 - 209**

14. **Shoymardonov I.** O'zbekistonda qishloq xo'jaligini qayta qurish jarayonlari va mehnatkashlarning turmush sharoitlari muammolari (XX asrning 20-yillar ikkinchi yarmi – 30-yillar). **209 - 216**

15. **Yaqubova D.T.** Sovet hokimiyatining Surxon-Sherobod hududlarida paxtachilikni rivojlantirish siyosati: muammolar va oqibatlar. **216-221**

16. Tog'ayeva A.Z., Yo'ldosheva B.M. Turizm rivojlanishining shahar atrof-muhitiga ta'siri (Buxoro shahri misolida). **221-226**

17. **Ochilova D. J.** O'zbekiston ziyolilarining "qayta qurish" siyosati sharoitidagi o'zlikni anglash harakatlari. **226-231**

18. Bo'riyev I. I. Aziziddin Nasafiyning so'fiylik ta'limoti rivojida ilmiy **231-238**

merosining o‘rni.
19. **Mamatillayeva S.B., Jumaboyev L.B.** Amir Temur va uning harbiy yurishlari. **238 -243**
20. Berdiyev A.A. O’rta Osiyo xonliklarining XVIII – XIX asrlarda Rossiya bilan o‘zaro savdo-iqtisodiy aloqalari to‘g‘risida ayrim mulohazalar. **243 - 250**
21. **Ahmedova G.A.** Новые подходы и перспективы в преподавании истории в процессе модернизации исторического образования. **251-257**
22. Mahmudov D.A. Abulqosim Firdavsiyning “Shohnoma” asarida Maymurg‘ hukmdorliklari siyosiy hayoti haqida ayrim ma’lumotlar. **258 -261**
23. **Baratov H.I.** Ilk o’rta asrlar Sug’dning tashqi aloqalarining Xitoy manbalarida aks etishi. **262-265**
24. **Hochiyev K.M.** Наќши мутахассисон дар ташаккули фарњанги идоракунии љомеаи муосир. **265-270**
25. **Ahmedova Sh.** Toshkent viloyatida joylashgan Zangi ota ziyoratgohi haqida mulohazalar. **270-275**
26. **Ochilov A. Q.** Jamiyat taraqqiyotida buyuk allomalarimizning ma’naviy-madaniy merosi xalqimiz uchun tarixiy manba. **275-279**
27. **Boygaziyev T.I., Boqiyev X.X., Samiyeva Z.X.** Farobiy ta’limotida mantiq ilmi va grammatikaning o‘zaro aloqasi masalasi. **279-284**
28. **Sattorov E.B.** Sug‘diy tilidagi manbalarda sug‘diylar ijtimoiy-iqtisodiy hayotining aks etishi. **284-288**
29. Rajabov O. Chor Bakr tarixiy me’moriy majmuasi xususida. **288-295**
30. Ko‘charov J.Q. Buxorodagi Amir Temur va temuriylar davri me’moriy yodgorliklari tarixidan. **295-299**
31. **Egamberdiyev F.P.** Qadimgi Sug‘d tarixshunosligi tadqiqotlarda. **300-304**
32. **Mo‘minova M.I.** Markaziy Osiyodagi etnik nizolarning ijtimoiy munosabatlarga ta’siri. **304-308**
33. **Mirzayeva S.** Nazar Eshonqul qissachiligida yangicha tasvir va bayon usuli. **309-313**
34. **Norboboyeva M.T**. O‘zbek adabiyotida yetimlik motivi. **313-317**
35. **Nishonov J.T.** Janubiy O‘zbekistonda dehqonchilik madaniyatining vujudga kelishi va rivojlanishi to‘g‘risidagi asosiy qarashlar. **317-323**
36. **Rustamov D.** Amir Temur davri nemis tarixshunoslari nigohida. **323-327**
37. **Ahmadova Z.** Abu Nasr Forobiy asarlarida komil inson g‘oyasi. **327-332**
38. **Norboboyev A.** Фарғона водийсининг антик давр ҳимоя иншоотлари ҳақида айрим мулоҳазалар. **332-335**
39. **Qurbonov A.B.** Badiiy adabiyot: mazmuni va ijtimoiy ahamiyati. **335-340**
40. **Hamidov F.T.** Yoshlar ma’naviyatini takomillashtirishda sharq faylasuflarining qarashlari. **340-345**
41. **Elmurodov L.** Тахти сангин ёдгории безаволи тоҷикон. **345-347**
42. **G‘aniyeva M.** O‘zbekistonda moddiy- madaniy yodgorliklar adabiy yodgorliklar o‘rganilishining tarixshunosligi va manbashunosligi. **347-350**
43. **Raximova A.** Islom dini ta`limotida komil inson omili. **351-354**
44. Mahmudov A.A. O‘zbek matnshunosligi taraqqiyotiga bir nazar. **354 -358**

III SHO'BA: O'ZBEKISTONDA ZIYORATGOH VA QADAMJOLAR, TURIZM XIZMATLARINI JADAL RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI

1. **Xasanov A**. Me'moriy yodgorliklar va ziyoratgohlar – noyob madaniy meros. **359 - 366**
2. **Rajabov Q.** Buxorodagi mashhur me'moriy yodgorliklar va ziyoratgohlar holati (Buxoro arki va qal'asi hamda Bahouddin Naqshband me'moriy majmuasi misolida). **366-371**
3. **Xudoyqulov T**. Yunesko kafedrasini ta'sis etish zaruriyati, undan kutilayotgan ilmiy, ijtimoiy va iqtisodiy samaradorlik (Shahrisabz shahri misolida). **371-375**
4. **Tursunov A.** Shaharlarda zamonaviy turmush tarzining omillariga oid tarixiy tahlillar. **375-379**
5. **Alqarov E**. Madaniy-tarixiy turizm. **379-385**
6. **Tilayev E.** O'zbekistonda turizm rivojlanishida muammo va imkoniyatlar. **385-388**
7. **Qandahorov A.** O'zbekistonda ichki turizmni rivojlantirishda Navoiy viloyatidagi qadamjolarning o'rni. **388-396**
8. **Bobojonov Sh**. Buyuk Sohibqiron Amir Temur mehr qo'ygan tarixiy va boqiy shaharlar – turizm yuragidir. **396-400**
9. **Usmonov M., Toshmurodov Sh., Botirova G.** Samarqand viloyati qishloq turizmini rivojlantirish istiqbollari. **400-406**
10. **Ahmedov J.** Andijon viloyatining madaniy turistik salohiyati. **406-411**
11. **Mustafoyev J**., **Rahmatillayeva Z.** O'zbekistonda ziyoratgoh va qadamjolar – vatan tarixini muhim tarkibiy qismi sifatida (Navoiy viloyati misolida). **411-420**
12. **Mustafoyev J**., **Raxmatillayeva Z.** O'zbekistonda turizm sohasini rivojlantirish istiqbollarining ayrim jihatlari (Konimex tumani misolida). **420-425**
13. **Tursunov Sh.**, **Botirov A**. Shahar muhitining yuksalishi – turizm shakllanishi omili sifatida. **425-431**
14. **Qurbonova U**. Bugungi kun turizmi va uning ekologik ahamiyati. **431-435**
15. **Olimova D**. O'zbekistonda turizmni barqaror rivojlantirishda ekoturizmning o'rni. **435-439**
16. **Xudoyorov L.** Abu Ubayda Ibn Al-Jarroh hazratlarining islom dini rivojidagi qilgan ishlariga berilgan ayrim fikrlar. **439-444**
17. **Tursunov Sh.**, **Turg'unov O., Sadriddinov A.** Turistik maqsadlar uchun zamonaviy shahar muhitini rivojlantirish omillari. **444-449**
18. **DJo'rayev M., Husenov J.** Turizm taraqqiyot kaliti: Buxoroning diqqatga sazovor joylari va muzeylari tarixi. **449-454**
19. **Niyozov S** . Tabiat turizmining estetik va ijtimoiy ahamiyati. **454-460**
20. **Ahmedov S.** O'zbekistonning Osiyo davlatlari bilan xalqaro madaniy aloqalar rivojida turizmning o'rni (1950 – 1991-yillar). **460-467**
21. **Akchayev F., Saydamov Sh.** Jizzax vohasi ziyoratgohlarining tasnifi va turlari xususida. **467-475**
22. **Savriyev J.** Navoiy viloyatiga joylashgan ziyoratgoh va qadamjolarda turizm xizmatlarini jadal rivojlantirish istiqbollari. **475-482**
23. **Savriyev J.** Navoiy viloyatida joylashgan ziyoratgoh va qadamjolar (Navbahor tumani tarixi misolida). **482-489**
24. **Hakimova M.** O'zbekistonda ziyorat turizmini rivojlantirishning istiqbollari. **489-495**
25. **Nurmatov N., Abdullayev S.** Ziyorat turizmining mohiyati va xillari. **495-500**
26. **Eshmurodov K.** Amir Temur g'ori yaqinida dam olish maskanini qurish va **500-504**

turizmni rivojlantirish.
27. **Chuliyeva O., Hazratqulova Z.** Tarixiy qadamjolarda Xo'ja Doniyor maqbarasining o'rni. **504-509**
28. **Eralov A.** O'zbekiston Respublikasida turizmni rivojlantirishda muzeylarning ahamiyati (Surxondaryo viloyati misolida). **509-515**

ILMIY NASHR

O'ZBEKISTONDA TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA MODDIY-MADANIY YODGORLIKLAR VA MUZEYLARNING O'RNI (QASHQADARYO MODDIY-MADANIY YODGORLIKLARI VA MUZEYLARI MISOLIDA)

Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya

5-may, 2022-yil

Bosishga ruxsat etildi: 04.05.2022 y.
Ofset qogʻoz. Qogʻoz bichimi: 60x84 1/16.
"Times New Roman" gar. Ofset bosma.
Hisob nashriyot t.: 32,22. Shartli b. t.: 32,30.
Adadi: 40 nusxa. Buyurtma№ 19

QarMII kichik bosmaxonasida chop etildi.
180100. Qarshi shahri, Mustaqillik koʻchasi, 225 – uy.
Telefon 91-466-80-32.